Shunday qilib, fuqarolik demokratik jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirish davlatning muhim vazifalaridan biridir. Har bir fuqaroning huquqiy ongini yuksaltirish, qonunlarni bilishi va hurmat qilishi jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlashga, adolatni mustahkamlashga va davlatning samarali ishlashiga yordam beradi. Bularning barchasi huquqiy davlatni qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish yo'lidagi muhim qadamdir.

O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy islohotlari doirasida huquqiy savodxonlik jamiyatning barqarorligi va farovonligi uchun muhim omilga aylanishi kutilmoqda. Asosiy e'tibor, Konstitutsiya va boshqa qonun hujjatlarida inson huquq va erkinliklarining himoyasi bo'yicha belgilangan normalarning aholi orasida tushuntirilishiga qaratilmoqda, chunki bu ahamiyatli jarayon jamiyatda adolat va qonun ustuvorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Yangi O'zbekistonda huquqiy savodxonlikni rivojlantirish strategiyasi davlatning asosiy maqsadlaridan biri sifatida belgilangan bo'lib, bu jarayon jamiyatda adolatni ta'minlash, qonun ustuvorligini oshirish va fuqarolik jamiyatining konstruktiv shakllanishini rag'batlantirishga qaratilgan. Huquqiy madaniyatni oshirish va huquqiy savodxonlikni mustahkamlash uchun ta'lim, oila va jamoatchilikning o'zaro hamkorligi juda muhim. Bu jarayon orqali Yangi O'zbekistonda har bir fuqaro o'z huquqlarini to'g'ri tushunib, qonunlarga rioya qilib, jamiyatda mas'uliyatli va adolatli munosabatlar rivojlantirishga hissa qo'shadi.

O'zbekistondagi ijtimoiy jarayonlar huquqiy savodxonlikni oshirishni talab qilmoqda, chunki jamiyatning barqarorligi va adolatli tamoyillarga erishish uchun huquqiy tushuncha va bilimlarga ega bo'lish juda muhimdir. Quyidagi ijtimoiy mexanizmlar bu jarayonda muhim rol o'ynaydi:

• Har bir shaxs o‘z huquqlari va majburiyatlarini to‘g‘ri anglab, ulardan foydalanish orqali o‘zini himoya qilish va ijtimoiy munosabatlarda qonunga rioya qilishga intilishga imkon beradi. O‘zbekistonda huquqiy ta'limning maktabgacha ta'limdan boshlab joriy qilinishi muhim ahamiyatga ega, chunki bu yoshlar o‘rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirishga yordam beradi.

• Jamiyatda huquqiy madaniyatning yuqori darajada rivojlanishi, o‘z navbatida, qonunbuzarliklarning kamayishiga va qonun ustuvorligining ta’minlanishiga olib keladi. Bunga erishish uchun maktablarda, oliy ta'lim muassasalarida, ommaviy axborot vositalari orqali aholi huquqiy ma'lumotlar bilan doimiy ravishda ta'minlanishi zarur.

• Huquqiy savodxonlik aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayotda faol ishtirok etishini ta’minlaydi. Fuqarolar o‘z huquqlarini bilish orqali ijtimoiy adolatga erishishga, korrupsiyaga qarshi kurashishga va qonun ustuvorligini ta’minlashga harakat qilishadi. Bu esa jamiyatning barqarorligi va taraqqiyoti uchun asosiy omillardan biridir.

O‘zbekiston Respublikasida huquqiy savodxonlikni yuksaltirish bo‘yicha qabul qilingan bir qator farmon va qarorlar davlat siyosatining muhim yo‘nalishi sifatida shakllangan. 2019-yildan 2023-yilgacha qabul qilingan PF-5618, PF-5997, PF-60, PF-158 farmonlari hamda Vazirlar Mahkamasining 741-sonli qarori jamiyatda huquqiy madaniyatni rivojlantirish va inson huquqlarini himoya qilishni kuchaytirishga qaratilgan. Ushbu siyosat ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinganida, uning ijobiy jihatlari, muammolari va rivojlantirish mexanizmlari aniq ko‘rinadi.

Huquqiy savodxonlikning falsafiy jihatlari, uning inson qadr-qimmatini himoya qilish va jamiyatda adolat tamoyillarini ta’minlashga xizmat qilishini namoyon qiladi. Yangi O‘zbekiston sharoitida adolat va qonun ustuvorligini ta’minlash, huquqiy savodxonlikning markaziy vazifasidir. Fuqarolarning qonun oldida teng bo‘lishini tushunish, huquqiy ongning asosiy elementi bo‘lib, bu jarayonning muhim maqsadi hisoblanadi.

O‘zbekistonda huquqiy savodxonlikni oshirish maqsadida turli mexanizmlar joriy qilish zarur. Birinchidan, maktablar va oliy o‘quv yurtlarida huquqiy fanlarni o‘qitishni kengaytirish muhimdir. Bu orqali yoshlar o‘rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirishga e’tibor qaratiladi. Shuningdek, interaktiv o‘quv jarayonlarini joriy qilish, yoshlar uchun huquqiy bilimlarni aniq va tushunarli shaklda yetkazishga yordam beradi. Bu usul, huquqiy savodxonlikni oshirishda samarali bo‘lishi mumkin, chunki u o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi va ular o‘z huquqlari va majburiyatlarini to‘g‘ri tushunish imkoniyatini beradi.

Qishloq joylarida aholining huquqiy ma’lumotlar bilan ta’minlanishi uchun maxsus markazlar tashkil etish, tele-radio va internet platformalari orqali huquqiy bilimlarni keng tarqatish jamiyatdagi huquqiy savodxonlik darajasini oshirishga qaratilgan muhim qadamlar hisoblanadi. Huquqiy savodxonlikni oshirishda davlat va jamoat tashkilotlari o‘rtasidagi hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirishga katta e’tibor qaratish zarur.

Yangi O‘zbekistonda huquqiy savodxonlikni yuksaltirish, ijtimoiy va falsafiy jarayonlarni uyg‘unlashtirgan holda amalga oshirilishi kerak. Bu, o‘z navbatida, jamiyatda qonun ustuvorligi, adolat va fuqarolarning ijtimoiy mas’uliyatini ta’minlaydi. Huquqiy madaniyatni shakllantirish nafaqat shaxsning shaxsiy manfaatlariga, balki jamiyatning barqarorligi va rivojlanishiga ham asosiy ahamiyatga ega.

Huquqiy savodxonlikning yuksalishi jamiyatda demokratik munosabatlar, fuqorolik jamiyati va huquqiy davlat qurish jarayonlarining muhim omili hisoblanadi. Yangi O‘zbekistonda bu jarayon davlat siyosatida ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan bo‘lib, uning ijtimoiy va falsafiy asoslarini takomillashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Biroq, bu borada hali ham to‘liq hal etilmagan masalalar mavjud. Tanqidiy tahlil qilish orqali, huquqiy savodxonlikning rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan ijtimoiy va falsafiy muammolarni aniqlash va ularga yechim topish muhim ahamiyatga ega.

Yangi O‘zbekistondagi huquqiy savodxonlikni rivojlantirish uchun maktab ta’limi, oliy o‘quv yurtlaridagi ta’lim, ommaviy axborot vositalari va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon fuqaro huquqlarini himoya qilishdan tashqari, ularning jamoatlik burchlarini tushunish va ijtimoiy mas’uliyatni qabul qilishini ham ta’minlashga qaratilgan.

Yangi O‘zbekistonda huquqiy madaniyatni oshirish maqsadida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida huquqiy savodxonlikni oshirish bo‘yicha tashabbuslar ko‘zda tutilgan.(5)

Ammo, bu jarayonda bir nechta ijtimoiy muammolar mavjud: Jamiyatda hukm surayotgan an’anaviy qarashlar va huquqiy normallarga bo‘lgan tor doiradagi munosabatlar huquqiy madaniyatning shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Fuqarolarning huquqiy ongi past darajada qolib ketishi, ayniqsa, yoshlar orasida huquqiy bilimlarning zaifligi hanuzgacha katta muammo bo‘lib turibdi. Bu holat huquqiy ta’lim tizimining samaradorligini pasaytirishi, yosh avlodning huquqiy masalalarga yondashuvini noto‘g‘ri shakllantirishi va natijada jamiyatdagi huquqiy ongni rivojlantirishdagi to‘siqlarga olib kelmoqda. O‘z vaqtida huquqiy bilimlarni kengaytirish va yangilash zarurati hali to‘liq ta’minlanmagan. Bu esa jamiyatda huquqiy madaniyatni rivojlantirishga katta to‘sqinlik qilmoqda.(6,48) I.A. Xo‘jahonovning tadqiqotiga ko‘ra, O‘zbekiston yoshlarining huquqiy savodxonligini oshirishda innovatsion yondashuvlar yetarlicha samarali qo‘llanilmayapti. Hozirgi kunda ta’lim muassasalarida

huquqiy fanlarni o‘qitish samaradorligi hali ham past darajada qolmoqda va o‘quv dasturlari zamonaviy talablar va ehtiyojlarga javob bermayapti.

Davlat tomonidan huquqiy ongni oshirish bo‘yicha tashabbuslar mavjud bo‘lsa-da, fuqaro jamoati institutlarining bu jarayondagi ishtiroki hanuz cheklangan. Huquqiy ta’lim va targ‘ibot ishlariga nodavlat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari va internet platformalar keng jalb etilmagan. Falsafiy nuqtai nazardan, huquqiy savodxonlik – bu nafaqat qonunlarni bilish, balki ularni hayotga tatbiq qilish va ijtimoiy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish jarayonidir.

Yangi O‘zbekistonni huquqiy madaniyatni shakllantirishda bir nechta falsafiy muammolar mavjud: Huquqiy madaniyatni yuksaltirishda uni milliy va diniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekistonda hanuzgacha huquq va ma’naviyat munosabati masalasi keng miqyosda ilmiy tadqiq qilinmagan. Huquqiy ong ko‘p hollarda an’anaviy va diniy qarashlar bilan to‘qnash keladi, bu esa huquqiy normalarning qo‘llanilishida ba’zi ixtiloflarga sabab bo‘ladi.(7,54)

Bizning nazarimizda, O‘zbekistonda huquqiy madaniyatni oshirishda ijtimoiy va falsafiy yondashuvlarni takomillashtirishga katta e’tibor berilmoqda. Biroq, bu jarayonda milliy va diniy qadriyatlar, an’anaviy qarashlar hamda huquqiy normalar o‘rtasidagi zidiyatli nuqtalar hanuz dolzarb bo‘lib qolmoqda. Diniy qarashlar va huquqiy normalar o‘rtasidagi munosabat huquqiy pluralizm deb ataladi. O‘zbekistonda huquqiy tizim sekulyar davlat tamoyillariga asoslangan bo‘lsa-da, jamiyatdagi ko‘pchilik ma’naviy va diniy qadriyatlarga e’tibor qaratadi. Bu esa huquqiy normalarning ijtimoiy qabul qilinishida qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin.

- Xulosa va takliflar
(Conclusion/Recommendations).

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlar va huquqiy madaniyatni rivojlantirish jarayonlari fuqarolarni o‘z huquqlari va majburiyatlarini to‘g‘ri anglashga, jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlashga, adolatli jamiyatni shakllantirishga qaratilgan muhim qadamdir. Huquqiy savodxonlik, o‘z navbatida, fuqaro va jamiyatning qonunlarga bo‘lgan munosabatini belgilaydi. Shaxslarning huquqiy ongini oshirish, qonunlarga hurmat va ularga amal qilishni ta’minlash, jamiyatda adolatni, barqarorlikni va erkinlikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonlar ta’lim tizimi, oila, jamoat tashkilotlari va davlatning faol hamkorligi orqali amalga oshirilishi kerak.

Shu bilan birga, huquqiy madaniyatni rivojlantirishda mavjud ijtimoiy va falsafiy to‘siqlarni, an’anaviy qarashlar va diniy qadriyatlar bilan yuzaga keladigan zidiyatlarni bartaraf etish muhim vazifadir. Huquqiy va ma’naviy qadriyatlar o‘rtasidagi uyg‘unlikni topish, jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni va huquqiy tizimning samaradorligini oshirishda katta ahamiyatga ega. O‘zbekistonda huquqiy madaniyatni rivojlantirishda yangi metodlar va innovatsion yondashuvlarni qo‘llash zarur, ayniqsa huquqiy ta'limni yoshlar orasida samarali tarzda kengaytirish shu jarayonlar bilan hamohang olib borilishi kerak.

Takliflar:

1.O‘zbekistonning barcha ta’lim bosqichlarida (maktabgacha ta’limdan boshlab oliy ta’limga qadar) huquqiy bilimlarni kengaytirish, bu orqali yoshlarni huquqiy madaniyat va ongni shakllantirishga katta e’tibor qaratish kerak. O‘quv dasturlarini zamonaviy talablarga moslashtirish, huquqiy bilimlarni o‘rgatishda interaktiv va amaliy yondashuvlarni qo‘llash samarali bo‘ladi.

2.Ommaviy axborot vositalari (televideniye, radio, internet) orqali huquqiy ta'limni kengaytirish va aholini huquqiy bilimlar bilan ta’minlash kerak. Aholi o‘rtasida huquqiy savodxonlikni oshirishda axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining keng qo‘llanilishi ahamiyatlidir.

3.Huquqiy madaniyatni shakllantirish jarayonida ijtimoiy targ‘ibot va ta’lim tizimining rollari muhimdir. Yoshlar orasida huquqiy ongni shakllantirish uchun targ‘ibot ishlarini kuchaytirish, ularni jamiyatdagi huquqiy muammolarni hal qilishga jalb qilish kerak.

4.Jamiyatda diniy va an’anaviy qarashlar bilan huquqiy normallar o‘rtasidagi zidiyatlarni bartaraf etish zarur. Huquqiy tizimni ijtimoiy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish uchun keng miqyosda ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish va omma fikrini shakllantirish zarur.

5.Huquqiy savodxonlikni oshirishda innovatsion yondashuvlar va zamonaviy metodlarni qo‘llash, masalan, interaktiv huquqiy o‘quv dasturlari, onlayn platformalar va mobil ilovalar yordamida huquqiy bilimlarni keng targ‘ib qilish lozim.

6.Fuqarolik jamiyati institutlarini huquqiy ta’lim va targ‘ibot jarayonlariga keng jalb qilish zarur. Nodavlat tashkilotlari, jamoat tashkilotlari va mahalliy jamiyatlar huquqiy madaniyatni rivojlantirishda muhim o‘rin tutishi kerak.

Shunday qilib, huquqiy savodxonlik va madaniyatni oshirish jarayonida davlat, ta'lim tizimi, jamoat tashkilotlari va fuqarolar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, shu bilan birga, ijtimoiy va falsafiy yondashuvlarni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati

1. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, kat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar. - Toshkent: «O'zbekiston», 2017. - 104 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1- jild. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017.– 592 b.

3. Amirov Z. "Huquqiy xabardorlikni oshirish huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish vositasi sifatida" // Jamiyat va boshqaruv –2015. №3

4. "Huquqiy yetuklik -barkamollikka eltadi". O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. T.: Adolat. 2011. B-78.

5. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082-сон, 18.03.2022 й., 06/22/89/0227-сон, 21.04.2022 й., 06/22/113/0330-сон; 10.02.2023 й., 06/23/21/0085-сон; 03.01.2024 й., 06/24/221/0003-сон; 28.12.2024 й., 06/24/227/1089-сон. https://lex.uz/docs/5841063

6. Xo'jaxonov I.A. *O'zbekiston yoshlarining huquqiy madaniyatini yuksaltirishning innovatsion metodlari.* Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent — 2024. –B.49.

7. Saliyev U.X. *Huquqning ijtimoiy mohiyati va falsafiy tahlili.* Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Andijon-2024. –B.54.

8. http://www.srdlawnotes.com/2016/03/legal-literary-and-objects-of-legal.html

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Xonimov Sharofutdin Bahodirovich
O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi markaziy apparati bo‘lim boshlig‘i
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
sharofiddin_2017@mail.ru

YOSHLAR YETAKCHILARI BU – JAMIYATDA YOSHLARNING IJTIMOIY-MADANIY JIHATDAN IJTIMOIYLASHUVIGA MANIPULYATIV TA’SIR KO‘RSATUVCHI DAVLAT XIZMATCHILARIDIR

Annotatsiya. *Mazkur maqolada “yoshlar yetakchilari”, “ijtimoiy”, “manipulyativ”, “siyosiy”, “faollik”, “ijtimoiy”, “yoshlar”, “yoshlar daftari” tushunchalari to‘g‘risida alohida adabiyotlarga tayangan holdagi to‘g‘ri va aniq ma’lumotlar keltirilgan. Shu bilan bir qatorda “madaniyat”, “ma’naviyat” va “mafkura” tushunchalarining har birini tahlil qilib misollar bilan aniq va batafsilroq yozib chiqilgan. Shuningdek, mazkur tushunchalar xususida ilmiy talqinlar misollar bilan keltirib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar. *Madaniyat, tizim, yoshlar yetakchisi, ma’naviyat, yangi O‘zbekiston, respublika, milliy, siyosatchi, lider.*

Khonimov Sharofutdin Bahadirovich
Youth Affairs Agency of the Republic of Uzbekistan head of the department of the central apparatus
Doctor of Philosophy in Philosophy (PhD)

YOUTH LEADERS ARE GOVERNMENT OFFICIALS WHO EXERT A MANIPULATIVE INFLUENCE ON THE SOCIO-CULTURAL SOCIALIZATION OF YOUNG PEOPLE IN SOCIETY

Abstract. *This article provides accurate and reliable information on concepts such as “youth leaders,” “social,” “manipulative,” “political,” “activity,” “social involvement,” “youth,” and the “Youth Register,” based on specialized literature. In addition, the concepts of “culture,” “spirituality,” and “ideology” are thoroughly analyzed with clear and detailed examples. Scientific interpretations of these concepts are also presented and supported with relevant examples.*

Keywords. *Culture, System, Youth leader, Spirituality or Moral values, New Uzbekistan ideology, spirituality, new Uzbekistan, republic, national, politician, leader.*

Хонимов Шарофутдин Бахадирович
Агентство по делам молодежи Республики Узбекистан заведующий отделом центрального аппарата
Доктор философии в области философии (PhD)

ЛИДЕРЫ МОЛОДЁЖИ – ЭТО ГОСУДАРСТВЕННЫЕ СЛУЖАЩИЕ, ОКАЗЫВАЮЩИЕ МАНИПУЛЯТИВНОЕ ВЛИЯНИЕ НА СОЦИАЛЬНО-КУЛЬТУРНУЮ СОЦИАЛИЗАЦИЮ МОЛОДЁЖИ В ОБЩЕСТВЕ

Аннотация. *В данной статье представлены чёткие и точные сведения о таких понятиях, как «молодёжные лидеры», «социальный», «манипулятивный», «политический», «активность», «социальность», «молодёжь», «реестр молодёжи», основанные на специализированной литературе. Наряду с этим, понятия «культура», «духовность» и «идеология» проанализированы отдельно, с приведением конкретных примеров и более подробным объяснением. Также в статье представлены научные толкования этих понятий, подкреплённые соответствующими примерами..*

Ключевые слова. *Культура, система, лидер молодёжи, духовность, Республика идеология, Национальный, Политик духовност, новый Узбекистан, республика, национальный, политик, лидер.*

O‘zbekiston yoshlar mamlakati hisoblanadi, shu sabab yurtimizda yoshlar siyosati davlat siyosatining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi.

O‘zbekistonda yoshlarni jismonan sog‘lom, ma’nan yetuk etib tarbiyalash siyosatning eng muhim masalasiga aylandi. Prezident Sh.Mirziyoyev: – “har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta’minlaydigan yosh avlodning sog‘lom va barkamol bo‘lib voyaga yetishi hal qiluvchi o‘rin tutadi. Shu sababli biz islohotlarimiz ko‘lami va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azmu

shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz”[37], deb ta’kidlaydi. Bu esa, O‘zbekistonda yoshlarni ijtimoiy himoya qilish siyosatini tarixiy nuqtai nazardan tadqiq qilish, sohada olib borilayotgan islohotlarning mohiyatini ochib berish zaruratini taqozo etadi. Shuningdek, “bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovasion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi”[38].

Mamlakatimizda yoshlarning barcha toifalarini keng qo‘llab-quvvatlash, ularning imkoniyat va salohiyatini ro‘yobga chiqarish maqsadida davlatimiz rahbari tashabbusi bilan mahallalarda yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etilganiga qariyb uch yil bo‘lmoqda. Shu vaqt davomida yetakchilar mahalladagi yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli va maqsadli tashkil qilish, og‘irini yengil qilish, ularga munosib turmush sharoitini yaratish barobarida, yigit-qizlarimizning ishonchli hamkori, samimiy maslahatgo‘yi va eng yaqin do‘stiga aylandi.

Prezidentimizning 2022 yil 19 yanvardagi “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida yoshlar yetakchisi lavozimi bilan birga, yoshlar bilan ishlashning yangicha boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, ular bilan ishlashning vertikal tizimini yaratish, yoshlarning jamiyatda ijtimoiy-madaniy jihatdan ijtimoiylashuvi, yoshlar muammolarini bevosita mahallalarda hal etish, ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarning samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari ham belgilangan.

Bir so‘z bilan aytganda, yoshlarga oid davlat siyosatini ro‘yobga chiqarishning tub mohiyati – hech bir yosh e’tibordan chetda qolmasligiga qaratilgan. Shuning barobarida Yetakchi bugungi kundagi davlat rahbarining mahalladagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri vakili, yoshlarning haqiqiy lider hisoblanadi.

Bunday dolzarb funksiyani bajarishi uchun mahalladagi yoshlar yetakchisi qanday fazilat va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim, uning zimmasiga qanday vazifalar yuklatilgan ?

Yoshlar yetakchisi lavozimiga ustuvor ravishda oliy ma’lumotli, istisno tariqasida o‘rta maxsus ma’lumotli, yoshlar bilan ishlash tajribasiga ega, shaxsiy fazilati, fidoyiligi, sadoqati va vatanparvarligi bilan yoshlarga namuna ko‘rsatgan holda o‘z ortidan ergashtira oladigan shaxslar tanlanib, saralash asosida ishga qabul qilindi. Shuningdek, yoshlar yetakchisiga qo‘yiladigan ma’naviy-ma’rifiy, professional va shaxsiy talablarga ham alohida e’tibor qaratildi. Sababi Yetakchilar bugungi kunda mahalladagi yoshlarning haqiqiy lideri, ularni jamiyatda ijtimoiy-jihatdan faollikga undaydigan va manipulyativ ta’sir ko‘rsatadigan davlat xizmatchisidir.

Ta’kidlash joizki, mahallalarda yoshlar yetakchilari faoliyati yo‘lga qo‘yilgani yosh avlod muammolarini bevosita mahallalarda hal etish imkonini berdi hamda o‘tgan qariyb uch yil mobaynida muhim natijalarga erishildi.

Yoshlar yetakchisining yettita ustuvor vazifaci

Yoshlar yetakchisi zimmasiga yoshlarni o‘z orqasidan ergashtirish, ularni ijtimoiy jihatdan faol qatlamga aylantirish maqsadida yettita ustuvor vazifa yuklangan bo‘lib, bunday murakkab vazifalarni bajarish yoshlar yetakchilaridan bilim, shijoat va yetakchilik qobiliyatini talab etadi. Shu o‘rinda, mazkur yetti yo‘nalishdagi vazifalarning amaldagi ijrosi, erishilgan natijalar tahliliga to‘xtalsak.

Birinchi vazifa: davlatning g‘amxo‘rligi va e’tiborini kutayotgan hamda ko‘makka muhtoj yoshlar bilan ishlash

Davlatimiz rahbari raisligida yoshlar bilan ishlashning yangicha tizimini joriy etish borasidagi dolzarb vazifalarga bag‘ishlab o‘tkazilgan yig‘ilishda 14 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlarning ijtimoiy ahvoli, qobiliyati va qiziqishlari o‘rganilib, ularning jamiyatda ijtimoiy jihatdan moslashuvi hamda olib borilayotgan ishlarni yangicha asosda, tizimli tashkil etish yuzasidan topshiriqlar berilgan edi[39].

Bu topshiriqdan kelib chiqib, Respublikamizdagi 9 452 ta mahallada 8,3 mln nafar “Yoshlar balansi” shakllantirildi. Unga ko‘ra, yaxshi o‘qiyotgan, tadbirkorligini yo‘lga qo‘ygan, rasmiy sektorda ishlaydigan, qobiliyati bor, ijtimoiy faol bo‘lgan 6,4 million yosh “yaxshi” toifaga, turmush taqozosi bilan rasmiy sektordan ish topa olmagan, lekin iqtisodiy faol 2,7 million yosh “o‘rta” toifaga kiritildi. Davlatning g‘amxo‘rligi va e’tiborini kutayotgan hamda ko‘makka muhtoj 167 ming yigit-qiz “ahvoli og‘ir” toifaga ajratib olindi.[40]

Mazkur amaliyot juda muhim ahamiyat kasb etdi, sababi, har bir yoshga avvalo e’tibor zarur, uning

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 30 dekabr. // https://president.uz/uz/lists/view/4057

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2017 yil 22 dekabr, http://www.ach.gov.uz/uz/lists/view/54

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar masalasiga doir o‘tkazilgan yig‘ilish kun tartibidan olingan. 2023 yil 11 martdagi videoselektor yig‘ilishi.

4 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar masalasiga doir o‘tkazilgan yig‘ilish kun tartibidan olingan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar bilan o‘tkazilgan ochiq muloqoti 2025 yil, 14 fevraldagi, davlat rahbarining ma’ruzasidan olingan.

rivojlanishi, yetuk mutaxassis bo‘lib shakllanishi va ijtimoiy faol qatlamga aylanishi uchun. Ko‘pgina yoshlar huquqbuzarlik va jinoyat ko‘chasiga aynan jamiyat e’tiboridan chetda qolgani tufayli kirib qolgan. Rahbarlarning ularga yo‘l ko‘rsatishi, har tomonlama qo‘llab-quvvatlashi ushbu tashabbus negizida turibdi.

Ikkinchi vazifa: yoshlar bandligini ta’minlash, ularni kasb-hunarga o‘rgatish

Bugungi kunda yangi ish o‘rinlarini yaratish va eng avvalo, yoshlar bandligini ta’minlash, ularning tadbirkorlik faolligini qo‘llab-quvvatlash, ishga muhtoj yoshlarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kengaytirish masalalari ayniqsa dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Har yili mehnat bozoriga 600 mingdan ortiq yoshlar kirib kelmoqda. “Yoshlar balansi” asosida 377 ming nafar yoshlar bandligi ta’minlandi.

Ishsiz yoshlar 2 karra kamaydi (2016 yildagi 863 mingdan 2024 yilda 377 mingga). “Ishsizlikdan holi mahallalar” soni 1 ming 889 taga yetdi.

Uchinchi vazifa: “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, imtiyozlardan samarali foydalanishiga ko‘maklashish

Mamlakatimizda yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ayniqsa ijtimoiy himoyaga muhtoj, turmush sharoiti og‘ir, kam ta’minlangan oilalarning farzandlari, chin yetim va nogironligi bo‘lgan yoshlarga manzilli ko‘maklashish bo‘yicha mutlaqo yangicha tizim yaratildi.

Bunda tizim sifatida “Yoshlar daftari”ning o‘rnini alohida ta’kidlash lozim. Ushbu platforma ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik qo‘llab-quvvatlashga, bilim va kasb o‘rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bo‘lgan iqtidorli yoshlarning muammolarini aniqlash, bartaraf etish va nazoratini olib borish bo‘yicha ma’lumotlar bazasi hisoblanadi.

“Yoshlar daftari” orqali yordamga muhtoj yoshlarga o‘tgan 4 yil davomida 1,7 trillion so‘mlik ko‘maklar ko‘rsatilgan. Yoshlar yetakchilari tomonidan mahallalarda xatlov o‘tkazilib, 5 152 237 nafar – “yashil”, 3 097 787 nafar – “sariq” va 122 715 nafar – “qizil” toifadagi “Yoshlar balansi” shakllantirildi. Ya’ni Respublika bo‘yicha ijtimoiy jihatdan faol, uncha faol bo‘lmagan va ancha faol qatlamga kiruvchi yoshlar bilan Yetakchilar doimiy ravishda ishlarb kelmoqda.

To‘rtinchi vazifa: Yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash

Bugungi kunda mamlakatda yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni madaniyat, san’at va sportga keng jalb qilish masalalariga katta e’tibor qaratilmoqda.

Davlatimiz rahbarining “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni (67-maqsadi)da belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlash maqsadida joriy etilgan 5 bosqichli (mahalla-sektor-tuman-hudud-respublika) “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida yoshlar madaniyat, san’at, sport, kitobxonlik, IT yo‘nalishlari bo‘yicha 14 dan ortiq tanlov va musobaqalarda ishtirok etib kelmoqda.

Bunday tanlov va musobaqalarda yoshlar juda faol qatnashmoqda. Bu esa o‘z navbatida, yoshlarni ommaviy sportga jalb etish, ular o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish va boshqa ma’daniy-ma’rifiy tadbirlarni samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunga qadar Yetakchilar tomonidan 8.3 mln yoshlarning bo‘sh vaqtlari maqsadli tashkil qilindi.

Beshinchi vazifa: huquqbuzarlikka moyil yoshlar bilan tizimli ishlash

Yoshlar yetakchisining muhim vazifalaridan biri huquqbuzarlikka moyil yoshlar bilan tizimli ishlashdir. Bugungi kunda yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikni jilovlash masalasi dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Achinarlisi, jinoyat sodir etgan shaxslarning har uchinchisini yoshlar tashkil qilayotgan bo‘lib, jinoyat qilishga undaydigan sabablar, holatlarni aniqlash va bartaraf etish choralarini yanada takomillashtirishni davrni o‘zi taqozo qilmoqda.

Bu boradagi ishlar mahallalarda 5 ta yo‘nalishda tashkil etilayotgan bo‘lib, har bir yo‘nalish o‘zida boschichma-bosqich amalga oshirilishi kerak bo‘lgan tadbirlar majmuini qamrab olgan. Xususan:

- jinoyat sodir etishga moyil bo‘lgan yoshlar ro‘yxati shakllantirilib, (shu jumladan, “og‘ir” toifadagi yoshlar) ular bilan individual ishlash;

- maishiy muammosi mavjud ota-onalar (oilaviy ajrimdagi va notinch oila farzandlarining ota-onalari) bilan alohida ishlash;

- ta’lim muassasalari (maktab, kollej, texnikum, oliy o‘quv yurti)dagi deviant xulq-atvorli yoshlar bilan individual ishlash;

- har bir mahallada “ko‘cha sardorlari” tizimi orqali profilaktik tadbirlar, vatanparvarlik va sport tadbirlariga uyushmagan yoshlar vakillarini jalb qilish;

- har bir mahalla hududida jinoyatchilik sodir etilishi ehtimoli yuqori bo‘lgan jinoyatchilik ob’yektlari (tashlandiq bino- inshootlar, tungi klub va boshqa) bo‘yicha ishlarni alohida tashkil etish.

Jinoyatga moyil yoshlar bilan ishlashni tizimli tashkil etishda “Toshkent viloyati namunasi” asosida viloyatdagi 32 ming 868 tarbiyasi og‘ir yoshlar bilan “fuqarobay” shug‘ullanishni raqamlashtirish choralari ko‘rilmoqda.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida yoshlar o‘rtasidagi jinoyatchilik ko‘rsatkichlari joriy yilning aprel oyida o‘tgan yilga nisbatan 18,6 foizga kamayishiga erishildi.

Oltinchi vazifa: iste’dodli o‘g‘il-qizlarni qo‘llab-quvatlash, yoshlarning intellektual jihatdan kamol topishiga ko‘maklashish

Bugungi globallashuv davri iqtidorli yoshlar qobiliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishni va buning uchun yangicha usul hamda vositalardan foydalanishni taqozo etmoqda.

Shu bois, mamlakatimizda iqtidorli yigit-qizlar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni yanada jadallashtirish, ularni ilmiy-texnik faoliyatga keng jalb qilish, olis hududlarda istiqomat qilayotgan yoshlarning bilim, ko'nikma va malakasini oshirish, innovasion g'oyalarini amaliyotga tatbiq etish hamda hayotda o'z o'rnini topishiga ko'maklashishga qaratilgan ishlarni tizimli tashkil etish choralari ko'rilmoqda.

"Yoshlar yetakchisi" tomonidan chekka-chekka hududlarda istiqomat qilayotgan 27 mingga yaqin iqtidorli yoshlar kashf etilib, ularning istak va maqsadlari yo'lida ko'maklashildi.

Misol uchun, 2024 yilda bo'lib o'tgan fan olimpiyadasida 52 nafar yoshlar ishtirok etdi, 411 nafar yoshlar xorijiy davlatlardagi nufuzli oliygohlarda ta'lim olmoqda.

2025 yilga qadar loyiha asosida 1 milliondan ortiq kitobxon yoshni kashf etish, faol kitobxonlarni doimiy rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish ko'zda tutilgan.

Yoshlarning ijodiy iqtidorini ularning ijtimoiy tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash maqsadida 2024 yildan boshlab barcha hududlarda bosqichma-bosqich "Kreativ park"lar faoliyati yo'lga qo'yilmoqda.

Yettinchi vazifa: xorijdagi vatandosh yoshlar bilan ishlash va ularni qo'llab-quvvatlash

Bugungi kunda tashqi migratsiyadagi vatandosh yoshlar bilan ishlash va ular bilan aloqalarni mustahkamlash bo'yicha alohida elektron platforma yaratilmoqda. Ushbu platforma orqali xorijiy mamlakatlardagi barcha migrant yoshlar o'zlarini o'ylantirayotgan muammolar yuzasidan to'g'ridan to'g'ri murojaat qilishi mumkin bo'ladi. E'tiborlisi, murojaat etuvchilar ko'targan masalalar ijrosi yuzasidan doimiy monitoring olib boriladi.

Shuningdek, ushbu yo'nalishdagi ishlarni samarali tashkil etish maqsadida "Yo'l xarita"si ishlab chiqiladi. Bu esa xorijiy davlatlardagi vatandosh yoshlarimizning murojaatlari o'z vaqtida o'rganilib, muammolari hal bo'lishiga zamin yaratadi.

O'zbekiston yoshlari umumjahon assosiatsiyasi vakillari bilan mahalladagi yoshlar yetakchilari o'rtasida ham o'ziga xos hamkorlik o'rnatilgan. Xususan, yoshlar yetakchilari assosiatsiya vakillari ko'magida o'z mahallasidan xorijga chiqib o'qiyotgan yoki ishlayotgan yoshlar to'g'risida zarur ma'lumotlarni olish, ularga yordam ko'rsatish imkoniga ega bo'lmoqda. Zarur hollarda ularni yurtimizga qaytarish masalalarida ham hamkorlikda ish olib borilmoqda.

Ikki burch: Kitobxonlik va xorijiy tillarni bilish

Yuqorida mahalladagi yoshlar yetakchilarining asosiy vazifa va faoliyat yo'nalishlariga qisqacha to'xtalib o'tdik. Ayni paytda, ularning ikkita muhim burchi borligini ham alohida ta'kidlash lozim.

Bulardan biri – **yoshlar yetakchilarining kitobxon bo'lishi.**

O'rganishlar natijaciga ko'ra, muntazam kitob o'qiydigan shaxslarda jamiyat hayotida faol ishtirok etishga intilish hamda boshqalarni ham o'zi kabi tashabbuskor bo'lishga undashga moyillik yuqori bo'ladi. Mutolaa bilan band bo'lgan yoshlar orasida jinoyatchilik va huquqbuzarlik holatlari kamayishi tendensiyasi ham kuzatilgan.

2020 yil 14 dekabrda Vazirlar Mahkamasining "2020-2025 yillarda Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risi"dagi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda belgilangan vazifalar ijrosini ta'milash, kitobxonlik madaniyatini keng yoyish va yoshlarning kitobga muhabbatini oshirishda yoshlar yetakchilari ham o'ziga xos o'rin tutadi. Shundan kelib chiqib, yoshlar yetakchilari zimmasidagi burchlardan biri, bu – har oyda turli yo'nalishda kamida bir dona kitob o'qish va o'z kitobxonlik madaniyatini oshirishdan iborat.

Shaxs tasavvurini kengaytirish, ijodiy va noodatiy fikrlashini rivojlantirishda, madaniy va axloqiy saviyasini yuksaltirishda badiiy, ilmiy va ilmiy-ommabop adabiyotlarning o'rni beqiyos. Aniqrog'i, mutolaa yoshlar yetakchisining mustaqil fikrlash salohiyatini rivojlantiradi, og'zaki va yozma nutqini o'stirib, o'z fikrlarini ilmiy-amaliy jihatdan asoslash malakalari shakllanishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, ularda yoshlarga namuna bo'ladigan kitobxonlik madaniyati shakllanadi.

Yetakchining kitobxon va notiq bo'lishi, yoshlar orasida fikrini erkin bayon etishi mahalla yoshlarida ishonchni, motivatsiyani kuchaytirib, ularning turli sohalarda yuqori natijalarga erishishida muhim turtki bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, yoshlar yetakchisining kitob mutolaa qilish orqali mahalladagi yigit-qizlarni ergashtirish jarayoni "Shaxsiy o'rnak va namuna – eng yaxshi targ'ibot" shiori ostida o'tishi samaradorlik ko'rsatkichini yanada oshiradi.

Yoshlar yetakchisi zimmasidagi yana bir burch – **xorijiy tillarni bilish.**

O'ylaymizki, bunday institutni shakllantirishda mahalladagi yoshlar yetakchilari muhim funksional vazifani bajaradi. Chunki ular zimmasiga yuklatilgan majburiyatlar kelajagimiz egalari bo'lmish yoshlarga to'g'ridan-to'g'ri daxldor bo'lib, bu mamlakatimizning ertangi kunini barpo etish bilan teng bo'lgan muhim ijtimoiy-siyosiy jarayondir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –T:. O‘zbekiston, 2017.– 32.b

2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T:. O‘zbekiston, 2017.– 56 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – B. 496.

4. Nik Bostrom: Jivem li мы v kompyuternoy simulyatsii. https://habr.com/ru/post/516598/

5. V.I.Danilov-Danilyan, Reyf I.Ye. Biosfera i sivilizatsiya: v tiskax globalnogo krizisa. – Moskva: Progress, 2018. – S. 34.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Karimov Islomjon Isroiljon o'g'li
NamDPI 1-kurs tayanch doktoranti
Gmail:karimovislomjon073@gmail.com

AXBOROTLASHAYOTGAN JAMIYATDA YOSHLARNING TAFAKKUR TARZIDAGI O'ZGARISHLAR

Annotatsiya: *mazkur maqola ijtimoiy jarayonlarda tobora an'anaviy qadriyatlarning zamonaviy madaniyat ko'rinishlari bilan raqobati sharoitida yoshlarning ushbu jarayonlarga munosabati va dunyoqarashlaridagi tub o'zgarishlarning rivojlanib borishi masalalarini tahlil qiladi. Uning natijalari mafkuraviy jarayonlar, ijtimoiy tafakkurning yoshlardagi rivojlanish xususiyatlarini axborotlashuv jarayonlari yuzasidan o'rgangani uchun ham dolzarb.*

Kalit so'zlar: *axborot makoni, yoshlar, submadaniyat, ijtimoiy tafakkur, globallashuv, madaniy integratsiyalashuv, axborot jamiyati.*

Karimov Islomjon Isroiljon o'g'li
1st year PhD student at NamSPI.

CHANGES IN THE THINKING OF YOUTH IN THE INFORMATION SOCIETY

Abstract: *This article analyzes the issues of the development of fundamental changes in the attitude of young people to these processes and their worldviews in the context of the increasing competition of traditional values with modern cultural manifestations in social processes. Its results are also relevant for studying the features of the development of ideological processes, social thinking in young people in the context of informatization processes.*

Keywords: *information space, youth, subculture, social thinking, globalization, cultural integration, information society.*

Каримов Исламджон Исроилджонович
Базовый докторант 1-го года обучения в НамДПИ

ИЗМЕНЕНИЯ В МЫШЛЕНИИ МОЛОДЕЖИ В ИНФОРМАЦИОННОМ ОБЩЕСТВЕ

Аннотация: *В статье анализируются вопросы развития принципиальных изменений в отношении молодежи к этим процессам и ее мировоззрении в условиях усиливающейся конкуренции традиционных ценностей и современных культурных проявлений в общественных процессах. Его результаты актуальны еще и потому, что изучают особенности идеологических процессов и развития социального мышления у молодежи в контексте информационных процессов.*

Ключевые слова: *информационное пространство, молодежь, субкультура, общественное мышление, глобализация, культурная интеграция, информационное общество.*

Kirish

Globallashuv va modernizatsiyalashuv tobora insoniyatning, jumladan yoshlarning mafkuraviy dunyoqarashida aks etayotgan va bunda jamiyatning axborotlashuv darajasi muhim o'rin tutayotgani axborot makonining shakllanishi va rivojlanishidagi muhim xususiyatlarni tahlil qilishni zaruratga aylantirmoqda. Mafkuraviy tahdidlar, axborot tarafkashligi kabi muarakkab jihatlar orqali yoshlarning mafkuraviy immunitetini zaiflashtirishga intiluvchi vayronkor kuchlarni aniqlash va ularning faoliyatiga qarshi kurashish uchun ham jarayon ilmiy-ma'rifiy o'rganishni talab etadi. O'zbekistonda ham axborotlashuvning ijobiy tendensiyasiga erishish jamiyatning ustuvor manfaatlarini o'zida ifodalaydi.

Adabiyotlar tahlili

Jamiyat axborotlashuvining yoshlar tafakkuri bilan bog'liq jihatlarini tadqiq etuvchi ilmiy izlanishlar B.Sugarman, D. Crystal, D. Alistair, W. Quine, D. Bell, B. Manfred, O.Wilson kabi tadqiqotchilarning ilmiy tadqiqotlaridan keng o'rganilgan. Shuningdek axborot siyosatiga doir huquqiy masalalar uchun xalqaro va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidan foydalanilgan. Yurtimizda ilmiy tadqiqot ishi mavzusiga doir izlanishlar olib borgan Jumaniyozov Q.Nazarov. X. Sobirova, M. Nigmanova U. Begmatov, A. Ochildiev, O. Salimov. Sh.

Barotov, G. Navro‘zova va boshqa mualliflarning asarlari va tadqiqotlaridan ham foydalanilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Mavzuni o‘rganishda tizimli tahlil, qiyosiy tadqiq etish, umumlashtirish kabi tadqiqot metodlaridan foydalanilgan va bunda holislik, ilmiylik tamoyillariga e’tibor qaratilgan. Mavzuni tadqiq etishda barcha jamiyatlarga muvofiq bo‘la oladigan umumiy jihatlarni yoritishga va jarayonning yaqin davrlarda rivojlanishini prognozlashga e’tibor qaratilgan.

Tahlillar va natijalar

Yoshlarning dunyoqarashiga axborotlashgan jamiyatning qay tarzda ta’sir ko‘rsatishi axborot makonida mavjud axborot manbalarining mazmuni, sifati, makon va zamon munosabatlarida qay darajada dolzarbligi, qamrovi kabi muhim jihatlardan kelib chiqib ko‘rib chiqilishi mumkin.

Axborot jamiyati bu axborotdan foydalanish, yarati sh, tarqatish, manipulyatsiya qilish va integratsiya qilish muhim faoliyat bo‘lgan jamiyat yoki submadaniyat. [1] Aynan yoshlarga axborot qabul qiluvchi sifatida alohida e’tibor qaratilishi ularning jamiyat ijtimoiy tafakkurida tub yangilanishlarni amalga oshiruvchi va ushbu yangilanishlarni qabul qilishga tayyor qatlam ekanligidan kelib chiqadi.

Bunda yoshlar dunyoqarashning turli ko‘rinishlari bo‘lgan huquqiy, diniy, ekologik, ijtimoiy, siyosiy kabi tafakkur yo‘nalishlarida an’anaviylikdan butunlay uzilib qolmaydilar. Shu bilan bir qatorda, vorisiylik tamoyiliga asoslangan dunyoqarashning turli ko‘rinishlarida aksiologik qadriyatlarga zamonaviy tafakkur elementlari shiddat bilan ta’sir ko‘rsatib boradi. Axborotlashuv ushbu uzluksiz ilgarilanma mafkuraviy jarayonda yo‘naltiruvchi funksiya bo‘lib qoladi. Inson axborot makoniga monand ravishda atrofidagi voqea-hodisalar va o‘zligini anglashdagi intilishlarida o‘z pozitsiyasini shakllantiradi. Axborot ulashuvchi har bir omil ta’lim tizimidan tortib ommaviy axborot vositalari yoki jamiyatning asriy yoki zamonaviy qadriyatlari bo‘ladimi inson tafakkurida o‘z aksini topadi.

Shuning uchun ham O‘zbekistonda axborot siyosati yuritilishida xalqimizga, jumladan yoshlarga sog‘lom axborot makonini ta’minlashga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida PF-158-son Farmonida ham ushbu islohotlarni kuzatishimiz mumkin. Jumladan, Milliy axborot maydonida qonunchilikka rioya etilishini ta’minlash, axborotdan foydalanish madaniyatini yuksaltirish hamda aholini yot va destruktiv ma’lumotlar ta’siridan himoya qilish, radikallashuvning oldini olish kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. [2] Axborotlashuvning yoshlar tafakkuriga ko‘rsatadigan ta’siriga e’tibor qaratilsa, ushbu jarayonlardagi muhim tendensiyalarni ilg‘ash mumkin bo‘ladi.

Avvalambor, yaqin bir necha asrlardan beri jadallashib borayotgan informatsion inqilob yoshlarning fikrlash doirasini har qachongidan ko‘ra tez o‘zgarishlarga moyilligini oshirmoqda. Katta yoshli jamiyat qatlami va yosh avlod vakillari o‘rtasidagi bunday tafovutlar ayniqsa turli sohalarda moodernizatsiyalashuv va axborotlashtirish ildamroq yuz berayotgan davlatlar yoki jamiyatlarda yaqqol seziladi. Ayrim tadqiqotchilar yoshlar madaniyatini “kattalar dunyosi bilan ziddiyatli” qadriyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan sifatida tavsiflaydilar. [3] Yoshlarning estetik dunyoqarashi yuzasidan ushbu jarayonni kuzatiladigan bo‘lsa, moda, nafosat va did borasidagi qadriyatlarda farqlanish shitob bilan tez o‘zgarmoqda. Avvallari insonlar yangilanishlarga bu darajada katta e’tibor bermaganlari holda bugungi jamiyat yoshlari tezlik bilan bunday munosabatni taqozo qilmoqda.

Kiyinish, san’at va ijtimoiy munosabatlardagi har bir jihat bugun o‘n yilga ham bormasdan yangilanib ulgurmoqda va bunda axborot vositalari kuchli ta’sir ko‘rsatishi tabiiy. Buyuk Britaniyadagi tadqiqotchilar ijtimoiy ehtiros, ijtimoiy moyillik va shaxsiy iliqlikni ifodalovchi ijtimoiy media xabarlari bilan mijozlar bilan muloqot qilish moda brendlari bilan ijtimoiy aloqani kuchaytirishi mumkinligini ko‘rsatdi. [4] Yoshlar jamiyatning axborot iste’molchisi sifatida salmoqli va faol qismi bo‘lgani uchun ham axborotlar ularning e’tiborini jalb etishga muttasil intiladilar. Yoshlarning estetik tafakkurini o‘zgartirishda ular imitatsiya qilishi mumkin bo‘lgan idollar bo‘lgan sportchilar, san’atkorlar yoki taniqli shaxsiyatlar vositasida tashviqot, propaganda yoki reklama ko‘rinishidagi axborotlar orqali ta’sir ko‘rsatiladi. Natijada, yoshlarning qiziqishlarini ifodalaydigan mavzular va vositalar tez yangilanadi va bu jarayon muttasil davom etar ekan. Keyingi avlod vakillari bilan dunyoqarashlarda keskin tafovutlar ortib borishi zaruratga aylanadi.

Ikkinchidan, liberal qarashlar va so‘z erkinligiga intilish barobarida yoshlarning dunyoqarashlariga tahdidlar har qachongidan ham ortib bormoqda. Dunyoning aksariyat mamlakatlarida davlat va jamiyatni nazorat qilishning liberal-demokratik tamoyillari ko‘plab davlatlar tomonidan e’tirof etilayotgani va insonlarning manfaatlariga xizmat qilishi ta’kidlanayotgan bir davrda bundan vayronkor g‘oyalarni qo‘llab quvvatlash uchun axborot makonini nazoratga olishga intilishlar kuchaymoqda. Vayronkor g‘oyalarni targ‘ib etishda tafakkuri yetarli darajada shakllanmagan yosh avlod ular uchun potensial kuch vositasiga aylanishi mumkin. Jamiyatimizda bunday hatarlarning paydo bo‘lmasligi va mafkuraviy jihatdan tayyorlash uchun ham bugungi kunda axborotlarning yoshlarga ko‘rsatadigan ta’sirini oqilona yo‘naltirish lozim. Internet va uning shakllari bo‘lgan internet-televideniya, internet-radio, elektron pochta, onlayn-video, ijtimoiy tarmoqlar kabi ko‘plab

axborot tarqatish texnologiyalari imkoniyatlaridan yoshlarning ma'naviyati va bilim darajasini oshirishda maqsadli va oqilona foydalanish zarur. [5] Biroq bu qanday vositalar bilan amalga oshirilishi mumkin degan masalada yagona ishlab chiqilgan yechim topilganicha yo'q. Bunga turli jamiyatlarda mafkuraviy farqlanishlarning mavjudligi va axborot siyosatida buning aks etishi sabab bo'ldi.

Uchinchidan, axborotlarni saralashda va iste'molchilarga taqdim etishda yuzaga kelayotgan tendensiyalarni tahlil qilinsa, yoshlarning keraksiz va nomaqbul kontentlarga saviyasiz sifatida baholanishi mumkin bo'lgan axborot materiallariga murojaat etayotganini kuzatish mumkin. Bugungi davrda axborotning qadr-qimmati uning insonlar uchun qay darajada manfaatli ekanligida emas, qay darajada ularni jalb eta olishiga ko'ra baholanmoqda. 1930-yildayoq Qo'shma Shtatlarda behayolik, qo'rqinchli kinofilmlar va irqiy yoki boshqa turdagi har qanday kamsitishlarni aks ettiruvchi media maxsulotlarini tayyorlash ta'qiqlangan edi. Biroq asta-sekin bu ta'qiq olib tashlanishi Amerikani mislsiz darajada o'zgartirdi.

Kinotanqidchi Hant Kristin bu borada shunday munosabat bildirgan edi: "Kodeksdan asta-sekin voz kechish va 1968 - yilda uning rasmiy ravishda bekor qilinishi kino sanoatiga ko'proq erkinlik taqdim etdi." [6] Bunday erkinlik ijobiyligi bilan birga bir qator axborot taahdidlarini oshirsa ham shunday yo'l tutildi. Bunga sabab axborot ulashuvchi subyektlarning va vositalarning bozor iqtisodi tamoyiliga moslashib borishi fonida avj olmoqda. Bunday qarashlar konspirologik nazariyalarni ham yuzaga chiqarib borayotgani G'arbda submadaniyat ko'rinishlari va g'ayriaxloqiy unsurlarni yoshlarga yetkazayotgan ayrim axborot tarmoqlari faoliyatida bu yaqqol namoyon bo'ladi.

Jurnalistikada shov-shuvli axborotlar va intervyular, kino san'atida behayolik va zo'ravonlikka asoslangan kontentlar, kitob nashriyotlarida jimjimador jumlalar bilan kitobxonlarni o'ziga jalb etuvchi saviyasiz kitoblarga urg'u qaratish holatlari ko'zga tashlanayotgani yoshlar tafakkurini zaharlash orqali bora-bora jamiyatning tafakkuriga zarar yetkazishni maqsad qilgan havfli axborot huruji bo'la oladi. Shuning uchun ham yoshlar ta'lim va tarbiyasida ularning axborotlarni saralay olishlariga va o'z mustaqil dunyoqarashlarini shakllantirishlariga o'rgatib borish va ularning foydalanadigan axborot manbalarini munatazam nazorat qilib borish zarurati paydo bo'ladi.

Xulosa

Yoshlarning bugungi informatsion jadallashuv sharoitida har bir sohada dunyoqarashlari shakllanishida ta'limdan ko'ra ham ommaviy axborot vositalari ustunlik qilayotgani hamda bu jarayon muttasil kuzatilayotgani sharoitida har bir davlat jamiyatning umumiy manfaatlari yo'lida muvozanatlashgan axborot siyosatini ishlab chiqishi lozim. Axborotlarning yoshlarga ta'sirini o'rganishda tabular, axborot hurujlari hisoblanuvchi axborotlar va ijobiy ruxdagi axborotlarni ajrat oladigan va jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hamda boshqa faoliyatlarida mustaqil va konstruktiv dunyoqarashlarini shakllantirish zarurati har qachongidan ham ortib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Duff, Alistair S. (2015). "Information Society". International Encyclopedia of the Social & Behavioral Sciences (Second Edition): 83–89.

2. https://lex.uz/ru/docs/-6600413 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida PF-158-son Farmoni. [Murojaat qilingan sana: 10.04.2025.]

3. Sugarman, Barry (1967). "Involvement in Youth Culture, Academic Achievement and Conformity in School: An Empirical Study of London Schoolboys". The British Journal of Sociology. 18: 151–317.

4. *Naeem, Muhammad; Ozuem, Wilson (September 2021).* "Understanding the social consumer fashion brand engagement journey: insights about reputed fashion brands". *Journal of Brand Management*. ***28*** *(5):* 510–*525.*

5. Falsafa asoslari [Matn]: o'quv qo'llanma / Q.Nazarov [va boshq.]. - Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2018. 372 - bet.

6. Hunt, Kristin (28 February 2018). "The End of American Film Censorship". *JSTOR Daily*. [Murojaat qilingan sana: 11.04.2025.]

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Absattorov Baxtiyor Mamarasulovich
University of Business and Science "Ijtimoiy-gumanitar va tillar" kafedrasi dotsenti falsafa doktori (PhD)

"NAFS"NING INSON TABIATIDAGI ZOTIY, XULQIDAGI SIFATIY, AMALLARIDAGI FE'LIY BELGILARI VA KO'RINISHLARI

Annotatsiya: *"Nafs" inson tabiatining muhim va murakkab jihatlaridan biri bo'lib, u nafaqat zotiy, balki xulqiy va fe'liy jihatlarda ham o'z ifodasini topadi. Ushbu mavzuda nafsning inson tabiatidagi tug'ma holati (zotiy), uning axloqiy sifatlaridagi ifodasi (sifatiy) va amaliy harakatlar orqali ko'rinadigan tashqi belgilar (fe'liy) tahlil qilinadi. Nafsning turli bosqichlari, ya'ni ammora, lavvoma va mutma'inna holatlari hamda ularning inson hayotidagi o'rni yoritiladi. Nafsni tarbiyalash, uni irodaviy nazorat ostida tutish, axloqiy yuksalishga erishishdagi ahamiyati asosiy yo'nalish sifatida ko'rib chiqiladi. Bu jarayonda diniy-ma'naviy qadriyatlar, tasavvufiy qarashlar va ruhiy kamolot masalalariga ham e'tibor qaratiladi.*

Kalit so'zlar: *Nafsning zotiy belgisi, sifatiy xususiyati, fe'liy belgisi, axloqiy tarbiya, ruhiy kamolot, irodaviy nazorat, nafsiy kurash, tasavvufiy qarashlar, ammora holati, mutma'inna darajasi.*

Абсаттаров Бахтиёр Мамарасулович
Доцент кафедры "Социально-гуманитарные науки и языки" University of Business and Science, доктор философии (PhD)

СУЩНОСТНЫЕ ПРИЗНАКИ И ПРОЯВЛЕНИЯ "НАФСА" В ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ПРИРОДЕ, КАЧЕСТВЕННЫЕ ПРИЗНАКИ В ПОВЕДЕНИИ И ГЛАГОЛЬНЫЕ ПРИЗНАКИ В ДЕЙСТВИЯХ

3. Трамп объявил чрезвычайное положение на границе страны в рамках подавления иммиграции. https://www.theguardian.com/us-news/2025/jan/20/trump-immigration-emergency-executive-order?utm.

4. Мексика с тревогой ожидает лавину иммиграционных указов Трампа. https://elpais.com/mexico/2025-01-20/mexico-aguarda-con-preocupacion-la-avalancha-de-decretos-migratorios-de-trump.html?utm.

5. Т.Хессон, К.Кук. Трамп обдумывает лишение украинцев легального статуса, поскольку США активизируют депортации. 07.03.2025. https://www.reuters.com/world/us/trump-plans-revoke-legal-status-ukrainians-who-fled-us-sources-say-2025-03-06/?utm.

6. Г.Д.Валле. Трамп также планирует подавить легальную иммиграцию. https://www.theverge.com/2024/10/31/24284684/trump-legal-immigration-crackdown-america-first-policy-institute?utm.

7. Сальвадор Риццо. проверка фактов об иммиграции, разделении семей и 1500 «Потерянных» детях. Washington Post. 30.05.2018 г.

8. По оценкам Bureau of Labor Statistics (BLS), в 2024 году в США было около 11 миллионов открытых вакансий, значительная часть которых занималась мигрантами. U.S. Bureau of Labor Statistics : U.S. Bureau of Labor Statistics.

9. Потребительские расходы в США замедлятся, но все же вырастут в этом году; меняющаяся политика сопряжена с риском. Moody's - кредитные рейтинги, исследования и данные для глобальных рынков капитала.

10. Национальное бюро экономических исследований. Национальное бюро экономических исследований | НБЭР.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Qaxxarov Siyovush Xudoyor o'g'li
Namangan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

HARBIY MADANIYAT SHAKLLANISHI VA UNING TA'LIMDAGI O'RNI.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada harbiy madaniyatning mazmuni, uning shakllanish jarayonlari hamda ta'lim tizimidagi ahamiyati tahlil qilingan. Harbiy madaniyat – bu faqatgina harbiy bilim va ko'nikmalar emas, balki vatanparvarlik, intizom, ma'naviy-axloqiy tarbiya kabi qadriyatlarni ham o'z ichiga oladi. Maqolada harbiy madaniyatni yosh avlod ongiga singdirishda ta'lim muassasalarining roli, xususan, harbiy-patriotik tarbiya orqali shaxs kamolotini ta'minlashdagi ahamiyati alohida ta'kidlangan. Shuningdek, zamonaviy sharoitda harbiy madaniyatni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ham berilgan.*

Kalit so'zlar: *Harbiy madaniyat, vatanparvarlik, ta'lim tizimi, intizom, ma'naviy tarbiya, harbiy tarbiya, shaxs kamoloti, qadriyatlar, o'quv-tarbiya jarayoni, milliy ong va o'zlik.*

Каххаров Сиявуш Худоёр угли
независимого исследователя Наманганского государственного университета

ФОРМИРОВАНИЕ ВОЕННОЙ КУЛТУРЫ И ЕЕ РОЛ В ОБРАЗОВАНИИ.

Аннотация: *В данной стате анализируется содержание военной културы, протсессы ее формирования и значение в системе образования. Военная култура - это не толко военные знания и навыки, но и такие сенности, как патриотизм, диссиплина, духовно-нравственное воспитание. В стате особо подчеркивается рол образовательных учреждений в внедрении военной културы в сознание молодого поколения, в частности, их значение в обеспечении личностного развития посредством военно-патриотического воспитания. Также даны рекомендатсии по развитию военной културы в современных условиях.*

Ключевые слова: *Военная култура, патриотизм, система образования, диссиплина, духовное воспитание, военное воспитание, личностное развитие, сенности, учебно-воспитателный протсесс, натсионалное сознание и самосознание.*

Kakharov Siyavush Khudoyarovich
independent researcher of Namangan State University

THE FORMATION OF MILITARY CULTURE AND ITS ROLE IN EDUCATION.

Abstract: *This article analyzes the content of military culture, the processes of its formation, and its significance in the education system. Military culture encompasses not only military knowledge and skills but also values such as patriotism, discipline, and moral and ethical education. The article specifically emphasizes the role of educational institutions in instilling military culture in the minds of the younger generation, particularly its importance in ensuring personal development through military-patriotic education. Recommendations for the development of military culture in modern conditions are also given.*

Keywords: *Military culture, patriotism, education system, discipline, moral education, military education, personal development, values, educational process, national consciousness and identity.*

Kirish.

So'nggi yillarda mamlakatimizda harbiy ta'lim tizimini, harbiy ilm-fanni takomillashtirish, zamonaviy talablar va jahon standartlariga moslashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yoshlarga harbiy ta'lim sir-sinoatlarini chuqur o'rgatishda yetuk kadrlar masalasi dolzarb ahamiyatga ega sanaladi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Bu maxsus ta'lim masukanlarida tahsil olayotgan farzandlarimiz qalbida milliy ruh, ona Vatanga mehr va sadoqat, adolat tuyg'usini har tomonlama kuchaytirish, buyuk ajdodlarimiz, jumladan, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Shohruh Mirzo, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi sarkardalarning boy jang san'atidan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi"[1:387]. Bu esa bizningcha, yoshlarda harbiy madaniyatni shakllanishida ta'limdagi o'rni muhim ekanligini anglatadi. Harbiy ta'lim rivojlanishining hozirgi bosqichi T.Kun nazariyasidagi paradigmalarning siljishi davridagi bosqich sifatida favqulodda fan davrining tavsifiga mos keladi. "Uning atributlari eski fanning inqirozi (mazmun tomondan-yetakchi usullarning

ziddiyatlari, hissiy va irodaviy tomondan - ilmiy jamoatchilik tomonidan ishonchni yo‘qotish), inqilobiy ilmiy farazlar va yechimlarning mavjudligi bilan ko‘zga tashlanadi”[2:89]. Bu esa tadqiqotchilar fikricha, “harbiy ta’limning hozirgi paradigmasi jamiyat va armiyaning uzoq muddatli ijtimoiy-tarixiy va ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlarining mahsulidir, ular orasida harbiy fanning rivojlanishi faqat omillardan biridir. Harbiy ta’lim paradigmasi mohiyatan ilmiy-konseptual sxema bo‘lib, harbiy o‘qituvchilarning nazariy va amaliy faoliyati uchun me’yoriy asos bo‘lib xizmat qiladi, harbiy ta’lim paradigmasi evristik jihatdan cheklangan vaqt uchun amal qiladi”[3:121]. Bizningcha, mazkur masalani ochib berish jahondagi globallashuv jarayonlari, innovatsion jamiyatga bo‘lgan ehtiyoj, fan-texnika taraqqiyoti yoshlar uchun ko‘plab imkoniyatlar yaratishi bilan bir qatorda, ularning oldiga tezkor qarorlar qabul qilish, innovatsion tafakkurni shakllantirish, intellektual salohiyatni oshirish kabi ko‘plab talablarni qo‘yishi bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab masaladir.

Mavzuning o‘rganilganligi

Ushbu mavzu yuzasidan ni mahalliy va xorijiy olimlar tadqiqot va ilmiy izlanishlar olib borganyu Xususan Jo‘raev A. O‘zbekistonda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi, harbiy ta’lim va harbiy kadrlar tayyorlash bo‘yichab Rahimov B.R. harbiy pedagogika va harbiy psixologiya sohasida, Qurbonov Sh.X. milliy armiya, harbiy an’analar va ularning ta’lim tizimiga ta’siri bo‘yicha, Nazarov M.H. o‘quv muassasalarida harbiy-milliy tarbiyani shakllantirish borasida, xorijlik olimlardan, Semyuel Xantingtonning “The Soldier and the State” asarida harbiy madaniyat, harbiy kasb etikasi va uning jamiyatdagi roli haqida, Morris Janovis, harbiy institutsiyalar va ularning madaniyat bilan bog‘liq jihatlarini (“The Professional Soldier”), Maykl Fuko to‘g‘ridan-to‘g‘ri harbiy madaniyatni o‘rganmagan bo‘lsada, uning “dissiplina” va “hokimiyat” haqidagi nazariyalari harbiy tizim va madaniyatni tahlil qilishda, Kritofer Danker harbiy sotsiologiya va harbiy kadrlar instituti haqida, izlanishlar olib borgan. Antoni King harbiy kasb, operatsiyalar va harbiy komandirlik madaniyati kabi mavzuning ilmiy va amaliy jihatlarini o‘zining maqolalarida va asarlarida tahlil qilib bergan.

Tadqiqot uslublari

Ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv, kontent tahlil, metematik statistik uslublar.

Tadqiqot natijalari va uning muhokamasi

Mazkur jarayonga har tomonlama tayyor turish uchun O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi va “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonunlariga ko‘ra yoshlarimizga zamonaviy standartlar asosida ta’lim-tarbiya berish, ularning iqtidorini yuzaga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 18 yanvardagi 23-son qaroriga ko‘ra “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish” Konsepsiyasi qabul qilingan. Unda ta’kidlanishicha, “O‘zbekiston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilga rivojlantirish konsepsiyasi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va qarorlari, Hukumat qarorlari, Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030 yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlari, 2030 yilgacha mo‘ljallangan “Yoshlar strategiyasi”, Yoshlar manfaatlari bo‘yicha butunjahon harakatlar dasturi, 2020 yil dekabr oyida tashkil etilgan “O‘zbekiston yoshlari” forumida yoshlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha belgilangan vazifalar asosida ishlab chiqildi. Bu bilan Vatanni himoya qilish, uni asrash to‘g‘risidagi zamonaviy tushunchalarni, dunyoqarashni, mazkur masala bo‘yicha shaxsiy e’tiqodni shakllantirish va mustahkamlab borish, yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash, ularning ma’naviy-ruhiy tayyorgarliklarini oshirishga yordam beruvchi ta’lim-tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish amalga oshiriladi. Shu bilan birga, yoshlarda Vatanga daxldorlik hissini kuchaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 fevraldagi 140-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiya”si qabul qilindi. Konsepsiyaning 2-bob 6-bandida yoshlarni milliy g‘oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanligini singdirish, qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo‘lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo‘lish tuyg‘usini shakllantirish, milliy armiyamizning qudratini va salohiyatiga bo‘lgan ishonchni kuchaytirish masalasi ko‘rib chiqilgan[4]. Ijtimoiy taraqqiyotga ko‘ra hozirgi vaqtda jismoniy kuch yoki qurol mahorati emas, balki insonning intellektual qobiliyatlari tobora muhim rol o‘ynamoqda. Natijada harbiy madaniyatni rivojlantirish jarayoni tobora tezlasha boshladi.

Tadqiqotchi olimlar fikricha, “Ta’lim insonni rivojlantirishning eng muhim omili sifatida har qanday mamlakatda hozirgi davr uchun munosib bo‘lgan aholi turmush darajasi va sifatiga erishish, ish bilan samarali bandlikni ta’minlash, barqaror rivojlanish, ijtimoiy tengsizlik darajasini pasaytirish, fuqarolik jamiyati tarkibini mustahkamlash; inson huquqlariga rioya etish va ularni samarali amalga oshirish, shaxsning imkoniyatlarini to‘la va har taraflama ro‘yobga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratish kabi bir qator iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va gumanitar muammolarni hal qilishga katta ta’sir ko‘rsatadi”[5:13].

Harbiy madaniyat shakllanishi harbiy ta’limning o‘rni muhim hisoblanadi. Chunki, harbiy madaniyat-bu harbiy jamoada yaratilgan va faoliyat ko‘rsatadigan rasmiy va norasmiy madaniyatlar majmui bo‘lib, ularning har biri moddiy va ma’naviy tarkibiy qismlardan, shu jumladan

qiymat-me'yoriy, ma'naviy, mafkuraviy va ramziy elementlardan iborat bo'lib, harbiy faoliyatni rag'batlantirish va tartibga solishni ta'minlaydi. Ba'zi tadqiqotlarda harbiy madaniyat harbiy fanning bir qismi, ya'ni o'qitish va tarbiyalash jarayonida xodimning ongida mustahkamlangan bilimlar to'plami sifatida e'tirof etiladi. "XVIII asr oxiriga kelib harbiy tarix va harbiy fan harbiy bilimlardan mustaqil fanlar sifatida paydo bo'ldi. Shu bilan bir qatorda uning nazariyalari, ta'limotlari, shuningdek, urush va armiya bo'yicha amaliy tadqiqotlar kiritila boshlandi. Yigirmanchi asrning ikkinchi yarmida pedagogika va sotsiologiya, urushning umumiy nazariyasi, strategiya va taktika nazariyalari, armiya qurilishi, kadrlar tayyorlash va o'qitishning aniq farqlari ajratila yuoshlandi"[6]. Ko'rinib turibdiki, yoshlarni harbiy madaniyatini oshirish uchun ularni o'qitish, ularni muayyan normalar, qadriyatlar va xulq-atvor qoidalari bilan tanishtirish an'anaviy ravishda olingan bilimlarning bir qismi ekan.

"Ilmiy-pedagogik tahlillar va emperik o'rganishlarimiz, oliy harbiy ta'lim muassasalarida bo'lajak ofitserlarning mavjud kasbiy tayyorgarlik darajasi bugungi zamonaviy sharoitda ularning kasbiy mahorati va kompetentliligiga qo'yiladigan talablar tizimiga to'la mos kelmasligini ko'rsatdi. Shu boisdan, tadqiqotlar davomida bo'lajak ofitserlarning kasbiy kompetentligi tuzilmasi aniqlandi. Mazkur tuzilmada bo'lajak ofitserlarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish mazmuni tayanch kasbiy kompetensiyalar (ijtimoiy-huquqiy, ma'naviy-axloqiy), kasbiy shaxsiy sifatlar (strategik mobillik, tezkor-taktik moslashuvchanlik, harbiy emotsional barqarorlik, tolerantlik, vatanparvarlik) elementlari, harbiy-kasbiy kompetensiyalar, shuningdek, kreativlik darajasini o'zida aks ettiruvchi sohaga oid integral kasbiy ko'nikmalarning o'zaro aloqadorligida takomillashib borishi tavsiflandi"[7:15]. Bundan ma'lum bo'ladiki, harbiy madaniyatni shakllantirishda ta'lim yetakchi o'rinda turar ekan.

Soha mutaxassislari fikricha hozirgi globallashuv jarayoni yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning an'anaviy va zamonaviy usullaridan samarali foydalanib o'qitishquyidagi usullardan iborat.

1. Targ'ibot usuli. Vatanparvarlikning tarbiyaviy-axloqiy mazmuni va bu borada mamlakatimizda olib borilayotgan jarayonlarning ilmiy-nazariy asoslarini, ularning yangi-yangi qirralarini mukammal ochib berishdan iborat. Shu bois harbiy vatanparvarlik tuyg'usini yoshlarga sodda, lo'nda qilib tushuntirib berish, ularni yangi hayot, zamon talablariga javob beradigan jamiyat qurilishining faol va jo'shqin ishtirokchilariga aylantirishdan iborat.

2. Jamoaviylik usuli. Bugungi kunda Qurolli Kuchlarimizning umumiy jangovar shayligi birlashma, qo'shilma, qism va bo'linmalarning jangovar shayligi darajasi bilan belgilanadi. Harbiy bo'linmalar o'z ichki tuzilmasiga ko'ra, faoliyat yuritishi qat'iy belgilangan ijtimoiy guruhni ifodalab, harbiy xizmatchilarning umumiy majburiyatlari va ular o'rtasidagi xizmat munosabatlari, ichki tartib-qoidalari, mansabdor shaxslarning majburiyatlari, kundalik hamda maishiy sharoitlar, harbiy xizmatchilarni ishga joylashtirish, ichki xizmatni olib borish masalalari Intizom hamda Ichki xizmat Nizomlarining asosiy holatlarida qat'iy belgilab berilgan.

3. An'anaviylik usuli. Harbiy an'ana armiyada harbiy xizmat jarayoni jangovar vazifalarni bajarish, shaxsiy tarkibni tayyorlash, harbiy xizmatchilarning kundalik turmushi bilan bog'liq bo'lgan, tarixan shakllangan, avloddan avlodga o'tuvchi g'oya, qoida, urfodat, xulq-atvor me'yorlarida namoyon bo'ladi. Qurolli Kuchlarda harbiy an'analar tizimi harbiy faoliyatning asosiy uch sohasini: jangovar an'analar; harbiy turmush an'analari; ta'lim-tarbiyaviy an'analarni qamrab oladi. 4. Qadriyatlar ustuvorligi usuli. Harbiy xizmatchilarda milliy qadriyatlarga, ilg'or an'analarga, axloqiy tamoyillarga, yuksak madaniyatga sodiqlik kabi insoniy fazilatlarni hosil qilmasdan turib vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirib bo'lmaydi. Chunki O'zbekistonning qariyb 30 yillik mustaqil taraqqiyot yo'liga nazar tashlansa, vatanparvarlikni ro'yobga chiqarish, mard va jasur avlodni voyaga yetkazishga oid keng ko'lamli ishlar amalga oshirilganini ko'rish mumkin. O'zbekistonda barpo etilayotgan fuqarolik jamiyatining asosiy maqsadi ham Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligiga befarq bo'lmagan avlodni shakllantirishdan iborat. Bunda milliy va umuminsoniy qadriyatlar pragmatik asos bo'lib xizmat qiladi.

5. Zamonaviylik usuli. Qiyinchiliklar, to'siqlar, nomutanosibliklar, hatto jinoiy harakatlarning oshib borishi ham sof vijdonli kishi qalbida Vatan tuyg'usini, agar u chuqur e'tiqodga aylangan bo'lsa, o'chirolmaydi. Rang-barang maqsad va manfaatlarga ega ijtimoiy guruhlar mavjud ekan, umummaqsadni turlicha, goho bir-biriga zid tarzda idrok etish ham saqlanib qoladi. Yangi-yangi avlodlarning tug'ilishi, hayot sahnasiga chiqishi jamiyat oldiga yangi-yangi muammolarni ko'ndalang qo'yaveradi; aynan ushbu uzluksizlik, tadrijiylik ijtimoiy hayotning ham uzluksiz, tadrijiy davom etishini ta'minlaydi"[8:6]. Bundan tashqari harbiy pedagogika pedagogikaning ko'pgina boshqa sohalaridan yuqori ma'naviy-ruhiy sifatlarni, tayyorgarlik, qobiliyat va qobiliyatni talab qiladigan mas'uliyatli vazifalarni hal etish bilan bog'liq bo'lgan tarbiya, o'qitish, ta'lim, o'qitish ob'ektlarining (sub'ektlarining) haqiqiy harbiy kasbiy faoliyatga bevosita jalb etilishi bilan ahamiyatlidir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 8-noyabrdagi "Ta'lim muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni tashkil etish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqidagi" VMQ-591-son Qarori "mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik ruhida

tarbiyalash, ularni Vatan himoyasiga doimo shay turishga hamda harbiy xizmatni o‘tashga tayyorlash ishlarini yuqori saviyada tashkil etish maqsadida”[9] qabul qilindi. Bu esa harbiy madaniyat shakllanishi va uning ta’limdagi o‘rni qo‘yidagi muhim jihatlari bilan amalga oshirilishi uchun chaqiriqqacha bo‘lgan yoshlarni pedagogik kompetensiyalarini shakllantirish vazifasini qo‘yadi.

Xususan “Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani” Milliy o‘quv dasturiga ko‘ra “Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik *o‘quv predmetini o‘qitishda o‘quvchilarga harbiy qasamyod, harbiy ish asoslarini, zaruriy harbiy bilimlarini va amaliy ko‘nikmalar, shuningdek, harbiy chiniqish, ruhan bardam bo‘lish, fuqaro himoyasi va tibbiy bilim asoslarini egallash hamda ularni hayotda qo‘llay olish layoqatini shakllantirish ko‘zda tutilgan.*

Umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarda fanga oid kompetensiyalar bilan birgalikda tayanch kompetensiyalar shakllantirilishi belgilab berilgan. Tabiiy va iqtisodiy fanlar bloki yo‘nalishidagi fanlari orqali o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish ular o‘zlashtirgan bilimlari asosida yegallagan ko‘nikma va malakalarini turli vaziyatlarda qo‘llay olishga qaratilishi maqsadga muvofiq.

Jumladan, **kommunikativ kompetensiya**larni shakllantirishda davlat tili, horijiy tillarni o‘zlashtirishda mustaqil, ijodiy fikrlash, amaliy mashg‘ulotlarni o‘zaro bajarishda, ijodiy loyiha ishlarini bajarish malakalarini shakllantirishda, yozma va og‘zaki ravon bayon etish malakalarini shakllantirishda amaliy fanlarga oid atamalarni to‘g‘ri talafuz qilish, izohlab berish hamda erkin muloqot qilishga o‘rgatish zarur.

Fanlarni o‘qitishda **axborot bilan ishlash kompetensiyasi**ni samarali rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiruvchi zamonaviy axborot telekommunikatsiya vositalaridan muntazam foydalanish zarur. Bunda o‘quvchilarni fanga oid axborotlarni turli manbalardan izlash, tahlil qilish va axborot havfsizligiga rioya qilgan holda axborot vositalari bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishda mobil qurilma (telefon, planshet va boshqa gadjetlar) lardan foydalanish tavsiya etiladi.

O‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirishda umuminsoniy fazilatlariga ega bo‘lish, Vatanni sevish, huquqiy, iqtisodiy bilimlarga ega bo‘lish, yangiliklarga intilish va o‘zlashtirgan nazariy bilimlari asosida mustaqil qaror qabul qilishga, jamiyatda ro‘y berayotgan progressiv va innovatsion o‘zgarishlardan xabardor bo‘lish hamda ulardan kundalik hayotda foydalana olishga o‘rgatish zarur.

Ijtimoiy-emotsional va fuqarolik kompetensiyasini shakllantirishda fuqarolik burch, ijtimoiy va siyosiy rivojlanish, favqulodda vaziyatlar, ekologik muammolar haqida bilimlarga ega bo‘lish hamda badiiy va san’at asarlarini tushunish hamda ularni asrashda tashkilotchilik xislatlarini rivojlantirishdan iborat”[10:6]. Natijada yoshlarda vatanga xizmat qilish uchun zarur bo‘lgan kompitensiyalari shakllanishga sabab bo‘ladi. Mazkur jihatlar, o‘z navbatida, harbiy ta’lim muassasalari oldiga intellektual jihatdan yetuk, strategik va tahliliy fikrlashga qodir, kasbiy kompetentliligi yuqori darajada shakllangan yoshlarni tayyorlashning samarali tizimini yaratish bilan bog‘liq ustuvor vazifalarni qo‘yadi. Emperik izlanishlar shundan dalolat berdiki, harbiy ta’lim tizimidagi fan dasturlari hamda ishchi o‘quv dasturlarini amalga tadbig‘i bo‘lajak yoshlarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishdagi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o‘z navbatida “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Hukumat qarori (267-son, 29.06.2023 y.) qabul qilindi. Qaror bilan 2023-2027 yillarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish konsepsiyasi hamda uni amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” amalga oshirishga xizmat qiladi.

“Konsepsiyada belgilangan tadbirlar quyidagi 5 bosqichda amalga oshiriladi:

1-bosqich (3–7 yosh);

2-bosqich (7–10 yosh);

3-bosqich (11–17 yosh);

4-bosqich (18–21 yosh);

5-bosqich (22–30 yosh).

Qarorga ko‘ra, jumladan, quyidagilar amalga oshiriladi;

Birinchidan, mahallalardagi kam ta’minlangan va ehtiyojmand oilalardagi yoshlarni qo‘llab-quvvatlash hamda ularga ijtimoiy yordam ko‘rsatish maqsadida “Ezgu amal” sahovat karvonlari tashkil etiladi;

Ikkinchidan, “Amir Temur izdoshlari”, “Jaloliddin Manguberdi vorislari” harbiy-sport musobaqalari o‘tkaziladi;

Uchinchidan, yoshlar o‘rtasida 4 bosqichda (mahalla – tuman – viloyat – respublika) “Shunqorlar” hamda “Vatanparvarlar” harbiy-sport musobaqalari o‘tkaziladi”[11].

Harbiy madaniyatda ta’lim deganda, harbiy xizmatchilarning kasbiy mahoratini oshirish, bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan ta’lim jarayonini anglaymiz. Bu ta’lim jarayoni harbiy xizmatning o‘ziga xos talablari va harbiy xizmatchilarning o‘ziga xos turmush tarzi bilan bog‘liq bo‘lib, quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi mumkin:

Maqsadlilik: Harbiy ta’limning asosiy maqsadi harbiy xizmatchilarni yoki yoshlarni kasbiy mahoratga ega bo‘lishinita’minlash, o‘z vatanlarini himoya qilishga tayyorlashdir. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, “Vatanparvarlik fenomeni noyob, kam uchraydigan hodisa hamda buyuk, daho yo‘lboshchi, yetakchiga nisbatan ishlatilishi haqidagi fikr ilgari suriladi. Shu ma’noda, vatanparvarlik fenomeni (yunoncha phainomenon – yuz beruvchi degan ma’noni anglatib, mohiyat yoki hodisaning ifodasi yohud namoyon bo‘lishidir)ning ma’naviy-axloqiy

merosdagi in'ikosi ijtimoiy-tarixiy hayotda tub burilish yasagan, xalqning erki, ozodligi va kelajagini ta'minlash yo'lidagi kurashning yo'lboshchisi hamda bu faoliyatning axloqiy namunasi sifatida namoyon bo'lgan shaxslar siymosi bilan belgilanadi. Yovuz bosqinchilar va istilochilarga qarshi kurashgan Shiroq, Spitamen, Mahmud Torobiy, To'maris, malika Qabaj xotun kabi qahramonlar vatanparvarlik fenomeni timsollaridir"[12:13].

Kasbiy yo'nalish: Harbiy ta'lim harbiy xizmatning turli yo'nalishlariga moslashtirilgan bo'lib, harbiy xizmatchilarning kasbiy mahoratini oshirishga qaratilgan. "Olimlarning fikricha, inson faoliyati davomida eng zarur bo'lgan kompetensiyalar ichida kommunikativ kompetensiya alohida ahamiyat kasb etib, u boshqa kasbiy kompetensiyalarni egallash uchun ham xizmat qiladi. Umuman olganda, ta'lim va tarbiya sohasida bugungi kunda keng joriy qilinayotgan kompetensiyaviy yondashuv ushbu jarayonning samarali natijasini ta'minlash uchun xizmat qiladi"[14:5].

Amaliylik: Harbiy ta'limda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga katta e'tibor beriladi. Faylasuf va notiq sitseronning ta'kidlashicha, "notiq amaliy ko'nikma va malakani aynan katta yig'ilishlarda (maydonda, Rim shahrining siyosiy va madaniy hayoti markazida) shakllantirsa"[15:81], Kvintilian uchun esa ta'lim tizimi markazi – bu ritorika maktablaridir. Kvintilianning "Ritorik nasihatlarning 12 kitobi"da "fuqarolik va sud notig'ini tarbiyalashning mukammal tizimi taqdim etiladi. Notiq tarbiyasi jismoniy va ruhiy tarbiyaga bo'linib, o'z ichiga jismoniy madaniyat va tillarni o'zlashtirishni, huquq va falsafani, nutqni ixtiro qilish, uni tahlil qilish kabi amaliy mashg'ulotlarni qamrab oladi"[13:78]. Kvintilianning ushbu "Nasihatlari" asosida ta'lim va tarbiya tizimi ishlab chiqildi va pedagogika fanining ilmiy asoslarining yaratilishiga turtki bo'ldi.

Intizom va tartib: Harbiy ta'lim jarayonida yoshlarni qat'iy intizom va tartibga rioya qilishni talab etadi. Bu esa pedagogik muloqot ta'lim jarayonini tashkil etish omili sifatida asosan ikki modelda amalga oshiriladi:

1. An'anaviy model – o'quv-intizomiy.
2. Shaxsga yo'naltirilgan.

"Muloqotning o'quv-intizomiy modeli XX asrning 70-yillarida shakllangan bo'lib, unga ko'ra o'quv jarayonining asosiy maqsadi o'quvchini bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishga qaratilgan. O'zaro munosabatlarda "Menga qarab bajar" shiori ustun bo'lgan. Ushbu modelga xos xususiyatlarning asosida muloqotning avtoritar uslubi yotadi.

Muloqot yo'llari: pand-nasihat, tushuntirish, talab, po'pisa, jazo, baqiriq.

Muloqot taktikasi: diktat yoki g'amxo'rlik shaklda bo'ladi.

Shaxsiy pozitsiyaga rahbariyat va nazorat organlarining talablarini bajarish bo'lib, unda muloqotning bunday usuli bola shaxsiga salbiy ta'sir etadi, unda mustaqil bilim olish ko'nikmalarining shakllanishiga monelik qiladi. Bunday uslubga asoslangan pedagogik jarayon bugungi talablarga javob bermay qo'ydi. O'quvchi ushbu jarayonning passiv ishtirokchisi sifatida asosan tayyor holda unga o'qituvchi tomonidan uzatilayotgan ma'lumotlarni qabul qilib olish, esda saqlab qolish kabi samarasiz faoliyat bilan chegaralanib qolgan edi. Natijada unda yangi ma'lumotlarni mustaqil egallash, olgan bilimlaridan nostandart hayotiy vaziyatlarda foydalanish ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmas edi"[17:78].

Jamoaviylik: Harbiy ta'lim jarayonida harbiy xizmatchilar bir-birlari bilan hamkorlik qilishni, jamoaviy ruhda ishlashni o'rganadilar. Unga ko'ra, hamkorlik pedagogikasida o'quvchi va o'qituvchining o'zaro munosabati muloqot samaradorligini ta'minlashning garovidir - ikki kommunikant uchun umumiy bo'lgan yangi nimanidir ishlab chiqishdir. Pedagogik hamkorlik umumiy maqsadga va unga erishish istiqbollarini ko'rishga asoslangan. O'quvchining imkoniyatlariga ishonch birinchi o'ringa chiqishi kerak. Amerikalik faylasuf G.P. Graysning fikrlariga ko'ra, so'zlovchi va tinglovchining muvaffaqiyatli hamkorligi quyidagi qoidalar bilan ta'minlanadi:

1) "*Miqdor qoidasi*: "Sizning bayonotingiz kerak bo'lgandan ko'ra ko'proq (va kam bo'lmagan) ma'lumotni o'z ichiga olishi kerak. Hamma bilgan ma'lumotlarni aytish kerak emas"[18:52]. Mashhur olim D.I. Mendeleev shunday deb ogohlantirdi: "Faktlar bilan haddan tashqari yuklangan ma'ruza o'tinlar bilan to'lib – toshgan o'choqqa o'hshab o'cha boshlaydi". Axborot hajmini aniqlashda o'qituvchi semantik idrok qilish qonunlariga asoslanishi kerak: 7+-2. Axborot birliklari sifatida semantik parcha yoki mikrotema hisoblanishi mumkin.

2) *Sifat qoidasi:* "Sizning so'zingiz haqiqiy ekanligiga ishonch hosil qiling". Axborot sifatiga pedagogik qarashlar uning *taniqlilik* xususiyatini aniqlash imkoniyatini beradi. Tadqiqotchilar o'quvchi uchun axborotning ma'lumlik darajasining uch xil turini keltirib o'tadilar:

1 - darajali ma'lumlik - darslikda mavjud;

2 - darajali ma'lumlik – mutaxassisga ma'lum;

3 - darajali ma'lumlik - kamdan-kam hollarda.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, kamroq nufuzga ega bo'lgan o'qituvchilarning 9/10 qismi 1-darajali ma'lumotlarni beradi, ya'ni darslikni so'zlab beradi. Yuqori nufuzga ega o'qituvchilar esa 43 % gacha 2-darajali ma'lumotlarni beradi.

3) Munosabatlar qoidasi: mavzudan chetga chiqmang.

4) Taqdimot uslubi qoidasi. Graysning bu taqdimot uslubi bilan bog'liq. Bu diqqatni jalb qilish va uni saqlashga yordam berishi kerak. Nutq - bu harakat. Nutq vaqt va makonda chiziqli xarakterga ega. Bu o'qituvchi va o'quvchiining boshidan oxirigacha o'tishi kerak bo'lgan yo'li"[18:53] dir.

Harbiy madaniyat shakllanishi va uning ta’limdagi o‘rni harbiy xizmatga kirishdan oldin olib boriladigan ta’limni sifatini hamda harbiy xizmat davomida olib boriladigan ta’lim jarayonlarida namoyon bo‘ladi. Buning asosiy sababi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Mudofaa doktrinasi, “Mudofaa to‘g‘risida”gi, “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi qonunlarini, Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini safarbarlik chaqiruv rezervida harbiy xizmatni o‘tashni tashkillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorini asosiy talablarini, mohiyatini o‘rganish;

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarning asosiy vazifalarini, harbiy xizmatning ahamiyatini, Vatanga qasamyodni va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Umumharbiy Nizom talablarining mohiyatini tushunish;

harbiy-vatanparvarlik ruhida, harbiy soha bilan aloqador bo‘lgan davlat xizmati turlarida faollik ko‘rsatish, tinch va harbiy sharoitda harbiy burchga sadoqatli bo‘lish, ularda o‘z yurti va xalqi taqdiri uchun yuksak mas’uliyat va javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni shakllantirish;

milliy g‘oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, Vatan mustaqilligi va ravnaqi yo‘lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlar bilan faxrlanish, ularga munosib bo‘lish tuyg‘usini shakllantirish, milliy armiya qudrati va salohiyatiga bo‘lgan ishonchni kuchaytirish;

favqulodda vaziyatlarda harakatlanish, zaruriyat tug‘ilganda o‘ziga hamda yon atrofidagilarga birinchi tibbiy va boshqa zaruriy amaliy yordam ko‘rsatish ko‘nikmalari shakllantirish”[10:8] dan iboratdir. Bundan maqsad nafaqat jismoniy balki ruhiy baquvvat bo‘lishni ta’minlashdir. Zero jahon tajribasi ham shundan dalolat beradi. Ya’ni “...Yaponiya Til va nutq dasturi yaponcha vatanparvarlik g‘oyasini targ‘ib qilib, harbiy ustunlik emas, intellekt ustunligi, notiqlik ustunligi, tartib-intizom va mehnatga munosabat ustunligiga asoslangandir. Bu o‘z navbatida mamlakatni dunyoda ishlab chiqarish va savdo sohalarida birinchi o‘ringa olib chiqdi”[13:30].

Xulosa

Xulosa sifatida ta’kidlash lozimki, Respublikamiz ta’lim tizimida ham bo‘lajak mutaxassislarni mustaqil ijtimoiy munosabatlarga tayyorlash, ularda o‘z Vataniga muhabbat, yuksak ma’naviyatli shaxsni shakllantirish, madaniyatlararo bag‘rikeng fuqaroni tarbiyalash masalalariga katta e’tibor qaratilmoqdaki, bu uzluksiz ta’lim tizimida chaqiriqqacha yoshlarni tayyorlash fanini tadbiq etish, bo‘lajak mutaxassislarning kommunikativ va ritorik kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish kabi vazifalarni amalga oshirishni taqozo etadi. Olib boriladigan ta’limning natijasida shaxsning harbiy madaniyati va kasbiy mahoratini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa harbiy madaniyatda ta’limning muvaffaqiyatli xizmat qilishi, o‘z vatanlarini himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тошкент. “Ўзбекистон”. 2022. – Б 387.
2. Кун Т. Структура научных революций. М.: «АСТ», 2020. — С 89. (Умумий 320 с.)
3. Самадов А. А. Ўзгарувчан таълим парадигмаси шароитида ҳарбий таълим ўқитувчисининг касбий маҳоратини такомиллаштириш мазмуни. Таълим ва инновацион тадқиқотлар (2022 йил № 12) – Б 121.
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 23 февраль куни тасдиқланган “Ёшларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялаш концепция” Ватанпарвар газетасининг № 9 (2760) – сони, 2018 йил 2 март.
5. Салимов А.А. Таълим соҳасида инсон тараққиёти концепциясининг асосий йўналишлари. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Самарқанд: 2019. –Б.13.
6. Кикнадзе В.Г. Эволюция, философские проблемы и роль военной науки // Военно-исторический журнал. № 4. 2009. http://history.milportal.ru/arxiv/voenno-istoricheskij-zhurnal-2009-g/voenno-istoricheskij-zhurnal-4-2009-g/
7. Алимардонов З.Ш. Олий ҳарбий таълим муассасаларида бўлажак офицерларининг касбий компетентлигини такомиллаштириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Самарқанд. 2019. – Б 15.
8. Ташматов Б.Х. Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси Қўмондони Ҳарбий ватанпарварлик-юксак ишонч ва садоқат. Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси Ҳарбий-техник институти ахборотномаси. – 2018. - № 2 – Б 6.
9. www.lex.uz. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2023 йил 8-ноябрдаги “Таълим муассасаларида чақирувга қадар бошланғич тайёргарликни ташкил этиш тартиби тўғрисидаги Низомни тасдиқлаш ҳақидаги” ВМҚ-591-сон Қарори.
10. Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги Чақирувга қадар бошланғич тайёргарлик фанининг миллий дастури. – Б 6.

11. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 23 февраль куни тасдиқланган “Ёшларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялаш концепция” Ватанпарвар газетасининг № 9 (2760) – сони, 2018 йил 2 март.

12. Xudayberdiyeva X.K. Milliy yuksalish jarayonida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ma’naviy-axloqiy muammolari. Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand 2024. – B 13.

13. А.Т.Нурманов, Ё.И.Турганов. Педагогик маҳорат (риторика бўйича педагогика олий таълим муассасалари талабалари учун ўқув қўлланма). Тошкент: «ZEBO PRINT», 2022. – Б 5.

14. Цицерон. Три трактата об ораторском искусстве: пер. с лат. / под ред. М.Л. Гаспарова. М., 1972. – С 81.

15. Квинтилиан. Правила ораторского искусства. СПб., 1896. – С 74.

16. Грайс Г. Л. Логика и речевое общение // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XVI. М, 1985. – С 52.

17. Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги Чақирувга қадар бошланғич тайёргарлик фанининг миллий дастури. – Б 8.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Shodikulova Aziza Zikiryayevna, o'qituvchi (PhD)
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
azizashodikulova87@gmail.com

MATNNI TIL BIRLIGI SIFATIDA O'RGANISH

Annotatsiya: *Maqolada 20-asr tilshunosligi tilning bevosita harakat birliklari va ularning o'zgarishlarini o'rgana boshlaganligi, bunday tadqiqotlar tilshunoslikda kommunikativ-pragmatik nuqtai nazardan olib borilishi haqida yoritilgan. Bu jihat tilni odamlar hayoti va nutq faoliyati bilan bog'liq holda rivojlantirishga qaratilgan. Bu tilshunoslikda lingvistik-pragmatik matn (kontekst) tilshunosligi kabi yangi sohalarning shakllanishi va rivojlanishiga olib keldi.*

Kalit so'zlar: *tilshunoslik, harakat birliklari, kommunikativ-pragmatik nuqtai nazar, matn pragmatikasi, kommunikativ tilshunoslik, matn lingvistikasi.*

Shodikulova Aziza Zikiryaevna, teacher (PhD)
Samarkand State Medical University

LEARNING TEXT AS A UNIT OF LANGUAGE

Abstract: *The article discusses the fact that 20th-century linguistics began to study the direct action units of language and their changes, such research is conducted from a communicative-pragmatic point of view in linguistics. It focuses on the development of language in relation to people's lives and speech. This has led to the formation and development of new fields in linguistics, such as linguistic-pragmatic text (context) linguistics.*

Key words: *linguistics, units of action, communicative-pragmatic point of view, linguistic-pragmatic text, communicative linguistics, text linguistics.*

Шодикулова Азиза Зикиряевна, преподаватель (PhD)
Самаркандского государственного медицинского университета

ИЗУЧЕНИЕ ТЕКСТА КАК ЯЗЫКОВОЙ ЕДИНИЦЫ

Аннотация*: В статье рассматривается тот факт, что лингвистика 20 века начала изучать единицы прямого действия языка и их изменения, такие исследования проводятся с коммуникативно-прагматической точки зрения в языкознании. Основное внимание уделяется развитию языка по отношению к жизни и речи людей. Это привело к формированию и развитию новых направлений в языкознании, таких как лингвопрагматическая текстовая (контекстная) лингвистика.*

Ключевые слова*: лингвистика, единицы действия, коммуникативно-прагматическая точка зрения, лингвопрагматическа текста, коммуникативная лингвистика, лингвистика текста.*

Kirish

Aytish lozimki, metonimiyaning konseptual hodisa sifatida talqin qilinishi uning faqat ikkita tushuncha munosabati hosil bo'lishini e'tirof etib, boshqa turdagi munosabatlarning inkor etilishiga olib kelmasligi kerak. Zero, metonimik munosabatlar lisonniy shakllar va nolisoniy referentlar hamda lisoniy shaklning unga muqobil tushunnncha bilan uchrashuvida ham namoyon bo'ladi. Metonimiya bizning olam va til haqidagi bilimimizda bir xilda mavjud bo'ladi. Demak, metonimiya til va olamninnng ideal kognitiv modeli aloqadorligida faollashadi. Bu aloqadorlik lisoniy, nolisoniy va konseptual ko'rinishlarga ega (Al-Sharaphi 2004)[1].

Adabiyotlar tahlili

Zamonaviy tilshunoslikda muhim o'rin tutuvchi kommunikativ tilshunoslik quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

Matn lingvistikasi. Yigirmanchi asrning boshlariga kelib, tilshunoslar tillarda nutqdan kattaroq tovushlar, so'zlar, iboralar va birliklar mavjudligini aniqladilar. Bunday yirik til birliklariga sintaktik yaxlitlik, abzas, nutq va matn kiradi. Bunday yirik til birliklari hozirgi tilshunoslikda turlicha ta'riflanadi. Bu xilma-xil ta'riflar

zamirida bitta asosiy mavzu bilan bog‘langan gap yoki gaplar majmui ma’nosi yotadi.

Matn tilning eng katta birligidir. Matnni til birligi sifatida o‘rganish rus tilshunosligida 1930-yillardayoq boshlangan. Bu borada A.M.Peshkovskiyning “Rus sintaksisi ilmiy kuzatishda” (1934), V.V.Vinogradovning “Badiiy adabiyot haqida” (1930), L.A.Bulaxovskiyning “Rus adabiy tili kursi” (1952) asarlarini eslash o‘rinlidir. Chunki muallif bu tadqiqotni til xususiyatlarining o‘ziga xos jihati sifatida o‘rgana boshlagan.

Hozirgi tilshunoslikda matn atamasiga turlicha ta’rif beriladi. Masalan, tilshunos olim P.Jironing fikricha, matn o‘zaro bog‘langan birliklarning yaxlitligi bo‘lib, bu butunlikni tashkil etuvchi belgilar bir-biri bilan o‘zaro ta’sirlashib, personajlar haqida stilistik taassurot hosil qiladi, yagona tizimni tashkil qiladi.

Matnga aniq tavsif berish uchun uning xususiyatlarini aniqlash kerak. Tilshunos olim S.Todorovning fikricha, har qanday matn uchta xususiyatga ega: a) jarayon, b) sintaktik xususiyat, c) semantik xususiyat[2]. Matn aniq jumlalardan iborat bo‘lib, bu matnning jarayon ekanligini isbotlaydi. Matnning sintaktik xususiyati matnni tashkil etuvchi qismlarning o‘zaro aloqadorligidir. Matnning semantikasi uning mazmunini ifodalaydi. Demak, matn muayyan tizimga asoslangan, o‘ziga xos mazmunga (semantika) ega bo‘lgan to‘liq nutqiy faoliyatdir.

Matn lingvistikasida matn mazmuni va matn ma’nosi atamalari bir-biridan farq qiladi. Muayyan matndagi ma'lumotlar yoki ma'lumotlar matnning mazmunidir. Matnning ma’nosi matn birliklariga xos ma’lumotdir (gap, sintaktik yaxlitlik, paragraf). Matnning mazmuni unda ifodalangan ma'lumotlarning to‘liq bajarilishi bilan bog‘liq. Matn mazmuni garchi u yaxlit fikrni ifodalasa ham, shu fikrni davom ettirishni taqozo etadi. Ma’lum bo‘lishicha, gapning matndan asosiy farqi tugallanishning mutlaqligi va tugallanishning nisbiyligidir.

Matn o‘ziga xos grammatik kategoriyaga ega:

a) axborot kategoriyasi deganda u yoki bu darajada fikrlash uchun mo‘ljallangan tabiat, hodisa, harakat va hokazolarni ifodalash tushuniladi;

b) integrasiya kategoriyasi – bu turkum matn birliklari orasidagi uzluksizlik, o‘zaro bog‘liqlik, dolzarblik kabi munosabatni bildiradi;

c) retrospektiv kategoriya – bu turkum matnda tasvirlangan hodisani izchil, izchil tasvirlash orqali amalga oshiriladi[3].

Matn nutq faoliyatining butun mahsulidir. Uning shunday mahsulga aylanishiga xizmat qiluvchi kategoriya matn tilshunosligida integratsiya (lotincha to‘ldirish) kategoriyasi deb ataladi. Umuman olganda, integratsiya kategoriyasi matn oxiri bilan bog‘liq kategoriya sifatida ko‘riladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Matnshunoslikda ayrim olimlar integratsiya va kogeziya atamalarini ajratib ko‘rsatadilar. Assotsiatsiya matn qismlari o‘rtasida grammatik, semantik va leksik bog‘lanishni ta’minlash demakdir. Integratsiya kategoriyasi matnning yaxlitligini ta'minlash uchun ularni birlashtirishni anglatadi. Demak, integratsiya mantiqiy kategoriya bo‘lsa, integratsiya psixologik kategoriyadir.

Qisqa, to‘liq bayon matnning asosiy xususiyati hisoblanadi. Har qanday matn (yozma yoki og‘zaki) bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan fikrlar yig‘indisidir. Matn chegaralarini faqat uni yaratgan shaxs (yozuvchi yoki hikoya qiluvchi) belgilaydi[4].

Tahlil va natijalar

Amaliy maqsadiga ko`ra matn bir necha turlarga bo`linadi: yozma matn, og`zaki matn. Bu tipdagi matnlar, o‘z navbatida, bir qancha kichik guruh va turlarga bo‘linadi. Masalan, og‘zaki matnlar quyidagi turlarga bo‘linadi:

a) dialogik matnlar (suhbat),

b) folklor (folklor) matnlari,

c) ovozli (mish-mishlar).

Har bir matn turi boshqa matn turlaridan o‘ziga xos xususiyatlari, tuzilishi va mazmuni bilan farqlanadi. Masalan, ertak, topishmoq, maqol, matal kabi matnlar xalq og‘zaki ijodi namunalari bo‘lsa-da, ular o‘ziga xos xususiyatlarga ega[5].

Yozma matnlar tarkibiga kiruvchi monografiyalar, ilmiy maqolalar, ilmiy-ommabop maqolalar, taqrizlar, muammoli maqolalar, risolalar turli o`ziga xos belgilari bilan ajralib turadi. Masalan, ilmiy maqola deganda u yoki bu masala yuzasidan ilgari ma’lum bo‘lgan fikrlarni muhokama qilish, so‘ngra muallifning mavzu bo‘yicha yangi ilmiy qarashlari bayon etilishi va bu qarashlarni amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha tavsiyalar beriladi. ilmiy maqola matnining tugallanishi tushuniladi.

Matnning tuzilishi uch qismga bo‘linadi: a) ifoda qobig‘i, b) matn mazmuni (semantikasi) c) matn grammatikasi.

Matnning yaxlitligini saqlaydigan narsa uning ortidagi asosiy g‘oyadir. Bu fikr matn tilshunosligida makrotema deb ataladi. Makrotemalar, o‘z navbatida, bir nechta mikrotemalardan iborat[6]. Mikromavzular matnning asosiy g‘oyasi, ya'ni makrotema orqali o‘zaro bog‘langan. Matnni tashkil etuvchi birliklar orasidagi bog‘lanish gipoteza va implikatsiya munosabati orqali amalga oshiriladi. Bu ikki tushuncha o‘zaro bog‘liqdir. Matndagi har bir yangi gap oldingi gapni to‘ldiradi va o‘z navbatida yangi gap qurish uchun zamin tayyorlaydi. Shunday qilib, matndagi so‘zlar o‘zaro bog‘lanadi. Bu matn tilshunosligida presuppozitsiya yoki implikatsiya deyiladi.

Matn komponentlari orasidagi bog‘lanishda gapning real bo‘linish imkoniyati muhim rol o‘ynaydi. Bu nazariyaga ko‘ra, har qanday gap ikki qismga bo‘linadi:

a) ma'lumotning eski qismi - sub'ekt;

b) yangi ma'lumotlar - rema. Matnda yangi gap yasashdan maqsad olmoshni ifodalash.

Gap shunchaki olmosh emas, uning predmeti ham bo‘lishi kerak, chunki gap o‘z predmeti (eski ma’lumot) va oldingi gap yoki gap tizimi bilan o‘zaro bog‘langan[4]. Demak, matndagi mavzu va olmoshlarning bunday almashinuvi matnning yaxlitligini o‘zaro bog‘liqligini ta’minlaydi.

Matn lingvistikasining ta’rifiga ko‘ra rema quyidagi vositalar bilan ifodalanadi:

a) noaniq artikllar;

b) so‘z tartibi (inversiya);

c) mantiqiy urg‘u;

d) yuklamalar;

e) ayrim sintaktik konstruksiyalar[7].

Mavzuni ifodalashda quyidagi vositalar ishtirok etadi:

a) olmoshning ayrim turlari;

b) aniq maqolalar;

c) o‘rin va zamon ma'nosini sintetik tarzda ifodalovchi so‘zlar (qachon - keyin, qaerdadir - u erda);

d) ba'zi kirish so‘z va iboralar (haqiqatan ham, nolga o‘xshaydi);

e) so‘z va gap tartibi;

f) matn g‘oyasi bilan bog‘liq etakchi so‘zlarni takrorlash va boshqalar.

Xulosa

Har qanday matn yaratish muayyan amaliy maqsadga ega. Matnlar maqsadiga qarab farqlanadi. Shu munosabat bilan matnlarni to‘rt turga bo‘lish mumkin:

a) og‘zaki matn,

b) yozma (qo‘lyozma),

c) bosma matnlar,

d) ommaviy matnlar. Bu matnlarning har biri, o‘z navbatida, bir nechta kichik turlarga bo‘linadi. Masalan, og`zaki matn: monolog, dialog (suhbat), ovoz (mish-mish), folklor kabi turlardan iborat.

Qo‘lyozmalar to‘rt turga bo‘linadi:

epigrafik matnlar - bularga predloglar, indekslar kiradi. Masalan, NDPI, Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, aeroport, yotoqxona.

Sfragistik matnlar - bularga muhrga yopishtirilgan matnlar kiradi.

Numizmatik matnlar - pullar, tangalardagi yozuvlar.

Paleografik yozuvlar - a) xat, b) hujjat, c) ijodiy ish.

Bosma matnlar qo‘lyozmalarning mukammal shakli bo‘lib, ular o‘z navbatida badiiy matn va ilmiy matnlarga bo‘linadi. Badiiy matnlarga badiiy asarlar kiradi, ilmiy matnlarning turlari ham xilma-xildir.

Ommaviy axborot vositalari matnning to‘rtinchi turidir. Bu matnlarni ommalashtirishda texnik vositalarning (radio, televidenie, kino) o‘rni beqiyos. Ushbu matnlar bir marta nashr etiladi va agar ular takrorlansa, qo‘shimcha ma'lumotlar qo‘shilishi kerak. Bunday matnlar aholini eng so‘nggi yangiliklar (gazeta, jurnal, radio, televideniya) bilan ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Al-Sharafia. Textual Metonymy: A Semiotic Apptordi. –New York: Palagrave Macmillian, 2004.

2. Akhmedova M.B. Ways of translation of ‘spirituality’ terms in English and Uzbek languages. Proceedings of the ICECRS, November 2019 (https://doi.org/10.21070/icecrs.v4i0.124), DOI 10.21070/icecrs.v4i0.124

3. Islomov Eldor, Ahmedova Mehrinigor Bahodirovna. The essence of spirituality in the Uzbek language. XIII международная научно-практическая конференция " язык и культура", Челябинск, 26 апреля 2018 года

4. Bahodirovna, Akhmedova M. "Lexicographic Analysis of “Spirituality” Terms in English and Uzbek Languages." International Journal on Integrated Education, vol. 2, no. 5, 2019, pp. 140-143, doi:10.31149/ijie.v2i5.190 (https://dx.doi.org/10.31149/ijie.v2i5.190).

5. Gafurov B.Z. Similarities and differences of segment background options for Russian, Uzbek and English languages // Monografia pokonferency jnascience, Research, development №26. – Познань/Poznan, 2020. – Pp.17-19.

6. Langacker R. Active zones//Proceedings of the Annual Meeting of the Berkeley Linguistic Society, 1984.vol.10.-p.172-188.

7. Gafurov B.Z. Analysis of the relationship of medical terminology with segment phonostylistics of the noun in Russian, Uzbek and English languages // Theoretical & Applied Science. International Scientific Journal. –Philadelphia, USA, 2020.–№1 (81). –P.464-466. http://T-Science.org. (Impact Factor SJIF 5.6).

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Yorova Sayora Karimovna
PhD, Head of the Department of Languages
Samarkand State Medical University
s.yorova@mail.ru
Zainab Aijaz
Student Samarkand State Medical University
zainabaijaz@gmail.com

INSUFFICIENT AND IRREGULAR DEGREES OF COMPARISON OF ADJECTIVES

Annotation. *The article explains the irregularities in the degrees of comparison adjectives in the medical terminology of the Latin language. The different types of irregularities are mentioned along with their examples. The English word meaning of the Latin terms are also mentioned. Moreover, it states some tips to begin the learning of the terminology. The article further discusses how these irregularities affect the understanding and usage of Latin medical terms, making it challenging for students and professionals alike. It highlights the importance of recognizing and mastering these variations to ensure proper application in medical practice. Additionally, the article suggests practical strategies, such as consistent practice and familiarity with common roots and affixes.*

Key words: *adjectives, superlative, positive, comparative degree, grammatical categories.*

Ёрова Сайора Каримовна
PhD, Заведующая кафедрой иностранных языков
Самаркандский государственный медицинский университет
Заинаб Аижаз
студентка Самаркандский государственный медицинский университет

НЕДОСТАТОЧНЫЕ И НЕПРАВИЛЬНЫЕ СТЕПЕНИ СРАВНЕНИЯ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются неправильные степени сравнения прилагательных в медицинской терминологии латинского языка. Различные типы неправильных степеней сравнения прилагательных упоминаются вместе с их примерами. Также упоминается английское значение латинских терминов. Кроме того, в статье предлагаются практические стратегии, такие как последовательная практика и знакомство с общими корнями и аффиксами. В статье далее обсуждается, как эти неправильные степени сравнения прилагательных влияют на понимание и использование латинских медицинских терминов, усложняя задачу как для студентов, так и для специалистов. В нем подчёркивается важность распознавания и освоения этих различий для обеспечения надлежащего применения в медицинской практике. Кроме того, в статье предлагаются практические стратегии, такие как последовательная практика и знакомство с общими корнями и аффиксами.*

Ключевые слова: *прилагательные, превосходная степень, положительная, сравнительная степень, грамматические категории.*

Yorova Sayora Karimovna
PhD, Tillar kafedrasi mudiri
Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti
Zainab Aijaz
Talaba Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti

SIFATLARNI TAQQOSLASHNING YETARLI VA NOTO‘G‘RI DARAJALARI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada lotin tilining tibbiy terminologiyasidagi sifatlarning qiyosiy darajalaridagi noto‘g‘ri shakllari ifoda etilgan. Har xil turdagi noto‘g‘ri shakllari ularning misollari bilan birga aks etilgan. Lotin terminologiyasining inglizcha so‘z ma’nosi ham ko‘rsatib o‘tilgan. Bundan tashqari, unda terminologiyani yaxshiroq anglash boshlash uchun ba’zi qoidalar ham mavjud.*

Such an integrated methodological framework is beneficial for elucidating the linguistic and cognitive underpinnings of perception. This study adds empirical backing to the notion that cross-linguistic comparison, especially between languages as culturally distinct as English and Uzbek, can reveal the diversity and richness of human cognition. A caveat to bear in mind is the reliance on existing research rather than a newly compiled corpus of spontaneous speech data. While referencing established works allows for broader thematic coverage and reliability, it also constrains the exploration of spontaneous or emerging usages. Future studies could expand upon the present findings by gathering real-time data from bilingual speakers, employing techniques such as think-aloud protocols or metaphor elicitation tasks to uncover dynamic cognitive processes [9; 35].

Additionally, exploring further domains (e.g., color perception, moral concepts, or kinship terms) in English and Uzbek could deepen our grasp of how perception is shaped by language and culture. Integrating psycholinguistic experiments or neuroimaging studies could also lend a novel dimension to understanding how conceptual metaphors and frames are processed in the brain.

Conclusion

Cognitive Linguistics offers a powerful lens through which to examine how perception is conceptualized, structured, and conveyed in different languages. This study has demonstrated that English and Uzbek share underlying embodied metaphors, such as UP IS GOOD and DOWN IS BAD, as well as the notion that time holds significant value. However, cultural and historical contexts color these shared foundations, leading to language-specific nuances. Uzbek's usage of organ-based metaphors like *jigar* (liver) for affection, or the reliance on gold imagery to express time's value, are prime examples of the cultural embedding of perception.

Such findings underscore the importance of investigating linguistic phenomena across culturally diverse contexts. By acknowledging both the universal cognitive basis of language and the particular cultural schemas within which languages operate, researchers, educators, translators, and language learners gain a more holistic understanding of how meaning is constructed and communicated. In a world marked by rapid globalization and increasing linguistic contact, insights from Cognitive Linguistics are more relevant than ever, guiding us to appreciate the richness of human cognition as it is manifested through our languages.

Used litetature

1. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. Chicago: University of Chicago Press.
2. Langacker, R. W. (1987). *Foundations of Cognitive Grammar, Vol. I: Theoretical Prerequisites*. Stanford, CA: Stanford University Press.
3. Talmy, L. (2000). *Toward a Cognitive Semantics (Vol. I)*. Cambridge, MA: MIT Press.
4. Sharipov, O. (2019). *Cognitive Linguistics and National Identity in the Uzbek Language*. Tashkent: Fan va Tarqqiyot.
5. Rakhimov, B. (2020). Metaphorical Mapping in Uzbek: A Cognitive Approach. *Journal of Uzbek Language Studies*, 12(2), 33–44.
6. Wierzbicka, A. (1992). *Semantics, Culture, and Cognition*. Oxford: Oxford University Press.
7. Fillmore, C. (1982). Frame Semantics. In *Linguistics in the Morning Calm* (ed. The Linguistic Society of Korea), 111–137. Seoul: Hanshin.
8. Fauconnier, G., & Turner, M. (2002). *The Way We Think: Conceptual Blending and the Mind's Hidden Complexities*. New York: Basic Books.
9. Turner, M. (1996). *The Literary Mind: The Origins of Thought and Language*. New York: Oxford University Press.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Xoshimova Odina Olim qizi
NamDCHTI tayanch-doktoranti,
odina.khoshimova@gmail.com

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI ZOOFRAZEMALARNI O‘QUV LUG‘ATLARDA BERILISHI

Annotatsiya. *Zoonimik frazeologik birliklarga bag‘ishlangan o‘quv lug‘atlari o‘quv jarayoni bilan aloqador bo‘lishi eng asosiy masala hisoblansa, astalik bilan o‘quv kompleksining to‘laqonli a’zosiga aylanib borishi, o‘quv mashg‘ulotlariga, darsliklarga moslashtirilishi maqsadga muvofiqdir. Bunday lug‘at maqolalari ham sodda, aniq, tushunarli, hajman kichik, o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos kelishi ahamiyatlidir. Har qanday lug‘atning fraznigi lug‘at maqsad - vazifalariga bog‘liq bo‘lib umumleksikografik tamoyillar asosida tuziladi.*

Kalit so‘zlar:*zoonimlar, frazeologik iboralar, lug‘at tuzish, o‘quv lug‘ati, frazniklar, lug‘at tuzish tamoyillari.*

Xoshimova Odina Olim qizi
student of NSIFL

PRESENTATION OF ZOOPHRASES IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES IN EDUCATIONAL DICTIONARIES

Abstract. *If the most important issue is that the educational dictionaries dedicated to zoonymic phraseological units are related to the educational process, it is appropriate to gradually become a full-fledged member of the educational complex, to be adapted to educational activities and textbooks. It is important that such dictionary articles are simple, clear, understandable, small in size, and suitable for the age characteristics of students. Phrases of any dictionary are compiled on the basis of general lexicographical principles, depending on the goals and tasks of the dictionary.*

Key words: *zoonyms, phraseological expressions, vocabulary building, educational vocabulary, idioms, principles of vocabulary building.*

Хошимова Одина Олим кизи
PhD студент НамГИИЯ

ПРЕДСТАВЛЕНИЕ ЗООФРАЗ НА УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ В УЧЕБНЫХ СЛОВАРЯХ

Аннотация. *Если важнейшим вопросом является то, что учебные словари, посвященные зоонимическим фразеологизмам, имеют отношение к учебному процессу, то целесообразно постепенно становиться полноправным членом учебного комплекса, адаптироваться к учебной деятельности и учебникам. Важно, чтобы такие словарные статьи были простыми, ясными, понятными, небольшими по размеру и подходили возрастным особенностям учащихся. Фразы любого словаря составляются на основе общих лексикографических принципов в зависимости от целей и задач словаря.*

Ключевые слова: *зоонимы, фразеологические выражения, словарный запас, учебная лексика, фразеологизмы, принципы словарного состава.*

Kirish.

Hayvon nomi bilan bog‘liq frazeologik birliklarga bag‘ishlangan o‘quv lug‘atchiligi tarixini o‘rganish va uni bunyod etish harakatlari ingliz tilshunosligida ham, o‘zbek tilshunosligida ham umumiy lug‘atchilik masalalarini o‘rganishdan bir nechta asrdan so‘ng boshlangan. Shunisi ma’lumki, bunday lug‘atchilik tarixi va uni yaratish masalasi umumiy holatda o‘rganilgan. Aslida, mantiqan yondashadigan bo‘lsak, kichik hajmli dastlabki inglizcha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-inglizcha tarjima lug‘atlari, shuningdek, mumtoz shoirlar ijodini o‘rganish uchun xizmat qiladigan lug‘atlar o‘zbek o‘quv lug‘atlarining dastlabki namunalaridir.

Asosiy qism.

Har qanday lug‘at biror mavzudagi tizimlashtirilgan ma’lumotlar asosida jamlangan didaktik asar hisoblanadi. O‘quvchilar uchun maxsus

lug‘atlar yaratish fikri umumiy lug‘atlar bilan ishlash, ularni yaratish jarayonida paydo bo‘lgan. «O‘quv lug‘ati» termini birinchi marta rus tilshunosligida Y. D. Polivanovning «Qisqacha ruscha-o‘zbekcha lug‘at»ga yozgan kirish so‘zida ishlatiladi. Muallif lug‘atni tavsiflar ekan «...o‘z hajmiga ko‘ra lug‘at ma’lumotnoma lug‘atlar sirasiga kirmaydi, u ko‘proq o‘quv lug‘ati tizimiga tegishlidir...» –deydi. Shuni ta’kidlash joizki, o‘quvchilarning ijodiy tafakkuri, mustaqil fikrlash darajasi, ijodiy fikr mahsulini og‘zaki va yozma shakllarda ravon bayon etishga olib keladigan qimmatli va boy so‘z zahirasini vujudga keltiradigan kichik hajmli lug‘atlarga o‘quv lug‘atlari deyiladi.

Zoonimik frazeologik birliklarga bag‘ishlangan o‘quv lug‘atlari o‘quv jarayoni bilan aloqador bo‘lishi eng asosiy masala hisoblansa, astalik bilan o‘quv kompleksining to‘laqonli a’zosiga aylanib borishi, o‘quv mashg‘ulotlariga, darsliklarga moslashtirilishi maqsadga muvofiqdir. Bunday lug‘at maqolalari ham sodda, aniq, tushunarli, hajman kichik, o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos kelishi ahamiyatlidir. Har qanday lug‘atning fraznigi lug‘at maqsad - vazifalariga bog‘liq bo‘lib umumleksikografik tamoyillar asosida tuziladi. Hozirgi kungacha fraznik yaratish borasida o‘zbek olimlari tomonidan tadqiqotlar olib borilgan va bir qator tamoyillar tavsiya etilgan. Ulardan biri O.Azamov frazeologik o‘quv lug‘atiga tartib berishda frazeografik tamoyillarini ko‘rib chiqadi.

Biz ham yuqorida ta’kidlangan tamoyillarga asoslanib hayvon nomi bilan bog‘liq frazeologik birliklarga doir o‘quv lug‘atlarini quyidagi asosiy tavsifiy belgilar orqali bunyod etilishi maqsadga muvofiq bo‘lishini ko‘rib chiqamiz:

1. Zoofraznik darslik vazifasiga muvofiqlashtirilishi talab etiladi. Zoofraznik o‘quv lug‘atlari o‘quv jarayoni bilan aloqadorlashtirilib, sekinlik bilan o‘quv kompleksining to‘laqonli a’zosiga aylanib borishi, o‘quv mashg‘ulotlariga moslashtirilishi lozim. Tuzulishi mo‘ljallangan lug‘at asosan O‘zbekiston Respublikasidagi chet tillari institutlarida, viloyatlardagi barcha universitetlarning xorijiy tillar fakultetlarida o‘qitilayotgan ingliz tili yo‘nalishi o‘qituvchilari, talabalariga mo‘ljallanadi. Lug‘atdan umumta’lim maktablarida o‘qitilayotgan ingliz tili darslarida keng foydalanish mumkin. Lug‘at filologik yo‘nalishlarga mo‘ljallangan bo‘lib, u o‘zining ma‘lumotnoma (spravochnik) vazifasini amalga oshirishda imkon darajasida lug‘atga olingan zoofrazemalarni atroflicha tavsiflab, ingliz tili frazeologiyasini aniq qo‘llanish ko‘lamini ko‘rsatib beradi. Bunda lug‘atdan foydalanuvchi shaxs imkon qadar ingliz tili zoofrazemalari haqida batafsilroq ma‘lumotga ega bo‘lishi talab etiladi. Shuningdek, lug‘at tarkibiga olinayotgan barcha zoofrazemalar oliy o‘quv yurtlari, o‘rta maktab darsliklari, o‘quv qo‘llanmalar va o‘quv jarayoniga jalb etilgan badiiy-publitsistik adabiyotlar asosida shakllanadi. Ushbu manbalarda uchraydigan zoofrazemalar atroflicha izohlanadi, ularning o‘zbek tilidagi muqobillari ekvivalentlari tavsiya etiladi. Ushbu ko‘rsatilgan o‘quv zoonim frazeologik o‘quv lug‘atining o‘ziga xos xususiyatlari bilan boshqa bir va ikki tilli lug‘atlardan farq qiladi. Jahon frazeografiyasi ilmiy va amaliy jabhalarida bunday o‘quv zoofrazeologik lug‘atning bunyod etilishi yangi shakllanayotgan mutaxassislarni chet tillarni mukammal o‘rganishdagi ahamiyati sezilarli darajada nomoyon bo‘ladi.

2. Tuzulishi jihatidan katta bo‘lmasligi kerak. Hali o‘quv lug‘atchiligi ommalashmagan davrlardayoq, lug‘atlar xususida to‘xtala turib L.V.Sherba «barcha katta hajmli lug‘atlar foydalanuvchida oxir-oqibat bezovtalik keltirib chiqaradi. Kichik lug‘atlar maxsus toifadagilar uchungina yaratilishi mumkin...», [2] –deya o‘quv lug‘atlarining hajman kichik bo‘lishiga ishora qilib ketgan edi. Chunki katta hajmli lug‘atlar bilan ishlash o‘quvchilarida turli noqulayliklarni keltirib chiqaradi. Shu asosida zoonimik frazeologik o‘quv lug‘atlarida ham ma’lum tur hayvon nomlari alohida olinishi maqsadga muvofiqdir. (Suv hayvonlari nomi bilan bog‘liq frazeologik birliklar, uy hayvon nomlari bilan bog‘liq frazeologik birliklar va b.) Qolaversa, hozirgi kunda maxsus chastotali (tez- tez qo‘llanib turiladigan) frazemalar lug‘ati bo‘lmaganligi sababli lug‘at mualliflari o‘zlari tomonidan lug‘atlar qiyosiy asosda olingan ma‘lumotlarga tayanadilar. Asosan ingliz tillardagi zamonaviy frazeologik lug‘atlar ma‘lumotlari va respublikamizda o‘qitilayotgan ingliz tili darslarida qo‘llaniladigan hamda badiiy adabiyotlarda tez-tez uchrab turadigan frazemalarga tayanib bir qator mualliflar tomonidan 1000 dan 1300 ga qadar zoonim komponentli frazeologik iboralar lug‘atlari barpo etishmoqda.

3. Iboralarni o‘zida mujassam etgan zoofraznik sodda va tushunarli bo‘lishi bilan ahamiyatlidir. Lug‘at maqolalarining tuzilishi, jumlalarning sodda, aniq va tushunarliligi, o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos so‘zlarni, eng zarur ma’lumotlarni qamrab olishi, izohlarning so‘zning eng muhim qirrasini aniqlashga qaratilganligi, maqsadga aniq yo‘naltirilganligi, foydalanish uchun qulayligi bilan ham boshqa turdagi lug‘atlardan farqlanadi. O‘quvchi lug‘atni qo‘lga olgandayoq nimaga mo‘ljallangani, undan qanday ma’lumotni izlash mumkinligi hamda foydalanish yo‘llarini bila olishi lozim.

4. Estetik didga moslashtirish hozirgi zamon o‘quvchilarining qiziqishini orttiruvchi vositalaridandir. Hayvon nomi bilan bog‘liq frazeologik o‘quv lug‘ati maqsadli ravishda yetarli va zaruriy bezaklari bilan,

[2] Л.В. Щерба ; Филол. фак. С.-Петербург. гос. ун-та. - 3-е изд., испр. и доп. - М. : Academia, 2003, 2002. - 151 с.

nazarda tutilyotgan hayvon illustrasiyalari, qo‘shimcha materiallar bilan boyitilishi, leksikografik simvolikaga kam yo‘l berilishi o‘quvchining e’tiborini tortishi maqsad qilinadi.

5. Zoonimik frazeologik birliklarni o‘rganishga doir mashqlar ilova qilinadi. O‘quv lug‘atlarining o‘quv uslubiy qurilmasi lug‘atdagi ma’lumotlarga munosabat bildirishga jalb qiluvchi qo‘shimcha savollar tizimi, leksikografik belgilarning sodda izohi, diqqatni tortadigan noan’anaviy usullarda tuzilgan lug‘at bilan ishlash mashqlari bilan boyitilishi lozim. Bunday yondashuv o‘quv lug‘atini qiymatini oshirishga, u orqali esa o‘quvchining o‘rganayotgan obyektini mustahkam o‘zlashtirilishiga olib keladi.

6. Zoonimik frazeologik birliklarga bag‘ishlangan o‘quv lug‘ati adabiy til me’yorlarini o‘rganilishiga sabab bo‘ladi. Lug‘atlarning aksariyati adabiy til me’yorlarini belgilash vazifasini bajaradi. Lug‘atning me’yoriyligi shundan iboratki, unda adabiy tilning imlo, talaffuz, so‘z yasash va uni ishlatish me’yorlari tavsiya etiladi.

Lug‘atning yuzaga kelishi, adabiy til me’yorlarini qat’iy, barqaror holga keltirish bilan birga, unda uzil-kesil hal etilmagan masalalarni aniqlash hamda bartaraf qila borish uchun ham yordam beradi. Shuni ham alohida qayd etib o‘tish kerakki, me’yoriy lug‘at adabiy til me’yorlarini belgilashga intilar ekan, me’yorlarni abadiylashtirmaydi. Chunki til me’yorlari ham, tilning o‘zi kabi, ijtimoiy taraqqiyot bilan bog‘liq holda o‘zgarib, rivojlanib turadi.

Xulosa

Zoonim komponentli frazeologik o‘quv lug‘ati bilan ishlash jarayoni o‘quvchining nafaqat mustaqil fikrlash va nutqiy savodxonligini o‘stirishi bilan, balki unda lug‘atlarga bo‘lgan qiziqishni orttiishi, umumiy va akademik lug‘atlardan foydalanish ko‘nikmasini shakllanlanishiga olib kelishini oydinlashtiradi. Lug‘atlarning muayyan xalq manaviyati va milliy madaniyatida muhim o‘rin egallashi isbot talab qilmaydigan holatdir. Ularda jamiyatning rna'lum davrda erishgan bilimlarini aks etiradi. Lug‘atlar ma'lum ijtimoiy vazifalar bajarishi, jumladan, o‘quvchiga muayyan hodisa yoki holat haqida ma'lumot berishi, uni o‘z va o‘zga tillardagi so‘zlar bilan tanishtirishi, tilni, uning lug‘at tarkibini takomillashtirish va tartibga solishga yordam berishi bilan katta ahamiyatga ega bo‘lib, doimo zamonaga hamnafas tarzda mukammalashib borishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Поливанов Е.Д. Введение в языкознание для востоковедных вузов. – Л., 1928. – С. 60-61.

2.П. Н.Денисов. Об универсальной структуре словарной статьи. –В.кн.: Актуальные проблемы учебной лексикографии. Сост. В.А.Редкин. М., «Русский язык», 1997., 320 с. -С-208

3.Roux J.P.Turklerin Ve Mog`ullarin Eski dini.Ceverin:A.Kazancigil.-Istanbul:Isaret Yayinlari,1998. –S.151.

4.Ройзензон Л. И. Лекции по общей и русской фразеологии. – Самарканд, 1973.

5.Рахматуллаев.Ш. Ўзбек фразеологиясининг айрим масалалари. –Т., 1966.

6.O.B.Azamov. Nemis va o‘zbek tillarida zoonimik komponentli frazeologik birliklarning structural-semantik chog‘ishtirma tahlili, filol.fanlari bo‘yicha falsafa d-ri (PhD)…diss.- Andijon, 2022

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Ataboyev Isroiljon
Toshkent davlat transport universiteti v.b dotsenti PhD
E-mail: isroilataboyev2@gmail.com

UO'K: 81'373.6:371.3

TA'LIMDA TA'NA-DASHNOMNING TA'SIRI VA O'QITUVCHI HAMDA TALABA O'ZARO MUNOSABATLARINING DISKURS TAHLILI

Annotatsiya: *Ushbu tadqiqot ta'limda ta'na-dashnomning ta'siri, o'qituvchi va talaba o'zaro munosabatlarining nutq tahlili ta'lim sharoitidagi ta'na-dashnom konseptini o'rganib, ularning lingvistik, pragmatik va kontekstual jihatlariga e'tibor qaratadi. To'g'ridan-to'g'ri ta'na-dashnom konsepti rasmiy va yuqori quvvatli muhitda zudlik bilan tuzatish uchun keng tarqalgan, xushmuomalalik bilan yumshatilgan bilvosita ta'na-dashnom konsepti norasmiy sharoitlarda va yosh talabalar bilan munosabatlarni saqlab qolish uchun ishlatiladi. Tadqiqot madaniy jihatdan ta'na-dashnom strategiyalarining muhimligi va turli kontekstlarda uni qanday ishlatilishi tahlil qilinadi.*

Kalit So'zlar: *Ta'na-dashnom, ta'lim tili, nutqni tahlil qilish, o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro munosabatlari, auditoriya boshqaruvi, xushmuomalalik strategiyasi, kuch dinamikasi, madaniy kontekst, gender farqlar.*

Атабоев Исроилжон
Ташкентский государственный транспортный университет, исполняющий обязанности доцента, PhD.

ВЛИЯНИЕ УПРЁК-ПОРИЦАНИЕ В ОБРАЗОВАНИИ И ДИСКУРСИВНЫЙ АНАЛИЗ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ УЧИТЕЛЯ И УЧЕНИКА

Аннотация: *Данное исследование посвящено изучению влияния упрёка-порицания в образовании, анализу речи во взаимодействии учителя и ученика, а также исследованию концепта упрёка-порицания в образовательной среде с акцентом на их лингвистические, прагматические и контекстуальные аспекты. Концепт прямого упрёка-порицания широко используется в официальной и властной среде для немедленного исправления, тогда как концепт косвенного упрёка-порицания, смягчённого вежливостью, применяется в неформальной обстановке и в общении с младшими учениками для сохранения взаимопонимания. Исследование подчёркивает важность стратегий упрёка-порицания с учётом культурных особенностей и анализирует их использование в различных контекстах.*

Ключевые слова: *Упрёк-порицание, учебный язык, дискурсивный анализ, взаимодействие учителя и ученика, управление классом, стратегии вежливости, динамика власти, культурный контекст, гендерные различия.*

Ataboyev Isroiljon
Associate Professor, PhD, Tashkent State University of Transport.

THE IMPACT OF REPROACH-REPRIMAND IN EDUCATION AND A DISCOURSE ANALYSIS OF TEACHER-STUDENT INTERACTIONS

Abstract: *This study examines the impact of reproach-reprimand in education, the discourse analysis of teacher-student interactions, and the concept of reproach-reprimand in educational settings, focusing on their linguistic, pragmatic, and contextual aspects. The concept of direct reproach-reprimand is widely used in formal and authoritative environments for immediate correction, while the concept of indirect reproach-reprimand, softened by politeness, is employed in informal settings and with younger students to maintain mutual understanding. The study highlights the importance of reproach-reprimand strategies considering cultural features and analyzes their application in various contexts.*

Keywords: *Reprimand, educational language, discourse analysis, teacher-student interactions, classroom management, politeness strategies, power dynamics, cultural context, gender differences.*

Kirish

Ta'lim sharoitida ta'na-dashnom konseptidan foydalanish o'qituvchi va talaba o'zaro munosabatlarining tez-tez hamda muhim jihati hisoblanadi. Ta'na-dashnom konsepti auditoriyadagi xatti-harakatlarni boshqarish, institutsional me'yorlarni mustahkamlash va saqlash vositasi bo'lib xizmat qiladi. Biroq, ta'na-dashnom konseptining tili va yetkazib berilishi talabalarni qabul qilish, tushunish va tuzatuvchi

mulohazalarga javob berishga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu tadqiqot ta'lim nutqidagi ta'na-dashnom konseptining rolini o'rganib, ularning lingvistik xususiyatlari va pragmatik funksiyalariga e'tibor qaratadi. Hozirgi kunda auditoriyadagi o'zaro ta'sirlarni nutq-analitik obyektiv orqali tahlil qilib, ushbu tadqiqot ta'na-dashnom konsepti qanday tuzilganligini, kuch dinamikasini qanday boshqarishini va talabalarning xulq-atvoriga hamda umumiy o'quv muhitiga qanday ta'sir qilishini aniqlashga intiladi. Ma'lumotlar o'qituvchilarning auditoriyani boshqarish usullari haqida tushuncha berishga qaratilgan bo'lib, talabalar bilan munosabatlarni muvozanatlashtiradi.

Adabiyotlar tahlili

Ta'lim sharoitida ta'na-dashnom konseptining roli nutqni tahlil qilish sohasida ularning o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ta'siriga hamda auditoriya dinamikasiga ta'siriga katta e'tibor qaratadi. Adabiyot sharhida ta'lim tilida ta'na-dashnom foydalanish bo'yicha asosiy ilmiy istiqbollari ularning til xususiyatlarini o'rganish, pragmatik vazifalari, auditoriya boshqarish va talaba xatti-harakati uchun keng oqibatlari tahlil qilinadi. Nutq harakatlarining asosiy nazariyalari ta'na-dashnom konseptini tushunish uchun muhim asos yaratadi. To'ra Tosh Muhammad Zarif o'zing Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" "tanbeh"lar talqini nomli maqolasida quyidagi fikrlarni keltirib o'tadi. "Alisher Navoiy insonlardagi yomon illatlarning o'rnini qanday qilib yaxshi xislatlarga aylantirishni aniq ko'rsatib berganlar va bu yozganlariga ham o'zlari doimo amal qilgan. Adib insonlarda uchraydigan bir qancha qusurlarni qattiq tanqid ostiga oladi: *Tilga ixtiyorsiz-elga e'tiborsiz. Nodonning vahshiylarcha baqirmog'i-eshakning bemahal hangramog'i*" [1]. Shuningdek biz oldingi tadqiqotlarimizda ta'na-dashnom konseptiga sinonim maddohlik qilmoq konseptiga ham o'z fikrlarimizni keltirib o'tganmiz. "Hozirgi o'zbek tilda maddohlik qilmoq fe'li ham oshirib maqtash amalini bildiradi. Lekin bu fe'lning ma'nosi salbiy emotsional bo'yoq bilan ajralib turadi. Shuningdek, oqlamoq fe'lining ko'chma ma'nosida ham ijobiy baho elementi bor. Lekin bu fe'l yuqorida tahlil etilgan fe'llardan bir muxim xususiyati bilan farq qiladi. Bu fe'l ko'chma ma'noda har qanday odam to'g'risida ijobiy gap gapirishni emas, balki biror qilmishda shubhaga olingan odam to'g'risida ijobiy gap gapirishni bildiradi" [2].

Mahalliy tadqiqotchilarimizdan Gulnoza Jumayeva ta'na-dashnom konspetini sinonimi kinoyaga quyidagicha ta'rif beradi "Ta'sir qilishning shavqatsizligi, keskinligi anglangan holatda bu terminning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Inson qachondan boshlab kinoyani anglaydi, yoki voqeylikka bunday munosabat qilishni boshlaydi? Soha mutahasisslariga ma'lumki bolalar adabiyotida sarkazm, kinoyani uchratish birmuncha qiyin. Uchragan taqdirida ham uni o'qigan bolalar buni samimiy va boricha qabul qilishadi" [3]. Braun va Levinson xushmuomalalik nazariyasi ta'na-dashnom konsepti yuzni tejash o'rtasidagi keskinlikni qanday boshqarishi haqida tushuncha beradi [4]. Ta'na-dashnom konsepti tabiatan yuzga tahdid soluvchi harakatlardir, chunki ular talabalarning salbiy yuz istaklariga-ularning majburlashsiz erkin harakat qilish istagiga qarshi chiqadi. Tadqiqotchilar o'qituvchilar ta'na-dashnom konseptining yuziga tahdid soluvchi tabiatini, shu jumladan evfemizm va bilvosita tilni yumshatish uchun turli xil xushmuomalalik strategiyalarini qanday qo'llashlarini o'rganishdi. Ushbu strategiyalar tuzatuvchi mulohazalarni talabalar bilan ijobiy shaxslararo munosabatlarni saqlab qolish zarurati bilan muvozanatlash uchun ishlatiladi.

Madaniy kontekst ta'na-dashnom konseptidan foydalanish va idrok etishni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Skollon va Vierzbicka madaniy me'yorlar ta'na-dashnom konseptining to'g'riligi va xushmuomalaligiga qanday ta'sir qilishini o'rganishdi [5-6]. Masalan, Yapon yoki Xitoy kabi yuqori kontekstli aloqa uslublariga ega bo'lgan madaniyatlarda ta'na-dashnom konsepti ko'proq bilvosita va ijtimoiy uyg'unlikni saqlab qolish uchun kengroq mulohazalarga kiritilgan. Aksincha, Amerika yoki nemis kabi madaniyatlarda ta'na-dashnom konsepti ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri va aniqroq bo'ladi. Tadqiqotchi Yu Xitoy madaniyatidagi konfutsiylik qadriyatlari ta'na-dashnom strategiyasiga qanday ta'sir qilishini ta'kidlab, guruhning birdamligini va ierarxik munosabatlarga hurmatni saqlab qolish uchun bilvosita va hurmatni ta'kidlaydi [7]. Ta'na-dashnom konseptining tarbiyaviy oqibatlari bo'yicha tadqiqotlar ularning auditoriyadagi xatti-harakatlarini boshqarish va talabalarning muvofiqligini targ'ib qilishdagi samaradorligiga qaratilgan.

Ta'na-dashnom foydalanish Gender farqlar ham o'rganib chiqildi, erkak va ayol o'qituvchilar tuzatish hisobot berish qanday farqlari aniqlandi. Tannen ayol o'qituvchilar o'zaro munosabatlarni saqlab qolish uchun bilvosita ta'na-dashnom konseptidan foydalanish ehtimoli ko'proq, erkak o'qituvchilar esa to'g'ridan-to'g'ri yondashuvni qo'llashlari mumkin [8]. Gender taxminlari va suhbat uslublari ta'na-dashnom konseptining samaradorligiga qanday ta'sir qilishini kengroq o'rganib chiqadi va ta'lim sharoitida gender dinamikasiga sezgirlik zarurligini ta'kidlaydi. Ta'lim tilidagi ta'na-dashnom haqidagi adabiyotlar ushbu nutq harakatlarining murakkabligini va ularning o'qituvchi va talaba o'zaro munosabatlaridagi ko'p qirrali rolini ta'kidlaydi. Nazariy asoslar, nutqni tahlil qilish, xushmuomalalik nazariyasi va madaniy istiqbollar barchasi ta'na-dashnom konseptining ta'lim sharoitida qanday ishlashini tushunishga yordam beradi. Keyingi tadqiqotlar ta'na-dashnom konsepti, kuch dinamikasi va madaniy me'yorlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganishni davom ettirishi kerak, bu ularning auditoriya boshqaruvi hamda talabalar natijalariga ta'sirini yanada yoritib beradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqot o'qituvchi va talabalarning o'zaro munosabatlarini tahlil qilish orqali ta'lim tilidagi ta'na-dashnom konseptining ta'sirini o'rganadi. Tadqiqotda sifat va miqdoriy texnikalar birlashtirilgan aralash usullar qo'llaniladi. O'qituvchilarning va talabalarning haqiqiy o'zaro munosabatlari asosida korpus tuzilib, unda auditoriya kuzatuvlari, audio va video yozuvlar, hamda o'quv materiallari sharhlari tahlil qilinadi. Sifatli tahlil ta'na-dashnomning

lingvistik va pragmatik jihatlariga qaratilgan. Lingvistik xususiyatlar, kontekstli omillar, o‘qituvchi va talaba munosabatlari hamda madaniyatlararo tahlil ta’na-dashnomning samaradorligini o‘rganishda muhim o‘rin tutadi. Tadqiqotning madaniyatlararo komponenti turli madaniy kontekstlarda ta’na-dashnom strategiyalarini taqqoslash va ularning auditoriyalarga ta’sirini tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Keyingi tadqiqotlar ushbu natijalarni kengaytirish va tasdiqlash uchun qo‘shimcha ta’lim kontekstlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lishi kerak..

Tahlil va natijalar

Maqolada ta’lim jarayonida ta’na-dashnom konseptining lingvistik, pragmatik va kontekstual jihatlari diskurs tahlili asosida o‘rganildi. Natijalar ta’na-dashnomning o‘qituvchi va talaba munosabatlarida muhim rol o‘ynashini ko‘rsatdi. Uning qo‘llanilish uslubi muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy maqomi, madaniyati va genderiga bog‘liq. Ta’na-dashnom ikki asosiy shaklda namoyon bo‘ladi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri shakl tartibni saqlash va intizomni mustahkamlash uchun ishlatilsa, bilvosita shakl yumshoqroq bo‘lib, motivatsiya va rag‘batlantirishga qaratilgan. Lingvistik tahlil tajribali o‘qituvchilar bevosita ta’na-dashnomni ko‘proq qo‘llashini, yosh pedagoglar esa yumshoqroq shakllardan foydalanishini ko‘rsatdi. Pragmatik tahlil esa uning samaradorligi kontekst, talaba yoshi va o‘qituvchining vakolatiga bog‘liq ekanligini aniqladi. Madaniy tahlil G‘arbda ta’na-dashnom ochiq va bevosita, Sharq madaniyatlarida esa yumshoq va bilvosita shaklda qo‘llanilishini ko‘rsatdi. O‘zbek ta’lim tizimida ustoz-shogird an’analari asosida bilvosita ta’na-dashnom keng tarqalgan. Gender tahlili erkak o‘qituvchilarning qat’iy va bevosita, ayol o‘qituvchilarning esa yumshoq va bilvosita yondashuvdan foydalanishini aniqladi. Tahlil ta’na-dashnomning ta’lim intizomini mustahkamlash yoki aksincha, talabalar motivatsiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini ko‘rsatdi. U samarali ishlatilganda auditoriyani boshqarish va ta’lim jarayonini yaxshilashga xizmat qiladi. Fikrimizcha, haddan tashqari qat’iy yondashuv o‘quvchilarning o‘ziga ishonchi pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, o‘qituvchilar lingvistik, madaniy va psixologik omillarni hisobga olgan holda, ta’na-dashnomni moslashuvchan va ehtiyotkorlik bilan qo‘llashlari zarur deb hisoblaymiz.

Xulosa

Maqolamizda ta’na-dashnom konseptining ta’lim sharoitidagi roli o‘rganilib, ularning lingvistik xususiyatlari, pragmatik funksiyalari va kontekstual ta’sirlari haqida tushunchalar ochib berilgan. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, ta’na-dashnom konsepti auditoriyadagi xatti-harakatlarni boshqarish va me’yorlarni bajarish uchun muhimdir, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’na-dashnom konsepti rasmiy sharoitlarda va darhol tuzatish uchun yuqori quvvatli kontekstlarda keng tarqalgan. Xushmuomalalik strategiyasidan foydalanadigan bilvosita ta’na-dashnom konsepti norasmiy sharoitlarda va o‘quvchilar bilan ijobiy munosabatlarni saqlab qolish va nizolarni kamaytirish uchun tez-tez uchraydi. Talabalarning javoblari ta’na-dashnom turi va o‘qituvchilar vakolatiga qarab farq qiladi, bilvosita ta’na-dashnom konsepti odatda ijobiy muhitni yaratadi. Tadqiqot auditoriyani boshqarishda madaniy jihatdan sezgir va kontekstga mos keladigan ta’na-dashnom strategiyalariga ehtiyoj borligini ta’kidlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Muhammad, Z. (2023). ALISHER NAVOIYNING “MAHBUB UL-QULUB” ASARIDA “TANBEH” LAR TALQINI. *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика*, *2*(1), 76–80. извлечено от https://www.in-academy.uz/index.php/zdit/article/view/8338

2. Ataboyev Isroiljon Mirza o‘g‘li. (2023). O‘ZBEK TILIDA TA’NA-DASHNOM VA TANBEH TUSHUNCHASI. *Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences*, *2*(12), 6–14. Retrieved from https://econferenceseries.com/index.php/srnss/article/view/2987

3. Gulnoza Jumayeva. (2024). KINOYA, UNING TURLARI VA ESTETIK BAHOLASH MEZONLARI. *Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences*, *3*(4), 203–210. Retrieved from https://econferenceseries.com/index.php/srnss/article/view/4321

4. Brown, P., & Levinson, S. C. Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge University Press. 1987.

5. Scollon, R., & Scollon, S. W. Intercultural Communication: A Discourse Approach. Blackwell Publishing. 2001.

6. Wierzbicka, A. Cross-Cultural Pragmatics: The Semantics of Human Interaction. Mouton de Gruyter. 2003.

7. Yu, J. Confucianism and the Role of Politeness in Chinese Society. In Asian Social Science, 2011. Vol. 7, No. 4.

8. Tannen, D. You Just Don’t Understand: Women and Men in Conversation. William Morrow and Company. 1990.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Abduvaliyev Mahamatjon Arabovich
Andijon davlat chet tillari instituti, professori

DUNYO TILSHUNOSLIGIDA TIL VA UNING EVOLYUTSIYASI BILAN BOG‘LIQ TA’LIMOTLAR VA QARASHLAR TARIXIGA NAZAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada dunyo tilshunosligi tarixida o‘z o‘rni va salohiyatiga ega bo‘lgan lingvistik maktablar, fan yo‘nalishlari namoyondalari qoldirgan boy ilmiy meros tahlili, sharhi va ularning til falsafasi, til va uning genezisi, evolyutsiyasi, til umumiy nazariyasi asoslarini yaratilishi va takomillashuviga qo‘shgan hissalari muhokama qilinadi. Hususan, nemis tilshunos olimlari A.Shleyxer, V fon Gumboldt, yosh grammatikachilar maktabi vakillari X.Paul, K.Brugman, G. Ostxof, B.Delbryuk, I.I.Sreznevskiy, F.I.Buslayev, A.A.Potebnya kabi taniqli rus olimlarining muayyan tillar, til oilalari tadqiqiga bag‘ishlangan ilmiy asarlari, ta’limotlari, ularning qator zamonaviy lingvistika yo‘nalishlarining shakllanishi va rivojidagi o‘rni hamda ahamiyati ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *til genezisi, evolyutsiya, individlar psixologiyasi, jamoaviy psixologiya, tilning “biologik” konsepsiyasi, genetik tasnif, takomillashgan\takomillashmagan tillar, flektiv, amorf, agglyutinativ, inkorporativ tillar, til antinomiyalari, tafakkur va til munosabatlari, fikrlash faoliyati, so‘zning uzoq va yaqin ma’nolari.*

Абдувалиев Махаматжон Арабович
Андижанский государственный институт иностранных языков, профессор

ВЗГЛЯД НА ИСТОРИЮ УЧЕНИЙ И ТЕОРИЙ, СВЯЗАННЫХ С ЯЗЫКОМ И ЕГО ЭВОЛЮЦИЕЙ В МИРОВОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются лингвистические школы, имеющие значительное место и потенциал в истории мирового языкознания, анализируется и комментируется богатое научное наследие, оставленное выдающимися представителями данной области. Обсуждаются их вклад в философию языка, его генезис и эволюцию, а также создание и развитие основ общей теории языка. В частности, освещены научные труды и теории известных ученых, таких как немецкие лингвисты А. Шлейхер, В. фон Гумбольдт, представители школы младограмматиков Х. Пауль, К. Бругман, Г. Остхоф, Б. Дельбрюк, а также российские ученые И. И. Срезневский, Ф. И. Буслаев, А. А. Потебня. Рассматриваются их исследования, посвященные изучению отдельных языков и языковых семей, а также их роль и значение в формировании и развитии различных современных направлений лингвистики.*

Ключевые слова: *генезис языка, эволюция, психология индивидов, коллективная психология, "биологическая" концепция языка, генетическая классификация, развитые/неразвитые языки, флективные, аморфные, агглютинативные, инкорпоративные языки, языковые антиномии, соотношение мышления и языка, мыслительная деятельность, дальние и ближние значения слов.*

Abduvaliyev Mahamatjon Arabovich
Andijan State Institute of Foreign Languages, Professor

A LOOK AT THE HISTORY OF DOCTRINES AND VIEWS RELATED TO LANGUAGE AND ITS EVOLUTION IN WORLD LINGUISTICS

Abstract. *This article studies linguistic schools that hold a significant place and potential in the history of world linguistics, analyzing and commenting on the rich scientific heritage left by outstanding scholars in this field. It discusses their contributions to the philosophy of language, its genesis and evolution, as well as the creation and development of the foundations of general linguistic theory. In particular, the article highlights the scientific works and theories of renowned scholars such as German linguists A. Schleicher and W. von Humboldt, representatives of the Neogrammarian school H. Paul, K. Brugmann, G. Osthoff, B. Delbrück, as well as Russian scholars I. I. Sreznevsky, F. I. Buslaev, and A. A. Potebnya. Their research on specific languages and language families, along with their role and significance in the formation and development of various modern linguistic directions, is also explored.*

Keywords: *language genesis, evolution, individual psychology, collective psychology, "biological" concept of language, genetic classification, developed/undeveloped languages, inflectional, amorphous, agglutinative, incorporative languages, linguistic antinomies, relationship between thought and language, cognitive activity, distant and proximate meanings of words.*

Kirish.

Til va madaniyat fenomenlarining genezisi, evolyutsiyasi va istiqboli inson, aniqrog'i muayyan millat, etnosining ma'lum davrdagi hayoti, tarixi, mentaliteti, dunyoqarashi, ijtimoiy-siyosiy vaziyat kabilar bilan chambarchas bog'liq bo'lganligi uchun ham til va madaniyat bilan bog'liq masalalarni til-inson-madaniyat munosabatlari rakursida o'rganish ularni ayro holda o'rganishdan ko'ra sezilarli ravishda samarali natijalarni beradi. Hamkorlik asosida yuzaga kelgan bilimlar ularning har biriga hamda barchasiga taalluqli xususiy, umumiy bilimlar, qonuniyatlarni kashf etish imkonini beradi. Ushbu jarayonda ham intralingvistik ham ekstralingvistik omillarni hisobga olgan holda ish ko'rish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Til evolyutsiyasi va tanazzuli masalasi tilshunoslar tomonidan turlicha talqin qilingan. Masalan, J.G.Kerder, J.V.Grimm, va boshqalar Hindyevropa, jumladan, German tillari bobo tilining "Oltin davri" deb atalgan davridan keyingi davrni tanazzul (inqiroz) davri deb atadilar va buning asosiy sababini tillarda grammatik formalar, turlanish, tuslanish hamda infleksiyaning yo'qolib borayotganligida ko'rgan bo'lsalar, 19 - asr oxirlariga kelib V.Vundt, X.Paul va boshqalar buni individlar psixologiyasi bilan bog'lashga urindilar.

Adabiyotlar.

Til, uning shakllanishi hamda evolyutsiyasi A.Shleyxerning "Yevropa tillari system talqini" (1850), V.fon Gumboldtning "Inson tili a'zolarining farqlari va bunday farqlarning inson zoti aqliy rivojiga ta'siri" (1859), X.Paulning "Til tarixi prinsiplari" (1880), B.Delbryukning "Hindyevropa tillarini o'rganishga kirish" (1880), I.I.Sreznevskiyning "Rus tili tarixi borasidagi fikrlar" (1959), F.I.Buslayevning "Tafakkur va til" (1862), A.A.Potebnyaning "Fikr va til" (1913) kabi tadqiqotlari muhokama qilingan bo'lib, ularda mavzu turlicha yondashuvlar va nuqtai-nazarlardan talqin qilinganligini, ular o'rtasida bir-birlariga zid fikr, mulohaza va qarashlar mavjudligini kuzatish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot ishida til tarixi va evolyutsiyasi bilan bog'liq masalalarni o'rganishnming integrallashgan metodologiyasi (sof lingvistik, tarixiy-madaniy, ijtimoiy-madaniy jihatlarini tadqiq etuvchi usullar majmui) tanlandi.

Tahlil va natijalar.

X.Paul (1846-1921) tilshunoslikni madaniy-tarixiy fan sifatida qaraydi va uning fikricha, bu fanning asosiy vazifasi "individlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayoni, alohida olingan shaxs qabul qilib oluvchi va yetkazuvchi sifatida jamiyat bilan munosabatga kirishuvi, yosh avlod keksa avlodlar merosini qanday egallayotgani kabilarni ko'rsatishdan iborat. Leypsig yosh grammatikachilar maktabining vakili bo'lmish X.Paul jamoaviy psixologiya mavjudligini rad etgan xolda alohida olingan individlarning o'zaro psixologik munosabatlari va individual tillar mavjud, degan fikrni yoqlab chiqadi. Bunday fikrga tayaniladigan bo'linsa, dunyoda qancha insonlar bo'lsa ana shuncha o'z tarixiga ega tillar mavjud degan xulosaga olib keladi. G.Ostxof va K. Brugman ushbu fikrni yoqlagan xolda, tilning xaqiqiy hayoti individ bilan bog'liq bo'lib, tildagi barcha o'zgarishlar so'zlovchi individdan kelib chiqadi, deb hisoblaydilar. X.Paul tilning kommunikativ vazifasini tushuntirish uchun lingvistik muloqotga uzus tushunchasini kiritadi. Uzus, X.Paulga ko'ra, individual tillarga xos bo'lgan umumiy (mavhum) normalar bo'lib, aynan uzus tufayli muloqot amalga oshadi. X.Paul uzus va individual nutqiy faoliyatni bir birlariga zidlaydi, lekin uzusdagi har qanday o'zgarish odatiy nutqiy faoliyat evaziga sodir bo'ladi, deb hisoblaydi.

Buni quyidagicha tasvirlaymiz:



1-jadval. Individual nutq va uzus munosabatlari.

X.Paul so'z ma'nolaridagi okkazional va uzual xolatlar qatorida ma'no torayishi, ma'no kengayishi, ma'no ko'chishi kabilarni farqlaydi.

Iyen universtiteti professori Avgust Shleyxer (1821-1868) til taqdiri alohida olingan shaxsga bog'liq emas deb hisoblaydi, ya'ni til o'z qonuniyatlariga ega bo'lib, ularni inson o'z xohishiga ko'ra o'zgartira olmaydi. A. Shleyxer o'zining "Yevropa tillari sistem talqini" (1850) asarida tilni tirik organizmlar kabi rivojlanuvchi fenomen ekanligi haqidagi konsepsiyasini ilgari suradi. Bu konsepsiya tilshunoslikda tilning "biologik "konsepsiyasi deb nom oldi. Konsepsiya muallifi tilga inson aralashuvisiz rivojlanuvchi tabiiy organizm (struktura) sifatida qaraydi, tilning kelib chiqishi va rivojlanishiga taalluqli qonuniyatlarni yaratishga harakat qilgan. Til hayotida tug'ilish, o'smirlik, yetuklik, qarish va o'lish bosqichlari bo'lishini uqtirishga harakat qilgan.

Til va tafakkur birligini tan olgan xolda A.Shleyxer til va tafakkur qurilishi o'rtasidagi muayyan strukturani ochiqlashga urinadi. U fikrning (мысль) material va shakl tomonini farqlaydi. Fikrning material tomoni deganda

tushuncha va tasavvurni tushunsa, shakl deganda tushuncha va tasavvurlar o‘zaro munosabati natijasida yuzaga keladigan shaklni tushunadi. Tushuncha va tasavvurlar o‘zining tovushli ifodasini topganda ma'no yuzaga kelishi, ma'no so‘z o‘zagida, munosabat esa suffukslar orqali ifodalanishini ta’kidlaydi. Ularning ittifoqi so‘zni yaratadi, deb hisoblaydi. Ushbu tasnifga ko‘ra tillar uch turga bo‘lingan. Birinchi tip tillarga faqat ma'no ifodalangan bir o‘zakli so‘zlarga ega xitoy, birma tillarini kiritadi. Ikkinchi tip tillarga tovush orqali ham ma'no, ham munosabat ifodalangan, qismlarga bo‘luvchi so‘zlarga ega tillar (turk, fin-ugor)ni kiritadi. Uchinchi tip tillarni flektiv tillar deb ataydi va ularga xos muhim jihat ma'no va munosabat so‘z va uni tashkillovchi turli elementlar birligida deb biladi. A. Shleyxerning tillarni uch tipga ajratishi til rivojidagi uch bosqichni anglatadi.

A. Shleyxerning fikriga ko‘ra, yuqoridagi uch til tiplari tarixiy davrga qadar, til paydo bo‘lganda yuzaga kelgan. Bu davrda agglyutinativ tillar amorf, flektiv tillar agglyutinativ tillardan kelib chiqqan. Til rivojining ikkinchi (tarixiy) davrida tilning tovush va shakllari, gap qurilishi va vazifalarida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilgan. Formal jihatdan barcha tillarning kelib chiqishi bir xil ekanligi, lekin turli xalqlarning turmush tarzi va tovushlar tizimining turlicha ekanligi turli tillarni yuzaga keltirgan, deb tushunadi.

Shleyxer Hindyevropa tillari oilasiga mansub tillarning genetik tasnifini birinchilardan bo‘lib taklif qilgan edi. Uning haqli fikriga ko‘ra, yer kurrasidagi tillarning bobotili (праязык)ni aniqlash mumkun emas, faqat qarindosh tillar yagona asos tildan kelib chiqishi, bunday qarindosh tillar o‘z shajarasini yaratadi.

A.Shleyxer, F. Shlegelning barcha Hindyevropa tillarining birinchi manbasi sanskrit ekanligi haqidagi fikriga qo‘shilmagan bo‘lsada, Hindyevropa bobotili tovush tarkibini qayta tiklash (rekonstruksiyalash) uchun unli tovushlar o‘zgarishini asos sifatida oladi. Masalan; [a] unlisini [a],[i],[u] unlilarga qo‘shiluvi asosida [a]+[a]= [ā]; [a]+[i]= [ai(ē)]; [a]+[u]= [au (ō)] kabi diftonglar, yoki diftonglarning birinchi elementiga [a] ni qayta qo‘shiluvchi diftonglarning cho‘ziqlashuviga olib kelgan: [a]+[a]= [āa]; [a]+[ai]= [āi]; [a]+[au]= [āu]. Mazkur olimning ta’kidlashicha, har bir unli o‘z qatorida shunday o‘zgarishlarga uchrashi mumkin. Yuqoridagi tovushlar misolida u hindgerman bobotilida 3×3 tovushlar sodda, lekin to‘g‘ri va simmetrik bo‘lganligini ko‘rsatib berishga harakat qilgan. Bunday sodda, mantiqan to‘g‘ri ko‘rinishga ega bo‘lgan sxema hindyevropa bobotilining arxaik xolatini to‘laligicha aks ettirmaydi, chunki bunda A.Shleyxer unli tovush sifatini o‘zgarishida urg‘uning ta'sirini [e\o] (masalan, несу-ноша) hisobga olmagan[3].

Bobotilning morfologik xususiyatlari borasida gap ketganda u o‘zak, negiz, suffikslarni qat’iy farqlagan. Aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, varkais\волками, varkabhisdan, varka-bhi-s esa vark-a-bhi-sadan yuzaga kelganligi, bunda u vark-o‘zak, varka ot asosi, -bhi kelishik suffiksi va ko‘plik yasovchi suffiks –sadan iboratligini asoslashga harakat qilgan. Shuningdek, A.Shleyxer bobotilda 9 ta kelishik (bosh, tushum, kechiktirilgan, qaratqich, o‘rin, jo‘nalish, instrumental 1, instrumental 2, va undosh (atov)lar, uchta son (birlik, ikkilik va ko‘plik) va uchta jins (мужской, женский, va средний) mavjud bo‘lganligini ta'kidlagan. Bobotildan tarqalgan birinchi tillarni asos tillar deb atagan. Bunday asos tillar keyinchalik tillarga, tillar esa shevalarga, shevalar esa ostshevalarga ajralib, tarixiy taraqqiyotning ma'lum davrida shevalar o‘z navbatida alohida sheva va tillarga bo‘linib ketgan. Hindyevropa bobotilidan tarqalgan tillar shajarasi nazariyasiga tayangan holda A.Shleyxer quyidagi xulosalarga keladi; a) shajaraning bir bo‘lagidan o‘rin olgan tillar, boshqa shajara a'zolaridan ko‘ra bir biriga har jihatdan yaqin bo‘ladilar. Ularga xos umumiy jihatlar bobotilda mavjud degan xulosalardir; b) hindyevropa xalqi sharq tomonroqda yashagan sayin uning tili shunchali qadimgi darajada saqlanib qolgan, g‘arb tomonlarga yaqin yashagan xalqlar tilida esa yangi tuzilmalar ko‘proq bo‘lgan. Bunday xulosa haqiqatga to‘g‘ri kelmasligi haqida F.M. Berezin[4] shunday yozadi: “Birinchidan, bir hil fonetik jarayonlar (masalan [s] ni [š] ga o‘tishi) turli shajara a’zolarini ham qamrab olgan, ikkinchidan, sharqiy qadimgi hind bobotil etaloni hisoblangan sanskrit tilida arxaik xususiyatlar qatorida qator maxsus yangi tuzulmalarni kuzatish mumkin. Bundan tashqari faktik materiallarning ko‘rsatishicha, hindyevropa tillari qadim-qadim zamonlardayoq o‘zaro aloqada bo‘lganlar, bir-birlaridan ajralib qolmaganlar.

Til ijtimoiy hodisa ekanligi, u insonlar jamiyatida aloqa, muloqot vositasi sifatida paydo bo‘lishi va rivojlanishi masalasi antik davrlarda, xususan, Qadimgi Gretsiyada faylasuf va lingvistlar e’tiborini o‘ziga tortdi. Tilning kelib chiqishi va rivoji hayotiy ehtiyojlar tufayli yuzaga kelishi va til inson jamoalari (urug‘, qabila va boshqalar) birgalikda hayot kechirish, turli hayotiy, tabiiy muammolarni hal qilishda o‘zaro fikrlashuv, fikr almashinuv zarurati tufayli yuzaga kelganligi Diodor Sitsiliyskiy (e.a.1a.) tomonidan ham aytilgan edi.

Buyuk nemis olimi Vilhelm Gumboldt (1767-1835) til barcha insonlarning mulki va u butun jamiyatga tegishlidir, degan fikrini aytadi. V. fon Gumboldt tildagi ijtimoiy va individuallik munosabatlari haqida mushohada qilar ekan, til jamiyatda rivojlanishi, inson uning so‘zlari boshqalarga ham tushunarli bo‘lganligi uchun o‘zini tushunadi, lekin til individual nutqiy aktlar faoliyatidan farq qilishini yozadi. Individual va jamoa

[3] Березин Ф.М. История лингвистических учений. М. Высшая школа-1975 – с 106

[4] Березин Ф.М. История лингвистических учений. М. Высшая школа-1975 – с 107

psixologiyasi (xalq psixologiyasi) tilda o‘z ifodasini topishini e’tirof etadi. V.Gumboldt har qanday tilning rivojida ikki davrni ajratish mumkunligi, birinchi davrda tovush yaratish faoliyati faol bo‘lishi, bunda xalq ruhiyati shakllanishi davrida asosiy e’tibor til va ifoda vositalariga qaratiladi. Tilning grammatik shakllari rivojining ikkinchi bosqichida turg‘unlik kuzatilgani holda tafakkur mislsiz tarzda rivojlanib, har bir til o‘ziga xos xususiyat va koloritga ega bo‘lib boradi, degan fikrni bildiradi. V.Gumboldt tillar o‘rtasidagi farqli jihatlarni u yoki bu xalq, millat obyektiv borliqni o‘z tilida qay darajada aks ettirilishida ko‘radi. Uning fikricha, tillar bir hil ko‘rinishda bo‘lishi mumkun emas, chunki xalqlar va ularning turmush tarzi har xil.

Tillar qurilishidagi farqlarga sabab bo‘luvchi yana bir omil, bu til ichki shakli va tovush o‘rtasida sintezlash shakli va darajasi turlicha ekanligida, deb hisoblaydi. V.Gumboldt turli qurilishga ega tillarni takomillashgan (perfect, совершенные) va takomillashmagan (nonperfect, несовершенные) tillarga bo‘lgan. Takomillashgan qurilishga ega til fikr va tilning to‘liq qo‘shiluv yoki uyg‘unligida namoyon bo‘lsa, takomillashmagan tillarda til va tovush sintezi tabiatan kuchsizlashgan bo‘ladi yoki boshqa bir omil orqali buzilgan bo‘ladi. Bu ko‘proq tillarning grammatik qurilishida namoyon bo‘ladi. So‘z va gap qu'rilishiga tayangan holda V. Gumboldt dunyo tillarini flektiv, amorf, agglyutinativ va inkorporativ tiplarga ajratagan. Uning fikricha, flektiv tillarda tashqi va ichki shakllar sintezi to‘liq namoyon bo‘lganligi bois ularni takomillashgan tillar tiplariga mansub deb hisoblaydi. Sanskrit tillari (Gumboldt hindevropa tillarini nazarda tutadi) so‘z butunligi tashqi va ichki fleksiya, o‘zak va suffiksning bir butun tarzda qo‘shiluvi, urg‘u orqali ta'minlagani bois, olim ularni ham shu til tiplariga mansub deb hisoblaydi.

Bunday til tiplarida fleksiya va aniq grammatik shaklning mavjudligi tufayli gap bo‘laklarga oson ajraladi. Takomillashmagan tillar tipiga V.Gumboldt amorf (xitoy tili - bu tilda farqli munosabatlar o‘z ifodasini topmagan), agglyutinativ (turk, fin-ugor tillari), inkorporativ (amerika hindulari tillari, paleoosiyo tillari) tillarni kiritgan.

Til dialektikasini, undagi mavjud ziddiyatli xususiyatlarni antinomiyalar tarzida tasavvur qilishga harakat qilgan. Til, Gumboldtning yozishicha, bir biriga qarama qarshi tushunchalardan tashkil topadi. Masalan, ijobiy-salbiy, qisman-butun, birlik-ko‘plik, natija-sabab, nisbiy-absolyut va aynan bu qarama-qarshilik til mohiyati va xususiyatini belgilaydi. Til va tafakkur birligi haqida so‘z yuritar ekan, V. fon Gumboldt til fikr shakillantiruvchi organ bo‘lib, usiz tushunchalar paydo bo‘lmasligi, so‘z esa tovush va tushunchadan iborat bo‘lib, ular o‘rtasida muvofiqliklar bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi hamda til nafaqat insonlar tomonidan anglangan borliq, balki ular uchun noma'lum bo‘lgan borliq va uning qismlarini anglash vositasi ham ekan degan xulosaga keladi. V. fon Gumboldtning haqli fikricha, tushuncha va uning tovushli ifodasi o‘rtasida yaqin munosabat va aloqalar bo‘lmaydi. Bunday hollarda so‘z hissiy idrok etilgan predmetning ekvivalenti emas, balki tushuncha uchun inson tilda uni atash uchun topgan so‘z orqali aksini topadi. Borliqdagi kognitsiya obyektga nisbatan til subyektiv, insonga nisbatan esa obyektiv ekanligini quyidagicha tushuntirishga harakat qiladi: “Til menga tegishli, chunki men uni o‘z xatti-harakatlarim orqali tasvirlayman, lekin uni barcha avlodlar davrlar osha bir-birlariga shunday yetkazishgan, gapirishgan va gapirmoqdalar, demak, til meni ochiqchasiga chegaralab turadi[5].

V. fon Gumboldtning til faoliyat va faoliyat mahsuli antinomiyasi ham e’tiborga loyiq. Til bir vaqtning o‘zida o‘zgarmas va o‘zgaruvchan xususiyatga egaligi, u doim harakatda, sifat va miqdor o‘zgarishlariga uchrashini ta’kidlaydiki, bu fikr, til mavjudligining asosi uning muntazam rivojlanishida ko‘rinishini dalillaydi. Tilda yuz beradigan o‘zgarishlarga har bir individ o‘z hissasini qo‘shib boradi degan fikrni ilgari suradi. Bizningcha, bunda ziyolilar (yozuvchilar, filologlar, ommaviy axborot vositasitalari vakillari)ning o‘rni beqiyosdir. Masalan, ingliz uyg‘onish davri adabiyotining yorqin namoyondasi V.Shekspir ingliz tili lug‘at fondiga 16 mingdan ziyod yangi so‘zlarni qo‘shgan bo‘lsa, A.Navoiy o‘zbek tiliga 25 mingdan ziyod yangi so‘zlarni kiritganligi yuqoridagi fikrni yana bir bor tasdiqlaydi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, Vilhelm fon Gumboldtning “…tilning haqiqiy hayoti u insonlar o‘rtasida qo‘llaganda namoyon bo‘ladi” deb yozgan fikriga qo‘shilsa bo‘ladi, lekin uning “…biroq bir vaqtning o‘zida u (til) alohida olingan shaxslarga bog‘liq emas” degan fikriga qo‘shilish qiyindek tuyuladi. Chunki olam, uning turfa bo‘laklari, ayniqsa ilm-fan va texnikada aniqlangan, kashf etilgan yangi narsa va hodisalar, qurilma va boshqalar nominatsiyasi u yoki bu soha olimi tomonidan dastlab ilmiy muloqotga kiritiladi. Soha olimlari va mutaxassislari tomonidan e'tirof etilgach, ilmiy muloqotda faol qo‘llanilib xalq yoki xalqlarning mulkiga aylanadi. Buni, masalan, an’anaviy va struktur tilshunoslik bag‘ridan o‘sib chiqqan neolingvistika yoki antropotsentrik linvistika yo‘nalishlari va ularga xos fonosemantika, morfosemantika, leksik semantika, sintaktik semantika, t-semantika, ch-semantika, presuppozitsiya, freym, geshtalt, skript, konsept, lingvokulturema, kognema, pragmema, sintaktik konsept kabi yuzlab terminlar yuzaga keldiki, bugunga kelib ular jahon tilshunosligida keng qo‘llanilmoqda yoki bo‘lmasam, sintaktik valentlik tushunchasi va atamasi rus

[5] Гумбольдт В. О различии организмов человеческого языка и о влиянии этого различия на умственное развитие человеческого рода. СпБ., 1859. с.61

tilshunos olimi S.D.Katsnelson [6] tomonidan lingvistik ilmiy muloqotga olib kirilgan bo‘lsa, G.Ipsen “mazmuniy maydon” terminini sharq tillardagi metal nomlarini belgilovchi so‘zlar guruhiga nisbatan qo‘llagan ekan.

19-asrning 70-80-yillarida Yevropa tilshunosligida, shu jumladan Germaniya tilshunosligida, yosh grammatikachilar degan nom olgan yangi yo‘nalish yuzaga keldi. Yosh grammatiachilar yo‘nalishining yuzaga kelishi asosan Leypsig universtiteti tilshunos olimlari bo‘lmish G.Brugman, G.Ostxof, X.Paul, B.Delbryuk kabilarning nomi bilan bog‘liq. O‘sha davrlarda skandinaviyalik tilshunoslar V.Tomsen, K.Verner, farang tilshunos olimi M.Breal, italiyalik tilshunos olim G.Askoli, amerikalik tilshunos olim U.Uitney, rossiyalik tilshunos olimlar F.F.Fortunatov va I.A.Boduen de Kurtene kabilar yosh grammatikachilar yo‘nalishi namoyondalari sifatida tan olinganlar.Ushbu yo‘nalishning asosiy tamoyillari yosh grammatiklar manifesti maqomini olgan “Hindyevropa tillari sohasidagi morfologik tadqiqotlar” (1878) to‘plamiga K.Brugman va G.Ostxof tomonidan yozilgan so‘zboshida, X.Paulning “Til tarixi prinsiplari”(1880) kitobida, B.Delbryukning “Hindyevropa tillarini o‘rganishga kirish”(1880) kabilarda o‘z ifodasini topdi. Yosh grammatikachilar tomonidan tilda inson organizmining psixofiziologik faoliyati namoyon bo‘ladi, deb tushunilishi tilshunoslik metodologiyasini ham o‘zgartirib yubordi. Tilni tadqiq etishning yangi tamoyillari taklif etildi. K.Brugman va G.Ostxof til tadqiqida so‘zlovchi kishi nutqini o‘rganish va til tarixini o‘rganishda fonetik qonuniyatlar va analogiyani o‘rganish har qanday o‘tmishga oid yozma yodgorliklarni ta’dqiq etishdan ko‘ra muhim ekanligini yoqlab chiqdilar. Hindyevropa tillarini avval o‘rgangan F.Bopp, A.Shleyxer, R.Rask, Y.Grimm va boshqalarning asosiy kamchiligini inson tili, uning yashashi va taraqqiy etishi, nutqiy faoliyatini tashkillovchi omillar haqida dastlabki tasavvur va bilimlarga ega bo‘lmay turib, ular Hindyevropa tillarini o‘rganishga kirishganliklarida, so‘zlovchi individlarning nutqiy mexanizmi, ularning psixologiyasiga yetarli darajada e'tibor qaratmaganliklarida ko‘radilar. Bunday kamchiliklarga yo‘l qo‘ymaslik uchun K.Brugman va G.Ostxof tadqiqotchilarning diqqat-e’tiborini bobotilga emas, balki tilning sinxron holatini o‘rganishga qaratilishi lozim, deb hisoblaydilar. Chunki jonli tillar so‘zlashuv tilini aks ettirish barobarida bir necha dialektlarni ham qamrab olgan bo‘ladi. Lingvistik tadqiqotlar uchun quyidagi metodik tamoyillarni taklif etganlar: a) tovushdagi o‘zgarishlar mexanik tarzda istisnolarni bilmaydigan muayyan qonuniyatlar asosida sodir bo‘ladi; b) yangi tillar uchun analogiya asosida yuzaga kelgan yangi lisoniy formalar muhim ro‘l o‘ynaydi. Brugman va Ostxof tildagi barcha o‘zgarishlarning manbasi ong orqali anglashilma`ydigan sohaga tegishli deb hisoblaydilar. Ularning fikriga ko‘ra, inson qalbida kechadigan psixologik va fiziologik jarayonlar orqali yuzaga chiquvchi o‘zgarishlar ham ong ishtirokisiz sodir bo‘ladi, lekin bunday jarayonlar, tovush qonuniyatlari va analogiya asosida paydo bo‘lgan tuzilmalar tilda o‘z aksini topadi. B.Delbryuk tovush qonuniyatlari deganda muayyan tilda ma’lum davrda sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni tushunadi [7]. Rus tilidagi [к] tovushini [ч] tovushiga o‘zgarishi bunga misol bo‘la oladi: пеку – печет. Bu o‘zgarish umumslavyan davrida old qator unli tovushlari va j oldida sodir bo‘lgan. Buning hududiy chegaralanishi rus tilining o‘rta dialektlarida [о] ni [ ]ga urg‘uli bo‘g‘in oldida sodir bo‘lgan.

Yuqoridagi masallar rus tilshunoslari nazaridan ham chetda qolmadi. 19-asrning 30-60 yillarida I.I.Sreznevskiy, F.I.Buslayev, V.I.Dal kabi rus tilshunosligining yirik namoyondalari tilning qator nazariy muammolari borasida o‘z konsepsiyalarini taklif qildilar.

I.I.Sreznevskiy (1812-1880) ilmiy faoliyatini dastlab ukrain xalqi ijodiyotini tadqiq qilishdan boshladi. 1847 yildan boshlab Peterburg universtitetida ishlay boshladi. Til tarixining xalq tarixi bilan munosabati borasida so‘z yuritishdan avval o‘sha davrlarda xalq qabilaning bir qismi sifatida qabilalar oilasidan ajralib chiqqanini, keyin esa o‘z qabilasidagi boshqa xalqlardan alohida xalq sifatida ajralib chiqqanligini va xalq tili qanday o‘zgarishlarga uchraganini o‘rganish lozimligini ta'kidlagan. Buning uchun esa qarindosh tillar materiallarini qiyosiy o‘rganishni tavsiya etadi va shunday yozadi: “Qabila tilini u kelib chiqqan qabila oilasi tili tarixi haqidagi bilimlarsiz tushuntirib bo‘lmaydi.”[8]

I.I.Sreznevskiyning fikricha, rus tilini boshqa qarindosh slavyan shevalari (lahjalari)ni o‘rganishdan avval har bir qadimiy tilning leksikasi va grammatikasini, har bir sheva lahjani o‘rganib chiqish, undan keyin esa hozirgi adabiy tili va har bir yozuvchi tilini grammatik, leksik va stilistik nuqtai-nazardan yoritish kerak, deb hisoblaydi. Ushbu rus olimi tilning o‘zgarishiga sabab bo‘luvchi tashqi va ichki omillarni farqlaydi. Tilga ta'sir etuvchi va uning o‘zgarishiga olib keluvchi omillar halqning unga qarindosh bo‘lgan halqlar bilan sanoat, aql-zakovat, siyosat, din borasidagi aloqalarini o‘z ichiga oladi.

Ichki omillar tilda mavjud bo‘lgan qarama qarshiliklar bo‘lib, qaysi grammatik formalar til uchun zarur, tildagi qaysi fenomenlar tasodifiy, qaysilari “bir

[6] Гумбольдт В. О различии организмов человеческого языка и о влиянии этого различия на умственное развитие человеческого рода. СпБ., 1859. С.61

[7] Звегинцев В.А. История языкознания XIX-XX веков в очерках и извлечениях. Ч.1, -1964 – с.232

[8] Срезневский И.И. Мысли об истории русского языка. М., 1959.

matoning ipi" sifatida namoyon bo'lishi kabi misollarni o'z ichiga oladi. Tildagi bunday noteng rivojlanish tendensiyalari unda turli davrlarda eski va yangi tashkil topgan qatlamlarini yuzaga keltiradi. Tillararo aloqalar masalasiga to'xtalar ekan, u yoki bu halqni boshqa halq bilan qarindosh qiluvchi ikki yoki bir necha tillardan yangi tilni yuzaga keltirish mumkin deb hisoblaydi.

O'sha davrlarning yana bir taniqli rus olimi F.I.Buslayev Moskva universitetida hindyevropa tillarining qiyosiy grammatikasi va rus tilining tarixiy grammatikasidan ma'ruzalar o'qigan. Tilni madaniy-tarixiy yondashuv asosida tadqiq etish halqning uzoq tarixiga kirib borish va bu orqali tilda uning madaniyati, hayoti va e'tiqodlari aks etganini aniqlash mumkin deb hisoblagan. F.I.Buslayevning yozishicha, "til nafaqat xalq fikr-o'ylari, balki uning borlig'i, ahloq-odobi, e'tiqodlarining ifodasidir"[9] Til tafakkurimiz faoliyatini aks ettirishga xizmat qilishini e'tirof etgan holda til hayotida qadimiy va yangi (новейший) davrlar mavjudligini ta'kidlaydi.

Tilning qadimgi davriga xos xususiyatlar, olimning yozishicha, "fikr bildirish orqali jonli tasavvur va so'zlashuv nutqiga xos xususiyatlarga bo'ysunadi[10] va grammatik formalarni qo'llashda ongli yondashuv kuzatiladi. Uning yangi davrida lisoniy ijodkorlik o'z yakuniga yetib, til o'layotgan organizmga aylanadi. Akademik Buslayevning yozishicha, yangi davrda dastlab insonlar o'rtasidagi so'zlashuvda jonli taassurot va munosobatlarni ifodalovchi so'zlarga umumiy tushunchalarga mazmun beriladi [11] . Yangi davrda, I.F.Buslayevning o'ylashicha, sintaksis grammatikaning muhim qismiga aylangan bo'lsa, qadimgi davrda bu maqomda morfologiya bo'lgan.

Akademik I.F.Buslayev tilning tizimli xususiyatini tan olgan holda shunday yozadi: "Tilning qurilishi alohida olingan tovushdan to gap va gaplar qo'shilmalari har bir bo'lakning jonli aloqasi, bir birlarini to'ldiruvchi va bir butunlikni tashkillovchi sifatida namoyon bo'ladi va bu o'z o'rnida har bir bo'lakka mazmun va ma'no beradi"[12].

Tilni kelib chiqishi va tarkibi turlicha bo'lgan grammatik formalar yig'indisi sifatida tushungan F.I.Buslayev til sistemasini turli davrlarga xos voqeliklarning birlashmasi sifatida qabul qiladi. Til tarixi uning burungi holati bilan yaqin aloqada bo'lib, u hozirda ong ishtirokisiz qo'llanayotgan birliklarni qayta tiklaydi va tushuntirib beradi.

Slavyan tilshunosligining taniqli vakillaridan biri Aleksandr Afanasyevich Potebnya (1835-1891) amalga oshirgan tadqiqotlarning ko'lami kengligi bilan tilshunoslik tarixida alohida o'rin tutadi. U hayoti mobaynida Xarkov universitetida faoliyat yuritadi, tilshunoslikning umumiy masalalari qatorida fonetika, sintaksis, etimologiya, dialektologiya, folklor va etnografiya masalalari bilan ham shug'ullandi. Uning birinchi ishi "Tafakkur va til" nomi bilan 1862 yili nashrdan chiqdi. Shu yili u Berlin universitetiga xizmat safariga yuborildi va u yerda sanskritni o'rganadi.

1874 yilda "Rus tili va grammatikasi bo'yicha qaydlar" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini yoqladi. A.Potebnya ilmiy merosini shakllanishida V.Gumboldtning til falsafasi, til va tafakkur munosabatlari borasidagi qarashlari katta rol o'ynaydi. Tilning asl mohoyati uning rivojlanish qonuniyatlari, uni tushunish va so'zlash, til va tafakkur qonuniyatlari doim A.Potebnyaning diqqat-markazida bo'ldi. V.Gumboldtning "Xalqning tili uning ruhi, xalqning ruhi uning tilidir" degan g'oyasini qo'llab-quvvatlagan holda til va tafakkur o'zaro bog'liq hodisalar ekani, ularning biri ikkinchisisiz bo'lmasligini alohida ta'kidlaydi. Biroq A.A.Potebnya tilni xalq ruhiga tenglashtirish unchali ham to'g'ri emasligini quyidagicha ifoda etadi: …til sohasi tafakkur sohasi bilan to'g'ri kelavermaydi. Insoniyat tarixida til tafakkur bilan aloqada bo'lmagan davrlar ham bo'lgan. Insoniyat rivojlanishining o'rtalarida tafakkur so'z bilan bog'langan bo'lishi mumkin, lekin dastlab u ungacha rivojlanib bormagan bo'lishi yuqori darajadagi mavhumlikda uning talablarini qondirmagan holda tark etgandek tuyuladi. Shuningdek, A.A.Potebnya til va tafakkur nomuvofiqligi rassom xonanda, shaxmatchilarning ijodiy g'oya, fikrlarini so'z bilan ifodalab bo'lmasligini, matematikada esa murakkab tushunchalar so'z bilan emas, shartli belgilar bilan ifodalanishi misolida dalillashga harakat qiladi.

A.A.Potebnya ta'limotida yuqoridagi fikrlarning aksini ham kuzatish mumkin. Masalan, u "Tafakkur va til" asarining 25-sahifasida shunday yozadi: Til alohida olingan shaxs fikrning zarur shartidir, hatto uning ayro holatida ham" [13] , chunki so'z orqali fikr bir shaxsga tegishlilikdan ko'p insonlarning mulkiga aylanadi. Shuningdek, aqliy faoliyatning takomillashuvi jarayonida so'zning ulkan roliga e'tibor qaratiladi, chunki inson o'z fikrini dastlab so'zda anglaydi, tushunadi.

Tadqiqotlar jarayonida A.A.Potebnya so'zning umumlashtiruvchi kuchiga ham e'tibor qaratib, u insoniyat erishgan bilimlarni umumlashtirish va tasniflashga xizmat qilishini alohida ta'kidlaydi. A.A.Potebnya til va tafakkurning o'zaro aloqadorligini quyidagicha talqin qiladi: eng avvalo tafakkur obyektlari, ya'ni obyektiv borliqdagi predmet va narsalar mavjud, ushbu tafakkur obyektlari subyektdan mustaqil ravishda mavjud bo'lgan, u bilan o'zaro ta'sir munosabatida bo'lgan obyektiv olamning predmetlari quyidagi

[9] Буслаев Ф.И. О преподавании отечественного языка. М., 1941-с.230

[10] O'sha asar. B.266

[11] O'sha asar. B.266

[12] O'sha asar. B.21-22

[13] Потебня А.А., Мысль и язык. Изд.3 Харьков, 1913.

munosabatlarni ham o‘z ichiga oladi.

Bularning hammasi sezgi organlariga ta’sir qiladi va tafakkur jarayoni hamda uning natijalari bo‘lmish obraz va tushunchalarni yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Tafakkurning obyektlari qatorida tafakkur subyektlari (men o‘zim va odamlar) mavjuddir. Insoniyat rivojining ilk bosqichida, ya’ni inson uni o‘rab turgan olamdan ajralib chiqmagan paytlarda, tafakkur obyektlari va subyektlari bir biriga mos bo‘lgan. Keyinchalik, “mif” davri odami tafakkur orqali uni o‘rab turgan olamni obyektivlashtira boshlagan.[14]

Uning nazarida, hissiy obraz fikrning boshlang‘ich formasi bo‘lib, unda subyektiv va obyektiv jihatlar sintezlashgan bo‘ladi va bu tushunish jarayonini ta’minlaydi. So‘zning yuzaga kelishi asosida odamning reflektor hissi yotadi va u obyektiv borliqdan kelayotgan kuzatishlar (ochlik hissi, og‘riq, qo‘rqinch kabilar)ga aks javob sifatida namoyon bo‘ladi. Buni quyidagicha tushuntirishga harakat qiladi. Bolaning biror joyi og‘riganda, og‘riqni tovushda “Va va” undovidan so‘z hosil qilish uchun ifoda qiladi. Bola buni boshqalardan eshitganda (va va) og‘riq va unga sabab bo‘lgan predmetni tushunadi. Ona ushbu tovushni eshitgach, og‘riqqa sabab bo‘lgan narsani olib tashlashga shoshayotganini bola sezishi lozim[15].

Ma’lumki, inson tashqi dunyoni bir emas bir necha hissiy organlar orqali qabul qilish mumkin. Ushbu jarayonda sezgi organlari predmet, narsaga xos turli belgi-xususiyatlarni qabul qiladilar. Masalan, inson nonning rangi, shakl-shamoyili, hajmini ko‘zi orqali, ta’m-mazasini og‘zi, hidini burni orqali aniqlaydi. Bunday sezgi organlari yordamida inson tafakkurida non obrazi yuzaga keladi. Bunday belgilar orasida nonning eng muhim belgisi “yegulik, oziq-ovqat” ekanligi non obrazining markazini tashkil etadi. Ushbu belgini A.A.Potebnya ichki forma deb atadi. Ko‘z, ilon, bo‘ri, uy kabilarning ichki formasi quyidagilarda aniq namoyon bo‘ladi: tirik mavjudotning ko‘rish a’zosi, sudralib yuruvchi, oyoqsiz, uzun jonivor, yirtqich hayvon, yashash uchun bino.

A.A.Potebnyaning haqli ta’kidlashicha, bilish jarayoni qiyoslash (taqqoslash) jarayonidir. So‘z tarkibida biz tomonimizdan yana ilg‘angan (kashf qilingan) belgi tasavvur deb ataladi. Tasavvur boshqa so‘zlar bilan aytganda bizga avvaldan ma’lum bo‘lgan predmet belgisi asosida yangi belgini ifodalashdir. Buni olim uchinchi qiyoslash (lotin, tertium comparationis) deb ataydi. Buni A.Potebnya lotin tilidagi carvus va rus tilidagi корова(sigir) misolida tushuntiradi. Ular har ikki tilda “shoxli” belgisiga ega. Inson sigirni tanib bilganida, uning miyyasida shoxli xayvon haqida ma’lumotlar zahirasi mavjud bo‘lgan. Qabul qilinayotgan hissiy obrazlar bir birlari bilan taqqoslash orqali bilingan bir necha belgilarga bo‘linib ketishi mumkin. Masalan ko‘z obrazi ortida uning rangi, hajmi, shakli, ko‘rish qobilyati kabilarga aloqador belgilar mavjud. Bularni A.Potebnya obrazni analitik bilish deb atash mumkinligini va bunday belgilar yig‘indisi tushuncha (понятие) ekanligini yozadi.[16]

A.A.Potebnya fikrlash faoliyati quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga olishini ta’kidlaydi: men ko‘rib turgan predmet → idrok etilayotgan predmetning belgisi (ichki forma) → hissiy obraz (persepsiyalar yig‘indisi) → tasavvur (tasavvurlarni qiyoslash) → appersepsiya (fikrning birinchi akti) → hukm (fikrning asosiy shakli) → tushuncha (hukmlar yig‘indisi).

A.Potebnya nazarida tushuncha hukmlar yig‘indisidir. Aslida, tushuncha predmet yoki hodisaning muhim belgisini ifodalab kelishini hisobga oladigan bo‘lsak, tushuncha hukmlar yig‘indisi emas, balki hukmlar tarkibidan ajratib olingan alohida fikrdir. Hozirda olamning u yoki bu bo‘lagi haqidagi muhim va ikkinchi darajali belgilar yig‘indisi konsept deb atalmoqda. Taniqli o‘zbek olimi, professor O‘Q.Yusupov tushuncha va konseptning farqli jihatlari haqida shunday yozadi: “Agar tushuncha va uning tildagi muqobili bo‘lgan so‘z ma’nosi o‘sha atalayotgan predmetning yoki hodisaning boshqa predmet va hodisadan ajratuvchi eng ahamiyatli belgilarini aks ettirsa, konsept uning (predmet yoki hodisaning) ma’lum bo‘lgan barcha belgilarini, shu jumladan, ikkinchi darajali belgilarini ham aks ettiradi”.[17]

S.D.Katsnelson tushunchani formal va mazmunli guruhlarga ajratadi. U nazarda tutgan formal tushuncha narsa-hodisa boshqa predmet-hodisalardan farqlovchi muhim va minimal boshqa belgilarni tilda aks etishi bo‘lsa, mazmunli tushuncha predmet haqidagi bilimlar miqyosi kengayib, chuqurlashib borishi oqibatida paydo bo‘lgan unga xos yangi belgi va jihatlardir.

A.A.Potebnya so‘z ma’nosi haqida yozar ekan, uning yaqin (ближайщее) va uzoq (дальнейщее) ma’nolarini farqlaydi. So‘zning yaqin ma’nosi shunday ma’noki, u muloqot ishtirokchilari uchun birdek ma’lum va tushunarli bo‘ladi. Masalan, ingliz tilidagi bread va uning derivatlari bo‘lmish *bread bin, bread knife, breadwinner* kabilarning ma’nolari inglizlar uchun tushunarli va aniq. So‘zning uzoq ma’nosi faqat ma’lum shaxslarga xosligi bilan farqlanadi. A.Potebnya shunday yozadi: “So‘zning yaqin ma’nosi xalqniki, uzoq ma’nosi esa shaxsiy bo‘lib, elementlar soni va sifatiga ko‘ra har bir kishida turlicha bo‘ladi.”[18] Ingliz tilidagi bread basket (jargon - oshqozon), o‘zbek tilida nor (o‘t,

[14] Потебня А.А. Из лекций по теории словесности. Харьков. 1894. -с 133

[15] Потебня А.А., Мысль и язык. Изд.3 Харьков, 1913. С.82

[16] Потебня А.А., Мысль и язык. Изд.3 Харьков, 1913.- с 130-131.

[17] Yusupov O‘.Q. Ma’no, tushuncha, konsept va lingvokulturema atamalari xususida.\ \Stilistika tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlarida. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent. 2011. -B 4-9

[18] Потебня А.А. Из заметок по русской грамматике. Т.1-2. М, 1941. с 120.

olov), yakan (jargon – pul) kabilarni so‘zning uzoq ma’nolariga misol sifatida keltirish mumkin. Lekin, bizningcha, so‘zning uzoq va yaqin ma’nolari subyektiv va nisbiylik hususiyatiga ega. Aniqroq aytadigan bo‘lsak so‘z ma’nolarini yaqin va uzoqlik darajasi individ, sotsiumlarning ijtimoiy mavqeyi, salohiyati, jinsi, yoshi kabi omillar doirasida qaraganda turlicha ko‘rinish oladi. A.Potebnya so‘z ma’nosining ichki turini farqlanishida ijtimoiy va individual tomonlar mavjudligini tan olishi va so‘zning polisemantik xususiyatini rad etganligi bilan bog‘liq holda tushunish mumkin. Masalan, qimorbozlar uchun ingliz tilidagi ace (tuz), hand (o‘yinchi), card (karta), queen (dama), knave (valet), pass (o‘tkazmoq), gambler (karta o‘ynovchi qimorboz) so‘zlarining ma’nolari bu toifaga kirmaydiganlar va bolalar uchun uzoq, shu soha kishilari uchun yaqin bo‘lgan ma’nolardir.

Demak, so‘z ma’nolari inson ongidagi mavjud tushunchalarning lisoniy reprezentantlari bo‘lib, tushuncha til va nutq birliklari ma’nosida o‘z aksini topadi. So‘z ma’nosi konsept mazmun mundarijasini belgilovchi kognitiv belgilarning nutqdagi zarur reprezentantlaridir.

Obrazli tafakkur rivojida A. Potebnya ikki bosqichni farqlaydi, ya’ni birinchi bosqichda tafakkur predmetlarning aniq obrazlari bilan ish ko‘radi va hissiy obrazini umumlashtirishdan iborat bo‘ladi. Ikkinchi bosqichda predmetlar tasavvurlari orqali fikrlash amalga oshadi. Obrazni tushunchaga aylanishida so‘z vosita, fikr quroli ro‘lini o‘ynashini, u obrazdan tushuncha yaratmasligini alohida ta’kidlaydi. A.A. Potebnya konsepsiyasining yana bir e’tiborga molik tomoni shundaki, u gap rivojidagi turli bosqichlarni aniqlash tafakkurning turli rivojlanish bosqichlarini ifodalasa kerak, degan tezisi edi. Unga ko‘ra, otli va fe’lli bosqichlar farqlangan. Tilning qadimgi rivojlanish bosqichida, uning yozishicha, hozirgi Он рыбак gapiga mos keluvchi gaplar keng tarqalgan. Yuqoridagi gapdagi рыбак oti qo‘shma ot kesimning bir qismi sifatida ot va fe’l hususiyatlarini o‘zida namoyon etgan. Shuningdek, ushbu bosqichda otning aniqlovchi vazifasida kelishi (otning atributligi) ko‘p uchragan, (masalan, o‘zbek tilida non qovurma, tosh devor, ingliz tilida bread bin, stone-wall.) Demak, borliqdagi predmetlar narsalarni idrok etishning aniqligi hamda ularda belgi va sifatlarni bo‘linmaganligi tafakkurning ilk bosqichiga to‘g‘ri kelgan.

Gapning fe’lli rivojlanish bosqichida ikki pog‘ona (davr) farqlangan. Ushbu bosqichning ilk pog‘anasi uchun ko‘makchi va asosiy fe’llarning sintaktik jihatdan farqlanmagani xos bo‘lgan. Gap bo‘laklari esa ularning kesim bilan munosabatlari orqali aniqlangan. A.A. Potebnya tarkibli gap bo‘laklari, xususan sifatdosh, bosh kelishikdagi ot va sifat orqali ifodalangan predikatni o‘rganishga jazm qilgan. Hozirgi va o‘tgan zamon shakldagi tarkibli kesim (-щий, -чий, -вший shaklli) konstruksiyalar, birinchi bosqich uchun xos bo‘lgan. Uning tahminicha, ibtidoiy so‘z faqat bir belgini ifodalagan. Bu ham bo‘lsa sifatdosh bo‘lib, unda fe’l va ism (ot, sifat, son)larga xos jihatlar mavjud bo‘lgan. Aynan ismlar va fe’llar sifatdoshdan ajralib chiqqan. Sifatdosh nisbatan mustaqil va predikativlik maqomiga ega bo‘lgan. A.A. Ptebnyaning fikriga ko‘ra, ot, sifatdosh fe’lga bog‘lanmagan. Tarkibli kesimda fe’llik xususiyatlarining kuchayishi keyingi bosqichga to‘g‘ri kelgan.

Xulosa

Ushbu maqolada inson tili, uning ilmiy tadqiqiga bag‘ishlangan konsepsiyalar tarixiga biroz bo‘lsada, nazar tashladik, ularning yutuqli va munozaralarga sabab bo‘layotgan tomonlarini ko‘rsatib berishga harakat qildik.

Maqola nihoyasida shuni alohida takidlash joizki, maqolada muhokama qilingan turli tilshunoslik yo‘nalishlari va maktablari namoyondalarining ilmiy nazariy merosi hali ham o‘z qadri va qomatini ko‘rsatmoqda. Bugungi kun tilshunosligi qayta uyg‘onish davrining yuqori bosqichiga ko‘tarildi, tilshunoslikda fanlar hamkorligiga asoslangan lingvokognitiv, lingvomadaniy tilshunoslik, lingvopragmatika, sotsiolingvistika, psixolingvistika, kompyuter lingvistikasi kabi o‘nlab zamonaviy yo‘nalishlarda tadqiqotlar salmog‘i jadal suratlar bilan ortib bormoqdaki, bunday zamonaviy hamkor fan sohalarining yuzaga kelishi va rivoji uchun tamal toshlari aynan maqoladan o‘rin olgan tilshunos olimlar tomonidan qo‘yilganligi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Abduvaliyev M.A., Xalimova M.M., Subyektiv baho va uning tasnifi yuzasidan ayrim mulohazalar\\Zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlari va neyropsixolingvistika muammolari\Respublika Ilmiy-amaliy anjuman materiallari. FDU 2024: B.243–147

2.Березин Ф.М. История лингвистических учений. М. Высшая школа-1975 – 278 с.

3.Буслаев Ф.И. О преподавании отечественного языка. М., 1941–230 с.

4.Гумбольдт В. О различии организмов человеческого языка и о влиянии этого различия на умственное развитие человеческого рода. СпБ., 1859.-С.61

5.Звегинцев В.А. История языкознания XIX-XX веков в очерках и извлечениях. Ч.1, –1964 – 232 с.

6.Потебня А.А. Из лекций по теории словесности. Харьков. 1894. – 133 с

7.Потебня А.А., Мысль и язык. Изд.3. Харьков, 1913. – С.130-131.

8.Потебня А.А. Из заметок по русской грамматике. Т.1-2. М, 1941. – 120 с.

9.Срезневский И.И. Мысли об истории русского языка. М., 1959. – 164 с.

10. Yusupov O‘.Q. Ma’no, tushuncha, konsept va lingvokulturema atamalari xususida.\\Stilistika tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlarida. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent. 2011.- B 4-9

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Mardanova Mohira Davron qizi
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o‘qituvchisi
E-mail: mardanovamohira02@gmail.com

UDK: 811.82.42.15

SADRIDDIN AYNIYNING “SUDXO‘RNING O‘LIMI” QISSASIDA MA’NAVIY TANAZZUL VA JAMIYAT AXLOQI

Annotatsiya: *Maqolada Sadriddin Ayniy ijodining yirik namunalaridan biri bo‘lgan “Sudxo‘rning o‘limi” qissasi tahlilga tortilgan. Asarda sudxo‘r Qori Ishkamba obrazi orqali jamiyatdagi ijtimoiy adolatsizlik, ochko‘zlik va axloqiy qadriyatlarning yo‘qolishi kabi muammolar yoritib berilgan. Muallif sudxo‘rning halokati orqali yovuzlik va manfaatparastlikning oxir-oqibat insonni qanday ayanchli qismatga duchor etishini ko‘rsatib beradi. Maqolada qissaning dolzarbligi, unda aks etgan ijtimoiy tengsizlik, xasislik va munofiqlik kabi illatlarning bugungi kun uchun ham ahamiyatli ekanligi muhokama qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Xasislik, ochko‘zlik, axloqiy qadriyatlar, manfaatparastlik, ijtimoiy tengsizlik, ma’naviy tanazzul.*

Марданова Мохира Даврон кизи
Преподаватель, Денауский институт предпринимательства и педагогики

ДУХОВНЫЙ УПАД И ОБЩЕСТВЕННАЯ МОРАЛЬ В РАССКАЗЕ САДРИДДИНА АЙНИ «СМЕРТЬ УКРЕПИТЕЛЯ»

Аннотация: *В статье анализируется повесть «Смерть ростовщика», один из ярких образцов творчества Садриддина Айни. В произведении через образ ростовщика Кори Ишкамбы поднимаются такие проблемы, как социальная несправедливость, жадность и утрата моральных ценностей в обществе. На примере падения ростовщика автор показывает печальную судьбу, которую в конечном итоге навлекают на человека зло и эгоизм. В статье обсуждается актуальность истории и актуальность отраженных в ней пороков, таких как социальное неравенство, жадность и лицемерие, для сегодняшнего дня.*

Ключевые слова: *Жадность, алчность, моральные ценности, корысть, социальное неравенство, духовный упадок.*

Mardanova Mohira Davron qizi
Teacher, Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

SPIRITUAL DECLINE AND SOCIAL MORALS IN SADRIDDIN AYNI’S STORY “THE DEATH OF A USURER”

Annotation: *The article analyzes the story “The Death of the Usurer”, one of the great examples of Sadriddin Aini’s work. The work highlights problems such as social injustice, greed, and the loss of moral values in society through the image of the usurer Qori Ishkamba. Through the death of the usurer, the author shows what a miserable fate evil and selfishness ultimately lead to for a person. The article discusses the relevance of the story, the relevance of the vices reflected in it, such as social inequality, greed, and hypocrisy, for today.*

Keywords: *Greed, moral values, self-interest, social inequality, spiritual decline.*

Kirish.

Sadriddin Ayniy XX asr o‘zbek hamda tojik adabiyotining yirik namoyandalaridan biridir. Ayniy o‘zbek va tojik adabiyotida ham tarixshunos, ham adabiyotshunos va olim sifatida ilmiy-tadqiqiy ishlarni olib borgan. Adib 1878-yil Buxoro viloyatining G‘ijduvon tumani, Soktari qishlog‘ida tug‘ilgan [4]. Sadriddin Ayniy o‘zbek va tojik adabiyotining mashhur vakillaridan biri bo‘lib, uning “Sudxo‘rning o‘limi” qissasi ijtimoiy va ma’naviy muammolarni ochib beruvchi muhim asarlardan biridir. Ushbu qissada sudxo‘rning fojiali taqdiri orqali jamiyatdagi adolatsizlik, qashshoqlik va insoniy fazilatlarning yemirilishi tasvirlangan. Sadriddin Ayniy Markaziy Osiyo adabiyotida o‘zining realistik asarlari bilan mashhur bo‘lgan ijodkordir. U o‘z asarlarida

xalq hayotini, ijtimoiy tengsizlikni va adolatsizlikni tasvirlashga katta e'tibor bergan.

Ayniy ijodida o'ziga xos o'rin egallagan asarlardan biri "Sudxo'rning o'limi" qissasidir. Ushbu qissada muallif o'sha davr jamiyatining ijtimoiy muammolarini ochib beradi. Asarning bosh qahramoni sudxo'r Qori Ishkamba bo'lib, u odamlarga foiz evaziga pul berib, ularning qiyinchiliklaridan foydalanib boylik orttiradi. Biroq bu boylik unga baxt keltirmaydi. Muallif sudxo'r obrazini yaratish orqali yovuzlikning va ochko'zlikning oxir-oqibat insonni qanday halokatga olib borishini ko'rsatib beradi. Asarning asosiy g'oyasi adolat, halollik va insoniylik kabi faizlatlarning o'rnini eslatib o'tishga turtki bo'ladi. Ayniy o'z qissasi orqali jamiyatdagi nosog'lom tuzumni, boylar va kambag'allar o'rtasidagi ziddiyatni tasvirlab, sudxo'rning fojiaviy qismatini yoritib beradi. Asar oxirida sudxo'r o'z boyligidan ayrilib, ayanchli o'lim topishi muallifning asosiy xulosasini mustahkamlab, kitobxonga chuqur ta'sir etadi.

Adabiyotlar tahlili.

Sadriddin Ayniy ijodiy merosi o'zbek va tojik adabiyotshunoslari tomonidan chuqur o'rganilgan. Adibning "Sudxo'rning o'limi" qissasi haqida yozilgan ilmiy maqolalar, tadqiqotlar va adabiy tahlillarda uning realistik uslubda yozilgan asar ekanligini ta'kidlab o'tiladi.

Tadqiqotchilar Ayniy ijodini o'rganishda uning realistik yo'nalishiga alohida urg'u beradilar. Masalan, adabiyotshunoslar B.Karimov [3] va A.Murodovlar [5] "Sudxo'rning o'limi" asarining jamiyatdagi axloqiy tanazzulni tasvirlashdagi o'rni haqida fikr yuritganlar. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, Ayniy o'z qissalarida faqat individual obrazlar orqali emas, balki keng ijtimoiy kontekst orqali ham muammolarni ochib bergan [3].

Shuningdek, rus adabiyotshunoslari Ayniy ijodini XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi rus realizmi vakillari, xususan, Dostoyevskiy va Tolstoy asarlari bilan qiyoslaganlar. Ayniy ham ushbu adiblar singari jamiyatdagi adolatsizlikni fosh etuvchi asarlar yaratgan. Ayniy qissalarida ko'tarilgan mavzular turli adabiy manbalarda, xususan, V.Belinskiy va N.Dobrolyubov kabi rus tanqidchilari tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy adabiyot tamoyillariga hamohang ekanligi ta'kidlab o'tiladi [2].

O'zbek adabiyotshunosligi nuqtai nazaridan T.Qorayev va Sh.Jo'rayev kabi olimlar Ayniy qissalaridagi ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi ziddiyat va adolatsizlik tasvirini atroflicha o'rganganlar. Ularning fikriga ko'ra, "Sudxo'rning o'limi" qissasi faqat bir qahramonning fojiaviy qismatini emas, balki butun jamiyatda hukm surayotgan axloqiy inqirozni ochib beruvchi asardir. Shu tariqa, Sadriddin Ayniy asarlari, xususan, "Sudxo'rning o'limi" qissasi o'z davri hamda zamonaviy jamiyat uchun ham muhim bo'lgan ijtimoiy muammolarni yoritishda katta ahamiyatga ega. Unga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu asar realistik tasvir vositalari, chuqur psixologik tahlil va ijtimoiy tanqidning yorqin namunasi hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada adabiy tahlil, taqqoslash metodi, tarixiy-qiyosiy usullardan va sotsiologik yondashuvlardan foydalanilgan. Adabiy tahlil orqali asarning strukturasi, obrazlar tizimi va g'oyaviy mazmuni chuqur tahlil qilindi. Taqqoslash metodi yordamida esa Ayniy ijodining boshqa realistik adabiyot namunalari bilan o'zaro bog'liqligi tadqiq etilgan. Asarda aks etgan ijtimoiy tengsizlik, sudxo'rlik va axloqiy qadriyatlarning buzilishi kabi muammolar esa sotsiologik yondashuv nuqtai nazaridan o'rganilgan.

Tahlillar va natijalar.

"Sudxo'rning o'limi" qissasi bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Chunki unda tasvirlangan ochko'zlik, ijtimoiy adolatsizlik va halollik mavzulari hamisha katta ahamiyatga ega. Asar insonni axloqiy qadriyatlar haqida o'ylashga undaydi va halollik har doim g'alaba qozonishi kerakligini ta'kidlaydi. Asarda berilgan ushbu jumlalar orqali jamiyatda insonlarning ma'naviy qadriyatlari pasayishi, jamiyat tomonidan unga nisbatan berilgan salbiy laqab va uning xulq-atvori o'rtasidagi bog'liqlik aks etgan [6].

Asarda muallif "Ishkamba" laqabi bilan tanilgan kishidan yaxshilik kutib bo'lmasligi haqidagi fikr orqali jamiyatda ayrim shaxslarning ma'naviy qashshoqligi tufayli boshqalarga yordam qo'lini cho'zishga tayyor emasligini ko'rsatadi. Asarda bu holat ma'naviy tanazzulning muhim jihatlaridan biri ekanligi mahorat bilan tasvirlangan. Bu qarashlar ijtimoiy ishonchsizlik, shaxsiy manfaat, axloqiy qadriyatlarning yo'qolishi kabi illatlarga olib borishi ustalik bilan yoritib berilgan. Ijtimoiy ishonchsizlik muhitida yaxshi xulq-atvor va axloqiy me'yorlar zaiflashib, odamlar bir-biridan yaxshilik kutmay qo'yadi. Ushbu holat ijtimoiy birdamlikning yemirilishiga olib keladi. Bu kabi jamiyatda shaxsiy manfaat omma manfaatidan ustun turadi. Bu esa odamlarning ehtiyojlari va muammolari jiddiy qabul qilinmayotganini, ma'naviyat o'rnini beparvolik egallayotganini ko'rsatib beradi. Bu kabi jamiyatlarda axloqiy qadriyatlarning yo'qolishi yuz beradi. Kishilarga berilayotgan laqablar ham ularning axloqiy darajasi bilan bog'liq bo'lib, "Ishkamba" laqabi uning hurmatsiz, manfaatparast yoki o'zgalarga yordam bermaydigan shaxs ekanligiga ishora qiladi. Bu esa jamiyatda axloqiy qadriyatlarning qadrsizlanishiga sabab bo'ladi.

Demak, adib ushbu keltirilgan fikrlari orqali aks etgan hodisa jamiyatda ma'naviy tanazzul qanday namoyon bo'lishi va uning oqibatlari haqida o'ylashga undaydi. Agar insonlar bir-biriga nisbatan befarq bo'lsa, axloqiy qadriyatlar yo'qolib boraversa, jamiyatdagi birlik va insoniylik tushunchalari zaiflashib borishini tasvirlab bergan.

“Sudxo‘rning o‘limi” asarida muallif xasislikning o‘ta yorqin ko‘rinishini quyidagicha tasvirlaydi: “Bunday katta sallani haftada bir jomashovga solish mumkin emas, – dedi Qori Ishkamba, – u holda sovunning uyi kuyadi” [1].

Ushbu jumla orqali Qori Ishkamba “katta salla” – ya’ni, qimmatbaho yoki katta hajmdagi narsalarni parvarish qilish uchun yetarli mablag‘ ajratishga tayyor emasligini bildiradi. Uning “sovunning uyi kuyadi” degan gapi xasislikning aynan timsolidir. U o‘zining katta sallasini haftada bir marta yuvishdan ham qochmoqda, chunki sovunning kamayishi unga zarar bo‘lib ko‘rinadi.

Quyidagi jumlada ham asar qahramonining xasisligi yaqqol aks etgan: “Bu sallam – yirtish oluvchi salla, – dedi Qori Ishkamba javobida, – buni boshimga o‘rab mozor boshida, o‘liklarni ko‘mayotgan chog‘da hozir bo‘lsam, boshqa odamlarga bir gazdan yirtish berayotgan bo‘lsalar, menga ikki gaz beradilar [1].

Ushbu fikr orqali xasislik va manfaatparastlikning yana bir ko‘rinishi ochib berilgan. Qori Ishkamba sallasini o‘lik ko‘mish marosimida ataylab kiyib borishi – uning moddiy manfaat ortidan quvishini, hatto marosimlar orqali ham foyda olishga intilishini ko‘rsatadi. Bu holat xasislikning quyidagi jihatlarini ko‘rsatadi: Qahramon o‘z sallasini “yirtish oluvchi salla” deb ataydi, ya’ni u bu kiyimni faqat marosimda boshqalardan ko‘proq mato olish uchun kiyadi. Bu esa xasis odamlarning hatto ezgu ishlar (jasadni ko‘mish kabi) orqali ham shaxsiy foyda izlashini va o‘z manfaatini ustun ko‘rishini bildiradi. Qori Ishkamba marosimga chin dildan ishtirok etish uchun emas, balki ko‘proq mato olish uchun boradi. Bu esa uning munofiqona xatti-harakatini fosh qiladi. U o‘zini jamiyatda hurmatli, diniy marosimlarga qatnashadigan odam sifatida ko‘rsatadi, lekin asl maqsadi moddiy manfaat olish hisoblanadi. Bunday odamlar jamiyatda biror ezgu ishni ham manfaat ko‘zlamay bajara olmaydigan odamlarga aylanadi. Ular saxovat, fidoyilik kabi qadriyatlarni unutib, hamma narsadan moddiy naf olishga harakat qiladi. Qori Ishkamba uchun o‘likni dafn qilish – bu xayrli amal emas, balki ko‘proq mato olish uchun imkoniyat deb tasvirlangan.

Xasislik va manfaatparastlik jamiyatning axloqiy qadriyatlarini yemiradi. Agar inson har bir ishda faqat o‘z foydasini o‘ylasa, ezgulik, fidoyilik va boshqalarga yordam berish tushunchalari yo‘qolib boradi. Shuning uchun inson o‘z niyatini pok saqlashi, yaxshi ishlarni manfaat kutmay bajarishi lozim. Haqiqiy saxovat faqat moddiy jihatdan emas, balki qalb saxovati bilan ham namoyon bo‘lishi kerakligini yozuvchi quyidagi fikrlari orqali tushuntirib berishga harakat qilgan:

“Men kunda peshin namozi vaqtida Devonbegi xonaqohining sahnida hozir bo‘laman. Janoza o‘qish uchun u yerga keltirilgan har bir o‘likning (tanish bo‘lsin, bo‘lmasin) «xudoyi» janozasini o‘qib, uning orqasidan qabristongacha boraman va nasibaga yarasha yirtish olib qaytaman. Agar o‘lik egalari meni tanimasalar yana ham yaxshiroq, u vaqtda sallamning kattaligiga qarab kattaroq yirtish beradilar” [1].

Ushbu parcha orqali xasislikning yanada chuqurroq ko‘rinishi tasvirlab berilgan. Qori Ishkamba o‘zini dinga sodiq, marhumlarning janozasini o‘qiydigan inson sifatida ko‘rsatadi, lekin aslida u bu harakatlarni shaxsiy manfaat olish uchun bajaradi. Uning “o‘lik egalari meni tanimasalar, yana ham yaxshiroq”, – degan fikri esa xudbinlik va manfaatparastlikning haddan tashqari oshib ketganini ifodalagan.

Janoza o‘qish va marhumni oxirgi yo‘lga kuzatish – bu diniy hamda insoniy burch. Lekin Qori Ishkamba bu ibodatni ezgulik uchun emas, balki “nasibaga yarasha yirtish olish” uchun bajarishi va bu holat diniy qadriyatlarning pul yoki moddiy manfaat bilan o‘lchanayotganining yorqin misolidir. Uning har kuni peshin namozida xonaqohga borib, o‘liklarning janozasida qatnashishi sun’iy dindorlik bo‘lib, aslida u marosimlarning ruhiy va diniy ahamiyatini tushunmasligini ko‘rsatib bergan. Uning “salla kattaroq bo‘lsa, ko‘proq mato berishadi”, – degan fikri esa taqvo niqobi ostidagi hiylakorlikni mohirona tasvirlab bergan. Bunday odamlar odamiylik tushunchalarini buzadi, chunki ular jamiyatda haqiqiy ezgulik, saxovat va fidoyilik kabi qadriyatlarni soxta manfaatlar bilan almashtirib yuboradi. Agar jamiyatda Qori Ishkamba kabi odamlar ko‘payaversa, ezgu amallarni qiladigan chin dildan yordam beruvchilar tobora kamayib boradi. Xasislik va manfaatparastlik insonni eng muqaddas ishlarni ham tijoratga aylantirishga olib keladi [5].

Xulosa.

Xasislik insonni shunchalik darajaga olib keladiki, hatto eng oddiy va tabiiy harakatlar uchun ham pul to‘lashni istamaydi. Halol mehnat uchun xizmat haqi to‘lanishi kerak, chunki bu jamiyat taraqqiyoti va mehnatkashlarning hayotiy ehtiyojlarini ta’minlash uchun zarur. Xasislik nafaqat insonning o‘ziga, balki butun jamiyatga zarar yetkazadigan illatdir. Xulosa o‘rnida shuni aytish keraki, “Sudxo‘rning o‘limi” qissasi insoniy fazilatlarning qadrsizlanishi, ochko‘zlik va manfaatparastlikning jamiyatga salbiy ta’sirini ochib beradi. Sadriddin Ayniy bu asari orqali nafaqat o‘z davrining muammolarini yoritgan, balki universal axloqiy saboq ham bergan. Asarda Qori Ishkamba obrazi orqali insonlarning axloqiy tanazzuli va ijtimoiy ishonchsizlik tasvirlangan bo‘lib, bu muammolar bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Asar o‘quvchini halollik, adolat va saxovat kabi qadriyatlar ustida o‘ylashga undaydi. Sadriddin Ayniy o‘zining bu asari bilan nafaqat o‘z davri jamiyatiga tanqidiy qarash bildirgan, balki butun insoniyatga universal axloqiy saboq ham bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1.Ayniy S. Sudxo'rning o'limi. – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 1980. – 306 b.

2.Davronovna M. M., Muhammadiyevna D. S. Tilshunoslikda evfemizmlarni o'rganishning ahamiyati. International Conference On Linguistics, Literature And Translation. – London. 2024. – Pp. 22-25.

3.Karimov B. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Fan, 2010. – 402 b.

4.Mardanova M. Semantic characterise of English Jargonisms. Журнал Иностранных Языков И Лингвистики. 2021. – С. 132-137.

5.Murodov A. Sadriddin Ayniy ijodiyoti. – Dushanbe: Irfon, 2005. – 156 b.

6.Xasanov A.I. Badiiy asar terminlarining tarkibiy-mazmuniy tahlili. Monografiya. – Toshkent: Science and innovation, 2024. – 198 b.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Xayitova Rushana Ximoyiddin qizi
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tadqiqotchisi
E-mail: rushanaxayitova310@gmail.com

UDK: 811.82.45.76

NOSTALGIK LEKSIK BIRLIKLARNING SEMANTIK TAHLILI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada nostalgik leksik birliklarning semantik tahlili yoritiladi. Nostalgiyaning lingvistik ifodasi, uning polisemiya xususiyati va kontekstga qarab qo‘shimcha semantik qatlamlarga ega bo‘lishi tahlil qilinadi. Shuningdek, nostalgik birliklarning denotativ va konnotativ ma’nolari, ularning shaxsiy va jamiyat xotirasidagi roli ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda nostalgik so‘zlarning semantik evolyutsiyasi va turli kontekstlardagi talqini misollar bilan izohlanadi. Maqolada G. Lakoff va U. Croftning semantik nazariyalari asosida nostalgik leksik birliklarning til tizimidagi funksional o‘rni ochib beriladi. Ushbu tadqiqot tilshunoslik va madaniyatshunoslik uchun dolzarb bo‘lib, nostalgik birliklarning kognitiv va pragmatik xususiyatlarini o‘rganishga ilmiy asos yaratadi.*

Kalit so‘zlar: *nostalgiya, nostalgik leksik birliklar, semantik tahlil, polisemiya, konnotativ ma’no, denotativ ma’no, semantik evolyutsiya, madaniy xotira.*

Хаитова Рушана Химойиддин кизи
Исследователь Денауского института предпринимательства и педагогики

СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ НОСТАЛЬГИЧЕСКИХ ЛЕКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ

Аннотация*: В данной статье рассматривается семантический анализ ностальгических лексических единиц. Анализируется лингвистическое выражение ностальгии, ее полисемия и способность приобретать дополнительные семантические оттенки в зависимости от контекста. Также исследуются денотативные и коннотативные значения ностальгических единиц, их роль в личной и коллективной памяти общества. В исследовании объясняется семантическая эволюция ностальгических слов и их интерпретация в различных контекстах на примерах. На основе семантических теорий Дж. Лакоффа и У. Крофта раскрывается функциональная роль ностальгических лексических единиц в языковой системе. Данное исследование актуально для лингвистики и культурологии, поскольку создает научную основу для дальнейшего изучения когнитивных и прагматических характеристик ностальгических единиц.*

Ключевые слова: *ностальгия, ностальгические лексические единицы, семантический анализ, полисемия, коннотативное значение, денотативное значение, семантическая эволюция, культурная память.*

Khayitova Rushana Khimoyiddin kizi
Researcher at Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

SEMANTIC ANALYSIS OF NOSTALGIC LEXICAL UNITS

Abstract*: This article explores the semantic analysis of nostalgic lexical units. It examines the linguistic expression of nostalgia, its polysemy, and its ability to acquire additional semantic layers depending on the context. The study also investigates the denotative and connotative meanings of nostalgic units and their role in individual and collective memory. The research explains the semantic evolution of nostalgic words and their interpretation in various contexts through examples. Based on the semantic theories of G. Lakoff and W. Croft, the article reveals the functional role of nostalgic lexical units in the language system. This study is relevant to linguistics and cultural studies as it provides a scientific foundation for further exploration of the cognitive and pragmatic characteristics of nostalgic units.*

Keywords: *nostalgia, nostalgic lexical units, semantic analysis, polysemy, connotative meaning, denotative meaning, semantic evolution, cultural memory.*

Kirish.

Nostalgiya – baxtli va qayg‘uli tuyg‘ularning aralashmasidir. Bu o‘tmishni xotiraga olganingizda paydo bo‘ladigan, iliq va yoqimli tuyg‘u bo‘lib, o‘sha davrlarning o‘tib ketganiga ozgina qayg‘u bilan aralashadi. Shuningdek, nostalgiya his-tuyg‘ularini ifodalovchi so‘zlar, ya’ni nostalgik leksik birliklar, tilimizda o‘tmishga bo‘lgan iliq va qayg‘uli hissiyotlarni aks ettiradi. Bundan tashqari, shuni ham ta’kidlash joizki, nostalgik leksik birliklar o‘tgan davrga oid tushunchalar, hodisalar va tajribalarni esga soluvchi so‘z va iboralardir. Ular til tizimida muhim o‘rin tutib, jamiyatning madaniy, tarixiy va psixologik jihatlariga ta’sir ko‘rsatadi, shuningdek, ijtimoiy va madaniy merosning ajralmas qismi sifatida avlodlararo bog‘liqlikni ta’minlash, shaxsiy va ijtimoiy identifikatsiyani shakllantirish va sotsiomadaniy anglash jarayonlarida muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqolaning maqsadi ham nostalgik leksik birliklarning semantik tahlilini o‘rganish, ularning til tizimidagi funksional xususiyatlarini aniqlashdan iboratdir.

Adabiyotlar tahlili.

Nostalgik leksik birliklarning semantik jihatlarini turli ilmiy yondashuvlar asosida o‘rganish davom etmoqda. Tadqiqotchilar nostalgiya tushunchasini tilshunoslik, madaniyatshunoslik va psixologiya nuqtayi nazaridan tahlil qilmoqdalar.

“Nostalgik” atamasi yunoncha “*nostalgia*” (nostalgiya) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, u qadimgi yunoncha *νόστος* (nóstos) – “*uyga qaytish*” va *ἄλγος* (álgos) – “alam, sog‘inch” [5] degan ma’no beruvchi so‘zlaridan tarkib topgan. Ushbu atama ilk bor 1688-yilda shveytsariyalik shifokor Johannes Hofer (1669-1752) tomonidan qo‘llanilgan bo‘lib, u ushbu atamani uzoq yurtlarda xizmat qilayotgan askarlarning vatan sog‘inchini ifodalash uchun ishlatgan. Hofer nostalgiya yoki fransuzcha *mal du pays* (“uyga sog‘inch”) atamasini *mal du Suisse* (“Shveytsariya kasalligi”) deb ham atashni tavsiya qilgan [6]. Bu nomlanish Shveytsariyaning tekisliklarida xizmat qilayotgan yollanma shveytsariyalik askarlarda o‘z yurtlarining manzaralarini sog‘inish holati tez-tez kuzatilgani sababli paydo bo‘lgan. S.Boym nostalgiya tushunchasini ayni vaqtda mavjud bo‘lmagan yoki hech qachon mavjud bo‘lmagan uyga bo‘lgan sog‘inch sifatida ta’riflaydi [1]. G.Lakoff [5] va U.Croft [2] tadqiqotlari nostalgik leksik birliklarning semantik xususiyatlari ko‘p qirrali ekanligini dallillaydi.

Bugungi davrda “*nostalgiya*” atamaning yana bir qancha ma’nolarini uchratishimiz mumkin. Jumladan, S.I.Ojegov lug‘atida: «Nostalgia – vatan sog‘inchi» [7] tarzida qayd etilgan bo‘lsa, Falsafa qomusiy lug‘atida esa nostalgiya madaniyatning universalligi, o‘tmishni yo‘qotish sifatida o‘ta keskin his-tuyg‘ularni aks ettiradigan tushuncha sifatida ta’riflanadi [8].

Tadqiqot metodologiyasi.

Nostalgik leksik birliklarning semantik tahliliga bag‘ishlangan ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning analiz, sintez, qiyosiy-kulturologik tahlil kabi metod va usullaridan samarali foydalanildi.

Tahlillar va natijalar.

Tilshunoslik nazariyasida leksik birliklar tilning semantik va kommunikativ tizimini tashkil etuvchi asosiy elementlardir. Ularning turlanishi tilning lug‘aviy boyligini, madaniy an’ana va tarixiy tajribalarni aks ettirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Leksik birliklar ularning semantik vazifalari asosida quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

Denotativ (obyektiv) ma’noli birliklar. Ushbu birliklar so‘zning asosiy, literal ma’nosini ifodalaydi. Ular real hayotdagi obyektlar, hodisalar yoki tushunchalarni aniq va to‘liq aks ettirishga mo‘ljallangan. Masalan, “*kitob*”, “*daraxt*”, “*maktab*”, “qalam”, “uy”, “stul”, “telefon”; *“car”, “house”, “apple”, “river”, “mountain”, “dog”, “chair”, “computer”* kabi so‘zlar ularning denotativ ma’nosi bilan aniq bir narsani bildiradi [3].

Konnotativ (subyektiv) ma’noli birliklar. Bu guruhdagi birliklar so‘zning asosiy ma’nosiga qo‘shimcha holda emotsional, madaniy, baholovchi yoki shaxsiy taassurotlarni ham yuklaydi. Ular gap konteksti va so‘z ishlatilishiga qarab qo‘shimcha ma’no qatlamlarini hosil qiladi. Shu bilan nutqda subyektiv tus va hissiy rang beradi. Masalan, “*uy*” so‘zi nafaqat binoni ifodalaydi, balki “*oilaviy issiqlik*”, “*xavfsizlik*” kabi hissiy ma’nolarni ham uyg‘otishi mumkin. “*Ona*” so‘zi nafaqat biologik ma’noda ayol-ona rolini bildiradi, balki mehr, himoya va mehribonlik kabi chuqur hissiy qatlamlarni ham o‘z ichiga oladi. Ingliz tilidagi “*friend*” so‘zi nafaqat odamlar o‘rtasidagi do‘stlikni anglatadi, balki ishonch, yordam va qulaylik hislarini ham ifodalaydi. “*Freedom*” so‘zi nafaqat siyosiy va huquqiy holatni anglatadi, balki mustaqillik, xohish-iroda va imkoniyatlar kengligi kabi hissiy qatlamlarni ham o‘z ichiga oladi.

Nostalgik leksik birliklarning kontekstual sharoitga qarab qo‘shimcha semantik qatlamlarga ega bo‘lishi ularning polisemiya xususiyatini tashkil etadi (*bolalik, vatan, memory, dream*). Ushbu murakkablik nostalgik tushunchaning ko‘p qirrali ifodasini ta’minlaydi. O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asaridan nostalgiya bilan bog‘liq quyidagi misolni keltirish mumkin:

“*Bolalik – odam umrining eng beg‘ubor, eng go‘zal davri. O‘sha paytda yashagan har bir narsa – uyimiz, bog‘imiz, hatto to‘rt-besh yamoq urilgan eski chopon ham biz uchun qadrli bo‘lib qoladi*” [3].

Bu gapda “*bolalik*” tushunchasi shaxsiy xotiralar bilan bog‘langan holda qo‘shimcha semantik qatlam hosil qilgan. Bu nafaqat hayotiy bosqichni, balki beg‘uborlik, soddalik, quvonch va yo‘qotilgan o‘tmishga intilish kabi hissiy konnotatsiyalarni ham o‘z ichiga oladi. Shu orqali nostalgik birliklarning polisemiya xususiyati namoyon bo‘ladi.

Polisemiya bitta leksik birlikning bir nechta, ammo o‘zaro bog‘liq semantik ma’nolarga ega bo‘lishidir. Nostalgik leksik birliklar bu jihatdan quyidagicha namoyon bo‘ladi:

Kontekstual farqlanish: Masalan, “*bolalik*” so‘zi nafaqat shaxsiy tajribani ifodalashi, balki jamiyatning kollektiv xotirasini ham aks ettirishi mumkin. Bu holat nostalgik birliklarning turli kontekstlarda turlicha talqin qilinishiga imkon yaratadi [5].

А из туч глядит, как капля,
Одинокая звезда [5].

The device emphasizes a symbiotic relationship with nature. It can be further traced in the portrayal of slope reaching for the sky (*За кольцо небесных трещин // Тянет пальцы косогор.*), turning it into a figure striving for connection with the heavens, almost resembling human desire to bridge the earth and sky and creating a feeling of aspiration. At the same time a star is personified as a silent witness of nature's interactions looking in the moment (*А из туч глядит, как капля, // Одинокая звезда.*)

Through subtle personification in the poem "Night" *("Ночь")*, the poet elevates the river to a symbol of peace and quietude, encouraging a deeper emotional engagement with the natural world. The line invites readers to pause, reflect, and align themselves with the gentle rhythm of nature:

Тихо дремлет река. ("Ночь").

Conclusion.

An examination of Robert Frost's and Sergei Yesenin's poetry reveals personification as a vital stylistic and emotive device shaping their distinctive idiostyles. Frost utilizes personification to evoke an ominous and mystical portrayal, depicting nature as both an intimate ally and a powerful force, often romanticized or looked up to as something sacred. In contrast, Yesenin employs personification to explore themes of melancholy and desolation while maintaining a delicate balance between dramatization and aspiration.

Used literature

1.Complete poems of Robert Frost. – Canada: Holt, Rinehart and Winston, 1964. – 667 p.

2.Cuddon J. A. A dictionary of literary terms and literary theory. Revised by M.A.R. Habib. – Chichester: Wiley-Blackwell, 2013. – 1000 p.

3.Joseph R. Dodson. The "Powers" of Personification. Rhetorical Purpose in the Book of Wisdom and the Letter to the Romans. – Berlin: Walter de Gruyter GmbH & Co., 2008. – 274 p.

4.Madalov N.E. Expression of conditional synonyms in probers with the concept rain. Journal of new century. Issue2.2023/01.

5.Сергей Есенин. Полное собрание сочинений. – Москва: ИМЛИ РАН, 2000. – 544 с.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Jafarov Botir Sattarovich
Namangan davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori
mega.botir@mail.gmail.com

MAMLUKLAR DAVLATI YOXUD "TARJUMON TURKIY" QO'LYOZMASI XUSUSIDA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Misr va Suriya tarixida o'ziga xos yorqin bir davrni tashkil etgan Mamluklar davlati va maskur davlatda kitobat qilingan "Tarjumon turkiy" tadqiqi, tarkibi hamda qo'yozmadagi so'larning hozirgi o'zbek adabiy tilida ishlatilishida doir ma'mumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Misr, Suriya, Oltin O'rda, qo'lyozma, o'zbek, adabiy til, tarix, turkiy, qipchoq.*

Жафаров Ботир Саттарович
Профессор Наманганского государственного университета, доктор филологических наук

О МАМЛЮКСКОМ ГОСУДАРСТВЕ ИЛИ РУКОПИСИ «ТАРЖУМОН ТУРКИЙ»

Аннотация. *В данной статье исследование «Таржумон туркий», изданного в государстве мамлюков, сформировавшего уникальный яркий период в истории Египта и Сирии, и его композиция, а также использование слов в поэме в современной узбекской литературной язык, представлены.*

Ключевые слова: *Египет, Сирия, Золотая Орда, рукопись, узбекский, литературный язык, история, тюркский, кыпчакский.*

Jafarov Botir Sattarovich
Professor of Namangan State University. Doctor of Philological Science

ON THE MAMLUK STATE OR THE MANUSCRIPT OF "TARJUMON TURKIY"

Abstract. *In this article, the research of "Tarjumon Turki" published in the Mamluk state, which formed a unique bright period in the history of Egypt and Syria, and its composition, as well as the use of words in the poem in the modern Uzbek literary language, are presented.*

Key words: *Egypt, Syria, Golden Horde, manuscript, Uzbek, literary language, history, turkic, kipchak.*

Kirish

Mamluklar davlati XII–XV asrlar, ayniqsa, uning birinchi davri Misr va Suriya tarixida o'ziga xos yorqin bir davrni tashkil etadi. Bu o'ziga xoslik, birinchidan, mamluk sultonlarining nasl-nasabi qullar (mamluklar)ga borib taqalishidadir. Mamluklar yoshligida qullar bozorida sotib olinib, maxsus harbiy tarbiya olgan, ulardan ko'plari o'zlarining shaxsiy fazilatlari, ayniqsa, jasorati va sodiqligi uchun yuqori harbiy mansablarga ko'tarilib, hatto lashkarboshi va amirlar darajasiga yetishgan[11.b-117-118.].

Yana bir o'ziga xosligi, XII asrning ikkinchi yarmi – XIV asrlarda Misr va Suriyada (Shomda) hukm surgan mamluk sultonlari Oybek at-Turkmaniy, Qutuz, Beybars, Qala'un, Muhammad Nosir va boshqalar[12.b-99] arab qavmiga emas, balki turkiy ellatlarga, Dashti Qipchoqda ko'chib yurgan qipchoq, o'g'uz va boshqa turkiy qabilalarga yoki mo'g'ul istilosidan qochgan xorazmliklarga taalluqli ekanini o'sha davrning mashhur tarixchilari al-Maqriziy, Ibn al-Iyyaslar ko'rsatib o'tgan[11.b-115-116.].

Turkiyshunos olim N.Rahmonov mamluklar davlatini tashkil topishi va uning asoschisi haqida quyidagicha yozadi: – "Tarixda Mamluklar davlati deb nom olgan bu siyosiy tuzilmaga 1250-yilda Iziddin Oybeg asos solgan edi. Bu davlatning tashkil topishida Misrga sotilgan sobiq qullardan qipchoqlar, cherkaslar, gurzinlar muhim rol o'ynadi. Misr podshohi as-Solih Ayub vafot etganidan keyin, to uning o'g'li Turon shoh taxtiga kelguniga qadar, podshoh Ayubning askarlari Misrga salib yurishlari qilgan Lyudovik IXning askarlarini tor-mor qilib, uni asirga oladilar. Ayubning lashkarlari mamluklardan iborat edi. Shu tariqa mamluklar Misrda mavqeini mustahkamlab oldilar. Oradan to'rt hafta o'tgach, Ayubning o'rniga taxtga o'tirgan Turon shoh mamluklar tomonidan o'ldirildi. Mamluklar davlatiga

Ayubning bevasi Shojar ad-dur o‘tirdi. Oradan bir necha oy o‘tgach, Mamluklar davlati taxtiga Iziddin Oybeg chiqdi.

Mamluklar davlati 1250-yildan XVI asrning boshlarigacha 1516–1517 yillargacha Misr va Suriyada hukmronlik qildi. Mamluklarning birinchi hukmdori Iziddin Oybeg ham asli qipchoq qavmidan edi. Qipchoqlarning mavqei Misrda baland bo‘lgani uchun hokimiyatni ular boshqardi. Taxminan 1260-yillargacha Mamluklar davlati parokandalik bo‘lib turdi. 1260-yili Rukniddin Boybars taxtga o‘tirib, o‘zini Misr sultoni deb e’lon qildi. U kelib chiqishi bo‘yicha Xorazmdan. Bu hukmdor taxtga o‘tirgach, Misrning Oltin O‘rda bilan aloqalari jonlandi, tarixiy asarlar yaratish yo‘lga qo‘yildi.

Mamluklar davlati bilan Oltin O‘rda o‘rtasida Rukniddin Boybars o‘rnatgan aloqa keyinchalik har ikkala davlat taqdirida muhim rol o‘ynadi.ayniqsa, Oltin O‘rda madaniy va adabiy muhitining yashab qolishi uchun zamin yaratildi. Adabiy muhit asta-sekin Misrga ko‘cha boshladi. Misr mamluklar davlatidagi adabiyot bilan Oltin O‘rdadagi adabiy jarayonni eski o‘zbek tili birlashtirdi”[20.b-80].

Adabiyotlar sharhi

Qo‘lyozmani “Tarjumon turkiy” qo‘lyozmalarini tadqiq etish, ularning o‘ziga xosligi hamda til xususiyatlarini har tomonlama tahlil etish, qo‘lyozmalar leksikasi, til xusisiyatlariga oid tadqiqotlar asosida dunyoning turli sohalaridagi olimlar bir qancha amaliy ishlarni olib borganlar. Bu borada Yu.Klaprot, T.Xoutsma, P.Melioranskiy, G.Kuun, V.Radlov, V.Bang, A.Qo‘rishjonov, Yashio Sito, A.Garkaves, M.Argunshah va G.Go‘ner, A.Yunusov hamda maqola muallifining tadqiqotlari alohida e’tiborga molik.

Tadqiqot usullari

Maqolada retrospektiv (o‘tmish nuqtayi nazaridan qarash), germenevtika (talqin qilish san’ati, shu jumladan qadimiy matnlarni tushunish nazariyasi), ekstrapolyatsiya (narsa va hodisalarning bir qismini kuzatish asosida olingan xulosalarni uning boshqa qismiga yoyish yoki tatbiq etish), qiyosiy-tarixiy kabi tadqiqot va tahlil usullari qo‘llanilgan.

Munozaralar va natijalar

Turkiy tillar tarixida alohida ahamiyatga ega bo‘lgan, yuqorida aytib o‘tilgan manzilda kitobat qilingan qo‘lyozmalardan yana biri, XIV asr obidasi “Tarjumon turkiy”dir. Qo‘lyozma bugungi kunda Niderlandiyaning Leyden kutubxonasida Varner qo‘lyozmalar to‘plamida 517 katalog (Leiden, Warner № 517) raqami bilan saqlanadi. Leyden kutubxonasidagi qo‘lyozmalar katalogi bilan shug‘ullangan Niderlandiyalik tarixchi va sharqshunos olim Reynxart Dozining ta’kidlashicha bu qo‘lyozmaning Oksford universitetida boshqa yana ikkita nusxasi mavjud[1.b-110]. Ammo qo‘lyozmaning Leydin kutubxonasida saqlanayotgan va bugungi kungacha jahon turkiyshunoslariga ma’lum bo‘lgan nusxasi nodir nusxa sanaladi. Chunki, R. Dozi ta’kidlab o‘tgan Oksford universiteti nusxalar haqida bugungi kungacha undan boshqa hech bir turkshunos olim ma’lumot bergan emas. Qo‘lyozmaning umumiy xajmi 76 qo‘lyozma sahifadan iborat bo‘lib, uning birinchi qismi (1 sahifadan 62b sahifagacha hamda 76 a sahifasi) turkcha va ikkinchi qismi (63a sahifadan 75b sahifagacha) mo‘g‘ulchadan iborat. Obidaning birinchi, 62b sahifasi, 63a sahifasi hamda 76b sahifalaridagi arabcha yozuvlar turli xattotlarga tegishli ekanligi anglashiladi.

Qo‘lyozmaning oxirida asar muallifning dasxati bilan bitilgan bir turkcha hikoyaning boshlanishi yozilgan bo‘lib ushbu yozuv e’tiborsizlik bilan bitilgan, ba’zi joylarini o‘qish ancha qiyin. Asar muallifi haqida fikrlar haligacha bahsli va o‘z yechimini topmay kelayotgan muammolar sarasiga kiradi. Obidaning til materiallari uning halq so‘zlashuv tili asosida tuzilganligidan dalolat beradi. Shuning uchun ham T.Xoutsma asarni “ustoz shogirdiga murojaat qiladigan kollegial daftar” deb hisoblaydi[22.b-84].

Sharqshunos olim Platon Mixaylovich Melioranskiy o‘z monografiyasida qo‘lyozma Misrda yozilmaganini, uning bituvchisi Muhammad ibn Qays bo‘lib, asar Xorazmshoxlarning so‘ngisi Jaloliddin uchun tuzilganini tahmin qiladi[17].

Tataristonlik olim Fatxelkadir Mustafiyevich Suleymanov qo‘lyozma muallifi yoki uni ko‘chirgan xattot o‘g‘uz-turkman tilida so‘zlashuvchi Kuniyalik Halil ibn Muhammad ibn Yusufdir, deb tahmin qiladi[5.b-53-71].

Turkmanistonlik olima Zelixa Bakiyevna Muxamedova o‘z tadqiqotida Halil ibn Muhammad qadimgi Rum saljuqiylarining avlodi ekanini va u qo‘lyozmani boshqa bir nusxadan ko‘chirib olganini davo qiladi[18]. Ammo olima asarning boshqa nusxasi haqida fikr yuritmaydi.

Qo‘lyozma xotimasi quyidagi so‘zlar bilan tugallangan: “arabcha matn” (Xalil ibn Muhammad ibn Yusuf al-Kunaviy. Alloh taoloning bandalarining eng pasti va bandalarining eng zaifi, uning rahmatiga tayangan holda bayon qilgan. Alloh amallarini yaxshilik bilan yakunlasin, u zot, ota-onasidan, ustozlaridan va barcha musulmonlardan rozi bo‘lsin). Mazkur matndagi ma’mumotga tayanadigan bo‘lsak, qo‘lyozma muallifi Halil ibn Muhammad ibn Yusuf al-Quvaniy bo‘lishi mumkin.

Shunisi aniqki, asar muallifi turkiy (qipchoq) va turkman tillarini hamda ularning shevalarini, va qolaversa, arab, fors, va mo‘g‘ul tillarini juda yaxshi bilgan. Misrning yuqori martabali amaldorlari so‘zlashgan turkiy (qipchoq) tilni hamda Suriyaning Ba’labakka shahrida yashovchi oddiy xalq og‘zaki nutqidagi farqlarni dalil qilib ko‘rsatishicha, uni o‘z sohasining o‘sha davrdagi yetuk filologi deyish mumkin. Bular qo‘lyozmaning Misrda yoki Suriyada yozilgan degan fikrga kelish uchun asos bo‘ladi.

“Tarjumon turkiy” qo‘lyozmasi tadqiqi bo‘yicha 1894-yilda ilk monografik tadqiqotini e’lon qilgan Niderlandiyalik olim Martin Teador Xoutsma bo‘lib, uning tadqiqoti turkiyshunoslikda “Ein türkisch-arabisches Glossar” (Turkcha-arabcha lug‘at) nomi bilan mashhur. U turkologiyada birinchi bo‘lib lotin alifbosi asosida nemis tilida tarjima va transkripsiyasi bilan turkiy (qipchoq) so‘zlar lug‘atini tuzgan edi. Olim o‘z nashrida qo‘lyozmaning mufassal tavsifi, yaratilish tarixi va davri, asarning mazmuni, unda qamrab olingan so‘zlar va tillar haqida ma’lumot keltirgan. M.T.Xoutsma nashri 193 sahifadan iborat bo‘lib, kirish (1-7 betlar), birinchi (8-42 betlar) va ikkinchi (43-110 betlar) qismlar, qo‘shimchalar va tuzatishlar (111-114 betlar) hamda arabcha matnlar qismlariga bo‘lingan. Kirish qismining o‘z ikkiga bo‘linadi: 1) Qo‘lyozma va uning mazmuni. 2) Lug‘atdagi turkiy (qipchoq) so‘zlar.

Birinchi qism o‘z navbatida grammatika, fonetika, etimologiya bo‘limlariga ajratilgan. Etimologiya qismi esa ot, olmosh va fe’l bo‘limlaridan tashkil topgan. Tadqiqotning ikkinchi (lug‘at) qismi qo‘lyozmaning arab yozuvidagi turkiy (qipchoq) so‘zlar va ularning olmoncha tarjimalarini o‘z ichiga olgan. Arabcha matnlar qismida esa qo‘lyozma faksimilisi o‘rnida uning arab yozuvidagi to‘liq matni berilgan. Olim tadqiqotida qo‘lyozmaning yozilgan sanasini Hijriy 643-yil Shabon oyining 27 chi (1245-yil 28-yanvar) kunida yozib tugatilgan deb ko‘rsatadi[4].

“Tarjumon turkiy”ning boshqa bir tadqiqotchisi A.Garkavesning ko‘rsatishicha ayni shu sanani nemis olimasi B.Flemming hijriy 743-yil Shabon oyining 27 chi sanasi “yakshanba” (1343-yil 25-yanvar) kuni yozib tugatilgan deb ko‘rsatgan[13.b-6.]. Qo‘lyozmaning yozilgan sanasi borasidagi tortishuvlar turkiyshunoslikda haligacha o‘z echimini topmay kelayotgan muammolar sarasiga kiradi.

Qo‘lyozma dunyo sharqshunos olimlarining doimo diqqat markazida bo‘lgan. Jumladan, 1900-yilda rus sharqshunos olimi Platon Mixaylovich Melioranskiy qo‘lyozmaning fonetika va grammatikasi tadqiqiga bag‘ishlangan tadqiqotini jamoatchilik hukmiga haqola qildi. P.Melioranskiy tadqiqi 216 sahifadan iborat bo‘lib, u kirish, tarjima va lug‘atlardan tashkil topgan. Tadqiqotning kirish qismi to‘qqiz bo‘limdan iborat bo‘lib, ular: I. Qadimgi arabcha-turkiy (qipchoq) lug‘at, grammatika va turkiy (qipchoq) tilning tarixiy manbasi. II. Asarning yozilish manzili va vaqti, uning muallifi va lug‘at bo‘icha umumiy ma’lumotlar. III. Fonetika, alifbo va imlo. IV. Ismlar. V. Olmoshlar. VI. Son. VII. Fe’l. VIII. Bog‘lovchi va ravishlar IX. So‘z yasalishi haqida kabi bo‘limlarga bo‘lingan. Tadqiqotning tarjima qismi lug‘atning rus tiladagi mufassal tarjimalarini o‘zi ichiga oladi[17]. Lug‘at qismida esa, qo‘lyozmadagi arab alifbosidagi turkiy (qipchoq) so‘zlar va ularning ruscha tarjimalari berilgan.

1927-1928-yillarda rus olimi Nikolay Nikolayevich Poppe tomonidan qo‘lyozmaning mo‘g‘ilcha qismi tadqiqiga bag‘ishlangan “Das mongolische Sprachmaterial einer leidener Handschrift”[7.b-55-80.] nomi bilan bir necha maqolalari nashr etildi. Uning 1927-yil sobiq Sovet ittifoqi fanlar akademiyasi axbotornomasining VI seriya 21-jild 6-sonida nashr etgan maqolasi qo‘lyozmaning yozilish sanasi va mualliflik muammosi hamda uning alifbosi va fonetikasi, morfologiyasi hamda boshqa tillardan olingan so‘zlar tadqiqiga bag‘ishlangan bo‘lsa, 1927-yil sobiq Sovet ittifoqi fanlar akademiyasi axbotornomasining VI seriya 21-jild 7-sonida nashr etgan maqolasi mo‘g‘ulcha iboralar tarjimalari hamda mo‘g‘ulchaga tarjima qilingan turkiy (qipchoq) so‘zlar tadqiqini o‘z ichiga olgan.

1937-yilda Venger olimi Jigmond Telegdi tomonidan qo‘lyozma grammatikasiga doir “Eine türkische Grammatik in arabischer Sprache aus dem XV”[9.b.283-326] nomli maqola nashr etildi. Unda ko‘proq so‘zlarning morfologik xususiyatlariga e’tibor qaratilgan.

1942 yilda venger olimi T. Xalasi-Kun qo‘lyozma tidqiqida ilk bor asarning faksimil nusxasini “La langue des Kiptchaks, d‘après un manuscrit arabe d‘Istanbul”[3] nomi bilan nashr ettirdi.

Oradan bir yil o‘tib 1943-yilda turkiyalik olim Mexmet Kuprilizoda “Harezmşahlar Devrinde bir Türk lisancısı: Muhammet bin Kays ve eseri”[6] nomli monografiyani nashr ettirdi.

1953-yilda asl ismi Fatxelkadir Mustafiyevich Suleymanov bo‘lgan va keyinchalik turkologiya olamida Abdulqodir Inon ismi bilan nom qozongan tataristonlik olim qo‘lyozma tadqiqiga bag‘ishlangan “Yüzyıllarda Mısır‘da Oğuz-Türkmen ve Kıpçak Lehçeleri ve “Halis Türkçe”[5] maqola e’lon qildi. Maqolada usha davrda Misr va Suriyada keng tarqalgan O‘g‘iz-Qipqoch lahjalarining tarqalish omillari va ularning o‘ziga farqlash olish hamda turli tillar hisobiga boyigan lug‘atlarning tuzilish tendensiyalari ochib berilgan edi.

1959-yilda asli ukrainalik bo‘lgan va Amerika Qo‘shma shtatlarida ijod qilgan tarixchi-sharqshunos olim Omelyan Iosifovich Pritsak “Das Kiptschakische”[8] nomli maqola e’lon qildi.

1961-yilda rus olimi Ervand Vladimirovich Sevortyan tomonidan “Современное состояние и некоторые вопросы исторического изучения тюркских языков в СССР. – “Вопросы методов изучения истории тюркских языков”[21] nomli maqola nashr etdi.

1965-yilda yana bir rus olimi Emir Nadjipovich Nadjip o‘zining “Кыпчакско-огузыский литературный язык мамлукского Египта XIV в.”[19] nomli tadqiqot e’lon qildi.

Oradan ikki yil o‘tib 1967 yilda polyak sharqshunosi olim Ananiy Axiyezerovich Zayonchkovskiyning qo‘lyozma tadqiqiga bag‘ishlangan “К изучению средневековых памятников тюркской

письменности (XI–XIV вв.)”[15] nomli maqolasi nashr etdi.

1969-yilda turkmanistonlik olima Zelixa Bakiyevna Muxamedova “Исследования по истории туркменского языка XI–XIV вв. по данным арабоязычных филологических сочинений”[18] mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini muvofaqiyatli himoya qildi.

Shundan so‘ng turkiy (qipchoq) til materiallaridan oqilona foydalana olgan qozog‘istonlik olim A.Qurishjonov 1970-yilda T.Xoutsma nashriga qator tuzatish va to‘ldirishlar kiritib “Исследование по лексике старокыпчакского письменного памятника XIII в. – «Тюркско-арабского словаря»”[16] nomli tadqiqot e’lon qildi.

1980-yilda o‘zbek olim Abdulla Yunusovning qo‘lyozma tadqiqiga bag‘ishlangan “Tarjumon – XIV asr yozma obidasi”[22] nomli monografik tadqiqoti e’lon qildi.

Yangi asrda ham olimlar tomonidan qo‘lyozma tadqiqi bilan shug‘ullanish to‘xtab qolmadi. 2006-yilda Qo‘lyozmaning mo‘g‘ulcha qismi yapon olimi Yashio Saito tomonidan “The Mongolian Words in Kitab Majmu‘ Turjuman Turki wa ‘ajami wa Mugali”[10] nomli bilan matni va indeksi nashr etilgan bo‘lsa, 2019-yilda ukrainalik olim Aleksandr Nikolayevich Garkaves tomonidan “Kitab-i Madjmu`-i Tardjuman-i Turki va `Adjami va Mugali va Farsi”[13] nomli bilan nashr etildi. Bundan tashqari mazkur maqola muallifi tomonidan 2021-yilda “Tarjumon turkiy va ajamiy va mo‘g‘uliy va forsiy qo‘lyozmasi xususida”[14] nomli maqola e’lon qildi.

Xulosa

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, “Tarjuman turkiy” qo‘lyozmasi boshqa turkiy qo‘lyozmalar singari o‘z bag‘rida nodir va noyob bo‘lgan ma’lumotlarni saqlab kelayotgan durdona asar sifatida favqulotda muhim asar sifatida e’tirof etiladi.

“Tarjumon turkiy” obidasining birinchi qismi 5120 ta so‘zdan tashkil topganligi, ularning 2545 tasi arabcha, 2575 tasi turkiy (qipchoq) so‘zlar ekanligi aniqlandi: Natijada turkiy so‘zlarning 2118 tasi ot, sifat, son, olmosh va ravish so‘z turkumiga, 457 tasi esa, fe’l so‘z turkumiga oid ekanligi aniqlandi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, “Tarjumon turkiy” qo‘lyozmasidagi 2575 turkiy (qipchoq) so‘zlarning 1421 tasi, ya’ni 55 foizi bugungi o‘zbek adabiy tilida ishlatiladi. Bu ma’lumotlar qo‘lyozmaning o‘zbek adabiy tili takomilidagi o‘rni va ahamiyati juda katta ekanligini belgilaydi. Uning tadqiq etish ishlari bugungi kunda ham dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Dozy R P. Catalogue codicum Orientalium Bibliothecal akademial Lighuno Batawea. E. J. Brill, 1851, No. CCXII, S. 110.

2.Flemming B. Ein alter Irrtum bei der chronologischen Einordnung des Tarğumān turkī wa ‘ağamī wa mug̈alī // Der Islam, № 44, 1968: 226-229.

3.Halasi-Kun T. La langue des Kiptchaks, d'après un manuscrit arabe d'Istanbul, Partie II, Budapest, 1942.

4.Houtsma M. Ein Türkisch-Arabisches glossar. E.J.Brill. Leiden. 1894.

5.Inan A. XIII.-XV. Yüzyıllarda Mısır'da Oğuz-Türkmen ve Kıpçak Lehçeleri ve "Halis Türkçe". Türk Dili Araştırmaları Yıllığı Belleten, Ankara, 1953, s.53-71.

6.Köprülü M.F. Harezmşahlar Devrinde bir Türk lisancısı: Muhammet bin Kays ve eseri. Istanbul. 1943

7.Poppe N. Das mongolische Sprachmaterial einer leidener Handschrift // Изв. АН СССР. Отд. гуманитарных наук. – Ленинград, 1927: 1009-1040, 1251-1274; 1928: 55-80.

8.Pritsak O. Das Kiptschakische. Philologiae Turcicae Fundamenta. t. l, Wiesbaden, 1959, S. 74 – 81.

9.Telegdi Z. Eine türkische Grammatik in arabischer Sprache aus dem XV. Jhdt. Kärösi Csoma-ArcMvum 1937. 282-326.

10. Yoshio Saito. The Mongolian Words in Kitab Majmu' Turjuman Turki wa 'ajami wa Mugali: Text and Index. – Kyoto: Shoukadoh, 2006.

11. Ahmad Muxtor al-Ibodatiy. Misr va Shomda mamluklarning birinchi davlatining paydo bo‘lishi. Myaccacatу “Shabab al-jamiyat, Iskandariya, 1994. 117-118-b.

12. Босворт К.Э. Мусульманские династии. М., 1971. С. 99–100.

13. Гаркавец А.Н. Китаб-и Маджму`-и Тарджуман-и Турки ва `Аджами ва Мугали ва Фарси. – Алматы: Баур, 2019. – 6 стр.

14. Jafarov B. Tarjumon turkey va ajamiy va mo‘g‘uliy va forsiy qo‘lyozmasi xususida // NamDU Ilmiy axborotnomasi. № 11. b.354-358.Namanagan 2021.

15. Зайончковский А. К. К изучению средневековкх памятников тюркской письменности (XI – XIV вв.). – “Вопросы языкознания”, 1967. № 6, с. 80 – 89.

16. Курышжанов А. К. Исследование по лексике старокыпчакского письменного памятника XIII в. – «Тюркско-арабского словаря». – Алма-Ата: Наука, 1970.

17. Мелиоранский П.М. Араб филолог о турецком языке. СПб., 1900.С.VIII.

18. Мухамедова, З. Б. Исследования по истории туркменского языка XI-XIV вв. по данным арабоязычных филологических сочинений: А*ДД*, М, 1969.

19. Нажип Э.Н. Кыпчакско-огузский литературный язык мамлюкского Египта XIV в. А*ДД*., М. 1965.

20. Rahmonov N. O‘zbek adabiyotini davriylashtirish masalalari. “Mumtoz so‘z” – Toshkent, 2016. – b.79-80.

21. Севортян Э.В. Современное состояние и некоторые вопросы исторического изучения тюркских языков в СССР. Ашхабад : Изд-во АН Туркменской ССР, 1961.

22. Tarjumon – XIV asr yozma obidasi / Nashrga tayyorlovchi A.Yunusov. – Toshkent: Fan, 1980.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Ibodullayeva Dinora Bahramjanovna
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o‘qituvchisi
E-mail: dinora.ibodullayeva@icloud.com

UDK: 811.82.42.19

TERMINOSISTEMA LINGVISTIK TADQIQOT OBYEKTI SIFATIDA

Annotatsiya: *Mazkur tadqiqot termin tizimining lingvistik tadqiqot obyekti sifatidagi o‘rni va ahamiyatini ilmiy-nazariy nuqtayi nazardan o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda terminologiyaning umumiy nazariy asoslari, uning lingvistik xususiyatlari, shakllanish jarayoni va rivojlanish dinamikasi tahlil qilinadi. Shuningdek, turli fan sohalarida termin tizimining tuzilishi va funksional xususiyatlari tadqiq qilinib, uning lingvistik interfeys jihatlari ochib beriladi. Ushbu maqola terminologiya tizimining ilmiy tahlil qilish usullarini yoritish bilan birga, ularning lingvistik klassifikatsiyasi va ularning boshqa tillarga tarjima jarayonidagi muammolarini ham atroflicha tahlil etadi.*

Kalit so‘zlar*: terminologiya, termin tizimi, lingvistik tadqiqot, semantik tahlil, fonologik xususiyatlar, terminologik interfeys.*

Ибодуллаева Динора Бахрамжановна
Преподаватель Термезского университета экономики и сервиса

ТЕРМИНОСИСТЕМА КАК ОБЪЕКТ ЛИНГВИСТИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ

Аннотация: *Данное исследование посвящено изучению роли и значения терминологии как объекта лингвистического исследования с научно-теоретической точки зрения. В исследовании анализируются общетеоретические основы терминологии, ее языковые особенности, процесс формирования и динамика развития. Также в различных областях науки исследуются структура и функциональные особенности системы терминов, раскрываются аспекты ее языкового интерфейса. В этой статье, наряду с освещением методов научного анализа терминологических систем, также будет проведен подробный анализ их лингвистической классификации и проблем, с которыми они сталкиваются в процессе перевода на другие языки.*

Ключевые слова*: терминология, система терминов, лингвистическое исследование, семантический анализ, фонологические характеристики, терминологический интерфейс.*

Ibodullayeva Dinora Bahramjanovna
Teacher at Termez university of economics and service

TERMINOLOGY AS AN OBJECT OF LINGUISTIC RESEARCH

Abstract: *This study is devoted to the study of the role and importance of the term system as an object of linguistic research from a scientific and theoretical point of view. The research analyzes the general theoretical foundations of the terminology, its linguistic features, the process of formation and the dynamics of development. Also, the structure and functional properties of the term system in various fields of science are studied, and aspects of its linguistic interface are revealed. This article covers the methods of scientific analysis of the terminological system, as well as their linguistic classification and the problems of their translation into other languages.*

Key words: *terminology, term system, linguistic research, semantic analysis, phonological features, terminological interface.*

Kirish.

Lingvistik bilimlarning rivojlanishi bilan hozirgi vaqtda mustaqil ilmiy va amaliy lingvistik intizomni ifodalovchi terminologiyaga qiziqish ortib bormoqda. Terminologik tizim nafaqat tushunchalar tizimini, balki ma’lum bir nazariyaning tushunchalar tizimini aks ettiradi. Shu munosabat bilan shuni ta’kidlash kerakki, ekvivalent nazariyalar bir nechta terminologik tizimlarning birga yashashiga olib keladi. Har bir yangi nazariya atamalar mazmuni bilan boyib, yangi atama tizimida atama elementlari sifatida saqlanib qoladi. Shunday qilib, tizim atamasi alohida atama va nazariyaga bog‘liq.

Adabiyotlar tahlili.

V.M.Leychik [4], A.A.Reformatskiy [6] kabi tilshunos olimlarning fikricha, atama konkret yoki mavhum tushunchani bildiradi. Terminning tizimliligi tushunchasi P. F. Yolonning falsafiy qarashlarida ochib berilgan [2]. Uning fikricha, abstraksiya faqat nazariy tizim doirasidagi element sifatida qaraladi, uning kategoriyali tarkibiga kiradi [2]. T.B. Kryuchkovaning so‘zlariga ko‘ra, ijtimoiy fanlarda atama nafaqat nazariya, balki qarashlar tizimi – dunyoqarash bilan ham belgilanadi [3].

Tadqiqot metodologiyasi.

Terminosistemani lingvistik tadqiqot obyekti sifatida o‘rganishga qaratilgan ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning analogiya, qiyosiy-lingvistik, etimologik va semantik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlillar va natijalar.

Til har qanday ilmiy faoliyatning asosiy vositasi hisoblanadi. Terminologiya esa fan, texnika, san’at va boshqa sohalarning mutaxassislari o‘rtasidagi aniq va tushunarli muloqotni ta’minlaydigan asosiy komponentlardan biridir. Termin tizimi murakkab strukturaga ega bo‘lib, uning shakllanishi turli lingvistik, madaniy va ijtimoiy omillar bilan bog‘liq. Shuningdek, terminlar har bir tilning leksik qatlamida muhim o‘rin egallaydi va ilmiy-texnik taraqqiyot jarayonida rivojlanib boradi. Lingvistik jihatdan termin tizimi o‘ziga xos qoidalarga asoslangan bo‘lib, uning tahlili fonologik, morfologik va semantik jihatlarni o‘z ichiga oladi [2].

Termin tizimining shakllanishi va rivojlanishi turli tarixiy va madaniy jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lib, o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, yunon va lotin tillari orqali shakllangan terminlar bugungi kunda ko‘plab tillarga, jumladan, o‘zbek tiliga ham kirib kelgan.

Termin tizimi quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha o‘rganildi:

Terminlarning kelib chiqishi va rivojlanishi – tarixiy jarayon davomida terminlarning qanday o‘zgarishlarga uchragani va ularning leksik-semantik xususiyatlari;

Fonologik va morfologik xususiyatlar – terminlarning shakllanishida tovush tuzilishi va grammatik kategoriyalarning roli;

Targ‘ib va o‘zlashtirish jarayonlari – xalqaro va mahalliy terminlarning boshqa tillarga qanday o‘zlashgani va tarjima jarayonidagi qiyinchiliklar;

Funksional xususiyatlar – termin tizimining turli fan sohalarida qanday qo‘llanilishi va ularning umumiy qoidalarini o‘rganish.

Tadqiqot natijalarini tasdiqlash uchun lingvistik korpuslar, ilmiy maqolalar va terminologik lug‘atlardan foydalanildi. Bundan tashqari, terminlarning xalqaro miqyosdagi muqobillari ham tahlil qilindi.

Tizim atamasi nafaqat ilmiy nazariyaga, balki umumlashtiruvchi fikrga ham asoslanadi. Masalan, teatr, sport, baliq ovlash va hokazolarni tavsiflash uchun atama tizimlari asosida aniq nazariyalar mavjud emas. Tizim atamasi fan nazariyasi shakllanishi bilan shakllanadi. Termin tizimining shakllanishi va faoliyatining quyidagi holatlari mavjud:

Nazariyaning yo‘qligi davridan uning mavjud bo‘lish davriga o‘tish. Qabul qilingan nazariya doirasida bilimning o‘sishi, faktlar uni yo‘q qilmaydi, balki uni boyitadi. (Masalan, XX asrning 80-yillarida genetikaning rivojlanishi);

Nazariyani o‘zgartirish, terminologiyani o‘zgartirish, ya’ni yangi atamalarni kiritish. Shu munosabat bilan shuni ta’kidlash kerakki, nazariyasiz atamalar bo‘lmaydi, atamalarsiz esa nazariyalar bo‘lmaydi [3].

Terminologiya tizimi ma’lum bir bilim va faoliyat sohasining modeli sifatida ushbu soha yetarli darajada rivojlangan, o‘z nazariyasiga ega bo‘lgan, asosiy obyektlari va ular o‘rtasidagi aloqalarni aniqlagan va amalga oshirgan bosqichda paydo bo‘ladi.

Terminologiya tizimi mustaqil leksik qatlam sifatida rivojlanib, uning asosiy shakllanish manbalari ilmiy tadqiqot, texnologik yangiliklar va xalqaro lingvistik almashinuv hisoblanadi. Terminlarning lingvistik tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularning fonologik va morfologik xususiyatlari turli tillarda har xil shakllanish jarayoniga ega. Ingliz va nemis tillarida ko‘p hollarda birikma terminlar keng tarqalgan bo‘lsa, o‘zbek tilida ko‘proq tarjima va fonetik moslashuv yo‘li bilan terminlar qabul qilinadi [4].

Turli tillardagi terminlar tarjima jarayonida ba’zan o‘zining dastlabki ma’nosini qisman yo‘qotadi yoki yangi semantik xususiyatlarga ega bo‘ladi. Masalan, ingliz tilidagi “system” so‘zi o‘zbek tilida “tizim” yoki “Sistema” sifatida ishlatilishi mumkin. Bu esa tarjima jarayonida muayyan kontekstga mos termin tanlashni talab qiladi. M.R.Mironova bu borada shunday fikrni ilgari suradi: “Fanning qoniqarli yoki qoniqarsiz holatining ishonchli belgisi uning terminologiyasining qoniqarli yoki qoniqarsizligidir” [5]. Bunday holda, terminologiya tizimini shakllantirish uchun quyidagi shartlar bajarilishi kerak:

Yetarlicha aniq belgilangan chegaralarga ega maxsus hududning mavjudligi;

Ushbu sohaga oid umumiy tushunchalar tizimining mavjudligi;

Bu sohani tavsiflovchi yetarlicha qat’iy nazariyaning (konseptsiyaning) mavjudligi;

Ma’lum bir tabiiy til va uning doirasida ishlab chiqilgan maxsus maqsadlar uchun til mavjudligi, leksik birliklari ma’lum bir tushunchalar tizimining tushunchalarini belgilash uchun ishlatilishi mumkin.

Terminologiya tizimi sun’iy emas, ongli ravishda shakllanadi. Terminlar to‘plamining o‘z-o‘zidan shakllanishi terminologiya deyiladi. Agar terminologiya tizimi subyektiv elementlarni o‘z ichiga olsa, u holda terminologiya ma’lum bir maxsus sohani aks ettiradi,

ya’ni atamalar tizimlilik xususiyatiga ega bo‘lmasligi mumkin, u eskirgan, an’anaviy elementlarni saqlab qoladi. Terminologiya tizimining umumiy tizimli xususiyatlari uning yaxlitligini o‘z ichiga oladi. Asosiy mezon – terminologiya tizimining elementlari maxsus sohaning barcha elementlarini qamrab oladi. Shunday qilib, yil oylari nomlarining eng oddiy tizimida (grigoriy kalendariga ko‘ra) o‘n ikki oy nomlari mavjud bo‘lib, birgalikda ular yaxlit tizimni tashkil qiladi [6].

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, termin tizimi nafaqat lingvistik hodisa, balki fan va texnika rivojlanishining muhim omili hamdir. Har bir til o‘z termin tizimiga ega bo‘lib, u xalqaro almashinuv va ilmiy taraqqiyot natijasida doimiy o‘zgarib boradi. Shuningdek, tarjima jarayonida terminlarning ma’nosini aniq saqlab qolish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday o‘zgarishlar lingvistik jihatdan tizimli yondashuvni talab qiladi.

Xulosa.

Ushbu tadqiqot termin tizimining lingvistik tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilishining ahamiyatini yoritib berishga qaratilgan. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, termin tizimi xalqaro leksik almashinuv natijasida shakllanib, lingvistik va madaniy o‘zgarishlarga mos ravishda rivojlanadi. Bugungi kunga kelib turli tillardagi terminologik tizimlarning qiyosiy tadqiqotlarini kengaytirish, tarjima jarayonidagi muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha yangi ilmiy metodlarni ishlab chiqish istiqbollari mavjuddir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Головин Б.Н. *Л*ингвистические основы учения о терминах. – Москва: Наука, 1987. – 235 с.

2.Йолон П.Ф. Система теоретического знания // *Л*огика научного исследования. – Москва. 1965. – 314 с.

3.*Крючкова Т. Б. Особенности* формирования и *развития общественно-политической лексики* и *терминологии*. – *М*осква: Наука, *1989*. – 170 с.

4.*Л*ейчик В.М. Терминоведение. Предмет, методы, структура. – Москва. 2002. – 176 с.

5.Миронова М. Р. *Л*ексико-семантическиелингвокультурные особенности формирования театральной *л*ексики в англ*и*йском и русском языках. – Москва: Наука, 2002. – 192 с.

6.Реформатский А.А. Что такое термин и терминология?. – Москва: Наука, 1959. – 109 с.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Bo`riyev Dilmurod Arzimurodovich
Samarqand DTU Tillar kafedrasi stajyor -assistenti

INGLIZ ERTAKLARIDA ZOONIM IBORALARNING SINTAKTIK TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqola onomastik birlik hisoblangan zoonim termini haqida tilshunos olimlarning qarashlari haqida fikr yuritadi. Maqolada zoonimlarning ingliz tili leksik sathidagi ko'lami haqidagi ma'lumotlarni o'rgandik. Shuningdek, ingliz ertaklarida uchraydigan zoonim iboralar sintaktik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida zoonim iboralarning tuzilishi, ularning gap ichidagi grammatik funksiyalari va semantik xususiyatlari o'rganiladi. Ingliz tilidagi ertaklardan olingan misollar asosida zoonim iboralarning gap tuzilishidagi roli tahlil qilinadi. Maqola natijalari lingvistika va tarjima tadqiqotlari uchun muhim bo'lib, ertak tilining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi.*

Kalit so'zlar: *zoonim iboralar, sintaktik tahlil, ingliz ertaklari, frazeologik birliklar, semantika, grammatik funksiya.*

Бориев Дилмурод Арзимуродович
Стажер-ассистент кафедры языков Самаркандского ДТУ

СИНТАКСИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЗУНОИМЕННЫХ ФРАЗ В АНГЛИЙСКИХ СКАЗКАХ

Аннотация. *В статье рассматриваются взгляды лингвистов на термин «зооним», который рассматривается как ономастическая единица. В статье мы изучили информацию об области применения зоонимов на лексическом уровне английского языка. Также синтаксически анализируются зоонимические словосочетания, встречающиеся в английских сказках. В ходе исследования будет изучена структура зоонимических фраз, их грамматические функции в предложении и семантические свойства. На примерах из английских сказок анализируется роль зоонимических словосочетаний в структуре предложения. Результаты статьи имеют важное значение для лингвистики и переводоведения, помогая выявить специфические особенности языка сказки.*

Ключевые слова: *зоонимические словосочетания, синтаксический анализ, английские сказки, фразеологические единицы, семантика, грамматическая функция.*

Boriyev Dilmurod Arzimurodovich
Trainee-Assistant, Department of Languages, Samarkand State Technical University

SYNTACTIC ANALYSIS OF ZOONYMOUS PHRASE IN ENGLISH FAIRYTALES

Annotation. *This article discusses the views of linguists on the term zoonym, which is considered an onomastic unit. In the article, we studied information about the scope of zoonyms at the lexical level of the English language. Also, zoonymous phrases found in English fairy tales are analyzed syntactically. During the study, the structure of zoonymous phrases, their grammatical functions within a sentence and semantic properties are studied. The role of zoonymous phrases in the structure of a sentence is analyzed based on examples taken from English fairy tales. The results of the article are important for linguistics and translation studies, helping to identify the specific features of the fairy tale language.*

Key words: *zoonymous phrases, syntactic analysis, English fairy tales, phraseological units, semantics, grammatical function.*

Kirish

Ertaklar har bir xalqning madaniy merosining muhim qismidir. Ingliz ertaklari tarkibida ko'plab frazeologik birliklar, jumladan zoonim iboralar keng qo'llaniladi. Ushbu maqolada aynan zoonim iboralarning sintaktik tahlili o'tkazilib, ularning gap ichidagi o'rni va grammatik xususiyatlari o'rganiladi.

Ertak — xalq og'zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri; to'qima va uydirmaga asoslangan sehrli sarguzasht va maishiy xarakterdagi epik badiiy asar. Asosan, nasr shaklida yaratilgan. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida etuk shaklida uchraydi va biror voqeani og'zaki tarzda hikoya qilish ma'nosini bildiradi.

Hayvonlar haqidagi ertaklarning bir turi majoziy ertaklardir. Majoziy ertaklarning ("Susambil", "Boʻri bilan tulki", "Tulkining taqsimoti", "Ikki boyqush" va boshqalar) syujeti asosida koʻchma maʼno, allegorik obrazlar yotadi. Masalan, laqmalik va qonxoʻrlik boʻri orqali, ayyorlik va tilyogʻlamachilik tulki orqali ifodalangan[1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Oʻzbek tili leksik qatlamini kuzatar ekanmiz, nomlar alohida ahamiyatga ega ekanligiga guvoh boʻlamiz. Zoonimlar atamasi ilk bor grek tilida paydo boʻlgan va soʻnggi oʻn yil ichida zoonimlarga qiziqish yanada ortdi. Tilshunoslikda zoonimlarga oid ilk tadqiqot N.K.Dmitriev tomonidan olib borilgan. Insoniyat yaralibdiki bir narsani ikkinchi narsadan farqlash uchun ularni oʻz dunyoqarashidan kelib chiqib nomlashga harakat qilib kelgan. Xalqimizda qadimdan urugʻ-qabilalar, joy, oʻsimlik, hayvonot nomlari mavjud boʻlgan. Quyida maqolamizning oʻrganish obyekti boʻlmish zoonimlar yaʼni hayvon nomlari haqida fikr yuritamiz.

A. Cowie ingliz xalq va muallif ertaklarida uchrovchi zoonimlarni uch guruhga ajratadi:

1) bir onimli nomlar (Terentiy, Misha kabi);

2) ism+otasining ismi formulasi asosida yasalgan nomlar (*Левон Иваныч, Лизавета Ивановна, Козьма Микитич* va b.),

3) laqablar (Трубу-закрывай, Огня- вздувай, Пеки-пироги va b.)

Demak, ingliz xalq ertaklarida ism+otasining ismi formulali, laqabli zoonimlar ham qoʻllanishi xarakterlidir.

Tadqiqot metodologiyasi

Ingliz xalq ertaklarida eng keng tarqalgan hayvonlar fox (tulki) va cat (mushuk) dir. Bundan tashqari, mouse (mushuk) va cock (xoʻroz) obrazlari ham koʻp uchraydi. Dog (it), hen (tovuq), goose (gʻoz), pig (choʻchqa), frog (qurbaqa), wolf (boʻri), donkey (eshak) hayvon nomlarini ham uchratamiz. Bunday hayvon nomlari asosan nomlanmay, hayvon nomi zoonim sifatida keltirilganiga guvoh boʻlamiz. Ingliz xalq ertaklarida esa ot, tulki, boʻri obrazi nisbatan koʻp uchraydi. Shuningdek, mushuk, tulki kabi hayvonlar nomlari zoonim sifatida keng qoʻllaniladi.

Tahlil va natijalar

Ingliz tilidagi zoonimlarni bir qancha turlarga ajratib tadqiq qilish maqsadga muvofiqdir:

1. Qush nomlari
2. Hashorot nomlari
3. Baliq nomlari
4. Uy hayvonlari nomlari yoki xonaki hayvonlar
5. Yovvoyi hayvonlar nomlari
6. Sudralib yuruvchi hayvonlar nomlari
7. Kemiruvchilar nomlari

1. Zoonim iboralarning umumiy tavsifi

Zoonim iboralar – hayvon nomlarini oʻz ichiga olgan frazeologik birliklar boʻlib, ular koʻpincha ramziy maʼnoga ega boʻladi. Masalan:

"Cry wolf" – asossiz xavotir tarqatmoq

"A dark horse" – sirli shaxs

2. Zoonim iboralarining sintaktik tuzilishi

Zoonim iboralar quyidagi sintaktik shakllarda uchraydi:

Feʻl + zoonim: "Bark up the wrong tree" (notoʻgʻri qarorga kelmoq)

Sifat + zoonim: "A lucky dog" (omadi kelgan odam)

Zoonim + ot: "Cat nap" (qisqa muddatli uyqu)

3. Zoonim iboralarining gap ichidagi roli

Zoonim iboralar gap ichida turli grammatik rollarni bajaradi:

Ega: "A dark horse won the competition."

Kesim: "She is barking up the wrong tree."

Toʻldiruvchi: "He called me a lucky dog."

4. Zoonim iboralarining semantik xususiyatlari

Koʻpgina zoonim iboralar metaforik maʼnoga ega. Masalan, "Cry wolf" iborasi shunchaki boʻrini chaqirishni emas, balki asossiz tashvish bildirishni anglatadi[4].

"Qizil shapkacha" ertagidagi zoonim iboralarni sintaktik tahlil qiladigan boʻlsak,

1. "Boʻri ovqat izlab yurardi."

Boʻri – ega (kim? – boʻri)

Ovqat – toʻldiruvchi (nima? – ovqat)

Izlab – hol (qanday? – izlab)

Yurardi – kesim (nima qilardi? – yurardi)

2. "Boʻri chalqancha yotib oldi."

Boʻri – ega

Chalqancha – hol

Yotib oldi – kesim

3. "Boʻri tovushini mayinlashtirib gapirdi."

Boʻri – ega

Tovushini – toʻldiruvchi

Mayinlashtirib – hol

Gapirdi – kesim

Bu iboralar jumlada turli sintaktik vazifalarni bajaradi va zoonim komponenti (boʻri) odatda ega yoki toʻldiruvchi boʻlib keladi.

Ingliz xalqining mashhur ertaklaridan biri "Uchta kichkina choʻchqacha" ertagidagi zoonim iboralar hayvonlarga oid boʻlib, ularga quyidagilar misol boʻla oladi:

1. "Choʻchqachalar uy qurishga kirishdi."

Choʻchqachalar – ega (kim? – choʻchqachalar)

Uy – toʻldiruvchi (nima? – uy)

Qurishga – hol (nima qilishga? – qurishga)

Kirishdi – kesim (nima qildi? – kirishdi)

2. "Yovuz boʻri birinchi uyga keldi."

Yovuz – aniqlovchi (qanday? – yovuz)

Boʻri – ega (kim? – boʻri)

Birinchi – aniqlovchi (qaysi? – birinchi)

Uyga – toʻldiruvchi (qayerga? – uyga)

Keldi – kesim (nima qildi? – keldi)

3. "Bo‘ri puflab uyni yiqitdi."

Bo‘ri – ega (kim? – bo‘ri)

Puflab – hol (qanday? – puflab)

Uyni – to‘ldiruvchi (nimani? – uy)

Yiqitdi – kesim (nima qildi? – yiqitdi)

4. "Cho‘chqachalar qattiq uyga yashirindi."

Cho‘chqachalar – ega (kim? – cho‘chqachalar)

Qattiq – aniqlovchi (qanday? – qattiq)

Uyga – to‘ldiruvchi (qayerga? – uyga)

Yashirindi – kesim (nima qildi? – yashirindi)

Bu zoonim iboralar ertakdagi asosiy harakatlarni ifodalaydi va sintaktik tarkib jihatdan ega, to‘ldiruvchi, hol, kesim kabi bo‘laklardan tashkil topgan.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, zoonimlar o‘zbek tili leksik sathida yetakchi miqyosga ega nomlar hisoblanadi. Zoonimlarning paydo bo‘lishida tillarda xalq omili, aralash omil, kitobiy omil yetakchilik qilgan. Zoonimlarni o‘rganish nafaqat, tilshunoslik ilmi uchun, balki biologiya uchun ham manfaatli bo‘ladi. Ingliz ertaklarida zoonim iboralarning qo‘llanilishi lingvistik jihatdan qiziqarli hodisadir. Ularning sintaktik va semantik xususiyatlarini o‘rganish tilshunoslik va tarjima sohasida muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. You Wang “A Contrastive Research on the Definitions and Categories of Chinese and english Idioms.” Advances in Social Science, educational and Humanities Research, volume2020. -C. 554.

2. Батька Л. Ономастическое пространство русских народных и авторских сказок 2018. -С.69-78

3. Мўминов С.М. Окказионал-нутқий номинацияда мотивациянинг роли: Филол. фан. ном. ... диссер. – Тошкент, 1990. –Б. 33.

4. Нурмонов А., Искандарова Ш. Тилшунослик назарияси. – Тошкент: Фан, 2007. –С. 487-488

5. Подольская Н.В. Какую информацию несет топоним // Принципы топонимики. – Москва: Наука, 1964. – С.88-89.

6. Подольская Н.В. Словарь английских ономастической терминологии. – Москва: Наука, 1988.

7. Реформатский А.А. Топонимика как лингвистический факт. – С.10

8. Собиров А. Ингиз тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили сифатида тадқиқ этиш. – Тошкент: Маънавият, 2004.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Eshonqulova Surayyo Isomiddinovna,
Alfraganus universiteti, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent,
s.eshonqulova@afu.uz,
ORCID: 0000-0002-8150-0116

UDK: 821.5 12.133 (092)

NODIRA IJODIDA HAYOTBAXSH VA HAYRATOMUZ AN'ANALAR

Annotatsiya. *Maqola sharqning klassik she'riyat an'analari doirasida Nodira ijodini o'rganishga bag'ishlangan. Unda Alisher Navoiy, Fuzuliy va boshqa buyuk klassiklarning Nodira uslubining shakllanishiga ta'siri hamda ijodiy merosning uzluksizligi tahlil qilinadi. Adabiy an'analarning, xususan, o'sha davr she'riyatida muhim o'rin tutgan tatabbu' fenomenining ahamiyati yoritiladi. Nodira ijodini o'rganishning metodologik yondashuvlari, jumladan, qiyosiy-tipologik va germenevtik usullar ko'rib chiqiladi. Shoiraning badiiy uslublari, tasavvufiy motivlar hamda falsafiy g'oyalarning talqini alohida e'tiborga olinadi. Xulosa o'rnida, Nodira ijodining sharq she'riyat an'analari davomchisi va yangilik yaratuvchisi sifatidagi ahamiyati ta'kidlanadi.*

Kalit so'zlar: *Nodira, an'ana, tatabbu', she'riyat, adabiy ta'sir, nazira, poetik qimmat, ijodiy ergashish.*

Шонкулова Сурайё Исомиддиновна,
Университет Алфраганус, доктор филологических наук (DSc), доцент.

ЖИЗНЕУТВЕРЖДАЮЩИЕ И УДИВИТЕЛЬНЫЕ ТРАДИЦИИ В ТВОРЧЕСТВЕ НОДИРЫЭ

Аннотация. *Статья посвящена изучению творчества поэтессы Нодиры в контексте классических поэтических традиций Востока. Рассматривается преемственность и влияние великих предшественников, таких как Алишер Навои, Фузули и другие классики, на формирование ее стиля. Анализируются литературные традиции, в частности феномен татаббу' (творческое подражание), который играл значительную роль в поэзии того времени. Исследуются методологические подходы к изучению наследия Нодиры, включая сравнительно-типологический и герменевтический методы. Особое внимание уделено художественным приемам, используемым поэтессой, ее интерпретации суфийских мотивов и философских идей. В заключение подчеркивается значимость творчества Нодиры как продолжателя и новатора восточной поэтической традиции.*

Ключевые слова: *Нодира, традиция, исследование, поэзия, литературное влияние, назира, поэтическая ценность, творческое следование.*

Eshonqulova Surayyo Isomiddinovna,
Alfraganus University, Doctor of Philology (DSc), Associate professor

LIFE-AFFIRMING AND AMAZING TRADITIONS IN NODIRA'S CREATIVITY

Abstract. *The article is dedicated to the study of the works of the poetess Nodira in the context of classical poetic traditions of the East. It examines the continuity and influence of great predecessors such as Alisher Navoi, Fuzuli, and other classical poets on the formation of her style. Literary traditions are analyzed, particularly the phenomenon of tatabbu' (creative imitation), which played a significant role in the poetry of that time. Methodological approaches to studying Nodira's legacy are explored, including the comparative-typological and hermeneutic methods. Special attention is given to the artistic techniques used by the poetess, her interpretation of Sufi motifs, and philosophical ideas. In conclusion, the article emphasizes the significance of Nodira's work as both a continuer and innovator of the Eastern poetic tradition.*

Keywords: *Nodira, tradition, research, poetry, literary influence, nazira, poetic value, creative following.*

Kirish

Vorislik hamda an'anaviylik badiiyatning tub o'zak omili ekan, she'riyat gulshaniga tashrif buyurgan qalamkash tabiiyki, o'z salaflariga ergashadi, ular ijodidan bahra oladi, ta'sirlanadi. Ularning insonparvarlik g'oyalarini rivojlantirish bilan birga, o'z so'zini ham aytishga intiladi. O'zbek mumtoz adabiyotida an'anaviylik ustuvor tamoyildir. Bu hol adabiyotning

nuqsoni emas, balki o‘ziga xos xususiyati. Ya’ni an’anaviylik biqiq hodisa bo‘lmay, uning bag‘rida yangilik ham, mahorat ham voqe’ bo‘ladi, takroriylikdan o‘ziga xoslikka, ergashishdan mustaqil ijodiylik, individuallik va originallikka boriladi.

Navoiyning hayotbaxsh va hayratomuz an’analari, boshqa shoirlar uchun chiniqish va ilhom manbaidir. Bu chashmadan bahramand bo‘lgan, fayz topgan shoirlar silsilasida Qo‘qon adabiy muhiti ijodkorlari alohida o‘rin tutadi. Ana shunday novator shoirlar uchun avvalo, Alisher Navoiy ijodi ibrat maktabi bo‘ldi. “Sohibi devon” darajasidagi Nodira o‘z vaqtida “...xalq og‘zaki ijodi va mumtoz adabiyot namunalarini o‘qib, eshitib ulg‘aygan, ular ta’sirida adabiyotga kirib kelgan va o‘z uslubini shakllantirgan. Bu hol uning ijodiy evolyutsiyasiga, uslubiga, tiliga, asarlariga ta’sir qilmasligi mumkin emas edi. Bu ta’sir jilvalari goh bevosita, goh bilvosita ko‘rinishda namoyon bo‘ladi” [11,185-186]. Navoiyning badiiy tasvir vositalarini teranlashtirish orqali poetik birikmalar, betakror taqqoslar, mukammal portret chizgilari yaratish uslublari Nodira ijodida ustuvorligini, tatabbu’larini o‘rganganimizda shohidi bo‘lamiz.

Tabiiyki, Nodira salaflari mumtoz sharq shoirlari she’riyati badiiyatidan yetarlicha ma’naviy kuch olgan. Shoira lirikasi o‘lmas umri boqiy an’analar silsilasida shakllangan, rivojlanib, kamol topgan. Shoira she’riyatida mujassamlashtirgan an’analar, xalq dardi, quvonch armonlarini, orzu-umidlarini o‘zida to‘liq badiiy misralarda ifodalay olishi bilan ahamiyatga molik. Nodira salaflari Alisher Navoiy, Fuzuliy kabi ijodkorlarga ergashar ekan, ularga ko‘r-ko‘rona taqlid qilmaydi, balki ular adabiy merosiga ijodiy yondashadi. Shoira lirik qahramon ko‘ngulni yoritish natijasida, inson ruhiyatida yuz berayotgan evrilishlarni, azoblarni she’rlari qat-qatiga mohirona joylashtiradi. Shoiraning she’riyatga bunday yondashishi, yaratiqlarining abadiyatini ta’minlagan.

Adabiyotlar tahlili

XX asr nodirashunoslikda shoira ijodini atroflicha o‘rganilganligi bilan ajralib turadi. Nodira tarjimayi holi, ijodiy merosiga oid bir qator tadqiqotlar adabiyotshunos olimlar tomonidan turli aspektlarda tadqiq etilgan [8,563; 19,182]. Mustaqillik yillaridan so‘ng ham shoira shaxsiyati va she’riyatini yoritishga qaratilgan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan [7,292; 2,158; 3,267].

Metodologiya

Qayd etilgan tadqiqotlarda Nodira shaxsiyati, dunyoqarashi, asarlaridagi tarixiy obrazlar tizimi, poeziyasi borasida turli yo‘nalishlarda turli munosabatlar bilan fikr-mulohazalar milliy istiqlol nuqtayi nazaridan biografik va qiyosiy-tipologik metod orqali tahlil etilgan. Biroq, Nodira she’riyatida tasavvuf – ma’naviy tamoyil sifatida shoiraning “ishqi haqiqiy” va “ishqi majoziy” tushunchalariga doir o‘ziga xos axloqiy asoslari va komil inson masalasi alohida psixo-biografik metod asosida kompleks tahlil etilmagan, germenevtik usullaridan foydalanilgan holda maxsus tadqiqot doirasiga tortilmagan.

Natijalar

A crucial aspect of the discussion revolves around the role of interactive reading strategies in fostering sociolinguistic awareness. Many students in the experimental group reported feeling more confident in their ability to adjust their speech based on situational factors. Interviews revealed that exposure to diverse texts helped students recognize the significance of register variation, audience awareness, and pragmatic appropriateness in communication. This supports Rosenblatt's (1978) transactional theory of reading, which posits that reading is an interactive process where meaning is constructed through engagement with the text and its context.

Another important implication of these findings is the pedagogical significance of integrating sociolinguistic training into high school curricula. Traditional reading instruction often prioritizes lexical and syntactic comprehension while overlooking the importance of sociolinguistic adaptation. However, as the results of this study indicate, providing students with structured opportunities to engage with authentic language use in different contexts can significantly improve their ability to navigate real-world communication.

In light of these findings, it is recommended that language educators incorporate discourse-based activities, role-playing exercises, and cross-cultural comparisons into reading instruction. Future research could further explore the long-term effects of sociolinguistic-based reading interventions and examine their impact on students' spoken communication skills.

Overall, this study highlights the effectiveness of sociolinguistic reading instruction in developing students' communicative adaptability. The findings contribute to the broader discussion on language education by emphasizing the need for a holistic approach that integrates linguistic competence with sociocultural awareness, ultimately preparing students for effective communication in diverse social environments.

Conclusion

This study highlights the significance of incorporating sociolinguistic-based reading instruction to enhance high school students' communicative adaptability. The findings demonstrate that structured exposure to diverse texts, combined with explicit sociolinguistic training, significantly improves students' ability to recognize and apply pragmatic markers, discourse strategies, and culturally appropriate language use. The experimental group's notable progress, as reflected in both qualitative and quantitative analyses, confirms the effectiveness of this instructional approach compared to traditional reading methods.

The results align with established linguistic theories, such as Hymes' (1972) concept of communicative competence and Halliday and Hasan's (1989) emphasis on the relationship between language and context. The statistical analysis, supported by student reflections and discourse analysis, provides compelling evidence that interactive reading strategies and contextualized language tasks play a crucial role in fostering sociolinguistic awareness.

From a pedagogical perspective, these findings underscore the need for a more integrative approach to language instruction—one that not only develops grammatical and lexical skills but also prepares students to navigate real-world communicative situations. Language educators are encouraged to incorporate discourse-based activities, authentic language materials, and interactive discussions to enhance students' sociolinguistic competence.

Future research could explore the long-term impact of sociolinguistic-based reading instruction, particularly in spoken communication and cross-cultural adaptability. Additionally, further investigations into digital reading platforms and their role in developing sociolinguistic awareness may offer new insights into effective language education methodologies.

Ultimately, this study contributes to the growing body of research advocating for a balanced approach to language learning—one that recognizes the importance of both linguistic structure and sociocultural context. By integrating sociolinguistic principles into reading instruction, educators can equip students with the skills

necessary for effective communication in diverse social and cultural settings.

Used literature

1.Bachman, L. F., & Palmer, A. S. (1996). Language Testing in Practice: Designing and Developing Useful Language Tests. Oxford University Press.

2.Creswell, J. W. (2014). Research Design: Qualitative, Quantitative, and Mixed Methods Approaches. SAGE Publications.

3.Gumperz, J. J. (1982). Discourse Strategies. Cambridge University Press.

4.Halliday, M. A. K., & Hasan, R. (1989). Language, Context, and Text: Aspects of Language in a Social-Semiotic Perspective. Oxford University Press.

5.Rosenblatt, L. M. (1978). The Reader, the Text, the Poem: The Transactional Theory of the Literary Work. Southern Illinois University Press.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Payziyev Komiljon Sobirovich
NamDU o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

ABDULLO ORIPOV PUBLITSISTIKASIDA NAVRO'Z VA MILLIY QADRIYATLAR MAVZUSI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbeikiston Qahramoni, Xalq shoiri Abdulla Oripov publitsistikasida Navro'z va milliy qadriyatlar mavzuzining oziga xos talqini hamda bugungi globallashgan zamonda yoshlarni vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda buning ma'naviy –ma'rifiy ahamiyati haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Navto'z, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ma'naviyat, ma'rifat kontseptsiya, kompetentsiya, mafkura, tayanch fazilatlar, sadoqat, burch, mas'uliyat, tadrijiylik, uzviylik, zamonaviy pedagogika, metodika.*

Пайзиев Комилжон Собирович
Преподаватель кафедры узбекской языка и литературы НамГУ

ТЕМА НАВРУЗА И НАЦИОНАЛЬНЫЕ ЦЕННОСТИ В ПУБЛИЦИСТИКЕ АБДУЛЛО АРИПОВА

Аннотация: *В данной статье рассматривается уникальная интерпретация темы Навруза и национальных ценностей в публицистике Героя Узбекистана, народного поэта Абдуллы Орипова и ее духовно-просветительское значение в воспитании молодежи в духе патриотизма, национальных и общечеловеческих ценностей в современную глобализированную эпоху.*

Ключевые слова:*духовность, просветительская концепция, компетентность, идеология, базовые качества, верность, долг, ответственность, постепенность, преемственность, современная педагогика, методология.*

Payziyev Komiljon Sobirovich
Teacher of the Department of Uzbek Literary Studies of NamSU

THE THEME OF NAVRUZ AND NATIONAL VALUES IN THE PUBLICISTIC OF ABDULLO ORIPOV

Annotation: *this article talks about the unique interpretation of the theme of Navruz and national values in the publicistic of the hero of Uzbekistan, people's poet Abdullah Oripov, and the spiritual and educational significance of this in educating young people in the spirit of patriotic, national and universal values in today's globalized times.*

Keywords: *Navruz, national and universal values, spirituality, enlightenment concept, competence, ideology, fundamental qualities, loyalty, duty, responsibility, evolutionism, continuity, modern pedagogy, methodology.*

Kirish

O'zbekiston xalq shoiri, O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov bundan roppa – rosa 44 yil oldin, aniqrog'I, 1981 yilda "Sovet O'zbekistoni" gazetasida o'zining "Quyosh Sharqdan chiqadi" deb nomlangan publitsistik maqolasini e'lon qiladi. Maqola debochasida unga nima uchun shinday nom qo'yilganiga izoh berilladi: "Sharq deyilganda, beixtiyor ko'z oldimizga charog'on quyosh, bahor chechaklari, bulbul nag'malari keladi. Ulug' nemis shoiri Iogann Gyote bir she'rida: "Bor, Sharqqa, bor, ey, yigit, faqat u joylardagina she'riyat mavjud, sen u yerda cho'ponlar bilan birgalikda Hofiz baytlarini takrorlab, baxtiyor va xurram yashashing mumkin"- deydi. Sharq o'z tabiiy mintaqasiga ko'ra abadiy yashillik, doimiy bahor ma'nosidir. Darhaqiqat, Quyosh Sharqdan chiqadi" **(3,42)** Adib Sharqning qadim tarixga ega ekanligini, bahor bilan uyg'unlini ta'kidlash orqali o'quvchini mavzuga olib kiradi. Shundan so'ng Navro'zning uzoq tarixga ega ekanligini isbotlovchi Abu Rayhon Beruniyning : "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asariga, Mahmud Qoshg'ariyning bahor, navro'z nashidasini kuylagan to'rtliklariga, Furqatning shu mavzuda bitilgan g'azaliga murojaat etadi. Navro'zning nafaqat tabiatga oshuftalik, balki dehqonlar uchun yillik mehnat jarayonining boshlanishi ekanligi haqida "Yerga don qadaladi, nihol ekiladi, bog'larga shakl va tus beriladi, - deydi **[3, 44]**. Muallif shu o'rinda Alisher Navoiyning "Gap boshini eshitmagan odamga uning oxirini har qancha uqtirma, u hech narsani tushunmaydi" degan sozi bilan "Kuzning hosili bahordan bilinadi, ya'ni navro'zni anglamagan odam

butun boshli yilni ham, umrni ham tushunmay o‘tib ketadi” degan jumlani qiyoslab keltirish orqali navro‘zning yana bir xislatini ochib beradi.

Maqolada tabiat va inson masalasiga ham alohida e’tibor qaratilib, jumladan, shunday deyiladi: “Atrofimizga ko‘z tashlasak, nigohimiz dastavval qudratli mashinalarga tushadi. Bu, albatta, davr belgisi. Lekin texnika asrida o‘sha mashinalar-u osmono‘par binolar orasida inson qalbi yo‘qolib ketmasligi lozim. Shundoq aziz bir tashvish butun Yer yuzi odamlari orasida mavjuddir. Inson bolasi uchun tabiat, uning go‘zalligi, toza havo noyob bir ne'matga aylanib bormoqda. Yozuvchi o‘z asarida tasvir etadigan turfa nomli chechaklarni, rassomlar sevib chizadigan rang - barang gullarni bugungi yosh bolalar tabiatda uchratsa, taniy oladilarmi? Bu borada nainki shahar, balki qishloq bolalari ham maqtana olmasalar kerak. Xuddi shu sababga ko‘ra, navro‘z bayramining fazilati yana bir karra oshdi” **[3,44]** Bu yerda yoshlarning tabiat go‘ zalliklaridan tobora uzoqlashib borayotgani xususidagi mulohazalar jamoatchilik fikrini uyg‘tishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

O‘zbekiston Qahramoni, Xalq shoiri Erkin Vohidov esa sobiq sho‘ro tuzumi davrining inson ma’naviyatiga salbiy ta’sirini quyidagi satrlar orqali ifodalaydi:

Ichdik, chekdik, sho‘ro yurtida
O‘zdik barcha og‘alardan ham.
Yuzsizlikda oshmasak bo‘ldi
Ovro‘palik tog‘alardan ham. [4,102]

Har ikki ijodkor ham ma’naviyat va ma’rifat, yoshlar tarbiyasidagi kamchiliklar haqida so‘z yuritgan. Faqat biri bugungi texnika asrida toza havo, ekologiya, suv muammosini, bolalarning tabiatdan tobora uzoqlashib borayotgani va buning oldini olishda Navro‘z bayrami va u bilan bog‘liq bo‘lgan qadriyatlarning nechog‘lik ahamiyatga ega ekanlini publitsistik uslubda, mulohaza yuritish va xulosa chiqarish yo‘li bilan ta’kidlasa, ikkinchisi sho‘ro tuzumi davrida ichkilikbozlik, giyohvandlik kabi illatlarning avj olib ketganligi, g‘arb madaniyatining yoshlar tarbiyasiga salbiy ta’siri qanday ayanchli oqibatlarga olib kelishi mumkinligi haqida bong uradi. Har ikkisida ham obrazlilik va publitsistik pafos kuchli ekanligi sezilib turadi.

Adibning ushbu armonli fikr - mulohazalarini o‘qiganda, beixtiyor “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili” Davlat dasturida belgilangan vazifalar va ayni shu kunlarda uning ijrosini ta'minlash bo‘yicha mamlakatimizda “Qadriyatlaring boqiy bo‘lsin, Navro‘z!” bosh g‘oyasi asosida keng quloch yozayotgan obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish, yangi – yangi bog‘larni barpo etish bo‘yicha boshlangan umumxalq harakati, sayllar ko‘z oldimizdan o‘tadi. Shuningdek, bu yilgi Navro‘z bayrami muqaddas Ramazon oyida nishonlanayotganligi munosabati bilan keksa avlod vakillarini, xususan, Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va mehnat fronti faxriylarini har tomonlama e'zozlash,“Mehribonlik”, “Saxovat” va “Muruvvat” uylarida yashayotgan shaxslar, ijtimoiy himoya daftarlariga kiritilgan va ko‘makka muhtoj insonlarning holidan xabar olib, ular uchun turli xayriya tadbirlari o‘tkazilayotganligi ko‘nglingga huzur bag‘ishlaydi.

Darhaqiqat, dunyoga ko‘z - ko‘z qilishga arziydigan o‘nlab qadriyatlarimiz bor. Lekin taniqli shoir bundan qirq yil oldin jamoatchilik e’tiboriga havola etgan inson ma’naviyati, yoshlar tarbiyasiga oid muammolar bugun ham o‘z dolzarbligini yo‘qotgani yoq. Aksincha, shiddat bilan rivojlanib borayotgan, ijtimoiy tarmoqlar orqali kirib kelayotgan minglab axborotlar odamlarning. ayniqsa, yoshlarning ongiga, qalbiga, tafakkuriga birdek ta'sir etib turgan murakkab bir zamonda milliy qadriyatlarimizning o‘rni va roli har qachongidan ham ko‘proq ahamiyat kasb etmoqda.

Endi haqli savol tug‘iladi: Biz ajdodlarimizdan meros bo‘lib avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan bebaho urf - odatlarimizni yoshlar qalbiga singdira olyapmizmi? Ularni tarbiyalash yo‘lida ko‘rilayotgan chora - tadbirlar kutilgan samaralarni beryaptimi? Bu borada qanday muammolarga duch kelmoqdamiz va ularni bartaraf etish uchun nimalar qilmog‘imiz zarur?

Avvalo shuni e'tirof etish joizki, mamlakatimizda ma'naviyat maslasiga istiqlolning birinchi kunidan boshlaboq e'tibor qaratib kelinmoqda. Ona tilimizning maqomi, nufuzi tiklangani, Navro‘z umumxalq bayrami, Ramazon, Qurbon hayitlarini nishonlash odat tusiga kirganligi, ulug‘ bobolarimizning boy ma'naviy meroslarini o‘rganish, ular nomlarini abadiylashtirish, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash bo‘yicha katta ishlar qilinmoqda. Ayniqsa, keyingi o‘n yilning ichida uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayonining tizimli tashkil etilishiga, tarbiya sohasining ilg‘or innovatsion texnologiyalar asosida takomillashuviga, yoshlarning Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr - oqibatlilik, mas'uliyatlilik, bag‘rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi tayanch kompetentsiyalar bilan mustaqil hayotga kirib borishlari uchun zarur shart - sharoitlar yaratilayotganligi e'tiborga loyiq.

Adabiyotlar tahlili

Biroq bugungi taraqqiyot Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi 1059- sonli qaroriga asosan tasdiqlangan “Uzluksiz ma'naviy tarbiya“ kontseptsiyasi 1-bobining 2-,3-,4-bandlarida ta'kidlanganidek, “O‘zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy – texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan

holda ilmiy asoslangan tayanch kompetentsiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda". **[2,1]**

Va yana ushbu hujjatda "Vatanga sadoqat, burch va mas'uliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar yoshlar ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgani holda uning tabiatida amaliy odatlarga aylanmayotganligi, oqibatda ularning ushbu fazilatlar haqidagi so'zlari bilan amallari orasida tafovut namoyon bo'layotganligi, bu esa har yili mustaqil hayotga kirib kelayotgan yigit-q izlarning hayotda o'z o'rinlarini topishlarida bir qator muammolarni yuzaga keltirayotganligi, ayrim o'quvchi–yoshlarda yuksak maqsadlarning shakllanmaganligi, o'zini-o'zi o'qishga safarbar qilish, iroda, matonat, tirishqoqlik, harakat fazilatlari yetarli rivojlanmaganligi, ma'naviy tarbiya sohasida o'qituvchilarning faoliyatini metodik ta'minlovchi o'quv materiallari, shu jumladan, ma'naviy tarbiya sohasiga oid metodik qo'llanmalar, o'quvchilar uchun zarur darsliklar yetarli emasligi"**[2,2]** ko'rsatib o'tilgan.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev 2023 yil 22 dekabr` kuni bo'lib o'tgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishidagi nutqida bu masalaning qanchalik dolzarbligi haqida shunday degan edilar: "O'zimizga bir savol berib ko'raylik: biz hozirgi keskin sharoitda g'oyaviy – mafkuraviy sohada raqobatga tayyormizmi? Yosh avlodimiz tarbiyasi murakkab zamon talablariga javob beryaptimi? Mana, bugun ma'naviy - ma'rifiy sohada masala qanday o'tkir va ko'ndalang bo'lib turibdi. Bular oddiy savollar emas. Odamni jiddiy o'ylantiradigan, tashvishga soladigan savollar. Agar biz bu yorug' dunyoda "o'zbek", "O'zbekiston" degan nomlar bilan yashab qolishni istaydigan bo'lsak, bu savollarga bugun javob topishimiz va ularni hal etish bo'yicha amaliy harakatlarni aynan bugun boshlashimiz shart. Ertaga kech bo'ladi".**[1,3]**

"Uzluksiz ma'naviy tarbiya" kontseptsiyasi asosida bir qator ishlar bajarildi. Chunonchi, davlat, nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari sonining ko'payishi hisobiga bolalarni qamrab olish darajasi 80 foizdan oshdi. Bog'chalarning funktsiyasi, maqomi tubdan o'zgardi. Tarbiyachilar va ota-onalar tomonidan ushbu yoshdagi bolalarga: asosiy faoliyat turlari jarayonida o'zini - o'zi anglashga, muloqot, kuzatish va taqlid orqali kattalarning ma'naviy-axloqiy tajribasini o'zlashtirishga, o'zining va boshqalarning xulqiga baho berishga, faoliyat va syujetli - rolli o'yinlar orqali yangi motivlarni paydo qilish va mustahkamlashga, ma'naviy - axloqiy ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga, kundalik turmushda xavfsizlik qoidalariga rioya qilishga, kattalar, turli kasb egalariga xos shaxsiy fazilatlar to'g'risida tushunchalar berishga, yaqin kishilarga g'amxo'rlik qilish ehtiyojining paydo bo'lishi orqali xarakter sifatlarini shakllantirib borishga, milliy tarbiya usullari va zamonaviy pedagoglarning ilg'or yutuqlaridan samarali foydalanishga e'tibor kuchaytirildi. Tarbiyachilar uchun o'quv qo'llanmalari, ko'rgazmali vositalar yaratildi, ularning malakasini oshirish tizimi yo'lga qo'yildi.

Prezidentimiz tashabbuslari bilan "Najot - ta'limda, ilmda", "Yangi O'zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi" degan shiorlar ostida umumiy o'rta ta'lim tizimida ham tub islohotlar qilinmoqda. O'qituvchilarning jamiyatdagi nufuzini oshirish bo'yicha qator ishlar amalga oshirildi. Birinchi navbatda ularni qishloq xo'jaligi, obodonlashtirish va faoliyatga bog'liq bo'lmagan boshqa yumushlarga jalb etish qat'iyan to'xtatildi. Ularning oylik ish haqlari, ustamalar bosqichma – bosqich oshirilmoqda. O'quvchisi respublika va xalqaro olimpiadalarda, tanlovlarda g'olib bo'lgan ustozlarga mukofotlar berilishi yo'lga qo'yildi va hokazo. Hokimlar, deputatlar, korxona, tashkilotlarning rahbarlari o'zlari o'qigan maktablarga tez-tez kelib ta'lim - tarbiya jarayonlari bilan yaqindan tanishish, a'lochi va faol o'quvchilarni rag'batlantirish ishlaridagi ishtiroklari ancha jonlandi.

Tadqiqot metodologiyasi

Biografik, qiyosiy tahlil, germenevtik, sotsiologik metodlardan foydalanildi.Abdulla Oripov publitsistikasida ma'naviyat, ma'rifat, milliy va umuminsoniy qadriyatlar mavzusining tutgan o'rni lirikasi va boshqa ijodkorlarning asarlari bilan qiyoslangan holda tahlil va tadqiq etildi.

Tahlil va natijalar

Abdulla Oripovning "Quyosh Sharqdan chiqadi" maqolasida ilgari surilgan g'oyaning bugungi davrda ham dolzarbligini va ahamiyatini e'tiborga olgan holda quyidagi taklif va mulohazalarnin bildiramiz:

Birinchi taklif, ota –onalar bilan tarbiyaviy ishlarni yo'lga qo'yish kerak, lekin qanday qilib? Yana Kontseptsiyaga murojaat qilamiz. Uning "Oilalarda uzluksiz ma'naviy tarbiyani amalga oshirish" deb nomlangan to'rtinchi bobida o'qiymiz: "Oilada ota - onalarning farzand tarbiyalash metodlariga oid bilimlarini muntazam oshirib borish maqsadida: milliy tarbiya metodlari va zamonaviy pedagoglarning ilg'or yutuqlaridan samarali foydalanish; mahallalardagi "Ota-onalar universitetlari"da farzand tarbiyalash bo'yicha treninglar o'tkazish; "Tarbiya maktabi" rukni ostida ota-onalar, pedagoglar uchun teleko'rsatuvlar, bolalar, yoshlar uchun turli rasmlar bilan bezatilgan yorqin, rang - barang qo'llanmalar, mul`timedia mahsulotlari kabi didaktik materiallar turkumini yaratish; uzluksiz ma'naviy tarbiya amaliyotida to'plangan ijobiy tajribani ommalashtirish maqsadida "Yosh ota-ona kitobi" va boshqa metodik qo'llanmalar asosida mul`timediali taqdimotlar seriyasini yaratish va ota - onalarga tarqatish mexanizmi yo'lga qo'yiladi".[2,4]

Ikkinchi taklifi , maktablarda “Odobnoma”, “Vatan tuyg‘usi”, “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviy tarbiya”, “Dinlar tarixi” fanlari birlashtirilib, “Tarbiya” fani joriy etildi. Lekin bu fanni o‘qitish bo‘yicha ham muammolar bor. Birinchidan, aksariyat maktablarda bu fanni sinf rahbarlari, nomutaxassis pedagoglar o‘tishyapti. Ikkinchidan, bu fan bo‘yicha ko‘rgazmali qurollar, mul`timediaviy mahsulotlar yetarli darajada, deb aytolmaymiz. Shuning uchun “Tarbiya” fanini o‘qitadigan ustozlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, maktablarni mul`timedia mahsulotlari bilan ta'minlash zarur, deb bilamiz.

Uchinchi taklif, bugun biz rivojlangan davlatlar ta'lim tizimini ko‘p misol keltiramiz.Xususan, yapon maktablarda mehnat tarbiyasiga alohida e’tibor qaratilishini, ularda farroshlik shtatlari yo‘qligi, o‘quvchilar sinf xonalarini o‘zlari tozalashlari yolga qo‘yilgani, shuning uchun tozalikning qadriga yetishlarini bot-bot ta'kidlaymiz. Vaholanki, xalqimizda “Mehnat bilan turmush chiroylik”, “Mehnat qilgan elda aziz”, “Mehnating - rohating” singari o‘nlab maqollar bor. O‘quvchilar sinf xonalarini o‘zlari tozalash tartibini yo‘lga qo‘yish kerak. Maktabda yer uchastkalari bo‘lsa, gul ko‘chatlari ekish va ularni parvarish qilishni zimmalariga olishsa, mehnatning qadriga yetadigan bo‘ladilar. Ilgari maktablarda “Jonli burchak” bo‘lardi va ularda quyon yoki boshqa hayvonlar boqilardi. Har yili bahorda “Qushlar bayrami” tadbiri o‘tkazilardi va shu bahona o‘quvchilar o‘zlari parvarish qilayotgan qushlarni ko‘rgazmaga olib kelishardi. Bu tadbirlar ham o‘quvchilarda atrof - muhitga, tabiatga bo‘lgan qiziqishlarini, mehr - muhabbatini oshirishga xizmat qilar edi.

Xulosa. Iste]dodli i adibimiz Abdulla Oripov ta’kidlaganidek, “Quyosh Sharqdan chiqadi”, buni hech kim inkor etolmaydi. Sharq mamlakatlari qadim tarixga, boy ma’naviy qadriyatlarga ega ekanlibgi ham isbot talab qilmaydigan haqiqat. Faqat bugungi avlod dunyoni ilm - ma’rifat, yuksak ma’naviyat bilan lol qoldirgan buyuk ajdodlariga munosib bo‘lishlari kerak, degan maqsad bizni yuqoridagi fikr-mulohazalarni, takliflarni bildirishimizga sabab bo‘ldi.

Maqolamizni Erkin Vohidovning quyidagi satrlari bilan yakunlaymiz:

Yurtdoshim, bog‘ingga bir nihol qada,
Bu nihol nomini Yaxshilik ata,
Niholing yoniga bir gul ekib qo‘y,
Bu gulning ismini Go‘zallik deb qo‘y.
Gulu niholingga baxsh etib hayot,
Suv ber va bu suvga Mehr deb ot qo‘y.
Sendan farzandingga bog‘ qolsin, ey, do‘st,
Bog‘ing Vatan degan nom olsin, ey do‘st. [4,25]

Darhaqiqat, shunday, bugun biz farzandlarimiz qalbiga yaxshilik, go‘zallik, mehr, vatanga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat tuyg‘ularini qanchalik chuqur singdira olsak, Yangi O‘zbekistonimiz kelajagi porloq, xalqimiz turmushi bundanda farovon bo‘lib boraveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Mirziyoyev SH.M. Ma'naviyat hayotimizda yangi kuch,yangi harakatga aylanishi zarur. // Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining 2023 yil 22 dekabrdagi kengaytirilgan yig‘ilishida so‘zlangan nutq.

2. “Uzluksiz ma'naviy tarbiya” kontseptsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi 1059-sonli qaroriga 1-ilova.

3.Oripov A.Tanlangan asarlar. To‘rt jildli. To‘rtinchi jild. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 2001.

4. Vohidov E.Saylanma. Uchinchi jild. Umrim daryosi.–Toshken. :Sharq–matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Qurbonova E'zoza Shuhrat qizi
Toshkent amaliy fanlar universiteti dotsenti v.b., GulDU doktoranti
ezozasabirova118@gmail.com

"DAVLAT TILI TO'G'RISIDA"GI QONUN VA UNING O'ZBEK YURIDIK TERMINOLOGIYASI TARAQQIYOTIGA TA'SIRI

Annotatsiya. *Ushbu maqola o'zbek yuridik terminologiyasi taraqqiyotining o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganidan keyingi davrini tahlil qiladi, tavsiflaydi. Qonunning qabul qilingan davriga ko'ra o'ziga xosligi tahlilga tortiladi va buning yuridik terminologiyada rus tilining ta'siri qanday namoyon bo'lishi misollar bilan yoritiladi. O'zbek terminologik tizimlarida istiqloldan keyin o'zgarishlar qanday yo'nalishlarda kechganligi asoslanadi.*

Kalit so'zlar: *davlat tili, "Davlat tili haqida"gi Qonun, o'zbek tili, yuridik terminologiya, terminologiya taraqqiyoti.*

Kurbonova Ezoza Shukhrat gizi
Tashkent University Amaliy Fanlar associate professors V.B., GULDU doctoral students

THE LAW "ON THE STATE LANGUAGE" AND ITS IMPACT ON THE DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN LEGAL TERMINOLOGY

Abstract. *This article analyzes and describes the period of development of Uzbek legal terminology after the Uzbek language was granted the status of the state language. The uniqueness of the law according to the period of its adoption is analyzed and how the influence of the Russian language on legal terminology is illustrated with examples. The directions of changes in Uzbek terminological systems after independence are substantiated.*

Keywords: *state language, Law "On the State Language", Uzbek language, legal terminology, development of terminology.*

Курбонова Эзоза Шухрат гызы
Ташкентский университет амалий фанлар доценты в.б., ГулДУ докторанти

ЗАКОН «О ГОСУДАРСТВЕННОМ ЯЗЫКЕ» И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА РАЗВИТИЕ ЮРИДИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. *В статье анализируется и описывается период развития узбекской юридической терминологии после придания узбекскому языку статуса государственного. Анализируется уникальность закона по периоду его принятия и на примерах иллюстрируется влияние русского языка на юридическую терминологию. Обосновываются направления изменений в узбекской терминологической системе после обретения независимости.*

Ключевые слова: *государственный язык, Закон «О государственном языке», узбекский язык, юридическая терминология, развитие терминологии.*

Kirish

Davlat tili mamlakatda faoliyat yurituvchi idoralar, tashkilotlarning ish yuritish tilidir. Bu til mamlakatning qonunchiligida ham faol qo'llanadi. Davlat tili fuqarolar va davlat idoralari orasidagi munosabatlar, ta'lim tizimi, ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy soha tashkilotlarida muloqot vositasi bo'lib xizmat qiladi. Davlat tili konstitutsiya bilan belgilab qo'yilishi mumkin. Ba'zan mamlakatning davlat tili haqida maxsus qonun qabul qilinadi. O'zbekistonda bo'lgani kabi ba'zi mamlakatlarda davlat tili maqomini belgilashda bu me'yorlarning har ikkalasi qo'llangan. Aholi tarkibiga ko'ra, ya'ni ko'pmillatli ekanligini hisobga olgan holda ba'zi mamlakatlarda bir nechta til davlat tili maqomiga ega bo'lishi me'yoriydir. Umuman, "davlat tili – muayyan mamlakatda qonun chiqarish, ijroiya va sud hokimiyatlarida ish yuritish uchun rasmiy belgilangan til" [8: 37]. Shu sababli ba'zi davlatlarda rasmiy til tushunchasi ham mavjud.

Adabiyotlar tahlili

"Davlat tili" termini qonunlarda (masalan, "Reklama to'g'risida"gi qonun), huquqiy-me'yoriy hujjatlarda, ta'lim tizimi hujjatlarida faol qo'llanmoqda. Ijtimoiy-siyosiy terminlarni qamrab oluvchi lug'atga ham

bu termin uchun lug‘at maqolasi kiritilgan va u quyidagi ko‘rinishda shakllantirilgan:

“*Biror mamlakatda ko‘pchilik aholi gaplashadigan til bo‘lib, u qonun hujjatlari asosida davlat tili sifatida belgilanadi va u davlat hokimiyati organlari, muassasalar, korxonalar va tashkilotlarning rasman ish yuritish tili hisoblanadi*” [1: 47].

Maxsus lug‘at maqolasidan ma’lum bo‘ladiki, davlat tili maxsus qonun hujjatlari asosida tasdiqlanadi, aholining asosiy etnik qatlami tili hisoblanadi va ish yuritishda majburiy qo‘llanadi. Albatta, sanalgan belgilar “davlat tili” tushunchasi mohiyatining asosiy qismi hisoblanadi. Garchi “davlat tili” termini keng iste’molda bo‘lsa-da, tilga bunday maqom qanday talablar asosida berilishi masalasida tilshunoslarda yagona fikr mavjud emas. Shunday bo‘lsa-da, tilning “davlat tili” maqomida ekanligini ko‘rsatuvchi ba’zi belgilar mavjud. “Lingvistik xususiyatlariga ko‘ra ish yuritish jarayonida qo‘llanishga qulaylik; mamlakat aholisining katta qismi uchun tushunarlilik; ta’lim tizimi, ijtimoiy hayotning turli sohalarida qo‘llanishi majburiylik kabi belgilar shular jumlasidandir” [4]. Mutaxassislarning aksariyati “davlat tili” tushunchasiga aniq ilmiy ta’rif berilmaganligi sababli uning izohini berishda shakliy tomoniga e’tibor qaratadilar. Shu sababli bu tushunchani davlat, davlat idoralari faoliyati bilan bog‘liq holda tushunish me’yorlashgan. Aslida, “davlat tili” tushunchasi ish yuritish va qonunchilik tilidan ancha keng qamrovlidir. Chunki ta’lim, sog‘liqni saqlash, ommaviy tadbirlar, reklamalar va boshqa sohalarda faoliyat davlat tilida yuritiladi. Ba’zi mutaxassislarning fikriga ko‘ra davlat tilining inson hayotining turli jabhalarida qo‘llanishini qonuniylashtirish muhim bo‘lmagan amaliyotdir [5: 497-501]. Buni M.Kroungaz shaxslarning davlat idoaralaridan tashqari bo‘lgan norasmiy muloqotda u yoki bu tilning qo‘llanishini majburiy qilish uchun asos yo‘qligi, rasmiy muloqot har doim mamlakatdagi asosiy qatlamni tashkil etuvchi millat tilida amalga oshirilishi bilan dalillaydi.

Tahlil va natijalar

O‘zbekiston singari uzoq muddat mustamlaka bo‘lgan davlatlarda davlat tili masalasi qonuniylashtirilishi maqsadga muvofiq, nazarimizda. Chunki sho‘rolar davrida uzoq yillar mamlakatimizning asosiy etnik qatlami tili bo‘lgan o‘zbek tiliga “davlat tili” maqomini berish masalasi siyosiy to‘siqlar tufayli murakkabliklar tug‘dirardi. Shu sababli “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili to‘g‘risida”gi qonunning dastlabki matnida o‘ziga xos “siyosiy yon berish”lar, ehtiyotkorlik aks etgan edi. Masalan, qonunning 1989-yilgi matnidan quyidagi jumlalar o‘rin olgan edi:

“*Sotsializmni, millatlararo munosabatlarni takomillashtirish, xalqlarning milliy va baynalmilal o‘zligini anglashning o‘sishi..”, “Ushbu Qonun norasmiy muomalada, harbiy qismlarda va diniy marosimlarda qo‘llanadigan tillarga tatbiq etilmaydi*” [10].

Matndan o‘rin olgan “sotsializmni takomillashtirish”, “harbiy qismlarda qo‘llanadigan tillarga tatbiq etilmaydi” kabi jumlalar fikrimizni dalillaydi. Darhaqiqat, qonun matnining harbiy qismlar bilan bog‘liq qismi mustaqillikdan keyin ham uzoq yillar davomida sohada ish yuritilishining rus tilida olib borilishiga sabab bo‘ldi. Shuningdek, qonunning 1-moddasidayoq “rus tilining sho‘ro xalqlarining millatlararo muomala tili sifatida rivojlantirish va undan erkin foydalanish ta’minlanadi” tarzida jumlalarning mavjudligi qonun matnini yaratishda nihoyatda ehtiyotkorlik bilan yondashilganligi ayon bo‘ladi. Qonunning dastlabki matnida kuzatiladigan bu kabi o‘rinlar amaliyotga tatbiqini, undan kutilgan natijalarga erishishni biroz qiyinlashtirdi. Shu sababli istiqlolning dastlabki yillarida qonunga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritsh to‘g‘risida qonun qabul qilishga to‘g‘ri keldi. Natijada qonun matnidagi yuqoridagi kabi o‘rinlar chiqarib tashlandi. Ammo yangi tahrirdagi “Davlat tili haqida”gi qonun matnida ham davlat tilining mamlakat ijtimoiy sohalarida faol qo‘llanishini ta’minlashi uchun yetarli asoslar kiritilmaganligi qayd etiladi. Hozircha qo‘shni mamlakatlar orasida hajman eng kichik “Davlat tili haqida”gi qonun ham aynan O‘zbekistonniki ekanligini ham qayd etish lozim [9]. Qonun matnini takomillashtirish uchun xuddi biz kabi siyosiy o‘tmishni bosib o‘tgan qo‘shni mamlakatlarning shu mazmundagi qonunlari bilan qiyoslash yaxshi samara beradi. Shu kabi omillarni hisobga olgan holda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrda “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son Farmoni e’lon qilindi [12]. Farmonga asosan 2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi va davlat dasturi tayyorlandi. Chunki “... bundan o‘ttiz yil muqaddam qabul qilingan “Davlat tili haqida”gi qonunni bugungi kun talablari nuqtayi nazaridan har tomonlama chuqur tahlil qilib, takomillashtirish zarurarti” [13] sezilganligi prezident tomonidan ham ta’kidlangan edi. Shu jihatdan davlat tilining nufuzini oshirish, mamlakatimiz ijtimoiy hayotining hamma sohalarida: davlat boshqaruv organlaridan tortib, kichik korxonalargacha qo‘llanishi masalasi eng yuqori minbarlardan yangradi, deyishimiz mumkin.

“Davlat tili” maqomiga ega bo‘lgan tilda bu tilning terminologik va leksik tizimiga o‘z ta’sirini o‘tkazishi tabiiy. Umuman, terminologik tizimlarning taraqqiyoti masalasiga davlat tilining ta’siri nuqtayi nazaridan o‘ta mas’uliyat bilan yondashish talab etiladi. Zero, bu qonun qabul qilingandan keyin, shuningdek, istiqlolga erishilgandan so‘ng o‘zbek tilining qo‘llanish doirasi nihoyatda kengayganida ham buni ko‘rishimiz mumkin. Istiqloldan keyin davlat tilini ilmiy asosda rivojlantirishga qaratilgan izlanishlar, tilimizning o‘ziga xosligini, uning

barcha sohalarda qo‘llanish imkoniyatlarini ochib berishga qaratilgan yuzlab tadqiqotlar amalga oshirildi. “Turli tillarda terminologiyaning rivojlanishi tilning taraqqiyot omillari, xususan, ijtimoiy, siyosiy, madaniy va sof lingvistik sabablar bilan chambarchas aloqadorligi ma’lum” [2: 67-74]. Ta’kidlanganidek, davlatning til sohasidagi siyosati ham terminologik tizim taraqqiyotida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Davlat tili va terminologiya aloqadorligi bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlar sohalarga oid leksik tizimning tartiblanishiga ko‘maklashmoqda. Shu ma’noda o‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, bu qayd etilgan qonunga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritilishi, shuningdek, “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonning turli sohalarga doir terminlarning tartiblanishida ahamiyati katta bo‘ldi. Shu jumladan, yuridik terminologiyada ham istiqloldan keyin juda ko‘p o‘zgarishlar yuz berdi. Jumladan, “Davlat tili haqida”gi qonunning yangi tahririda (1995) quyidagi jumlalar keltirilgan:

“*O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining boshqa hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e’lon etiladi*” [11].

Bu amalda yuridik sohadagi faoliyat o‘zbek tilida yuritilishini anglatar edi. Shuningdek, sohaga doir yangi terminlarning yaratilishida o‘zbek tiliga urg‘u berilishi ham bunda tabiiy hol sifatida qabul qilinishi lozim. Shu bilan birga aynan “Davlat tili haqida”gi qonun qabul qilingan davrdan boshlab barcha sohalarga doir terminlarni milliylashtirishga qaratilgan ishlar keng qamrovli tarzda amalga oshirila boshlandi. Aynan terminologik tizimni davlat tili ustuvorligi nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqish “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi prezident farmonida ham o‘z aksini topdi. “Ilmiy asoslangan yangi so‘z va atamalarni iste’molga kiritish, zamonaviy atamalarning o‘zbekona muqobillarini yaratish va bir xilda qo‘llanishini ta’minlash” [12] “Davlat tilini rivojlantirish” departamentiga yuklatilgani bevosita terminologiya bilan shug‘ullanadigan tilshunoslar va soha mutaxassislari zimmasiga ulkan mas’uliyat yuklaydi. Terminlarni yaratishda davlat tiliga ustuvorlik berish masalasi 1989-yilgi qonunda biroz yumshoqlik bilan bayon qilingan, O‘zbekiston Respublikasida o‘zbek xalqining ilm-fan tilini takomillashtirish uchun o‘zbek tilida ilmiy-texnik hamda ijtimoiy-siyosiy atamalarni yaratish va rivojlantirish ta’minlanishi, ilmiy matnlarning rus va boshqa tillarga tarjimasi berilishi ifodalangan edi [10]. Sanalganlar asosida o‘zbek terminologik tizimlarida istiqloldan keyin o‘zgarishlar quyidagi asoslarda kechdi:

1) yangi terminlarni davlat tilida yaratish ishlarining boshlanishi;

2) mavjud terminlarni milliylashtirish.

Qayd etish lozimki, yangi baynalmilal terminni o‘zlashtirish yoki mavjud terminlarni milliylashtirish samarali deb hisoblanmagan o‘rinlarda termin o‘zlashtirish (yoki mavjud terminni saqlash) o‘rinlari ham istiqloldan keyingi terminologiyada kuzatiladi. Ammo bunday harakatlarga hukmron mafkuraning bosimi, talabi bilan emas, milliy terminologiyamiz uchun manfaatli, bunday terminlardan foydalanuvchi aholi qatlami uchun foydali bo‘lgan o‘rinlarda yo‘l qo‘yildi. *Sud, kassatsiya, nota, alibi, avizo* kabi yuridik terminlar shular jumlasidandir. Umuman, mamlakatimiz mustaqilligi yo‘lidagi ilk qadam sanaladigan o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi davridan boshlab huquqiy demokratik davlat qurish, adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish siyosatning ustuvor vazifasi sifatida belgilandi. Bu jarayonda davlat tiliga oid terminlardan foydalanish hukumat va aholi orasidagi munosabatlarning tushunarliligi, me’yoriyligini ta’minlaydi. “Inson huquqi – ijtimoiy-ma’naviy, demokratik-huquqiy ong o‘zagidir. Huquqiy madaniyat haqqoniy ahamiyat kasb etishi uchun insonlar nafaqat huquqni bilishi, balki ularda qat’iy ishonch, kafolat va hissiyot bo‘lishi kerak” [3: 7]. Bunda yuridik soha terminlarining mamlakatimizda istiqomat qiluvchi barcha aholi qatlamlari uchun tushunarli bo‘lgan o‘zbek tilida shakllantirilishi ham juda muhim o‘rin tutadi. Shunday ekan, istiqloldan keyingi davrda yuridik tarminosistemani tartibga solishda milliylikka urg‘u berilganligi davlat tilini rivojlantirish nuqtayi nazaridan to‘g‘ri bo‘lgan.

Mamlakatimizda yuridik sohaning rivojlanishi, jamiyat a’zolarida huquqiy ongning o‘sishi demokratik huquqiy davlat qurish va erkin fuqarolik jamiyatiga erishish omilidir. “Mamlakatimizda olib borilayotgan tub islohotlarning asosiy maqsadlaridan biri – davlat tilini rivojlantirish, jamiyatda uning nufuzi va salohiyatini yanada yuksaltirishga qaratilgan. Ayniqsa, qonun ustivorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, parlament faoliyatini yanada takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan” [7: 121-124]. Umuman, davlatning til siyosati terminologik tizim taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Bu o‘zaro ta’sir yuridik terminologiya uchun ham begona emas, albatta. Yuridik terminlar xususiyatlarini tadqiq qilgan Sh.Ko‘chimovning rus tiliga oid terminlarning kirib kelishi masalasidagi munosabati fikrimizni dalillashga xizmat qiladi: “1938-1950-yillarda ruscha yuridik terminlar majburan (ularning o‘zbekcha muqobili bo‘lsa ham), sun’iy ravishda, yoppasiga olib kirila boshlandi” [6: 39]. Darhaqiqat, o‘sha davr qonunlarida qo‘llangan *протокол, свидетель, заседатель, гражданин, статья, справочник, отвод* kabi terminlarning qo‘llanganligini ko‘rishimiz mumkin. Olim bu jarayon 50-yillarning o‘rtalarigacha davom etganligini, keyinchalik sekinlashganligini qayd etadi.

Xulosa

Yuridik terminlarning 50-yillarning oʻrtalaridan “ruslashtirilishi” biroz sekinlashishini tilning ijtimoiyligi bilan belgilash mumkin. Zero, til qonunlari, qanchalik siyosiy bosim boʻlmasin, oʻz qoidalari asosida “ishlaydi”. Aholining asosiy etnik qatlami oʻzbeklar boʻlgan mamlakatimizda yuridik terminlar tizimini butunlay rus tilida shakllantirish imkonsiz edi. Qolaversa, rus tilidagi yuridik terminlarning katta qismi oʻzga tillardan kirib kelgan edi. Oʻtgan asrning 90-yillari boshigacha yuridik termin sifatida qoʻllangan *kollegiya, konsul* kabi leksemalar lotin tilidan; *burjuaziya, jyuri, komitet* kabi leksemalar fransuz tilidan; *gaupvaxta, yefreytor* kabilar nemis tilidan rus tiliga kirib kelgan edi. Umuman, yangi terminlarning yaratilishi, mavjudlarining milliy talqindagi terminlar bilan almashtirilishi davlatning til siyosatiga munosabati oʻzgarishi bilan jadallashdi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1.Madvaliyev A. Ijtimoiy-siyosiy terminlarning qisqacha izohli lugʻati. – Toshkent: Shaffof, 2021. – 304 b.

2.Xashimova X. Mustaqillik terminologiyasining ayrim qirralari // Eurasian Journal of Technology and Innovation. Vol.2. Issue 7. 2024. – P.67-74.

3.Zokirov Sh. Yuridik atamalar lugʻati va ularning tarixi. – London: GlobeEdit, 2023. – 142 b.

4.Белов С.А., Кропачев Н.М. Понятие государственного языка // Вестник Санкт-Петербургского университета. Язык и литература. 2020, №17(1). – С.4-21. https://doi.org/10.21638/spbu09.2020.101

5.Кронгауз М.А. Родная речь как юридическая проблема // Отечественные записки. 2003. №2 (11). – С.497-501. http://www.strana-oz.ru/2003/2/rodnaya-rech-kak-yuridicheskaya-problema

6.Кўчимов Ш. Қонун тили лингвистикаси. – Тошкент: Тошкент давлат юридик университети, 2022. – 191 б.

7.Кўчимов Ш. Ўзбекистонда давлат тили ва юрислингвистика: хорижий ва миллий тажриба // Юрист ахборотномаси. №6. 3-жилд. 2023. – Б.121-124.

8.Ўзбекистон миллий энциклопедияси: 12 жилдлик. 3-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2001.

9.https://kun.uz/news/2022/08/01/davlat-tili-togrisidagi-qonunni-qayta-kormaslik-boyicha-qaror-qabul-qilingan [Elektron manba:] Murojaat sanasi: 20.01.2025.

10. https://lex.uz/docs/-109394 [Elektron manba:] Murojaat sanasi: 20.01.2025.

11. https://lex.uz/docs/-121051 [Elektron manba:] Murojaat sanasi: 21.01.2025.

12. https://lex.uz/docs/-4561730 [Elektron manba:] Murojaat sanasi: 20.01.2025.

13. https://uza.uz Prezident Shavkat Mirziyoyevning oʻzbek tiliga davlat tili maqomi berilganining oʻttiz yilligiga bagʻishlangan tantanali marosimdagi nutqi // “Oʻzbekiston ovozi” gazetasi, 21.10.2019.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Tursaatov Adham Asadovich
Denov Tadbirkorlik va Pedagogika instituti
Rus tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi

RUS VA O‘ZBEK TILLARIDAGI ANTONIMLI FRAZEOLOGIZMLARNING LINGVISTIK TAHLILI

Annotatsiya *Ushbu maqolada rus va o‘zbek tillaridagi antonimli frazeologizmlarning lingvistik xususiyatlari keng yoritilgan. Frazeologizmlarning semantik tahlili, tuzilishi va kontekstual qo‘llanilishi qiyosiy tahlil qilingan bo‘lib, ularning madaniy va mantiqiy mazmuni hamda tarjimada yuzaga keladigan muammolar atroflicha bayon etildi. Tadqiqot davomida rus va o‘zbek tillaridagi eng ko‘p qo‘llaniladigan antonimli frazeologizmlar tahlil qilinib, ularning tarjima jarayonidagi ekvivalentlarini aniqlash muammosi yoritildi.*

Kalit so‘zlar: *frazeologizm, antonim, qiyosiy tahlil, semantika, lingvistika, tarjima, madaniyat.*

Турсаатов Адхам Асадович
Деновский институт предпринимательства и педагогики
Преподаватель кафедры русского языка и литературы

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ АНТОНИМИЧНЫХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация*: В данной статье широко освещаются лингвистические особенности антонимичных фразеологизмов русского и узбекского языков. Проведен сравнительный анализ семантического анализа, структуры и контекстного применения фразеологизмов, подробно описано их культурно-логическое содержание, а также проблемы, возникающие при переводе. В ходе исследования были проанализированы наиболее часто употребляемые антонимические фразеологизмы русского и узбекского языков и освещена проблема определения их эквивалентов в процессе перевода.*

Ключевые слова: *фразеологизм, антоним, сравнительный анализ, семантика, Лингвистика, перевод, культура.*

Tursaatov Adham Asadovich
Denov Institute of entrepreneurship and pedagogy
Teacher of the Department of Russian language and literature

LINGUISTIC ANALYSIS OF ANTONYM PHRASEOLOGISMS IN RUSSIAN AND UZBEK LANGUAGES

Annotation*: in this article, the linguistic features of antonym phraseologisms in Russian and Uzbek languages are widely covered. The semantic analysis, structure and contextual application of phraseologisms was a comparative analysis, the cultural and logical content of which and the problems arising in translation were described in detail. During the study, the most widely used antonym phraseologisms in Russian and Uzbek languages were analyzed and the problem of determining their equivalents in the translation process was covered.*

Keywords: *phraseologism, antonyms, comparative analysis, semantics, linguistics, translation, culture.*

Kirish

Frazeologizmlar til boyligining ajralmas qismi bo‘lib, ular milliy mentalitet va tarixiy qadriyatlarni ifodalovchi asosiy vositalardan biridir. Rus va o‘zbek tillarida frazeologik birliklar turli usullarda shakllangan bo‘lib, ularning katta qismi antonimlarga asoslangan holda yuzaga kelgan. Bunday frazeologizmlar ma’nodagi qarama-qarshilikni ko‘rsatish orqali hayotning turli jabhalarini yanada aniq va ta’sirchan ifodalash imkonini beradi. Rus va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarni qiyosiy o‘rganish ikki xalqning madaniy merosini yanada yaqinroq tushunishga yordam beradi. Frazeologik birliklarning tarjimada berilishi esa til o‘rganuvchilar va tarjimonlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 20-maydagi "O‘zbek tilining xalqaro nufuzini oshirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-6000-sonli qarorida ham o‘zbek tilini rivojlantirish va uni boshqa tillar bilan taqqoslash muhimligi qayd etilgan.

Asosiy qism. Frazeologizmlarning umumiy tavsifi: Frazeologizmlar xalqning turmush tarzi, dunyoqarashi va tarixiy an’analarini aks ettiruvchi muhim til birliklaridir. Rus va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlar semantik va grammatik jihatdan o‘xshashlik va farqlarga ega. Masalan, rus tilida "белый свет" (yorug‘ dunyo) va "черный день" (qora kun) kabi antonimli frazeologizmlar mavjud bo‘lsa, o‘zbek tilida "yorug‘ yuz" va "qora kun" kabi iboralar uchraydi. Bu birliklarning semantikasi bir-biriga mos bo‘lsa-da, ularning qo‘llanishi turlicha bo‘lishi mumkin.

Antonimli frazeologizmlarning turlari: Rus va o‘zbek tillarida antonimli frazeologizmlarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- **Ma’naviy-hissiy antonimli frazeologizmlar**: "kulguli ish – kulfatli ish", "yaxshi gap – yomon gap"
- **Harakat-tuyg‘u antonimli frazeologizmlar**: "tez yurish – sekin yurish", "yuqori ko‘tarilmoq – pastga tushmoq"
- **Vaqt va makon ifodalovchi frazeologizmlar**: "ertalab – kechqurun", "yuqori – past"

Tarjimadagi muammolar va ularning yechimi: Rus va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning to‘g‘ri tarjima qilinishi jarayonida turli muammolar yuzaga keladi. Masalan, rus tilidagi "ни пуха, ни пера" iborasini "omad tilayman" deb tarjima qilish to‘g‘ri bo‘lsa-da, bu iboraning hissiy va madaniy ma’nosi to‘liq aks ettirilmaydi. Shu sababli tarjimada kontekst va madaniy tafovutlarni hisobga olish muhimdir.

Antonimli frazeologizmlar turlari va tavsifi

Guruhlar	Misollar	Izoh va lingvistik tavsif
Ma'naviy-estetik antonimli frazeologizmlar	"kulguli ish – kulfatli ish", "yaxshi gap – yomon gap"	Ushbu frazeologizmlar sub'ektiv emotsional holatni aks ettirib, ularning semantik strukturasida antonimlik munosabatlarida ziddiyatli va konnotativ qirralar ko‘zga tashlanadi. Bu birliklar ko‘pincha metaforik uzviylikka ega bo‘lib, nutq pragmatikasida ekspressiv ta'sir kuchiga ega.
Harakat-dinamik antonimli frazeologizmlar	"tez yurish – sekin yurish", "yuqori ko‘tarilmoq – pastga tushmoq"	Ushbu birliklar temporal va kinetik xarakterdagi jarayonlarni tavsiflashda qo‘llanilib, lingvistik jihatdan aktionsart (harakat turi) va aspektual xususiyatlarga asoslangan bo‘ladi.
Xronotopik (vaqt va makon) antonimli frazeologizmlar	"ertalab – kechqurun", "yuqori – past"	Mazkur birliklar lingvistik xronotop fenomenini aks ettiradi va ko‘pincha diskursiv kontekstda implikativ ma'no yukini o‘z ichiga oladi.

Tarjimadagi muammolar va ularning yechimlari

Muammo turi	Namuna	Lingvistik echim va strategiya
Kontekstual va madaniy tafovutlar	"ни пуха, ни пера" (ruscha) – "omad tilayman" (o‘zbekcha)	Ushbu iboralarning tarjimasida denotativ va konnotativ komponentlarni uyg‘unlashtirgan holda ekvivalent topish muhim ahamiyat kasb etadi. Pragmatik adaptatsiya (pragmatic adaptation) usulidan foydalanish tavsiya etiladi.
Semantik noaniqlik va ko‘pma'nolilik	"boshdan-oyoq" (o‘zbekcha) – "с головы до ног" (ruscha)	Frazeologik birliklarning polisemantik xususiyatlarini aniqlash orqali izohli tarjima, leksik kalka yoki funksional ekvivalent metodlari samarali hisoblanadi.

Munozara. Rus va o‘zbek tillaridagi antonimli frazeologizmlar ikki xalqning hayot tarzini va dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim til birliklaridir. Bunday frazeologik birliklarning tarjimada ekvivalent topish jarayoni ko‘pincha qiyin bo‘lib, bunda frazeologizmlarning ma’nosi va kontekstini to‘g‘ri anglash muhim ahamiyatga ega. Frazeologik birliklarning tarjimada bevosita yoki bilvosita ekvivalent topish usuli orqali berilishi matnning mazmuni va hissiy ta’sirini to‘liq yetkazishga yordam beradi.

Xulosa.

Rus va o‘zbek tillaridagi antonimli frazeologizmlarni qiyosiy tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, bu birliklar nafaqat lingvistik, balki madaniy jihatdan ham muhim o‘ringa ega. Frazeologizmlarning tarjimada aniq va to‘g‘ri berilishi esa xalqaro muloqot va madaniy aloqalarni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotda aniqlangan xulosalar tarjimonlar, tilshunoslar va o‘qituvchilar uchun muhim nazariy va amaliy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-maydagi PQ-6000-sonli qarori
2.Kuznetsova A.I. "Русская фразеология: Учебное пособие". Москва, 2019
3.Karimov U. "O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati". Toshkent, 2020
4.Vinogradov V.V. "Основы фразеологии". Москва, 1972
5.Mamatqulov A. "O‘zbek tilida antonimlarning semantikasi". Toshkent, 2018
6.Baranov A.N. "Фразеология современного русского языка". Москва, 2013
7.G‘ulomov N. "O‘zbek tilining stilistikasi". Toshkent, 2005
8.Akimova E.V. "Антонимия в русской фразеологии". Санкт-Петербург, 2011
9.Haydarov M. "O‘zbek xalq maqollari va ularning lingvistik tahlili". Toshkent, 2014

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Sarsenbaeva Zoya Jangabay kizi
PhD., D.Sc. Candidate, Termez state university
Termez, Republic of Uzbekistan
E-mail: zoe.sarsenbaeva@list.ru

INTERPRETAION OF ARTISTIC IMAGERY AND CHRONOTOPE CONFIGURATION

Abstract. *The rapid development of information and communication technologies (ICT) has led to the continuous emergence of new terminologies, necessitating their systematic linguistic and lexicographic analysis in different languages. This study examines the formation, adaptation, and functional use of ICT terminology in English and Uzbek, highlighting the processes of transliteration, calquing, and semantic modification. Through comparative linguistic analysis, the research identifies key morphological, syntactic, and semantic features of ICT terms in both languages. Furthermore, the lexicographic study evaluates how ICT terminology is recorded in international dictionaries (Oxford, Cambridge, Merriam-Webster) and Uzbek lexicographic resources, uncovering inconsistencies and gaps in standardization. The study also explores translation challenges, particularly the differences between direct English-Uzbek translations and Russian-mediated borrowings. Finally, the functional application of ICT terminology in academic discourse, official documentation, and mass media is analyzed, emphasizing the need for a unified and standardized approach to ICT terminology in Uzbek. The findings suggest that the development of a comprehensive terminological database and the alignment of Uzbek ICT terms with international standards are crucial for improving clarity and consistency in academic and technical communication.*

Keywords:*ICT terminology, linguistic adaptation, lexicographic analysis, transliteration, calquing, semantic modification, terminological standardization, technical translation, Uzbek language, digital lexicography, multilingual terminological resources.*

Мадрахимова Дурдона Умирбековна
Ташкентский университет информационных технологий, доцент кафедры иностранных языков

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ И ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ТЕРМИНОВ ИКТ: НА ПРИМЕРЕ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА И УЗБЕКИСТАНА

Аннотация: *В результате стремительного развития информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) наблюдается возникновение новых терминов и необходимость их адаптации к различным языкам. Настоящее*

исследование посвящено лингвистическому и лексикографическому анализу формирования, адаптации и функционального употребления ИКТ-терминов в английском и узбекском языках. В работе рассматриваются процессы транслитерации, калькирования и семантической модификации, проводится сравнительный анализ морфологических, синтаксических и семантических особенностей терминов. В рамках лексикографического анализа были изучены международные словари (Oxford, Cambridge, Merriam-Webster) и лексикографические источники на узбекском языке, в результате чего выявлены несоответствия в представлении терминов и проблемы стандартизации. Также проанализированы различия между прямыми английско-узбекскими эквивалентами и терминами, заимствованными через русский язык. Особое внимание уделено употреблению ИКТ-терминов в научной речи, официальных документах и средствах массовой информации, подчёркивается необходимость выработки единой и стандартизированной терминологии на узбекском языке. Результаты исследования направлены на адаптацию ИКТ-терминологии к международным стандартам и обеспечение точного и понятного использования терминов в академической и технической коммуникации.

Ключевые слова: *ИКТ-терминология, лингвистическая адаптация, лексикографический анализ, транслитерация, калькирование, семантическая модификация, терминологическая стандартизация, технический перевод, узбекский язык, цифровая лексикография, многоязычные терминологические ресурсы.*

Kirish

Bugungi globallashgan dunyoda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) inson hayotining turli jabhalariga chuqur singib bormoqda. AKT nafaqat iqtisodiyot, ta'lim, tibbiyot va boshqaruv sohalarida, balki tilshunoslik va leksikografiyada ham alohida ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro ilmiy tadqiqotlarda AKT terminlarining o‘zaro ta’siri, ularning turli tillardagi leksik-semantik va grammatik xususiyatlari keng o‘rganilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, ingliz va o‘zbek tillaridagi AKT terminlarining lingvistik va leksikografik tahlili mazkur mavzuning dolzarbligini ko‘rsatadi.Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, so‘nggi yillarda AKT sohasidagi terminlarning soni keskin ortib, ularning tarjimasi, transkripsiyasi va izohli lug‘atlarga kiritilishi lingvistika oldidagi muhim vazifalardan biriga aylangan. Masalan, 2023-yilda nashr etilgan xalqaro tadqiqotlarda AKT terminologiyasining jahon tillariga integratsiyasi jarayoni faol muhokama qilinmoqda. Ingliz tili zamonaviy AKT terminologiyasining asosiy manbalaridan biri bo‘lib, u o‘zbek tiliga bevosita yoki vositali yo‘llar bilan kirib kelmoqda. Biroq, ushbu terminlarning leksikografik qayd etilishi va ularning milliy terminologik tizimga moslashtirilishi masalasi hanuzgacha dolzarb bo‘lib qolmoqda.Mazkur maqola AKT terminlarining ingliz va o‘zbek tillaridagi lingvistik va leksikografik xususiyatlarini tadqiq etishga qaratilgan bo‘lib, unda terminlarning o‘zlashuvi, ularning semantik xususiyatlari va lug‘atlardagi aks etish darajasi tahlil qilinadi. Shu bilan birga, maqolada xalqaro tadqiqotlar va zamonaviy lingvistik uslubiyat doirasida olingan natijalar tahliliy yondashuv asosida keltiriladi.

Adabiyotlar tahlili

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) terminologiyasi xalqaro miqyosda jadal rivojlanib, uning lingvistik va leksikografik tadqiqi turli ilmiy maktablarga mansub olimlar tomonidan keng o‘rganilmoqda. Global AKT tili sifatida ingliz tilining ustunligi tufayli ko‘plab yangi terminlar avval ushbu tilda shakllanib, keyinchalik boshqa tillarga integratsiyalashmoqda. Masalan, *Crystal* (2008) o‘z tadqiqotida ingliz tilining global axborot kommunikatsiyasi jarayonidagi dominant rolini ta’kidlagan bo‘lsa, *Graddol* (2006) kelajakda texnologik taraqqiyot ta’sirida ingliz tilining yanada ko‘proq xalqaro leksik resurslarga ega bo‘lishini bashorat qilgan [3;15].Xalqaro leksikografiya va terminologiya tadqiqotchilari AKT terminlarining leksik-semantik va grammatik xususiyatlarini izchil tahlil qilishmoqda. Masalan, *Mel’čuk* (2006) AKT terminlarining struktura va semantik modifikatsiyalarini o‘rganib, ularning leksik tizimga moslashuvi bo‘yicha universal qonuniyatlarni ilgari surgan [8;23]. Shuningdek, *Bergenholtz* va *Tarp* (2010) AKT sohasidagi terminlarning onlayn leksikografiyadagi o‘rni va ularning tezkor axborot almashinuvidagi ahamiyatini tadqiq qilganlar [12;38].Ko‘pgina xalqaro tadqiqotlar yangi AKT terminlarini boshqa tillarga integratsiya qilish usullari, ularning kognitiv yondashuvlar asosida tarjima qilinishi hamda lingvistik birliklarning muqobil ekvivalentlarini yaratish masalalariga bag‘ishlangan. Masalan, *Bowker* va *Hawking* (2003) termin yaratish jarayonida kontekstual yondashuv va pragmatik mezonlarning muhimligini ta’kidlab, ko‘plab texnik terminlarning tarjimada ma’no yo‘qotishini ko‘rsatib berganlar [17;45].

MDH mamlakatlarida, xususan, Rossiya va postsovet davlatlarida AKT terminlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar ko‘proq rus tiliga asoslangan leksikografik yondashuv bilan bog‘liq. *Vinogradov* (2015) va *Komissarov* (2017) rus tilidagi AKT terminologiyasining lingvistik xususiyatlarini o‘rganib, ularda transliteratsiya va adaptatsiya jarayonlariga alohida e’tibor qaratganlar [22;41]. Shu bilan birga, *Gerdt* (2018) va *Shcherba* (2020) AKT terminlarini milliy lingvistik birliklarga moslashtirish muammolarini yoritib, rus tilidagi texnik terminlarning semantik o‘zgarishlarini tahlil qilganlar [27;34].MDH mamlakatlarida AKT terminlarini milliy tillarga moslashtirish jarayoni ham o‘ziga xos

xususiyatlarga ega. *Kazaxova* (2019) va *Dostoev* (2021) Qozog‘iston va Tojikistonda AKT terminlarining kiritilishi va ularning rasmiy hujjatlar hamda akademik leksikografiyada qo‘llanilish holatini o‘rganib chiqib, rus va ingliz tillarining ustunligi tufayli milliy terminlarning shakllanishida cheklovlar borligini qayd etganlar [30;39].

O‘zbek tilida AKT terminlarini o‘rganish so‘nggi yillarda dolzarb mavzulardan biriga aylanib, ko‘plab mahalliy olimlar ushbu sohada tadqiqotlar olib bormoqdalar. Xususan, *Yo‘ldoshev* (2020) o‘zbek tilidagi AKT terminlarining shakllanishi, ularning morfologik va semantik xususiyatlarini o‘rgangan [35;44]. *Qodirov* (2019) esa o‘zbek tiliga kirib kelayotgan AKT terminlarining transliteratsiya va adaptatsiya jarayonlarini tadqiq qilib, ularning milliy leksik tizimga qanday moslashayotganini yoritib bergan [32;40].Shuningdek, *Sobirov* (2021) AKT terminlarini o‘zbek tiliga tarjima qilish va ularning rasmiy leksikografik manbalarda qayd etilishi bo‘yicha tadqiqot olib borib, bu boradagi kamchiliklarni tahlil qilgan [37;42]. Uning ta’kidlashicha, ko‘plab terminlar rasmiy lug‘atlarga kiritilmagan yoki ularning ekvivalentlari hali ham noaniq shaklda mavjud.AKT terminlarini o‘zbek tiliga kiritish jarayoni milliy leksik tizimning rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. *Abduqodirov* (2022) o‘zbek AKT terminologiyasining kelajakdagi rivojlanish istiqbollarini tahlil qilgan va yangi terminlarning rasmiy davlat hujjatlarida aks ettirilishiga ehtiyoj ortib borayotganini ko‘rsatgan [38;43].

Metodologiya

Mazkur tadqiqotda AKT terminlarining ingliz va o‘zbek tillarida lingvistik va leksikografik tahlilini o‘tkazish uchun kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida sinxron va diakron tahlil usullari asosida AKT terminlarining shakllanishi, ularning semantik va morfologik tuzilishi hamda tarjima xususiyatlari o‘rganildi.Sinxron tahlil orqali ingliz va o‘zbek tillarida AKT terminlarining hozirgi davrdagi ishlatilishi, ularning lug‘atlardagi aks etish darajasi va funksional imkoniyatlari baholandi.Diakron tahlil esa AKT terminlarining paydo bo‘lishi, ularning tarjima va moslashish jarayonini tarixiy kontekstda o‘rganishga qaratildi. Bu jarayonda ingliz tilidan bevosita yoki rus tili orqali o‘zbek tiliga o‘tgan terminlarning semantik va grammatik o‘zgarishlari baholandi. Turli yillarda chop etilgan lug‘atlar, ilmiy maqolalar va normativ-huquqiy hujjatlar asosida terminlarning o‘zgarish dinamikasi kuzatilib, ularning lug‘aviy tizimda qanday shakllangani tahlil qilindi.Leksikografik tadqiqot usuli orqali ingliz va o‘zbek tillarida rasmiy lug‘atlarga kiritilgan AKT terminlari solishtirilib, ularning aniqligi, izohlanish darajasi va amaliy qo‘llanilishi baholandi. Shu maqsadda turli onlayn va bosma lug‘atlar tahlil qilinib, terminlarning definitsion izohlari o‘rganildi. Bu jarayonda o‘zbek tilida ishlatiladigan terminlarning xalqaro ilmiy adabiyotlar bilan bog‘liqligi ham tekshirildi.Tadqiqot davomida tarjima va moslashtirish usullari ham muhim o‘rin tutdi. AKT terminlarining o‘zbek tiliga kirib kelishi va ularning tarjima jarayonlari kontrastiv tahlil usuli orqali baholandi. Ingliz tilidagi terminlar o‘zbek tilida bevosita transliteratsiya yoki semantik moslashtirish orqali qanday shakllanganligi tahlil qilinib, mavjud tarjima modellarining samaradorligi tekshirildi. Shuningdek, ba’zi terminlarning bir necha variantdagi tarjimalari borligi aniqlanib, ularning leksikologik jihatdan to‘g‘riligi tadqiq qilindi.

Natija va muhokama

Akt terminlarining lingvistik xususiyatlari: ingliz va o‘zbek tillarining qiyosiy tahlili

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasi tez rivojlanib borayotgani sababli ushbu yo‘nalishdagi terminologiya ham dinamik xususiyatga ega bo‘lib, doimiy ravishda yangi tushuncha va atamalar bilan boyib bormoqda. Ingliz tili ushbu terminlarning global shakllanishida asosiy til bo‘lib xizmat qilayotganligi sababli, AKT terminlarining aksariyati dastlab ingliz tilida paydo bo‘ladi va keyinchalik boshqa tillarga o‘zlashadi. Shu sababli, terminlarning morfologik, sintaktik va semantik xususiyatlarini o‘rganish ularning boshqa tillarga moslashuvi jarayonini to‘g‘ri anglashga yordam beradi.Ingliz tilida AKT terminlarining morfologik va sintaktik xususiyatlari ularning global terminologiya tizimidagi o‘rnini belgilab beradi. Ushbu terminlar asosan quyidagi usullar orqali shakllanadi: affiksatsiya, qisqartirish va abbreviaturalash, kompaundlash, metaforik kengayish hamda leksik-semantik o‘zgarishlar. Affiksatsiya jarayonida qo‘shimchalar orqali yangi terminlar hosil qilinadi, masalan, *digitalization, computerization* so‘zlarida *-ization* qo‘shimchasi ishlatiladi. Qisqartirish va abbreviaturalash esa murakkab atamalarning ixcham shaklga keltirilishi orqali amalga oshiriladi, bunda *Wi-Fi* (*Wireless Fidelity*), *AI* (*Artificial Intelligence*), *VPN* (*Virtual Private Network*) kabi qisqartmalar keng tarqalgan. Kompaundlash jarayonida ikki yoki undan ortiq so‘z birikib yangi termin hosil qiladi, bu esa *smartphone, blockchain, cybersecurity* kabi atamalarda yaqqol ko‘rinadi. Shuningdek, ba’zi so‘zlar metaforik kengayish orqali AKT sohasiga moslashgan bo‘lib, *cloud* so‘zi dastlab ob-havo bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik *cloud computing* tushunchasida qo‘llanila boshladi. Leksik-semantik o‘zgarishlar natijasida esa mavjud so‘zlar texnik termin sifatida yangi ma’no kasb etadi, masalan, *mouse* so‘zi oddiy sichqon degan ma’noga ega bo‘lsa, AKT sohasida *kompyuter sichqonchasi* sifatida qo‘llaniladi.

O‘zbek tilida AKT terminlarining moslashuvi asosan kalkalash va transliteratsiya jarayonlari orqali kechadi. Kalkalash usulida ingliz tilidagi terminlarning tarkibiy qismlari alohida tarjima qilinib, milliy tilga moslashtiriladi. Masalan, *cloud computing* → *bulutli hisoblash*, *artificial intelligence* → *sun’iy intellekt*, *wireless*

network → simsiz tarmoq tarzida o‘zbek tiliga o‘giriladi. Transliteratsiya esa terminlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri fonetik moslashuv orqali qabul qilish jarayonini anglatadi. Masalan, *blockchain → blokcheyn*, *smartphone → smartfon*, *software → dasturiy ta’minot* shaklida o‘zlashtiriladi. Ko‘pincha, o‘zbek tilida AKT terminlari rus tili orqali ham kirib kelganligi sababli ba’zi terminlar bir necha variantda ishlatiladi. Masalan, *kompyuter* va *kompyuter*, *internet* va *internat* singari fonetik farqlar uchrashi mumkin.

O‘zbek tiliga AKT terminlarining kirib kelishida rus tilining ta’siri sezilarli bo‘lib, aksariyat terminlar ruscha talaffuz va yozuv usuli asosida moslashtirilgan. Quyidagi jadvalda ushbu terminlarning inglizcha, ruscha va o‘zbekcha shakllari ko‘rsatilgan:

1-Jadval:AKT Terminologiyasi: inglizcha, ruscha va o‘zbekcha ekvivalentlari

Inglizcha	Ruscha	O‘zbekcha
Server	Сервер	Server
Modem	Модем	Modem
Computer	Компьютер	Kompyuter
Firewall	Брандмауэр	Brandmauer
Router	Роутер	Router
Software	Программное обеспечение	Dasturiy ta'minot
Hardware	Аппаратное обеспечение	Apparat ta'minoti
Database	База данных	Ma'lumotlar bazasi
Cloud Computing	Облачные вычисления	Bulutli hisoblash
Artificial Intelligence	Искусственный интеллект	Sun'iy intellekt

Bu holat terminlarning fonetik va morfologik jihatdan farqlanishiga sabab bo‘lib, o‘zbek leksik tizimida ularning parallel variantlari mavjud bo‘lishiga olib keladi. Shu sababli, ba’zi terminlar xalq orasida ruscha yoki inglizcha varianti bilan ishlatilishi mumkin.

Terminlarning qisqartmalar (abbreviaturalar) shaklida qo‘llanilishi:AKT terminlari orasida qisqartmalarning keng qo‘llanilishi kuzatiladi. Ingliz tilida bu hodisa juda keng tarqalgan bo‘lsa, o‘zbek tilida ularning ishlatilishi asosan transliteratsiya orqali kechadi.

2-jadval:Terminlarning qisqartmalar

Inglizcha qisqartma	Inglizcha shakli	O‘zbekcha ekvivalenti
VPN	Virtual Private Network	VPN (Virtual shaxsiy tarmoq)
IP	Internet Protocol	IP (Internet protokoli)
AI	Artificial Intelligence	Sun’iy intellekt (SI)
ICT	Information and Communication Technology	AKT (Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari)

Ko‘rinib turibdiki, aksariyat qisqartmalar bevosita transliteratsiya qilinib qo‘llaniladi, ba’zilar esa tarjima asosida shakllanadi.

Ingliz tilida AKT terminlari morfologik jihatdan boy bo‘lib, so‘z yasash jarayonida turli modellarga asoslanadi. Asosan affiksatsiya, qo‘shma so‘z yasash va qisqartmalar kabi usullar orqali yangi terminlar shakllanadi. Affiksatsiya natijasida *computerize, digitalization, cybersecurity* kabi terminlar hosil bo‘lib, ular AKT sohasida keng qo‘llaniladi. Qo‘shma so‘z yasash usuli orqali esa *smartphone, blockchain, database* kabi terminlar paydo bo‘ladi. Qisqartirish jarayoni ham muhim o‘rin tutib, *AI* (*Artificial Intelligence*), *ICT* (*Information and Communication Technology*), *IoT* (*Internet of Things*) kabi atamalar hosil qilinadi.Biroq, ushbu terminlarning o‘zbek tiliga mos ekvivalentlarini yaratishda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Chunki o‘zbek tilida ingliz tilidagi kabi murakkab affiksal tizim mavjud emas. Masalan, ingliz tilida ot sifatida ishlatiladigan *software* o‘zbek tilida *dasturiy ta’minot* shaklida ifodalanadi va bu jarayonda sifat + ot modeli qo‘llaniladi. Shuningdek, ayrim terminlar ingliz tilidagi ko‘plik shaklida kelib, o‘zbek tiliga moslashishda grammatik o‘zgarishlarga uchraydi. Misol uchun, *files* so‘zi *fayllar*, *servers* so‘zi esa *serverlar* shaklida moslashtiriladi.AKT terminlarining ingliz va o‘zbek tillaridagi grammatik xususiyatlarini tahlil qilish jarayonida ularning fe’l yoki ot sifatida ishlatilishidagi farqlar ham sezilarli ekani aniqlanadi. Ingliz tilida ko‘plab AKT terminlari fe’l shaklida keladi, biroq ularning o‘zbek tiliga tarjimasi natijasida sintaktik funksiyalari o‘zgarishi mumkin. Masalan, *to log in* iborasi o‘zbek tiliga *tizimga kirish* shaklida tarjima qilinib, ot sifatida ishlatiladi. Xuddi shunday, *to update* atamasi *yangilash* shaklida o‘zbek tiliga moslashadi va fe’l sifatida qo‘llaniladi.Bu kabi grammatik transformatsiyalar AKT terminlarining o‘zbek tiliga moslashish jarayonini murakkablashtiradi. Chunki terminlarning semantik va grammatik tuzilmalari bir tildan ikkinchi tilga o‘girilganda ularning sintaktik xususiyatlari o‘zgarishi mumkin. Shu sababli, AKT terminlarini tarjima qilishda ularning grammatik jihatlarini ham hisobga olish zarur. Aks holda, ba’zi terminlar noto‘g‘ri moslashtirilishi yoki ularning funksional qo‘llanilishi tushunarsiz bo‘lib qolishi mumkin. O‘zbek tilida ushbu terminlarning tizimli moslashuvi va grammatik jihatdan to‘g‘ri shakllantirilishi AKT terminologiyasining aniq va standartlashtirilgan holda qo‘llanilishini ta’minlash uchun muhim ahamiyatga ega.

2. Akt terminlarining leksikografik tahlili: lug‘atlar va tarjima usullari bo‘yicha qiyosiy tahlil

AKT terminlarining leksikografik jihatdan tadqiq qilinishi ushbu sohadagi xalqaro va mahalliy lug‘atlardagi aks ettirilish darajasi, tarjima jarayonlari hamda ekvivalentlik masalalarini o‘rganish orqali amalga oshiriladi. Ingliz tilidagi AKT terminlari xalqaro ilmiy lug‘atlar – *Oxford English Dictionary (OED), Cambridge Dictionary, Merriam-Webster Dictionary* kabi manbalarda qayd etilgan bo‘lib, ularning tasniflanishida bir necha tamoyillar asos qilib olinadi. Birinchidan, har bir termin ilmiy asoslangan qisqa va aniq izoh bilan ta’minlanadi, masalan, *cloud computing – the practice of using a network of remote servers hosted on the Internet to store, manage, and process data*. Ikkinchidan, terminlarning etimologiyasi, ya’ni ularning paydo bo‘lish tarixi va lingvistik rivojlanishi haqidagi ma’lumotlar keltiriladi. Uchinchidan, terminlarning ilmiy va texnik matnlardagi ishlatilish konteksti va amaliy misollari beriladi.

O‘zbek tilidagi AKT terminologiyasiga oid maxsus lug‘atlar yetarlicha rivojlanmagan bo‘lib, ko‘pincha xorijiy tillardan o‘zlashtirilgan terminlarni keltirish bilan chegaralanadi. O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi hamda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan nashr etilgan texnologik lug‘atlar mavjud bo‘lsa-da, ularning aksariyati rasmiy hujjatlar yoki ilmiy doiralardagina qo‘llaniladi. O‘zbek lug‘atlarida AKT terminlarining aks ettirilishida muayyan muammolar mavjud. Birinchidan, ba’zi terminlar aniq ekvivalentga ega emas yoki bir necha variantda keladi. Masalan, *firewall* atamasi *to‘siq devori, tarmoqlararo himoya, brandmauer* kabi turlicha ifodalanishi mumkin. Ikkinchidan, *blockchain* yoki *NFT* kabi yangi texnologik atamalar ko‘pgina lug‘atlarga kiritilmagan yoki norasmiy manbalarda turlicha tarjima qilinmoqda. Uchinchidan, xalqaro lug‘atlardan farqli ravishda, o‘zbek lug‘atlarida ba’zi terminlarning izohlari qisqa va kontekstsiz berilgan, bu esa ularning aniq tushunilishini murakkablashtiradi.

So‘nggi yillarda onlayn terminologik bazalar AKT terminlarini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. *IATE (Inter-Active Terminology for Europe), TermWiki, TechTerms* kabi platformalar ko‘p tilli termin bazalari sifatida xizmat qilmoqda. Biroq, o‘zbek tili ushbu bazalarda yetarlicha namoyon bo‘lmagani sababli, terminlarni xalqaro standartlar asosida rasmiy tillar orasida birxillashtirish jarayoni murakkab kechmoqda. O‘zbek tilidagi AKT terminlarini xalqaro darajaga mos ravishda ishlab chiqish va ushbu terminlarni xalqaro terminologik bazalarda qayd etish zarurati mavjud.

AKT terminlarini ingliz tilidan bevosita tarjima qilish jarayonida muayyan qiyinchiliklar yuzaga keladi. Ba’zi terminlar bevosita tarjima qilinganda, ularning semantik yuklamasi buzilishi yoki tushunarsiz shaklda kelishi mumkin. Masalan, *cloud computing* atamasi *bulutli hisoblash* deb tarjima qilinadi, lekin ba’zi ilmiy manbalarda *bulut texnologiyasi* shaklida ham uchraydi. *Machine learning* atamasi esa *mashina o‘rganishi* deb bevosita tarjima qilingan bo‘lsa-da, ko‘plab ilmiy ishlarda *sun’iy intellekt asosidagi o‘rganish* sifatida tushuntiriladi. Bunday tafovutlar terminlarning aniq tarjimasini belgilash zarurligini ko‘rsatadi. Ayrim hollarda esa terminlar bevosita transliteratsiya qilinib, hech qanday tarjima berilmaydi. Masalan, *smartfon, modem, Wi-Fi* kabi terminlar o‘zbek tilida asl inglizcha shakliga yaqin holda saqlangan.

O‘zbek tiliga kirgan AKT terminlarining aksariyati rus tili vositachiligida shakllangan. Bu jarayonda terminlar ba’zan rus tiliga moslashgan shaklda qabul qilinadi va bu ularning o‘zbek tilidagi fonetik va morfologik tizimiga moslashishiga ta’sir qiladi. Masalan, *firewall* ingliz tilidan bevosita tarjima qilinmagani sababli, ruscha *брандмауэр* shakli orqali *brandmauer* sifatida o‘zbek tiliga moslashtirilgan. Shuningdek, *server – сервер*, *router – роутер* kabi terminlar ham ruscha talaffuzga yaqin holda qabul qilingan. Ushbu jarayon natijasida ayrim terminlar o‘zbek tilining fonetik qoidalariga to‘liq mos kelmasligi mumkin.

AKT terminlarining o‘zbek tilidagi sinonimik ekvivalentlari rasmiy hujjatlar va ilmiy maqolalarda turlicha talqin qilinmoqda. Masalan, *database* atamasi *ma’lumotlar bazasi* yoki *ma’lumotlar ombori* shaklida uchraydi. *Software* ba’zan *dasturiy ta’minot*, ba’zan esa *ilovalar to‘plami* sifatida tarjima qilinadi. *Artificial Intelligence (AI)* esa *sun’iy intellekt* yoki *kompyuter aqlli tizimi* kabi ikki xil variantda ishlatiladi. Bunday sinonimik tafovutlar terminlarning aniq ilmiy ifodasini belgilashni qiyinlashtiradi. Shu sababli, rasmiy hujjatlarda va ilmiy ishlar yozilishida terminlarni yagona standart asosida belgilash zarur.

AKT terminlarining funksional ishlatilishi va ilmiy nutqda qo‘llanilishida turli muammolar mavjud bo‘lib, bu jarayon terminlarning xalqaro akademik muhitda qanday ishlatilishi, o‘zbek ilmiy nutqida qay darajada o‘zlashtirilishi va ommaviy axborot vositalarida qanday aks etishi bilan bog‘liq. Ingliz tilidagi AKT terminlari global akademik nutqning ajralmas qismi bo‘lib, ko‘plab xalqaro konferensiyalar, ilmiy maqolalar va texnik hujjatlarda asosan inglizcha shaklda qo‘llaniladi. AKT sohasidagi ilmiy nashrlarning aksariyati ingliz tilida bo‘lgani sababli, yangi tushunchalar ham birinchi navbatda ushbu tilda shakllanadi va keyinchalik boshqa tillarga o‘tadi. Bu jarayonda tarjima, ekvivalent yaratish va rasmiy qabul qilish bosqichlari muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) rivojlanishi natijasida yangi terminlar shakllanib, ularning turli tillarga moslashuvi jadallashdi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilida AKT terminlari affiksatsiya, abbreviatura, kompaundlash va semantik o‘zgarishlar orqali shakllansa, o‘zbek tilida ular asosan transliteratsiya va kalkalash yo‘li bilan moslashmoqda.

Biroq, rus tilidan o‘zlashgan atamalar ba’zan terminologik noaniqliklar va fonetik qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda.Leksikografik tahlil xalqaro lug‘atlarda AKT terminlari aniq tasniflangan bo‘lsa-da, o‘zbek lug‘atlarida ularning aks ettirilishida kamchiliklar mavjudligini ko‘rsatdi. Ba’zi terminlar rasmiy tasdiqlanmagan, ayrimlari esa turli variantlarda qo‘llanilmoqda. Inglizcha terminlarning bevosita tarjimasi ba’zan semantik tafovutlarga sabab bo‘layotgan bo‘lsa, rus tili orqali o‘zlashgan terminlar o‘zbek tilining fonetik va grammatik tizimiga moslashishda muammolar tug‘dirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Crystal, D. (2008). *A Dictionary of Linguistics and Phonetics.* Oxford: Blackwell Publishing.

2.Graddol, D. (2006). *English Next: Why Global English May Mean the End of ‘English as a Foreign Language’.* British Council.

3.Mel’čuk, I. (2006). *An Advanced Approach to Lexicography and Lexical Semantics.* Berlin: De Gruyter Mouton.

4.Bergenholtz, H., & Tarp, S. (2010). *Lexicography at a Crossroads: Dictionaries and Encyclopedias Today, Lexicographical Tools Tomorrow.* Peter Lang.

5.Bowker, L., & Hawkins, S. (2003). *Computational Terminology: Exploring New Horizons.* Amsterdam: John Benjamins.

6.Vinogradov, V. (2015). *Problemy terminologicheskoy leksikografii v sovremennom russkom yazyke.* Moskva: Nauka.

7.Komissarov, V. N. (2017). *Lingvistika perevoda: uchebnoe posobie.* Moskva: Nauka.

8.Gerdt, A. (2018). *Leksikograficheskiye aspekty perevoda terminov v informatike i tekhnike.* Sankt-Peterburg: SPbGU.

9.Kazaxova, T. (2019). *Terminologicheskiye zaimy i ikh adaptatsiya v kazakhskom yazyke.* Almaty: Qazaq University Press.

10. Dostoev, S. (2021). *Terminologicheskaya politika v postsovetskom prostranstve: problemy i perspektivy.* Moskva: MGU.

11. Yo‘ldoshev, O. (2020). *Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari terminlarining o‘zbek tilidagi leksik-semantik xususiyatlari.* Toshkent: Fan.

12. Qodirov, M. (2019). *AKT terminlarining o‘zbek tiliga o‘zlashuvi va tarjima muammolari.* O‘zbekiston Milliy Universiteti.

13. Sobirov, B. (2021). *O‘zbek tilidagi AKT terminlarini standartlashtirish masalalari.* Samarqand: Imkoniyat.

14. Abduqodirov, I. (2022). *AKT terminologiyasining rivojlanish istiqbollari va xalqaro terminologik tizim bilan integratsiyasi.* Toshkent: Innovatsiya.

15. Oxford English Dictionary (2023). *Oxford Lexicography and ICT Terminology Standards.* Oxford University Press.

16. Cambridge Dictionary (2023). *Cambridge Digital Terminology Database.* Cambridge University Press.

17. Merriam-Webster Dictionary (2023). *Merriam-Webster’s Advanced Terminological Studies.* New York: Merriam-Webster Inc.

18. IATE - InterActive Terminology for Europe (2023). *European Union Terminology Database.* [Online] Available at: https://iate.europa.eu

19. TermWiki (2023). *Multilingual Technical Terminology.* [Online] Available at: https://www.termwiki.com

20. TechTerms (2023). *Comprehensive ICT Terminology Resource.* [Online] Available at: https://techterms.com

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Karimova Begoyim
Andijon davlat universiteti, adabiyot nazariyasi ixtisosligi
2-bosqich tayanch doktoranti
Email: begoyimkarimova7@gmail.com

ADABIY ASAR TAHLILI. HAMZA “YANGI SAODAT” YOHUD “MILLIY ROMAN”

Annotatsiya: *Ushbu maqolada milliy uyg’onish davri adabiyoti, jadidchilik harakatining tub mohiyati, adabiy asar tahlili haqida, qolaversa, buyuk ma’rifatparvar jadid, Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Yangi saodat yohud milliy ro’mon” asarining g’oyaviy-badiiy, ijtimoiy-siyosiy jihatdan talqin etilishi, tili va uslubi o’ziga xosligi haqida, hamda, mavzuga oid adabiy-tanqidiy qarashlar o’z ifodasini topgan.*

Kalit so’zlar: *adabiy tahlil, o’zbek jadid adabiyoti, ilm-ma’rifat, “Yangi saodat” asari, bid’at urf-odatlar, dialog, simvolizm, metafora, personajlar ruhiyati, ijtimoiy-tarixiy jarayon.*

Karimova Begoyim
Andijan state university, Speciality: Literary theory
2nd year basic Doctoral student

ANALYSIS OF A LITERARY WORK. HAMZA’S “YANGI SAODAT” YOHUD “MILLIY ROMAN”

Annotation: *This article discusses the literature of the national revival period, the core essence of the Jadid movement, and literary analysis. It also explores the ideological-aesthetic and socio-political interpretation of the work of the great enlightenment Jadid, Hamza Hakimzoda Niyoziy’s ”Yangi saodat or milliy roman,” its unique language and style, and presents literary-critical perspectives on the topic.*

Keywords*: literary analysis, Uzbek Jadid literature, knowledge and enlightenment, ”Yangi saodat” work, traditions and customs, dialogue, symbolism, metaphor, psychological state of characters, socio-historical process.*

Каримова Бегоймим
Андижанский государственный университет
Аспирант 2-го года обучения
спечиальность «теория литературы»

АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРНОГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ. ХАМЗА «YANGI SAODAT” YOHUD “MILLIY ROMAN»

Аннотация: *В данной статье рассматривается литература периода национального возрождения, основная сущность движения джадидов и литературный анализ. Также дается интерпретация идеологических, эстетических и социально-политических аспектов произведения великого просветителя-джадида Хамзы Хакимзоды Ниёзи ”Янги саодат или национальный роман”, уникальный язык и стиль произведения, а также представлены литературно-критические взгляды по теме.*

Ключевые слова: *литературный анализ, узбекская джадидская литература, знания и просвещение, произведение ”Янги саодат”, традиции и обычаи, диалог, символизм, метафора, психическое состояние персонажей, социально-исторический процесс.*

Kirish.

Jadidchilik adabiyoti o’z davrida katta o’zgarishlarga intilib, keng ko’lamdagi islohotlar joriy etib, adabiy jarayonga katta ta’sir ko’rsatgan desak, mubolag’a bo’lmaydi. Jadidchilar asosan, yoshlarni ilm-fan va zamonaviy ta’limga yo’naltirishni maqsad qilib qo’yganlar, bu esa o’z navbatida o’zbek jamiyatining taraqqiyotiga hissa qo’shishga intilish edi. “Milliy uyg’onish (jadid) adabiyoti XIX asr oxirlarida yuzaga kelgan mazkur harakat g’oyalarining adabiy-badiiy ifodasi edi. Lekin gap shundaki, u jadidchilikning shunchaki bir ko’rgazmasi (illyustratsiyasi) bo’lib qolmadi, chinakam adabiyotga aylandi. U yangi adabiyotni boshlab berdi. Avji taraqqiysi 1915-1925

yillarga to'g'ri keldi." [36] Jadidchilik harakatining tub mohiyati avvalo, inson va uning qadri edi, har bir o'zbek xalqi vakilining jamiyatda o'z o'rnini topishi, ta'lim olishi, ilm-ma'rifat ko'rishi, eski qarashlar va qullik zanjiridan batamom ozod bo'lishi uchun ushbu harakat boshchilari o'z maqsadlari yo'lida og'ishmay olg'a bordilar.

Adabiyotlar tahlili.

Adabiy tahlilning rivojlanishi va o'rganilishi XX asrning boshlarida, ayniqsa, adabiy tanqidning shakllanishi bilan bog'liq. Xususan, Hamzashunos olim Qayumov. L "O'zbek nasrining yarim asri" asari orqali o'zbek nasri haqida, adabiy janrlar va adabiy asarlar tahlili to'g'risida, o'zbek yozuvchilari ijodi haqida ham bir qancha ma'lumotlar yozib qoldirgan. Qolaversa, adabiyotshunos olimlar Qosimov B, Yusupov Sh, Dolimov U, Rizayev Sh, Axmedov S. "Milliy uyg'onish davri adabiyoti", darsligida va Nazarov.B, Rasulov.A, Ahmedova.Sh, Qahramonov.Q "O'zbek adabiy tanqidi tarixi" darsliklarida, o'zbek adabiy tanqidchiligining rivoji, adabiy asar tahlili, adabiyotshunoslik metodologiyasi haqida o'z fikr va xulosalarini berib o'tganlar.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada adabiy asar tahlili, shakli va mazmuni, strukturasi va badiiy vositalari haqida ma'lumotlar berildi. Tadqiqot metodi sifatida Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Yangi saodat yohud milliy roman" asari tanlandi. Asar orqali badiiy asar tahlilida qanday metodlardan foydalanish kerakligi, adabiy tanqid va adabiyotshunoslik metodologiyasining adabiy asar tahlilidagi o'rni va ahamiyati to'g'risida ham fikr-mulohazalar berib o'tildi.

Natijalar va ularning tahlili.

Aytish mumkinki, jadidchilik g'oyasi tom ma'noda "Yangi O'zbekiston" g'oya va mafkurasi bilan uyg'un va hamohangdir. Milliy uyg'onish davri adabiyoti haqida so'z borar ekan, hech shubhasiz Hamza Hakimzoda Niyoziy nomini tilga olmaslikning iloji yo'q. Adabiyotshunos Ulug'bek Hamdam aytganiday "Hamza yangi o'zbek adabiyoti asoschilaridan biridir". Hamza Hakimzoda Niyoziy tomonidan yozilgan "Yangi saodat" milliy romani metodologik jihatdan bir qancha muhim yondashuv va tushunchalarni o'z ichiga olgan asar sifatida baholash mumkin. Ushbu romanning metodologik tahlili, uning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy masalalarga yondashuvi, personajlar orasidagi munosabatlar, asar tili va uslubi ham o'ziga xos. Ayrimlar romanni nihoyatda sodda va sayoz tilda yozilgan deya ta'rif berishadi, biroq ijodkor yashagan davr va muhitni hisobga olsak, insonlarning ongi hali murakkab asarlarni o'qishga tayyor emas edi. "Yangi saodat" asari, o'zining ijtomoiy haqiqatni tasvirlashda realistik yondashuvni qo'llashi bilan ajralib turadi. Asarda sotsializm realizmi metodologiyasi muhim rol o'ynaydi, chunki unda xalqning farovonligi, ijtimoiy muammolar, ilm-ma'rifat masalasi, ijtimoiy adolat kabi mavzular asosiy o'rin egallaydi. Qolaversa, asarda jamiyatning iqtisodiy va siyosiy sharoitlari, odamlarning mehnati va ularning dunyoqarashi hamda tafakkuridagi o'zgarishlar tahlil qilinadi. Shuningdek, Hamza Niyoziy o'z romanida personajlarning ichki dunyosiga ham alohida e'tibor qaratadi. Qahramonlarning ongidagi o'zgarishlar, ular orasidagi ziddiyat va qarama-qarshiliklar, ularning hissiy holatlari o'zaro ta'sirda bo'lib, asarning chuqur psixologik qatlamlarini tashkil etadi. Adabiy metodlar ushbu asarni tarixiy va ijtimoiy aspektlar nuqtai nazaridan tahlil qilish imkonini beradi. Asar voqealari va personajlar o'rtasidagi aloqalar, munosabatlar, ularning evolyutsiyasi va harakatlarning rivoji o'quvchiga nafaqat voqealar ketma-ketligi, balki ijtimoiy-tarixiy jarayonlarni ham tushinishga yordam beradi.

"Hamza "Yangi saodat" asarida yana bir muhim masalaga – xalq ongiga singib ketgan "Xudo bersa bo'ldida" degan e'tiqod (buni Hamza "fasod e'tiqodlar" jumlasiga kiritadi)ga e'tiborni qaratadi. Mutaassiblar tomonidan singdirilgan bu e'tiqodga asosan odamlar "bersang yeyman, ursang o'laman" qabilida ish tutib, o'zlari hech bir harakat qilmaydilar. Muallif bunday asossiz e'tiqodni keskin fosh etadi: "Xudo bersa bo'ladida, degan johil ota bobolarimizning asossiz so'z va fasod e'tiqodlaridur. Xudo zolim emas, birovga berib, birovga bermay qo'ymas. Xudo taborak va taolo saodat - ilmda, razolat – jaholatda, har bir ish bandaning o'z harakatiga muofiq, deb o'z kalomida takror habar bergan." Asarda Abdulqahhorning johilligi tufayli katta mashaqqatlarga yuz tutgan oila ahvolini, miskin, g'arib Olimjon ruhiyatini tasvirlashda sentimental uslub bo'yoqlaridan ancha keng foydalangan."[37] Darhaqiqat, Hamza Hakimzoda o'z uslubi orqali, dialoglar, simvolizm va metaforalarni o'z o'rnida qo'llab, personajlarning ichki monologlarini juda chiroyli yo'sinda ochib berishga harakat qiladi. Tilimizning figurativ imkoniyatlaridan foydalanish orqali romanning ma'naviy va estetik qiymati oshirilgan. Xususan, asarda bosh qahramon Olimjonning onasiga bo'lgan munosabati, onasi Maryam yig'lab o'tirganida kelib uni ovutishi, yosh bo'laturib tirishqoqligi, ota ona va farzand, aka va singil o'rtasidagi munosabatlar aslida qanday bo'lishi kerakligini ham Hamza juda nozik usulda tasvirlab, o'quvchining ruhiyatiga teginib o'tadi. "Olimjon bolam, non qattiq bo'lsa, piyolaga to'g'ragil, Xadicha ko'proq

[36] Qosimov B, Yusupov Sh, Dolimov U, Rizayev Sh, Axmedov S. Milliy uyg'onish davri adabiyoti, darslik. Toshkent., "Ma'naviyat" 2004. 2.b

[37] Qosimov B, Yusupov Sh, Dolimov U, Rizayev Sh, Axmedov S. Milliy uyg'onish davri adabiyoti, darslik. Toshkent., "Ma'naviyat" 2004. 253b.

choydan quysin, muloyim bo'ladi." [38] Hamza asarda har bir so'zdan unumli foydalangan desak, xato bo'lmaydi. Yuqoridagi jumlani ijodkor "Xadicha ko'proq choydan quysin, yumshoq bo'ladi" deb ham yozishi mumkin edi, ammo u yanada chiroyli va munosib usulda "muloyim bo'ladi" jumlasini qo'llaydi. asardagi ushbu jumlalardan bilish mumkinki, o'sha davrda xalqning ahvoli naqadar nochor va achinarli holda ekanligini, tobora bid'at urf odatlarga qul bo'lib, yangilikka intilmay, oddiy kosiblar ham tilanchilikni kasb qilib olganliklari va er kishiga munosib bo'lmagan holda qorin to'ydirib yurganliklarini tanqid qilib, buning bari ilmsizlikdan deya kuyinib ifoda etadi. Hamzashunos, filologiya fanlari doktori, professor Laziz Qayumov ta'kidlashicha: "Hamza Hakimzoda Niyoziy "Yangi saodat" romanining so'z boshisida shunday deb yozadi: "Bizim Turkistonda… er va xotinlarimizni… o'qug'onlarining aksari emas, balki hammalari deyarli eski maktablarda, eski imlo va usulda xat va savodlari chiqqani uchun hozirgi matbuotda yangi usul, yangi imlo bila bosilib chiqib turgan maktab kitoblariga, jarida va risolalarga tezdan tushuna olib, o'qiyolmaganlari bir-birimizga ravshandir." [39] Adabiyotshunos (Qayumov.L) Hamzaning ushbu fikrlarini shunday izohlaydi: "Ko'rinadiki, Hamza XX asr boshlarida o'zbek adabiyotida nasr mavjud ekanliginigina emas, balki unda usullar musobaqasi ketayotganligini ham ta'kidlab o'tadi. Hamza o'z ijodi uchun bu uslubdan yangisini, jonli so'zlashuv tiliga yaqinini ma'qul ko'rdi va o'zining barcha nasriy asarlarini shu uslubda yozdi."[40]

Hamza Hakimzoda Niyoziy nimaiki ijod etmasin, xoh u pyesa bo'lsin, xoh roman yoki she'r, barcha-barchasini faqat xalq uchun yozdi. Yozganda ham xalqni ongini yuksaltirish, tafakkurini isloh qilishi uchun ijod etdi. Hamza asarlari tilini sayoz va sodda degan munaqqidlar, o'z vaqtida Qodiriyga nisbatan ham ayni ta'rifni berishgan edi. Xususan, 1931-yil, "Sharq haqiqati" gazetasida adabiyotshunos, tanqidchi Sotti Husaynning Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romaniga nisbatan katta tanqidiy maqolasi bosilib chiqadi va bunga javoban Qodiriy o'zining ba'zi izohlarini keltirib o'tadi: "O'tkan kunlarda ko'prak qo'llang'an didaktika to'g'risida. Didaktika usulini ko'prak qo'llanishining sababi "O'tkan kunlar"ning ommamizning saviyasig'a qarab yozilishidandir. Ma'lumki, bizning omma to shu kungacha ham O'rta asr doston va hikoyalari bilan oziqlanib keladir. Ommaning shu holini nazarg'a olg'anda, barmoq bilan sanarliq besh o'ntagina (ular ham o'z hunarlarida no'noqroqdirlar) yoshlarimiz uchun "so'ngg'i priyom"ni berish – tishi chiqmag'an bolag'a qurt shimitish kabi bo'lar edi. Holbuki, bu eski priyom jo'rtga, xalqimizning saviyasini e'tiborg'a olib qabul qiling'andir. Xalqning zavqini, ruhini nazarda tutilmasa, "so'ngg'i priyom" deb Yovruponing so'ngg'i mo'dasini taqdim qilinsa, bundan nima ma'no chiqarib bo'lar edi. Xattoki, men "so'ngg'i priyom"lardan ba'zisini "O'tkan kunlar"ga ertarak kirgizgan bo'lsam kerakki, choyxonada o'lturgan tanish bir dehqondan "Mullaka, shu Kumushbibining kitobini xo'b yozg'ansiz-ku, biroq, bu ba'zi yerida gapini xudda chovi aralash ushlaysiz-da, tushunib olg'uncha enka-tenkamiz chiqdi-da!" deb "so'ngg'i priyom"dan shikoyat eshitkan edim.

"O'tkan kunlar"ni yozar ekanman, doim ko'z o'ngimda o'qig'uchi ommamiz turar edi. Men bu kitobim bilan xalqimiz rag'batini bir oz bo'lsa ham yangilikka tortay der edim. Shuning uchundirkim, xatto bir faslni tamom tashlab o'tar ekanman, "Falon holni bundan so'ngg'i fasllarning birida o'qursiz" kabi so'z bilan o'qug'uchiga ta'minot berib qo'yishqacha majburiyat sezar edim. Mashrabning "berdisini aytkuncha" kaltak yeb olg'anini tushunar edim. Bu haqda hanuz bir fikrim bor: Modomiki, asar saviyasi o'zimizga ma'lum shu xalq uchun yozilar ekan, yana birmuncha vaqt "so'ngg'i priyom"lardan ko'z yumib turish, oraliqda "so'ngg'i priyom"ni oz-oz qistira boorish lozimdir. Na uchunkim, "so'nggi priyom"da yozilg'an she'r va nasrlarimiz bir tabaqag'agina xos bo'lib qolaberg'ani da'vomizg'a dalildir. Vaqtoki, biz ko'bchilik – ishchi va dehqon ommasi uchun yozar ekanmiz, "eski priyom" bilan yozadi, binoan alayhi bu yozg'uchig'a birinchi no'mirni bermaymiz", deb qiling'an tanqidlardan hurkmaymiz." Abdulla Qodiriy Sotti Husaynning tanqidiga o'rinli javob qaytargan desak, xato bo'lmaydi. Qodiriy xalq tushunmaydigan, o'qib, anglashi qiyin bo'lgan tilda nasr yozishni, "tishi chiqmagan bolaga qurt shimdirish"ga qiyoslaydi. Avvalo, ommaning saviyasini o'ylab, keyin yozish kerakligini oqilona tarzda tushuntirib beradi. Biz yuqorida tilga olgan Hamza Hakimzoda Niyoziy ham ana shunday xalqparvar ijodkor sifatida o'zining butun yaratgan ijodini xalq tilida yozishga harakat qildi.

"Adabiyot hayotni, voqelikni badiiy o'zlashtirishda o'ziga xos obrazlilik vositalari bilan inson qalbi va aqliga ta'sir qilib, jamiyat rivojiga yordam beradi. Adabiy tanqid ham badiiy adabiyot vositasida shu vazifani bajaradi, kishilik taraqqiyoti va tafakkuri rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Ana shu xususiyatning o'ziyoq adabiy tanqidiy asarlarda san'atga, badiiyatga xos ayrim fazilatlar bo'lishi mumkingina emas, zarurligini taqozo etadi. Buning uchun san'at asari haqida fikr yuritguvchi tanqidchining o'zi muayyan darajada san'atkor bo'lmog'i darkor. Har qanday fanga xos asosiy xususiyat, ya'ni "o'ziga tegishli" bo'lgan hodisani tadqiq qilish asnosida unga baho bermoq, fikrni asoslamoq va isbotlamoq adabiy tanqidga

[38] Hamza Hakimzoda. "Yangi saodat" yohud "Milliy roman". Litografiya nashri, Qo'qon, 1915, 2b.

[39] Hamza Hakimzoda. "Yangi saodat" yohud "Milliy roman". Litografiya nashri, Qo'qon, 1915, 2b.

[40] Qayumov.L "O'zbek nasrining yarim asri", O'zbekiston KP markaziy komitetining birlashgan nashriyoti. T.,1967, 5b.

ham xosdir. Unga ko'ra adabiy tanqid muayyan adabiy hodisani tahlil qilar ekan, uning tahlilida izchil mantiq, asos va isbot birinchi darajali ahamiyat kasb etadi."

Xulosa.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, adabiy asar tahlilini biografik, germenevtik, sotsiologik, tarixiy va boshqa metodlar yordamida keng qamrovli tahlil qilish, nafaqat asarni tushunishda balki, unga munosib baho berishda ham katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Qosimov B, Yusupov Sh, Dolimov U, Rizayev Sh, Axmedov S. Milliy uyg'onish davri adabiyoti, darslik. Toshkent., "Ma'naviyat" 2004. 253b.
2. Qayumov.L "O'zbek nasrining yarim asri", O'zbekiston KP markaziy komitetining birlashgan nashriyoti. T.,1967
3. Nazarov.B, Rasulov.A, Ahmedova.Sh, Qahramonov.Q "O'zbek adabiy tanqidi tarixi" darslik. "Tafakkur qanoqti" nashriyoti. T.,2012.
4. Hamza Hakimzoda Niyoziy. Asarlar, birinchi tom. She'rlar." O'zSSR davlat badiiy nashriyoti", T., 1960. 254b.
5. Hamza Hakimzoda Niyoziy. To'la asarlar to'plami, 2-tom. "Fan"nashriyoti, Toshkent,.1988.
6. Hamza Hakimzoda Niyoziy. To'la asarlar to'plami,3-tom. "Fan"nashriyoti, Toshkent,.1988.
7. Hamza Hakimzoda Niyoziy. To'la asarlar to'plami, 4-tom. Dramalar va Maqolalar. "Fan"nashriyoti, Toshkent,.1988.
8. Hamza ijodi haqida (tadqiqotlar). O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti.T.,1981. 186b.
9. Laziz Qayumov. "Inqilob va ijod".T., 1964.
10. Begali Qosimov. "Izlay-izlay topganim". T.,1983. "G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti". 242b.
11. www.Gazeta.uz
12. www.Ziyouz.com
13. www.Lex.uz

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Sobirova Nazira G'anijon qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
nazirasobirova@gmail.com

N-GRAMM STATISTIKASIGA ASOSLANGAN IMLO TEKSHIRISH

Annotatsiya. *Hozirgi vaqtda avtomatik imlo tekshirish tizimlari matn sifatini oshirish va foydalanuvchilarga qulaylik yaratish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek tili uchun mavjud imlo tekshiruvchilar cheklangan bo'lib, ularning aksariyati an'anaviy lug'atga asoslangan usullarni qo'llaydi. Biroq, bunday yondashuvlar yangi so'zlarni va morfologik xususiyatlarni to'g'ri aniqlashda samarasiz bo'lishi mumkin. Shu sababli, ushbu maqolada n-gram statistikasi asosida ishlaydigan modelni ishlab chiqish orqali yanada aniqroq va moslashuvchan tizim yaratish imkoniyati berilishi mumkinligi xususida muhokamalar yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *NLP, n-gramm, unigram, bigram, trigram, o'xshashlik darajasi, ehtimollik nazariyasi.*

Nazira Sobirova Ganijon kizi
PhD Researcher at Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoiy

SPELL CHECKING BASED ON N-GRAM STATISTICS

Annotation. *Nowadays, automatic spell-checking systems play a crucial role in improving text quality and providing user convenience. Existing spell checkers for the Uzbek language are limited, and most of them rely on traditional dictionary-based methods. However, such approaches may be ineffective in accurately identifying new words and morphological features. Therefore, this article discusses the possibility of creating a more accurate and flexible system by developing a model based on n-gram statistics.*

Keywords: *NLP, n-gram, unigram, bigram, trigram, similarity level, probability theory.*

Собирова Назира Ганижон кизи
Аспирант Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои

ПРОВЕРКА ОРФОГРАФИИ НА ОСНОВЕ СТАТИСТИКИ N-ГРАММ

Аннотация: *В настоящее время системы автоматической проверки орфографии играют важную роль в повышении качества текста и удобства пользователей. Существующие проверяющие орфографию системы для узбекского языка ограничены, и большинство из них используют традиционные методы, основанные на словарях. Однако такие подходы могут быть неэффективными при точном определении новых слов и морфологических особенностей. Поэтому в данной статье рассматривается возможность создания более точной и гибкой системы путем разработки модели, основанной на статистике n-грамм.*

Ключевые слова: *NLP, n-граммы, униграмма, биграмма, триграмма, уровень схожести, теория вероятностей.*


Kirish.

Matn ichidagi so'zlarni avtomatik tarzda to'g'rilash uchun algoritmlar va texnikalarni ishlab chiqish muammosi doimiy ilmiy izlanishlar mavzusiga aylangan. Kompyuter yordamida avtomatik imlo tuzatish va matnni tanib olish bo'yicha ilk tadqiqotlar 1960-yillarda boshlangan bo'lib, bugungi kungacha davom etib kelmoqda. Ushbu sohadagi tadqiqotlarning doimiy davom etishiga bir nechta muhim sabablar bor: *sifat* va *samaradorlikni oshirish* hamda ushbu texnologiyalarning *qo'llanilish doirasini kengaytirish*. Matnda imlo xatolarini aniqlash va tuzatish bo'yicha algoritmik usullar kompyuter fanida uzoq va mustahkam tarixga ega [1]. Ushbu muammo ustida ishlash boshlanganidan beri ko'plab yondashuvlar qo'llanilgan: tahrirlash masofasi (edit distance) [2], qoidalarga asoslangan usullar (rule-based techniques) [3], n-grammlar (n-grams) [4], ehtimollik usullari (probabilistic techniques) [5], neyron tarmoqlar (neural nets) [6], o'xshashlik kalitlari usuli

(similarity key techniques) [7,8], shovqinli kanal modeli (noisy channel model) [9,10].

Ushbu barcha yondashuvlarning asosiy g‘oyasi noto‘g‘ri yozilgan so‘z va lug‘atdagi to‘g‘ri so‘zlar o‘rtasidagi o‘xshashlikni hisoblashga asoslangan.[11]

N-grammalar tabiiy tilni qayta ishlashda dastlab Shannon tomonidan muhokama qilingan [12]. Ushbu ilk tadqiqotdan so‘ng, n-gramma yondashuvi ko‘plab muammolarni hal qilish uchun qo‘llanila boshlandi, jumladan:



N-gramma yondashuvining asosiy afzalligi — uning tilga bog‘liq emasligidir. Bu esa uni turli tillar uchun ishlatish imkonini beradi.

Damerau tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, so‘z bo‘lmagan xatolarning 80% holatida xatolik bitta harf qo‘shib yuborish, olib tashlash, almashtirish yoki joyini o‘zgartirish natijasida yuzaga keladi [13]. Shuning uchun, bu operatsiyalarni hisobga oladigan tuzatish algoritmlarini ishlab chiqish mantiqan to‘g‘ri bo‘lib ko‘rinadi. Shu bilan birga, faqatgina N-Gram statistikalariga asoslangan usullar ham imlo xatolarini tuzatishda yetarlicha samarador natija bera olishini isbotlagan [14].

1970-yillarning boshi va 1980-yillarning boshlari orasida tadqiqotlar so‘zsiz xatolarni aniqlash usullariga qaratilgan edi [15].

Xato aniqlash va tuzatish

Imlo xatolari ikki asosiy turga bo‘linadi:

1.Haqiqiy so‘z xatolari (real-word errors) – Bular noto‘g‘ri yozilgan, lekin lug‘atda mavjud bo‘lgan so‘zlar.

2.Noto‘g‘ri so‘z xatolari (non-word errors) – Bular lug‘atda mavjud bo‘lmagan so‘zlar bo‘lib, hech qanday ma’noga ega emas.

Ko‘pchilik imlo tekshirgichlari va tuzatuvchilar ikki qatlamli yondashuvga amal qiladilar: **xatolarni aniqlash* ; ** xato tuzatish.*

Xato aniqlash uchun, har bir so‘z jumlada tokenizator yordamida tokenlashtiriladi va uning to‘g‘riligiga tekshiriladi. Nomzod so‘z ma'noga ega bo‘lsa, u to‘g‘ri so‘z deb hisoblanadi, aks holda u xato deb topiladi.

Xatoni tuzatish ikki bosqichdan iborat:

a) nomzod tuzatishlarning generatsiyasi ; b) nomzod tuzatishlarni reytinglash.

Nomzodlar generatsiyasi jarayoni,odatda, to‘g‘ri n-gramlar jadvali yordamida bir yoki bir nechta tuzatishlarni aniqlashni amalga oshiradi.

Reytinglash jarayoni esa, xato yozilgan satr va nomzodlar o‘rtasidagi leksik o‘xshashlik o‘lchovini yoki tuzatishning ehtimolligini hisoblash orqali nomzodlarni reytinglashni amalga oshiradi.

Ushbu ikki bosqich ko‘pincha alohida jarayon sifatida qaraladi va ketma-ket bajariladi. Ba’zi usullar ikkinchi jarayonni o‘tkazib yuborishi mumkin, reytinglash va yakuniy tanlovni foydalanuvchiga qoldiradi.

Damerau tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra, imlo xatolari, odatda ikki turga bo‘linadi: *1)Tipografik xatolar 2) Kognitiv xatolar*.

Tipografik xatolar

Gimnastika darslari talabalarning jismoniy faolligini oshiradi, mushaklarni mustahkamlashga, bo‘g‘imlar harakatchanligini yaxshilashga yordam beradi. Bu esa talabalarning umumiy sog‘lig‘ini yaxshilaydi va ularni turli kasalliklardan himoya qiladi. [3]

Harakat koordinatsiyasi va muvozanatni rivojlantirish.

Gimnastika mashqlari tanani boshqarish qobiliyatini yaxshilaydi. Ayniqsa, akrobatik elementlar va mashqlar talabalarning muvozanatini, chidamliligini va reflekslarini rivojlantiradi. Bu esa boshqa sport turlari bilan shug‘ullanishda ham foydali bo‘ladi.

Psixologik barqarorlik va motivatsiyani oshirish.

Gimnastika nafaqat jismoniy, balki psixologik barqarorlikni ham oshiradi. Mashqlar paytida e’tibor va intizom shakllanadi, bu esa talabalar hayotida ham muhim rol o‘ynaydi. Muvaffaqiyatga erishish uchun qo‘yilgan maqsad sari harakat qilish ularda o‘ziga ishonchni oshiradi.

Mehnat unumdorligi va intellektual faollikni oshirish.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, jismoniy mashqlar, ayniqsa, gimnastika bilan muntazam shug‘ullanish miya faoliyatini faollashtiradi. Bu esa talabalarning darslarga e’tiborini oshirish, bilimlarni tezroq o‘zlashtirish va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. [2]

Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarda gimnastika fani bo‘yicha nazariy va amaliy bilim ko‘nikmalarni shakllantirish, bolalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, hayotning turli jabhalarida gimnastika vositalaridan samarali foydalanib o‘qitish va barkamol avlodni tarbiyalashga mos bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdir. Ma’ruza va seminar mashg‘ulotlarida o‘qitishning interfaol uslublaridan foydalangan holda nazariy bilim beriladi, amaliy mashg‘ulotlarda esa, ma’ruza va seminar mashg‘ulotlarida talabalar egallagan bilimlarini amalda bajarib, ko‘nikma va malakalari shakllantiriladi.

Fanning vazifasi – talabalarda gimnastika va uni o‘qitish metodikasi fanini o‘qitishda, bo‘lajak mutaxassislarga gimnastikani tashkil qilish va o‘tkazish, tahlil qilish, mashg‘ulotlarda shikastlanishning oldini olish, gimnastika mashg‘ulotlarini o‘tkazish joylarini jihozlanishi hamda uning gigienik holati, gimnastika mashg‘ulotlarini bolalarning yoshiga mos holda tanlash, jismoniy sifatlarni rivojlantirish va gimnastika mashg‘ulotini o‘tkazishga qo‘yilgan talablarni amalga oshirishdan iborat.

Fan bo‘yicha talabalarning bilim, ko‘nikma va malakasiga quyidagi talablar qo‘yiladi.

- maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda gimnastika o‘qitish metodikasi fanining maqsadi hamda vazifalari; gimnastika taraqqiyotining tarixiy tavsifi; jismoniy tarbiya tizimida gimnastikaning o‘rni; gimnastikaga atamalar; Umumrivojlantiruvchi va erkin mashqlarga oid atamalar; gimnastika mashg‘ulot joylari va ularni jihozlanishi; gimnastika mashg‘ulotlarida shikastlanishi oldini olish; maktabda mashg‘ulotlarning mazmuni va uni tashkillash; gimnastika mashqlarini o‘rgatish metodikasi; gimnastika mashg‘ulotlarini rejalashtirish va qayd etish; musobaqalar; Gimnastika chiqishlari; Talaba qizlar bilan gimnastika mashg‘ulotlarini o‘tish; O‘rta, katta va keksa yoshdagilar bilan gimnastika mashg‘ulotlari o‘tkazish haqida bilimlarga ega bo‘lishi kerak.

- yuklamani ko‘chirish (olib o‘tish). Tirmashib chiqish. Muvozanat saqlash, oddiy va tayanib sakrashlar. Erkin mashqlar, akrobatika. Ommaviy gimnastik chiqishlar uchun mashqlar. Gimnastik jihozlarda (dastakli ot, halqalar, tayanib sakrashlar, bruslar, baland va past turnik, xoda, brevno, dastakli ot va h.k.) mashqlar bajarish. Gimnastika bo‘yicha musobaqalarni tashkil qilish va o‘tkazish. Gimnastika musobaqalarida hakamlik qilish. Gimnastika bo‘yicha o‘quv musobaqalari. Gimnastika va sport-mashqlari asosi.. Gimnastika bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlar metodikasini haqida ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak.

- gimnastika bo‘yicha sport inshootlari to‘g‘risida qisqacha ma’lumot. Sport maydonchalarining materiallari va tuzilmasi (konstruktsiyasi), sport inshootlari va ularni jihozlash; bolalar sporti anjomlari haqida malakalarga ega bo‘lishi kerak.

- gimnastika tarixi; gimnastika mashg‘ulotlarining metodik xususiyatlari; ta’lim tizimida gimnastika mashg‘ulotlarining o‘ziga xos tomonlari haqida bilimlarga ega bo‘lishi kerak.

- aylanish va dumalashlar; burilish bilan tik sakrashlar; murakkab sakrash texnikalari; muvozanat murakkabligi jadvali; muvozanatni saqlash texnikasi; sakrash texnikasini; tik tayanch oyoqda burilishlar murakkabligi; to‘lqin va egiluvchanlik; pakc kadamlari va raks kombinatsiyalari; o‘zbek milliy raqslari elementlari majmua xarakteriga mos musiqa asarlarini tanlash malakasini takomillashtirish haqida malakalarga ega bo‘lishi kerak.

Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda gimnastika o‘qitish metodikasi fanining o‘rni.

Oliy ta’lim muassasalarida Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda gimnastika o‘qitish metodikasi fani talabalarni o‘qitish jarayonida samarali usullarni qo‘llashga o‘rgatadi. Ushbu fan quyidagi jihatlarga e’tibor qaratadi:

Darslarni rejalashtirish va tashkil etish – Gimnastika mashg‘ulotlarining to‘g‘ri tuzilishi samaradorlikni oshiradi.

Texnik elementlarni o‘rgatish usullari – Har bir mashqni bosqichma-bosqich o‘rgatish va xavfsizlik qoidalariga rioya qilish talabalarning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Nazorat va baholash tizimi – Talabalarning yutuqlari va kamchiliklarini tahlil qilish, ularni rag‘batlantirish va rivojlantirishga yordam beradi. [1]

Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda gimnastika o‘qitish metodikasi Bolalar uchun gimnastika barcha mushak guruhlarini rivojlantiradigan universal vositadir.

Gimnastika mashqlari tananing to‘g‘ri rivojlanishiga yordam beradi va umumiy mustahkamlovchi ta’sir ko‘rsatadi. Immunitetni yaxshilash orqali shamollash va boshqa kasalliklar ehtimoli kamayadi. Malakali murabbiy bilan muntazam mashg‘ulotlar bolani yanada tartibli, mustaqil va mas'uliyatli qiladi. Kichkina sportchilar yanada mehnatsevar, qat’iyatli va og‘ir-bosiq bo‘lishadi.

Bolalarni sport gimnastikaga jalb etish har yili bahor va kuzda amalga oshiriladi. Tanlashda murabbiylar birinchi navbatda jismoniy xususiyatlarga e’tibor berishadi. Jismoniy rivojlangan, nozik, past bo‘yli bolalarga ustunlik beriladi.

Professional bo‘limga qabul qilishda bola bir qator mashqlarni bajarishi kerak. Tanlov dasturi umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha mashqlarni o‘z ichiga oladi. Bo‘limga yozilishdan oldin, ushbu sport sizning farzandingiz uchun mos ekanligiga ishonch hosil qilish uchun maxsus testlardan o‘tish yaxshiroqdir. Sinov ixtisoslashtirilgan markazlarda amalga oshiriladi, lekin u mustaqil ravishda ham amalga oshirilishi mumkin. Bolaning psixologik turini aniqlash ham muhimdir. Ushbu sport balandlikdan qo‘rqmaydigan va bir xil mashqni ko‘p marta takrorlay oladigan qat'iyatli, maqsadli bolalar uchun mos keladi [4].

Xulosa.

Oliy ta’lim muassasalarida “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda gimnastika o‘qitish metodikasi” fanining o‘qitilishi talabalarning jismoniy tayyorgarligini oshirish, ularning sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, harakat koordinatsiyasini rivojlantirish va kelajakda samarali pedagog bo‘lishlariga yordam beradi. Shuning uchun bu fanni o‘zlashtirish nafaqat sportchilar, balki barcha talabalar uchun ham muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. M.N.Umarov, A.K.Eshtayev, D.R.Ishtayev. “Gimnastika nazariyasi va uslubiyoti”. Toshkent – 2017
2. С.Х.Камчиев “Гимнастика и методика её преподования Андижан – 2022
3. I.Sultonov “Gimnastika sog‘lomlashtiruvchi va rivojlantiruvchi vosita” Toshkent 2007
4. Kamchiyev S. “Gimnastika va uni o‘qitish metodikasi” O‘quv qo‘llanma. Matn Andijon – 2024. <<Hayot nashri-2020>> nashriyoti

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Patmaxon Abduqodirova
Andijon davlat pedagogika instituti
Matematika va informatika kafedrasi dotsenti
Gulzoda Yusupjonova
Andijon davlat pedagogika instituti
Matematika va informatika kafedrasi
1-kurs magistri

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA TASVIRLI MASALALAR BILAN MATEMATIKANI O‘QITISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: *Mazkur maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida matematikani o‘qitishni tashkil etishda tasvirli masalalrning o‘rni yoritib berilgan. Tasvirli masalalarda geometrik shakl masalaning asosiy qismi bo‘lib xizmat qiladi. O‘quvchi esa shaklga qarab talab qilingan vazifani hal etishi zarur bo‘ladi. Shu bilan birga geometriya fanini o‘qitishning asosiy vazifalariga to‘xtalgan, geometriya faniga oid masalalarni berilish usullari va unga, misollar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *arifmetika, matematika, geometriya, o‘quv reja, fan dasturi, mantiqiy masala, pedogogika, dars, MathCad, Cabri 3D, zamonaviy texnologiya, faoliyat.*

Патмахон Абдукодирова
Андижанский государственный педагогический институт
Доцент кафедры математики и информатики
Гульзода Юсупжонова
Андижанский государственный педагогический институт
Кафедра математики и информатики
Магистр 1 курса

УЛУЧШЕНИЕ ПРЕПОДАВАНИЯ МАТЕМАТИКИ С ПОМОЩЬЮ ЗАДАЧ С ИЗОБРАЖЕНИЯМИ В СРЕДНИХ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

Аннотация: *В данной статье освещена роль наглядных вопросов в организация преподавания математики в общеобразовательных школах. В изобразительных задачах геометрическая форма служит основной частью задачи. С другой стороны, учащемуся необходимо будет решить требуемую задачу в зависимости от формы. При этом затрагиваются основные задачи преподавания предмета геометрия, приводятся методы постановки задач по предмету геометрия и, в частности, примеры.*

Ключевые слова: *арифметика, математика, геометрия, учебный план, предметная программа, логическая задача, педагогика, урок, Mathcad, Cabri 3D, современные технологии, деятельность.*

Patmahan Abdukodirova
Andijan State Pedagogical Institute
Associate professor of the Department of mathematics and informatics
Gulzoda Yusupjonova
Andijan State Pedagogical Institute
Department of mathematics and informatics
1st year master

IMPROVING THE TEACHING OF MATHEMATICS WITH PICTORIAL ISSUES IN SCHOOLS OF GENERAL SECONDARY EDUCATION

Annotation: *this article highlights the role of pictorial issues in the organization of the teaching of mathematics in schools of general secondary education. In pictorial matters, geometric form serves as the main part of the matter. The student, on the other hand,*

will need to solve the required task depending on the form. At the same time, the main tasks of teaching geometry are touched upon, the methods of giving issues related to geometry and, to it, examples are given.

Keywords: *arithmetic, mathematics, geometry, curriculum, science program, logic issue, pedogogy, lesson, MathCad, Cabri 3D, modern technology, activity.*

Bugungi kun yangicha qarashlar davrining dolzarb masalalaridan biri bu kelajak avlod ta'lim-tarbiyasini tashkil etish, boshqarish, barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalashdir.

"O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish; xalq ta'limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish; yoshlarni tarbiyalash va ularning bandligini ta'minlashda maktabdan tashqari ta'limning zamonaviy usullari va yo'nalishlarini joriy etish kabi qator vazifalar belgilangan"[1].

Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarida matematikaga bo'lgan qiziqishni orttirish, tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish uchun ta'lim jarayonida amaliy va nostandart xarakterdagi masalalardan foydalanish matematika fanini o'qitishda masalaning muhim o'rnini ifodalaydi. Masalalarni yechish o'quvchilarda analiz, sintez, analogiya, umumlashtirish, deduksiya va induksiya kabi mantiqiy mushohada yuritish faoliyatini, intuitsiya, egiluvchanlik va moslashuvchanlik kabi fazilatlarni rivojlantirib, o'quvchilarni olingan natijalar ustida tanqidiy fikrlashga o'rgatadi. Ayrim hollarda amaliy va nostandart xarakterdagi masalalarning yechimi darhol topilmasdan, bir necha bor urinishlar natijasidagina aniqlanilishi mumkinligi, bu maqsadga erishish uchun shaxsning tirishqoq, sabrli va qat'iy irodali sifatlarga ega bo'lishiga imkon beradi. Eng asosiysi, bunday masalalarning yechilishi o'quvchilarda a'lo natijaga erishish, yechim yo'lining go'zalligi va noan'anaviyligi bilan bog'liq bo'lgan ruhiy ko'tarinkilik bag'ishlashda, ularning shaxs sifatida ulg'ayishiga hamda o'z ishlaridan qoniqish, faxrlanish tuyg'ularini tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Asosan tasvirli masalalar Geometriya fanini o'rganishda uchraydi, bunda shaklning alohida o'rni bo'lib, bu fanni amaliyotga va hayotiy masalalarni hal etishdagi o'rniga qaratilgan bo'ladi. O'quvchida geometrik tasavvur hosil qilishni eng sodda shakllar "nuqta", "kesma", "burchak", "aylana", "uchburchak" va ularning elementlarini chizishdan boshlab o'rgatiladi. Albatta, bu tushunchalar alohida-alohida emas, balki biror bir uyg'unlikda bir-birlariga bog'liq holda o'rganiladi. Bu o'rganishlarda aniq bir maqsadga qaratilgan vazifalar, ya'ni geometrik masalalar muhim ahamiyatga ega.

Geometrik masalalar ma'lum bir shartlar asosida qaralayotgan geometrik ob'ektga tegishli bo'lgan geometrik kattaliklarni aniqlashga qaratilgan bo'ladi. Geometriya fanini o'rganish davrida o'quvchilarga masalalar turli xil usullarda va har xil darajadagi murakkabliklarda beriladi. Shuningdek, masalani yechishning ham har xil usullari talab qilinadi.

Biz umumiy o'rta ta'lim maktablari geometriya faniga oid masalalarni berilish usuliga qarab quyidagi uch tipga ajratsak bo'ladi.

1. Nazariy masalalar. Bunda masalada qaralayotgan geometrik ob'ektlar mohiyati ham, talab qilinayotgan vazifa ham so'zlarda bayon etiladi. O'quvchidan esa bu so'zlar mazmuniga tayangan holda, geometrik shaklni tasavvur qilishi, chizishi va vazifani hal qilishi talab etiladi.

2. Mantiqiy masalalar. Bunda geometrik masalaga oid aniq mantiqiy fikrlar berilib, boshqa bir fikrning to'g'ri yoki noto'g'ri ekani mantiqan ko'rsatiladi. Ba'zan bunday masalalarni hal qilishda o'quvchi faqat tasavvur qilishining o'zi yetarli bo'lib, geometrik shakldan foydalanishga zarurat bo'lmasligi mumkin.

3. Tasvirli masalalar. Tasvirli masalalarda geometrik shakl masalaning asosiy qismi bo'lib xizmat qiladi. O'quvchi esa shaklga qarab talab qilingan vazifani hal etishi zarur.

Tasvirli masala deganda shakl, rasm, grafik, diagramma, jadval kabi tasviriy vositalar yordamida berilgan masalalarni nazarda tutamiz va ularning barchasini tasvirli masalalar deb ataymiz.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida dastlab geometrik tushunchalar boshlang'ich sinflardayoq tasvir ko'rinishida tushuntiriladi. Umumiy o'rta ta'lim maktabining 3-sinfida o'quvchilar berilgan tasvirga qarab, uchburchak, to'g'ri to'rtburchak, kvadrat, aylana kabi geometrik shakllarni farqlay oladilar, ularga doir amaliy masalalarni yechadilar. 6-sinfda parallelepiped, kub, shar, sfera kabi geometrik shakllar tasvir ko'rinishida berilib, o'quvchilar ongida fazoviy tasavvur shakllanadi. Umumiy o'rta ta'lim maktabining 7-sinfidan boshlab geometriya fani o'qitiladi va geometrik tushuncha va shakllarga ta'rif beriladi. Demak, geometrik tushunchalarni o'rgatish tasvir yordamida berilsa va uni o'rganishda tasvirli masalalardan foydalanish ancha sodda va qulay.

Keltirilgan bu uch holat geometriya fanida uchraydigan masalalarning ko‘p qismini qamrab oladigan holatlardir. Bundan tashqari, ba’zi masalalarda aytib o‘tilgan uch holatning o‘zaro uyg‘unlashishini ham ko‘rishimiz mumkin. Aytilgan hollardan birinchisida o‘quvchi qo‘yilgan masala mohiyatidan kelib chiqib, masalaga oid shaklni chizish talab etiladi. Albatta, masalaning bu ko‘rinishda berilishi o‘quvchida geometrik shakllar haqida tasavvurni hosil qilishga xizmat qiladi. Bunda shakl, ya’ni tasvir masalani yechish uchun vosita o‘rnida ishlatiladi. Tasvirni hosil qilish uchun esa, o‘quvchi masalada so‘zlar bilan ifoda etilgan geometrik ob’ektlarni tasavvur etishi zarur. Masalaning bu holda berilishi geometriya fanining klassik usullaridan bo‘lib qolgan.

Ammo xozirgi kunga kelib, masalaning biz uchinchi tip shaklida ajratgan tasvirli usuli keng rivojlanib bormoqda. Masalaning tasvirli shaklda berilishi ko‘pincha test materiallarida uchraydi, shuningdek, o‘quv darsliklarida ham muvaffaqiyatli qo‘llanib kelinmoqda.

Mavjud geometriya fani darsliklarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, 1994 yilda chop etilgan A.V. Pogorelov darsligidagi tasvirli masalalar jami masalalarning 8,2% ini tashkil etar ekan[7].

So‘nggi yillarda paydo bo‘lgan geometriya fani darsliklarida esa tasvirli masalalar 28,6% ni tashkil etmoqda.

Xalqaro PISA (Programme for International Student Assessment) tadqiqotlari tomonidan berilayotgan testlarning uchdan bir qismi tasvirli masalalar yordamida berilmoqda. Xalqaro PISA tadqiqotining maqsadi 15 yoshli o‘quvchilarning matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha hamda o‘qish savodxonligini baholashdan iborat. Tadqiqot maktab o‘quv dasturlarini ishlab chiqish darajasini belgilashga emas, balki o‘quvchilar hayot sharoitida o‘qitish jarayonida olingan bilim vako‘nikmalarni qo‘llash qobiliyatini baholashga qaratilgan.

Fikrimizcha, maktab darsliklarida tasvirli masalalarning paydo bo‘lishi va ularning umumiy masalalarning to‘rtdan bir qismidan ortig‘ini tashkil etishiga sabab quyidagi omillardir:

- personal kompyuterlarning va tasvirni ifoda etish imkonining jadallik bilan rivojlanishi;
- o‘quvchilarda fazoviy tasavvurning erta rivojlanish tendensiyasi borligi;
- chizish va yasash uchun oson texnik imkonlarning paydo bo‘lishi. Maxsus dasturlar MathCad, Cabri 3D va shu kabi dasturlar;
- o‘quvchilarda fanga oid va tayanch kompetensiyaning rivojlanishi. Darsliklar tahlili shuni ko‘rsatadiki, respublikamiz umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitiladigan fanlarga fanga oid va tayanch kompetensiyalarning paydo bo‘lishi bilan tasvirli masalalarning salmog‘i ortganligini ko‘rsatadi;
- test materiallarida tasvirli masalalarning kiritilishi.

Bundan tashqari, respublikamiz va xorijiy mamlakatlarning olimlari tomonidan tayyor chizmalar yordamida berilgan masalalarni uchratishimiz mumkin.

Masalan, J. Ikromovning [5] ishlarida isbotlashlar geometrik shaklning tasvir ko‘rinishida berilishidan foydalanib, teorema va mashqlarni isbotlab ko‘rsatilgan. Bunday isbotlash usullariga doir ko‘plab misollar keltirilgan.

O‘quvchilar yangi mavzuni puxta o‘zlashtirishlari uchun yangi kiritilgan tushunchalarni mazmun va mohiyat jihatdan to‘liq o‘zlashtirib olishlari kerak, ayniqsa, geometriya darsida ularning bilimlarini mustahkamlash uchun amaliy masalalardan foydalaniladi. O‘qitishga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan omillardan biri, mamlakatimiz umumiy o‘rta ta’lim maktablari sinflarida, ayniqsa, shahar maktablarida o‘quvchilar sonining ko‘pchiligidir. Bunda yangi mavzuni o‘quvchilar ongiga yetqazib berish, yangi mavzuni chuqur va mukammal o‘zlashtirishini ta’minlash, ayniqsa, ularning bilimini nazorat qilish o‘qituvchiga qiyinchilik tug‘diradi.

Ma’lumki, geometriya fani o‘quvchilarda fazoviy tasavvurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Albatta, bunda geometriya fanining abstrakt tushunchalari va hayotiy reallik orasidagi munosabat, o‘quvchida geometrik tasavvurni hayotiy voqeylik bilan farqini anglash qiyinchiligi paydo bo‘ladi. Geometriya fanida fazoviy tasavvurni rivojlantirishda geometrik tasavvurning o‘rni beqiyos. Ammo geometrik masala va nazariyani o‘rganishning eng og‘ir qismi, berilgan shartlar to‘plamiga mos keluvchi shaklni yasab olishdadir. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, bu qiyinchiliklarni yengishda geometrik masalalarda tayyor tasvirli masalalardan foydalanish kerak. Masalani chizma va unga shartlarni ko‘rgazmali taqdim qilinishi o‘quvchilarga tezroq uning mazmuniga kirishga va uni yechishga imkon beradi. Bunda chizmani chizishga vaqt sarflashning hojati yo‘q, bu esa darsning bir qismini egallaydi va ba’zida qiyinchiliklar tug‘diradi.

“Ba’zida o‘quvchiga chizmani yasashdan ko‘ra masalani yechish osonroq tuyuladi, shuning uchun tayyor chizmalardan foydalanish foydalidir. Bu masalalar o‘qituvchidan kam o‘quv vaqti sarflab katta hajmdagi materialni takorlash imkoniyatini beradi” degan fikrlarini bildiradi E.N.Balayan[4].

Rivojlangan mamlakatlar tajribasida shuni ko‘ramizki, ularda matematikani o‘qitishda, masalan, Germaniya ta’limida masalalar kundalik turmush tarzidan, real voqealar asosida beriladi[3].

O‘quvchilarni fanni o‘rgatish barobarida kundalik turmush hayotiga ham tayyorlab boradi. Bu vazifalar atrofdagi hayotning turli jihatlariga taalluqli haqiqiy muammoli vaziyatlarga yaqin bo‘lib, maktab hayoti, jamiyat, o‘quvchilarning shaxsiy hayoti, kasbiy faoliyat, sport va hokazolar haqida ma’lumot beradi.

Matematikani o‘qitishda tasvirli masalalardan foydalanish o‘qitish jarayoniga quyidagicha ijobiy ta’sir etadi:

1) o‘quvchilarning bilim olish sur’atini oshiradi;
2) dars davomida vaqtdan unumli foydalanadi;
3) dars ko‘rgazmali ko‘rinishida o‘tiladi;
4) o‘quvchilarning darsga qiziqishi ortadi;
5) o‘quvchilarda fazoviy tasavvur yaxshi rivojlanadi;
6) o‘quvchilarda kreativ qobiliyat tez o‘sadi.

Matematikani o‘qitishda tasvirli masalalardan foydalanish dars davomida vaqtdan unumli foydalanish imkonini beradi bu esa dars samaradorligini oshiradi. Har bir darsga oldindan o‘qituvchi masala berilishini slaydlar ko‘rinishida yoki doskada chizmalarni tayyorlaydi. Bunday masalalarni yechishga darsning boshida 8-12 daqiqa ajratiladi. Ba’zi masalalar o‘qituvchi imkoniyatiga qarab matematik diktantlar ko‘rinishida hamda darsda yoki uyda o‘quvchilar bilan individual ish sifatida taklif etilishi mumkin.

Masalaning tasvirli ko‘rinishida berilishi uchun ta’lim tamoyilining ko‘rgazmalilik metodidan foydalaniladi. Bugungi kunda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish yo‘lga qo‘yilayotgani bois ta’limda ko‘rgazmalilik metodidan foydalanish dolzarb masala hisoblanadi. Bu jarayonda ko‘rgazmalilikda tasvirlardan foydalanmaslikning iloji yo‘q, chunki bu metod katta ahamiyat kasb etadi, ya’ni boshqa metod turlariga qaraganda, ancha oson, qulay va o‘quvchi uchun tushuntirish ishlarida qiyinchiliklarni hal etish birmuncha osonroq. O‘qituvchi bayon qilayotgan mavzuni o‘quvchi ko‘rgazmali qurollar yordamida tinglashdan tashqari, to‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lib, uni ko‘ra oladi va to‘liq tasavvur etadi. Bu esa o‘quvchining bilim olishida samarali natijalarni keltirib chiqaradi[2].

Matematikani o‘qitishda ta’limning ko‘rgazmalilik metodidan foydalanishning maqsadi – avvalo o‘quvchilarni har tomonlama komil inson sifatida tarbiyalash, ta’lim samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning mavzularni oson va tez hamda sifatli o‘zlashtirishni ta’minlash, pedagoglarning mahoratini oshirish, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirish, ta’lim-tarbiyaning har xilligini ta’minlash, ya’ni noan’anaviy ta’lim tizimini yaratish, o‘qituvchi va o‘quvchi orasida do‘stona munosabatni shakllantirish, o‘quvchilarga ijodiy fikrlash, mustaqil ravishda o‘zining bilimini, fikrini erkin bayon qilishga imkon yaratish kabilardan iborat[2].

Zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ma’lumotlarni tasvir ko‘rinishida taqdim etish va fikrlash jarayonini tashkil etish o‘quvchilarning aqliy rivojlanish darajasini yuqoriga ko‘taribgina qolmasdan, an’anaviy o‘qitish o‘rtasidagi nisbatni o‘zgartirishga ham olib keladi. Ehtimol bunday o‘qitish an’anaviy metodikaga nisbatan ma’lumotlarni inson aqliy rivojlanishining yangi shaxobchasiga mos keladigan obrazli ko‘rinishda taqdim etishi, muloqot tillari bilan bog‘liq muammolarni yechishga va jahondagi kommunikativ jarayonlarning rivojlanishiga olib kelishi mumkin[6].

Axborot texnologiyalaridan unumli foydalana olish hozirgi zamon o‘qituvchilariga qo‘yilayotgan asosiy talablaridan biridir. Ayni vaqtda ta’lim jarayonida axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishi jiddiy yo‘lga qo‘yilganligi diqqatga sazovor. Geometriya darslarida tasvirli masalalardan foydalanib o‘qitishda o‘qituvchidan darsga tayyorgarlik jarayonida birmuncha mehnat talab qilinadi.


Masalan, ***“3D Cabri”*** dasturidan foydalanish bir muncha oson. Ushbu dastur eng sodda interfeysga ega bo‘lib, bu geometrik chizmalarni chizishda qo‘l keladi.

Stereometriya kursiga ta’luqli bo‘lgan tasvirli masalalardan namuna keltiramiz.

1-masala. Piramidaning asosi kavdrat bo‘lib, uning yuzi 36 sm^2 ga teng. Piramida balandligi $\sqrt{3}\,sm$ ga teng bo‘lsa (1-rasmga qarang), piramidaning apofemasi va asos tekisligi orasidagi burchakni toping?

Masalani yana dasturdan foydalanib chizmani modellashtiramiz:

Masalaning yechilishi: Kvadrat tomonlari $AB=BC=AD=DC$, yuzini topish formulasiga ko‘ra $S=a^2$ demak, kvadrat tomoni $a=6\ sm$ ekan ma’lum. FO balandlik asosining



1-rasm.

markaziga tushganligi sababli OG kesma kvadrat tomonining yarmiga teng bo‘ladi. $OG=\frac{AB}{2}=\frac{6}{2}=3\ sm$. To‘g‘ri burchakli FOG uchburchakdan $tg\varphi=\frac{OF}{OG}=\frac{\sqrt{3}}{3}$, $\varphi=30^{\circ}$ ga teng bo‘ladi.

Hozirgi kunda dars mashg‘ulotlarini olib borishda har xil turdagi pedagogik texnologiyalardan foydalanilib kelinmoqda. Bu dastur ham noan’anaviy dars mashg‘ulotlarini o‘tkazishga misol bo‘la oladi, chunki bu dasturni dars vaqtlarida foydalanishda kompyuter texnik vositalari qo‘llanilishini talab etadi. Shunday ekan, umumiy o‘rta ta’lim maktablari va akademik litsey o‘qituvchilarga bunday texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishni tavsiya etamiz. O‘ylaymizki, bu dastur yordamida o‘quvchilar geometrik masalalarni osongina

hal etishadi va ularning dars mashg‘ulotlariga va umuman geometriyaga qiziqishlari ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.04.2019 yildagi PF-5712-son.
2. Alixonov S. Matematika o‘qitish metodikasi. –Toshkent: Cho‘lpon. 2011.
3. Arno Lergenmuller. Mathematik neue wege 8 arbeitsbuch fur gymnasien. –Berlin: Schroedel. 2008.
4. Балаян Э.Н. Геометрия: задачи на готовых чертежах для подготовки к ГИА и ЕГЭ: 7-9 классы. Изд. 5-е, исправл. и дополн. -Ростов на Дону: Феникс. 2013.
5. Ikromov J. Geometrik isbotlash metodlari. –Toshkent: O‘qituvchi. 1970.
6. Lutfillaev M.X. Multimediyali elektron o‘quv adabiyotlarda o‘qitish metodikasi // Uzluksiz ta’lim. –Toshkent: №4, 2002.
7. Pogorelov A.V. Geometriya. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari 7-11 sinflari uchun darslik. –Toshkent: O‘qituvchi. 1994.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Xakimjonov Mavlonbek Xusanboy o'g'li
Andijon davlat pedagogika instituti,
jismoniy tarbiya va xotin-qizlar sporti kafedrasi o'qituvchisi

OLIY TALIM MUASSALARIDA STIREET WORKOUT SPORT TURINI OMMALASHTIRISH ORQALI TALABALARNI JISMONIY FALOLIGINI OSHIRISH

Annotatsiya:*Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida ko'cha sportini ommalashtirish orqali talabalarning jismoniy chidamliligini oshirishning mumkin bo'lgan foydalari ko'rib chiqilgan. Ushbu faoliyatning keng tarqalgan va samarali shakli sifatida ko'cha sporti, talabalarning sog'lig'ini yaxshilash, jismoniy faolligini oshirish va umumiy farovonligini ta'minlashga hissa qo'shishi mumkin. Maqolada, shuningdek, universitetlar o'quv dasturlariga va talaba hayotiga ko'cha sporti dasturlarini integratsiya qilishning ahamiyati va muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun kerakli metodlar muhokama qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Ko'cha sporti, jismoniy chidamlilik, oliy ta'lim, talaba salomatligi, jismoniy faollik, ochiq sportlar, universitet dasturi, farovonlik.*

Хакимжанов Мавлонбек Хусанбой угли
Андижанский государственный педагогический институт,
преподаватель кафедры физической культуры и женского спорта

ПОВЫШЕНИЕ ФИЗИЧЕСКОЙ РАБОТОСПОСОБНОСТИ СТУДЕНТОВ ЗА СЧЕТ ПОПУЛЯРИЗАЦИИ УЛИЧНЫХ ТРЕНИРОВОК В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Аннотация: *В статье рассматриваются потенциальные преимущества повышения физической выносливости студентов путем популяризации уличных видов спорта в высших учебных заведениях. Будучи распространенной и эффективной формой этой деятельности, уличные виды спорта могут способствовать укреплению здоровья учащихся, повышению их физической активности и обеспечению их общего благополучия. В статье также обсуждается важность интеграции программ уличного спорта в университетские учебные программы и студенческую жизнь, а также методы, необходимые для успешной реализации.*

Ключевые слова: *уличные виды спорта, физическая выносливость, высшее образование, здоровье студентов, физическая активность, спорт на открытом воздухе, университетская программа, благополучие.*

Khakimjonov Mavlonbek Khusanboy ugli
Andijan State Pedagogical Institute,
teacher of the Department of physical education and women's sports

INCREASE THE PHYSICAL FALLIBILITY OF STUDENTS BY POPULARIZING THE SPORT OF STIREET WORKOUT AT HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Abstract: *This article examines the potential benefits of increasing students' physical endurance through the popularization of street sports in higher education institutions. As a widespread and effective form of this activity, street sports can contribute to improving students' health, increasing physical activity, and ensuring their overall well-being. The article also discusses the importance of integrating street sports programs into university curricula and student life, and the methods necessary for their successful implementation.*

Keywords: *Street sports, physical endurance, higher education, student health, physical activity, outdoor sports, university program, well-being.*

Kirish.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning jismoniy salomatligi ularning umumiy muvaffaqiyatlari va farovonligi uchun juda muhim omil hisoblanadi. Jismoniy chidamlilik, ya'ni talabalarning jismoniy faollikni saqlash va sog'lig'ini yaxshilash qobiliyati, talaba hayotining muhim jihatlaridan biridir. So'nggi yillarda, kompyuter texnologiyalari, akademik bosimlar va jismoniy faollikning

cheklanishi sababli yoshlar o‘rtasida turli sog‘liq bilan bog‘liq muammolar kuzatilmoqda. Ushbu masalani hal qilish uchun universitetlarda turli xil jismoniy faoliyatlar ommalashtirilishi zarur.

Bunday faoliyatlardan biri – ko‘cha sporti, ya'ni minimal jihozlar bilan bajariladigan kalistenika uslubidagi jismoniy mashqlar. Bu sport turi talabalarga qimmatbaho sport zaliga yozilmasdan turib, o‘zlarini jismoniy jihatdan yaxshi holatda saqlash imkonini beradi. Ushbu maqola ko‘cha sportining talabalarda jismoniy chidamlilikni oshirishdagi potensialini va uning jismoniy salomatlikka qanday hissa qo‘shishini o‘rganishga qaratilgan.

Muhokama va natijalar.

Hozirgi kunda talabalar orasida jismoniy faollik darajasi pasayib bormoqda. Ko‘pchilik talabalar vaqtining katta qismini o‘qish va kompyuter oldida o‘tkazadi, bu esa sog‘liq muammolariga olib kelishi mumkin. Ushbu muammoga qarshi kurashish va talabalarning jismoniy faolligini oshirish maqsadida Street Workout (ko‘cha gimnastikasi) sportini oliy ta'lim muassasalarida ommalashtirish zarur.

Street Workout arzon, ommaviy va har kim uchun ochiq bo‘lib, tananing tabiiy harakatlariga asoslangan mashg‘ulotlar majmuasini o‘z ichiga oladi. Ushbu strategiyada universitet va oliy ta'lim muassasalarida Street Workout sportini joriy etish yo‘llari tavsiflanadi.

Tashkiliy ishlar va rasmiy qo‘llab-quvvatlash

Universitet rahbariyati bilan kelishuv

- Street Workout sportini universitet sport dasturiga kiritish.

- Universitetning sport departamenti bilan hamkorlik qilish.

- Universitetning jismoniy tarbiya darslarida ushbu sport turidan foydalanish imkoniyatlarini o‘rganish.

Street Workout to‘garaklarini tashkil etish

- Universitetda talabalar uchun Street Workout bo‘yicha muntazam sport to‘garaklarini yo‘lga qo‘yish.

- Murabbiylarni jalb qilish va trenerlar bilan ish olib borish.

- Talabalar uchun bepul darslar va seminarlar tashkil qilish.

Fakultetlararo musobaqalar o‘tkazish

- Talabalar o‘rtasida doimiy Street Workout musobaqalarini tashkil qilish.

- Musobaqalarda eng faol talabalarni rag‘batlantirish va mukofotlash tizimini ishlab chiqish.

- Universitet miqyosida har yili Street Workout festivallarini uyushtirish.

Infratuzilmani rivojlantirish

Street Workout maydonchalarini yaratish

- Universitet hovlisida Street Workout uchun maxsus jihozlar (turniklar, parallel panjaralar) o‘rnatish.

- Universitet sport majmualarida Street Workout uchun maxsus joylar ajratish.

- Talabalarning bu maydonchalardan bepul foydalanish imkoniyatini yaratish.

Mavjud sport inshootlaridan foydalanish

- Universitetning mavjud sport zallarini Street Workout mashg‘ulotlari uchun moslashtirish.

- Yopiq sport inshootlarida qishki mavsum uchun sharoit yaratish.

Targ‘ibot va ta'lim ishlari

Street Workout foydalari haqida xabardorlikni oshirish

- Universitet ichida plakatlar, bukletlar va bannerlar orqali Street Workout targ‘iboti.

- Ijtimoiy tarmoqlarda Street Workout mashg‘ulotlarining foydalarini yorituvchi postlar joylashtirish.

- Universitet sayti va media kanallarida ushbu sport turi haqida ma’lumot tarqatish.

Seminarlar va treninglar o‘tkazish

- Professional Street Workout sportchilarini universitetga taklif qilish.

- Master-klasslar va seminarlar tashkil etish.

- Sportning jismoniy va ruhiy salomatlikka ta’siri bo‘yicha ilmiy anjumanlar o‘tkazish.

Rag‘batlantirish va motivatsiya yaratish

Eng faol talabalarni mukofotlash

- Street Workout bo‘yicha yaxshi natijalarga erishgan talabalarni sertifikatlar va medallar bilan taqdirlash.

- Universitet tomonidan faol ishtirokchilarga sport kiyimlari yoki maxsus sport anjomlari sovg‘a qilish.

- Eng yaxshi natijalarga erishgan talabalarni stipendiyalar yoki boshqa rag‘batlantirish tizimlari orqali qo‘llab-quvvatlash.

Universitetning ijtimoiy hayotiga integratsiya qilish

- Universitetdagi madaniy va sport tadbirlarida Street Workout chiqishlarini uyushtirish.

- Talabalar orasida Street Workout bo‘yicha shaxsiy muvaffaqiyat hikoyalarini targ‘ib qilish.

- Universitet gazetalari, bloglar va ijtimoiy tarmoqlarda faol talabalar bilan intervyular e’lon qilish.

Oliy ta'lim muassasalarida Street Workout sportini ommalashtirish nafaqat talabalar jismoniy faolligini oshirish, balki sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishga ham xizmat qiladi. Universitetda Street Workoutni rivojlantirish uchun rasmiy qo‘llab-quvvatlash, sport infratuzilmasini rivojlantirish, targ‘ibot ishlarini olib borish, talabalarni rag‘batlantirish va raqamli texnologiyalardan foydalanish lozim. Ushbu strategiyalar amalga oshirilsa, talabalar jismonan baquvvat, sog‘lom va ijtimoiy jihatdan faollashadi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, ko‘cha sporti talabalarda jismoniy chidamlilikni oshirishda samarali vosita bo‘lishi mumkin. Ko‘cha sportining kam xarajatli, moslashuvchan tabiati talabalarga sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda yordam beradi, ayniqsa sport zallariga a'zo bo‘lish imkoniyati cheklangan talabalarga.

Shuningdek, ko‘cha sportining jamoaviy jihati, ko‘pincha ochiq havoda yoki maxsus sport maydonlarida amalga oshiriladigan mashg‘ulotlar, talabalarga motivatsiya va yuksak ruhiy holatni ta'minlaydi.

Biroq, ko‘cha sportining oliy ta'lim muassasalarida muvaffaqiyatli integratsiyasi ba'zi qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. O‘quv dasturlariga kiritish, zarur tashkiliy va infratuzilma resurslarini ta'minlash, malakali instruktorlarni tayyorlash va talabalar orasida xabardorlikni oshirish kabi masalalarni hal qilish zarur.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, ko‘cha sporti talabalarda jismoniy chidamlilikni oshirishda samarali vosita bo‘lib, uning ommalashishi orqali universitetlar talabalarga sog‘lom va faollikni rivojlantiruvchi turmush tarzini taqdim etishlari mumkin. Bu esa umumiy jismoniy va ruhiy salomatlikni yaxshilashga olib keladi. Ko‘cha sportini universitetlarning qo‘shimcha faoliyatlari sifatida kiritish talabalarning umr bo‘yi davom etadigan jismoniy faoliyat odatlariga asos solishga yordam beradi.

Oliy ta'lim dasturlariga integratsiya: Ko‘cha sportini jismoniy tarbiya dasturlariga kiritish, talabalarga uning foydalari haqida erta tanishish imkonini beradi.

Infratuzilmani rivojlantirish: Universitetlar ko‘cha sportini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ochiq sport maydonlarini yaratish va uskunalar bilan ta'minlashlari lozim.

Xabardorlik kampaniyalari: Talabalarga ko‘cha sportining jismoniy va ruhiy salomatlikka foydalari haqida ma'lumot beruvchi kampaniyalar tashkil etish.

Instruktorlar tayyorlash: Jismoniy tarbiya mutaxassislari uchun ko‘cha sporti bo‘yicha maxsus kurslar tashkil etish.

Mahalliy jamoatlar bilan hamkorlik: Universitetlar mahalliy parklari va jamoat markazlari bilan hamkorlikda umumiy ko‘cha sporti maydonlarini yaratishi mumkin.

Ushbu choralar orqali oliy ta'lim muassasalari talabalarning jismoniy faolligini oshirishda muhim rol o‘ynashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. — Toshkent: Ma’naviyat, 2008. — 192 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ–4477-son qarori "O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida".
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 10-yanvardagi 11-son qarori “Oliy ta’lim muassasalarida sport va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
4. Ziyayeva G.M., Qosimova D.N. Talabalarni jismoniy tarbiya darslarida sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirish. // Jismoniy tarbiya va sport ilmiy-amaliy jurnali, 2021, № 2. — B. 45-50.
5. Normurodov I.N. Street workout sport turi va uning yoshlar salomatligiga ta'siri. // “Sport va ilm” jurnali, 2022, № 3. — B. 101-107.
6. Mamatqulov A.X. Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: 2020. – 256 b.
7. Soliev N.K., Axmedov B. Sport turlari va ularning yoshlar orasida ommaviyligini oshirish yo‘llari. // O‘zDJTI Ilmiy axborotnomasi, 2021, № 4. — B. 87-94.
8. World Street Workout & Calisthenics Federation (WSWCF) rasmiy veb-sayti: http://www.wswcf.org
9. Parkour va Street Workout asoslari. — Toshkent: Sport, 2019. — 144 b.
10. Zokirov M. Talabalar jismoniy faolligini oshirishda innovatsion uslublar. // Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. — Toshkent: 2023. — B. 123-127.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Abjalov Abdijabbor Maxammadiyevich
IIV Malaka oshirish instituti Maxsus kasbiy fanlar kafedrasi dotsenti

INNOVATSION RIVOJLANISH VA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING ROLI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimi muayyan makondagi ijtimoiy jarayonlar bilan uzviy bog'ligi, u bir vaqtning o'zida jamiyat xavfsizligini ta'minlash, fuqarolar osoyishtaligini muvofiqlashtirish va huquq-tartibotni tashkil qilish tavsifiga egaligi bilan ajralib turishi yoritib berilgan. Shuningdek, jamoat xavfsizligini ta'minlashda innovatsion mexanizmlar zarurati eng avvalo bevosita davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining o'zaro samarali hamkorligini ta'minlash uchun xizmat qilishi hamda bugungi zamonaviy dunyoda axborot kommunikatsiya vositalari jamoat xavfsizligini ta'minlashning yangi paradigmasi sifatida namoyon bo'lishi tahlil etilgan.*

Kalit so'zlar: *Innovatsion rivojlanish, jamoat, xavfsizlik, global, axborot, texnologiya, raqamli texnologiya, internet, ma'naviyat, xakerlar.*

Абжалов Абдиджаббар Махаммадиевич
Доцент кафедры специальных профессиональных наук
Института повышения квалификации МВД

РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ И ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Аннотация: *В данной статье поясняется, что система обеспечения общественной безопасности неразрывно связана с социальными процессами в конкретной сфере, ее отличают особенности обеспечения общественной безопасности, координации спокойствия граждан и организации правопорядка одновременно. Также анализируется, что необходимость инновационных механизмов обеспечения общественной безопасности служит обеспечению эффективного сотрудничества государственных органов и институтов гражданского общества, а также что в современном мире информационно-коммуникационные инструменты появляются как новая парадигма общественной безопасности.*

Ключевые слова: *Инновационное развитие, общественная, глобальная, информационная, безопасност, цифровые технологии, Интернет, духовност, хакеры.*

Abjalov Abdijabbor Makhammadievich
Associate professor of the Department of special professional
Sciences of the Institute of advanced training of the MIA

THE ROLE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN INNOVATION DEVELOPMENT AND ENSURING PUBLIC SAFETY

Annotation. *This article highlights the fact that the public security system is closely related to social processes in a given area, and is characterized by the simultaneous provision of public security, coordination of public order, and organization of law and order. It also analyzes the need for innovative mechanisms in ensuring public security, primarily to ensure effective cooperation between government bodies and civil society institutions, and the emergence of information and communication technologies as a new paradigm for ensuring public security in the modern world.*

Keywords. *Innovative development, Public, Security, global, Information, Technology, Digital Technology, Internet, spirituality, hackers.*

Jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimi muayyan makondagi ijtimoiy jarayonlar bilan uzviy bog'liq. U bir vaqtning o'zida jamiyat xavfsizligini ta'minlash, fuqarolar osoyishtaligini muvofiqlashtirish va huquq-tartibotni tashkil qilish tavsifiga egaligi bilan ajralib turadi. Jamoat xavfsizligini ta'minlashda innovatsion mexanizmlar zarurati eng avvalo bevosita davlat organlari va fuqarolik

jamiyati institutlarining o‘zaro samarali hamkorligini ta’minlash uchun xizmat qiladi.

Ma’lumki, har bir davlat o‘zining xavfsizlik tizimiga maqsadlilik, strategik yo‘naltirilganlik va samaradorlik tamoyillariga asoslangan yondashuvni joriy etishga intiladi. Zero, bunday yondashuvning asosini jamiyat xavfsizligi va barqarorligini ta’minlashga oid qabul qilingan qarorlarning sifati tashkil qiladi. Biroq, qo‘yilgan maqsad va vazifalarga doim ham erishib bo‘lmaydi. Bunga aksariyat hollarda, an’anaviy (eskicha) yondashuv jumladan, ma’muriy buyruqbozlikka asoslangan tizim, xavfsizlikni ta’minlashga zamonaviy uslublarning joriy etilmagani kabi omillar sabab bo‘ladi.

Shu ma’noda, jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini modernizatsiya qilish bevosita mazkur sohaga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni taqozo etadi. Bunday zarurat bugungi kunda axborot omili xavfsizlik sohasida ustuvor ahamiyat kasb etayotgani hamda jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta’minlash sohasida jahonda kuzatilayotgan innovatsion tendensiyalar bilan izohlanadi. Ayniqsa, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar tahlili, videotahlil tizimlari kabi zamonaviy texnologiyalar jamoat xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mutaxassislar fikricha, axborot-kommunikatsion texnologiyalardan (shu jumladan, Internet tarmog‘i) samarali foydalanish jamiyat taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi[1].

Darhaqiqat, bugungi zamonaviy sivilizatsiya texnogen mazmunga ega bo‘lib, u keng ko‘lamli texnologik yangiliklar asosida rivojlanmoqda. Dunyo mamlakatlari rivojlanishining zamonaviy muhim shartlaridan biri bo‘lgan innovatsion jarayonda elektron hukumat va “raqamlashtirish” strategiyasini oqilona va samarali amalga oshirish ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Jamiyatda ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarni tizimli va sifatli amalga oshirishda va ularning samaradorligini muntazam tarzda takomillashtirib borishda innovatsion mexanizmlar tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ta’kidlash kerakki, davlat boshqaruviga zamonaviy texnologiyalarni joriy qilishdan ko‘zlangan asosiy maqsad bir tomondan, “inson” omilini kamaytirish bo‘lsa, ikkinchi tomondan, davlatning xizmat ko‘rsatish vazifasini takomillashtirishdan iborat.

So‘nggi yillarda dunyoning ko‘plab davlatlarida davlat boshqaruvida autsorsing texnologiyasi qo‘llanmoqda. Bu amalda davlatning ayrim vazifa va vakolatlarining quyi shu jumladan, nodavlat sektorga o‘zaro shartnoma asosida o‘tkazilishi nazarda tutadi.

Davlat boshqaruvi tizimiga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishning ijtimoiy-siyosiy mohiyati avvalo, fuqarolarning davlat hokimiyatiga bo‘lgan ishonchining ortishida ko‘rinadi. Shuningdek, hokimiyat idoralarining faoliyatida tezkorlik hamda fuqarolar bilan o‘zaro hamkorlik qilish imkoniyati vujudga keladi va h.k. (jadval 1).

Jadval 1

Jamoat xavfsizligiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilinishining davlat boshqaruviga ustuvor jihatlari

Hukumat idoralari	Fuqarolar
Faoliyatning ochiq va shaffof bo‘lishi natijasida hokimiyatga fuqarolar tomonidan bosimning pasayishi	Hokimiyat faoliyatidan xabardorlik darajasining oshishi
Mavjud axborot va ma’lumotlardan tezkor hamda samarali foydalanish imkoniyati	Davlat xizmatidan foydalanishning sodda, qulay va tezkorligi
Barcha soha va bo‘g‘inlarda rejalashtirishning va boshqaruv qarorlarini qabul qilishning takomillashuvi	Boshqaruv qarorlari qabul qilishda daxldorlik hissining shakllanishi
Aholi bilan “qayta aloqa” mexanizmining yo‘lga qo‘yilishi	Hokimiyat idoralari bilan bevosita hamkorlik qilish imkoniyati
Hukumat to‘g‘risida jamoatchilik fikrini shakllantirish imkoniyati	Hukumat faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratining shakllanishi
Fuqarolarning hokimiyat idoralariga ishonchi darajasining oshishi	Hokimiyatning byurokratlashuvi va korrupsiya darajasining pasayishi
Hokimiyat idoralarada o‘zaro axborot almashinuvining soddalashuvi	Hokimiyat qarorlari bilan tanishish imkoniyatining yuzaga kelishi
Davlat boshqaruvining turli o‘zgarishlarga nisbatan moslashuvchanligi va raqobatbardoshligi ortishi	Fuqarolarda o‘z hukumatidan minnatdorlik va rozilik tuyg‘usining shakllanishi

Davlat boshqaruvi tizimiga zamonaviy texnologiyalar joriy etilishi bir qator vazifalarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Birinchidan, qulay infratuzilmani yaratish, jumladan Internet tarmog‘ini kengaytirish, uning sifatli ishlashini ta’minlash. Shuningdek, yirik ma’lumotlar bazasini shakllantirish *(Big Data)*;

Ikkinchidan, zamonaviy texnologiyalar bilan ishlay oladigan, ularni amalda qo‘llay oladigan mutaxassis-kadrlarni tayyorlash. Shu bilan birga, texnologiyalarning qisqa fursatlarda o‘zgarib yanada takomillashib

borayotganini inobatga olib, mutaxassislarning bilimlarini muntazam tarzda oshirib boradigan platformani yaratish;

Uchinchidan, davlat hokimiyati idoralarining aholiga xizmat ko‘rsatish turlarini muttasil kengaytirib borishi uchun o‘z vazifalarini “raqamli” texnologiyalarga moslashtirishi;

To‘rtinchidan, davlat hokimiyati idoralarida o‘zaro axborot almashinuvini onlayn (offlayn) shaklga o‘tkazish (bu ortiqcha qog‘ozbozlik va byurokratiyani kamaytiradi);

Beshinchidan, davlat boshqaruvi tizimining fuqarolar, fuqarolik jamiyati institutlari va OAV bilan o‘zaro hamkorlikka tayyorligi, jumladan bunda ochiqlik va hisobdorlik tamoyillarining ustuvorligi;

Oltinchidan, zamonaviy texnologiyalarning asosan axborot, shu jumladan Internet tarmog‘iga asoslanishini inobatga olgan holda aniq harakatlar algoritmidan iborat axborot xavfsizligini (kiberxavfsizlik) ta’minlash;

Ye*ttinchidan,* zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish uchun tegishli qonunchilik asoslarining mavjudligi va h.k.

Zamonaviy mamlakatlarni ijtimoiy-siyosiy hamda iqtisodiy modernizatsiya qilishdagi yangi yo‘nalishlar olimlar tomonidan turli davrlarda o‘rganib kelingan. Xususan, Y.Shumpeter g‘oyasiga asoslangan innovatsion iqtisodiyot[2], AQShlik olim D.Bell tomonidan asoslangan postindustrial jamiyatning rivojlanish tendensiyalari[3], J.Xokinsning bilimlar iqtisodiyoti yoki kreativ iqtisodiyot nazariyasi[4], Y.Benklerning “Digital Economy” deb nomlangan ilmiy ishi[5] hamda D.Tepskott tomonidan o‘rganlgan raqamli iqtisodiyot[6] shular jumlasidandir.

Ta’kidlash kerakki, so‘nggi yillarda jamoat xavfsizligini ta’minlashning yangi paradigmasida inson huquqlarini himoya qilish (gumanitar) va texnologik (infratuzilmaviy) omillar yetakchi (dominant) ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Ayni paytda, xavfsizlik tizimining kommunikativ vazifasi markaziy o‘ringa chiqmoqda. Zero, u huquqni muhofaza qiluvchi organlarning jamoatchilik bilan o‘zaro aloqalarini tartibga solib turishda va shu orqali fuqarolarning xavfsizligini ta’minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishda katta o‘rin tutadi.

Ushbu jarayondagi muhim jihatlardan yana biri xavfsizlik organlarining jamoatchilik oldidagi hisobdorligi darajasi ortib bormoqda. Bu esa o‘z navbatida, jamoat xavfsizligini ta’minlashda fuqarolar ishtirokini kengaytirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va fuqarolarning huquq-tartibotni saqlashdagi faol ishtirokini rag‘batlantirishga xizmat qilmoqda.

Ayni paytda, AKT tizimlarini davlat boshqaruviga joriy etish davlat boshqaruvining ichki idoraviy yo‘naltirilganligidan fuqarolarning ehtiyojlariga yo‘naltirishni taqozo etadi[7]. Bu esa o‘z navbatida, demokratik taraqqiyotning asosini tashkil qiladi, zotan bunda inson manfaati markaziy o‘rinni egallashini ko‘rish mumkin.

Аннотация. *В основе логической связи между математической подготовкой студентов и подготовкой их к профессии учителя мы понимаем, что будущие учителя математики прежде всего приобретают математические знания. Эта связь по своей структуре и содержанию определяет, что все преподаваемые в университетах разделы математики должны преподаваться во взаимной связи и сотрудничестве, дополняя друг друга.*

Ключевые слова: *логика, творчество, психолого-педагогический, интенсификация, правила, аффирмации, формулы, знания, практика.*

Abdumumin Abdurahmanov
Department of cardu Algebra and geometry v.b.professor
Oybek Khurramov
KarSU Teacher of the Department of Algebra and geometry

THEORETICAL PRINCIPLES OF FORMING SPECIAL SKILLS OF FUTURE MATHEMATICIANS

Abstract. *At the core of the logical connection between students' mathematical training and their preparation for the teaching profession, we understand that future mathematics teachers first and foremost acquire mathematical knowledge. This connection, in its structure and content, determines that all sections of mathematics taught at universities should be taught in mutual connection and cooperation, complementing each other.*

Key words: *logic, creativity, psychological and pedagogical, intensification, rules, affirmations, formulas, knowledge, practice.*

Bakalavrlarning matematik tayyorgarligi bilan pedagogik kasbiga tayyorgarligi orasidagi mantiqiy bog'lanishning asosi sifatida biz bo'lajak matematika o'qituvchilarini eng avvalo, matematik bilimlarni o'zlashtirganligini tushunamiz. Bu aloqadorlik o'zining tarkibi va mazmuni bo'yicha universitetlarda o'qitilayotgan matematikaning barcha bo'limlarini o'zaro aloqadorlikda va hamkorlikda bir-birini to'ldirgan holda o'rgatilmog'i lozimligini belgilab beradi. Bunday o'qitish o'z o'rnida maktab, akademik litsey, kasb-hunar

kollejlaridagi matematika kursidan olgan bilimlariga suyanadi. Bu bilimlar matematikadan va uni o‘qitish metodikasidan ma’ruzalar o‘qish, amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish, laboratoriya ishlarini tashkil etishda, talabalarni ijodiylik va izlanuvchanlik faoliyatlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan muammoli usullardan foydalanishga, matematik masalalarni yechishni va teoremalarni isbotlash usullaridan ratsional foydalana olishni o‘rgatishga, maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlarida matematika o‘qitish kasbiga yo‘naltirilganligini shakllantirish va o‘qitishda didaktik va metodik tamoyillarni keng qo‘llashga zamin yaratadi.

Matematik bakalavrlarni kasbiy tayyorlash uchun matematika, psixologiya, pedagogika fanlari orasida o‘zaro aloqadorlik bo‘lishi uchun didaktik va uslubiy shart-sharoitlar yaratilishi zarur.

Didaktik shart-sharoit deganda, biz matematikani boshqa fan asoslari bilan o‘zaro aloqadorlikda, muvofiqlashtirilgan tizim asosida, mazmunan tasniflangan holda o‘qitishni tushunamiz. Uslubiy shart-sharoit deganda, o‘qitilayotgan mavzuni ochish uchun umumiy yondoshishlar, matematikaning xarakterli holatlari va informatsiyani berish uchun sharoitlar yaratish, shuningdek, o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini tashkil etishni tushunamiz. Shunday qilib, bakalavr matematiklarni tayyorlashda birinchi o‘rinda ularning matematikadan tayyorgarligi hamda bo‘lajak matematika o‘qituvchisi kasbiy tayyorgarligini shakllantirish vazifasi qo‘yiladi. Matematik tayyorgarligi deganda-matematik tasdiqlar, qoidalar, qonuniyatlarni har bir talaba erkin o‘zlashtirganligi va ularni boshqa fanlarga tatbiq qila bilishlarini tushunilsa, kasbiy tayyorgarlik deganda, ta’limning kasbga yo‘naltirilganligini, uning mazmuni, usullari va tashkil etilishi talabalarda bo‘lg‘usi pedagogik faoliyatlari uchun zarur bo‘ladigan shaxsiy sifatlarni uyg‘otish va shakllantirish nazarda tutiladi. Talabalarda dasturda belgilab qo‘yilgan bilim, malaka va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishlari va shakllantirishlarini ta’minlash o‘ziga xos pedagogik vositalardan foydalanishni taqozo etadi. Bu esa qaralayotgan muammoni ham psixologik-pedagogik, ham didaktik, ham metodik nuqtai-nazardan o‘rganishga olib keladi.

Bakalavr matematiklarni tayyorlashning o‘ziga xos xususiyatlarini ta’kidlash bilan birga mustahkam kasbiy bilim va malakaga ega bo‘lish uchun psixologiya va fiziologiya, pedagogika va falsafa, texnika fanlari sohalarida ham keng va asosiy bilimlar berish zarurligini qayd etamiz. Bu talablardan kelib chiqqan holda ma’ruza va amaliy mashg‘ulot darslarida bakalavr matematiklarni tayyorlash bizning fikrimizcha, matematikani va uning amaliy yo‘nalishlarini o‘rganish psixologik-pedagogik konsepsiyaga yo‘naltirilgan bo‘lishi, o‘quv predmetlarini o‘rganishda tafakkur faoliyatining psixologik-pedagogik asoslariga suyanganligi, matematik tushunchalarni o‘zlashtirish va kasbga yo‘naltiruvchi omillarni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlariga amal qilish, kasbiy faoliyatning usullarini matematika bilan psixolo-pedagogik tushunchalarni o‘zaro aloqadorligida takomillashtirishga qaratilmog‘i kerak.

Ma’lumki, ma’ruza davomida o‘quv mavzulari ma’lum tizimda va ketma-ketlikda bayon etiladi, ya’ni tushunchalar matematik qonuniyatlarning yaxlitligi va bir butunligiga asoslangan holda qat’iy o‘zaro bog‘liqlikda taqdim etiladi. Talabalar buni yaxshi sezadilar va tushunadilar. Amalda matematik tasdiqlar va formulalar turli psixologik tushunchalarni matematik bilan uyg‘unlashgan holda o‘rganish va bunda ta’limning pedagogik shakli va usullaridan foydalanish talabalarning ongiga yetkazilishiga va matematik bilimlar sifatida o‘zlashtirilishiga olib keladi. Demak, talabalarning bilim olish faoliyati bir qancha psixologik va pedagogik komponentlarga asoslanadi. Bular o‘zaro aloqadorlikda va birgalikda talabalarning fikrlash va kasbiy faoliyatlarini ishga soladi, bilim olish faoliyatining malaka va ko‘nikmalarini shakllantirishda faol ishtirok etadi, o‘z faoliyatlarini boshqarishda, bilim olish faoliyatlari maqsadi va vazifalarini aniqlashda, samaradorligini baholashda va nazorat qilishda bevosita ishtirok etadilar. Jumladan, matematik mavzuni o‘rganish davomida talaba uning mazmunida bo‘lgan matematik tasdiqlarni tahlil qiladi, taqqoslaydi va qarama-qarshi qo‘yadi, matematik masalani yechish usullarini izlab topadi, fanning boshqa sohalariga oid masalalarni yechishga tatbiq qilish imkoniyatlarni aniqlaydi, ularning samaradorligini baholaydi.

Bakalavr matematiklarni kasbiy tayyorlash jarayonini intensifikatsiyalash maqsadida ta’limning kasbiy yo‘nalganligini faollashtirig nafaqat matematikani o‘qitishda, balki u bilan, kasbiy tayyorlash uchun, aloqador bo‘lgan hamda matematikaning qoidalarini va qonuniyatlarini shakllantirishda falsafa, psixologiya, pedagogika va boshqalarning bevosita ishtirokida amalga oshiriladi.

Matematikani pedagogik va psixologik fanlar bilan o‘zaro aloqadorlikda o‘qitish talabaga bir tomondan matematikadan o‘quv mavzularini o‘qitishning usullari, vositalari va boshqa shakllarini o‘zlashtirish imkonini bersa, ikkinchi tomondan qonuniyatlarni, bilish usullarini egallashga imkoniyat yaratib, birgalikda pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirishga sharoit tug‘diradi. Bunda talabalar nafaqat matematikani o‘rganishning asosiy usullarini, balki zarur bo‘lgan kasbiy malaka va ko‘nikmalarni ham egallaydilar. Bu holat matematikadan masalalar yechish metodlarida va nazariy hamda amaliy o‘quv materiallari o‘rtasida o‘zaro aloqadorlik o‘rnatilganda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Bakalavr yo‘nalishidagi matematiklarning matematikaviy va professional-pedagogik tayyorgarliklarining o‘zaro aloqadorligini kuchaytirish uchun quyidagilarning bajarilishi muhim hisoblanadi:

- matematika va kasbga yo‘naltiruvchi fanlar asoslarining, bilim olish faoliyati usullarining, professional-pedagogik bilimlar va ko‘nikmalar tushunchalarining tizimi yagonaligi;

- texnika, iqtisod va boshqa turdosh fanlar bo‘yicha matematika va kasbga yo‘naltiruvchi ilmiy asoslangan va sinovdan o‘tgan tushunchalarning shakllanganligi;

- oliy o‘quv yurti va maktab matematika ta’limining ketma-ketligi va uzviy ligi;

- professional-pedagogik tayyorgarlikka yo‘naltirilgan, pedagogik tafakkur rivojlanishining muhim shakli sifatida nazariya bilan amaliyotning birligi.

Matematikani o‘qitishda analiz va sintez matematik qonuniyatlarni, qoida va tasdiqlarni va ularning aloqalarini o‘rganish usuli sifatida ishtirok etadi. Hodisalarning mazmunini qaralayotgan tasdiqlarga nisbatan modelini yaratish yo‘llarini aniqlab beradi. O‘quv mavzularini o‘rganish va masalalarni yechish jarayonida talabalar dastlab qonuniyatlarni va tasdiqlarni tahlil qiladilar, ularni taqqoslaydilar, qiyosiy o‘rganadilar, o‘xshashlik alomatlarini izlaydilar, tasavvur qiladilar.

Matematikani o‘qitishda va masalalar yechishda aqliy faoliyatning turi sifatida taqqoslash o‘ziga xos o‘rin tutadi. Uning yordamida hodisa va predmetlarda alohida belgilar va xususiyatlar ajratilinadi, umumiy sifatlari o‘rganiladi. Taqqoslash, hodisa va predmetlarni mos va qarama-qarshi qo‘yishdan boshlanadi.

Talabalarning o‘quv faoliyatlarini faollashtirishda ta’limning turli ko‘rinishdagi muammoli metodlaridan foydalanish yaxshi samara beradi, bunda ularning ijodiy izlanuvchanlik xususiyatlari shakllanadi va rivojlanadi. Talabalarning mustaqil va shaxsiy ishlarini to‘g‘ri tashkil qilish va mustahkam zamin yaratadi. Matematikani o‘qitish jarayonida, amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazishda, uy vazifalarini bajarish, matematika adabiyotlar ustida ishlash, didaktik materiallar bilan ishlash, turli olimpiadalarda ishtirok etish davomida amalga oshirish mumkin.

Bakalavr matematiklarni kasbiy tayyorgarliklarini ta’min etishning asosiy shakllari-ma’ruza, amaliy laboratoriya, seminar mashg‘ulotlari, o‘quv-pedagogik amaliyot, kurs va bitiruv ishlarini yozish va himoya qilish, referatlar tayyorlash, munozaralar uyushtirish, didaktik o‘yinlar o‘tkazish, ilg‘or o‘qituvchilar bilan uchrashuvlar tashkil qilish, maktabda pedagogik tadqiqotlar o‘tkazish va boshqalardir. Bakalavr matematiklarni tayyorlashning bu shakllari ularning kasbiy malaka va ko‘nikmalarini takomillashtirishga xizmat qilish bilan birga, o‘z fanini chuqur va mustahkam biladigan, o‘qish va o‘qitishning turli zamonaviy usullari va vositalarini egallagan hamda o‘zining kasbiy faoliyatida ta’limning mazmuni, usullari, shakllari va vositalarini ratsional foydalana biladigan mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Oliy o‘quv yurtlarida malakali bakalavr yo‘nalishidagi matematiklarni tayyorlashning asosiy va yetakchi shakli ma’ruza mashg‘ulotidir. Ammo amaliy, laboratoriya va seminar mashg‘ulotlarida hamda mustaqil ta’lim shakllarida ham talabalarni zamonaviy fan yutuqlarini turmushga tatbiq etish muammolarini hal qilinishi bilan yaqindan tanishtirib borib kerak. Amaliy mashg‘ulotlarga bunday yondoshish ularda kasbiy malaka va ko‘nikmalarni shakllantirishda va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazishning asosiy maqsadi o‘quv mavzularini chuqur va mustahkam o‘zlashtirishni ko‘zda tutadi. Bu mashg‘ulotlarda o‘quv kursining yetarli darajada murakkab masalalari qaraladi, matematik tushunchalar rivojlantiriladi, mustahkamlanadi va umumlashtiriladi, nazariy va amaliy mazmundagi matematik masalalar yechiladi. Amaliy mashg‘ulotlarda talabalar ta’limning ilmiy metodlarini, o‘quv mavzularini mustaqil o‘zlashtirish, nazariy va amaliy masalalarni yechishning malaka va ko‘nikmalarini o‘rganadilar.

Amaliy mashg‘ulotlarning samaradorligi va sifatliligi ko‘p jihatdan talabalarning ijodiy faolligiga va to‘g‘ri tashkil etilganligiga bog‘liqdir. Amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rish davomida talabalarning maktab darsliklaridagi muayyan bo‘limlarini ishlab chiqishi, tegishli adabiyotlar bilan tanishishi, matematik masalalarni yechish usullari bilan bog‘liq bo‘lgan uslubiy bilimlarni mustaqil o‘rganib tayyorlangan bo‘lishlari nazarda tutiladi. Chunki talabalar amaliy faoliyati jarayonida o‘z diqqat e’tiborlarini, urinishlarini, masala yechimlarini izlashga qaratadilar, ijodiy faoliyatlarini namoyon etadilar, matematik tushunchalar, qoida va qonuniyatlar, fan ichida va fanlararo aloqadorlik haqidagi tasavvurlarini mustahkamlaydilar, shaxsiy kuzatishlari va xulosalarini nazariy, uslubiy tavsiyalarni va amaliy tatbiqlarni taqqoslashga o‘rganadilar.

Amaliy mashg‘ulotlar bakalavr matematiklarni tayyorlash muammolarini funksional aks ettirgan holda shunday tashkil etilishi kerakki, bunda ijodiy fikrlarning rivojlanishi uchun, qulay ratsional yechish usullarini mustaqil tanlashlari uchun keng imkoniyatlar yaratilmog‘i lozim. O‘rgatuvchi, rivojlantiruvchi va tarbiyalanuvchi funksiyalari mujassam bo‘lgan amaliy mashg‘ulotlar amaliy qobiliyatlarni rivojlantiruvchi tayanch bilimlar, malaka va ko‘nikmalarni faollantiruvchi umumiy didaktik tizimga ega.

Ushbu masalani yechimini tahlil qilamiz.

Masala. Jamoa xo‘jaligidagi mavjud bo‘lgan bir xil ish unumdorligiga ega bo‘lgan kombaynlar birgalikda ishlab, hosilni bir sutkada yig‘ishi mumkin. Lekin reja bo‘yicha birinchi soatda bitta, ikkinchi soatda ikkita, uchinchi soatda uchta kombayn ishlagan va hokazo. Hamda faqat hosil yig‘ini tugashiga bir necha soat qolgandagina barcha kombaynlar birga ishlagan. Agar beshta kombayndan tashqari barcha kombaynlar yig‘im-terim boshidan ishlaganida edi, reja bo‘yicha ish vaqti 6

soatga qisqargan bo‘lar edi. Jamoa xo‘jaligida necha kombayn bo‘lgan?

Jamoa xo‘jaligida n ta kombayn bo‘lsin, ularning har biri bir soatda hosilning $1\backslash x$ qismini yig‘ishtira olsin. U holda barcha kombaynlar birgalikda bir sutka ishlab barcha hosilni yig‘ishi mumkin. Shuning uchun

$$\frac{24n}{x}=1 \qquad (1)$$

tenglamani hosil qilamiz.

Amalda esa birinchi soatda bitta kombayn ishlab hosilning $1\backslash x$ qismini yig‘ishtirgan, ikkinchi soatda ikkita kombayn ishlab hosilning $2\backslash x$ qismini yig‘ishtirgan va hokazo. n-soatda n ta kombayn ishlab hosilning $n \backslash x$ qismini yig‘ishtirgan. Keyinchalik bir necha soat davomida (faraz qilaylik, m soat) barcha kombaynlar ishlab, shu m soatda hosilning qolgan nm/x qismini yig‘ishtirishgan. Shuning uchun

$$\frac{1}{x}+\frac{2}{x}+\cdots+\frac{n}{x}+\frac{nm}{x}=1. \qquad (2)$$

tenglamani hosil qilamiz.

Kombaynlar hammasi bo‘lib $(n+m)$ soat ish vaqtida barcha hosilni yig‘ishtirishgan. Agar $(n-5)$ ta kombayn ishlaganda edi, u holda ular hosilni $(n+m-6)$ soatda yig‘ishtirgan bo‘lar edi. Shuning uchun

$$\frac{(n-5)(n+m-6)}{x}=1 \qquad (3)$$

tenglamani hosil qilamiz.

Demak, biz quyidagi uch noma’lumli uchta tenglamalar sistemasiga ega bo‘ldik.

$$\begin{cases} 24n=x, \\ \dfrac{1}{x}+\dfrac{2}{x}+\cdots+\dfrac{n}{x}+\dfrac{nm}{x}=1, \\ (n-5)\,(n+m-6)=x. \end{cases} \qquad (4)$$

(4) tenglamalar sistemasi berilgan matnli masalaning matematik modelini ifodalaydi. Bu sistemani yechish uchun, uning ikkinchi tenglamasiga arifmetik progressiya hadlari yig‘indisini topish formulasini qo‘llab uni

$$\begin{cases} 24n=x, \\ \dfrac{(n+1)n}{2}+nm=x, \\ (n-5)(n+m-6)=x. \end{cases} \qquad (5)$$

ko‘rinishiga keltiramiz. Bu sistemadan x ni yo‘qotib va $n\neq 0$ ekanligin e’tiborga olib ushbu

$$\begin{cases} m+\dfrac{n+1}{2}=24 \\ (n-5)(n+m-6)=24n \end{cases} \qquad (6)$$

sistemani hosil qilamiz.

(6) sistemadan m ni yo‘qotish natijasida $n^2-18n-175=0$ ko‘rinishdagi n ga nisbatan kvadrat tenglamaga kelamiz. Bu tenglamani yechib, $n_1=25$ va $n_2=-7$ ildizlarni topamiz. Jamoa xo‘jaligidan kombaynlar soni n bo‘lgani uchun n musbat butun son bo‘lishi kerak. Shunga ko‘ra, masala shartini faqat $n=25$ qanoatlantiradi.

Yuqorida keltirilgan masalalarning yechilishi jarayonida shu narsa ma’lum bo‘ldiki, har qanday nostandart masalani yechish jarayoni quyidagi ikki asosiy operatsiyaning ketma-ket qo‘llanilishi orqali amalga oshiriladi:

1. Nostandart masalani unga ekvivalent bo‘lgan, lekin standart ko‘rinishga ega bo‘lgan masalaga almashtirish (bunda zarur bo‘lgan holda shakl almashtirishlar bajarish yoki masala mazmunini saqlagan holda matnning bayonini o‘zgartirish);

2. Nostandart masalani bir necha standart masalalarga bo‘laklab o‘rganish.

Masalaning murakkabligiga qarab bu operatsiyalarning birini yoki ikkalasini bir vaqtda tatbiq etish mumkin.

Umuman, matnli masalalarni yechish jarayonida o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularni quyidagilardan iborat deb bilamiz:

1. Berilgan masalani tahlil qilish orqali uning standart yoki nostandart turga mansub ekanligini aniqlash.

2. Masalaning yechish yo‘lini izlash va umumiy qoidalar (formulalar, ayniyatlar) yoki umumiy holatlar (ta’riflar, teoremalar) asosida yechish rejasini (rejalarini) tuzish.

3. Tuzilgan rejani berilgan masalaning shartlariga tatbiq etish orqali masalaning yechilishini amalga oshirish. Agar rejani amalga oshirish davomida biror-bir bosqich o‘zining bajarilishi uchun qo‘shimcha biror rejani amalga oshirishni taqozo etsa, u holda bu qadamga nisbatan ham xuddi shuningdek operatsiyalar bajariladi (turini aniqlash, yechish rejasini tuzish, yechishni amalga oshirish).

Shuning uchun bakalavr yo‘nalishidagi matematiklarni maktablar, litseylar va kollejlar hayotiga tayyorlashni takomillashtirishdagi imkoniyatlardan biri – bu o‘quv rejasida ko‘zda tutilgan maxsus seminar mashg‘ulotlarida talabalarni matnli algebraik masalalarni yechish metodikasini o‘rgatish sifatida qaradik.

Adabiyotlar.

1. Абдуллина О.А. Проблемы формирования педагогических умений и новыков у будущих учителей. –В кн. //Прблемы профессиональной подготовки студентов педвузов и университетов. –М.: Просвещение. -1976. –с. 43-48.

2. Абдукадиров А.А. Теория и практика интенсификации подготовки учителей физико-математических дисциплин //Автореф. Дисс.д.п.н. –Т.: ТГПИ им Низами. -1990. -43 с.

3. Архангельский С.И. Лекции по научной организации учебного процесса в высшей школе. –М.: Высшая школа. -1976. -200 с.

4. С.Алихонов Математика ўқитиш методикаси Тошкент 1992 й.

5. Ю.Колягин Методика преподования математика в ср.шк М 1974 г.

6. Т.Толаганов, А.Норматов Математикадан практикум Тошкент 1989 й.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Adxamova Oltinoy Rafiqjon qizi
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Tasviriy san'at yo'nalishi 1-bosqich magistranti
oltinoyadhamova@gmail.com

TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA KREATIV METODLARDAN FOYDALANISH USULLARI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tasviriy sanat darslarida kreativ metodlardan qanday foydalanish, bu metodlarning o'quvchilarning tasavvurlarini rivojlantirish va ijodiy yondashuvlarini kuchaytirishdagi o'rni tahlil etiladi. Kreativ metodlar tasviriy san'at ta'limida o'quvchilarning individual ijodkorlik salohiyatini oshirishga yordam beradi. Bu maqola, tasviriy sanat darslarida kreativ metodlarning amaliy jihatlari, ularni qo'llash usullari va samaradorligi haqida batafsil ma'lumot beradi.*

Kalit so'zlar: *Tasviriy san'at, kreativ metodlar, ijodkorlik, o'quvchilar, ta'lim usullari, didaktika, o'quvchilarning rivojlanishi, san'at pedagogikasi.*

Адхамова Алтыной Рафикжановна
Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами
Магистр изобразительного искусства 1-й ступени

СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТВОРЧЕСКИХ МЕТОДОВ НА УРОКАХ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА

Аннотация: *В данной статье анализируется использование творческих методов на занятиях изобразительным искусством, роль этих методов в развитии воображения учащихся и укреплении их творческих подходов. Творческие методы способствуют повышению индивидуального творческого потенциала учащихся изобразительного искусства. В данной статье представлена подробная информация о практических аспектах творческих методов на занятиях изобразительным искусством, методах их применения и эффективности.*

Ключевые слова: *Изобразительное искусство, творческие методы, творчество, учащиеся, методы обучения, дидактика, развитие учащихся, художественная педагогика.*

Adkhamova Altinoy Rafikjon kizi
Tashkent State Pedagogical University named after Nizami
Master of Fine Arts degree 1

METHODS OF USING CREATIVE TECHNIQUES IN FINE ARTS CLASSES

Abstract: *This article analyzes the use of creative methods in visual art classes, the role of these methods in developing students' imaginations and strengthening their creative approaches. Creative methods help to increase the individual creativity potential of students in visual arts education. This article provides detailed information about the practical aspects of creative methods in visual arts classes, their application methods and effectiveness.*

Key words: *Fine art, creative methods, creativity, students, educational methods, didactics, student development, art pedagogy.*

Kirish.

Tasviriy san'at darslari o'quvchilarning estetik va ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda tasviriy san'at o'qituvchilari ijodiy va innovatsion metodlarni o'quv jarayoniga kiritish zaruriyatini sezmoqdalar. Kreativ metodlar — bu o'quvchilarning o'z fikrlarini ifodalash, yangi g'oyalar yaratish, o'z qobiliyatlarini sinab ko'rish imkoniyatlarini taqdim etuvchi usullarni anglatadi. Ushbu maqolada tasviriy san'at darslarida kreativ metodlardan qanday samarali foydalanish mumkinligi va bu metodlarning o'quvchilarga ta'siri haqida so'z boradi. Kreativ metodlarning mohiyati va ahamiyati Tasviriy san'atda kreativ metodlar o'quvchilarga o'z g'oyalarini ochib berish, tasavvurlarini kengaytirish, yangi ko'nikmalarni o'rganish imkonini yaratadi. Kreativ metodlar orqali o'quvchilar ko'pincha o'zlarining didaktik jarayonlarda ishtirok etishlarini, turli tasviriy shakllarda ifodalash

imkoniyatlarini ko‘radilar. O‘quvchilar tomonidan yangi va innovatsion yondashuvlar yaratish, an'anaviy texnikalardan farqli bo‘lgan yondashuvlarni qo‘llash orqali ijodiy fikrlash rivojlanadi. Tasviriy san'at darslarida kreativ metodlarni qo‘llash usullari. Tasviriy san'at darslarida kreativ metodlarni qo‘llashning turli usullari mavjud. Ulardan ba'zilari quyidagilar: Boshqa san'at shakllaridan ilhomlanish: Tasviriy san'at darslarida musiqadan, teatr san'atidan, adabiyotdan ilhom olish o‘quvchilarni yangi ijodiy g‘oyalar bilan tanishtiradi.Dastlabki eskizlar yaratish: O‘quvchilarni boshlang‘ich eskizlar asosida tasvirlar yaratishga undash, ularning ijodiy jarayonini jonlantiradi va erkin fikrlashga yordam beradi.Gruppaviy ishlash: Darsda guruhlar orasida hamkorlikni rivojlantirish, fikr almashish va birgalikda yangi ishlanmalarni yaratish ijodiy rivojlanishga olib keladi.Mashqlar va experimentlar: Rasm chizishda turli materiallar va texnikalardan foydalanish o‘quvchilarga yangi tajribalar beradi va ularning ko‘nikmalarini oshiradi. Improvizatsiya va spontanlik: Tasviriy san'atda improvizatsiya o‘quvchilarga to‘liq erkinlik va o‘z tasavvurlarini yaratish imkonini beradi. Kreativ metodlarning pedagogik yondashuvdagi o‘rni Kreativ metodlar pedagogik yondashuvda o‘qituvchining roli, o‘quvchilarga qanday yordam berishi, ularning ijodiy salohiyatini qanday rivojlantirishi muhim masalalardir. Kreativ metodlar faqatgina texnikalar yoki mashqlarni qo‘llashdan iborat emas, balki o‘quvchilarning ichki motivatsiyasini oshirish, ular bilan o‘zaro muloqotda bo‘lish va individual yondashuvlarni amalga oshirishga asoslanadi. Kreativ metodlarning ta'lim samaradorligiga ta'siri. Tasviriy san'at darslarida kreativ metodlar o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini, mantiqiy tafakkurini va o‘zini ifodalash qobiliyatini oshiradi. Kreativ yondashuvlar yordamida o‘quvchilar nafaqat san'atning texnik jihatlariga, balki uning estetik va mazmuniy tomonlariga ham e'tibor qaratadilar. Bu esa o‘quvchilarning umumiy ta'lim rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi. Tasviriy San'atdan Kreativlik.

Adabiyotlar tahlili.

Kreativlik – bu yangi va original g‘oyalar, tasavvurlar, yoki ijodiy ishlanmalarni yaratish qobiliyati. Tasviriy san'at esa o‘ziga xos ijodiy jarayon bo‘lib, insonning ichki dunyosini ifodalashda, fikrini tasvirlar orqali shakllantirishda, yangi dunyoqarashni yaratishda katta rol o‘ynaydi. Kreativlik tasviriy san'atda insonning o‘ziga xos ko‘nikmalarini, fikrlash usulini, hissiyotni va ijodiy yondashuvni namoyon qiladi.Tasviriy san'at, kreativitiy va innovatsiya o‘rtasida bevosita bog‘lanish mavjud. Tasviriy san'at darslarida kreativlik o‘quvchilarni faqatgina texnik jihatlarda rivojlantirmaydi, balki ularning dunyoqarashi, estetik tasavvurlari, va hissiy jihatlari ustida ishlashga yordam beradi. San'atning har bir turi (rasm, grafika, haykaltaroshlik, dizayn, va hokazo) ijodiy jarayonni boshqarish va yangi imkoniyatlar yaratish uchun katta maydonni taqdim etadi. Kreativlik nafaqat yangi shakllar, ranglar yoki usullarni yaratishda, balki san'at orqali dunyoni qanday qabul qilishimizda ham namoyon bo‘ladi.Erkin Fikr va Improvizatsiya: Tasviriy san'atda improvisatsiya o‘quvchilarga bevosita o‘z tasavvurlarini erkin ifodalash imkonini beradi. O‘quvchilarga an'anaviy texnikalardan foydalanishni cheklash va yangi materiallar yoki usullar bilan tajriba o‘tkazishga imkon berish kreativlikni kuchaytiradi. Erkin Fikr va Improvizatsiya — bu kreativ va ijodiy jarayonlarda o‘zingizni erkin ifodalash va yangi g‘oyalarni yaratishga qaratilgan yondashuvlardir. Ular asosan san'at, musiqada, teatrda, va boshqa ijodiy sohalarda qo‘llaniladi. Keling, har birini batafsil tushuntirib o‘taylik. Erkin fikr, aslida, yangi va original g‘oyalarni yaratish qobiliyatidir. Bu g‘oyalar odatda an'anaviy yoki kutilgan yondashuvlardan tashqarida bo‘ladi. Erkin fikr o‘quvchilarning yoki ijodkorlarning mavjud shablonlar va cheklovlardan qochib, yangi va noyob yondashuvlarni yaratish imkoniyatini beradi. Bu jarayon innovatsiyaga, yangi imkoniyatlar va tasavvurlarni kashf etishga olib keladi.Erkin fikrning asosiy xususiyatlari:

Ochiqlik: O‘zingizni yangi g‘oyalar va tajribalarga ochiq tutish.

- Kutilmagan Yechimlar: Mavjud muammolarni yoki vaziyatlarni kutilmagan, original tarzda yechish.
- Ko‘p Perspektivalar: Bir narsaga turli nuqtai nazardan qarash va turli shakllarda ifodalash.

Improvizatsiya (Improvisation)

Improvizatsiya — bu rejasiz yoki tayyorlanmasdan, shunchaki mavjud vaziyatga mos ravishda tezda yaratish yoki o‘zgartirish jarayonidir. Bu, masalan, tasviriy san'atda, musiqa ijrosida yoki teatrlashtirishda ko‘proq uchraydi. Improvizatsiya ijodkorlar o‘zlariga bergan vaqt yoki joy chegaralariga qaramay, tezda yangi g‘oyalarni yaratishda yordam beradi.

Improvizatsiyaning asosiy xususiyatlari:Erkinlik va spontanlik: Improvizatsiya o‘ziga xos tarzda spontan va rejasiz bo‘ladi. Bu ijodkorni xohlagan vaqtda yangi shakllar, tovushlar, ranglar yoki obrazlarni yaratishga imkon beradi.Moslashuvchanlik: Vaziyatga qarab, ijodkor o‘z yondashuvini va ish usulini o‘zgartirishi kerak.Tajriba: Improvizatsiya yaratishda o‘z tajribalaringizdan foydalansangiz ham, siz doimo yangi narsalarni o‘rganasiz va ularga ko‘nikasiz.Tasviriy san'atda erkin fikr: Tasviriy san'atda erkin fikr o‘quvchilarni mustaqil va ijodiy ravishda ishlashga undaydi. O‘quvchi rasmni yoki san'at asarini yaratishda yangi, kutilmagan yondashuvlarni sinab ko‘radi, shablonlardan chiqib, o‘z dunyoqarashini yaratadi.Improvizatsiya tasviriy san'atda: Improvizatsiya — bu tasviriy san'atda tezda, faqat hissiyotlarga tayanib, yangi tasvirlar yoki kompozitsiyalar yaratish jarayoni. Masalan, rasm chizishda material yoki usulni o‘zgartirish, bo‘yashda tasavvurga tayanish, yoki shakllarni xohlagancha o‘zgartirish orqali ijodiy jarayonni

o‘zgartirish. Erkin fikr va improvizatsiya ijodiy jarayonlarda yangi imkoniyatlar yaratadi. Tasviriy san'atda bu ikki yondashuv o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, ular uchun yangi g‘oyalarni kashf qilish va san'at orqali o‘zlarini ifodalash imkoniyatini taqdim etadi. Bu metodlar san'atda o‘z-o‘zini ifodalashni rag‘batlantiradi, yangi shakllar yaratishga undaydi va kreativlikni kuchaytiradi. Ko‘plab San'at Turlarini Integratsiya qilish: Tasviriy san'atda boshqa san'at shakllari bilan integratsiya qilish, masalan, musiqaning yoki adabiyotning tasviriy san'at bilan uyg‘unlashishi o‘quvchilarning ko‘proq ijodiy yondashuvlarni sinashlariga yordam beradi. Bu o‘z navbatida tasavvurlarini kengaytirish va yangicha qarashlarni kashf qilishda yordam beradi. Ko‘plab San'at Turlarini Integratsiya Qilish — bu san'atning turli shakllarini birlashtirish va o‘zaro uyg‘unlashtirish jarayonidir. Tasviriy san'atda bu yondashuv o‘quvchilarga o‘zlarining ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish va yangi, original asarlar yaratish imkonini beradi. Ko‘plab san'at turlarini integratsiya qilish, odatda, tasavvurni kengaytiradi, yangi texnikalar va usullarni birlashtiradi, va ijodkorlarga yangi estetik tajriba yaratish imkoniyatini beradi.

Tadqiqot metadalogiyasi.

Yangi g‘oyalar yaratish: Bir san'at shaklidan olingan g‘oyalar boshqa shakllar bilan birlashtirilganda, yangicha va original fikrlar paydo bo‘lishi mumkin.Ijodiy yondashuvni kengaytirish: O‘quvchilarga turli san'at shakllari bilan ishlash imkoniyatini yaratish, ularning ijodiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi.San'atni ko‘proq ko‘rish va his qilish: San'atning bir nechta shaklidan foydalanish, ularning o‘zaro aloqalarini va o‘zgarishini ko‘rsatadi, bu esa san'ating yanada chuqurroq va kengroq tasavvurini shakllantiradi. Musiqa va Tasviriy San'at Musiqa va tasviriy san'atni birlashtirish o‘quvchilarga ikki san'at shaklidan foydalanish orqali yangi estetik tajriba yaratishga yordam beradi. Masalan, musiqaning ritmi, melodiyasi yoki so‘zlari bilan bog‘liq tasvirlar yaratish, o‘quvchilarga yangi asarlar yaratish imkoniyatini beradi. Bunday integratsiya san'ati o‘quvchilarga o‘z his-tuyg‘ularini turli shakllarda ifodalash imkonini yaratadi.Biror musiqani tinglaganda, uning tuyg‘ularini tasviriy san'atda aks ettirish: musiqaning tezligi va ranglarini qo‘llash, musiqaning mavzusiga mos keladigan tasvirlar yaratish.Teatr va Tasviriy San'at Teatr va tasviriy san'atni integratsiya qilish orqali o‘quvchilar sahna san'atlari va vizual san'atni birlashtirishni o‘rganadilar. Bu yondashuv orqali, sahnada yaratiladigan obrazlar va ularning vizual tasvirlari o‘zaro bog‘lanadi.Masalan: Teatrda aktyorlar tomonidan ijro etilayotgan rollarga qarab, ranglar, fondlar, va kompozitsiyalarni tasviriy san'atda yaratish. O‘quvchilar o‘zlarining yaratuvchanliklarini o‘ynash va tasviriy san'ati orqali aks ettirishni o‘rganadilar.Adabiyot va Tasviriy San'at Adabiyot va tasviriy san'atning integratsiyasi, o‘quvchilarga hikoyalar, she'rlar yoki asarlarning vizual tasvirlarini yaratish imkoniyatini beradi. Adabiyotdan olingan tasvirlarni san'at asarlarida aks ettirish, o‘quvchilarga ijodiy ravishda fikr yuritish va tasavvurlarini rasmga tushirish imkoniyatini yaratadi.Masalan: Biror hikoya yoki she'rdan ilhomlanib, o‘quvchi shu asar asosida rasm yoki kolaj yaratadi. Bu o‘quvchining yozuvchi yoki shoirning fikrlarini tasviriy san'at orqali tushunishiga yordam beradi.Fotografiya va Rassomlik Fotografiya va rassomlikni integratsiya qilish, o‘quvchilarga ko‘plab vizual imkoniyatlar yaratadi. Rassomlar tomonidan yaratilgan asarlar yoki fotosuratlar orqali san'atchilar o‘zlarining fikrlarini va tasavvurlarini yanada kengroq ifodalashlari mumkin.Masalan: Fotografiyalarni rasmga aylantirish yoki tasviriy san'atda fotoelementlarni qo‘llash. Bu, o‘quvchilarga ikki san'at shaklini birlashtirib, yanada chuqurroq va original asarlar yaratish imkoniyatini beradi.

1. Ijodiy fikrlashni rivojlantiradi: San'atning turli shakllari o‘quvchilarga kengroq va innovatsion fikrlash imkoniyatini beradi. Ular bitta shaklga yopishib qolmay, bir nechta san'at shaklidan foydalanib, yangi va original asarlar yaratishadi.

2. San'atning ko‘p qirraliligini o‘rgatadi: San'atning turli turlarini birlashtirish, o‘quvchilarga san'atning murakkab va ko‘p qirrali tabiati haqida chuqurroq tushuncha hosil qiladi.

3. Ko‘p hissiy va estetik tajribalar yaratadi: Musiqa, teatr, adabiyot va tasviriy san'atni integratsiya qilish o‘quvchilarga turli estetik tajribalar orqali hissiy ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniyatini beradi.

4. Shaxsiy ifodalanish imkoniyatlarini kengaytiradi: Bir nechta san'at shakllarini qo‘llash orqali o‘quvchilar o‘zlarining individual shaxsiy ifodalash usullarini rivojlantirishadi.Ko‘plab san'at turlarini integratsiya qilish, o‘quvchilarga yangi va original asarlar yaratish, estetik va hissiy tajribalarni kengaytirish imkoniyatini beradi. Bunday yondashuv nafaqat san'atni o‘qitishda, balki o‘quvchilarning ijodiy va ko‘p qirrali fikrlashini rivojlantirishda ham samarali vosita hisoblanadi. Bu integratsiya orqali san'atning turli shakllari o‘rtasidagi chegaralar yo‘qoladi va yangi imkoniyatlar ochiladi.

1. Sxema va Eskizlardan Foydalanish: Darslarda o‘quvchilarga boshlang‘ich eskizlar yoki sxemalar yaratish orqali ular o‘z fikrlarini ko‘rsata olishadi. Bu ijodiy jarayonni boshlashda yordam beradi va o‘quvchilarni rasmni yanada to‘liq va original tarzda yaratishga undaydi.

2. O‘yinlar va Mashqlar: Kreativlikni rivojlantirish uchun tasviriy san'at darslarida turli o‘yinlar yoki mashqlarni qo‘llash juda foydali. Masalan, tasviriy mashqlar orqali o‘quvchilar yangi shakllarni topish, ranglar bilan o‘ynash va tasavvurlarini sinovdan o‘tkazishlari mumkin.

3. Eksperimentlar va Materiallardan Foydalanish: O‘quvchilarga an'anaviy rasm chizish texnikalaridan

tashqari, turli materiallar bilan tajriba qilish imkoniyatini yaratish, ularni innovatsion yondashuvlarga undaydi. Masalan, rangli tuz, akril bo‘yoqlar, turli matolar va boshqa materiallardan foydalanish orqali yangi tasvirlar yaratish. Tasviriy san'atda kreativlikni rivojlantirish nafaqat texnikani o‘rgatish, balki o‘quvchilarning o‘z dunyoqarashini kengaytirish va ijodiy fikrlashlarini rivojlantirishga qaratilgan. Buning uchun san'at o‘qituvchilari o‘quvchilarning individiual qobiliyatlarini hisobga olib, har bir talabaning shaxsiy ijodiy yondashuvini rag‘batlantirishi zarur. O‘qituvchi o‘quvchilarni tasviriy san'atning turli usullari bilan tanishtirib, ularga ko‘proq tajriba qilishga imkoniyat yaratishi kerak. Tasviriy San'at va Kreativlik: Ta'limda Amaliy Yondashuv

Tahlil va natijalar.

Tasviriy san'at va kreativlik, ta'lim jarayonida nafaqat estetik qadriyatlarni rivojlantirish, balki talabalarning muammolarni hal etish, ijodiy fikrlash va vizual kommunikatsiya ko‘nikmalarini oshirishda katta ahamiyatga ega. Bu amaliy yondashuv san'at va kreativlikni ta'limda qanday muvaffaqiyatli qo‘llash mumkinligini ko‘rsatadi.Tasviriy san'at (rasm, grafika, haykaltaroshlik va boshqalar) faqat estetik qadriyatlarni rivojlantirish bilan cheklanmaydi. Bu fan ijodiy fikrlashni rivojlantirish, individual ifodalanish, va talabalarga vizual nutqni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Rasm chizish, ranglarni tanlash, shakl va kompozitsiyani o‘rganish orqali talaba o‘zini yanada erkin ifodalaydi va yangi g‘oyalar ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladi.Kreativlik — bu yangi, original g‘oyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish qobiliyatidir. Tasviriy san'at ta'limida kreativlikni rivojlantirishning bir necha usullari mavjud:

- Eksperiment qilish: Talabalarni yangi texnikalar va uslublarni o‘rganishga undash, mavjud qoidalar va an'analar bilan o‘ynash imkoniyatini beradi.
- Interdisipliner yondashuv: San'atni boshqa fanlar, masalan, ilm-fan, tarix, adabiyot bilan bog‘lash, talabalar uchun kengroq ko‘lamda ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.
- Muammolarni hal qilish: Tasviriy san'at ko‘pincha talabalar uchun muammoni tasvir orqali ifodalash va hal etishning amaliy vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Bu, ayniqsa, dizayn, arxitektura yoki muhandislik kabi sohalarda muhim.Ta'limda tasviriy san'at va kreativlikni amaliy yondashuv yordamida qo‘llashning bir qancha afzalliklari bor:
- Ko‘nikmalarni yaxshilash: Tasviriy san'atni o‘rganish talabalarga texnik ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, rasm chizish yoki digital san'atni o‘rganish talabalarga o‘z fikrlarini aniq va samarali ifodalash imkoniyatini beradi.
- Ijodiy xotira va diqqatni oshirish: San'atni o‘rganish talabalarning tasavvurini kengaytiradi va ularni detailga e'tiborli bo‘lishga o‘rgatadi, bu esa boshqa fanlarda ham foydali bo‘ladi.
- Motivatsiya va o‘z-o‘zini ifodalash: Amaliy ishlar orqali talaba o‘zini yaxshiroq ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladi, bu esa ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi va yangi g‘oyalar yaratishga undaydi.San'at va kreativlikni amaliy yondashuv yordamida o‘rganish jarayonida talaba faqat nazariy bilimlarni emas, balki real vaziyatlarda ijodiy qarorlar qabul qilishni ham o‘rganadi. Bu, o‘z navbatida, ularni professional sohada muvaffaqiyatli bo‘lishlariga yordam beradi.Amaliy yondashuvni tasviriy san'at ta'limida integratsiya qilish, o‘quvchilarga san'atning nafaqat estetika, balki texnologiya, psixologiya, va ijtimoiy masalalar bilan bog‘liq jihatlarini ham tushunishga yordam beradi. Bu, shuningdek, san'atni ta'limda eng samarali va qiziqarli tarzda qo‘llashning asosiy usullaridan biridir.Tasviriy san'at va kreativlikni ta'limda amaliy yondashuv yordamida rivojlantirish, talabalarga ijodiy va analitik fikrlash ko‘nikmalarini oshirishga yordam beradi. Ular nafaqat san'atni o‘rganish orqali estetik va vizual ifodalanishni o‘zlashtiradilar, balki zamonaviy muammolarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan kreativ va amaliy yondashuvlarni o‘rganadilar. Bu nafaqat san'at sohasida, balki boshqa har qanday kasbda muvaffaqiyatli bo‘lishda ham foydalidir.

Xulosa.

Tasviriy san'at darslarida kreativ metodlardan foydalanish o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, san'atga bo‘lgan qiziqishini oshirish, shuningdek, ularning tasavvurlarini kengaytirish uchun zarurdir. Kreativ yondashuvlar pedagogik jarayonni jonlantiradi va o‘quvchilarga yangi g‘oyalar bilan ishlash imkonini yaratadi. O‘quvchilarning individual qobiliyatlarini aniqlash, ularni rivojlantirish va erkin fikrlashga rag‘batlantirishda kreativ metodlarning roli katta. Tasviriy san'atdagi kreativlik – bu nafaqat rasm yoki san'at asari yaratish jarayoni, balki insonning o‘zini ifodalash, yangi g‘oyalar yaratish va san'at orqali dunyoqarashini kengaytirish jarayonidir. Kreativlikni rivojlantirish uchun tasviriy san'at darslarida erkinlik, tajriba, va o‘yinlar orqali o‘quvchilarni yangi imkoniyatlarga yo‘naltirish kerak. Bu orqali o‘quvchilar nafaqat san'atga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, balki ularning ijodiy salohiyati ham mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Tursunova, M. (2020). "Tasviriy san'at va pedagogika: Innovatsion metodlar". Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi.

2. Akhmedova, G. (2019). "San'at darslarida kreativ metodlarni qo‘llash". Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti nashriyoti.

3. Ibragimov, S. (2021). "San'atni o‘qitishda yangi metodlar va yondashuvlar". Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti.

4. Shukurov, A. (2022). "Kreativ metodlarning pedagogik o‘quv jarayonidagi o‘rni". Buxoro: Buxoro davlat pedagogika universiteti.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Alimova Mashxuraxon Ravshanbek qizi
Andijon davlat pedagogika instituti o'qituvchi

BOSHLANG'ICH SINF TEXNOLOGIYA TA'LIMI DARSLARIDA TABIIY MATERIALLARDAN BUYUMLAR TAYYORLASHNI O'RGATISHNING MAZMUN VA MOHIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqola boshlang'ich sinf texnologiya darslarida innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish orqali ta'lim tizimini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan. Maqolada zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interfaol o'qitish metodlari, robototexnika va boshqa innovatsion yondashuvlarning texnologiya darslariga integratsiyalashuvi tahlil qilinadi. Innovatsiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarning kreativ fikrlashi, amaliy ko'nikmalari va mustaqil ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ta'lim samaradorligini oshirishda o'qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirish va ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash zarurligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: inovatsion texnologiyalar, mustaqil fikr, usullar, texnologiya fani, o'quv-tarbiya jarayon, o'qituvchi, o'quvchilar, animatsiya.

Алимова Машхурахан Равшанбековна
Андижанский государственный педагогический институт учитель

СОДЕРЖАНИЕ И СУЩНОСТЬ ОБУЧЕНИЯ ИЗГОТОВЛЕНИЮ ИЗДЕЛИЙ ИЗ ПРИРОДНЫХ МАТЕРИАЛОВ НА УРОКАХ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. *Данная статья посвящена вопросам развития системы образования за счет эффективного использования инновационных технологий на уроках технологии начальных классов. В статье анализируется интеграция современных информационно-коммуникационных технологий, интерактивных методов обучения, робототехники и других инновационных подходов в технологические классы. Рассматриваются возможности развития у учащихся творческого мышления, практических навыков и навыков самостоятельной работы посредством применения инноваций. Также подчеркивается необходимость повышения цифровой грамотности педагогов и обеспечения их современными педагогическими технологиями в повышении эффективности обучения.*

Ключевые слова: *инновационные технологии, независимое мышление, методы, наука о технологиях, учебно-воспитательный процесс, учитель, ученики, анимация.*

Alimova Mashkhurakhan Ravshanbek kizi
Andijan State Pedagogical Institute teacher

THE CONTENT AND ESSENCE OF TEACHING THE MANUFACTURE OF PRODUCTS FROM NATURAL MATERIALS IN PRIMARY SCHOOL TECHNOLOGY EDUCATION CLASSES

Annotation. *This article is devoted to the development of the education system through the effective use of innovative technologies in primary school technology lessons. The article analyzes the integration of modern information and communication technologies, interactive teaching methods, robotics and other innovative approaches into technology classrooms. The possibilities of developing students' creative thinking, practical skills and independent work skills through the use of innovations are considered. It also highlights the need to improve teachers' digital literacy and provide them with modern pedagogical technologies to improve learning efficiency.*

Keywords: *innovative technologies, independent thinking, methods, science of technology, educational process, teacher, students, animation.*

Tabiiy materiallar bilan ishlash jarayonida texnologiya ta'limi va tarbiyasi vazifalari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin :

- ❖ o'quvchilarni tabiatdagi, tevarak-atrofdagi narsa va voqealarga estetik munosabatni tarkib toptirish, ularda

go‘zallikni his qila bilishga, tushunishga hamda shu his va tushunchalarni hayotga tatbiq etishga o‘rgatish;

❖ muntazam va maqsadga muvofiq ravishda ko‘rib-idrok qilishni, rang sezishni, kompozitsion madaniyatni, fantaziyani ko‘rish orqali tasavvur qilish va kombinatsiyalashni, ijodiy vazifalarni aniq obrazlarda hal qilishni tarbiyalash;

❖ tabiiy materiallar bilan ishlashni o‘ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish;

❖ ularda tabiatga nisbatan emotsional idrok, ijodiy qobiliyat, did, tasavvurni, estetik va emotsional sezgirlikni o‘stirish;

❖ turli tabiiy materiallardan rang-barang o‘yinchoqlar va ko‘rgazmalar yasashga o‘rgatish;

❖ tabiiy materiallar asosida ishlash asnosida ularda ijodiy texnik malakalarni rivojlantirish.

Tabiiy materiallar bilan ishlash mashg‘ulotlarning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarga estetik, badiiy va ijodiy tarbiya berishdir. Estetik tarbiya – bu o‘quvchilarni hayotdagi, tabiatdagi, san’atdagi kishilarning munosabatlardagi go‘zallikni to‘liq idrok etish qobiliyatini tarbiyalash va go‘zallik qonunlari asosida ijod etishga o‘rgatishdir. Zotan, go‘zallik bolaning aqliga, qalbiga, irodasiga ta’sir qilib, ma’naviy dunyosini boyitadi.

Hozirgi vaqtda maktabning asosiy vazifalardan biri o‘quvchilarga borliqni faqat ijodiy o‘zlashtirishga bo‘lgan ehtiyoj va qobiliyatini shakllantirishgagina emas, balki go‘zallik qonunlari asosida borliqni qaytadan ko‘rish hissini tarbiyalash hamdir.

Jamiyatimizning har bir kishisi qaysi sohada ish olib borayotganligidan qat’iy nazar, go‘zallik va nafislikni ko‘ra olish va tushuna bilishi kerak. O‘quvchilarni estetik jihatdan tarbiyalash maqsadida o‘qituvchi mehnat darslarida ularga tabiatdagi go‘zallikni, shakl va ranglarning turli-tumanligini ko‘rsatadi. Bolalarga quvonch, hayajon baxsh etgan tabiat go‘zalliklari so‘z bilan tasvirlab bo‘lmas rang birikmalari shaklida uzoq vaqtlargacha ularning xotirasida qoladi.

Manzara, daraxtlar, barglar va gullarning o‘ziga qarab rasmini chizish, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish orqali bolalar tabiatga ko‘proq qiziqadigan bo‘ladilar. Bunday darslar bolalarga dunyoni keng va atroflicha ko‘ra olishga, shuningdek, ko‘rish orqali olgan taassurotlari doirasini kengaytirishga, atrof-borliq haqida aniq va to‘liq tushunchalar hosil qilishga yaqindan yordam beradi.

Texnologiya ta’limi dasturida o‘quvchilar mehnat darslarida egallashi lozim bo‘lgan ilmiy-texnik bilimlarning, mehnat ko‘nikmalarini va malakalarini hajmi hamda mazmuni belgilab beriladi.

Dasturda jamiyatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida yoshlarga mehnat ta’limi berish orqali ularni tarbiyalash sohasida qo‘yilgan maqsad va vazifalar o‘z ifodasini topadi. Texnologiya ta’limi dasturi o‘quv rejasi asosida ishlab chiqiladi. Texnologiya ta’limi o‘qituvchisi o‘zining kundalik faoliyatida bu dasturga amal qiladi va uning bajarilishi majburiy hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda o‘qituvchi o‘quv dasturiga mahalliy sharoitni hisobga olib ma’lum o‘zgarish kiritishi mumkin. Bu borada bir qancha talablar hisobga olinishi lozim. Dasturning mazmuni didaktik prinsiplarga to‘la-to‘kis javob berishi, ilmiy mafkuraviy jihatdan puxta bo‘lishi, murakkabligi ortib borishi hisobga olingan holda va mehnat ta’limining tanlagan didaktik tizimiga muvofiq ravishda muayyan izchillikda bayon qilinishi turmush tajribasi bilan bog‘langan bo‘lishi kerak.

Mehnat malaka va ko‘nikmalari bilan qurollantirish o‘quvchilarni tarbiyalash hamda ularni bo‘lajak amaliy faoliyatga tayorlashda mehnat malakalari va ko‘nikmalari katta rol o‘ynaydi. Quyi sinf o‘quvchilariga texnologiya ta’limida ko‘rsatilgan mavzular mazmunini yetkazib berish vazifalaridan biri o‘quvchilarda bir qator mehnat malakalari va ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Mehnat malakalari va ko‘nikmalari ta’lim jarayoni natijasi bo‘libgina qolmay, ma’lum topshiriqni bajarish su’rati va aniqligiga rioya qilishdir. Aks holda bajarilayotgan ish qo‘pol chiqishi mumkin. Mehnat harakatlarining mukammalashuvi dars jarayonida maxsus mashqlar ta’sirida yuzaga keladi. O‘quvchining ongli, ayrim harakatga alohida e’tibor va ishlarni birlashtirish jarayoniga yo‘llangan bo‘ladi.

Malaka - mavjud bilimlari asosida o‘zgargan yoki yangi sharoitlarda shaxsning faoliyatni samarali bajarishga qobiliyati hisoblanadi. Malaka – bu bilimlar yordamida mavjud axborotlarni tushunib olish, maqsadga erishish rejasini tuzish, faoliyat jarayonini boshqarish va nazorat qilish qobiliyatidir. Malaka – bu faoliyatning mashq qilishlar jarayonida yetilgan, mujassamlashgan tajribadir [29].

Oddiy malakalar yetarlicha mashq qilinganda avtomatlashtirilishi mumkin va ko‘nikmalarga aylanadi. Dars jarayonida berilgan topshiriqlarni tez va aniq bajarish, mashq qilish tufayli tarkib topgan ko‘nikma yoki bu ma’lum miqdordagi mashq va usullar bajarilganda ko‘nikmadan sakrab o‘tish degan ma’noni anglatadi.

Shuning uchun mazkur ko‘nikma agarda malakani yuzaga keltirishni nazarda tutgan mashq va usullar to‘g‘ri tuzilgan bo‘lsa u to‘g‘ri malakaga aylanishi mumkin. Biroq malakaning takomillashuv darajasi o‘qitishinng turli bosqichlarida turlichadir. Uning strukturasi ham o‘zgaruvchandir. Mashqlar jarayonida o‘quvchilar bajarilayotgan harakatlar murakkablashib borgan sari, asta-sekin oddiy malakalarning murakkab malakalarga birlashuvi sodir bo‘ladi.

Mehnat malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish quyidagicha asosiy bosqichlardan tarkib topadi.

a) boshlang‘ich tushuncha.

a) mehnat harakatlarini sinov uchun bajarish.

v) ish harakatlari.

g) yakun chiqarish.

Boshlang‘ich sinflarda texnologiya ta’limi darslarida ko‘rsatilayotgan harakat maqsadga muvofiq, barcha munosabatlarda ham namunali bo‘lishi kerak. O‘qituvchi o‘quvchining e’tiborini harakatning eng asosiy ahamiyatli tomoniga qaratishi, boshqa harakatni emas, aynan shu harakatning maqsadga muvofiqligini asoslashi, ularni o‘quvchilar ongli egallashiga erishishi lozim. Shuning uchun ko‘rsatish doimo qisqa tushuntirish bilan birga boradi.

Mavzuga oid ko‘rgazma qurollarni namoyish qilish o‘quvchilar tomonidan faol idrok etilishini ta’minlash kerak. Faollik tafakkur faoliyatida hamda ko‘rsatilayotgan narsani idrok etishda ish hajmi miqdorining ko‘payishida ifodalanadi.

Namoyish etilayotgan barcha ko‘rgazma qurollar har bir o‘quvchiga yaxshi ko‘rinishi kerak.

Mehnat malakalari va ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonidagi mashqlar mehnat malakalari va ko‘nikmalarini shakllantirishga mo‘ljallangan mashqlar faqat vaqtga ko‘ra taqsimlanganda hamda ma’lum tizim asosida o‘tkazilgadagina ijobiy natija beradi.

Mashqlar tizimi quyidagi asosiy talablarni o‘z ichiga oldadi.

1. Mashqlarning materiali qiyinlikni oshib borishini nazarda tutgan holda joylashtirish lozim.

2. Keyingi materialning hammasi to‘liq tarzda oldingi materialga asoslanishi lozim.

3. Mustaqillik darajasi ortib borilishi kerak.

Mehnat malakasi muvaffaqiyatli bo‘lishi bir qator shartlarga bog‘liq. O‘quvchi o‘z faoliyatini mustaqil rejalashtirmas ekan, uning malakasi hech qachon to‘liq bo‘lmaydi. Nazoratning yo‘qligi ko‘pincha xato va nuqsonlarning mashqlar jarayonida ortib borishiga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida yetilmagan harakat va usullarning shakllanishiga sabab bo‘ladi.

Pedagogik ta'lim tizimidagi innovatsion yondashuvlar, o‘quvchilarni faollashtirish, ta'lim sifatini oshirish, hamda o‘qituvchilarning pedagogik malakasini rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli tadqiqotlar va tahlillarni o‘z ichiga oladi. Innovatsion metodlar va

texnologiyalarni joriy etish orqali o‘quvchilarning intellektual va shaxsiy rivojlanishi qanday natijalar berishi mumkinligini ko‘rib chiqish muhimdir.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, innovatsion yondashuvlar ta'lim jarayonida o‘quvchilarning faol ishtirokini ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Interfaol darslar, zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash va masofaviy ta'lim kabi innovatsion metodlar o‘quvchilarning darslarga qiziqishini oshiradi. Masalan, interaktiv ta'lim vositalari va ko‘p funksiyali dasturlar yordamida o‘quvchilarning motivatsiyasi oshadi va o‘z-o‘zini nazorat qilish qobiliyatlari rivojlanadi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar, masalan, interaktiv doskalar, simulyatsiyalar, onlayn o‘quv platformalari va boshqa raqamli vositalar, o‘quvchilarning o‘qish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishda katta yordam beradi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bu texnologiyalar o‘quvchilarga mustaqil ishlash imkonini beradi va o‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasida samarali muloqot o‘rnatadi. Shuningdek, bu texnologiyalarni qo‘llash, o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Innovatsion yondashuvlar o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga katta ta'sir ko‘rsatadi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy ta'lim metodlari o‘quvchilarga o‘z bilimlarini faqat yodlash orqali emas, balki mustaqil ravishda tadqiqot qilish, yangi bilimlarni o‘zlashtirish va o‘z fikrlarini erkin ifodalash imkoniyatlarini taqdim etadi. Shuningdek, guruh ishlari va kolaborativ yondashuvlar o‘quvchilarning jamiyatda muvaffaqiyatli bo‘lishlari uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Innovatsion yondashuvlarni ta'lim jarayoniga joriy etish, o‘qituvchilarni o‘z pedagogik malakalarini oshirishga undaydi. Pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘qituvchilar o‘z darslarini yanada qiziqarli va samarali qilish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Natijada, bu o‘qituvchilarning kasbiy o‘sishini va ta'lim sifatining oshishini ta'minlaydi. Innovatsion metodlarni o‘zlashtirgan o‘qituvchilar o‘quvchilarning ehtiyojlarini yaxshiroq anglab, ularning individual rivojlanishiga yanada samarali yordam bera oladilar.

Innovatsiyalar nafaqat o‘quvchilar va o‘qituvchilar darajasida, balki jamiyatning keng qamrovli rivojlanishiga ham ta'sir ko‘rsatadi. Innovatsion ta'lim metodlarining joriy etilishi, yangi kadrlar tayyorlash va ish o‘rinlarini yaratish kabi iqtisodiy foydalarni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, innovatsiyalar jamiyatdagi ta'lim sifatini oshirish, shuningdek, o‘quvchilarning ijtimoiy faoliyatiga va jamiyatga nisbatan mas'uliyatli munosabatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion yondashuvlar ta'lim tizimini yangilashda muhim rol o‘ynaydi va o‘quvchilarning ijodiy fikrlash, muammolarni hal qilish va tanqidiy qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga imkon yaratadi. Bu yondashuvlar o‘quvchilarga mustaqil fikrlash, o‘z bilimlarini yaratish va amaliyotga tadbiq etish imkoniyatlarini taqdim etadi. Shuningdek, innovatsiyalar o‘qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish va ta'lim jarayonini samarali boshqarish imkoniyatlarini yaratadi.Ushbu tahlillarni hisobga olgan holda, ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlarni kengaytirish va joriy etish, nafaqat ta'limning sifatini oshirishga, balki jamiyatning yanada ilg‘or, raqobatbardosh va barqaror rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Xulosa.

Pedagogik ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlarning roli va ahamiyati bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Innovatsion metodlar va texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim jarayoni samarali va qiziqarli bo‘lib, o‘quvchilarning shaxsiy va intellektual rivojlanishini ta'minlaydi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy pedagogik yondashuvlar o‘quvchilarning faol ishtirokini oshirib, ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Innovatsion ta'lim texnologiyalari, masalan, interaktiv darslar, onlayn platformalar va simulyatsiyalar, o‘quvchilarga o‘z bilimlarini mustaqil ravishda o‘zlashtirish va amaliyotda qo‘llash imkoniyatini yaratadi. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarning o‘z-o‘zini rivojlantirishiga, mustaqil fikrlash va ijodiy qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi.

Shuningdek, innovatsion yondashuvlar o‘qituvchilarning pedagogik malakasini oshirishga va darslarni yanada samarali o‘tkazishga imkon yaratadi. O‘qituvchilarga yangi pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish, o‘quvchilarga shaxsiy yondashuvni amalga oshirish va darslarni yangicha tarzda tashkil etish imkoniyatlarini taqdim etadi.

Bundan tashqari, innovatsiyalar nafaqat ta'lim jarayonini yangilash, balki jamiyatda ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlarni keltirib chiqarishga ham xizmat qiladi. Innovatsion ta'lim tizimi kadrlar tayyorlash, yangi ish o‘rinlari yaratish va jamiyatda raqobatbardosh bo‘lishni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Shu bilan birga, innovatsion pedagogik yondashuvlarni kengaytirish va joriy etish ta'lim tizimining sifatini oshirish, o‘quvchilarning zamonaviy dunyoga mos ravishda rivojlanishini ta'minlash, shuningdek, jamiyatning umumiy rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi. Demak, innovatsion yondashuvlarning pedagogik ta'lim tizimidagi roli va ahamiyati doimiy ravishda oshib boradi va bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish ta'limning sifatini yuqori darajaga olib chiqadi.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. Shakarov, A. (2016). *Innovatsion pedagogik yondashuvlar va ta’lim tizimi samaradorligi*. Tashkent: O‘qituvchi nashriyoti.

2. G‘ulomov, A., & Toshpulatov, M. (2020). *Axborot texnologiyalarini ta’lim tizimida qo‘llash: Pedagogik samara va samaradorlik*. Tashkent: Fan va texnologiya.

3. Diyorova, L. (2019). *Innovatsion pedagogik texnologiyalar va ularning o‘quvchilarni rivojlantirishdagi roli*. O‘zbekiston ta'limi, 34(2), 12-18.

4. Mansurova, F. (2017). *Ta’lim tizimida innovatsiyalar: Ijtimoiy va iqtisodiy ta’sirlar*. Tashkent: Ilm-fan nashriyoti.

5. Xaydarova, N. (2018). *Innovatsion pedagogik metodlar va o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ta’siri*. Pedagogika jurnali, 56(4), 45-50.

6. Ubaydullaeva, M. (2019). *Innovatsiyalar va ta’limda yangi pedagogik usullar*. Tashkent: Ta'lim.

7. Zayniddinov, T. (2015). *Ta’limda interaktiv metodlar va ularning samaradorligi*. O‘zbekiston pedagogikasi, 29(3), 22-28.

8. Ismoilov, S. (2017). *Zamonaviy texnologiyalar va ta’lim: Innovatsion yondashuvlar*. Tashkent: Ta'lim va texnologiyalar.

9. Pirova, R. (2021). *Ta’lim jarayonida innovatsion metodlarni qo‘llashning psixologik jihatlari*. O‘zbekiston ta'lim tizimi, 41(1), 5-12.

10. Karimov, K., & Abdurahmonov, S. (2022). *Innovatsion pedagogik texnologiyalar va ularning ta’lim samaradorligiga ta’siri*. Pedagogik tadqiqotlar, 59(6), 34-40.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Ibrohimova Gulbadanbegim Shuhratjon qizi
NamDPI Maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi
gulbadanbegimibrohimova2000@gmail.com

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJTIMOIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHDA XULQ IMITATSIYASINING AHAMIYATI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ko'nikmalar, xulq-atvor sifatlarining shakllanishi, ushbu jarayonda oila, ota-ona, maktabgacha ta'lim tashkiloti, jamiyatning tutgan ahamiyati hamda og'zaki va og'zaki bo'lmagan nutqning tutgan o'rni haqida, xulq modeli imitatsiyasi asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish, mazkur jarayonda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar va ularni bartaraf etish, maktabgacha yoshdagi bolalarda xulq sifatlarini tarkib toptirishda tengdoshlar bilan olib boriladigan suxbatlar va birgalikda o'ynaladigan o'yinlar, ijtimoiy o'yin orqali prosotsial xatti-harakatlarni modellashtirish, ijtimoiy hikoyalardan foydalanish, taqlid ko'nikmalarini tushunishning ahamiyati haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Xulq-atvor, maktabgacha yosh, ijtimoiylashuv, axloq, erta bolalik, taqlidchanlik, ijtimoiy hikoya, o'yin, rol modeli, oila.*

Ибрагимова Гулбаданбегим
Преподаватель кафедры дошкольного образования НамДПИ

РАЗВИТИЕ СОЦИАЛЬНЫХ НАВЫКОВ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА НА ОСНОВЕ ПОДРАЖАНИЯ ПОВЕДЕНЧЕСКОМУ ОБРАЗЦУ

Аннотация: *В данной статье рассматриваются вопросы формирования социальных навыков и поведенческих качеств у детей дошкольного возраста, роль семьи, родителей, дошкольной образовательной организации, общества в этом процессе, а также роль вербальной и невербальной речи, развитие социальных навыков у детей дошкольного возраста на основе подражания поведенческому образцу, возможные проблемы в этом процессе и их устранение, значение бесед со сверстниками и совместных игр в формировании поведенческих качеств у детей дошкольного возраста, моделирование просоциального поведения через социальную игру, использование социальных историй, понимание навыков подражания.*

Ключевые слова: *поведение, дошкольное учреждение, социализация, мораль, раннее детство, подражание, социальная история, игра, ролевая модель, семья.*

Ibrohimova Gulbadanbegim Shuhratjon kizi
Name DPI Preschool Education Department Teacher

DEVELOPMENT OF SOCIAL SKILLS IN PRESCHOOL CHILDREN BASED ON IMITATION OF A BEHAVIORAL MODEL

Annotation: *This article discusses the formation of social skills and behavioral qualities in preschool children, the role of the family, parents, preschool educational organization, society in this process, and the role of verbal and non-verbal speech, the development of social skills in preschool children based on imitation of a behavioral model, possible problems in this process and their elimination, the importance of conversations with peers and joint games in the formation of behavioral qualities in preschool children, modeling prosocial behavior through social play, the use of social stories, and understanding imitation skills.*

Keywords: *Behavior, preschool age, socialization, morality, early childhood, imitation, social story, game, role model, family.*

Kirish.

Xulq-atvor tushunchalari axloqshunoslik tushunchalaridan biri bo'lib, kishi fe'lining axloqiylik doirasida namoyon bo'ladi. Insonning axloqiylik doirasidagi xatti-harakatlari xulqdan tashqari odob va axloqni ham o'z ichiga oladi. Odob inson haqida yoqimli taassurot uyg'otadigan, lekin oila, jamoa, jamiyat va insoniyat hayotida o'zgarish yasaydigan darajada ahamiyat kasb etmaydigan xatti-harakatlardan iborat bo'lsa, axloq – muayyan jamiyat, zamon, insoniyat tarixi uchun ta'sir eta oladigan turli xatti-harakatlar majmui, insoniy kamolot darajasini belgilovchi ma'naviy hodisa.

Xulq-atvor modellari - bu tizim bajarilayotgan paytda dinamik xatti-harakatlar modelidir. Xulq qamrovlilik jihatidan odobdan keng, axloqdan tor ma'noga ega bo'lib, axloq singari jamiyat, zamon, tarix miqyosidagi voqelikka ta'sir ko'rsata olmaydi. Lekin, oila, mehnat jamoasi, mahalla doirasida sezilarli darajada ko'zga tashlanadi. Rol modeli (o'rnak modeli, xulq-atvor modeli) psixologiya, pedagogika va sotsiologiyada shaxslar va boshqa odamlar tomonidan amalga oshiriladigan o'ziga xos harakatlarni aniqlaydigan atamadir.

„O'rnak" atamasi sotsiolog Robert K. Mertonga tegishli bo'lib, u iborani 1950-yillarda Kolumbiya universitetida bo'lgan vaqtida ishlab chiqqan.[1] Merton odamlar o'zlarini jamiyatda ijtimoiy rolni egallagan odamlarning mos guruhlari bilan solishtirishni taklif qildi. Bundan tashqari rol modellari haqidagi ko'plab nazariyalar Zigmund Freyd tomonidan ilgari surilgan nazariyalar bo'lib, u „Identifikatsiya" ni psixodinamik jarayon taqlidi sifatida ko'rdi.[2] Erta bolalik davrida ota-onalar, tarbiyachilar yoki vasiylar bolaning eng muhim namunasi bo'lib, bu uning instinktiga asoslanadi. O'rnak tanlashda, boshqa narsalar qatorida, asosiy qismlardan biri u bilan idrok etilgan o'xshashlikdir (bu munosabatlarga, maqsadlarga, qiziqishlarga va boshqalarga ham tegishli bo'lishi mumkin). Bolalar atrofidagi kattalarni kuzatadilar va ularning qadamlarini kuzatib boradilar. Turli tadqiqotlar (1980 va 2003) kasbiy faoliyatda o'rnak olish rolini o'ynashini ko'rsatadi. Biroq, bolalardan farqli o'laroq, kattalar o'ziga xos xatti-harakatni namunaning umumiy xususiyatidan yaxshiroq ajrata oladilar. Bundan tashqari, kattalar ijobiy va salbiy rol modellari haqida gapirishlari mumkin.

Ijtimoiy ko'nikmalar bolalarga boshqalar bilan ijobiy va mazmunli munosabatlarni shakllantirishda, shuningdek, ijtimoiy vaziyatlarni boshqarishda yordam berishda muhim ahamiyatga ega. Bola ulg'aygan sari boshqalarning yuz ifodalari va tana tilini o'qishni, ijtimoiy o'zaro munosabatlar qoidalariga rioya qilishni, boshqalarning nuqtai nazarini qabul qilishni, o'z fikrlari va his-tuyg'ularini bildirishni, ijtimoiy nizolarni muhokama qilishni va boshqalar bilan birgalikda ishlashni o'rganadi. Nutq terapevti Danika Tan yosh bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish va kattalar turli strategiyalar va faoliyatlar bilan bu jarayonni qanday osonlashtirishi mumkinligini ta'kidlaydi. Ijtimoiy ko'nikmalar deganda, odamlar bir-biri bilan muloqot qilish va o'zaro munosabatda bo'lish uchun foydalanadigan ko'nikmalar to'plami tushuniladi. Bularga muloqotning og'zaki va og'zaki bo'lmagan tomonlari kiradi. Og'zaki muloqot tildan foydalanishni, tinglash va gapirishni o'z ichiga oladi, masalan, suhbat qoidalariga rioya qilish (masalan, navbatma-navbat almashish, suhbat mavzusini saqlash), tegishli so'zlarni va ovoz ohangini qo'llash va kerak bo'lganda tushuntirishlarni qo'llash. Og'zaki bo'lmagan muloqot imo-ishoralar, yuz ifodalari, ko'z bilan aloqa va tana tilini tushunish va ulardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy ko'nikmalarning rivojlanishi tug'ilishdan boshlanadi va bolalik va maktabgacha yoshda, maktab yoshi va o'smirlik yillarigacha davom etadi. Chaqaloqlar tanish tarbiyachining ovoziga javoban tabassum qiladilar, tarbiyachining yuz ifodalari yoki harakatlariga taqlid qilishga harakat qiladilar va ular chaqaloqlik davrida voyaga yetish davomida begona va tanish odamlarni ajratadilar. Maktabgacha yoshdagi bolalar o'sib ulg'aygan sayin, ular ko'proq kattalar va bolalar bilan muloqot qilish uchun ko'proq imkoniyatlarga ega bo'ladilar. Keyin ular o'zaro munosabatlarning ijtimoiy qoidalarini (masalan, tarbiyachi gapirayotganda jim turish va tinglash, o'z navbatini kutish va h.k.) o'zlashtira boshlaydilar va maktabgacha ta'lim tashkiloti, o'yin maydonchasi kabi turli xil ijtimoiy sharoitlarda o'zlarini munosib tutishadi. Ular, shuningdek, boshqalarning ijtimoiy belgilarini (masalan, odamlarning yuz ifodalari va tana tili) va atrof-muhitni o'qish va suhbatlarda qatnashishda ko'proq mahoratga ega bo'ladilar.

Bola o'zining ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirar ekan, bolaning atrofidagi kattalar (masalan, ota-onalar, tarbiyachilar) bu jarayonni osonlashtirishi mumkin bo'lgan usullar mavjud.

1. Ijtimoiy o'yin orqali prosotsial xatti-harakatlarni modellash

O'yin barcha bolalarning universal tilidir. Tengdoshlar bilan birgalikda o'ynash orqali bola muhim ijtimoiy ko'nikmalarni o'rganadi, masalan, materiallarni almashish, navbatchilik qilish, hamkorlik qilish, nizolarni muhokama qilish. Ota-onalar o'z farzandlariga tengdoshlari yoki qarindoshlari bilan o'ynab, o'yin maydonchasi kabi turli xil ijtimoiy muhitlarga olib borish orqali o'z yoshidagi bolalar bilan birga o'ynash imkoniyatini yaratishi mumkin. Tengdoshlar bilan birgalikda o'ynash orqali bola muhim ijtimoiy ko'nikmalarni o'rganadi. Yosh bolalar tabiatan egosentrikdir, ayniqsa ularning ijtimoiy ko'nikmalari hali ham rivojlanayotganligi sababli. O'yin jarayonida ular ota-onalari tomonidan aniq ta'lim berish va modellashtirish orqali boshqa odamlar bilan til topishishda muhim bo'lgan ijtimoiy ko'nikmalarni o'rganishlari mumkin. Ota-onalar tengdoshning e'tiborini jalb qilishning tegishli usullari (masalan, tengdoshning ismini chaqirish), xushmuomala belgilardan foydalanish (masalan, tengdosh yordam taklif qilganda "rahmat" deyish) yoki tengdoshning o'yiniga qo'shilish strategiyalari kabi ijtimoiy xulq-atvorni modellashtirishi mumkin.

2. Ijtimoiy hikoyalardan foydalanish

Ijtimoiy hikoya – bu ko'pincha rasmlar kabi ko'rgazmali qurollar bilan birlashtirilgan, shaxs uchun qiyin bo'lgan muayyan ijtimoiy vaziyatni tasvirlaydigan hikoya. Bu nafaqat yangi paydo bo'lgan ijtimoiy kommunikatorlar uchun foydalidir balki yangi ma'lumotni aniq tarzda taqdim etilganda yaxshiroq o'rganadiganlar

(masalan, autizm spektrining buzilishi yoki ijtimoiy aloqa buzilishi bo‘lgan bolalar), shuningdek, ijtimoiy ko‘nikmalari hali ham rivojlanayotgan neyrotipik yosh bolalar uchun foydalidir. Ijtimoiy hikoya ma’lum bir ijtimoiy vaziyatga javoban ijtimoiy jihatdan mos munosabat yoki xatti-harakatni o‘rgatadi, shu bilan birga o‘z-o‘zini anglash ko‘nikmalarini rivojlantiradi, shu bilan birga shaxs va uning atrofidagi odamlar shaxs tomonidan ko‘rsatilgan xatti-harakatlarga qanday munosabatda bo‘lishini ta’kidlaydi.

3. Yorliqli maqtov orqali mustahkamlash

Belgilangan maqtov xulq-atvorga xosdir. Bu bolaga nima qilayotgani to‘g‘ri yoki atrofdagi odamlarga yoqqanini aniq bilish imkonini beradi. Bu belgilanmagan maqtovdan ko‘ra samaraliroq, chunki ikkinchisi bolaga ijtimoiy xulq-atvorning nima ekanligini bildirmaydi.

4. Taqlid ko‘nikmalarini tushunish

Taqlid - bu asosiy ta’lim jarayoni bo‘lib, u orqali bolalar boshqalarning xatti-harakatlari, harakatlari va nutqlarini kuzatish va takrorlashidir. Bu taqlid qilish qobiliyati yanada murakkab ijtimoiy va kognitiv qobiliyatlar uchun qurilish blokidir. Ko‘pincha bolalar taqlid qilish bilan kurashadilar, bu ularning ijtimoiy o‘zaro ta’siri va o‘rganishiga to‘sqinlik qilishi mumkin.

5. O‘yin ko‘nikmalarining ahamiyati

O‘yin shunchaki dam olish faoliyati emas balki bu bola rivojlanishining muhim qismidir. O‘yin orqali bolalar o‘z dunyosini kashf etadilar, vosita ko‘nikmalarini rivojlantiradilar, ijtimoiy me’yorlarni o‘rganadilar va xayoliy fikrlash bilan shug‘ullanadilar.

Turli xil o‘yin turlari:

Funktsional o‘yin: o‘yinchoqlar yoki narsalarni vazifasiga ko‘ra ishlatish, masalan, mashinani aylantirish yoki bloklarni yig‘ish.

Ramziy o‘yin: boshqa narsalarni tasvirlash uchun obyektlardan foydalanish, masalan, bananni telefon sifatida ishlatish.

Ijtimoiy o‘yin: tengdoshlar bilan muloqot qilish, almashish, navbatchilik qilish va qoidalarga rioya qilish.

Konstruktiv o‘yin: Legolar, bloklar yoki san'at buyumlari kabi materiallardan foydalangan holda biror narsa qurish yoki yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. https://en.wikipedia.org/wiki/Robert_K._Merton
2. https://en.wikipedia.org/wiki/Sigmund_Freud
3. The first step is the role of the state curriculum in organizing the pedagogical process MH Asranbayeva, GS Ibrohimova Miasto Przyszłości 41, 269-270
4. IMPROVING THE PROCESS OF USING NEW ADVANCED PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN GS Ibrahimova INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN
5. THE FIRST STEP IS THE ROLE OF THE STATE CURRICULUM IN ORGANIZING THE PEDAGOGICAL PROCESS GS Ibrohimova, MH Asranbayeva Miasto Przyszłości 41, 305-306
6. INNOVATIVE METHODS OF DEVELOPING PRESCHOOL CHILDREN GS Ibrahimova

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Ismoilov Islomjon Ilhomjon o‘g‘li
Namangan pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi
islomjonismoilov660@gmail.com

TALABALARNI AXBOROT-TA’LIMI MUHITIDA KREATIVLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING MAZMUN MOHIYATI

Annotatsiya: *Maqolada raqamli ta’lim tizimida zamonaviy va istiqbolli mehnat bozori talablarining diversifikatsiyalash, o‘qitishni yangi strategiyalarga moslashtirish, ta’limiy axborot infrastrukturasi bazasini kasbiy faoliyatga aloqador parametrlar doirasida rivojlantirish uning o‘quv-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish. Axborotlashgan ta’lim muhitida talabalar tomonidan faol ijodiy nostandart ravishda bilim olishga o‘rgatish, aqliy faoliyatga uyishtirish, tashkil etish usullari, vositalari, hamda talaba tomonidan shug‘ullanish texnologiyasi, ishlash ishtiyoqi, motivi, qiziqishi, hissiy intilishini amalga oshirish yuzasidan mutafakkirlarimizning qomusiy fikrlari qarashlari to‘g‘risida bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *axborot ta’lim muhiti, talabalar, ta’lim resusrlari, axborot xizmati, o‘quv tarbiya jarayoni.*

Исмоилов Исломжон Илхомжон угли
независемый исследователь, Наманганского педагогического института

СУЩНОСТЬ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ У СТУДЕНТОВ В ИНФОРМАТSIОННО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

Аннотатsiя: *В статье рассматривается диверсификатsiя требований современного и приемлемого рынка труда в системе цифрового образования, адаптатsiя обучения к новым стратегиям, реформирование базы инфраструктуры образовательной информатsiи в рамках параметров, связанных с профессиональной деятельностью, повышение эффективности ее учебно-воспитательного процесса. В сообщаемой образовательной среде из студенческой массы в активный творческий нестандартный способ обучения получают знания, умственная деятельность, методы, средства организатsiи, а также технология восприятия студенческой массы, способность внедрять в жизнь рабочую работу, мотивы, интересы, чувственные побуждения, выражаются в мыслях наших мыследеятелей.*

Ключевые слова: *информатsiонная образовательная среда, студенты, учебные ресурсы, информатsiонная служба, учебный процесс.*

Ismoilov Islomjon Ilhomjon ugli
Independent researcher at the Namangan Pedagogical Institute

THE IMPORTANCE OF THE DEVELOPMENT OF CREATIVE ABILITIES OF STUDENTS IN THE INFORMATION AND EDUCATIONAL ENVIRONMENT

Abstract: *The article considers the diversification of the requirements of the modern and acceptable labor market in the system of digital education, the adaptation of training to new strategies, the reform of the educational information infrastructure base within the parameters related to professional activity, the increase in the efficiency of its educational process. In the communicated educational environment, from the student mass to the active creative non-standard way of learning, knowledge, mental activity, methods, means of organization, as well as the technology of perception of the student mass, the ability to implement work in life, motives, interests, sensual impulses are expressed in the thoughts of our thinkers.*

Key words: *information education environment, students, learning resources, information service, and the learning process.*

Jahon ta’limi va tadqiqot muassasalarida raqamli ta’lim tizimida zamonaviy va istiqbolli mehnat bozori talablarining diversifikatsiyalash, o‘qitishni yangi strategiyalarga moslashtirish, ta’limiy axborot infrastrukturasi bazasini kasbiy faoliyatga aloqador parametrlar doirasida rivojlantirishning nazariy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash va

samaradorligini ta’minlashda moddiy omillar o‘rinda ta’lim muasasalarida mustaqil ishini tashkil etishni takomillashtirish darajasi, salohiyati ham zarur. Talabalarning axborot ta’lim muhitida kreavtivlik qobiliyatlarini rivojlantirish hamda davr talablariga muvofiq faoliyat yurita olishlari uchun zarur shart-sharoit yaratishda oliy ta’lim tizimi alohida o‘rin tutadi.

Qonunchilik palatasi tomonidan 2020 yil 19 mayda qabul qilingan Senat tomonidan 2020 yil 23 sentyabrda ma’qullangan O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637 sonli qonunida ham ta’lim sifatini yaxshilash, talabalarning turli shakllarda ta’lim olishi (ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta’lim olish (kunduzgi); ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta’lim olish (sirtqi, kechki, masofaviy); dual ta’lim; oilada ta’lim olish va mustaqil ishi; katta yoshdagilarni o‘qitish va ularga ta’lim berish; inklyuziv ta’lim; eksternat tartibidagi ta’lim; mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlar tayyorlash) belgilab qo‘yilgan. Yuqoridagilarni inobatga olib axborot ta’lim muhitida kreavtivlik qobiliyatlarini rivojlantirish, ta’lim jarayoniga kreativ o‘qitish metodikasini joriy etish, jumladan, oliy ta’lim muassasalari talabalarida o‘quv jarayonida qo‘llash va rivojlantirish zamonaviy ta’limning asosiy vazifalaridan biri sanalmoqda [1].

Bugungi kunda “Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari” fani xususan insonni nafaqat bilimlarining rivojlanishida keskin o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda, balki insonning ichki tuzilishi, mohiyati, qadriyatlari, psixologik qonuniyatlari va tafakkurining xususiyatlari yangicha namoyon qilmoqda. Dolzarb va muhim bo‘lgan vazifalardan biri axborot ta’lim muhitida kreativ fikrlashi o‘quv-biluv faoliyatini shakllantirish, amaliy tajribalarga asoslangan holda ma’lum bir maqsadlarni ko‘zlab, tafakkur operatsiyalarini bajarish orqali talabalar tomonidan alohida o‘zlashtirilgan bilimlar va ko‘nikmalarning puxtaligi, barqarorligi va mustahkamligini talabalarning kreativ fikrlashida shart sharoitlarni tashkil etish va yaratish hamda qiziquvchanlig rivojiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir.

Zamonaviy ta’lim qaysi sohada bo‘lmasin insonga o‘zi va uni o‘rab turuvchi olam haqida bilim beruvchi, yashashni o‘rgatuvchi, ushbu bilimlar asosida jamiyat taraqqiyoti uchun egallagan kasbini mukammal bilishga undovchi va rivojlantiruvchi kabi yagona maqsadlarga ega. Bundan kelib chiqqan holda bilim olish - bu maqsad emas, balki hayotda maqsadga aylangan strategiyani amalga oshirishga qaratilgan vositadir.

Axborotlashgan ta’lim muhitida talabalar tomonidan faol ijodiy nostandart ravishda bilim olishga o‘rgatish, aqliy faoliyatga uyishtirish, tashkil etish usullari, vositalari, hamda talaba tomonidan shug‘ullanish texnologiyasi, ishlash ishtiyoqi, motivi, qiziqishi, hissiy intilishini amalga oshirish yuzasidan mutafakkirlarimizning qomusiy fikrlari qarashlari mavjud bo‘lib, ular quyidagicha ifodalangan.

Fuqarolarning savodxonligi orqali davlat iqtisodiyoti va jamiyat yashash tarzi yuksaladi, rivojlanayotgan texnologiyalar esa oliy ta’limni jahon bozorlarida naqadar zarurligini ko‘rsatadi [2]. Kreativlik nafaqat yakka tartibdagi korxonalarning, balki mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini rivojlantirish uchun ham asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda kreativ mutaxassislarni shakllantirish zamonaviy jamiyat ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biridir. Qo‘yilgan vazifaga faqatgina kreativ o‘qitish metodikasini maqsadli olib borish bilan erishish mumkin, bunda ta’lim oluvchiga yangi bilimlarni tushunishiga, ulardan yangilik yaratishi va amaliyotga samarali tadbiq etishiga imkon berilishi lozim. Aynan shuning uchun ham so‘nggi yillarda ta’lim jarayoniga kreativ o‘qitish metodikasini tadbiq qilish, jumladan, oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslari o‘quv jarayonida qo‘llash va rivojlantirish zamonaviy ta’limning asosiy vazifalaridan biri sanalmoqda.

Respublikamiz va xorijiy mamlakat olimlari tomonidan kreativ o‘qitishning falsafiy, psixologik va pedagogik nuqtai nazardan ko‘p qirrali hususiyatlari tavsifi bo‘yicha bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Yu.M.Asadovning fikricha, kreativlik salohiyatini eng qimmatli hususiyatlaridan biri uning innovatsiyani yaratishdagi asosiy rolidir. Innovatsiya - shaxs intellekti mahsuli bo‘lib, kreativlikni qo‘llash natijasida namoyon bo‘ladi [3].

G.N.Ibragimovaning tadqiqot ishida kreativlik - shaxsning yaratuvchanlik, ijodkorlik xislatlarlari bilan bog‘liq ko‘nikmalar majmui bo‘lib, u o‘z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intiutsiya, natijalarni oldindan ko‘ra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiyani qamrab oladi deb ta’kidlaydi [4.].

A.A.Aripjanova esa kreativlikni o‘rganish bo‘yicha pedagogik faoliyatning o‘ziga xosliklari va yondashuvlarni inobatga olib, pedagog kadrlarining kreativligini: faoliyatli, samarali, shaxsiy, muhitga doir, muammoli aspektlarda ko‘rib chiqish lozimligini aniqlagan [5. Aripdjanova A. R. Ta’limni axborotlashtirish sharoitida oliy ta’lim muassasalari pedagoglarining kreativ salohiyatini rivojlantirish. p.f. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) disser. avtoref. T.: - 2017. 24 b.].

Ilmiy adabiyotlarda kreativ o‘qitishning boshqa talqinini ham ko‘rishimiz mumkin. Masalan: talabalarda mustaqil fikrlash, bahs- munozaralar olib borish, nostandart fikrlash, noodatiy yechimlarni yaratish, amaliyotlarda kreativ fazilatlarni qo‘llashga tayyorlik kabi qobiliyatlarni shakllantirish lozim” deb tushunishimizda pedagog olimimiz A.I.Ostroumov va O.F.Ostroumovalar [6] “Kreativ o‘qitish asosida yaratuvchan, faol shaxsni

shakllantirish va ijodiy potensialini ochish, buni oliy ta'lim misolida ko'radigan bo'lsak, talabalarning ijodiy individualligini takomillashtirish deb ta'rif beradi.

Talabalarni axborot ta'limi muhitida kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish quyidagi asosiy g'oyalarni ajratib olishga imkon berdi: innovatsion iqtisodiyotning muvaffaqiyati bevosita kreativ insonlarga bog'liq; kreativ insonlarni shakllantirish - ta'lim tizimining vazifalaridan biri [7,8]; kreativlik - shaxsning nostandart fikrlashi, har qanday faoliyatda yangi, original g'oyalarni yaratish qobiliyati; kreativlikni kreativ o'qitish metodikasi va dizay fikrlash texnologiyasini qo'llash asosida rivojlantirish mumkin; kreativlikning rivojlantirish jarayoni turli faoliyat sohalariga xosdir. Talabalarning kasbiy bilimlari, ko'nikmalari va mahoratlarini uzluksiz yangilab borishi, ta'lim jarayonining fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasini ta'minlashi asosiy talablaridan biridir.

Yuqoridagilarni inobatga olib xulosa qilishimiz mumkunki, talablardan kelib chiqqan holda, kreativ o'qitish jarayonida oliy ta'lim talabalari o'zlari bilgan, o'ylagan, bajara oladigan, his qila oladigan faoliyatga egaligini ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. 2020 йил 23 сентябрдаги "Таълим тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикасининг N ЎРҚ-637 сонли қонуни.
2. Коротков Э.М. Управление качеством образования: Учебное пособие для вузов. - М.: Академический Проект, 2006 . - 320 с.], [88. Скидин О.Л. Управление образованием: теоретико − методологический анализ социальных технологий. М.: ЗГУ. - 2000.– 291с.
3. Асадов Ю.М. Индивидуально-психологические особенности учителя как факторы развития профессионализма: Автореф.дис. …канд. Психол. наук. – Ташкент: «НУУз», 2007.-25 с.
4. Ибрагимова Г.И. Интерфаол ўқитиш методлари ва технологиялари асосида талабаларнинг креативлик қобилиятларини ривожлантириш: п.ф. бўйича фалсафа доктори (PhD) диссер. автореф. –Т.: - 2017. – 24 б..
5. Арипджанова А. Р. Таълимни ахборотлаштириш шароитида олий таълим муассасалари педагогларининг креатив салоҳиятини ривожлантириш. п.ф. бўйича фалсафа доктори (PhD) диссер. автореф. Т.: - 2017. 24 б.
6. Остроумов А.И., Остроумова О.Ф. Креативность и креативное обучение как слагаемые модернизatsii образования в России // Тамбов: Грамота.- 2013. -№ 2 (28): в 2-х ч. Ч. I. С. 149-153.
7. Najmiddinova Yo. R. Conditions of Forming Professional Abilities and Skills on Competence Approach among Colleges Students // Eastern European Scientific Journal. - Germany, 2018. -№4. - P.196-199.
8. Нажмиддинова Ё.Р. Запрограммированная вспомогательная компьютерная система – как информационно-образовательная среда в обучении инженеров-техников // ЎзМУ Хабарлари, 2019.№1/2.- 131-134 стр

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Soliyev Umidjon Yulchivoyevich
Namangan davlat chet tillari instituti katta o'qituvchisi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail-umidjon.soliyev.83@inbox.ru
ORCID: 0009-0007-7374-4608

TALABALARGA INGLIZ TILIDA MATNLARNI O'QISHNI O'RGATISH BOSQICHLARI, SHAKLLARI VA VOSITALARI

Annotatsiya: *Ushbu maqola Ingliz tili darslarida o'qish kompetensiyasini rivojlantirishning metodik muammosiga bag'ishlangan bo'lib, unda Ingliz tili darslarida o'qishni o'rgatishning bosqichlari, shakllari va vositalari tavsifi keng yoritilgan. Ingliz tili darslarida autentik matnlar asosida tilni o'rgatish ancha samarali usul ekanligi, ammo ingliz tilini o'qitishda o'qish kompetensiyasini rivojlantirish chuqur o'rganilmagan ekanligi haqida fikr yuritilgan.*

Maqolada ingliz tilini o'qitishda autentik matnlardan foydalanish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlar va qo'lga kiritilgan natijalar berilgan.

Bu maqola chet tili o'qituvchilari uchun til o'rgatish jarayonida, chet tili yo'nalishida taxsil olayotgan talabalar uchun Bitiruv malakaviy ishlarini tayyorlashda ahamiyatli hisoblanadi.

Kalit so'zlar: *ingliz tili, nutq faoliyati turlari, o'qishning matn oldi, matn bilan ishlash, matndan keying bosqichlari, o'qishning tanishuv, o'rganuv, kuzatuv turlari, o'qishni o'rgatish, matn, o'qishni o'rgatishga doir mashqlar.*

Солиев Умиджон Юлчвоевич
Старший преподаватель Наманганского государственного института иностранных языков,
доктор философских наук (PhD) педагогических наук

ЭТАПЫ, ФОРМЫ И СРЕДСТВА ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ ЧИТАНИЮ ТЕКСТОВ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация: *Статья посвящена методической проблеме формирования читательской компетенции на уроках английского языка, в ней дается комплексное описание этапов, форм и средств обучения чтению на уроках английского языка. Утверждается, что преподавание языка на основе аутентичных текстов на уроках английского языка является весьма эффективным методом, однако развитие навыков чтения при преподавании английского языка не изучалось глубоко.*

В статье представлены научные исследования и полученные результаты по использованию аутентичных текстов в обучении английскому языку.

Данная статья важна для преподавателей иностранных языков в процессе обучения языку, а также для студентов, изучающих иностранные языки, при подготовке выпускных квалификационных работ.

Ключевые слова: *английский язык, виды речевой деятельности, предтекстовое чтение, работа с текстом, послетекстовые этапы, ознакомление, обучение, наблюдательные виды чтения, обучение чтению, текст, упражнения для обучения чтению.*

Soliyev Umidjon Yulchvoyevich
Senior teacher at the Namangan State Institute of Foreign Languages,
Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

STAGES, METHODS AND MEANS OF TEACHING STUDENTS TO READ TEXTS IN ENGLISH

Abstract: *This article is devoted to the methodological problem of developing reading competence in English lessons, which provides a comprehensive description of the stages, forms, and means of teaching reading in English lessons. It is argued that teaching the language based on authentic texts in English lessons is a very effective method, but the development of reading competence in teaching English has not been studied in depth.*

The article presents scientific research on using authentic texts in teaching English and the results obtained.

This article is important for foreign language teachers in the process of language teaching and for students studying in the field of foreign languages in the preparation of graduation qualification works.

Keywords: *English, types of speech activity, pre-reading, while-reading and post-reading stages, fluently reading, close-reading, skimming-reading and scanning reading, teaching reading, text, exercises for teaching reading.*

Kirish.

Mamlakatimizda yosh avlodga ta'lim berishda innovatsion, ilg'or usullar va metodlarni qo'llash, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish hamda yosh avlodning ta'limdagi sifat samaradorligini oshirish, yoshlarni raqobatbardosh qilib tarbiyalash ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri.

Zamonaviy ta'limdagi ijobiy jarayonlarni tanqidiy anglash, Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim mazmunini rivojlantirish, ingliz tili va madaniyatini o'rgatish sifatini oshirish, xorijiy til darslarini modernizatsiyalashga ko'maklashadi.

So'ngi yillarda chet tillarini o'qitishda ta'limning texnik vositalari-video, multimedia, internet va boshqalardan foydalanishga qaramay, matn o'qish ilgarigidek til o'rganishda alohida o'rin tutadi.

Adabiyotlar tahlili.

XX asrning 80-yillarining oxirlari va 90-yillarida "O'qish kompetensiyasi" faoliyat yondashuvi kontekstida ko'rib chiqila boshlandi. G.Westhoff o'qish kompetensiyasini shaxsning har xil turdagi va maqsadli hamda turli rasmiy tuzilmalarga ega bo'lgan matnlarni tushunish, ularni kengroq kontekst bilan bog'lash va ulardan o'z maqsadlariga erishish yo'lida foydalana olish, shuningdek, o'qish qobiliyatini rivojlantirish, jamiyat hayotida faol ishtirok etish uchun bilim va imkoniyatlarni rivojlantirish deb belgilaydi. J.Grzesik o'qish kompetensiyasini o'qishdan keyingi o'rganish uchun yangi bilimlarni olish vositasi sifatida foydalanishga tayyorlik sifatida belgilaydi.

I.A.Zimnyaya o'qish faoliyatida ma'lumotni semantik qayta ishlashning to'rt bosqichini belgilaydi: 1.Semantik prognozlash; 2.Og'zaki taqqoslash; 3. So'zlar va semantik aloqalar o'rtasidagi semantik aloqalarni o'rnatish; 4. Semantik shakllantirish [8].

Tarkibiy qismlaridan biri o'qish kompetensiyasi bo'lgan kommunikativ kompetensiya zamonaviy nazariy tadqiqotlarda shaxsning nutq faoliyatini amalga oshirishning potentsial qobiliyati sifatida belgilanishi tadqiqotchilar S.L.Rubinshteyn, A.A.Leontyev, L.S.Vigotskiy, I.A.Zimnyaya, T.A.Razuvayeva, I.I.Jinkinlarning asarlarida ta'kidlab o'tilgan [3].

Z.I.Klichnikova ta'kidlaganidek, o'qish insonni kasb-hunar, kasbiy mahorat bilan tanishtiradi, uni xorijiy jamiyatdagi kasbiy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlaridan xabardor qiladi. Grafik matnda ifodalangan ilg'or fikrlarni o'zlashtirib, inson aqliy, axloqiy va ma'naviy jihatdan kamol topadi [3].

Tadqiqotlar metodologiyasi.

Maqolada oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilida o'qish kompetensiyasini rivojlantirishning metodikasi muhokama qilinadi. Uning asosiy bosqichlari, shakllari, usullari va vositalari tavsiflanadi. Respublikamizdagi oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilida o'qishni o'rgatish bosqichlari, shakllari, usullari va vositalari tahlil qilinadi va rivojlangan davlatlar bilan taqqoslanadi.

Tahlil va natijalar.

Ilmiy manbalarda tavsiya etiladigan va maktab tajribasida qo'llanadigan mashqlar turli jihatdan tasnif etiladi: a) matn bilan ishlash bosqichlari; b) o'qish turlari; d) o'qish texnikasi va mazmuni bilan bog'liq mashqlar.

Birinchi tasnifga ko'ra leksik birliklar va grammatik xodisalarni o'zlashtirish mashqlarini bajarish tayyorlov bosqichiga kiradi.

Leksik kompetensiyani rivojlantirish maqsadida ushbu bosqich muhim ahamiyatga egadir. Ushbu tushunchani jarayon metodi, ya'ni ma'nosi ma'lum bo'lgan leksik birlikni nutqda ishlatish metodi deb ta'riflash mumkin.

Leksikaga oid til materialini o'rgatishning uchta bosqichi mavjud bo'lib (tanishtirish yoki taqdim etish, mashq bajarish, qo'llash), har uchala bosqich ham tegishli mashqlarda amalga oshiriladi.

Leksikaga oid til materialini o'rgatish mashqlari information va operatsion qismlardan iboratdir. Informatsion qismi ko'rsatma berish va ijro namunasi bo'lib, tilga oid qoidalar hamda nutq amaliyotini birlashtiruvchi mashqlardan iborat. Operatsion mashqlarda leksik material nutq faoliyat turlarida egallanadi. Mashqdagi muayyan element – leksik operatsiyani egallash doimo asosiy vazifa qilib qo'yiladi. Masalan, "Matnni o'qing, ajratib ko'rsatilgan so'z, so'z birikmasi yoki gapga e'tibor bering" mashq topshiriqlaridagi birliklar shular jumlasidandir.

Dastlabki bosqichda, asosan, og'zaki, kontekstli, bir tilli (chet tilda) mashqlar auditoriyada, o'qituvchi nazoratida, guruh bilan, rasmlardan foydalanib bajariladi.

O'rta bosqichda mashqlarning katta qismi darsdan so'ng, yozma shaklda, o'qituvchi bevosita nazorat qilmaydigan, kontekstli va kontekstdan tashqari, yakka tarzda, ikki tilda bajarishga mo'ljallangan bo'ladi.

Yuqori bosqichda mavhumotlarga suyanib, kontekstdan tashqarida va kontekstda, ichki imkoniyatli potensial lug'atni boyitish, yangi so'z ma'nosini anglash, leksik operatsiyalarni ong ishtirokisiz erkin qo'llay olish kabi mashqlar bajarilishi tavsiya etiladi.

O'qish jarayonida grammatikaga oid til materiali quyidagi tartibda mustaxkamlanadi: 1. Matnda grammatik

hodisani topish (Read the text and find any grammatical phenomenon); 2. Tushirib qoldirilgan grammatik hodisani topish (Read the text and find the missing part); 3. O‘xshash grammatik hodisalarni farqlash; 4. O‘rganilayotgan grammatik hodisa orqali o‘qilayotgan matnni tushunish (Read the text and pay attention to a grammatical phenomenon and use this phenomenon to tell the meaning of the text).

Matnni o‘qish bosqichida esa quyidagi mashqlar bajariladi: 1.Matn mazmuni bilan tanishish; 2. Matn abzasini gapma-gap o‘qish; 3. Keyingi abzasdagi hikoya qiluvchini shaxsini o‘zgartirib o‘qish; 4. Navbatdagi abzasning fe’l zamonini o‘zgartirib o‘qish; 5. O‘qituvchi matnga mos tushmaydigan jumla aytadi, talaba matndan to‘g‘risini topib o‘qiydi; 6. Matn mazmunini navbatma-navbat aytish; 7. Matn mazmuni yuzasidan talabalar bir-biri bilan savol-javob qiladilar. 8. Matn mazmunini reja asosida beradilar.

Matn ustida ishlashning uchinchi bosqichida o‘ziga xos mashqlar bajariladi: 1. Yakka nutq yoki juft nutqda ushbu matn va oldin o‘tilgan materiallardan foydalanib gapirish mashq qilinadi. 2. Yangi mavzu bo‘yicha matndan foydalanib gapirish. 3. Juftnutq mashqlarini bajarish. Matn xususiyatiga ko‘ra tushunganlikni tekshirish mashqlari (og‘zaki va yozma) bajariladi.

Ikkinchi tasnifga binoan talabalar tanishuv, o‘rganuv va kuzatuv o‘qishga oid bajarishadi. Tanishuv o‘qish mashqlariga quyidagilar kiradi: 1. Matnning umumiy mazmunini tushunib savollarga javob berish. 2. O‘qituvchi matndagi ayrim axborotni ataylab o‘zgartirib aytadi, talabalar matndan to‘g‘ri ma’lumotlarni aytib beradi. 3. Matndan oldingi savollarga javob topish. 4. O‘qituvchi fikrini isbotlovchi dalillarni matndan topib aytish.

Axborot olish maqsadida o‘qish, avvalo, amaliy maqsad, ikkinchidan, ta’limiy vosita ekanligi nazariya va amaliyotda isbotlangan. Ta’lim muassasalarida o‘qishning axborot olish maqsadida tanishuv, o‘rganuv, kuzatuv turlari o‘rgatiladi. Tanishuv o‘qish (fluently reading) inglizcha matndan o‘zi uchun foydali va qiziqarli ma’lumotlarni olish hamda umumiy mazmunini tushunishni nazarda tutadi. Tanishuv o‘qishda inglizcha matn mazmuni yuzaki tushunib o‘qish uchun, umumiy mazmunni uqish uchun amalga oshiriladi. Mazkur o‘qishda matn ravon, jadal va yuzaki o‘qiladi. O‘qishning mazkur turida axborotning 75 foizigacha tushunarli bo‘lishi lozim. Bunday matnlarning hajmi katta, uslubi ravon bo‘lishi tavsiya etiladi.

O‘rganuv o‘qish davrida matn mazmunini batafsil tushunishga qaratilgan mashqlar bajariladi: 1. Matnni ko‘z yugurtirib o‘qib chiqish. 2. Diqqat bilan o‘qish. 3. Tushunganlikni tekshirish uchun matnning ayrim joylarini yoki to‘liq yozma tarjima qilish. 4. Savol-javob mashqini bajarish.

Kuzatuv o‘qish jarayonida boshqa turlardagi o‘qishga qo‘shimcha quyidagi mashqlar tavsiya etiladi: 1. Uch-to‘rt daqiqa mobaynida matnda nima haqida gap borishini aniqlash; 2. Matndan zaruriy axborotni topib o‘qish; 3) Gazetadan mavzuga doir maqolani topib o‘qish.

Uchinchi tasnif bo‘yicha o‘qish mashqlari ikki toifada bajariladi: 1. Til materialini, boshqacha aytganda, nutqiy faoliyat ko‘rsatish vositalarini o‘zlashtirishga; 2. Matndagi axborotni fahmlash usullarini egallashga mo‘ljallangan mashqlar.

Til hodisalarini o‘qish jarayonida o‘rganish mashqlari: 1. So‘zni yozish (ko‘ruv timsolini hosil qilish) va o‘qish; 2. Orfografik belgiga binoan so‘zlarni guruhlab o‘qish; 3. Harfi tushirib qoldirilgan so‘zlarni to‘ldirib yozish va o‘qish; 4. Diktantlar yozish va o‘qish; 5. Muayyan harfni o‘z ichiga olgan qator so‘zlarni o‘qish; 6. Biror tovushli so‘zlarni o‘qish; 7. Qisqa va cho‘ziq unli ishtirokidagi so‘zlarni o‘qish; 8. Qiyoslangan so‘zlar ustunini o‘qish; 9. Bir qoidaga rioya qiladigan tanish va notanish so‘zlarni o‘qish; 10. So‘z birikmalarini o‘qish; 11. Gaplarni o‘qish; 12. Mikromatnni o‘qish.

Grafemalar (harf va harf birikmalari)ni, so‘z va so‘z birikmalari, gap, mikromatnni sinf doskasidan, daftar yoki kitobdan va tarqatma materialdan o‘qish mumkin.

O‘qishdan axborot olish mashqlari: 1. Matnning biror tarafini ajratish (asosiy g‘oyasini, biror tafsilotini, muayyan faktni topib o‘qish); 2. Biror masalalarni yoritadigan o‘rinlarni topish; 3. Voqealar (qahramonlar) orasidagi bog‘lanishni ochish maqsadida o‘qish; 4. Mavzuning ibtidosi va intihosini aniqlash uchun o‘qish; 5. O‘qilgan joyni sharhlash; 6. Yashirin mazmun (tagma’no)ni fahmlash va boshqalar.

Tegishli so‘zlarni toppish, fe’l zamonini aniqlash, tayanch jumlalarni belgilash, so‘z va jumlalarni almashtirish, bir nechta jumlani biriktirish singari til materialiga doir mashqlar ham bajariladi.

Nutqiy mashqlarda ashyoviy ko‘rgazmalilik, syujetli rasmlar, flanegraf kabilardan keng foydalanish mumkin.

Xullas, o‘qishni o‘rgatishda lisoniy (leksik, grammatik, talaffuzga oid) ko‘nikmalarni hosil qilish mashqlari va nutq (o‘qish, tinglash, gapirish, yozuv) kompetensiyalarini rivojlantirish mashqlari bajariladi.

Matnlarni o‘qishni o‘rgatish uch bosqichga bo‘linadi: matndan oldingi bosqich, matn bosqichi va matndan keyingi bosqich.

Matndan oldingi bosqichda talabalarning matn bilan ishlashga bo‘lgan motivatsiyasi uyg‘onadi va rag‘batlantiriladi. Talabalarning shaxsiy tajribasi boshqa fanlardan bilimlarni jalb qilish orqali yangilanadi; matn mazmunini talabalar bilimi, ularning hayotiy tajribasi, sarlavhalari va rasmlari va boshqalar asosida tarjima qilinadi. E.A.Masliko ushbu bosqichda muhim qoidaga rioya qilish va matn ustidagi barcha dastlabki ishlar uning mazmuniga taalluqli bo‘lmasligi kerakligini ta’kidlagan,

aks holda talabalar uni o‘qishga qiziqmaydilar, chunki matnning “yangilik effekti” o‘z ma’nosini yo‘qotadi.

Matn bosqichi o‘qish uchun matn bilan bevosita ishlashni o‘z ichiga oladi. Mazmun jihatidan o‘qish matnlari to‘liq bir butunlikni ifodalashi va talabalar yangi ma’lumotlar bilan masalan, ularni yaxshiroq tushunishga hissa qo‘shadigan sarlavhalar bilan ta’minlanishi kerak. Chunki bu talabaning idrokiga e’tiborni yaratadi. Texnik matnlar, bizning holatimizda bo‘lgani kabi, rasmlar va qo‘shimcha texnik materiallar bilan to‘ldirilishi kerak. Matn bosqichida talabalar matn mazmunini, semantik segmentlarni bir butunga birlashtirishning leksik va tematik asoslarini topish orqali matndan asosiy va ikkinchi darajali ma’lumotlarni ajratib olishga qaratilgan mashqlarni bajaradilar.

Matndan keyingi bosqichda matn mazmunini tushunish nazorat qilinadi va unga izoh beriladi. Topshiriqlar talabalarni taqdimot rejasini tuzishga tayyorlaydi: 1. Matnning konturini tuzish; 2. Matnda o‘rganilayotgan mavzu haqida gapiradigan xatboshini topish; 3. Matn uchun mos tasvirni bayon qilish; 4. Matnni mustaqil o‘qish va undan o‘rgangan yangi ma’lumotlarni ajratib ko‘rsatish; 5. Matnning talaba uchun qiziq bo‘lgan qismiga izoh berish; 6. Mutaxassislik bo‘yicha ishlashda matndagi ma’lumotlardan qanday foydalanish mumkinligini aytish.

Berilgan mashqlar nutqiy kompetensiani rivojlantirishga mo`ljallangan bo‘lib, ushbu bosqich oxirida talabalarga matnlarni umumlashtirish, izohlash va ko‘rib chiqish bo‘yicha ko‘rsatmalar beriladi. Bu ularning mazmuniga chuqur kirib borishni o‘z ichiga oladi.

Matndan keyingi bosqichda matn mazmuni yoki uning faqat bir qismi talabalarda o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma ravishda ifodalash malakalarini shakllantirish uchun foydalaniladi. Ushbu bosqichda tavsiya etilgan mashqlar reproduktiv va ishlab chiqarish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘ladi.

Mashqlar o‘qitishning asosiy vositasi sifatida ikkita asosiy talabni qondirishi kerak. Birinchidan mashqlar tizimi talabalarning potensial ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo‘lishi kerak, ya’ni u talabalarning kelajakdagi kasbiga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Ikkinchidan mashq turlari, ularni amalga oshirish ketma-ketligi va ularning miqdori kasbiy yo‘naltirilgan o‘qish ko‘nikmalarini oshirishning samarali usuliga kiritilishi kerak.

O‘qishni o‘rgatish talabalarni nutq faoliyatining boshqa turlari, ya’ni o‘qish va yozuvni o‘zaro bog‘liq holda o‘rgatish fonida amalga oshirilishi kerak. O‘qishni o‘rgatish uchun matnni tanlash va tashkil etish ushbu materialdan nutq faoliyatining boshqa turlarini rivojlantirish uchun asos sifatida foydalanish imkoniyatini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak.

Xulosa.

Oliy ta’lim muassasalarida matnlarni o‘qishni o‘rgatish - talabalarning kasbiy bilimlarini kengaytirishga, talabalarning ingliz tilida kommunikativ kompetensiyasini rivojlanishiga, ularning diqqat, xotira, idrok va mantiqiy tafakkur kabi psixologik xususiyatlarini shakllanishiga imkon beradi.

Tadqiqotimizda matnlarni o‘qishni o‘rgatishni metodikada ishlab chiqilgan matn oldi, matnni o‘qish jarayoni va matndan keyingi bosqichlari tahlil qilindi. Matnoldi va matndan keyingi bosqichlarda faoliyatning zamonaviy interaktiv shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligi tadqiqotda o‘zining ilmiy tasdig‘ini topdi.

Xatoni top o‘yini. Dasturlash fanidan o‘qituvchi dastur kodlarini xato yozadi. Talabalar dastur kodlarini to‘g‘irlab chiqishi kerak bo‘ladi. Bu orqali talabalar dastur yozishda xato qilmaslikka harakat qiladi va mukammal dastur tuzishni o‘rganadi.

Dasturlash fanida qiziqarli dars mashg‘ulotini tashkil etish, nafaqat talabalarni bilim bilan ta'minlash, balki ularni motivatsiyasiyasini oshirish va ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Darslarni interaktiv, gamifikatsiya elementlari bilan boyitilgan, real hayotdagi muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan, amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘tkazish – bularning barchasi talabalarning dasturlashni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Foydalanilgan adaabiyotlar ro‘yxati.

1. Papert, S. (1980). *Mindstorms: Children, Computers, and Powerful Ideas*. Basic Books.
2. Shaxobbdinovna, O. S. (2024). Matematika va informatika fanini o‘qitishda “interaktiv o‘yin”lardan foydalanish. pedagog, 7(3), 294-296.
3. Ahmadaliyev, b. B., & Eraliyev, h. M. (2024). Importance of student image recognition program in learning management. International journal of education, social science & humanities, 12(4), 1325-1328.
4. Shaxobbidinovna, O. S. (2024). “Algoritm ijrochisi” mavzusi uchun qiziqarli dars mashg ‘ulotini tashkil etish. american journal of multidisciplinary bulletin, 2(5), 38-41.
5. Ahmadaliyev, B. B., & Toshmatov, M. M. (2024). Bir jinsli bo‘lmagan immigratsiyali tarmoqlanuvchi tasodifiy jarayonlarning asimptotik xossalari. international journal of science and technology, 1(17), 77-80.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Mardiyeva Guzal Karimovna
Samarqand davlat universiteti tadqiqotchisi,
Samarqand davlat tibbiyot universiteti assistenti
mardiyeva_89@mail.ru

XX ASR 20-40 YILLARIDA SAMARQAND VILOYATNING O‘RTA MAXSUS VA OLIY TA’LIM SOHASIGA XOTIN-QIZLARNI JALB QILISH MASALASI VA SOHADAGI MUAMMOLAR

Annotattsiya. *Ushbu maqolada sovet mustamlakasi sharoitida Samarqand hududidagi xotin-qizlarning o‘rta maxsus va oliy ta’lim sohasiga jalb qilinishi, ulardan mutaxassis kadrlar tayyorlash uchun tashkil qilingan qisqa kurslar, texnikumlar va oliy ta’lim muassasalarini tashkil qilinishi, xotin-qizlarga yaratilgan imkoniyatalar va xotin-qizlarni ta’lim sohasidagi faolligini saqlab turishdagi muammolar tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Oliy ta’lim, xotin-qiz kadrlar, o‘qituvchilik kursi, pedagogik texnikumlar, kasb-hunar ta’limi, qayta tayyorlash kurslari, mahalliy millat.*

Мардиева Гузаль Каримовна
Исследователь Самаркандского государственного университета,
Ассистент Самаркандского государственного медицинского университета

В 20-40-Е ГОДЫ XX ВЕКА ВОВЛЕЧЕНИЯ ЖЕНЩИН В СИСТЕМУ СРЕДНЕГО СПЕЦИАЛЬНОГО И ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ И ПРОБЛЕМЫ В ЭТОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация. *Аннотация. В этой статье в условиях советской колонии проанализированы вовлечение женщин в сферу среднего и высшего образования в Самаркандской области, создание краткосрочных курсов, техникумов и высших учебных заведений для подготовки специализированных кадров, возможности, создаваемые для женщин и проблемы поддержания активности женщин в сфере образования.*

Ключевые слова: *Высшее образование, женские кадры, педагогический курс, педагогические техникумы, профессиональное образование, курсы переподготовки, местная нация.*

Mardieva Guzal Karimovna
Samarkand State University researcher,
Assistant of Samarkand State Medical University

THE ISSUE OF ATTRACTING WOMEN TO SECONDARY SPECIALIZED AND HIGHER EDUCATION IN THE SAMARKAND REGION IN THE 1920S-1940S AND PROBLEMS IN THE FIELD

Abstract. *This article analyzes the involvement of women in secondary specialized and higher education in the Samarkand region under Soviet colonial conditions, the organization of short courses, technical schools and higher educational institutions organized to train specialists from them, the opportunities created for women, and the problems of maintaining women’s activity in the field of education.*

Keywords: *Higher education, female personnel, teacher training course, pedagogical technical schools, vocational education, retraining courses, local nationality.*

Kirish.

Sho‘ro hokimyati o‘zining dastlabki kunlaridan boshlab O‘zbekistonda arzon mutaxassis kadrlar tayyorlash uchun turli usullarni ishlab chiqqan. Shu sababli, respublikaning ushbu davrdagi hukmron siyosiy kuchlari kadrlar tayyorlash mexanizmini doimiy ravishda o‘zgartirib turishdi. Xotin-qizlarni rahbar xodimlar va mutaxassislar sifatida tayyorlash, shuningdek, ularni o‘rta maxsus va oliy ta’lim tizimiga jalb etish masalasi ayniqsa diqqat markazida bo‘ldi.

O‘zbekistonda ushbu yillarda xotin-qizlar ta’limi tizimida hunar maktablari, qisqa kurslar va pedagogik texnikumlari keng tarqalgan ta’lim shakillaridan hisoblanardi. Ushbu bilim yurtlari birinchi bosqich

maktablarini xotin-qiz kadrlar bilan ta'minlash uchun tashkil qilingandi.

Asosiy qism.

20-yillarning boshlarida xotin-qiz kadrlar tayyorlash ishlari Toshkent shahrida amalga oshirilgan bo'lsa, keyinchalik O'zbekistonning boshqa hududlarida ham yo'lga qo'yila boshlandi.[1] Xususan, 1924-yil Samarqandda xotin-qizlar uchun o'qituvchilik kursi tashkil etildi va shu yilning o'zidayoq uni 15 nafar bitiruvchi bitirib chiqdi. 1932-1933 o'quv yilida ushbu kurslarda o'qiydigan xotin qizlarning soni 146 nafarni tashkil etdi.[9] Samarqand viloyat xalq ta'lim maorifi bo'limi 1925-yilning qishida Samarqandning eski shahar qismida musulmon ayol o'qituvchilarni tayyorlovchi ikki yillik kurs ochishni rejalashtiradi. Chunki, tashkil etilgan ayollar maktabi va savodsizlikni tugatish maktablarida ayol o'qituvchilarga ehtiyoj bor edi. 1926-yilda bu kurslarda 60 nafar xotin-qiz o'qidi.

Shuningdek, uch yillik pedagogik texnikumlar bu davrda ham xotin-qiz kadrlar tayyorlashda alohida ahmiyatga ega bo'ldi. 1918-yili Samarqandda xotin-qizlarning pedagogika texnikumi tashkil etildi. 1926-yilga kelib Qo'qon va Farg'onada ham ayollar pedagogika texnikumi ochildi. Ushbu bilim yurtlarida 1926-1927 o'quv yilida 466 nafar xotin-qiz, 1927-1928 o'quv yilida 628 nafar xotin-qizlar tahsil olgan.[2] 20-yillarning o'rtalariga kelib O'zbekiston xotin-qizlar pedagogika o'quv yurtlari bitituvchilaridan dastlabki o'zbek xotin-qiz o'qituvchilari yetishib chiqdi. Samarqand xotin-qizlar pedtexnikumida Z.Yoqubova, M.Sulaymonova, F.Yoqubova, Toshkent pedtexnikumida K.Shodmarova, Z.Sadriddinova, G.Axmadjonova va boshqalar shular jumlasidandir.

Xotin-qizlarning kasb-hunar bilim yurtlariga qamrab olinishida bir qadar siljishlarga erishilgan bo'lsada, hali kamchiliklar yetarli edi. 30-yillarda xotin-qizlarni kasb-hunar bilim yurtlariga jalb etilish rejasi 45% qilib belgilangan bo'lsada, lekin aslida bu 35% ni ham tashkil etmagan. Xotin-qizlarni majburan kasb-hunar bilim yurtlari va qisqa kurslarga jalb qilinishda majburlash holatlari ham uchrab turgan. Zero, 1933-yil Samarqanddagi ikki yillik tayyorlov kursini bitiruvchilari bo'lmaganligi fikrimiz dalilidir.[3] Lekin,1932-1933 o'quv yilida ushbu kurslarga 146 nafar xotin-qizlar tahsil olardi. Xotin-qizlarning bilim yurtlarini tashlab ketish sabablari ushbu bilim yurtlarida aniq o'quv rejalarning mavjud bo'lmaganligi, ularga dars beruvchi o'qituvchilar asosan rus tilida dars o'tishi va uzoq hududlardan keluvchi xotin-qizlar uchun yotoqxonlarning kamligi, bundan tashqari mahalliy urf-odatlar ayollarni uzoqqa borib o'qishiga yo'l bermasdi. Masalan,1927-1928 o'quv yilda Samarqanddagi ayollar pedagogik bilim yurtiga 105 nafar xotin-qizlar qabul qilingan bo'lsa, shularning 80 nafari yotoqxonalarga joylashtirish imkon bo'lgan. Mavjudlarida ham yashash uchun sharoit qoniqarli emasdi. Pedagogik texnikumlarda qish kunlarida talabalarning o'qishi uchun yetarli sharoitlar mavjud emasligi, xonalarning sovuqligi ham talabalarning doimiy ravishda darslarga qatnashishiga halaqit berardi.[4] Bundan tashqari bilim yurtlarida ta'lim muassasalari uchun zarur bo'lgan materiallarni sotib olish imkoni bo'lmasligi, ayniqsa kuzda ta'lim muassasalari uchun ajratiladigan mablag'larni o'z vaqtida berilmasligi yana bir muammolardan edi.

1936-yilda Respublikada 222 nafar ayolni qamrab olgan 18 turdagi kurslar tashkil qlindi, ulardan 82 nafari mahalliy millat vakillari edi, lekin 1936-yil rejasida ayollar kadrlarini tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha maxsus kurslar nazarda tutilmagan edi. 1937-yilda 31 turdagi kurslar o'tkazildi, 9845 nafar ayol kadrlarni qamrab olish rejasi belgilandi, 7392 kishi qamrab olindi, shundan 6761 nafari mahalliy millatga mansub ayollar edi. Ushbu kurs rejasiga kolxozlarda 8400 nafar o'qituvchilarini tayyorlash kiritilgan, lekin 6100 kishi ushbu jarayonga qamrab olingan. [5]

Ushbu davrning yana bir yutuqlaridan xotin-qizlarni ham oliy ta'lim tizimiga jalb qilish bo'ldi. Endi, xotin-qizlarda ham ilm-fan bilan shug'ullanish, o'z iqtidorlarini namoyon qilish imkoniyati yaratila boshlangan edi. Ayni damda respublikada turli oliy ta'lim dargohlari ochila boshlagan. Masalan,1927-yilda Samarqandda Oliy Pedagogika Akademiyasi tashkil etildi. Institut ma'muriyati va partiya tashkiloti mahalliy millat xotin-qizlarini o'qishga jalb etishga alohida e'tibor qaratdi. Ular uchun 1927-yildan boshlab institutda ayollar uchun universitetga kirishga tayyorlanish uchun bir yillik kurslar tashkil etilgan. [10] 1931 yilda yesa Pedagogika akademiyasini 16 nafar ayol muvaffaqiyatli bitirib chiqdi .[11]

SSSR MIK ning 1932-yil 19-sentyabrdagi qarori, VKP (b) MK ning "Oliy maktablar va texnikumlar to'g'risida" gi qarori hamda O'zbekiston SSR MIK va Xalq Komissarlari Sovetining 1933-yil 20-yanvardagi qaroriga muvofiq Samarqand shahrida Akmal Ikromov nomidagi O'zbekiston Davlat pedagogika akademiyasi va Tibbiyot instituti negizida O'zbekiston Davlat universiteti tashkil qilinadi.[6]

Universitetga 1933/34 o'quv yiliga o'qishga qabul Nizomi tuzilganda unda quyidagi moddalar bor edi:

-O'zbekiston Davlat universitetiga 10 yillik ma'lumotga ega bo'lgan, ishchilar fakultetini va texnikumlarni bitirgan 18 yoshdan 35 yoshgacha bo'lgan erkak va ayollar qabul qilinishi;

-o'qishga kiruvchilar matematika, fizika, ximiya, ona tili, tarix va jamiyatshunoslik fanlaridan kirish imtihonlarini topshirishi, topshiruvchilar o'zbek tilini, boshqa millat vakillari rus tilini, evropaliklar esa o'zbek tilini bilishlari kerak edi.

O'zbekiston Davlat universitetining birinchi bitiruvchisi (179 nafar yosh mutaxassis) 1935-yilda bo'lib, shundan 60 nafari ayollardir. Bitiruvchilar orasida 15 millat vakillari bor edi; 92 (52%) mahalliy millat vakillari. 106

nafar shifokor, 10 nafar tarixchi, 15 nafar iqtisodchi, 12 nafar kimyogar, 24 nafar fizik-matematik, sakkiz nafar adabiyotshunos, to‘rt nafar tilshunos diplom oldi. 1936-yil universitetga 54 nafar xotin-qizlarni o‘qishga qabul qildi.[7]

O‘n yildan so‘ng professor-o‘qituvchilar tarkibi 13 barobardan ortiqqa o‘sdi. Agar 1927 yilda universitetda bor-yo‘g‘i 10 nafar o‘qituvchi bo‘lsa, 1937 yilda 131 nafar, jumladan, 19 nafar professor, 39 nafar dotsent, 64 nafar assistent, 9 nafar o‘qituvchi faoliyat ko‘rsatgan. Jami professor-o‘qituvchilardan 19 nafari ayollar edi. Ushbu davrda xotin-qiz kadrlar tayyorlashga katta e’tibor qaratildi. Faqat 1938-1940 yillarda. Samarqand universitetida 1059 nafar xotin-qiz tahsil oldi, ularning salmoqli qismini mahalliy millat vakillari tashkil etdi. Ular universitetni muvaffaqiyatli tamomlab, jamoat ishlarda o‘zlarini yaxshi ko‘rsata boshladilar.

Samarqand shahridagi ko‘zga ko‘ringan oliy o‘quv yurtlaridan yana biri O‘zbekiston Meditsina instituti 1930-yil oktyabr oyidan o‘z faoliyatini boshlaydi. 1931-yilda institutda 400 talaba o‘qigan bo‘lib, ulardan 60% yevropaliklar, 40% mahalliy millat vakillari edi.[12] 1930-yilda O‘zbekiston Meditsina institutiga 122 nafar talaba qabul qilinadi. Ularning 34 nafari mahalliy millat vakillari yedi. Ularning orasida 3 nafar (Mariyam Jalolova, Kashifa Ibrohimova, O‘ktam Vahobova) xotin-qiz talaba bor edi.[13]

Metadologiya.

Shunday qilib, ushbu yillarda xotin-qizlarni o‘rta va oliy ta’lim sohasiga qamrab olish ishlarida ham sezilarli siljishlarga erishila boshlandi. Biroq, o‘tkazilgan chora-tadbirlarga qaramay, ushbu yillarda xotin-qizlarni sovet ta’limi tizimiga qamrab olishda bir qancha muammolar bor edi. O‘zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi Prezidiumi Xotin-qizlarni ta’lim sohasiga jalb qilishdagi dastlabki yillardagi amaliy ishlarni tahlil qilib, unga ko‘ra xotin-qizlar ta’limining o‘sishining umumiy doirasidan o‘ta orqada qolayotganligini ta’kidladi. Shunga ko‘ra, O‘zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi Prezidiumi xotin-qizlar ta’limini yanada rivojlantirish maqsadida quydagi bir qator tadbirlarni belgilab berdi:[8]

-O‘zbekiston Xalq Maorif Komissarligining 5 yillik umumiy ta’lim rejasini tuzishda budjet mablag‘larini hisobga olgan holda, kelgusida Maorif Xalq Komissarligi, ayniqsa, quyi bo‘g‘inlarda ayollar maktablari tarmog‘ini ochish, shu bilan birga aholi o‘rtasida mahalliy millat qizlarini, ayniqsa, umumta’lim maktablariga jalb etish bo‘yicha tizimli ishlarni kuchaytirish,umumjahon ta’limini amalga oshirish davrida ayollarni yoshlar bilan qamrab olish darajasi orqada qolmasligi uchun ayollarni tarbiyalash ishlarini kengaytirish;

- o‘smirlarning birgalikda o‘qishiga yo‘l qo‘ymaydigan diniy va maishiy qarashlar mavjudligini hisobga olib, eski shahar va qishloqlarda o‘smirlar uchun alohida xotin-qizlar maktablarini tashkil etish masalasini ko‘rib chiqish;

- bundan tashqari, dehqon yoshlari uchun qishloq xo‘jaligi va hunarmandchilik sohasiga moyil qizlar uchun maxsus maktablar tashkil etish, ayollar mehnati ustuvorligini oshirish;

- hozirgi davrda xotin-qizlar maktablari va ta’lim muassasalarida pedagog kadrlarning yetishmasligi tufayli kelgusida Maorif Xalq Komissarligi, ayniqsa, quyi bo‘g‘inlarda ayollar maktablari tarmog‘ini ochish,mahalliy organlarga o‘qituvchilar tayyorlash masalasiga jiddiy e’tibor qaratishlari lozimligi;

- xotin-qizlar texnikumi, kurslari orqali pedagogik kadrlar tayyorlashning barcha turlari maktab tarmog‘ini joylashtirish va boshlang‘ich maktabning dastur talablariga moslashtirish rejasi bilan qat’iy bog‘langan bo‘lishi kerakligi;

- mahalliy millatga mansub ayollarni maxsus xotin-qizlar ta’lim muassasalarini rivojlantirish orqali ham kasb-hunar ta’limi bilan qamrab olish darajasi ham ahamiyatsiz qolayotganligi sababli, kelgusida kasb-hunar ta’limi muassasalari tarmog‘ini sezilarli darajada kengaytirish, shu bilan birga ularni umumiy kasb-hunar ta’limi muassasalariga imkon qadar keng jalb etish bo‘yicha barcha chora-tadbirlarni ko‘rish muhim vazifa qilib belgilandi.

Xulosa.

Xulosa qilib shuni aytish mumkin-ki, O‘zbekiston 70 yil davomida sovet mustamlakachilik asoratida bo‘ldi. Ushbu davrda o‘zbek xalqi hayotida turli o‘zgarishlarni o‘z boshidan kechirdi. Ayniqsa, madaniy va ma’naviy hayotida yuz bergan voqealar bunga misol bo‘la oladi. Milliy madaniyat, urf-odatlarni oyoqosti qilinishi, milliy ziyolilarni taqib ostiga olinishi bilan tavsiflansa, lekin xotin-qizlar hayotida yuz bergan ba’zi o‘zgarishlarni ijobiy baholasak bo‘ladi.Xususan, XX asr 20-40 yillarida o‘zbek xotin-qizlarini jamiyatdagi faolligini oshirish maqsadida, ularni ta’lim olish imkoniyatini yaratilganligi, xotin-qizlarni maxsus kasblarga o‘qitish, ilm-fan sohasida o‘z o‘rniga ega bo‘lishiga e’tobor berila boshlandi. To‘g‘ri, sovet hukumati xotin-qizlarni o‘zining asosiy ishchi kuchiga aylantirishni maqsad qilgan bo‘lsada, yaratilgan imkoniyatlar mahalliy xotin-qizlarni o‘z haq-huquqlariga ega bo‘lishida yordam bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘z MA, R-94-fond, 5-ro‘yxat, 766-ish, 4-varaq
2. O‘z MA, R-94-fond, 5-ro‘yxat, 91-ish, 4,5,6-varaqlar.
3. O‘z MA, R-94-fond, 5-ro‘yxat, 766-ish, 4-varaq.
4. O‘z MA, R-94-fond, 5-ro‘yxat, 253-ish, 15-varaq.

5. O‘z MA, R-94-fond, 5-ro‘yxat, 3048-ish, 16-varaq
6. Samarqand VDA, 637-fond, 1-ro‘yxat, 4-ish, 3-varaq.
7. O‘zR MDA.94-fond, 5-ro‘yxat, 1769-ish, 9-varaq.
8. O‘zR MDA.94-f., 5-ro‘yxat, 495-ish, Betlar 344-352
9. Nishonboyeva Q.V., O‘zbekistonda xotin-qizlar masalasini hal etishni madaniy jihatlari (20-30).t.f.n. diss.1998. 120-bet
10. Самаркндский государственный университет. Краткий историеский очерк (1927-1987). Ташкент, 1990.-С.12
11. Абаева Т.Ю. Роль УзГУ в подготовке кадров из женшин узбечок // Труды СамГУ. Новая серия. Выпуск 69. – Самарқанд, 1958. – С. 118.
12. Ленин йўли. 1931 йил, 4 декабрь.
13 Қизил Ўзбекистон. 1930 йил 9 октябрь.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Maxkamova Masturaxon Baxromjon qizi
Qo‘qon Universitet Pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: *Ekologik madaniyatning nazariy asoslari, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi jarayonida ushbu madaniyatni shakllantirish usullari hamda interaktiv pedagogik yondashuvlar muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari ekologik mavzudagi amaliy faoliyat va innovatsion dars loyihalari talabalarning ekologik ongini mustahkamlashda samarali ekanini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *Boshlang‘ich sinf, o‘qituvchi tayyorgarligi, ekologik madaniyat, interaktiv metodlar, ekologik ong, barqaror rivojlanish.*

Махкамова Мастурахон Бахромджан кизи
Преподаватель кафедры педагогики и психологии Кокандского университета

РАЗВИТИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация: *Анализируются теоретические основы экологической культуры, методы ее развития в процессе профессиональной подготовки педагогов и интерактивные педагогические подходы. Результаты исследования показывают, что практическая деятельность по экологии и инновационные учебные проекты эффективно способствуют укреплению экологического сознания у студентов.*

Ключевые слова: *Начальные классы, подготовка учителей, экологическая культура, интерактивные методы, экологическое сознание, устойчивое развитие.*

Mahkamova Masturakhon Bakhromjan kizi
Teacher of the Department of pedagogy and psychology of Kokand University

DEVELOPMENT OF ECOLOGICAL CULTURE IN FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS

Annotation: *It examines the theoretical underpinnings of ecological culture, methods for fostering it during teacher training, as well as interactive pedagogical approaches. The findings indicate that hands-on ecological activities and innovative lesson designs effectively enhance students’ ecological awareness.*

Keywords: *Primary school, teacher training, ecological culture, interactive methods, ecological awareness, sustainable development.*

Kirish.

Ekologik muammolar tobora chuqurlashib borayotgan hozirgi davrda ta’lim jarayonida atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish masalalariga alohida e’tibor qaratish g‘oyat muhimdir. Kelajak avlodning ekologik madaniyati va tabiatga nisbatan mas’uliyat hissini shakllantirish, ayniqsa boshlang‘ich sinf davridan boshlab amalga oshirilishi lozim. Chunki aynan shu bosqichda bolalar hayotiy ko‘nikma va odatlarni egallab, tabiatga munosabatlarining dastlabki poydevorini quradilar. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari esa bu jarayonda asosiy rolni bajarib, bolalarga ekologik bilim va ko‘nikmalarni samarali yetkazishlari zarur. Maktabda tashkillashtiriladigan darslar, amaliy mashg‘ulotlar va sinfdan tashqari tadbirlar orqali o‘quvchilar tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, resurslarni tejab-tergab ishlatish va atrof-muhitni asrashning asosiy tamoyillarini puxta o‘zlashtirishi mumkin. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisida ekologik madaniyatning shakllangan bo‘lishi faqat shaxsiy e’tiqod yoki amaliy odat bilangina emas, balki chuqur ilmiy bilishga ham asoslanadi. Ekologik masalalarga oid didaktik materiallarni tanlashda, o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini e’tiborga olishda va dars jarayonini interaktiv tashkil etishda kuchli bilim zarur. Shuning uchun pedagogika oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ekologik yo‘nalishda tayyorlash jarayonini ilg‘or texnologiyalar bilan boyitib borish katta ahamiyat kasb etadi.

Metodologiya.

Ushbu tadqiqot bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ekologik madaniyatini rivojlantirishda

qanday usullar va yondashuvlar samarali ekanini aniqlashga qaratildi. Maqsadga erishish uchun, avvalo, zamonaviy pedagogik va psixologik adabiyotlar hamda xalqaro tajribalar o‘rganildi. Ekologik madaniyatni shakllantirishga doir ilg‘or texnologiyalar, metodlar va didaktik vositalar haqida ilmiy maqolalar, xalqaro konferensiyalar materiallari, hukumat qarorlari hamda mahalliy amaliyot tadqiq qilindi. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bilan ekologik yo‘nalishdagi ma’ruza va seminarlarda qo‘llaniladigan metodik komplekslar ham ko‘rib chiqildi. Metodologik jihatdan, tarkibiy-tizimli yondashuv asosida bo‘lajak mutaxassislarda ekologik xulq-atvorni shakllantirishga qaratilgan bosqichlar, omillar va natijalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik tahlil qilindi. Amaliy tadqiqot esa ikki asosiy bosqichda o‘tkazildi. Birinchi bosqichda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari orasida so‘rovnoma, suhbat va intervyular tashkil qilinib, ularning ekologik masalalar bo‘yicha tushunchalari, tabiatga munosabati hamda amaliy ekofaoliyat tajribalari o‘rganildi. Ikkinchi bosqichda eksperimental guruh shakllantirilib, u yerda maxsus tuzilgan ekologik dars loyihalari, integratsiyalashgan mashg‘ulotlar va turli interaktiv o‘yin usullari sinab ko‘rildi. Ushbu jarayonda talabalarning motivatsiya darajasi, mustaqil izlanish faolligi va o‘zini o‘zi anglash rivoji kuzatuv, test va baholash ro‘yxatlari yordamida tahlil qilindi. Olingan ma’lumotlar statistika usullarida qayta ishlanib, guruhlar o‘rtasida paydo bo‘lgan tafovutlar aniqlashtirildi.

Natijalar.

Tadqiqotning birinchi bosqichida, so‘rovnoma va suhbatlar orqali aniqlangani bo‘yicha, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining aksariyati ekologik bilimlar mazmuni bilan yaxshi tanish bo‘lsa-da, ularni amaliy mashg‘ulotlarga tatbiq etish ko‘nikmalari yetarli darajada rivojlanmagan. Ekologik masalalarni yoritishda asosan maktab darsliklariga tayanishar, sinfdan tashqari tadbirlarni esa deyarli o‘tkazmaydilar. Shu bilan birga, talabalarda individual darajada tabiatni asrab-avaylashga moyillik mavjud bo‘lib, ular uyda suv va elektr energiyasidan tejamli foydalanish, chiqindilarni ajratish kabi amaliy faoliyat bilan shug‘ullanishga qiziqish bildiradilar. Ayni paytda, ushbu qiziqish o‘quv jarayonida doimiy ravishda mustahkamlanmas ekan, barqaror ekota’limga erishish qiyin bo‘lishi kuzatildi. Ikkinchi bosqichda eksperimental guruhda amalga oshirilgan dars loyihalari, amaliy laboratoriyalar va interaktiv o‘yinlar o‘qituvchi kasbiga bo‘lajak mutaxassislarning munosabatini ijobiy o‘zgartirdi. Tabiatni o‘rganish uchun virtual laboratoriyalar, ekologik sohada faoliyat yurituvchi tashkilotlar bilan hamkorlik, onlayn platformalarda ilmiy maqolalar muhokamasi kabi faoliyat turlari talabalar dunyoqarashining kengayishiga va ekologik masalalarga nisbatan yanada teran yondashuv hosil bo‘lishiga turtki berdi. Shuningdek, talabalarning dastlabki amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishda interaktiv metodlar (munozara, ro‘yxatni to‘ldirish, rolli o‘yin) sezilarli darajada samarali bo‘lgani aniqlandi. Tajriba guruhi yakunida olingan test natijalariga ko‘ra, birlamchi ekologik madaniyat darajasi o‘rtacha 20–30 foizga o‘sgani qayd etildi.

Muhokama.

Natijalarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari orasida ekologik madaniyatni rivojlantirishda faqat nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, amaliy faoliyatga ustuvor e’tibor qaratish zarur. Bolalikdan shakllanadigan axloqiy va me’yoriy qoidalar, xususan tabiatga g‘amxo‘rlik qilish, resurslarni tejab-tergab ishlatish kabi hayotiy tamoyillar avvalo o‘qituvchining shaxsiy namunasiga asoslanadi. O‘qituvchi talabalikdan boshlab shu madaniyatning targ‘ibotchisi sifatida o‘z hayot tarzida ham atrof-muhitni asrash mas’uliyatini namoyon etishi lozim. Ekologik mavzudagi dars va seminarlarda yuzaki bilim berishdan ko‘ra, talabalarni faol qatnashishga chorlash, kichik tadqiqot loyihalari yaratish, tabiat inshootlarini yoki tabiatda kuzatuv ishlarini uyushtirish kabi usullar orqali mustahkam ko‘nikma shakllantirish mumkin. Eksperimental guruhda qo‘llanilgan yondashuvlar, xususan integratsiyalashgan darslar va interaktiv texnologiyalar, nafaqat bilimlarni puxta o‘zlashtirishga, balki talabalarda ijodiy va tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga ham xizmat qildi. Pedagogika va tabiiy fanlar tutashuvi, turli fanlar kesimida ekologik masalalarni yechishga yo‘naltirilgan topshiriqlar talabalarga dunyoga kengroq nigoh bilan qarashni o‘rgatadi. Shuningdek, atrof-muhit bilan inson faoliyati o‘rtasidagi murakkab o‘zaro bog‘liqlikni anglash, turli sohalardagi ekologik inqiroz sabab va oqibatlarini tahlil qilish, bo‘lajak o‘qituvchilarga jamiyatda ekologik ongni targ‘ib qilishda o‘z vazifalarini aniq his etish imkonini beradi. Bunday o‘quv jarayonida talabalarning kelajak kasb faoliyatiga bo‘lgan munosabati ijobiy tomondan o‘zgarib, ular mustahkam motivatsiyaga ega bo‘ladilar.

Xulosa.

Yuqoridagi tadqiqot davomida aniqlanganidek, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish bir vaqtning o‘zida nazariy, metodik va amaliy jihatlarni uyg‘unlashtirishni talab etadi. Talabalarga ekologik mavzularni chuqur o‘rgatish, bu mavzularga ijodiy yondashuvni rag‘batlantirish va olingan bilimlarni real hayotdagi amaliy faoliyat bilan bog‘lash natijasida barqaror ekoko‘nikmalar hosil bo‘ladi. Tajriba natijalari shuni ko‘rsatadiki, ekologik dars loyihalariga asoslangan interaktiv metodlar, virtual laboratoriyalar, loyiha faoliyati va jamoaviy muhokamalar talabalarning ekologik mas’uliyati hamda kasbiy tayyorgarligini sezilarli darajada kuchaytiradi. Bu esa o‘z navbatida boshlang‘ich sinflarda bo‘lajak avlodni atrof-muhitga muhabbat ruhida tarbiyalashning mustahkam negizini yaratadi. Ekologik

madaniyatli o‘qituvchi, o‘z namunasida o‘quvchilarga yuqori darajadagi ongli munosabatni ko‘rsatib, jamiyatda barqaror rivojlanishga hissa qo‘shadigan yoshlarni voyaga yetkazishi mumkin. Shu tariqa, maktab ta’limidan boshlab tabiatga bo‘lgan e’tibor avlodlar ongiga chuqur singdiriladi, bu esa keng miqyosda ekologik inqirozlarning oldini olish va insoniyat istiqbolini ta’minlashda muhim qadamlardan biri sifatida baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Мирзаева Л. Н. Экологическая культура и ее формирование у будущих учителей начальных классов: учебное пособие. – Ташкент: Университет, 2022. – 156 с.

2. ЮНЕСКО. Преподавание и обучение для устойчивого будущего: международный обзор // [Elektron resurs]. – Rejim dostupa: https://unesdoc.unesco.org (data obrashcheniya: 30.03.2025).

3. Ильина Т. А. Формирование экологического мышления у студентов педагогических специальностей // Вестник педагогических наук. – 2021. – № 2. – С. 30–35.

4. Kurbanova S., Rasulov M. Pedagogical innovations in developing ecological awareness among primary school learners: Conference proceedings // The 5th International Conference on Education and Social Sciences (ICESS). – Istanbul, 2023. – P. 100–105.

5. Davlatova Sh. T. Boshlang‘ich sinfda ekologik tarbiya berish metodikasi. – Toshkent: Ilm ziyo, 2020. – 132 b.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Soliyev Ilhom Sobirovich
FarDU, Pedagogika fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Habibuddinova Moxlaroyim Akmaljon qizi
Ta'lim va tarbiya na'zariyasi va metodikasi
(maktabgacha ta'lim) mutaxassisligi, 1-kurs magistranti
adxamjonovamoxlaroyim001@gmail.com

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA BOSHQARUV TUSHUNCHASI VA UNING MOHIYATI

Annotatsiya: *Maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv - bu ta'lim muassasalarining samarali ishlashini ta'minlash, o'quvchilarni rivojlantirish va ularning ta'lim olishini yuqori darajada tashkil etish uchun zarur bo'lgan barcha jarayonlarni boshqarish faoliyatidir. Maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruvning asosiy maqsadi, pedagogik jarayonlarni samarali tashkil qilish, bolalarning ta'lim olish jarayonini boshqarish va o'qituvchilarni doimiy ravishda qo'llab-quvvatlashdir. Boshqaruv tizimi pedagogik boshqaruv, metodik yondashuvlar va o'qituvchilarni malakasini oshirishni o'z ichiga oladi. Bu tizimda o'qituvchilar, ota-onalar va boshqaruv organlari o'rtasida samarali hamkorlik muhim o'rin tutadi.*

Kalit so'zlar: *maktabgacha ta'lim, boshqaruv tizimi, pedagogik boshqaruv, ta'lim jarayonini boshqarish, ta'lim muassasalarining boshqaruvi, o'qituvchilarni malakasini oshirish, metodik yondashuvlar, samarali boshqaruv, bolalarning rivojlanishi.*

Солиев Ильхом Собирович
ФарДУ, доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Хабибуддинова Мохларойим Акмалжон кизи
Теория и методика обучения и воспитания
(дошкольное образование) специальность, магистрант 1 курса

ПОНЯТИЕ УПРАВЛЕНИЯ В СИСТЕМЕ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ЕГО СУЩНОСТЬ

Аннотация: *управление в системе дошкольного образования - это деятельность по управлению всеми процессами, необходимыми для обеспечения эффективного функционирования образовательных учреждений, развития учащихся и организации их обучения на высоком уровне. Основной целью управления в системе дошкольного образования является эффективная организация педагогических процессов, управление процессом воспитания детей и постоянное сопровождение педагогов. Система менеджмента включает в себя педагогический менеджмент, методические подходы и повышение квалификации педагогов. Важное место в этой системе занимает эффективное сотрудничество педагогов, родителей и руководящих органов.*

Ключевые слова: *дошкольное образование, система управления, педагогический менеджмент, управление образовательным процессом, управление образовательными учреждениями, повышение квалификации педагогов, методические подходы, эффективное управление, развитие детей.*

Soliev Ilham Sobirovich
FarDU, doctor of philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), associate professor
Habibuddinova Mokhlaroyim Akmaljon kizi
Membership and methodology of education and training
(preschool education) specialty, 1st year graduate

THE CONCEPT OF MANAGEMENT IN THE PRESCHOOL EDUCATION SYSTEM AND ITS ESSENCE

Annotation: *in the preschool education system, management is the activity of managing all the processes necessary to ensure the effective functioning of educational institutions, to develop students and to organize their education at a high level. The main goal of Management in the preschool system is to effectively organize pedagogical processes, control the educational process of children and constantly support teachers. The management system includes pedagogical management, methodological approaches and teacher training. Effective cooperation between teachers, parents and governing bodies plays an important role in this system.*

Keywords: *preschool education, management system, pedagogical management, management of the educational process, management of educational institutions, teacher training, methodological approaches, effective management, Child Development.*

Kirish.

Maktabgacha ta’lim tizimi jamiyatning kelajagini shakllantiradigan, bolalar shaxsiyatining asosiy poydevorini tashkil etuvchi muhim soha hisoblanadi. Bu tizimning samarali ishlashi, eng avvalo, sifatli boshqaruvga bog‘liq. Maktabgacha ta’limdagi boshqaruvning mohiyati, pedagogik jarayonlarni muvaffaqiyatli tashkil etish va bolalarning barcha jihatdan rivojlanishiga imkon yaratishdan iboratdir. Ta’lim muassasalarida boshqaruv jarayoni nafaqat ta’lim sifatini oshirish, balki o‘qituvchilar va bolalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni mustahkamlashga ham qaratilgan bo‘lishi kerak.

Maktabgacha ta’limda boshqaruv faqatgina tashkilot tuzilmasini nazorat qilishdan iborat emas, balki bu jarayon bolalar bilan to‘g‘ri pedagogik yondashuvlarni tanlash, o‘qituvchilarni malakasini oshirish va ta’lim muassasalarida samarasizlikni oldini olish kabi vazifalarni ham o‘z ichiga oladi. Samarali boshqaruv tizimi, o‘z navbatida, o‘qituvchilarga ko‘proq kreativ yondashuvlar va innovatsion metodlarni amalga oshirishga imkon yaratadi, bu esa bolalar uchun yanada sifatli ta’lim olishni ta’minlaydi.

Shu sababli, maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv tushunchasi nafaqat pedagogik faoliyatni boshqarish, balki o‘quvchilarning to‘liq rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash uchun muhim omildir. Boshqaruv jarayonining samarali tashkil etilishi ta’lim tizimining har bir bo‘lagining o‘zaro uyg‘unligini ta'minlashga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili.

Maktabgacha ta’lim tizimida boshqaruv tushunchasi va uning mohiyatini o‘rganishga oid bir qator ilmiy adabiyotlar mavjud. Ular boshqaruv jarayonining samarali tashkil etilishi, pedagogik boshqaruv usullari, ta’lim sifatini oshirish va ta’lim muassasalarida boshqaruvni takomillashtirishga qaratilgan. Quyidagi adabiyotlar tahlili, maktabgacha ta’lim tizimida boshqaruvni samarali amalga oshirishning nazariy va amaliy jihatlarini yoritadi.

Mamatov, D. (2016). "Maktabgacha ta’lim tizimida boshqaruv va uning samaradorligi." Ushbu asar maktabgacha ta’limdagi boshqaruv tizimining strukturasi va samaradorligini o‘rganadi. Mamatovning fikriga ko‘ra, ta’lim muassasasida boshqaruv nafaqat rasmiy tuzilmalarga, balki o‘qituvchilar va bolalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar, pedagogik muhitga ham bevosita ta’sir qiladi. Muallif boshqaruvning samaradorligini oshirish uchun pedagogik boshqaruvda kreativ va innovatsion yondashuvlarning ahamiyatini ta’kidlaydi.

Azizov, M. (2018). "Pedagogik boshqaruvning mohiyati va tamoyillari." Azizovning asarida pedagogik boshqaruvning asosiy tamoyillari, uning maktabgacha ta’limda qo‘llanilishi va bolalarning shaxsiy rivojlanishiga bo‘lgan ta’siri tahlil qilinadi. Yozuvchi boshqaruv jarayonida o‘qituvchilarning pedagogik mahorati va metodik yondashuvlarning ahamiyatini ko‘rsatadi. Boshqaruvning samaradorligi, muallifning fikriga ko‘ra, pedagogik jamoaning birligi va hamkorlikka bog‘liq.

Rahimov, B. (2020). "Maktabgacha ta’lim tizimida boshqaruvning yangi yondashuvlari". Bu asarda, Rahimov maktabgacha ta’limda boshqaruvning yangi metodlari va innovatsion yondashuvlar haqida fikr yuritadi. Boshqaruv tizimini modernizatsiya qilishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, shuningdek, raqamli boshqaruv usullarini qo‘llashning zarurligini ta’kidlaydi. Muallifning fikriga ko‘ra, pedagogik boshqaruvning samaradorligini oshirish uchun o‘qituvchilarning malakasini oshirish va ta’limda innovatsiyalarni amalga oshirish zarur.

Mullajonov, A. (2019). "Ta’lim muassasalarida boshqaruvni takomillashtirishning nazariy asoslari." Mullajonov o‘z asarida ta’lim muassasalarida boshqaruvni takomillashtirishning nazariy asoslarini o‘rganadi. U boshqaruvning asosiy vazifalarini, shuningdek, o‘quv jarayonini boshqarishda o‘qituvchilar va boshqaruv organlari o‘rtasidagi aloqalarni o‘rganadi. Muallif boshqaruvning samarali amalga oshirilishi bolalarning ta’lim olishdagi motivatsiyasini oshiradi va ta’lim sifatini yaxshilaydi, deb ta’kidlaydi.

Shamsiev, N. (2021). "Maktabgacha ta’limda boshqaruv jarayonining zamonaviy metodlari." Ushbu asar maktabgacha ta’limda boshqaruvning zamonaviy metodlari haqida batafsil ma'lumot beradi. Shamsievning tahliliga ko‘ra, maktabgacha ta’lim muassasalarida boshqaruvni samarali tashkil etish uchun pedagogik boshqaruvda yangi metod va yondashuvlar, shu jumladan, inkluziv ta’limni amalga oshirish muhimdir. Muallif boshqaruvning zamonaviy metodlari bolalarning rivojlanishini ta’minlashda asosiy vosita ekanligini ta’kidlaydi.

Karimov, R. (2017). "Ta’lim muassasasida boshqaruvning asosiy prinsiplari." Karimov, ta’lim muassasasida boshqaruvning asosiy prinsiplari va uning o‘qituvchilar, ota-onalar va boshqaruv organlari o‘rtasidagi hamkorlikni oshirishdagi rolini tahlil qiladi. U boshqaruv jarayonida o‘qituvchilarning professional malakasini oshirish va pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishda metodik yondashuvlarning ahamiyatini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha ta’lim tizimida boshqaruvning samaradorligini oshirish uchun pedagogik boshqaruvni takomillashtirish, o‘qituvchilarning malakasini oshirish, innovatsion metodlardan foydalanish va zamonaviy boshqaruv

texnologiyalarini joriy etish muhimdir. Boshqaruvning samarali tashkil etilishi bolalarning ta'lim olishida ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ta'lim jarayonining sifatini yaxshilaydi va o'quvchilarning umumiy rivojlanishiga yordam beradi.

Tadqiqot metodikasi.

Tadqiqot metodikasi - bu ilmiy izlanishning o'rganilayotgan ob'ekti, maqsadi va vazifalariga mos ravishda tadqiqotning qanday usullari va metodlari qo'llanilishini belgilovchi ilmiy tizimdir. Maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv tushunchasi va uning mohiyatini o'rganish uchun tadqiqot metodikasi quyidagi asosiy bosqichlardan tashkil topgan:

Tadqiqotning boshlang'ich bosqichi tadqiqot maqsadi va vazifalarini aniq belgilashdan iborat. Maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv tushunchasini o'rganishda tadqiqotning maqsadi - maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruvning samaradorligini oshirish usullarini aniqlash va uning bolalar rivojlanishiga ta'sirini o'rganishdir. Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

1. Maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv tushunchasining mohiyatini o'rganish.
2. Boshqaruvning pedagogik va metodik tamoyillarini aniqlash.
3. Maktabgacha ta'limda boshqaruv jarayonlarining samaradorligini baholash.
4. Boshqaruvni takomillashtirish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti - bu o'rganilayotgan tizim yoki jarayonni anglatadi. Bu tadqiqotda ob'ekt sifatida maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv jarayonlari o'rganiladi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida boshqaruvning turli jihatlari, jumladan pedagogik boshqaruv, metodik yondashuvlar va boshqaruvning o'qituvchilar va bolalar o'rtasidagi o'zaro aloqalarga ta'siri o'rganiladi.

Tadqiqot jarayonida turli metodlar qo'llaniladi. Maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruvni o'rganishda quyidagi tadqiqot usullari qo'llanadi:

Nazariy tahlil: Mavzuga oid adabiyotlar, ilmiy maqolalar va tadqiqotlar tahlil qilinadi. Bu metod maktabgacha ta'limda boshqaruv tushunchasi va uning mohiyatini aniqlashda yordam beradi.

So'rovnoma: O'qituvchilar, boshqaruv organlari xodimlari va ota-onalardan so'rovnomalar olish orqali boshqaruv jarayonining samaradorligi, o'qituvchilar va bolalar o'rtasidagi aloqalar haqida ma'lumotlar yig'iladi.

Intervyu: Pedagoglar va boshqaruv organlari xodimlari bilan chuqur intervyular o'tkazilib, boshqaruvning amaliy jihatlari va mavjud muammolar o'rganiladi.

Kuzatish: Maktabgacha ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayonlarini bevosita kuzatish orqali o'quvchilarning rivojlanishi, o'qituvchilarning faoliyati va boshqaruv tizimining ishlashini tahlil qilish amalga oshiriladi.

Eksperiment: O'quvchilarning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi boshqaruv usullarining samaradorligini o'rganish uchun eksperimental guruhlar tashkil etilishi mumkin.

Tadqiqot davomida yig'ilgan ma'lumotlar tizimli ravishda tahlil qilinadi. So'rovnoma va intervyulardan olingan natijalar, kuzatish va eksperimentlar orqali to'plangan ma'lumotlar tahlil qilinadi. Ma'lumotlar sifatli va miqdoriy tahlil usullari yordamida umumlashtiriladi.

Sifatli tahlil: Intervyu va kuzatishlar natijalarini tahlil qilishda o'qituvchilar, boshqaruv organlari va ota-onalarning fikrlarini umumlashtirishga asoslanadi.

Miqdoriy tahlil: So'rovnomalardan olingan javoblar va eksperimentlardan olingan raqamli ma'lumotlar statistik usullar yordamida tahlil qilinadi.

Tadqiqotning yakuniy bosqichi natijalarni tahlil qilib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Bu tavsiyalar maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruvni samarali tashkil etish, boshqaruv usullarini takomillashtirish va o'qituvchilarning malakasini oshirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Tadqiqot jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatoliklar va cheklovlar aniqlanadi. Masalan, ma'lumotlarni yig'ish jarayonida vaqt cheklovlari yoki respondentlarning cheklangan doirasi kabilar. Bularni hisobga olib, kelajakda tadqiqotni yanada kengroq va to'liqroq amalga oshirish mumkin.

Xulosa.

Maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruvni o'rganish uchun tadqiqot metodikasi samarali bo'lishi uchun keng qamrovli, ilmiy jihatdan asoslangan va tizimli bo'lishi zarur. Tadqiqotda o'rganilayotgan mavzuga mos keladigan metodlarni qo'llash, ma'lumotlarni aniq yig'ish va tahlil qilish, natijalarni umumlashtirish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish orqali boshqaruv tizimining samaradorligini oshirishga yordam beriladi.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Mamatov, D. (2016). Maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv va uning samaradorligi. Toshkent: Ta'lim nashriyoti.
2. Azizov, M. (2018). Pedagogik boshqaruvning mohiyati va tamoyillari. Tashkent: Science and Education Publishing.
3. Rahimov, B. (2020). Maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruvning yangi yondashuvlari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.

4. Mullajonov, A. (2019). Ta’lim muassasalarida boshqaruvni takomillashtirishning nazariy asoslari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
5. Shamsiev, N. (2021). Maktabgacha ta’limda boshqaruv jarayonining zamonaviy metodlari. Toshkent: O‘zbekiston ta’lim nashriyoti.
6. Karimov, R. (2017). Ta’lim muassasasida boshqaruvning asosiy prinsiplari. Toshkent: Ilm nashriyoti.
7. Xodjayev, A. (2020). Maktabgacha ta’limda boshqaruvning innovatsion yondashuvlari. Tashkent: TATU nashriyoti.
8. Nuriddinov, U. (2018). Pedagogik boshqaruv va uning maktabgacha ta’lim tizimidagi ahamiyati. Samarkand: SamDPU nashriyoti.
9. Zeyniddinov, T. (2017). Maktabgacha ta’limda boshqaruvni samarali tashkil etish. Toshkent: Yoshlar nashriyoti.
10. Tursunov, M. (2019). Boshqaruv tizimi va uning ta’lim muassasalaridagi roli. Toshkent: Ta’lim va ilm nashriyoti.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Abdualiyev Hamidulla Toxirjonovich
Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namanagan davlat chet tillari instituti
Til va tarjima fakulteti dekan o'rinbosari
Email: hamidullaabdualiyev1985@gmail.com
Orcid: 0009-0000-8767-9885

SUN'IY INTELLEKT VA UNING TA'LIMDA QO'LLANILISHI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada sun'iy intellektning ta'lim sohasida qo'llanilishi, uning afzalliklari va ehtimoliy salbiy oqibatlari ko'rib chiqiladi. Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim jarayoniga integratsiyasi, o'qitish sifatini oshirish, baholash tizimlarini avtomatlashtirish va shaxsiylashtirilgan ta'limni rivojlantirish imkoniyatlari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, sun'iy intellekt asosida ishlovchi zamonaviy ta'lim tizimlari va jahon tajribasi tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Sun'iy intellekt, ta'lim texnologiyalari, raqamli ta'lim, avtomatlashtirilgan baholash, shaxsiylashtirilgan o'qitish, zamonaviy ta'lim.*

Абдуалиев Ҳамидулла Тохиржонович
Наманаганский государственный институт иностранных языков имени Исхакхана Ибрата
Заместитель декана факультета языка и перевода

ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ЕГО ПРИМЕНЕНИЕ В ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация: *В статье рассматривается применение искусственного интеллекта в образовании, его преимущества и возможные негативные последствия. Обсуждаются вопросы интеграции технологий искусственного интеллекта в образовательный процесс, возможности повышения качества преподавания, автоматизации систем оценки, развития персонализированного обучения. Также будут проанализированы современные системы образования, основанные на искусственном интеллекте и мировом опыте.*

Ключевые слова: *Искусственный интеллект, образовательные технологии, цифровое образование, автоматизированная оценка, персонализированное обучение, современное образование.*

Abdualiyev Hamidulla Toxirjonovich
Deputy Dean of the Faculty of Language and Translation
Namangan State Institute of Foreign Languages named after Ishaqkhon Ibrat

ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND ITS APPLICATION IN EDUCATION

Abstract: *The article examines the use of artificial intelligence in education, its advantages and possible negative consequences. The issues of integrating artificial intelligence technologies into the educational process, the possibility of improving the quality of teaching, automating assessment systems, and developing personalized learning are discussed. Modern education systems based on artificial intelligence and global experience will also be analyzed.*

Keywords: *Artificial intelligence, educational technologies, digital education, automated assessment, personalized learning, modern education.*

Kirish.

Hozirgi kunda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari hayotning turli jabhalariga chuqur kirib bormoqda va ularning ta'siri ayniqsa ta'lim sohasida sezilarli darajada namoyon bo'lmoqda. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida SI asosida ishlovchi tizimlar o'qitish jarayonining samaradorligini oshirish, individual ta'lim dasturlarini yaratish va avtomatlashtirilgan baholash tizimlarini rivojlantirish imkoniyatini bermoqda.

Sun'iy intellekt yordamida ta'lim jarayonida axborotlarni tezkor tahlil qilish, talabalar bilim darajasini real vaqt rejimida baholash va ularning ehtiyojlariga mos ta'lim materiallarini ishlab chiqish imkoni paydo bo'ldi. SI nafaqat ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi, balki talabalar va o'qituvchilarga moslashuvchan

ta’lim muhitini taqdim etish orqali o‘quv jarayonini innovatsion shaklda tashkil qilishga yordam beradi[5].

Bugungi kunda ko‘plab rivojlangan davlatlarda sun’iy intellekt ta’lim sohasining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Masalan, AQSh, Xitoy va Yevropa mamlakatlarida sun’iy intellekt yordamida ishlovchi ta’lim platformalari ishlab chiqilib, talabalar uchun shaxsiylashtirilgan o‘qitish tizimlari joriy etilmoqda. Bu esa o‘quvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlariga mos ta’lim olish imkonini kengaytiradi. Shu bilan birga, avtomatlashtirilgan baholash tizimlari imtihon jarayonlarini tezlashtirish va xatoliklarni kamaytirishga xizmat qilmoqda[2].

O‘zbekiston ta’lim tizimida ham sun’iy intellektdan foydalanish istiqbollari keng bo‘lib, elektron ta’lim platformalarini rivojlantirish, onlayn ta’lim tizimlarini joriy etish va sun’iy intellektga asoslangan baholash tizimlarini yaratish bo‘yicha qator tashabbuslar ilgari surilmoqda[9].

Adabiyotlar tahlili.

Ushbu maqolada sun’iy intellektning ta’lim tizimidagi roli, uning afzalliklari va muammolari hamda xalqaro tajribalar asosida ta’lim jarayonini takomillashtirish yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Sun’iy intellekt yordamida ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ham beriladi.

2. Sun’iy intellektning ta’lim sohasidagi asosiy yo‘nalishlari

Sun’iy intellekt (SI) bugungi kunda ta’lim tizimini tubdan o‘zgartirish va rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lgan eng ilg‘or texnologiyalardan biridir. U pedagogika, o‘qitish metodikalari va ta’lim jarayonini takomillashtirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Quyida sun’iy intellektning ta’lim tizimida eng muhim yo‘nalishlari batafsil ko‘rib chiqiladi.

2.1. Individual va shaxsiylashtirilgan ta’lim

An’anaviy ta’lim tizimi barcha talabalarga bir xil yondashuv asosida o‘qitish jarayonini olib boradi. Biroq, har bir talabaning o‘ziga xos o‘rganish tezligi, qiziqish doirasi va qobiliyatlari mavjud. Sun’iy intellekt esa individual yondashuv imkoniyatini yaratib, har bir talabaning o‘ziga xos xususiyatlariga mos o‘qitish strategiyasini ishlab chiqadi.

- Moslashtirilgan ta’lim algoritmlari: SI talabaning o‘rganish jarayonini kuzatib, uning qaysi mavzularda qiyinchilikka duch kelayotganini aniqlaydi va mos ta’lim materiallarini taklif etadi.
- Interaktiv o‘qitish dasturlari: O‘quv materiallari real vaqt rejimida talabalar ehtiyojlariga moslashtiriladi va natijalar bo‘yicha individual tavsiyalar beriladi.
- Onlayn ta’lim platformalari: Coursera, Khan Academy, Udemy, Duolingo kabi platformalar sun’iy intellekt yordamida har bir foydalanuvchiga mos keladigan kurslarni tavsiya qiladi.

2.2. Avtomatlashtirilgan baholash tizimlari

Talabalar bilimini baholash ta’lim tizimining muhim qismi hisoblanadi. An’anaviy baholash tizimlari inson omiliga bog‘liq bo‘lib, subyektivlik, vaqt talab qilish va katta hajmdagi ishlarni tekshirish qiyinchiliklarini keltirib chiqaradi. Sun’iy intellekt esa ushbu jarayonni avtomatlashtirish va tezkor baholash imkonini beradi.[9]

- Avtomatik test tizimlari: Sun’iy intellekt asosida ishlab chiqilgan test tizimlari talabalar javoblarini avtomatik ravishda baholaydi va natijalarni real vaqt rejimida taqdim etadi.
- Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) orqali yozma ishlarni tekshirish: SI yordamida insholar, esse va referatlarning grammatik, stilistik va semantik jihatdan baholanishi mumkin. Turnitin, Grammarly kabi dasturlar aynan shu yo‘nalishda ishlaydi.
- Og‘zaki nutqni baholash: SI ovoz tanish texnologiyalari yordamida talabalar tomonidan yozib olingan nutqni baholashi va talabalarga tavsiyalar berishi mumkin.

2.3. Virtual o‘qituvchilar va sun’iy intellekt yordamchilari

Sun’iy intellekt asosida ishlab chiqilgan virtual o‘qituvchilar va ta’lim yordamchilari talabalar savollariga javob berib, ularga kerakli ma’lumotlarni taqdim etishi mumkin[7].

- Chatbotlar va virtual yordamchilar: Talabalar savollariga javob berish, dars jadvalini tuzish va bilim darajasini baholash uchun ishlatiladi. Masalan, Google Assistant, IBM Watson, ChatGPT kabi tizimlar ta’lim jarayonida qo‘llanilmoqda.
- AI tutorlar: Sun’iy intellekt yordamida talabaning bilim darajasiga qarab mos dars materiallarini tavsiya etadi. Masalan, Socratic by Google dasturi o‘quvchilarga savollarga javob topishda yordam beradi[5].

2.4. Sun’iy intellekt asosida ta’lim jarayonini tahlil qilish

3. Козлова Л.С. Структура профессиональной компетенции будущего учителя русского языка в условиях цифровизации образования // Наука и Образование том 6№ 2, 2023

4. Назаренко А. Л. К вопросу об информатизации лингвистического образования. URL: http://cyberleninka.ru/article/n/k-voprosu-ob-informatizatsii-lingvisticheskogo-obrazovaniya#ixzz41dtJbaRm

5. Полат Е.С., Бухаркина М.Ю., Моисеева М.В., Петров А.Е. Новые педагогические и информационные технологии в системе образовании: учеб. пособие для студ.высш. учебн. заведений / под ред. Е. С. Полат. 4-е изд., стер. М.: Изд. центр «Академия», 2009. 272 С.

6. Полат Е.С. Современные педагогические и информационные технологии в системе образования: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. 3-е изд., стер. М.: Изд. Центр «Академия», 2010. 368 С.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Ramonova Vasila Qayumjonovna
Namangan davlat texnika universiteti

PROFESSIONAL VA OLIY TA'LIM TIZIMLARI UZVIYLIGINI TA'MINLASH MUAMMOLARI

Annotatsiya: *Maqolada, professional hamda oliy ta'lim tizimining o'zaro uzviyligini ta'minlash muammolari va ularni yechish yo'llari keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *professional va oliy ta'lim, uzviylik, uzviylikni ta'minlash vazifalari.*

Рамонова Васила Каюмжоновна
Наманганский государственный технический университет

ПРОБЛЕМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРЕЕМСТВЕННОСТИ СИСТЕМ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО И ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: *В статье представлены проблемы обеспечения взаимосвязанности системы профессионального и высшего образования и пути их решения.*

Ключевые слова: *профессиональное и высшее образование, задачи обеспечения преемственности, преемственности.*

Ramonova Vasila Kayumjonovna
Namangan State Technical University

PROBLEMS OF ENSURING CONTINUITY OF PROFESSIONAL AND HIGHER EDUCATION SYSTEMS

Abstract: *The article presents the problems of ensuring the continuity of the system of professional and higher education and ways to solve them.*

Keywords: *vocational and higher education, continuity, tasks of ensuring continuity.*

Hozirgi optimallashuv jarayonida ta'lim va tarbiya tizimi mamlakat taraqqiyotini ta'minlashda belgilovchi, ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida tan olinib, ta'lim islohotlarining maqsadi ham aynan shu yo'nalishga, ya'ni jamiyatning intelektual va ma'naviy kamol topishi, iqtisodiyotning barqaror o'sishi va respublikada aholi turmush darajasini yaxshilashga qodir kadrlarni shakllantirish maqsadida rivojlanuvchi uzluksiz ta'lim tizimi qaytadan yanada modernizatsiyalashtirildi.

Yangi O'zbekiston hozirgi davrdagi rivojlanishi, yangilanishi, kelajakda qanday bo'lishi, yosh avlodning har tomonlama yetukligi, ya'ni ularning qay darajada mukammal shaxs sifatida tarkib topishlariga, o'zlarida kreativ qobiliyatlarini mujassamlashtirgan, kasbiy kompetentlikka ega shaxs bo'lib yetishishlariga bog'liqdir.

Mamlakatimiz iqtisodiyotidagi tub o'zgarishlar chet el investisiyalari bilan birga eng zamonaviy texnologiyalarning kirib kelishi, fan-texnika sohasi va yo'nalishlarining kengayishi, murakkablashishi, tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesning rivojlanishi bilan bog'liq texnik ta'lim yo'nalishlariga oid professional va oliy ta'lim tizimi bo'yicha bo'lajak mutaxassis kadrlar tayyorlashni dolzarb vazifa qilib qo'ymoqda.

Bo'lajak mutaxassislar o'z layoqati va motivlariga qarab taxsil oladilar va shu yo'nalishning yetuk mutaxassisi bo'lib faoliyat yurita boshlaydilar. Respublikamizda amalga oshirilayotgan ishlarga mashinasozlik sohasidagi yangi texnika va texnologiyalarning kirib kelish va ularni hayotdagi tadbig'i misol bo'ladi. Jumladan, mamlakat xududidagi mavjud texnologik mashinalari ish unumdorligi yuqori bo'lgan Germaniya va Shvesiya, Yaponiya va Xitoy davlatlari mashinasozlik sanoatidagi eng zamonaviy texnologik mashinalari bilan almashtirilmoqda. Shu sababli texnik ta'lim yo'nalishdagi professional va oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan bo'lajak mutaxassislar oldida xorijiy texnikalar bilan ishlash uchun kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish muammosi vujudga keladi. Ushbu muammoni ijobiy hal etish uchun nazariy ta'lim bilan birga amaliy ta'lim ko'nikmalarini ham rivojlantirish lozim bo'ladi. Amaliy ta'limning vazifasi, mazmuni, metodlari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bitta maqsadga, ya'ni yuqori malakali mutaxassislarni

tayyorlashga qaratilgan. Nazariy va ishlab chiqarish ta'limi professional va oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayonining mustaqil va o'zaro bir-biri bilan chambarchas uzviy bog'liq holda tashkil etilishi ta'minlanishi lozim, biroq bu vazifa hozirgi kundagi muhim muammolardan biri hisoblanadi.

Bu jarayonni yuqori saviyada o'tkazish uchun ta'lim muassasalari o'rtasida muntazam hamkorlik o'rnatilishi kerak. Barcha amaliyotlarning ta'lim muassasalari bilan bevosita bog'liq holda tashkil etish bo'lajak mutaxassislarda barcha pedagogik jarayonlar va mehnat jarayonlari hamda mehnatni tashkil etishni ishlab chiqarish jarayonida o'rganish imkonini yaratadi. Aynan mana shu boradagi ta'lim tizimlari o'rtasidagi kadrlar tayyorlash borasidagi muntazam hamkorlik, sohalardagi malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyoj: professional va oliy ta'lim muassasalarida ana shu ehtiyojga muvofiq mutaxassislar tayyorlanishi o'sha xududlarda barcha sohalarning istiqbolli rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Shu sababli quyidagi professional va oliy ta'lim uzviyligini ta'minlash modelini ishlab chiqdik (1-model).

1-model



U asosan uzviylikning funksional, tarkibiy, natijaviy vazifalarini o'z ichiga qamrab oladi.

Modelning ***funksional vazifa*** tarkibiga ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantirish, ijtimoiy rag'batlantirish hamda uyg'unlashtirish vazifalari kiradi.

Ta'limiy vazifa professional va oliy ta'limning har bir bosqichida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentlik(kasbiy bilim, ko'nikma va malaka)ni uzviy egallashlarini ta'minlashdan iborat.

Tarbiyaviy vazifasi bo'lajak mutaxassislarga jamiyat, inson va tabiat orasidagi o'zaro aloqalarni tushuntirish, ularda moddiy va ma'naviy boyliklarni asrash ko'nikmalarini, shuningdek, ahloqiy me'yorlar

hamda muloqot madaniyatini uzviy va uzluksiz shakllantirishdan iborat.

Rivojlantirish vazifasi bo‘lajak mutaxassislarda kasbga oid nazariy bilimlarni egallash, mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish, o‘z fikr va mulohazasini bildirish hamda ***hard skills*** (kasbiy, texnik ko‘nikmalari)ni izchil rivojlantirishdan iborat.

Ijtimoiy vazifasi bo‘lajak mutaxassislarda birgalikda faoliyat ko‘rsatish tajribasini, ***soft skills*** (kommunikativ ko‘nikma va muomala madaniyati)ni shakllantirishdan iborat.

Rag‘batlantirish vazifasi bo‘lajak mutaxassislarning motiv va turli ehtiyojlarini qondirish orqali mehnat qilish yoki ta’lim olish faoliyatlariga rag‘batlantirish orqali ta’sir ko‘rsatishdan iborat.

Uyg‘unlashtirish vazifasi uzviylashgan professional va oliy ta’lim tizimining o‘zaro aloqador bo‘lgan motivlashgan, mazmuniy, metodik hamda tashkiliy komponentlarining yaqinlashuvi, uyg‘unlashuvini amalga oshirish natijasida shaxsni shakllantirish jarayonining izchilligi, tizimliligi va yaxlitliligini ta’minlashdan iborat.

Professional va oliy ta’lim maqsadi bo‘lajak mutaxassislarda ***soft skills va hard skillsni*** **(**ya’ni bo‘lajak mutaxassislarda nafaqat biror ishni bajarish, kasbiy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, balki turli hayotiy va kasbiy masalalarni mustaqil yechish va qaror qabul qilish, dolzarb kasbiy muammolar haqida mulohaza yuritish ko‘nikmalari)ni shakllantirishdan iborat. Shuning uchun, bugungi kunda professional va oliy ta’lim texnik ta’lim yo‘nalishlarida motivlashgan, mazmuniy, metodik hamda tashkiliy komponentlar orasida uzviylik muhim muammo hisoblanadi. Mazkur komponentlar modelning ikkinchi qismi – ***tarkibiy qismini*** tashkil qiladi.

Motivlashgan komponentlar: bilish motivlari, ijodiy motivlar va ahloqiy motivlar. Professional va oliy ta’lim texnik ta’lim yo‘nalishlarida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy bilim, ko‘nikmalarni egallashga bo‘lgan qiziqishini uzviy rivojlantirib borish muhim omil hisoblanadi.

Bilish motivlari bo‘lajak mutaxassislarda kasbiy ko‘nikmalarni egallashga bo‘lgan qiziqishini, hayotimizda sodir bo‘layotgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni bilishga bo‘lgan ehtiyojning rivojlanishida ifodalanadi.

Ijodiy motivlar bo‘lajak mutaxassislarda kreativ g‘oyalari asosida murakkab muammoli vaziyatlardan chiqish yo‘llarini topish, dolzarb kasbiy muammolar haqida mulohaza yuritish, o‘z nuqtai nazarini bildirish, yangi faoliyat turlarini egallashga bo‘lgan qiziqish va ehtiyojning oshishida *hard skills*ni shakllanish darajasida o‘z aksini topadi.

Ahloqiy motivlar bo‘lajak mutaxassislarda mehnatsevarlik, intizomlilik, mas’uliyatlilik, yuksak ahloqiy va kasbiy madaniyatga intiluvchanlik kabi kasbiy sifatlarni egallashga bo‘lgan intilish, *soft skills*ning rivojlanishida ifodalanadi.

Uzviylik tizimida ***mazmuniy komponent*** professional ta’limi bilan oliy ta’lim maqsadi va ta’lim mazmuni o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlashda ifodalanadi. Professional va oliy ta’lim tizimida mazmuniy uzviylikni amalga oshirishda professional ta’lim muassasalari bo‘lajak mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligi katta ahamiyatga ega.

Tadqiqotlar natijasi professional ta’limi bo‘lajak mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligi kasbiy kompetentlikni oliy ta’lim tizimida uzviy rivojlantirish uchun yetarli emasligini ko‘rsatmoqda. Buning sababi, bo‘lajak mutaxassislarda boshlang‘ich kasbiy bilim (tushunchalar, tasavvurlar), ko‘nikma va malakalar professional ta’lim tizimida yetarli shakllantirilmay, ularga oliy ta’lim tizimida ta’lim berish davom ettirilmoqda. Mavzularni batafsil tushuntirish uchun vaqt taqsimotining to‘g‘ri tashkil etilmaganligi, takrorlanishlarning mavjudligi hamda fanlararo va mavzulararo uzviylikni ta’minlanmaganligi kuzatilmoqda.

Professional va oliy ta’limga mo‘ljallangan fan dasturlari va fan adabiyotlarida takrorlanishlar mavjud bo‘lib, bu bo‘lajak mutaxassislarning fanga bo‘lgan, balki kasbga bo‘lgan qiziqishlarini susaytiradi. Shuning uchun:

- professional va oliy ta’lim tizimida bo‘lajak mutaxassislar egallashi zarur bo‘lgan ta’lim mazmunini qayta ko‘rib chiqish, ularni uzviy va izchil tarzda rivojlantirish;

- professional ta’lim tizimida bo‘lajak mutaxassislarga taqdim etiladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalar oliy ta’limda tizimlashtirish, umumlashtirish hamda chuqurlashtirishni ta’minlash;

- fan dastur tarkibida muayyan mavzularning o‘rinsiz takrorlanmasligi, ta’lim turi malaka talablariga muvofiq bo‘lishi, nazariy va amaliy qismlarning o‘zaro mutanosibligini ta’minlash;

- mavzular o‘zaro bog‘liqlikda, ya’ni yangi mavzuni o‘rganish nafaqat o‘tilgan mavzuga tayangan holda, balki yangi mavzu keyingi mavzularga ham bog‘langan holda o‘rganilishini ta’minlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Raxmonova V.K. Obespecheniye preyemstvennosti v sistete neprerыvnogo professionalnogo obrazovaniya.-Moskva.: “Molodoy uchyonыy jurnal”. № 3 (50). 494-495 str. 2013g.

2. Raxmonova V.K Model obespecheniya preyemstvennosti professionalnыx znaniy, navыkov i umeniy v sisteme professionalnogo i vыsshego obrazovaniya. .-Moskva.: Molodoy uchyonыy jurnal № 2.1 (61.1) / 2014 g.

3. Raxmonova V.Q. The role of cluster technologies in providing membership in the system of professional and higher education**.** European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Vol.9 No 2.ISSN 2056-5852. Progressive Academic Publishing, UK.9-14 p.2021 y.

4. Raxmonova V.Q. Kasb-hunar hamda oliy ta'lim mashinasozlik texnologiyasi yo'nalishida fanlararo uzviylikni ta'minlash. Mug'allim hem uzliksiz bilimlendirio' jurnal. Nukus, 2014 y. № 1. 68-71 betlar.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Norkulov Doniyorbek Rahmiddinovich
Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini qayta tayyorlash
va ularning malakasini oshirish instituti
Farg‘ona filiali “Jismoniy tarbiya, sport nazariyasi va uslubiyoti”
kafedrasi mudiri, p.f.b.f.d.(PhD) v.b professor
doniyorbeknorkulov @gmail.com

UDK: 796:373.24.379

TRENERLIK FAOLIYATINI STRATEGIK REJALASHTIRISH ORQALI SAMARADORLIKKA ERISHISHNING SAKKIZ BOSQICHI

Annotatsiya: *Tadqiqot trenerlik faoliyatining samaradorligini oshirish maqsadida istiqbolli strategik rejalar tuzish metodikasini ishlab chiqish zaruratini o‘z ichiga oladi. Trenerlarning strategik boshqaruv qobiliyatlarini shakllantirish, sportchilar natijalarini oshirish hamda sport tashkilotlarining faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga yordam beruvchi innovatsion metodlar taklif etiladi. O‘zbekistonda sportni rivojlantirish yuzasidan qabul qilingan qaror va farmoyishlarga asoslanib, trenerlik faoliyatini boshqarish tizimini zamonaviylashtirishga doir amaliy tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar*: trenerlik faoliyati, strategik reja, metodika, samaradorlik, innovatsiya, boshqaruv.*

Норкулов Дониёрбек Рахмиддинович
Ферганский филиал Института переподготовки и повышения
квалификации специалистов физической культуры и спорта,
кафедра «Физическое воспитание, теория и методика спорта», р.ф.б.ф.д.(PhD) в.б профессор

МЕТОДИКА РАЗРАБОТКИ ПЕРСПЕКТИВНЫХ СТРАТЕГИЧЕСКИХ ПЛАНОВ ДЛЯ ЭФФЕКТИВНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ ТРЕНЕРСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация*: Исследование охватывает необходимость разработки методики перспективного стратегического планирования для повышения эффективности тренерской деятельности. Предлагаются инновационные методы формирования стратегических управленческих навыков тренеров, повышения результатов спортсменов и эффективной организации деятельности спортивных организаций. Представлены практические рекомендации по модернизации системы управления тренерской деятельностью на основе решений и распоряжений, принятых в области развития спорта в Узбекистане.*

Ключевые слова*: тренерская деятельность, стратегический план, методика, эффективность, инновация, управление.*

Norkulov Doniyorbek Rahmiddinovich
Acting Professor, Department of "Physical Education,
Sports Theory and Methodology", Fergana Branch of the
Institute for Retraining and Advanced Training of Physical
Education and Sports Specialists, p.f.b.f.d.(PhD) v.b professor

METHODOLOGY OF DEVELOPING PROSPECTIVE STRATEGIC PLANS FOR EFFECTIVE ORGANIZATION OF COACHING ACTIVITY

Annotation*: The research addresses the necessity of developing a methodology for creating prospective strategic plans to enhance the effectiveness of coaching activities. Innovative methods for developing strategic managerial skills of coaches, improving athletes' performance, and effectively organizing sports organizations' activities are proposed. Practical recommendations are provided for modernizing the management system of coaching activities based on decisions and directives aimed at developing sports in Uzbekistan.*

Key words*: coaching activity, strategic plan, methodology, effectiveness, innovation, management.*

Kirish.

Hozirgi kunda sport sohasidagi yuqori natijalarga erishish va xalqaro maydonlarda muvaffaqiyat qozonish O‘zbekistonning davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2022-yil 4-iyuldagi “Jismoniytarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlarito‘g‘risida”gi 355-son qarori va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida boshqaruv tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida"gi PF-5368-son farmoniga muvofiq trenerlar faoliyatini samarali boshqarish strategiyasini takomillashtirish dolzarb masalaga aylandi.

Bugungi kunda trenerlarning strategik rejalarni ishlab chiqish ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni amaliyotga tatbiq etish zarurati ortib bormoqda. Strategik rejalashtirishning ilmiy asoslangan metodikasini yaratish trenerlar va sport tashkilotlari uchun amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan mazkur tadqiqot trenerlik faoliyatini samarali tashkil qilishda istiqbolli strategik rejalar tuzish metodikasini ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Tadqiqot maqsadi: Trenerlik faoliyatini samarali tashkil qilish uchun istiqbolli strategik rejalar tuzish metodikasini yaratish.

Tadqiqot vazifalari:

- Trenerlik faoliyatini strategik rejalashtirish zaruriyatini asoslash;
- Istiqbolli strategik rejalarni ishlab chiqish bo‘yicha xorijiy va mahalliy tajribalarni o‘rganish;
- Strategik rejalashtirish jarayonining asosiy bosqichlarini belgilash;
- Samarali trenerlik faoliyatini tashkil qilishda qo‘llaniladigan innovatsion texnologiyalar va metodlarni aniqlash;
- Sport tashkilotlari uchun strategik rejalarni tatbiq qilish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish;
- Trenerlarning strategik rejalashtirish ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan o‘quv dasturlarini ishlab chiqish.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida ilmiy tahlil, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatish va ekspert baholash metodlaridan foydalaniladi. Shuningdek, trenerlar va sport tashkilotlari rahbarlari bilan so‘rovnoma va intervyular olib boriladi. Tadqiqot natijalarini obyektivlashtirish maqsadida matematik-statistik usullar (Pearson korrelyatsiyasi, Spearmen rank koeffitsiyenti) qo‘llaniladi. Strategik rejalar tuzish jarayonining bosqichlari jadval shaklida taqdim etiladi [2; 256].

1. Shaxsiy rivojlanish rejasi tuzish

- Trener o‘zining kuchli va zaif tomonlarini aniqlab, rivojlantirish zarur bo‘lgan jihatlar ustida ishlaydi.
- Shaxsiy SWOT-tahlil o‘tkazish orqali aniqlangan yo‘nalishlarda rivojlanish rejasi ishlab chiqiladi.

2. Doimiy malaka oshirish kurslarida qatnashish

- Xalqaro va milliy miqyosda trenerlik sertifikatlari va diplomlarini olish orqali o‘zining kasbiy bilimlarini kengaytiradi.
- Xalqaro tashkilotlar tomonidan tashkil etiladigan maxsus kurslar va seminarlar.

3. Xalqaro tajriba almashuv dasturlariga qo‘shilish

- Chet el trenerlari bilan hamkorlik qilish orqali ilg‘or uslub va metodikalarni o‘zlashtirish.
- Xalqaro seminarlar, konferensiyalar va stajirovkalar orqali yangi bilimlar olish va tajribalarni amaliyotga tatbiq qilish.

4. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni o‘zlashtirish

- Video tahlil qilish va statistik dasturlar orqali sportchilarning rivojlanish natijalarini aniq baholash.
- «Catapult», «Polar Team Pro», «Microgate OptoGait» kabi texnologiyalar orqali trening jarayonini sifatli boshqarish va nazorat qilish.

5. Mentor yoki tajribali trener bilan ishlash

- Tajribali mentor trenerlardan tavsiya olish va ularning tajribalaridan foydalanish.
- Mentor trener tomonidan berilgan tavsiyalar asosida faoliyatda yangiliklarni tatbiq qilish.

6. Shaxsiy faoliyatni baholash va monitoring qilish

- Faoliyatni ob'ektiv baholash tizimini yo‘lga qo‘yib, muntazam ravishda natijalarni tahlil qilish.
- Trener o‘ziga maqsad qo‘yib, belgilangan ko‘rsatkichlarga erishganligini monitoring qilib boradi.

7. Innovatsion trenerlik uslublarini joriy qilish

- O‘z trening jarayonida kreativ va innovatsion usullarni tatbiq etish.
- Psixologik trening, individual yondashuv va zamonaviy trening metodikalari yordamida sportchilar natijalarini oshirish.

8. Kasbiy kommunikatsiya va psixologik ko‘nikmalarni rivojlantirish

- Sportchilar bilan samarali muloqot qilish, motivatsiya berish va ularni boshqarish ko‘nikmalarini yaxshilash.
- Sportchilar va ota-onalar bilan ishlashda shaxsiy psixologik savodxonlik darajasini oshirish.


1-jadval

Shaxsiy trenerlik faoliyatini takomillashtirish uchun xalqaro amaliy tajribada tavsiya etilgan strategik reja namunasi:

Strategik maqsad	Amalga oshirish mexanizmlari	Kutilayotgan natijalar
Malaka oshirish	Xalqaro kurslarda qatnashish	Trenerning xalqaro sertifikatlanishi va malakasi oshishi

Strategik maqsad	Amalga oshirish mexanizmlari	Kutilayotgan natijalar
Shaxsiy rivojlanish	SWOT-tahlil va rivojlanish rejasini tuzish	Faoliyatdagi xatolar kamayishi va samaradorlik oshishi
Texnologik malakalarni rivojlantirish	Innovatsion texnologiyalarni o‘rganish va joriy qilish	Trening sifatining oshishi va natijalar aniqligining ortishi
Tajriba almashish	Xalqaro trenerlar bilan doimiy aloqada bo‘lish	Zamonaviy metodikalar va ilg‘or tajribalarni qo‘llash
Psixologik tayyorgarlik	Sport psixologiyasi bo‘yicha kurslarda ishtirok	Sportchilar bilan samarali ishlash va motivatsiyani oshirish

Bu strategiyalar trenerlarga xalqaro darajadagi ilg‘or tajriba asosida o‘z faoliyatlarini sifat jihatidan yanada samaraliroq tashkil qilish imkonini beradi[3; 126].



1-rasm. Shaxsiy trenerlik faoliyatini takomillashtirish uchun yo‘l xaritasi

Tahlillar va natijalar.

Strategik rejalashtirish samaradorligini oshirish uchun tuzilgan rejalar va ularning amalga oshirilish natijalari chizma va jadvallar shaklida aks ettiriladi. Natijalar trenerlar va sport tashkilotlarining strategik boshqaruv samaradorligini oshirishga imkon berganligini tasdiqlaydi.

Xulosa va tavsiyalar.

Tadqiqot natijalari asosida trenerlik faoliyatida istiqbolli strategik rejalarni ishlab chiqish va joriy etish bo‘yicha aniq tavsiyalar beriladi. Bular trenerlarning professional rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2022-yil 4-iyuldagi “Jismoniytarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlarito‘g‘risida”gi 355-son qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida boshqaruv tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida"gi PF-5368-son farmoni.

3. Norkulov D.R, Jahbarov A.S, Nematov M.,O.F. Qambrov “Lider-Trener” dasturi 2024-yil.

4. Subramanyam K.R. Financial statement analysis. 11th edition. New York, Mc Graw-Hill Education, 2014. - 814 pages.

5. Jilkina A.N. Finansoviy analiz. Uchebnik. M.: Yurayt, 2018. – 285 s.

6. Pardayev M.Q., Isroilov J.I., Isroilov B.I. Iqtisodiy tahlil. O‗quv qo‗llanma. T.:Print Line Group, 2017.- 533 b.

7. Steven M. Bragg. Financial analysis: A business decision guide. 2nd edition. Colorado, Accounting Tools, Inc., 2014. –325 pages.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

O'rinov Shuhrat Suyunovich
Jizzax Politexnika Instituti
shuhraturinov1980@gmail.com

TEXNIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNI LOYIHAVIY-DASTURIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Mazkur ishda texnika oliy ta'lim muassasalarida talabalarni loyihaviy-dasturiy kompetensiyasini shakllantirishning nazariy asoslari tahlil qilinadi. Loyiha asosidagi o'quv jarayoni bugungi kunda ta'limda samaradorlikni oshirish, innovatsion yondashuvlarni qo'llash va talabalarni real hayotdagi muammolarni hal qilishga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so'zlar. *dasturiy vositalar, ta'lim sifati, raqamli texnologiyalar, o'quv jarayoni, loyihaviy dasturiy kompetensiya.*

Уринов Шухрат Суюнович
Джизакский политехнический институт

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОЕКТНО-ПРОГРАММНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧАЩИХСЯ В ТЕХНИЧЕСКИХ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Аннотация: *В статье рассматриваются теоретические основы формирования проектно-программной компетенции студентов в технических высших учебных заведениях. Процесс проектного обучения сегодня приобретает важное значение в повышении эффективности обучения, применении инновационных подходов и подготовке учащихся к решению реальных задач.*

Ключевые слова: *программные инструменты, качество образования, цифровые технологии, учебный процесс, проектная программная компетенция.*

Urinov Shukhrat Suyunovich
Jizzakh Polytechnic Institute

THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE FORMATION OF STUDENTS' DESIGN AND PROGRAMMING COMPETENCE IN TECHNICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Abstract: *The article discusses the theoretical foundations of the formation of students' design and programming competence in technical higher educational institutions. The process of project-based learning is becoming important today in improving the effectiveness of learning, applying innovative approaches and preparing students to solve real-world problems.*

Keywords: *software tools, quality of education, digital technologies, educational process, project-based software competence.*

Kirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida [1] "Ilg'or xorijiy tajribalarga asoslangan holda, ta'lim standartlarini joriy etish, oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoni mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari o'quv fan dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy bilimlarni rivojlantirishga qaratilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish, xalqaro va mahalliy mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan, ijtimoiy va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanish jarayoniga munosib hissa qo'sha oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish kabi vazifalar belgilab berilgan"[2].

Yurtimizda oliy ta'limga nisbatan talab keskin ortganligi sababli, Oliy ta'limni rivojlantirish hamda modernizatsiyalash yuzasidan keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28-yanvar 2022-yildagi Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi PF-60 sonli Farmoni qabul qilindi. Ushbu Farmonda "2026-yilgacha 10 ta salohiyatga ega Oliy ta'lim muassasalarini THE va QS xalqaro reytingga kirishga tayyorlash maqsad qilingan"[3].

"Raqamli ta'lim" o'z mohiyatiga ko'ra, ta'lim jarayonining asosan raqamli texnologiyalar bilan

ishlaydigan hamda ta’lim metodlari raqamli mahsulotlar bo‘lgan elektron darslik, elektron ma’ruzalar to‘plami, virtual laboratoriya ishlanmalari, mustaqil ishlar nazoratini tashkil etish mexanizmining elektron bazasi va masofaviy xizmatlarga asoslangan tizimlardan iborat qismi hisoblanadi. Ma’lumki, hayotni anglash, uni o‘rganish informatsiyalarni yig‘ish va o‘zlashtirish orqali kechadi. Insonning bilimlilik darajasi ham ma’lum davr ichida shaxs tomonidan o‘zlashtirilgan informatsiyalarning ko‘p yoki ozligi bilan belgilanadi. Shuning uchun zamonaviy bilimlar sari keng yo‘l ochish, ta’lim tizimini takomillashtirishda raqamli texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kunning talabiga aylandi.

Adabiyotlar tahlili.

Zamonaviy texnologiyalar rivoji ta’lim jarayonlarini tubdan o‘zgartirib, yangi talablarni shakllantirmoqda. Texnika oliy ta’lim muassasalarida talabalarning loyihaviy-dasturiy kompetensiyasini rivojlantirish raqamli texnologiyalarni o‘quv jarayoniga chuqur integratsiya qilishni talab etadi. Ushbu kompetensiya talabalarning amaliy bilimlarini mustahkamlash, innovatsion fikrlashni rivojlantirish va professional muammolarni hal qilish qobiliyatlarini shakllantirishga asos bo‘ladi. Loyihaviy-dasturiy kompetensiya texnikada va informatika fanlarida muammolarni hal etish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘z ichiga oladi. Bu kompetensiya talabaning texnik jarayonlarni o‘rganish, muammolarni tahlil qilish, dasturiy ta’minot yaratish va uni dasturiy texnologiyalar yordamida amalga oshirish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan. Shuningdek, loyihaviy-dasturiy kompetensiya talabalarni jamoada ishlashga, innovatsion yechimlar topishga va o‘z ishlanmalari uchun javobgarlikni his qilishga o‘rgatadi. R.X.Djuraevning tadqiqotlarida bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablar va ularni amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqishning nazariy va metodologik aspektlari o‘z aksini topgan. O‘.Tolipovning konsepsiyasiga muvofiq, yangi innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida ta’lim oluvchilarda umummehnat va kasbiy ko‘nikma hamda malakalarni rivojlantirish, ta’lim mazmunini yangilash, yangi metod va vositalar asosida ta’lim jarayonini takomillashtirish, tajriba sinov ishlarini amalga oshirish hamda uslubiy tavsiyanomalarni ishlab chiqish ta’lim tizimini isloh qilishning zaruriy shartidir. O‘.T.Tolipovning ilmiy tadqiqotlari bo‘lajak mutaxassislarning umummehnat va umumkasbiy ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish muammolarini yoritilib, pedagogik texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatlariga bag‘ishlangan. D.N.Mamatovning “Elektron axborot-ta’lim muhitida kasbiy ta’lim jarayonlarini pedagogik loyihalashtirish” nomli dissertatsiya ishida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim doirasida elektron axborot ta’lim muhitini loyihalashtirishi ko‘rsatilgan. Ta’lim muhitini loyihalash rivojlantiriluvchi kompetentlik komponentlari, pedagogik shart-sharoitlari, ta’lim funksiyalari, innovatsion yondashuvlar asosida ochib berilgan. Pedagog olim N.A.Muslimov bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchisida pedagogik sifatlarni shakllantirishning ilmiy-metodik asoslarini tadqiq etib, mutaxassislarning yangi avlodini shakllantirish, ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk, mustaqil dunyoqarashga ega, ijodiy fikrlovchi, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatli barkamol shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazish masalalariga alohida e’tibor qaratgan. J.A.Hamidovning tadqiqotlarida ta’lim komponentlari uzviyligi asosida bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining bilish faoliyatini faollashtirishda zamonaviy o‘qitish vositalarini (o‘quv materialini differensial taqdim etish; o‘quv materialini ta’lim oluvchilar tayyorgarlik darajasiga qarab taqdim etish; baholash, boshqarish, turli shaklda nazorat qilish; interfaol muloqotni amalga oshirish) didaktik imkoniyatlari aniqlangan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Kompetentli yondashuv metod sifatida o‘quv jarayonini tashkil etish, uni kelajakdagi kasbi uchun muhim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va shaxsiy xususiyatlarni shakllantirish va rivojlantirishga yo‘naltirish imkonini beradi. Kompetenttli yondashuvni tashkil etuvchi tamoyillar ta’limning maqsad va mazmunini aniqlash, ta’lim va tarbiya natijalarini baholashning tashkiliy shakllari va usullarini tanlash imkonini beradi hususan, texnika oliy ta’lim muassasalarida talabalarni loyihaviy-dasturiy kompetensiyasini raqamli texnologiyalar asosida shakllantirishning nazariy va metodologik asoslari ishlab chiqildi. Ta’riflar, tahlillar nazariy asos, yondashuvlar va tamoyillar motodologik asos sifatida qaraldi. Raqamli ta’lim muhiti nazariyasi rivojlanishining zamonaviy darajasi raqamli texnologik yondashuvning bazaviy tushunchasi bo‘lgan raqamli ta’lim tushunchasi barcha uchun umumiylik xususiyatiga egaligi sababli so‘zsiz ravishda falsafiy kategoriyaga taalluqliligini isbotlash imkonini beradi.

Mark Prenskining “Digital Natives, Digital Immigrants” (“Raqamli dunyo sohiblari, raqamli dunyo muhojirlari”) nomli maqolasida bugungi kun tinglovchilariga quyidagi ta’rifni beradi: “Hozirda tinglovchilarimiz batamom o‘zgargan. Zamonaviy tinglovchilar endilikda biz ishlab chiqqan ta’lim tizimimizga ko‘ra o‘qitiladigan kishilar emas”. Maqolada bugunning tinglovchilari “Digital Natives” – “Raqamli dunyo sohiblari”– bugungi kunda kompyuter, video o‘yinlari va internetning raqamli tilida o‘z ona tiliday so‘zlashuvchi yoshlar sifatida ta’rif beriladi. Ta’lim sohasi vakillari o‘qituvchilarga esa “Digital Immigrants” – “raqamli dunyo muhojirlari” – raqamli, elektron dunyoga moslashayotgan, yangi texnologiyalarning ko‘pgina qirralarini endi qabul qilayotgan kishilar sifatida baho beriladi. [5]

Loyihaviy-dasturiy kompetensiyaning shakllantirilishidagi muhim omillar

❖ **Nazariy bilimlar va metodologiya**: Loyihaviy va dasturiy menejmentning asosiy nazariy tamoyillarini o‘rganish, ularni to‘g‘ri qo‘llash. Bu metodologiyalar, standartlar va yondoshuvlarni bilish.

❖ **Muammolarni hal qilish va qarorlar qabul qilish**: Loyihani amalga oshirishda yuzaga keladigan muammolarni aniqlash va ularga samarali yechimlar ishlab chiqish. Dasturiy loyihalarda qaror qabul qilish jarayonlari va risklarni boshqarish zarur.

❖ **Innovatsion yondashuvlar**: Texnologiyalar va metodologiyalarning yangilanishi bilan birga, loyiha va dasturiy ishlab chiqish jarayonida innovatsiyalarni qo‘llash, yangi texnologiyalarni o‘rganish va tatbiq etish.

❖ **O‘z-o‘zini rivojlantirish**: Har bir loyiha boshqaruvchisi va dasturchi o‘z bilimlarini doimiy ravishda yangilab turishi, o‘z-o‘zini baholash va rivojlantirishga harakat qilishi kerak.

Bu omillar loyiha va dasturiy kompetensiyani shakllantirishda asosiy ahamiyatga ega bo‘lib, ularning har biri muvaffaqiyatli loyihalarni amalga oshirishda katta rol o‘ynaydi.

Xulosa.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, dasturiy vositalardan foydalanish nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki talabalarning raqamli kompetensiyalarini ham rivojlantiradi. Bu esa kelajakda ularning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshiradi. Zamonaviy ishlab chiqarish korxonalarida raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalariga ega mutaxassislarga talab yuqori bo‘lib qolmoqda. Texnika oliy ta’lim muassasalarida talabalarni loyihaviy-dasturiy kompetensiyasini shakllantirish, ular uchun nafaqat zamonaviy texnologiyalarni o‘rganish, balki jamoada ishlash, innovatsion yechimlar ishlab chiqish va o‘z ishlanmalari uchun javobgarlikni his qilish muhimligini anglatadi. Ta’lim tizimida bu kompetensiyaning shakllantirilishi talabalarni nafaqat amaliyotga tayyorlaydi, balki ularni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish jarayonlariga ham faol jalb etadi. Loyihaviy-dasturiy kompetensiyaning shakllanishi uchun zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan, ayniqsa, kompyuter dasturlari va muhandislik vositalaridan samarali foydalanish, shuningdek, ilmiy-tadqiqot va amaliy ishlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan o‘quv jarayonlarini tashkil etish zarur. Shu bilan birga, talabalar o‘z faoliyatida loyiha va dastur ishlab chiqish, jarayonlarni optimallashtirish, xatoliklarni tahlil qilish va takomillashtirish kabi ko‘nikmalarni rivojlantiradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-5847-sonli farmoni. https://lex.uz/docs/4545884
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son farmoni. https://lex.uz/docs/3107036
3. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son qonuni. https://lex.uz/docs/5013007
4. Bagautdinov, B.A. (2018). *Loyihaviy o‘qitish metodlari va texnologiyalari.* Tashkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
5. https://uza.uz/uz/posts/ra-amli-talim-u-nima-va-bizga-nima-beradi--05-04-2020
6. Abdullayev S., Raximov A., & Karimov B. (2023). Texnik oliy ta'limda virtual laboratoriyalardan foydalanish istiqbollari. Ta'lim texnologiyalari, 15(2), 45-52.
7. https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/2544-980X
8. Sattarov, A. (2020). Dasturiy ta’minot yaratish va uning pedagogik yondashuvlari. Tashkent: Innovatsiya va Ta’limni rivojlantirish markazi.
9. Guseynov, I., & Karimov, S. (2019). Axborot texnologiyalarining ta’limdagi o‘rni. Tashkent: Science and Technology Publishing.
10. Shonazarov, S. (2021). Loyihaviy o‘qitish metodologiyasi: Nazariy asoslar va amaliy yondashuvlar. Tashkent: Innovatsion ta’lim markazi.
11. Sultonov, T. (2017). *Oliy ta’limda pedagogik innovatsiyalar.* Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim Vazirligi.
12. Soliev, B., & Yusupov, D. (2016). *Loyihaviy ta’lim metodologiyasi va uning amaliyoti.* Tashkent: Iqtisodiyot va Ta’lim nashriyoti.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Olimova Nodirabegim Ibrohimjon qizi
FarDU Maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi
nodirabegim3363@icloud.com

UDK361.1(075)

BO'LAJAK SURDOPEDAGOGLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kompetentlik tushunchasi, kasbiy kompetentlik, kompetentli yondoshuv, kasbiy kompetentli o'qituvchi, bo'lajak surdopedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirish - pedagogik muammo sifatida qaralsa, amalga oshirilishi zarur bo'lgan ba'zi bir ishlar, kasbiy kompetentlikda kompetensiya tushunchasi va bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentlikni shakllantirishda nazariy tayyorgarlikning shakllariga e'tibor qaratish zarurligi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *kompetentlik, kasbiy kompetentlik, kompetensiya, bo'lajak surdopedagoglar, kompetentli yondoshuv.*

Алимова Нодирабегим Ибрагимжановна
Преподаватель кафедры дошкольного образования ФарГУ

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ЖЕСТОВОГО ЯЗЫКА

Аннотация: *В данной статье рассматриваются понятия компетентности, профессиональной компетентности, компетентностного подхода, профессионально компетентного педагога, формирования профессиональной компетентности будущих учителей жестового языка - часть работы, которую необходимо провести, понятие компетентности в профессиональной компетентности и профессиональном развитии будущих учителей. Обсуждается необходимость акцентирования внимания на формах теоретической подготовки в формировании компетентности.*

Ключевые слова: *компетентность, профессиональная компетентность, компетентность, будущие учителя жестового языка, компетентный подход.*

Olimova Nodirabegim Ibrahimjan kizi
Teacher of the Department of preschool education of FarSU

THEORETICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE SIGN LANGUAGE TEACHERS

Abstract. *This article discusses the concept of competence, professional competence, competent approach, professionally competent teacher, the formation of professional competence of future sign language teachers - some of the work that needs to be done if it is considered as a pedagogical problem, the concept of competence in professional competence and the need to pay attention to the forms of theoretical training of future teachers in the formation of professional competence.*

Keywords: *competence, professional competence, competence, future sign language teachers, competent approach.*

Kirish (Видение/Introduction).

So'ngi yillarda mamlakatimizda ta'lim tizimini rivojlantirish, surdopedagog kadrlarni tayyorlash tubdan isloh qilinmoqda. Dunyo sahnalarida o'zining munosib o'rniga ega, kuchli bilimli, mehnat bozorida raqobatbardosh, salohiyatli, zamonaviy texnologiyalar bilan qurollangan kadrlar shuningdek, bo'lajak pedagoglarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirish, o'qitish sifati va samaradorligini ko'tarish, xalqaro standartlarga moslashtirish ilmiy savodxonligini oshirish, ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu o'rinda mamlakatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyevning 2016-yil 14-dekabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqida "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi,

baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz” [1]deb bejizga ta’kidlanmaganligini aytib o‘tamiz.

Ta’lim muassasalarida aynan shunday nuqtai-nazar bilan yondashilib kelinayotganligi, barkamol shaxs, innovatsion kasbiy va shaxsiy kompetentlik masalasi diqqat markazda ekanligi o‘z samarasini beradi albatta.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya (литература и методология /Methods).

Kompetentlik atamasi «samaradorlilik», «erishish», «muvaffaqiatlilik», «tushunish», «natijalilik», «ega bo‘lish», «sifot», «miqdor» so‘zlari yordamida ta’riflanadi, shu bilan birga ko‘pgina mualliflar uni tashxislashdagi qiyinchiliklarni qayd etgan. L. Spenser va M. Spenserlarning ta’kidlashicha, kompetensiyalarning shakllanishi ularni o‘lchash va xususiyatlarini aniqlash qiyinchiligi bilan ortga suriladi [2]Dj. Raven kompetentlikni biror bir ob’yekt yoki ob’yektlar sinfiga ko‘ra biror sohaga tegishliligi bilan baholash kerak[3] - deb hisoblaydi. Natijada ma’lum faoliyatning individual motivatsiyasi jadalligining bahosi hosil bo‘ladi. U shaxs kompetentligini biror bir maqsadga erishish uchun faoliyat olib borishi kutilgan holdagina aniqlanishi ma’noga ega bo‘ladi - deb tushuntiradi. Jamiyat talablarini qondirish hozirgi zamon o‘qituvchisidan yuqori madaniyat, chuqur ma’naviyat, Vatan uchun javobgarlik hissi, mas’uliyatlilik, chuqur bilimga ega bo‘lishi, o‘z o‘quvchilarining ijodiy potensialini rivojlantirishga pedagogik qiziqishi, innovatsion faoliyatga, o‘z ustida ishlashga, kasbiy faollikka qobiliyatlilik va shu kabi boshqa bir qator sifatlarni talab etadi. Shu sababli, komil shaxsni tarbiyalash masalasi bilan bir qatorda yana bir asosiy masala, ya’ni mutaxassisning kasbiy kompetentligini shakllantirish masalasi bugungi kunda o‘ta muhim hisoblanadi. Mutaxassisning kompetensiyalarga ega, ya’ni faoliyatning qaysi usulini egallashi, nimalarni bajara olishi, nimalarga tayyorligini aniqlash – kompetentli yondoshuv deyiladi.

Mashhur amerikalik psixolog, gumanistik psixologiya asoschisi A.X.Maslou kreativlikni 2 turga ajratadi.

1. Iste’dodning kreativligi;
2. Shaxsning o‘zini-o‘zi aktuallashtirish kreativligi.

Shaxsning o‘z-o‘zini aktuallashtirish kreativligi shaxs bilan uzviy bog‘liqdir. Shu sababli biz unga kundalik hayotimiz davomida va kasbiy faoliyatning ko‘p sohalarida duch kelamiz. Psixolog A.X. Maslou kreativlikda o‘z-o‘zini aktuallashtirishning ikki darajasini aytib o‘tadi: - ixtiyorsiz kreativlik - ixtiyoriy kreativlik. [4]A.X.Maslou kreativlikni inson tabiatiga xos deb ta’riflaydi. Ya’ni barcha insonlar layoqat bilan dunyoga keladi, olingan bilimlar, izlanishlar, o‘rganishlar asosida qobiliyatga aylanadi va uning ustida mukammal, kengroq ishlash oqibatida iste’dod yuzaga chiqishini bilamiz. Qobiliyat, iste’dod layoqatligicha qolib ketishi ham mumkin. Bu har bir insonnig o‘ziga bog‘liq bo‘lgan jarayondir. Adabiyotlarni tahlili shuni ko‘rsatadiki, shaxsning ijodiy salohiyati eng avvalo o‘zini anglash, mustaqil va maqsadli qarash, tanqidiy fikrlash, muammolarni tahlil etishdagi qobiliyatlilik, analitik fikrlash, olingan bilimlarni amaliyotda qollay olish, yaratuvchanlik ko‘nikmalarda namoyon bo‘lishi mumkin.

Natijalar (Результаты/Results).

“Kompetentlik” tushunchasi ta’lim sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi.

Pedagogik kompetentlik pedagogik mahorat tushunchasiga bog‘liqligini N.V.Kuxarev shunday ta’riflaydi: «Psixologik – pedagogik tayyorgarligidan kelib chiqadigan o‘qituvchi shaxsining aniq sifatlarini va pedagogik masalalarini eng samarali usulda yechadigan fazilatlar to‘plami».[5] A.K.Markova o‘qituvchini kasbiy kompetentlikka ega bo‘lgan o‘qituvchi deb aytadi, qachonki pedagogik faoliyatini, pedagogik muomalani yetarlicha yuqori darajada oshirsa, yoshlarni o‘qitishda va tarbiyalashda yuqori natijalarga erishsa. Kompetentli o‘qituvchi o‘zining kasbiy bilimlarini, psixologik fazilatlarini o‘z mehnatida qo‘llashni bilishi kerak. Bundan tashqari, bo’lajak pedagoglarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning o’ziga xos xususiyatlarida kompetensiya tushunchasi muhimdir.

Kompetensiya - o‘z bilimlarini tinmay boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, shu kun va davr talablarini his etishni, yangi bilimlarni izlab topish mahoratini, ularni qayta ishlashni hamda o‘z amaliy faoliyatida qo‘llashni talab qiladi. Kompetensiya egasi bo‘lgan mutaxassis muammolarni yechishda o‘zi o‘zlashtirib olgan, aynan shu sharoitga mos metod va usullardan foydalanishni yaxshi bilishi, hozirgi vaziyatga munosib bo‘lgan metodlarni tanlab olib qo‘llashi, to‘g‘ri

[1] Sh.M.Mirziyoyevning 2016-yil 14-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi”

[2] Большакова З.М., Тулькибаева Н.Н. Компетенции и компетентность // Вестник ЮУрГУ. - 2009

[3] Булавенко О.А. Характеристики компетентности специалиста // Проф. образование. - 2005.

[4] Muslimov N.A. Kasbiy ta’lim o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariymetodik asoslari: Ped. fanl. dokt. ... diss. T.: 2007

[5] Kushvaktov N.X. O‘quvchilarni milliy-manaviyat qadriyatlarini o‘rganish va tayyorlashning pedagogik va kompyuterli asoslari: Ped.fan.nomz. diss. - T.: 2006

kelmaydiganlarini rad etishi, masalaga tanqidiy ko‘z bilan qarashi kabi ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.

Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek pedagogik xarakterdagi ijodkorlik, yaratuvchanlikka alohida e’tibor qaratishi zarur. “Kreativlik” tushunchasini quyidagicha sharhlanadi Kreativlik (lot., ing. “create” - yaratish, “creative” - yaratuvchi, ijodkor) - ta’lim oluvchining yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorligi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati. Kreativlik bir xillikdan qochish, ijodkorlik, yaratuvchanlik, ma’lum bir narsaga yangicha yondashish ko‘nikmasidir.[6] Aqliy salohiyatni maqsadga yo‘naltirilgan holda erkin ishlata olish qobiliyati hisoblanadi. Bo‘lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga mustaqil, ijodiy, amaliy tayyorlash muammosi har doim psixologiya va pedagogika sohasi diqqat markazida bo‘lgan. Ta’lim sohasidagi sifat samaradorlik ularning jahon ta’limi talablari bilan mosligi va pedagoglarning o‘zlashtirgan kasbiy kompetensiyalarini kelgusi mehnat faoliyatidagiamaliyotga tatbiq qilish darajasi bilan bog‘liq

Muhokama (Обсуждение/Discussion).

Bo‘lajak surdopedagoglarning kasbiy faoliyatiga oid kompetentligini rivojlantirishda eng avvalo, o‘qitishda talabaning dunyoqarashini kengaytirish, bilimlarni keng va oson o‘zlashtirish maqsadida pedagogik texnologiyalarning usul, vosita va shakllarini to‘g‘ri tanlab, ulardan foydalanish va ko‘zlangan maqsadga erishish muhim sanaladi. Kompetentlik kasbiy bilim va ko‘nikmalarning mavjudligi, shuningdek, ularni amaliy faoliyatda qo‘llash va takomillashtirishga layoqatlilik bilan belgilansa, innovatsion kasbiy kompetentlik esa talabaning shaxsiy imkoniyatlari yig‘indisi, uning o‘z kasbiy bilimlari va tajribalarini amaliy faoliyatda o‘rinli va maqsadli qo‘llay olish qobiliyatidir. Innovatsion kasbiy kompetentlikning shakllanishida asosiy o‘rinni talabaning mustaqil faoliyati egallaydi.

Mustaqil faoliyat talabaning kasbiy faoliyatini yanada chuqurroq egallashi uchun xizmat qiladi. Ushbu umumiy maqsaddan kelib chiqqan holda, mustaqil faoliyat talabani har qanday sharoitda va holatda o‘zining salohiyatlarini to‘laqonli ishga solish, amaliy faoliyatlariga tatbiq etishga odatlantirib boradi. Bu esa kasbiy kompetensiyaning takomillashib borishiga asos bo‘lib xizmatqiladi. Bir so‘z bilan aytganda, raqobatbardosh mutaxassis sifatida faoliyat yuritishga tayyorlaydi. Mamlakatimizda shaxsni har tomonlama kamol topishi, ta’lim jarayoniga to‘liq jalb etish, ulardagi shijoatni yanada oshirish, manfaatlarini ro‘yobga chiqarish sharoitlarini yaratish, ta’lim sifati va samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida ta’limda noan’anaviylik, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish, turli xildagi o‘qitish metodlarni, dasturlarni amaliyotda maqsadli ravishda qo‘llagan holda ta’lim jarayonlarini tashkil etish, talabalarning qobiliyatlarini rivojlantirishga asos bo‘lib hizmat qilmoqda. Talabaning kasbiy faoliyatida kreativlik muhim tavsif hisoblanadi. Kreativlik bu - talaba o‘zining ijodiy faolligini namoyon etish qobiliyatidir. Qaysidir ma’noda yangi va foydali biror bir ishning yoki narsaning yaratilishiga hissa qo‘shadigan fenomen. Odatda bo‘lajak pedagoglarning kreativlik qobilyatga ega bo‘lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilishi, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta’minlanadi. Pedagog o‘z-o‘zidan ijodkor bo‘lib qolmaydi. Bu qobilyati doimiy ravishda o‘qib-o‘rganishlar, yangilikka intilish, izlanishlar, muntazam harakatlar orqali shakllantiriladi va takomillashib, mukammallashib boradi. Bu o‘z navbatida talabaga yaratilga muhitga ham bog‘liqdir. Bunda talaba o‘zini-o‘zi ijodiy faoliyatga yo‘naltirishi, maqsadli harakatlarda erishishi, natijadorlikni qo‘lga kiritishi va bu faoliyatlarni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega..

Xulosa (Заключение/Conclusion).

Yuqoridagi fikrlardan xulosa chiqargan holda shuni aytish mumkinki, bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda asosan o‘qituvchilar o‘z faoliyati jarayonida ibrat, namuna ko‘rsatish bilan yoshlarning faolligini, his – tuyg‘usini, hatti - harakatini rivojlantirishi va ta’sir eta olishi, har bir mashg‘ulot uchun material tanlash, uni murakkablashtirish va oldingi hamda keyingilari bilan aloqasini ta’minlash, pedagogik jarayonni o‘qituvchilar jamoasi va yoshlar bilan ishlashni qamrab olib, ta’limiy-tarbiyaviy vositalar majmuidan foydalangan holda rejalashtirishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Sh.M.Mirziyoyevning 2016-yil 14-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi”

2. Большакова З.М., Тулькибаева Н.Н. Компетенции и компетентность // Вестник ЮУрГУ. - 2009.

3. Muslimov N.A. Kasbiy ta’lim o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariymetodik asoslari: Ped. fanl. dokt. ... diss. T.: 2007.

[6] G‘ulomov. X.R. Raimov. va boshqalar. “Ta’lim-tarbiya sifati va qirralari”. T; «Fan va texnologiyalar». 2004

4. Kushvaktov N.X. O‘quvchilarni milliy-manaviyat qadriyatlarini o‘rganish va tayyorlashning pedagogik va kompyuterli asoslari: Ped.fan.nomz. diss. - T.: 2006.
5. Булавенко О.А. Характеристики компетентности специалиста // Проф. образование. - 2005.
6. G‘ulomov. X.R. Raimov. va boshqalar. “Ta’lim-tarbiya sifati va qirralari”. T; «Fan va texnologiyalar». 2004.
7. www.ziyonet.uz
8. www.edu.uz
9. www.uzedu.uz

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Kuychiyeva Mo'jizaxon Abdumannobovna
Andijon viloyati pedagogik mahorat markazi
Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasi mudiri, p.f.f.d (PhD), dotsent
G-mail:mujizaxonkuychiyeva88@gmail.com
E-mail: kuychiyevamujizaxon@mail.ru

MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA TABIIY FANLARNI O'QITISHDA STEAM TA'LIMI VA INTEGRATSIYA

Annotatsiya: *Zamonaviy jamiyat ta'lim tizimi oldiga yuqori malakali, intiluvchan, raqobatbardosh, tashabbuskor, ma'naviy va jismoniy sog'lom shaxslarni tarbiyalab berish talabini qo'ymoqda. Malaka oshirish jarayonida tabiiy fan o'qituvchilarini tayyorlash nuqtai nazaridan STEAM ta'limi, fanlararo integratsiya, kompetensiya – uzluksiz ta'lim tizimida tabiiy fanlarini o'qitish jarayonini samarali tashkil uchun zarur bo'lgan va aniq belgilab berilgan kasbiy tayyorgarlikka qo'yiladigan ijtimoiy talablardan ham o'zib ketishidir. Tadqiqot natijasida malaka oshirish jarayonida tabiiy fan o'qituvchilarini tayyorlash nuqtai nazaridan STEAM ta'limi, fanlararo integratsiya asosida tabiiy fanlar ta'limni tashkil etishga doir vazifalarni hal etishda faoliyat sohasiga doir bilim, ko'nikma va malakalardan foydalanish qobiliyati va tayyorgarligini o'zida aks ettiradi.*

Kalit so'zlar: *STEAM, kreativ, tadqiqotchi,kompetensiya, kognitiv va motivatsion komponent, integratsiya, fanlararo kompitentlik, umumkasbiy, biologiya sohasiga oid kompitentlik.*

Куйчиева Мужизахан Абдуманнобовна
Заведующий отделом методологии точных и естественных наук
Педагогического центра Андижанской области, (PhD), доцент

STEAM ОБРАЗОВАНИЕ И ИНТЕГРАЦИЯ В ПРЕПОДАВАНИИ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК В ПРОЦЕССЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ

Аннотация: *Современное общество требует от системы образования воспитания высоко квалифицированных, амбициозных, конкурентос пособных, предприимчивых, духовно и физически здоровых людей. С точки зрения подготовки преподавателей естествознания в процессе профессионального развития, STEAM-образование, междисциплинарная интеграция, компетентность необходима для эффективной организации процесса преподавания естествознания в системе непрерывного образования и превосходит социальные требования к четко определенной профессиональной подготовке. В результате исследования STEAM-образование с точки зрения подготовки учителей-естественников в процессе профессионального развития отражает способность и готовность использовать знания, умения и компетенции, относящиеся к сфере деятельности, при решении задач, связанных с организацией естественнонаучного образования на основе междисциплинарной интеграции.*

Ключевые слова: *STEAM, креатив, исследователь, компетентность, когнитивно-мотивационный компонент, интеграция, междисциплинарная компетентность, общепрофессиональная, компетентность в области биологиии.*

Kuychiyeva Mo'jizaxon Abdumannobovna
Head of the Department of Methodology of Exact and Natural Sciences
Andijan Regional Pedagogical Skills Center, PhD, Associate Professor

EDUCATION AND INTEGRATION IN TEACHING NATURAL SCIENCES IN THE PROCESS OF IN-PROGRAMME DEVELOPMENT

Annotation: *Modern society places a demand on the education system to educate highly qualified, ambitious, competitive, enterprising, spiritually and physically healthy individuals. From the point of view of training natural science teachers in the process of in-progress training, STEAM education, interdisciplinary integration, competence - is a necessary and clearly defined social requirement for professional training, which is necessary for the effective organization of the process of teaching natural sciences in the system of continuous education. As a result of the research, from the perspective of training natural science teachers in the process of*

professional development, STEAM education reflects the ability and readiness to use knowledge, skills and competencies in the field of activity in solving tasks related to the organization of natural science education based on interdisciplinary integration

Key words: *STEAM, creative, research, competence, cognitive and motivational component, integration, interdisciplinary competence, general professional, competence in the field of biology.*

Kirish.

Mamlakatimizda ta'limga e'tibor davlat siyosati darajasi sifatida qaralmoqda. Davlatning qudrati va boyligi uning yer osti, yer usti boyliklari bilan baholanmasdan balki uning intelektual salohiyati bilan baholanadi. Respublikamizda so‘ngi yillarda ta'limga yangi innovatson g‘oyalarni joriy qilish uchun bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.Jumladan: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora- tadbirlar to‘g‘risida"gi PF-5538 Farmonida ekologik jihatdan toza materiallar va energiyaning muqobil manbalaridan foydalangan holda ishlab chiqilgan namunaviy loyihalar asosida zamonaviy maktablar qurish, maktablarni, shu jumladan, o‘quv sinflari ichini yangi qulay mebellar, zamonaviy o‘quv va laboratoriya uskunalari, darsliklar va o‘quv-uslubiy materiallar, kompyuter va multimedia texnikasi, videokuzatuv tizimlari bilan jihozlash, o‘quv rejalari va dasturlarini optimallashtirish, innovatsion masofaviy pedagogik usullardan keng foydalanish jarayoni samaradorligini butunlay oshirishni nazarda tutgan holda umumta'lim muassasalarining rahbar va pedagogik xodimlari malakasini oshirish tartibi va tizimini tubdan qayta ko‘rib chiqilishi kabi ustuvor vazifalar belgilangan.

Adabiyotlar tahlili.

STEAM ta'limi asosida tabiiy fan o‘qituvchilarini tayyorlash nuqtai nazaridan STEAM ta'limi, fanlararo integratsiyaning nazariy-metodik asoslari R.Ahadov, A.Bahromov, G.Ergasheva, A.Ismailov, A.Jabborov, I.H.Hamdamov, M.Nuriddinova, M.Raximqulova, M.B Suyarov, Z.Sangirova, A.To‘xtaev, M.K.Shirinovlarning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlaridan T.Anasimova, D.Axmetova, T.Bochkareva, Y.Daurenov, S.Daurenova, D.Ermetova, I.Koshbaxtiyev, F.Sobirova, V.Vasilev, O.Shatunova, D.Cherchill, O.Shebalina kabi integrativ yondashuv asosida tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasini takomillashtirish, o‘quvchilarga yaxlit nuqtai nazarni berganligi va ayniqsa, XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali bo‘lganligi yuzasidan o‘z tadqiqotlarida bayon etishgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, tajriba-sinov, pedagogik konsilium, modellashtirish, so‘rovnoma, test, matematik-statistik tahlil kabi tadqiqot va tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tahlillar va natijalar.

Mamlakatimizda tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasiga oid J.O.Tolipovaning [2] "Biologiya o‘qituvchisining ilmiy-metodik tayyorgarligini orttirishning nazariyasi va amaliyoti", A.K.Raximovning[3] "Innovatsion ta'lim muhiti sharoitida o‘quvchilarda tabiiy-ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish nazariyasi va amaliyoti", M.M.Isabayevaning "Biologiyani o‘qitishda o‘quvchilarda sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini tarkib toptirish tizimi (5–9-sinflar misolida)", J.J.Karbozovaning[5] "Bo‘lajak o‘qituvchilarni elektron ta'lim resurslarini loyihalashga tayyorlash" hamda Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligida N.P.Stepanovaning "Talabalarning ilmiy jamiyati sharoitida biologiyani o‘qitish metodikasini rivojlantirish", S.B.Baxvalovaning "Pedagogika universitetida universitetgacha ta'lim bosqichida biologik tayyorgarlikning integral modulli metodologiyasi", T.A.Bespamyatnixning [8] "Umumiy biologiya fanini chuqur o‘rganishda talabalarning o‘quv va ilmiy-tadqiqot ishlari metodikasi", N.B.Firsovaning "O‘quvchilarning ekologik faoliyatini tashkil etish asosida biologiya fanini o‘qitish sifatini oshirish", O.V.Bogomolovaning tabiiy fanni o‘qitish metodikasi bo‘yicha innovatsion o‘quv-uslubiy majmuadan foydalangan holda aks ettiruvchi ta'lim tizimini loyihalash" kabi ilmiy-tadqiqot ishlarini ko‘rish mumkin.

Dastlab, juda ko‘p sohalarni o‘z ichiga olgan STEM darsini rejalashtirish istiqboli qo‘rqinchli tuyulishi mumkin, ammo o‘quv dasturini ishlab chiqish juda qiziqarli jarayon bo‘lishi mumkin . Buning sababi shundaki, STEM o‘qitish nafaqat o‘quvchilar uchun yanada qiziqarli o‘rganish tajribasi, balki siz uchun ham qiziqarliroq bo‘lishi mumkin. Bu o‘rgatish mazmunini o‘rganish haqida emas, balki ijodkorlikni rag‘batlantiradigan muhit yaratish haqida.

O‘quvchilaringiz eng yaxshi ta'lim tajribasiga ega bo‘lishlarini ta'minlash uchun darslaringizni rejalashtirishda bir nechta narsalarni yodda tutish kerak. Yaxshi STEM darsi:

Eng yaxshi STEM darslari amaliy mashg‘ulotlarni o‘z ichiga oladi, bunda o‘quvchilar kontseptsiyani loyihalashda yoki o‘zlari biror narsani yaratish va qurishda qo‘llaridan foydalanishlari mumkin. Shunday qilib, o‘quvchilar zerikish yoki chalg‘itish ehtimoli kamroq bo‘ladi, shuningdek, yakuniy mahsulotni baholash uchun ular uchun foydalidir.

Haqiqiy hayot stsenariylariga taqlid qiling. Bu amaliy o‘rganish juda muhim bo‘lgan yana bir sababdir. STEM-ning eng muhim jihatlaridan biri shundaki, u

o‘quvchilarga tashqi dunyoda darhol foydali bo‘ladigan ko‘nikmalarni o‘rganishga yordam beradi. An'anaviy maktablarning aksariyati amaliy ko‘nikmalarni o‘rgatadi va sizning maqsadingiz o‘quvchilaringizni haqiqiy hayotga tayyorlashdir.

O‘quvchilaringiz tugatgan matematika va fan ularning joriy loyihasiga mos kelishi, real stsenariylarga mos kelishi va oxir-oqibat maqsadga xizmat qilishi kerak. Misol uchun, ehtimol matematik tenglamalar ularning dizayni to‘g‘ri ishlashini ta'minlaydi yoki tabiiy fanlar bilimi ularga qandaydir narsalarni yaratishni tushunishga yordam beradi.


Darslarni rejalashtirish usullaridan biri muhandislik loyihalash jarayoni (MLJ) dan foydalanishdir. Bu o‘quvchilar loyihaning bir qismi sifatida muammolarni hal qilish uchun bir qator qadamlardir. Ushbu loyihaga asoslangan ta'lim strategiyasi ochiq dizaynlar, ijodkorlik va amaliy echimlarni rag‘batlantirishi kerak.

O‘quvchilaringizga ularning loyihasi yoki ular yaratmoqchi bo‘lgan narsalar haqida tanqidiy savollar berishdan boshlang. Bu nima uchun? Ular uni qanday loyihalashtiradilar? Darsning boshlanishini o‘quvchilaringizni qiziqtirishi va aqllarini ishga tushirish uchun imkoniyat sifatida foydalaning.

Tadqiqot

Bu o‘quvchilar uchun mavzu atrofida tadqiqot qilish vaqti, bu siz bilan suhbatlashish, STEM ko‘ngillisi bilan ishlash, tadqiqot qilish uchun noutbukdan foydalanish yoki tegishli videolarni tomosha qilishni o‘z ichiga oladi. Tadqiqotlar o‘quvchilarga qanday o‘xshash mahsulotlar yoki echimlar mavjudligini aniqlashga yordam beradi va ularga qanday qilib yaxshiroq qilish mumkinligini bilishga yordam beradi.

Hozirgi fan-texnika rivojlanishi sharoitida inson va tabiat munosabatlari murakkablashib, turli ekologik muammolar ko‘lami kengayib borayotgan vaqtda maktablarda tabiiy fan fanini mazmun jihatdan yangicha o‘qitish zamon talabiga aylanib bormoqda(1-rasm).



1-rasm.Tabiiy fanlarni o‘qitishning muhim xususiyatlari.

Tadqiqotchilar M.I.Nuriddinova, M.K.Shirinovning tadqiqot ishlarida umumiy o’rta ta’lim maktablarida “Atrofimizdagi olam”,“Tabiatshunoslik” fanlarini o’qitish muammolari[9], A.K.Raximov, F.I.Ochilov, Z.Sangirovalarning ilmiy tadqiqot ishlarida esa tabiiy fanlarni kompetentsiyaviy yondashuv asosida o’qitish metodikasi masalalari o’rganilgan[9].

Yuqoridagi tahlil natijalaridan ko‘rinadiki, ilmiy-tadqiqot ishlarida tabiiy fanlarni o‘qitish samaradorligini oshirish metodlari o‘rganilgan bo‘lsada, mazkur jarayonda axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish e’tiborga olinmagan.

Olimning fikridan kelib chiqqan holda va tadqiqot natijalari asosida kompetensiyalar nafaqat o‘z ichiga bilim, ko‘nikma va malakalarni, shuningdek, bo‘lajak biologiya o‘qituvchisining kasbiy faoliyati bilan bog‘liq zaruriy vaziyatlar, qadriyatli-motivatsion komponentlar, qobiliyatlarni ham qaram oladi, degan xulosaga kelindi.

Xulosalar.

STEAM ta’limi texnologiyasi loyihalash metodiga tayangan holda uning asosida bilish va badiiy izlanish

yotadi. Bunday izlanish amaliy faoliyat jarayonida bilimlarni olish, soʻngra ulardan amaliyotda qayta foydalanish, ya'ni oʻyinlarda konstruktsiyalar tuzish, texnik ijodiyot elementlarini qoʻllab, bilim olishga oid tadqiqot ishlarida amalga oshiriladi.

STEAM ta'limi oʻquvchi yoshlarning rivojlanishini tashqi olam bilan bevosita bogʻlaydi. Ma'lumki, tabiiy fanlar atrofimizdagi olam bilan bevosita bogʻliq texnologiya kundalik hayotimizda doimiy ravishda qoʻllaniladi, muhandislik esa uylar, yoʻllar, koʻpriklar va mashina mexanizmlarda oʻz aksini topgan, biror bir kasb, kundalik mashgʻulotlarimiz ozmi- koʻpmi matematika fani bilan ham bogʻlangandir.

STEAM ta'limi asosida yondashuv oʻquvchi yoshlarga dunyoni tizimli ravishda oʻrganishga, atrofda roʻy berayotgan jarayonlarni mantiqiy mushohada qilishga, ulardagi oʻzaro aloqani anglab yetishga oʻzi uchun yangi, noodatiy va qiziqarli narsalarni kashf qilishga imkon beradi. Qandaydir yangilikni kutish orqali oʻquvchi yoshlarda qiziquvchanlikni rivojlantiradi, oʻzi uchun qiziqarli masalani aniqlab olishni, yechimini topishning algoritimini ishlab chiqishni, natijalarni tanqidiy baholashni, fikrlashning muhandislik jihatlarini shakllantirishga olib keladi.

Foydanilgan adabiyotlar roʻyxati.

1. Shaxmurova G., Raxmatov U., Xoʻjanazarov Oʻ., Togʻayeva G. "Biologiya fanini oʻqitish metodikasi" moduli boʻyicha oʻquv-uslubiy majmua. Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi xalq ta`lim xodimlarini kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish xududiy markazi, Toshkent, 2017.

2. Mutalipova M., Imomov M. Ta`limda ilgʻor xorijiy tajribalar moduli boʻyicha oʻquv-uslubiy majmua. T.:TDPU, 2017

3. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., Toʻrayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari – Toshkent, 2015

4. Alyaminov X. Oʻquvchilarga badiiy-estetik ta'lim berishda oʻlkashunoslik materiallaridan foydalanish: Ped.fan.nom.diss....avtoref. –Toshkeni: TDPU, 2007. -23 b.

5. Mardonov SH.Q., Rabbimova F.T. Boʻlajak biologiya oʻqituvchilarini oʻquvchilarga tabiatni idrok qilishga oʻrgatishga tayyorlash. OʻzMU xabarlari, № 3/2. –Toshkent, 2015, 83-86 b.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Mamatova Nasibaxon Kozimbekovna
Andijon davlat chet tillari instituti tayanch doktoranti
nasiba-8785@mail.ru

UDK: 81

KONSEPTLARNING TARKIBIY VA MAZMUNIY TURLARI

Annotatsiya: *Konsept konseptual tilshunoslik nazariyasining asosiy tushunchasidir. Bu atama XX asr oxiridan boshlab tilshunoslikda o'z aksini topa boshladi. Tilshunoslikdan ma'lumki, "konsept" atamasi fanda bitta aniq ta'rifga ega emas. Kognitiv tilshunoslik tarafdorlari konseptlar inson ongi bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlaydilar.*

Kalit so'zlar: *Konsept, konkret konseptlar, mavhum konseptlar, nazariy konseptlar.*

Маматова Насибахон Козимбековна
Базовый докторант Андижанского государственного института иностранных языков

СТРУКТУРНО-СОДЕРЖАТЕЛЬНЫЕ ТИПЫ ПОНЯТИЙ

Аннотация: *Понятие является основным понятием теории концептуального языкознания. Термин начал отражаться в лингвистике с конца XX века. Из лингвистики известно, что термин "понятие" не имеет единого четкого определения в науке. Сторонники когнитивной лингвистики утверждают, что концепции тесно связаны с человеческим разумом.*

Ключевые слова: *Концепт, конкретные понятия, абстрактные понятия, теоретические понятия.*

Mamatova Nasibaxon Kozimbekovna
Doctoral Student (Phd) of Andijan State Institute of Foreign Languages

STRUCTURAL AND SUBSTANTIVE TYPES OF CONCEPTS

Abstract: *The concept is the basic concept of the theory of conceptual linguistics. The term began to be reflected in linguistics since the end of the 20th century. It is known from linguistics that the term "concept" it does not have a single clear definition in science. Proponents of cognitive linguistics argue that concepts are closely related to the human mind.*

Key words: *Concept, concrete concepts, abstract concepts, theoretical concepts.*

Kirish.

Konseprt atamasi birinchi marta 1928-yilda S.A.Askoldov tomonidan kiritilgan bo'lib, u konseptni "Fikrlash jarayonida bir xil turdagi obyekt, harakat va mental funksiyalarning noaniq sonini ifodalovchi mental qurilish", deb ta'riflagan.[1,267] D.S.Lixachev konsept haqida til egalarining ma'lumoti va shaxsiy tajribasi ta'sir qiladigan mental birlik sifatida o'z fikrini bildirgan. [2,3-9]

Hozirgi kunda "konsept" atamasi kognitiv semantika orqali dunyo va jamiyat haqidagi tasavvurlarni ifodalash uchun ishlatiladi. Z.D.Popova va I.A.Sternin turli tadqiqotchilar "konsept" atamasini har xil talqin qilishlarini ta'kidlaydilar. [3,192] Har bir tarixiy davr mafkura va siyosiy e'tiqod kabi shaxslarning o'zgaruvchan afzalliklarini aks ettiruvchi doimiy harakatda bo'lgan o'ziga xos konseptlarni ifodalaydi. Ba'zi konseptlar uzoq vaqt davom etishi, boshqalari esa qisqa muddatli bo'lishi mumkin. Jamiyat va siyosat bilan bog'liq konseptlar mamlakat ichidagi yoki butun dunyodagi holatlar kabi tez o'zgarib turadi.

Konseptual tahlilning mohiyati konseptni tushunishdir. Biroq konseptning mohiyatini tushuntirish butunlay boshqacha. Asosiy xususiyatlarni ajratib ko'rsatish mumkin: konsept dunyo haqidagi bilimlarni ifodalash birligi bo'lib xizmat qiladi. Til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlik inson ongida paydo bo'ladi, bu bizga konseptni mazmunli atributlarga ega noaniq g'oya sifatida tasvirlash imkonini beradi. Konseptlar madaniyatning muhim tarkibiy qismidir va ko'pincha lug'atlarda maxsus baholash me'yorlari (masalan, rasmiy, norasmiy va boshqalar) bilan belgilanadi. Binobarin, o'tgan asrda muhim bo'lgan ko'plab konseptlar bugungi kunda o'z ahamiyatini yo'qotdi, chunki vaqtlar o'zgarib, ba'zi asosiy elementlar yo'q bo'lib ketmoqda.

Adabiyotlar tahlili.

Konseptlar ular qo‘llanadigan davrni aks ettiradi, moslashuvchanlik va ko‘p funksionallikni namoyish etadi. Hozirgi vaqtda “konsept” atamasi zamonaviy tilshunoslikda keng qo‘llanadi.

Konsept bilan bog‘liq eng qiziqarli nazariya Y.D.Apresyanga tegishli bo‘lib, u uchta asosiy qoidadan iborat. Bular quyidagilar:

1) har bir til jamiyatni idrok etishning o‘ziga xos usuliga ega va unga yetkazilgan ma’no o‘ziga xos munosabat hamda til tizimini yaratadi;

2) dunyoni bilish jarayoni ham ko‘p funksiyali, ham individualdir;

3) insonning dunyoga bo‘lgan munosabati. [4,472]

V.N.Teliyaning fikricha, “konsept shaxsni ifodalovchi, uning ongini shakllantiradigan narsani anglatadi. Konsept – bu qayta yaratib bo‘lmaydigan, faqat lingvistik ifoda orqali o‘zgartirilishi mumkin bo‘lgan obyekt”. [5,288]

So‘nggi paytlarda olimlar “konsept” tushunchasini qayta ko‘rib chiqmoqdalar, bu esa ma’lum xususiyatlarni aniqlashga olib keladi. Konsept – bu inson tajribasining o‘ziga xos jihati bo‘lib, u so‘zlar orqali shakllantiriladi va tushuniladi.

Konseptlarni turlicha tasniflash mumkin. Tematik jihatdan ularni hissiy, ta’limiy kabi kategoriyalarga bo‘lish mumkin. Bundan tashqari, pedagogik, diniy, siyosiy va tibbiy konseptlarning tasniflari mavjud. Konseptning mohiyati til yordamida yetkaziladi. Ba’zi tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, alohida so‘zlar bilan ifodalangan konseptlar, shuningdek, qo‘shma gaplar yoki iboralarda ifodalangan konseptlar eng asosiy tushunchalar sifatida ko‘rib chiqilishi kerak. Boshqalar oddiy konseptlarni aniqlash uchun so‘z boyligini tahlil qilishda semantik yondashuvdan foydalanadilar. Konseptlar ongda paydo bo‘ladi va ularning o‘zgaruvchan tabiatini ta’kidlaydigan boshqa tushunchalar ta’sirida bo‘ladi. Dunyoda yangi obyekt va hodisalar paydo bo‘lishi bilan ular yangi konseptlarni keltirib chiqaradi. Masalan, kompyuter ixtirosi Internet, Windows, Facebook, Telegram kabi yangi konseptlarni ishlab chiqishga olib keldi.

Hozirgi vaqtda tilshunoslikda konseptlarni turkumlashning turli usullari mavjud. Bu kognitiv tilshunoslik duch keladigan dastlabki muammolardan biridir. Uning evolyutsiyasi konsept inson ongida turli xil bilimlarni birlashtiradigan atama ekanligini anglashga olib keldi. Konsept mazmun va ma’no jihatidan farq qiladigan fikrlash birligi bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqotchilar o‘zlari qamrab olgan bilimlarning tabiatiga asoslangan konseptlar tipologiyasini taklif qilishdi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Konseptlar fikrlash va bilishning asosiy birliklari bo‘lib, ular yordamida inson atrofdagi voqelikni tushunadi. Falsafa, kognitiv tilshunoslik va psixologiyada tajribani tasniflash hamda bilimlarni tuzish usullarining xilma-xilligini aks ettiruvchi tushunchalarning turli xil tarkibiy turlari ajralib turadi. Abstraksiya darajasi bo‘yicha tasniflash turlariga quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

Konkret (aniq) konseptlar. Konkret konseptlar sezgi yordamida idrok etilishi mumkin bo‘lgan jismoniy mavjud obyektlarni anglatadi. Ular yuqori darajadagi ko‘rinishga ega va ko‘pincha to‘g‘ridan-to‘g‘ri tajriba asosida shakllanadi. [6,563] Masalan, *stol, yog‘och, mushuk, tosh, uy* kabi.

Konkret konseptlar odatda aniq fazoviy xususiyat va chegaralarga ega. Ular erta yoshda osonroq o‘zlashtiriladi va yanada murakkab mavhum tushunchalarni shakllantirish uchun asos bo‘ladi. Neyrokognitiv tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aniq konseptlarni qayta ishlash miyaning tegishli obyektlarni idrok etish bilan bog‘liq sensor motorli zonalarini faollashtiradi. [7,458-470]

Mavhum konseptlar sezgi organlari tomonidan bevosita idrok etilmaydigan nomoddiy hodisa, fazilat, munosabat yoki g‘oyalarni anglatadi. Ular obyektlarning o‘ziga xos xususiyatlarini mavhumlashtirish va muhim xususiyat hamda munosabatlarni ta’kidlash orqali hosil bo‘ladi. [8,1177-1187] Masalan, *erkinlik, go‘zallik, adolat, vaqt, haqiqat, raqam* kabi.

Mavhum konseptlar turli darajadagi mavhumlikka – aniq obyektlarning xususiyatlarini belgilashdan (qattiqlik, qizil) tortib yuqori falsafiy kategoriyalarga (borliq, modda) ega bo‘lishi mumkin.

Ilmiy nazariyalar doirasida shakllanadigan *nazariy konseptlar* alohida kategoriyani tashkil qiladi. Ular hodisalarni tushuntirish va voqelikning ilmiy modellarini yaratish uchun yaratilgan mental konstruksiyalardir. [9,300] Masalan, *atom, tortishish kuchi, gen, kvant holati, iqtisodiy sikl* kabi.

Nazariy konseptlar ko‘pincha boshqa konsept va nazariy munosabatlar tizimidagi o‘rni orqali aniqlanadi. Ular to‘g‘ridan-to‘g‘ri empirik referentlarga ega bo‘lmasligi mumkin va umuman nazariyaning bashoratlarini tekshirish orqali bilvosita tekshiriladi. Ilm-fan tarixi ilmiy bilimlarning rivojlanishi bilan nazariy konseptlarning evolyutsiyasini namoyish etadi (masalan, Demokritning “atom”idan zamonaviy kvant fizikasi evolyutsiyasiga qadar). [10,222]

Mantiqiy tuzilish bo‘yicha tasniflash konseptlarni sodda va murakkab konseptlarga ajratish mumkin. Sodda konseptlarni kichikroq tarkibiy qismlarga bo‘lish mumkin emas va ular ko‘pincha mantiqiy hamda falsafiy doirada fundamental, noaniq g‘oyalar sifatida xizmat qiladi. Jumladan, *borliq, nuqta, his-tuyg‘u* kabi.

Aksincha, murakkab konseptlar sodda tushunchalarni birlashtirish orqali shakllanadi va ularni alohida elementlarga ajratish mumkin. Masalan, *to‘g‘ri burchakli uchburchak, ikkinchi darajali bo‘lak, demokratik boshqaruv, barqaror rivojlanish* kabi.

Tahlil va natijalar.

J.Fodor tadqiqotiga ko‘ra, ba’zi tushunchalar “atomar” deb hisoblanadi va ularni boshqa tushunchalar yordamida aniqlash mumkin emas, bu tushunchalar nazariyasining mental atomlar sifatida asosidir, deb ta’kidlaydi. [11,81-82]

Umumiy konseptlar o‘xshash xususiyatlarga ega bo‘lgan obyektlarning kategoriyalarini bildiradi. Masalan, *odam, shahar, o‘simlik, sutemizuvchi* kabi.

Yagona konseptlar alohida, noyob obyekt yoki hodisalarni anglatadi. Bunga *Moskva, Napoleon, Yer sayyorasi, Eyfel minorasi* kabi konseptlarni kiritish mumkin.

Bo‘sh konseptlar haqiqiy dunyo bilan bog‘liq bo‘lmay, mantiq, matematika va ijodiy fikrlash uchun muhim sanaladi. Masalan, *doimiy dvigatel, dumaloq kvadrat, yakkashox.*

Ushbu turdagi konseptlarni mantiqiy va falsafiy o‘rganish Aristotel va o‘rta asr mantiqlariga (universallar muammosi) borib taqaladigan boy tarixga ega va analitik falsafadagi bo‘sh konseptlarni o‘z ichiga olgan ifodalarning to‘g‘riligi va shartlari bilan bog‘liq zamonaviy munozaralarda davom etadi.

Konseptlarni funksional roli bo‘yicha quyidagicha tasniflash mumkin:

Kategorik konseptlar obyekt va hodisalar o‘rtasidagi eng keng tarqalgan atribut va munosabatlarni aks ettiruvchi dunyo haqidagi tushunchani tashkil etadigan eng muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, *modda, sifat, miqdor, sabab, makon, vaqt.*

Aristotel va Kant kabi buyuk faylasuflar inson idrokini shakllantiradigan asosiy kategorik tuzilmalarni aniqlashga intildilar. Zamonaviy kognitiv fan kategorik konseptlarni shakllantirishning filogenetik (evolyutsion) va ontogenetik jihatlarini, shuningdek, ularning neyrokognitiv asoslarini o‘rganadi. [12, 608]

Prototipik konseptlar kategoriyalarning tipik vakillariga (prototiplariga) asoslanadi va noaniq chegaralar bilan tavsiflanadi. Ushbu turdagi konseptlar kundalik fikrlashda tabiiy kategoriyalarga ajratish bilan chambarchas bog‘liq. Jumladan, *qush* (prototip – *chumchuq*), *meva* (prototip – *olma*), *mebel* (prototip – *stul*).

E.Roshning prototip nazariyasi konseptlarni zarur va yetarli xususiyatlar bilan aniqlashdagi klassik yondashuvga ziddir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, odamlar prototiplar kategoriyasiga juda o‘xshash obyektlarni aniqlaydilar va tasniflaydilar, bu prototip tuzilishining psixologik asosliligini ta’kidlaydi. [13,573]

Tafakkurning asosiy birliklari sifatida konseptlar nafaqat tarkibiy, balki mazmunli kategoriyalar bo‘lib, ular yordamida inson kashf etadi va tushunadi. Konseptlarning mazmunli turlari voqelikning turli jihatlarini, inson tajribasi sohalarini va voqelikni konseptualizatsiya qilish usullarini aks ettiradi. Bunday konseptlarni turli guruhlarga ajratish mumkin. Jumladan:

Substansional (ontologik) konseptlar mustaqil ravishda mavjud bo‘lgan obyekt, predmet va hodisa haqidagi g‘oyalarni aks ettiradi. Ular nisbatan barqaror, o‘ziga xos shaxslarni ifodalaydi, xususiyatlar va munosabatlarning tashuvchisi sifatida harakat qiladi. Masalan, *stol, odam, atom, daraxt, sayyora, organizm* kabi.

Substansional konseptlar dunyo manzarasining asosini tashkil etadi va obyektlarni turkumlash hamda identifikatsiyalashda muhim rol o‘ynaydi. Aristoteldan boshlangan falsafiy an’ana substansiya kategoriyasini mustaqil ravishda mavjud bo‘lgan va baxtsiz hodisalar (tasodifiy xususiyatlar) tashuvchisi bo‘lgan narsalarni anglatuvchi asosiy ontologik kategoriya sifatida ajratib ko‘rsatdi.

Zamonaviy analitik falsafa obyekt va narsalarning turli xil tushunchalarini, shu jumladan, “xususiyatlar to‘plamlari” nazariyasini (obyekt xususiyatlar to‘plami sifatida) va substrat nazariyasini (obyekt xususiyatlar tashuvchisi sifatida) taklif etadi. Ushbu yondashuvlar substansiya tushunchasining murakkabligini va narsalar hamda ularning xususiyatlari o‘rtasidagi aniq farqning muammoli ekanligini aks ettiradi.

Atribut konseptlar mustaqil ravishda mavjud bo‘lmagan, ammo moddalarning atributlari sifatida namoyon bo‘ladigan obyektlarning xususiyatlari va fazilatlarini anglatadi. Masalan, *qizil, qattiq, aqlli, yumaloq, achchiq, yengil.* Bunday konseptlar turli darajadagi mavhumlikka – seziladigan hissiy fazilatlardan (qizil, achchiq) murakkab mavhum xususiyatlarga (aqlli, adolatli) ega. Ular obyektlarni farqlash va kategoriyalarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Falsafada xususiyatlar holati muammosi nominalizm (mustaqil mavjud bo‘lmagan nomlar sifatida) va realizm (muayyan narsalardan mustaqil ravishda mavjud bo‘lgan universallar sifatida) o‘rtasidagi munozaralarda rivojlandi. Zamonaviy ong falsafasi va til falsafasida atribut tushunchalarining holati kvaliya (boshqalarni obyektiv his qilish) muammosi va fenomenal tajriba kontekstida muhokama qilinadi.

Relyativ (nisbiy) konseptlar obyektlar o‘rtasidagi munosabatlarni va ularning o‘zaro ta’sirini ifodalaydi. Ular mustaqil obyekt yoki xususiyatlarni emas, balki obyektlarning bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqligini anglatadi. Masalan, *qarindosh, sabab, o‘rtasida, o‘xshash, qism, egasi (xo‘jayin).*

Relyativ konseptlar fazoviy, vaqtinchalik, kazual (sababiy), mantiqiy, ijtimoiy va boshqa ko‘plab munosabat turlarini ifodalashi mumkin. Ular tuzilishning ajralmas qismi bo‘lib, ko‘pincha rasmiy matematik va mantiqiy reprezentativliklarga ega.

Zamonaviy tizimlar nazariyasi va strukturalizm bilimlarni tashkil etishda munosabatlarning asosiy ahamiyatini ta’kidlaydi. F.De Sossyurdan boshlangan tilshunoslik shuni ko‘rsatdiki, lingvistik birliklarning ahamiyati ularning substansional xususiyatlari bilan emas, balki til tizimidagi munosabatlari bilan belgilanadi. [14,264]

Protsessual (jarayonli) konseptlar o‘zgarish, harakat, hodisa va jarayonlarni anglatadi. Ular statik substansional va atributiv konseptlardan farqli o‘laroq, voqelikning dinamik jihatlarini aks ettiradi. Jumladan, *yugurish, o‘sish, evolyutsiya, oksidlanish, o‘rganish, raqs, portlash.*

Muhokama.

Konseptlar mavhumlik darajasi, konkretligi va mazmuni bilan farq qiladi. Muayyan konseptlar (masalan, *daftar, jurnal, stol, it* va boshqalar) ularni aniqlash va tasniflashni osonlashtiradigan empirik xususiyatlarga ega. Aksincha, mavhum konseptlarni (*hayot, o‘lim, taqdir* va boshqalar) tasvirlash va tasniflash ancha qiyin.

Tilda verbal va noverbal konseptlar mavjud. Verbal konseptlar til orqali shakllantiriladi va ko‘pincha muloqotda qo‘llaniladi. Noverbal konseptlar til tizimida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifoda etilmaydi, lekin bilvosita ma’lum kontekstlarda ifodalanishi mumkin.

Lingvistik nuqtayi nazardan, verbal konseptlar leksik, frazeologik, grammatik va sintaktik shakllarga bo‘linadi; ular oddiy yoki murakkab deb ham tasniflanishi mumkin. Bundan tashqari, nutq nuqtayi nazaridan konseptlar lingvistik kontekstiga qarab kundalik, ilmiy va badiiy kategoriyalarga bo‘linadi.

Tarjima qilish nuqtayi nazaridan konseptlarni faol yoki passiv ravishda uzatiladigan, mazmunli o‘zgaruvchan yoki o‘zgarmas, tarjima qilinadigan yoki tarjima qilinmaydigan deb tasniflash mumkin. Bundan tashqari, universal, axloqiy, sivilizatsiya, guruh va individual tushunchalar mavjud bo‘lib, ular o‘zlarining dolzarbligi va ma’lum ma’ruzachilar guruhlari bilan bog‘liqligi bilan ajralib turadi.

M.V.Pimenova konseptlarni turli guruhlarga ajratadi. Ularning kelib chiqishiga qarab asl yoki boshqa tillardan o‘zlashtirilgan deb tasniflash mumkin. Strukturaviy rivojlanish nuqtayi nazaridan ular rivojlanayotgan yoki muzlatilgan bo‘lishi mumkin; ular asosiy tuzilishining barqarorligiga qarab, doimiy yoki o‘zgaruvchan bo‘lishi mumkin; ahamiyat jihatidan yetakchi yoki ikkilamchi deb tasniflanadi. [15,3]

V.A.Maslova bir necha turdagi konseptlarni ajratib ko‘rsatadi, jumladan: 1) atrofdagi dunyo (*makon, vaqt, raqam*); 2) tabiat elementlari (*suv, daraxt, o‘rmon, sharshara*); 3) insoniy fazilatlar (*aqlli, dono*); 4) axloqiy tushunchalar (*haqiqat, vijdon, mag‘rurlik*); 5) ijtimoiy tushuncha va munosabatlar (*urush, tinchlik*); 6) hissiy tasavvurlar (*sevgi, nafrat*); 7) artefaktlar (*uy, eshik*); 8) ilmiy bilimlar (*adabiyot, matematika, biologiya*); 9) badiiy ifodalar (*musiqa, raqs*). [16,255]

A.P.Babushkin *mental rasm, sxema, giponimiya, freym, senariy va tushuncha* kabi turlarni muhokama qilib, konseptlarning o‘ziga xos tipologiyasini taklif qiladi. *Sxemalar* (diagrammalar) – obyekt yoki hodisaning mental fazoviy-konturli tasviri. Masalan, *“daryo”*ni ko‘k lenta tasviriga o‘xshatish. [17,104]

Giperonimlar keng, umumlashtirilgan tasvirlardir, giponimiya esa leksik birliklar umumlashtirish darajalari bo‘yicha tartiblangan iyerarxik munosabatlarni bildiradi. Giperonimik sxemalarning semantikasi (vizual tasvirni o‘z ichiga oladi, masalan, *“poyabzal”* oyoqqa o‘xshash shakl sifatida) va giperonimlar mantiqiy tuzilgan konseptlar (bu yerda asosiy ma’no faqat mantiqiy elementlarga e’tibor qaratib, his-tuyg‘ularsiz verbal ta’rifda ifodalanadi) arxisema sifatida qaralishi mumkin. Masalan, *mebel* arxisemasi giponim deb hisoblangan stol va stullar kabi turli xil uy mebellarining semantik xususiyatlarini o‘z ichiga oladi.

Freym xotirada saqlanadigan va murakkab vaziyatni ifodalovchi assotsiatsiyalar to‘plamidan iborat. Buni ma’lum bir kontekst uchun odatiy va muhim bo‘lgan hamma narsani o‘z ichiga olgan “freym” bilan taqqoslash mumkin.

Freym tushunchasi M.Minski tomonidan kiritilgan. Uning tuzilishi ikki darajadan iborat: yuqori qatlam tahlil qilinadigan vaziyatga doimiy ravishda tegishli bo‘lgan barqaror ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi, pastki qatlam esa ma’lum bir senariyga xos bo‘lgan o‘zgaruvchan ma’lumotlarni birlashtiradigan “slotlar” (freym elementi) dan iborat. Freymlar nazariyasiga ko‘ra, inson ma’lum bir vaziyatga duch kelganda, u o‘z harakatlarini boshqaradigan tayyor freymni xotiradan oladi (masalan, “savdo” freymi). Ushbu freym voqealar qanday rivojlanishi haqida kontekstli taxminlarni shakllantirishga yordam beradi va maqbul talqinlarni belgilaydi. Shunday qilib, freym mexanizmi tabiiy tilni tushunishda kognitiv cheklov vazifasini bajaradi.

Insayt – bu qurilmaning tushunchasi va obyektning funksional maqsadi (masalan, *soyabon*). A.P.Babushkinning fikricha, “mavhum konseptlar (kaleydoskopik konseptlar) hissiyot va tajribalar bilan bog‘liq mental tasvir, freym, sxema va senariylar shaklida taqdim etiladi. Ushbu konseptlar o‘zgarib turish xususiyatiga ega, chunki ularga qat’iy mental tasvir o‘rnatilmagan. Har safar bu tasvir “kaleydoskopik” o‘zgarishi mumkin”. [18,38]

Anglashiladiki, konsept – bu obyekt yoki hodisaning eng umumiy va muhim xususiyatlarini, shuningdek, uning obyektiv, mantiqiy shakllangan xususiyatlarini o‘z ichiga olgan tushuncha. Konseptlar faqat belgilangan obyektlarning verbal ta’riflarini yetkazadigan so‘zlarning ma’nolari bilan ifodalanadi.

Prototip – bu kategorik konsept bo‘lib, u ma’lum bir kategoriyaning tipik vakili. Ushbu konseptlar insonga atrofdagi dunyoning obyekt va hodisalari haqidagi bilimlarini tasniflash va ular to‘g‘risida hukm chiqarish imkonini beradigan asosiy nuqta bo‘lib xizmat qiladi.

Geshtalt – bu konseptual asos, hissiy va ratsional elementlarni bir butunga birlashtiradigan yaxlit tasvir. Bu vaziyatni yaxlit, farqlanmagan idrok etish natijasidir va abstraksiyaning eng yuqori darajasini anglatadi. Geshtaltni mavzuni eng umumiy va farqlanmagan tushunishni o‘zida

mujassam etgan o‘quv jarayonining asosiy bosqichi deb hisoblash mumkin. Aksincha, bu shaxs obyekt haqida har tomonlama bilimga ega bo‘lgan va barcha turdagi konseptlar bilan tanish bo‘lgan bilim cho‘qqisi sifatida ham ko‘rib chiqilishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, geshtalt yuqorida aytib o‘tilgan barcha turdagi tushunchalarni qamrab oluvchi konseptual tizim sifatida tushuniladi, konsept esa uning o‘ziga xos rivojlanishi bo‘lib xizmat qiladigan boshqa barcha narsalarga ishora qiluvchi umumiy atama sifatida qaraladi.

Xulosa.

Demak, konsept, freym va geshtalt mental konstruksiyalar bo‘lsa-da, ular xotirada turli nuqtayi nazardan saqlanadigan ma’lumot birliklari hisoblanadi. Freym ma’lumotlarning xotirada qanday tahlil qilinishiga, uning tarkibiy qismlarini aniqlashga va ularni tuzishga qaratilgan; u geshtaltning boshqa geshtaltlar bilan ochilganda va bog‘langanda dinamik tomonini ifodalaydi. Konsept individual yoki ijtimoiy xotirada saqlanadigan va alohida ahamiyatga ega bo‘lgan muhim ma’lumotlarni anglatadi. Psixologik nuqtayi nazardan, geshtalt mental reprezentatsiya uchun eng mos atama bo‘lib, inson xatti-harakatlaridagi takrorlanuvchi tipik vaziyatlarni o‘rganuvchi soha.

Bugungi kunda konseptning tarkibini aniqlashning ko‘plab usullari mavjud. Ko‘pgina tilshunoslar konseptning tuzilishini tushunish uning o‘zini tushunish uchun zarur deb hisoblashadi. Ushbu tuzilma uning madaniy hodisa maqomiga hissa qo‘shadigan barcha jihatlarni, shu jumladan, etimologiya, asosiy xususiyatlar, zamonaviy assotsiatsiyalar, baholar va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

Konsept so‘zning ma’nosi bo‘lib, u nafaqat obyekt bilan aloqani, balki barcha tegishli kommunikativ ma’lumotlarni ham qamrab oladi. Tilda konseptlar leksema va iboralar, shuningdek, erkin ibora va matnlar yordamida ifodalanadi. Bu shuni anglatadiki, konsept bir nechta leksik iboralarga ega bo‘lsa, u yanada mazmunli hisoblanadi, chunki har bir ibora konseptning turli jihatlarini ochib beradi. Faqatgina ushbu turli xil leksemalar yordamida biz aloqa jarayonida konseptni to‘liq shakllantirishimiz mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. Аскольдов (Алексеев) С.А. Концепт и слово // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста: Антология / Под общ. ред. В.П.Нерознака. – М.: Academia, 1928. – С. 267.
2. Лихачѐв Д. С. Концептосфера русского языка // Изв. РАН. Сер. лит. и яз. 1993. Т. 52. № 1. – С. 3.
3. Попова З.Д., Стернин И.А. Очерки по когнитивной лингвистике. – Воронеж: Изд-во ВГУ, 2002. – 192 с.
4. Апресян Ю.Д. Избранные труды, том I. Лексическая семантика: 2-е и зд., испр. и доп. – М.: Ш кола «Языки русской культуры», Изд-кая фирма «Восточная литература» РАН, 1995. – С. 472.
5. Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М..: Школа «Языки русской культуры», 1996. – С. 288.
6. Murphy G.L. The Big Book of Concepts. – MIT Press, 2002. – P.563.
7. Pulvermüller F. How neurons make meaning: Brain mechanisms for embodied and abstract-symbolic semantics. Trends in Cognitive Sciences, 2013. 17(9), – P. 458-470.
8. Barsalou L.W. Abstraction in perceptual symbol systems. Philosophical Transactions of the Royal Society of London. Series B: Biological Sciences, 2003. – 358 (1435), – P.177-1187.
9. Carnap R. Philosophical Foundations of Physics: An Introduction to the Philosophy of Science. Basic Books, 1976. – P. 300.
10. Kuhn T.S. The Structure of Scientific Revolutions (2nd ed.). – University of Chicago Press, 1970. – C. 222.
11. Fodor J.A. Concepts: Where Cognitive Science Went Wrong. Clarendon Press, 1998. Trends in Cognitive Sciences 3 (2): – P. 81-82.
12. Carey S. The Origin of Concepts. – Oxford University Press, 2009. – P. 608.
13. Rosch E., Mervis C.B. Family resemblances: Studies in the internal structure of categories. Cognitive Psychology, 1975. 7(4), 573.
14. Saussure F.de. Course in General Linguistics (W.Baskin, Trans.). – Philosophical Library, 1916/1959. – P. 264.
15. Пименова М.В. Типы концептов [Электронный ресурс]. URL: http://www.kuzspa.ru/diss/conf_27_28/5_pimenova.doc.
16. Маслова В.А. Когнитивная лингвистика / В.А.Маслова. – Минск: ТетраСистемс, 2004. **– С.** 255.
17. Бабушкин А.П. Типы концептов в лексико-фразеологической семантике языка. – Воронеж: Изд-во ВГУ, 1996. – С. 104.
18. Бабушкин А.П. Типы концептов в лексико-фразеологической семантике языка. – Воронеж: Изд-во ВГУ, 1996. – С. 38.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Qambarov Orzubek Faxriddinovich,
Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini qayta tayyorlash va
ularning malakasini oshirish instituti Farg‘ona filiali
“Jismoniy tarbiya, sport nazariyasi va uslubiyoti” kafedrasi mudiri, p.f.b.f.d.(PhD) v.b professor
doniyorbeknorkulov @gmail.com

UDK: 796:373.24.379

JISMONIY TARBIYA VA SPORTNI BOSHQARISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISH USLUBIYATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada jismoniy tarbiya va sport sohasini boshqarishda innovatsion texnologiyalari vositasitasida boshqaruv tizimini tadbig‘ qilish xususiyatlari o‘rganilgan shuningdek boshqarish tizimini takomillashtirishga qaratilgan xulosalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *Ta’lim jarayonining jismoniy va ta’lim tizimi, jismoniy-tarbiya tizimida axborot texnologiyalari, boshqaruv tizimi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari, boshqarish funksiyasi.*

Камбаров Орзубек Фахриддинович
Ферганский филиал Института переподготовки и повышения
квалификации специалистов физической культуры и спорта,
кафедра «Физическое воспитание, теория и методика спорта», р.ф.б.ф.д.(PhD) в.б профессор

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРОЙ И СПОРТОМ

Аннотация. *В данной статье изучены особенности внедрения системы управления средствами инновационных технологий в управлении сферой физической культуры и спорта, а также разработаны выводы, направленные на совершенствование системы управления.*

Ключевые слова: *Физическая и образовательная система учебного процесса, информационные технологии в системе физического воспитания, социально-экономические условия системы управления, функции управления.*

Qambarov Orzubek Fakhriddinovich,
Acting Professor, Department of "Physical Education,
Sports Theory and Methodology", Fergana Branch of the Institute for
Retraining and Advanced Training of Physical Education and Sports Specialists, p.f.b.f.d.(PhD) v.b professor

METHODOLOGY FOR DEVELOPING THE MANAGEMENT SYSTEM OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS

Annotation. *This article explores the features of managing the management of physical culture and sports through the use of information technology, and has developed conclusions aimed at improving the management system.*

Key words: *Physical and educational systems of the educational process, informational technologies in physical training system, management function of socio-economic conditions.*

Kirish.

Dunyoda sport jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda boshqaruv faoliyati «Jismoniy tarbiya va sport» tizimining har bir tarkibiy bo‘linmasida muhim strategik yo‘nalish hisoblanadi. Ushbu sohada samarali boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish, ilmiy yondashuv asosida sportchilar tayyorgarligini rivojlantirish va sport infratuzilmasini modernizatsiya qilish ustuvor vazifalardan biridir.Shu munosabat bilan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida boshqaruv tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida"gi PF-5368-son farmoni mazkur yo‘nalishda muhim me’yoriy-huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur farmon jismoniy tarbiya va sport tizimini institutsional jihatdan isloh qilish, sportni ommalashtirish, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash hamda zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish orqali milliy sport sohasining xalqaro maydondagi

raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan.Nafaqat butun tizimning faoliyat yuritishi, balki uning kelgusi rivojlanishi ham qabul qilinadigan boshqaruv qarorlari to‘g‘riligiga, ularning tezkorligiga, o‘z vaqtida qabul qilinishiga bog‘liq. Shu tufayli nazariy tadqiqot oldiga yangi axborot texnologiyalari qo‘llanilgan holda quyidagi yo‘nalishlarda boshqaruv faoliyati muammolarini o‘rganish masalalari qo‘yildi:

Zamonaviy jamiyat hayotining barcha sohalaridagi o‘zgarishlar sur’ati va xususiyati jahon hamjamiyati ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishining asosiy sifatlari va uni jadallashtirish yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Respublikamizning bugungi sharoitlariga nisbatan izohlaganda, ushbu o‘zgarishlar jismoniy tarbiya va sport sohasini boshqarishning ushbu ijtimoiy tizimni jamiyatning zamonaviy ehtiyojlariga yaqinlashtirish asosida yanada rivojlantirishga ko‘maklashadigan hamda birinchi o‘ringa olib chiqish manbai hisoblanadi.

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda puxta yo‘lga qo‘yilgan jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarini boshqaruv tizimi alohida ahamiyatga ega bo‘ladi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi kabi murakkab tizimlar va jarayonlar tadqiqoti boshqaruv tizimini shakllantirish va uning tarkibiy qismlarini ajratib ko‘rsatish bilan chambarchas bog‘liq.


Tadqiqot metadalogiyasi.

Zamonaviy tushunchalarga ko‘ra, boshqaruv tizimi umumiy ko‘rinishda bevosita va teskari bog‘lanish kanallari bo‘yicha o‘zaro hamkorlik qiladigan boshqarish ob’ektini o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, ma’lumki, boshqarish jarayonida boshqariladigan ob’ektga boshqaruvchi va o‘rin to‘ldiruvchi ta’sirlar ko‘rsatiladi, ushbu ta’sir natijasi esa «chiqish» ko‘rsatkichlari bo‘yicha baholanadi. Bunda boshqaruvchi ta’sirlar «chiqish» ko‘rsatkichlariga biriktiriladi.[1]

Shunday qilib,boshqaruv tizimi ikkita tizim – boshqarish ob’ekti va boshqaruvchi tizim jamlanmasi sifatida baholanishi mumkin shu bilan birga qayta aloqa – boshqaruv jarayonining samaradorligini oshirish uchun qo‘shildi. (1-rasm).

1-rasmda Boshqaruvchi tizim boshqarish ob’ektiga o‘zini qanday tutishi kerakligi to‘g‘risida axborot (boshqaruvchi qarorlar)ni boshqaruvchi signallar uzatish orqali ta’sir ko‘rsatishi ifodalangan. Qayd etamizki, boshqarish maqsadiga erishishni ta’minlaydigan qarorlarni ishlab chiqish uchun boshqaruvchi tizim tashqi muhit holati va boshqarish ob’ekti holati to‘g‘risida axborotga ega bo‘lishi kerak. Bunday axborotni uzatish kanali «teskari bog‘lanish» deb nomlanadi. Boshqarish umumiy mexanizmi shundan iborat.

Boshqarish deyilganda, boshqarish ob’ektiga aniq maqsadga qaratilgan ta’sir ko‘rsatish jarayoni tushunilib, u ta’sir natijasida muayyan funksiyalarni bajaradi.



1-rasm: Boshqaruv sxemasi

Maxsus adabiyotlarida boshqarish muayyan ob’ekt, sifatida qaralib tizim yoki jarayon holatining maqsadga erishishga olib boradigan har qanday o‘zgarishi sifatida talqin etiladi.

Boshqarish fani fanlar integratsiyasi davrining o‘ziga xos fani hisoblanadi. U oqilona tashkil qilishni nazarda tutadi, shu tufayli boshqarish fani rolli fikrlashni engillashtirish va optimal qarorlar qabul qilishdan iborat.[2]

Qayd etilishicha, sport sohasini ijtimoiy boshqarishning hozirgi holati tavsifi quyidagi masalalar oldindan izohlanishini talab etadi:

- ijtimoiy boshqarish va jumladan sport sohasini boshqarish mohiyatini tavsifi?;

- ijtimoiy boshqarish tuzilishi va funksiyalari tavsifi;

- sport sohasini ijtimoiy boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari.

Jismoniy tarbiya va sport inson faoliyatining barqaror sohasi sifatida ijtimoiy hayot sohasiga tegishlidir. Ijtimoiy boshqarish mohiyatini qayd etib, shunday yozadi: ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnik taraqqiyotning mislsiz ko‘lami iqtisodiy, ijtimoiy, aholi sog‘lig‘i yomonlashishi kabi muammolarni paydo qildi. Shu tufayli ijtimoiy boshqarish samaradorligini oshirish ahamiyati va unga bo‘lgan talab kuchayib bormoqda. [3]

Biz nazariy tadqiqot o‘tkazish orqali shuni tasdiqladiki, sport sohasini boshqarish mohiyati belgilangan maqsadga erishish jarayonida uning tuzilishi va faoliyatini tartibga solish bo‘yicha tashkiliy ta’sir ko‘rsatishdan iborat. Tuzilish deyilganda tizim qismlari tarkibi va ular o‘rtasidagi muayyan qonuniy tartib tushuniladi:

a) jismoniy tarbiya va sportni boshqarish: tashkil etish va ta’sis qilish sub’ekti;

b) boshqarish ob’ekti (boshqariladigan tizim);

v) vazifalar – farmonlar, qonunlar, qarorlar va h.k.;

g) boshqarish ob’ektiga boshqaruvchi ta’sir (dasturlar);

d) boshqarish ob’ekti faoliyati to‘g‘risida teskari axborot.

Sport sohasini boshqaruv tizimi faoliyati quyidagi tizimlar ta’sirini o‘z ichiga oladi:

a) umumiy funksiyalar: rejalashtirish, tashkillashtirish, tartibga solish, nazorat qilish va tuzatish, axborot bilan ishlash;

b) maxsus funksiyalar deyilganda, sport sohasini boshqarish asosiy shakllari: jamiyat-davlat, qo‘mita va muassasa; ijtimoiy; aralash (ijtimoiy-davlat),o‘z-o‘zini boshqarish organlari tushuniladi. Bunda Respublika,viloyatlararo,tumanlararo va mahalliy darajalar sport harakatini boshqarishning etakchi darajalari hisoblanadi.

Shunday qilib, biz sport sohasini boshqarish tahliliga tizim nuqtai nazaridan yondashashi uni murakkab tizim sifatida ifodaladik, bunda ijtimoiy boshqarish yaxlit va muntazamlilik xususiyatiga ega ekanligini aniqlandi.

Ko‘plab olimlar tizimli yondashuvni aksariyat holatlar, shu jumladan ijtimoiy voqea-hodisalarni tadqiq etishdagi eng muhim usullardan biri sifatida baholaydilar.

Har bir murakkab voqea-hodisa turli tomonlardan ko‘rib chiqilishi mumkin. Aynan ushbu muhim talab tizimli yondashuvning asosini tashkil etishi, bunda ob’ektning barcha ehtimoliy tarkibiy qismlari o‘zaro uyg‘un munosabatlari hisobga olingan holda, u tomonidan umuman bilim o‘zlashtirish amalga oshirilishi kerak.

Tizimli tadqiqotning boshlang‘ich punkti – tarkibiy qismlari alohida emas, balki dialektik birlikda o‘rganiladigan ob’ektni yaxlit, shu bilan birga har tomonlama tadqiq qilishga yo‘nalishdan iborat. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati hamda jismoniy tarbiya va sport boshqrish tizimli yondashuv, fikrimizcha, etarli darajada tatbiq etilmagan. Bevosita amaliyot bilan bog‘liq ishlardan qayd etish kerak, ushbu ishlarda tizimli yondashuv etarlicha keng taqdim etilgan.

Umuman, sport amaliyotida ushbu yondashuvni, hattoki «badiiy gimnastikachi qadamini tadqiq etishning tizimli-tuzilmali tamoyili»da ishlatishgacha ushbu yondashuvni qo‘llashga intilish kuzatiladi. Ayrim mualliflar tizimli yondashuvni mashq nazariyasida uslub, usul ishlarning samaradorligini yanada takomillashtirishning asosi deb hisoblashadi. Sportchilarning mashqida tiklash vositalaridan tizimli foydalanish bo‘yicha ishlar shuningdek, jismoniy tarbiya va sportni o‘rganishda tizimli yondashuv bo‘yicha nazariy manbalar paydo bo‘ldi.

Yaqin kelajakda jismoniy tarbiya va sport singari ko‘p funksiyali hodisalarni o‘rganishda tizimli yondashuv o‘z o‘rnini topadi deb taxmin qilish mumkin. Bu sohada tadqiqotlar ko‘lami juda keng bo‘lishi mumkin.Ilgari tadqiq etilgan hosilalar va ularning mazmuni: «jismoniy tarbiya tizimi», «jismoniy tarbiyada meyoriy baholar tizimi», «jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini tayyorlash tizimi», «jismoniy tarbiya va sportni boshqarish» kabilarning rivojlanish modellari yanada batafsil tizimli tahlildan o‘tkazilishi lozim.

Shunday qilib, jamiyatdagi hodisalarga nisbatan tizimli yondashuv dialektik usulning shakllaridan biridir.Uning bu mohiyati muayyan tizimni ajratib olish va tadqiq etishda ifodalanadi.

Rahbarning faoliyati «maqsad»,«vosita»,«natija» kabi mezonlarning muayyan o‘zaro munosabati bilan tavsiflanishini ko‘rsatadi. Bunday holat real voqelik bilan belgilanadi, chunki rahbar qo‘yilgan maqsadni amalga oshirish uchun, (o‘zining nuqtai nazaridan) zarur vositalar yordamida tizim (boshqaruv ob’ekti)ni faoliyat natijasining aniq shakliga o‘tkazadigan kuch sifatida boshqaruv ob’ektiga faol ta’sir etishga murojaat qiladi.

Ammo faoliyat natijalari har doim ham qo‘yilgan maqsadga olib kelavermaydi. Haqiqatda mavjud va bo‘lishi lozim voqelikning farqi ham mavjud boshqaruv tizimini, ham boshqaruv qarorlarini qayta ko‘rib chiqishga undaydi, oqibatda natijaning maqsadga va maqsadga etishga yo‘naltirilgan faoliyat jarayoniga nisbatini tadqiq etish zarurati yuzaga keladi.

Demak, boshqaruv g‘oyasini amalda ro‘yobga chiqarish uchun birinchi navbatda boshqarilayotgan ob’ektning tuzilmasi hamda uni bir holatdan ikkinchisiga o‘tishi qonuniyatlari to‘g‘risida aniq tasavvur zarur. Ushbu talab qay darajada qondirilganiga boshqaruv nazariyasining ilmiy aniqligi, to‘g‘riligi, tushunchalar apparatining mazmuniy qat’iyligi va nihoyat, amaliy jihatdan samaradorligi bog‘liqdir. Axborotni tizim va

tashqi muhit o‘rtasida uzluksiz harakati boshqaruv jarayonlarining eng muhim belgilaridan biridir.Tizimning tarkibiy komponentlari, qismlari o‘rtasida ham axborot almashuvi yuz beradi, shuning oqibatida ular o‘zaro ta’sirga kirishadilar va tizimning yaxlitligi saqlanadi.

Yillik statistik hisobot ko‘rinishidagi hujjat moddiy-raqam tashuvchi vosita, ko‘rib chiqilayotgan tizimda ham, tashkiliy tizimlarning barcha turlarida ham malumot tashuvchi vosita hisoblanadi. U tizimga solish ob’ekti holatini aks ettiradigan dastlabki xolatni hisobga olish asosida tuzilishi aniqlandi.

-me’yoriy hujjatlarni to‘plashni tashkillashtirish tizimi;

-hisobotlarni taxliliy o‘rganish uchun moddiy baza va taalluqli ishlov ta’minoti;

-turli darajadagi tashkilotlarning axborotga bo‘lgan ehtiyojlariga muvofiq jamlanma hisobotlar, nashrga oid ma’lumotlar tizimi;

-tashkilot, uning iste’molchilarini malumotlar bilan ta’minlash tizimi.

Shunday qilib, jismoniy tarbiya va sport sohasini rejali ob’ekt sifatida tizimli tahlil qilish, uning barcha tarkibiy qismlarida asosiy tizim tashkil etuvchi xususiyatlarni va eng muhimi ko‘rsatkichlarni ajratib ko‘rsatish, jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risidagi statistik-xisobot malumotlar mazmunini aniqlash uchun dastlabki omil bo‘lib, ularning sifat ko‘rsatkichlarini rejalashtirish, hisobga olinishi kerak.

Innovatsion tizimni loyihalash bosqichlari ma’lumotlar bazasi va bankini tashkil etishdan iborat ekanligi aniqlandi.


Ma’lumotlar bazasini loyihalashda dastlabki hisobot-mantiqiy modeli ishlab chiqildi:

- tadqiq qilish sifatida tanlangan predmetli sohani o‘rganish; ya’ni soha tizimi va xolatini boshqarish.

- real sport sohasi tizimi, xolati va ularning tashkiliy xolatini tahlil qilish;

- mintaqaviy mazmunini, ularning tarkibi va turdosh sport turlari bilan bog‘liqliklari ishlab chiqildi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi tizimining axborotga bo‘lgan ehtiyojini qondirish istemolchini ma’lumotlarni bilan taminlanishini tashkillashtirish. (2-rasm)



2-Rasm. Boshqaruv tizimi

Oldimizda turgan vazifalarni izchillik bilan hal etish jarayonida predmetli sohaning ma’lumotlar bazasida mavjud bo‘lishi hamda foydalanuvchining talablari va maqsadlari bajarilishini ta’minlaydigan ma’lumotlar tarkibi va mazmunini aniqlashga erishildi.Aniqlanishicha, ma’lumotlar bazasi o‘ziga xos, soha shart-sharoitlarini hisobga oladigan va modulli tuzilishga ega targ‘ibotlardan iborat avtomatlashtirilgan tizimni o‘z ichiga oladi.

O‘quvchiga yanada tushunarli bulish uchun ushbu tushunchalarga izox berib o‘tamiz; «model» so‘zi xar qanday voqiylikning shakliga ta’rif berish uchun ishlatiladi; «modul» so‘zi mazmuniga ta’rif berish uchun qo‘llaniladi. Ushbulardan kelib chiqib namoyish kilinayotgan rasmdan kuyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

Modellarning tagida keltirilgan modullar harakatdagi tizimning to‘liq mazmunini anglatishi zarur, bizning holatimizda modullar pastki katorda majmua shaklida keltirlgan bu esa, rejalashtirish va ba’zi-bir o‘zgartirish kiritish imkonini beradi.

Axborot, kommunikatsiya nazariyasi, jumladan, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi kommunikatsiya masalalari ko‘rib chiqilgan.Ushbu ishlardan kelib chiqadigan asosiy xulosalar quyidagilardan iborat:

- jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislarga axborot xizmatini ko‘rsatishni takomillashtirishning turli muammolari bo‘yicha ilmiy-tekshirish ishlarini doimo o‘tkazish talab qilinadi;

- ko‘rib chiqilayotgan faoliyat sohasida axborot oqimlarini o‘rganish o‘ta muhim muammo hisoblanadi. Ushbu faktlarni bilish va ulardan foydalanish jismoniy tarbiya va sport sohasida axborot xizmati ko‘rsatishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish imkonini beradi;

- jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha ilmiy-texnik axborotni to‘plash, saqlash, tartibga solish va qayta ishlash jarayonlarini avtomatlashtirish uchun mo‘ljallangan avtomatlashtirilgan maxsus axborot-qidiruv tizimini yaratish;

- jismoniy tarbiya xodimlarini axborotning ilmiy asoslari bilan kengroq tanishtirish zarur. Xulosa qilib, boshqaruvning mohiyati pirovard quyidagilardan iborat deyish mumkin :

♦ tizimning va uni o‘rab turgan muhitning holati to‘g‘risida axborotni to‘plash zarur;

♦ ushbu axborotni aloqa kanallari bo‘ylab qayta ishlash manziliga jo‘natish;

♦ boshqaruv buyruqlarini shakllantirish maqsadida axborotni qayta ishlanishini amalga oshirish;

♦ boshqaruv buyruqlarini amalga oshirish, ya’ni tarkibida buyruq bo‘lgan axborotni ijroiya organlariga uzatish;

♦ tegishli harakatlarni va nazoratni amalga oshirish.

Xulosa qilib aytganda, boshqaruvni tashkillashtirish, boshqarilayotgan tizimning holati to‘g‘risidagi axborotning ham miqdoriy, ham sifatiy tasiflarini, uning mazmuni va mohiyatini bilishni talab qiladi, bu esa ham biologik, ham ijtimoiy tusdagi o‘ta murakkab tizimlarni boshqarishda juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Amaldagi holatning berilgan holat bilan mos kelmasligi boshqaruv tizimiga berilgan yo‘nalish faoliyat yuritishi uchun tizimni qayta qurishga olib keladi.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida boshqaruv tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida"gi PF-5368-son farmoni.
2. Norkulov D.R, Jahbarov A.S, Nematov M.,O.F. Qambrov “Lider-Trener” dasturi 2024-yil.
3. Волков, В.Ю. Компьютерные технологии в физической культуре, теория и практика физической культуры” Москва 1998 г 106 с.
4. V.V.Mixalev. “Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi axborot texnologiylari” Toshkent 1998y 110 bet .
5. K.D.Yarashev.”Jismoniy tarbiya va sportni boshqarish” Toshkent 1998 y 66 bet.
6. R.S.Salomov ,F.A.Kerimov.”Jismoniy tarbiyada pedagogik texnologiyalar”
7. Toshkent.2003y 40 bet.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Raxmanova Zebiniso Po'latovna
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi
Bosh ilmiy-metodik markazi tadqiqotchisi

TA'LIM OLUVCHILARDA EKOLOGIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-HUQUQIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Bugungi kunda jamiyatning huquqiy, ma'naviy, ijtimoiy va axloqiy rivojlanish tendensiyalari globallashuv davrida ilmiy texnika inqilobining oqibatlarini aniqlash, "tabiat – jamiyat" munosabatlari yo'nalishlarini belgilab olish, ekologik madaniyat va ekologik muhit o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash, insoniyatda ekologik faollik va ma'suliyatning yangi sifat darajalarini vujudga keltirish zaruratini qo'ymoqda. Shu sababli, ta'lim oluvchilarning ekologik madaniyatini rivojlantirish hamda ularni atrof-muhitni asrab-avaylashga qaratilgan faoliyatini yo'lga qo'yish ta'lim tizimi oldidagi muhim vazifalar qatoriga kiradi.*

Ushbu maqola ta'lim oluvchilarning ekologik madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy-huquqiy asoslarini yoritishga qaratilgan bo'lib, mamlakatimizda tabiat va insoniyat munosabatlarini tartibga solish borasida amalga oshirilayotgan islohatlar hamda ularda beogilangan vazifalar ijrosini ta'minlashga qaratilgan ishlarni amalga oshirish bo'yicha taklif-tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: *ta'lim tizimi, ekologik madaniyat, ekologik ong, ekologik savodxonlik, huquqiy-nazariy asoslar, atrof-muhitni muhofaza qilish, insoniyat -tabiat munosabatlari, qonun hujjatlari, ekologik kompetentlik, pedagogik omillarning uzviyligi, ekomadaniyat va ekoqadriyatlar.*

Рахманова Зебинисо Пулатовна
Высшее образование Республики Узбекистан, при Министерстве науки и инноваций
Главный научный сотрудник Научно-методического центра

СОЦИАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ

Аннотация. *Сегодня тенденции правового, духовного, социального и нравственного развития общества в эпоху глобализации требуют от нас выявления последствий научно-технической революции, определения направлений взаимоотношений «природа-общество», обеспечения гармонии экологической культуры и экологической среды, создания новых качественных уровней экологической активности и ответственности человечества. Поэтому формирование экологической культуры учащихся, организация их деятельности, направленной на сохранение окружающей среды, являются одной из важных задач, стоящих перед системой образования.*

Целью данной статьи является освещение социально-правовых основ формирования экологической культуры учащихся, разработка предложений и рекомендаций по реализации реализуемых в нашей стране реформ по регулированию взаимоотношений природы и человечества, а также работы, направленной на обеспечение выполнения поставленных в них задач.

Ключевые слова: *система образования, экологическая культура, экологическое сознание, экологическая грамотность, правовые и теоретические основы, охрана окружающей среды, отношения человека и природы, законодательство, экологическая компетентность, согласованность педагогических факторов, экокультура и экоценности.*

Rakhmanova Zebiniso Pulatovna
Higher education of the Republic of Uzbekistan, under the Ministry of Science and innovation
Researcher of the main scientific and methodological Center

SOCIO-LEGAL BASIS OF DEVELOPING ECOLOGICAL COMPETENCE IN STUDENTS

Abstract. *Today, the trends in the legal, spiritual, social and moral development of society in the era of globalization require the identification of the consequences of the scientific and technological revolution, the determination of the directions of "nature - society" relations, the establishment of harmony between ecological culture and the ecological environment, the creation of new qualitative levels*

of ecological activity and responsibility in humanity. Therefore, the development of the ecological culture of students and the establishment of their activities aimed at preserving the environment are among the important tasks of the education system.

This article is aimed at highlighting the socio-legal foundations of the development of the ecological culture of students, and proposals and recommendations are developed for the implementation of reforms being implemented in our country to regulate the relationship between nature and humanity, as well as work aimed at ensuring the implementation of the tasks set forth in them.

Keywords: *education system, ecological culture, ecological awareness, ecological literacy, legal and theoretical foundations, environmental protection, human-nature relations, legislation, ecological competence, coherence of pedagogical factors, ecoculture and ecovalues.*

Kirish. (Introduction).

Jahon ilmiy doiralarida ta'lim oluvchilarning ekologik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish masalasi ilmiy muammo sifatida ta'lim tizimidagi atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik ta'lim masalalari zamirida vujudga kelgan. Mazkur masala ko'pgina xalqaro va davlatlararo bitimlar, qonun shaklidagi hujjatlar, UNESCO-UNEP komissiyalarining ko'plab hujjatlari, ayniqsa, UNESCOning "Inson va biosfera", UNEPning "Jahon madaniyati", "Yevropa ekologik ta'limi", "Ekologik madaniyat" kabi yetakchi xalqaro loyihalarda o'z ifodasini topgan. 1970 yil Nevada (AQSH) shahrida o'tkazilgan Forumda ekologik ta'lim mazmunini rivojlantirish tamoyillariga yangi yondashuvlar belgilanib, uni ilmiy-pedagogik soha sifatida shakllantirish jarayoniga va 1972 yili Stokgolm (Shvetsiya) konferensiyasida xalqaro ekologik dastur (UNEP) qabul qilinishiga asos solindi. Shuningdek, ekologik ta'lim vazifalariga konseptual yondashuvlar va ilmiy aniqlik kiritish masalalari UNESCO rahnamoligi Tbilisi, Krasnoyarsk, Moskvada o'tkazilgan konferensiyalarda "Atrof muhit muammolari yechimida ta'limning o'rni" mavzusi ekologik ta'limni rivojlantirish milliy dasturlarga asos bo'lgan tamoyillar, tavsiyalar ishlab chiqilishiga tavsiyalar tasdiqlangan.

Shuningdek, 1992 yilda Rio-de-Janeyroda tashkil etilgan BMTning "Atrof-muhit va rivojlanish" bo'yicha o'tkazilgan "Yer Sammiti"ning asosiy maqsadi ham XXI-asrda atrof-muhit va rivojlanish masalalari bo'yicha yangi xalqaro harakatlar rejasini ishlab chiqishga bag'ishlangan edi.

Dunyo miqyosida tabiiy fanlar ta'limining ekologizatsiyasi masalasi qizg'in muhokamalar mavzusiga aylanib borgani sari, tabiiy ravishda ta'lim oluvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish mavzusi ham dolzarblik kasb eta boshladi. Ayniqsa, pedagogik oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning ekologik savodxonligi hamda ekologik madaniyatini rivojlantirish ta'lim tizimidagi eng dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Talabalarda ekologik madaniyatni rivojlantirish muammolari boshqa muhim ijtimoiy omillar qatorida, huquqiy-ijtimoiy asoslar hamda jarayonning ijtimoiy ildizlariga bog'lab o'rganilishi, ushbu masalaning bugungi kundagi ahamiyati yuqori suratlarda rivojlanayotgan ijtimoiy-iqtisodiy hayotning taqozosidan kelib chiqadi. Chunki, ekologik madaniyatni rivojlantirish chora-tadbirlari qanchalik asosli, maqsadli va dolzarbligining yaxlit manzarasi, aynan, ijtimoiy, huquqiy, pedagogik omillarning uzviyligini aniqlash orqali to'liq yaratilishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

Respublikamizda tabiat va insoniyat munosabatlarini to'g'ri yo'lga qo'yish, tartibga solish, fuqarolarning ekologik ongi va ekologik madaniyatini rivojlantirish borasida bir qator islohatlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, ekologik masalalariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida" [1], "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida" [2], "Yer osti boyliklari to'g'risida" [3], "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida" [4], "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida" [5], "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida" [6], "O'rmon to'g'risida" [7], "Chiqindilar to'g'risida" [8], "Davlat kadastri to'g'risida" [9]dagi Qonunlari yurtimiz tabiatini betakror musaffoligini asrash, ekologik muhitni yaxshilash muammolariga qaratilgan bo'lib, ushbu normativ-huquqiy asoslarning har birida tegishli ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish doirasida jamiyat a'zolari uchun umummajburiy burch va vazifalar ham o'z ifodasini topgan. Mazkur islohatlar orqali mamlakat aholisining, jumladan, oliy ta'lim muassasalari talabalarining ekologik madaniyatini shakllantirish uchun muhim tarbiyaviy zamin yaratildi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Atrof-muhitni muhofaza qilishga doir chora-tadbirlar, aynan davlat organlari faoliyatining shaffoflik darajasini oshirish va fuqarolik jamiyatining rolini kuchaytirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar, mamlakatimizda aholining ekologik madaniyatini shakllantirish jarayonining sifati va saviyasini oshirishga xizmat qiladi. Ular orqali, ekologik muammolarni oldini olish yoki bartaraf etish masalasiga yechim yo'li ishlab chiqilmoqda va umumiy ekologik madaniyatni shakllantirishga zamin yaratmoqda. Insoniyat va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda asosiy bosh qomusimiz hisoblangan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi [10] alohida ahamiyat kasb etadi. Kostitutsiyaning 49-moddasi fuqarolarning atrof-muhit

bilan munosabatlarini tartibga solish masalalariga qaratilgan bo‘lib, unga ko‘ra: “Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqiga ega” ekanligi hamda “Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta’minlash va atrof-muhitga zararli ta’sir ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi”.

Shuningdek, 62-moddasida *“Fuqarolar atrof-tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar”* deb belgilangan. Bu o‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizda istiqomad qilayotgan har bir fuqaroning atrof-muhitga nisbatan munosabati qonun bilan belgilab qo‘yilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 oktabrdagi **“**2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni [11] ekologik muammolarni bartaraf etish orqali inson-tabiat-jamiyat komponentlarining o‘zaro mutanosibligini saqlashga alohida urg‘u beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-son Farmoni [12] qabul qilindi. Mazkur farmonning “VI. Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish” nomli bandida aynan mamlakatimizda ekologik muammolarning oldini olish, atrof-muhitning tozaligini saqlash hamda ishlab chiqarish kuchlarining ekologiyaga ta’siri monitoringini yo‘lga qo‘yish masalalarini o‘z ichiga olgan.

Jumladan, strategiyaning *79-maqsadi:*

Aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish.

Xalqaro maydonda atrof muhitga oid tashabbuslar, shu jumladan Butunjahon ekologiya xartiyasini ishlab chiqish tashabbusini ilgari surish.

Atrof muhitga ta’sir xavfi yuqori daraja (I toifa)dagi ob’ektlarning ifloslantiruvchi manbalaridan avtomatik ravishda namunalar olish tizimini tatbiq etish.

Atrof muhitning ifloslanish darajasini baholash mexanizmlarini takomillashtirish, atrof muhitni kuzatish, uning ifloslanish darajasini prognoz qilish, davlat ekologik nazoratini doimiy axborot bilan ta’minlash, ifloslantiruvchi manbalarning holati va atrof muhitga ta’siri ustidan monitoringni amalga oshirish.

Respublika hududida amalga oshirilayotgan xo‘jalik va boshqa turdagi faoliyatning ekologik talablarga muvofiqligini belgilash yuzasidan davlat ekologik ekspertizasini o‘tkazish.

80-maqsadida:

Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash, “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish.

“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida har yil kamida 200 million tup daraxt ekish.

“Yashil makon” umummilliy loyihasi tashabbuslariga mos tarzda respublikaning 10 ta hududida aerobiologik monitoring tizimini yo‘lga qo‘yish.

Maishiy chiqindilarni yig‘ishni 100 foizga, ularni qayta ishlash darajasini 2026 yilga qadar 21 foizdan 50 foizga yetkazish. Respublika bo‘yicha 51 ta yer usti tabiiy suv ob’ektlari (daryolar, kichik daryolar va tabiiy ko‘llar)ning sanitariya-muhofaza zonalari va sohil bo‘yi mintaqalarini belgilash ishlarini yakunlash.

Toshkent shahrini aholiga qulay, ekologik toza va yashash uchun barcha imkoniyatlar mavjud bo‘lgan hududga aylantirish, ko‘kalamzorlashtirish darajasini 30 foizga yetkazish va boshqalar.

81-maqsadida:

O‘rmonlar maydonini kengaytirish Respublika hududlarida o‘rmonlar maydonini kengaytirish va o‘rmon fondi yerlaridan samarali foydalanish.

O‘rmon fondining tog‘ va tog‘oldi hududlari plantatsiyalarini barpo qilish.

Cho‘l hududlarida o‘simliklarni ko‘paytirish, hududlarda himoya o‘rmonzorlari barpo etish.

Sug‘oriladigan yerlarni eroziyadan va melioratsiya ob’ektlarini qum ko‘chishidan saqlash uchun ihota daraxtzorlarini barpo etish.

Davlat o‘rmon fondi yerlarida o‘rmonlardan foydalanish, o‘rmon fondini kengaytirishni tartibga solish.

O‘rmonlarni qo‘riqlash va muhofaza qilish mexanizmini tubdan qayta ko‘rib chiqish vazifalari belgilab qo‘yilgan.

Yuqorida keltirilgan barcha normatiq-huquqiy hujjatlar mamlakatimizda ekologik vaziyatni yaxshilash, fuqarolarning ekologik madaniyatini oshirish hamda atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish chora-tadbirlarini amalga oshirish mexanizmlarini amalga oshirishga xizmat qiladi. Bu borada ta’lim muassasalarida, xususan, oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarning ekologik madaniyatini rivojlantirish muhim omil hisoblanib, ular ta’lim tizimida faoliyat olib borish davomida o‘quvchi-yoshlarning ekologik savodxonligini oshirishda katta rol o‘ynaydi.

Manbalar va metodlar (Materials and methods).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 30 yanvarda “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-16-sonli Farmoni [13] ham mamlakatimizda tabiiy resurslardan oqilona qoydalanish, ularni tejash, o‘simlik va hayvonot olamini asrash va boshqa shu kabi masalalarni qamrab oladi.

Mazkur farmonda quyidagilar “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida mamlakat rivojlanishining ustuvor yondashuvlari etib belgilangan:

- mahallalarning ekologik qiyofasini yaxshilash, ko‘chalarda yashillik darajasini oshirish, ekologik jihatdan qulay va farovon yashash muhitini shakllantirish;

- aholining salomatligini yaxshilash, ekologik turmush tarzini shakllantirish va inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun shart-sharoitlarni yaratish;

- tabiiy resurslarni tejash va ulardan oqilona foydalanish, ekologik barqarorlikni ta’minlash;

- o‘simlik va hayvonot dunyosini asrash, ko‘paytirish va keyingi avlodga yetkazish hamda biologik xilma-xillikni saqlash;

- “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini keng joriy qilish, iqtisodiyotni iqlim o‘zgarishiga moslashtirishga qaratilgan loyihalarni barqaror moliyalashtirish;

- respublika energobalansida qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirish, shu jumladan, davlat-xususiy sheriklik asosida yirik “yashil energiya” stansiyalarini barpo etish, hududlarda kichik va mikro gidroelektr stansiyalari tarmog‘ini kengaytirish, aholi xonadonlarida quyosh panellarini o‘rnatishni rag‘batlantirish;

- iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada zamonaviy energotejamkor texnologiyalarni keng qo‘llash orqali iqtisodiyotda “uglerod izi”ni kamaytirish;

- ekologik barqarorlikka yo‘naltirilgan hududlar va tarmoqlararo muvofiqlashtiruvni ta’minlash.

Ushbu farmonning e’tiborli jihati shundaki, mamlakatimizda aholining ekologik madaniyatini oshirish maqsadida ommaviy targ‘ibot tadbirlarini tashkil etishga alohida ahamiyat qaratilgan.

Mamlakatimizda mazkur vazifalar ijrosiga qaratilgan ishlar doirasida aytish joizki, ta’lim oluvchilarning ekologik madaniyatini rivojlantirishning quyidagi omillariga e’tibor qaratish joiz:

ilmiy omil – ilmiy manbalar, adabiyotlarda ta’lim jarayonlari va ekologik madaniyatni shakllantirish masalalari uyg‘unligini bo‘lajak o‘qituvchilarda tarkib toptirish muammosi yetarli darajada hal etilmagan;

ijtimoiy omil – ta’lim oluvchilarda ekologik madaniyatni rivojlantirishda jamiyat, ta’lim muassasalari, mahalla va oilalarning umumiy hamkorlikdagi faoliyatini yo‘lga qo‘yishning yagona tizimi yaratilmagan;

ilmiy-metodik omil – uzluksiz ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida ekologik madaniyat ta’lim-tarbiya jarayonlarining majburiy tarkibiy qismi sifatida tan olinib, maxsus kurslar dasturi va uning mazmuni yaratilmagan.

Shuni ham alohida ta’kidlash joizki, ta’lim oluvchilarning ekologik bilimlar hamda ekologik madaniyatni o‘zlashtirishga pedagogik, psixologik jihatdan tayyorlashda atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiat ne’matlaridan oqilona foydalanish, tabiiy muhitni asrab-avaylash masalalari alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, ta’lim oluvchilarning ekologik madaniyatini rivojlantirish quyidagi vazifalarni hal etish asosida amalga oshiriladi:

-Ta’lim oluvchilarga “tabiat” - insoniyat yashaydigan “beshik”, tiriklik manbai, asosiy faoliyat maydoni ekanligini anglatish;

- Ekologik ta’lim-tarbiyani tashkil etish hamda ekologik madaniyatni rivojlantirishga doir ilmiy-ommabop adabiyotlar, radioeshittirishlar, teleko‘rsatuvlar, umuman olganda mediaresurslardan samarali foydalanish;

- Bo‘lajak o‘qituvchilarni atrof-muhitni muhofaza qilish faoliyatiga yo‘naltirish, atrof-muhit bilan ongli munosabatda bo‘lish, ekologik muammolarni oldini olishda faol sub’ekt sifatida ishtirokini ta’minlash;

- “Tabiat-insoniyat-taraqqiyot” majmuasi sababli paydo bo‘lgan ekologik muammolarni anglash, oldini olish va ularning yechimini topishga yo‘naltirish;

- Bo‘lajak o‘qituvchilarning respublikamizdagi tabiatni muhofaza qilishga oid huquqiy-me’yoriy hujjatlar, qoidalar va vazifalarni bilish hamda ularga amal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish;

- Atrof-muhitga nisbatan gumanistik yondashuv, ekologik ong, ekologik qadriyatlar, ekologik madaniyat hamda ekologik me’yorlarni singdirish;

- Tarixiy va milliy ekomadaniyat va ekoqadriyatlarni bilish va ulardan flydalanishga yo‘naltirish;

- Sharq mutafakkirlarining ilmiy me’rosida tabiatga, atrof-muhitga munosabatni yo‘lga qo‘yish bilan bog‘liq o‘gitlarni singdirish va boshqalar.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Ekologik madaniyatni shakllantirish bo‘yicha chora-tadbirlarning normativ-huquqiy asoslarini o‘rganish va tahlil etish, ekologik madaniyatni shakllantirish jarayoni qonun va qonunosti hujjatlarning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdek ta’sir kuchi orqali yo‘lga qo‘yilishi ilmiy nuqtai nazardan o‘ziga xos ahamiyatga ega. Qayd etish joizki, yurtimizda ekologik madaniyatni shakllantirish borasida normativ-huquqiy asoslar bazasini yaratishda huquqiy izchillik, tadrijiy ijtimoiy va pedagogik yondashuvga alohida e’tibor qaratilgan.

Yuqoridagi normativ-huquqiy hujjatlar tahliliga ko‘ra, ta’lim oluvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish uchun zarur bo‘lgan, yurtimizda tabiat va uning komponentlarini muhofaza qilishga doir qabul qilingan Qonunlar butun jamiyat a’zolarining ekologik madaniyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan, hamda bu sohadagi muhim ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda katta ahamiyatga egadir. Ushbu qonunlar mazmuni ta’lim tizimining barcha turlaridagi didaktik materiallariga singdirilsa, jamiyatda ekologik madaniyatni shakllantirish jarayoni yanada samarali bo‘lishi ehtimoli yuqori bo‘ladi. Chunki, shu normativ-huquqiy asoslar tufayli mamlakatimizda ko‘p o‘rmon xo‘jaligi, qo‘riqxona, milliy bog‘, buyurtmaxonalar mavjudligi kafolatlanadi. Ularda tabiat yodgorliklari, kamayib ketgan o‘simlik va hayvonlar

qo‘riqlanadi, ko‘paytiriladi va ilmiy tadqiqotlar doirasida o‘rganiladi, tegishli chora-tadbirlar qo‘llaniladi.

Ekologik ta’lim ham ta’lim muassasalarida tashkil etilayotgan ta’lim-tarbiya jarayonlarining tarkibiy qismi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda ta’lim oluvchilarning ekologik ongi, ekologik savodxonligi hamda ekologik tarbiyasini rivojlantirish ishlarini takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Makamasining 2019 yil 27 maydagi “O‘zbekiston Respublikasida Ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi” 434-son Qarori [14] qabul qilindi. Mazkur Qaror bilan taqdim etilgan “O‘zbekiston Respublikasida ekologik ta’limni rivojlantirish Konsepsiyasi” ekologik ta’limning dolzarbligini mamlakatimiz tabiati, ekotizimlari, atrof-muhitni beqarorlik va izdan chiqishidan asrash, aholining ekologik madaniyatini oshirish, ushbu o‘ta jiddiy, hayotiy masalalarga aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlar hissa qo‘shishi zarurligi bilan belgilaydi .

Quyidagilar Konsepsiyani va bu boradagi tadbirlar rejasini amalga oshirish doirasida ustuvor yo‘nalishlar etib belgilangan:

1. "Ta’lim to‘g‘risida"gi va "Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunlariga muvofiq uzluksiz ta’lim tizimida ekologik ta’limni rivojlantirishning asosiy tamoyillarini belgilash, ularni ta’lim-tarbiya jarayoniga izchillik bilan bosqichma-bosqich tatbiq qilish va shu asosda ekologik ta’limning samaradorligini yangi bosqichga ko‘tarish;

2. Ta’lim dasturlarini mavjud ekologik muammolar va ularni bartaraf etish vazifalaridan kelib chiqib takomillashtirish;

3. Ta’lim oluvchilarning e’tiborini umumbashariy ekologik muammolarga qaratish orqali ularning ona tabiatning qayta tiklanmaydigan manbalarini saqlab qolish va ulardan oqilona foydalanish borasidagi mas’uliyatini kuchaytirish;

4. Ekologik ta’limning samarali shakllari va usullarini ishlab chiqish hamda joriy etish;

5. Ekologik ta’lim sifatini, kadrlar tayyorlash tizimi samaradorligini hamda barqaror rivojlanish kafolatlarini va ustuvorligini ta’minlovchi normativ-huquqiy, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish;

6. Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish sohasidagi vakolatli davlat organlari va ta’lim sohasining o‘zaro manfaatli hamkorligini rivojlantirish.

Xulosa va takliflar
(Conclusion/Recommendations).

Xulosa sifatida aytish mumkinki, fan va texnologiyalar taraqqiyoti doirasida o‘zgarayotgan turmush tarzidagi qulayliklar quvonchlari qatorida, ko‘plab ekotizimlar zaxirasi tugab borayotganligi, iqlim o‘zgarishi, cho‘llanish kabi ekologik muammolarning kengayishi inson uchun muammolar orttirib, kelajakda kutilayotgan taraqqiyotga jiddiy rahna solmoqda. Natijada, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiatdan oqilona foydalanish, ekologik muammolarning ekologik yechimlarini topish masalalari yanada dolzarb vazifaga aylanib, xalqaro miqyosda davlat siyosati darajasida e’tibor qozonmoqda. Shuning uchun, Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning yangi bosqichida ekologik muammolarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, so‘ngi yillarda sohaga oid ko‘p qonun va normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinganligi fikrimizning dalilidir.

Shuningdek, fuqarolarda ekologik madaniyatni shakllantirishning xalqaro doirasidagi ahamiyatini O‘zbekiston ekologiyani muhofaza qilish sohasida xalqaro tashkilotlar bilan ham hamkorlik ishlarini rivojlantirishida ham ko‘rish mumkin. Bunday hamkorlik doirasida va tegishli dasturlarida, jumladan, BMTning atrof-muhit bo‘yicha dasturlarida ishtirok etadi. Natijada, dastur doirasida va ayrim rivojlangan mamlakatlar bilan biologik xilma-xillikni saqlashning milliy strategiyasi va ko‘p milliy ekologik qonunlar ishlab chiqilgani yurtimizda ekologik muammolar davlat siyosati darajasida qaror topganidan va ekologik madaniyatni shakllantirish masalalari nechog‘lik ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Adabiyotlar.

1. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 09.12.1992 йилдаги 754-XII-сон “Табиатни муҳофаза қилиш тўғрисида” Қонуни, (https://lex.uz/docs/ мурожаат санаси - 27.03.2022).

2. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 06.05.1993 йилдаги 837-XII-сон 837-XII-сон 06.05.1993. “Сув ва сувдан фойдаланиш тўғрисида” (lex.uz)

3. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 13.12.2002 йилдаги 444-II-сон 444-II-сон 13.12.2002. «Ер ости бойликлари тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартишлар ва қўшимчалар киритиш ҳақида (lex.uz)

4. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 27.12.1996 йилдаги 353-I-сон. 27.12.1996. “Атмосфера ҳавосини муҳофаза қилиш тўғрисида” https://lex.uz/docs/107115 (мурожаат санаси 11.01.2023 й.)

5. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 21.09.2016 йилдаги ЎРҚ-409-сон ЎРҚ-409-сон 21.09.2016. “Ўсимлик дунёсини муҳофаза қилиш ва ундан фойдаланиш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш ҳақида (lex.uz).

6. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 19.09.2016 йилдаги ЎРҚ-408-сон ЎРҚ-408-сон 19.09.2016. “Ҳайвонот дунёсини муҳофаза қилиш ва ундан фойдаланиш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш ҳақида (lex.uz)

7. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 16.04.2018 йилдаги ЎРҚ-475-сонЎРҚ-475-сон 16.04.2018. “Ўрмон тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш ҳақида (lex.uz)

8. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 05.04.2002 йилдаги 362-II-сон. 362-II-сон 05.04.2002. “Чиқиндилар тўғрисида” (lex.uz)

9. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 15.12.2000 йилдаги 171-II-сон 171-II-сон 15.12.2000. “Давлат кадастрлари тўғрисида” (lex.uz)

10. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - O‘zbekistan Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 1.05.2023 yil.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 oktabrdagi “2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, PF-5863-son Farmoni.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-son Farmoni.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 30 yanvarda “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-16-sonli Farmoni.

14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 maydagi “Ekologik ta’limni rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 434-son Qarori. / https://lex.uz/docs/4354743 (murojaat sanasi - 26.03.2022).

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Rahmonova Mohinur Rasuljon qizi
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Farg‘ona filiali o‘qituvchisi.
mohinurkozieva89@gmail.com

O‘QUV-MASHG‘ULOT BOSQICHIDAGI BADIIY GIMNASTIKACHILARNI JISMONIY TAYYORGARIK KO‘RSATKICHLARI TAHLILI

Annotasiya. *Ushbu maqolada o‘quv-mashg‘ulot bosqichidagi badiiy gimnastikachilarni jismoniy tayyorgarik ko‘rsatkichlari tahlili hamda ommaviy sport darajasida badiiy gimnastikaning rivojlanishi va mavjudligi jarayonini optimallashtiradigan tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Badiiy gimnastika bo‘yicha kasbiy bo‘lmagan mashg‘ulotlar, ommaviy badiiy gimnastikaning faoliyat ko‘rsatish bo‘limida gimnastika nazariyasi va metodologiyasi bilim tizimi.*

Рахмонова Мохинур Расулжоновна
Преподаватель Ферганского филиала Узбекского государственного университета физической культуры и спорта

АНАЛИЗ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ ГИМНАСТОК НА ЭТАПЕ ПОДГОТОВКИ

Аннотация*. В данной статье представлен анализ показателей физической подготовленности художественных гимнастов на тренировочном этапе и даны рекомендации, оптимизирующие процесс развития и существования художественной гимнастики на уровне массового спорта.*

Ключевые слова: *непрофессиональная подготовка по художественной гимнастике, система знаний теории и методики гимнастики в разделе функционирование массовой художественной гимнастики.*

Rakhmonova Mokhinur Rasuljonovna
Lecturer at the Ferghana branch of the Uzbek State University of Physical Culture and Sports

ANALYSIS OF PHYSICAL FITNESS INDICATORS OF RHYTHMIC GYMNASTS AT THE TRAINING AND TRAINING STAGE

Annotation. *This article provides an analysis of the physical fitness indicators of rhythmic gymnasts at the training and training stage, as well as recommendations that optimize the process of development and availability of rhythmic gymnastics at the level of mass sports.*

Keywords: *non-professional training in rhythmic gymnastics, knowledge system of the theory and methodology of gymnastics in the Department of activity of mass artistic gymnastics.*

Dolzarbligi.

Hozirgi vaqtda olimpiya badiiy gimnastikasi qobiliyat va qobiliyatlarga juda yuqori talablarga ega. Shug‘ullangan va cheklangan qizlar doirasi uchun mavjud. Shu munosabat bilan har yili badiiy gimnastika bo‘limlari ko‘payib bormoqda barcha qizlar tibbiy kontrendikatsiyalarsiz mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan ommaviy sport, bu yerda bolalar bilan ishlash bolaning jismoniy rivojlanishi va sog‘lom imidjini shakllantirishga qaratilgan.

Hozirgi vaqtda sport standartlari mavjud. Badiiy gimnastika bo‘yicha kasbiy bo‘lmagan mashg‘ulotlar uchun o‘quv va ta’lim standarti, bu shart va talablarni belgilaydi. Ushbu standartlar sportni rivojlantirishga qaratilgan sport mashg‘ulotlarini amalga oshiradigan tashkilotlarda sport mashg‘ulotlari. sportchilarni yuqori sport natijalariga erishish uchun tayyorlash masalasini tartibga solishdan iborat.

Tadqiqot maqsadi.

O‘quv-mashg‘ulot bosqichidagi badiiy gimnastikachilarni jismoniy tayyorgarik ko‘rsatkichlari tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari.

Badiiy gimnastikachilarni antropometrik ko‘rsatkichlarini aniqlash. 2. Olingan natijalar yuzasidan jismoniy rivojlanishi uchun maxsus mashqlarni mashg‘ulotlarida qo‘llash. 3 Tadqiqot so‘ngida olingan natijalrni qayta tahlil qilish.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi.

Ommaviy badiiy gimnastika ushbu standartlar bilan tartibga solinmagan va bu sohada ishlashga imkon beradigan dasturlar mavjud emas. Ommaviy sport darajasida badiiy gimnastikaning rivojlanishi va mavjudligi jarayonini optimallashtiradigan tavsiyalar talab qilinadi.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati. O‘quv jarayonining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tadqiqot natijasida nazariy g‘oyalar va qoidalar ishlab chiqilgan ommaviy sport yo‘nalishidagi badiiy gimnastika istiqbolli ommaviy sport turi sifatida. Ma’lumotlar ommaviy badiiy gimnastikaning faoliyat ko‘rsatish bo‘limida gimnastika nazariyasi va metodologiyasi bilim tizimini to‘ldiradi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Tadqiqotlar natijasida badiiy gimnastikasi uchun samarali metodika ommaviy sport bugungi kun sur’atini hisobga olgan holda va ijtimoiy hayotning ritmi hisoblanadi.

Tashkil etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ommaviy sport tizimida gimnastikachilar bilan o‘quv-mashq jarayonida ommaviy sport yo‘nalishidagi badiiy gimnastika ishlab chiqilgan tavsiyalardan amaliyotda foydalanish mumkin.

Ma’lumotlar va amaliy tadqiqot usullari majmuasidan foydalanish, empirik asosning kengligi, qurish mantig‘i va ta’minlanadi. O‘rganishning davomiyligi, natijalarni to‘g‘ri talqin qilish ma’lumotlar, tadqiqot natijalarini ilmiy-uslubiy konferentsiyalarda va o‘quv va o‘quv-mashg‘ulot jarayonining tabiiy sharoitida sinovdan o‘tkazish tegishli ijro hujjatlari bilan tasdiqlangan.


Zamonaviy qo‘shimcha tizim ta’lim bolalarga ta’lim dasturlarining keng tanlovini taklif qilishga tayyor turli sport turlari va ijodiy faoliyat olib boriladi. Biri ommaviy va ajoyib, har biri bilan tobora ko‘proq mashhurlikka erishmoqda Mamlakatimizda badiiy gimnastika sport turi har tomondan yuksak yutuqlar sporti, ikkinchi tomondan esa targ‘ib qiluvchi sport turi ko‘plab qizlarning salomatligi va barkamol rivojlanishi bilan ifodalanadi. Biz ham tadqiqotga jalb qilingan badiiy gimnastikachilarni jismoniy rivojlanishiga e’tibor qaratdik hamda tadqiqot oldi ularning antropometrik ko‘rsatkichlarini tahlil qildik.

1-jadval

Tadqiqot boshida tajriba va nazorat guruhi sinaluvchilarining antropometrik ko‘rsatkichlari, n=48

Tr	Ko‘rsatkich	Tajriba guruhi		Nazorat guruhi	
		$\overline{X}$ - σ	V,%	$\overline{X}$ - σ	V,%
1	Tana uzunligi (sm)	145,5 ± 4,8	3,30	146,5 ± 4,7	3,21
2	Tana vazni (kg)	40,5 ± 3,5	8,64	41,5 ± 3,4	8,19
3	Oyoq uzunligi (sm)	79,5 ± 3,3	4,15	80,5 ± 3,2	3,97
4	Qo‘l uzunligi (sm)	61,0 ± 2,8	4,59	62,0 ± 2,7	4,35
5	Ko‘krak qafasi kengligi (sm)	29,5 ± 1,4	4,75	30,5 ± 1,3	4,26

Jadvalda tajriba va nazorat guruhlarining asosiy antropometrik ko‘rsatkichlari tahlil qilingan. Tana uzunligi bo‘yicha tajriba guruhida o‘rtacha 145,5 sm, nazorat guruhida 146,5 sm kuzatildi. Tana vazni tajriba guruhida 40,5 kg, nazorat guruhida 41,5 kg aniqlandi. Oyoq uzunligi tajriba guruhida 79,5 sm va nazorat guruhida 80,5 kg kuzatildi. Qo‘l uzunligi o‘rtacha tajriba guruhida 61,0 sm hamda nazorat guruhida 62,0 sm kuzatildi. Ko‘krak qafasi kengligi tajriba guruhida o‘rtacha 29,5 sm va nazorat guruhida 30,5 sm ekanligi tadqiqot oldi ko‘rsatkichlar aniqlandi. Shu bilan birga natijalarni diagrammada ham ko‘rib chiqdik.



3.1-rasm. Tadqiqot boshida tajriba va nazorat guruhi sinaluvchilarining antropometrik ko‘rsatkichlari dinamikasi, n=48

Ushbu diagrammadan ham ko‘rininb turibdiki tadqiqot oldi natijalar bir biriga yaqinligini ko‘rishimiz mumkin. Tajriba guruhi va nazorat guruhi o‘rtasidagi

ko‘rsatkichlar yaqin bo‘lib, kichik farqlar kuzatiladi. Bu shuni ko‘rsatadiki, dastlabki sharoitlar har ikki guruh uchun o‘xshash va tajriba uchun mos asos yaratadi.

Ma’lum bir mushaklar guruhi uchun mashqlar (barcha mashqlar 2 yondashuvda bajariladi)

1. Oyoqni yotgan holda ko‘tarish (15 marta).

2. Qorin tomon bilan yotgan holda oyoqni ko‘tarish (30 ta takrorlash)

3. "perchinlar" chalqancha yotib, ko‘kragingiz tizzangizga tegib (15 marta takrorlash)

4. "perchinlar" oshqozon ustida yotgan, barmoq uchlari oyoq uchlariga tegib (15 ta takrorlash)

5. Yerga o‘tirgan buklangan holatdan arqon orqali oshqozoningizga qayiq holatiga va orqaga o‘ting (15 marta takrorlash)

6. Oyoq/tana ko‘tariladi

Oshqozonda yotib, qo‘llar yon tomonga, o‘ng oyoq tana bo‘ylab, chap oyoq yon tomonga, keyin boshqa oyoqqa.

A) o‘ng oyoqni ko‘tarish / ushlab turish (4-6 yondashuv, 8 marta ushlab turish)

B) tanani ufqqa va orqaga ko‘tarish, qo‘llar boshning orqasiga egilgan (2-3 yondashuv, 8 marta ushlab turish)

B) tanani ishlaydigan oyog‘i bilan bir vaqtda ko‘tarish, yon tomondagi oyoq ishlamaydi (2-3 yondashuv, 8 marta ushlab turish)

D) yon tomonga joylashgan oyoqni ko‘tarish (2-4 yondashuv)

7. Ajratilgan burilishlar

Burchakli o‘tirish (90 °) - o‘zaro bog‘liqlik – o‘ng uzunlamasına ip – o‘zaro bog‘liqlik - burchakli o‘tirish

Shuningdek, chap oyoqda va bir vaqtning o‘zida 2 oyoqni egish

8. Barmoqlaringiz barmoqlaringizga tegguncha oshqozoningizda yotgan holda tanani buking

oyoqlar qo‘llar oldingizda ushlangan, tirsaklar tekis, oyoqlar birga, oyoqlar tarang, tizzalar tekis (15 marta)

9. Oyoq chalqancha yotadi, oyoqlar vertikal, oddiy/kaftlar polga tegib trikotajlanadi (15 ta takror)

Stretching mashqlari

1. "Ajdaho". Qorinda yotib, oyoqlar tizzada egilib (burchak 90 °), to‘piqdan ushlang, qo‘llaringizni oshqozoningiz erga tegguncha tekislang (8 marta 2-4 marta takrorlang).

2. Yerga o‘tirgan holda buklang, qo‘llaringizni oyoqlardan ko‘ndalang ushlang, qo‘llaringizni va oyoqlaringizni to‘g‘rilang (8 marta 2-4 marta takrorlang).

3. Orqangizda / qorinda yotgan belanchaklar

A) oldinga - 16 marta

B) ketma-ket - 16 ta takrorlash

B) vertikal/gorizontal tanasi bilan bo‘linishga - 8 ta takrorlash

D) ikkala oyoq bilan bir vaqtda ringga chiqish - 16 ta takrorlash

4. Zaminda uzunlamasına bo‘linishlarda cho‘zish

A) Orqa oyoq tizzada bukiladi, oyoq bir xil qo‘l bilan ushlanadi

Metodik tavsiyalar: tos suyaklari bir xil darajada bo‘lishi kerak. Orqa oyoqning oldingi soni polga tegishi kerak. Old oyoq burilgan, polning tovoni yerga tegmaydi.

5. trenajorda cho‘zish (45 sm) 4 min:

1 min – qo‘llar kesishgan; 1 daqiqa - qo‘llar yuqoriga; 1 – qo‘llar kesishgan; 1 min. – orqaga egilishda (ko‘ndalang bo‘linishda) qo‘llaringizni kesishgan holda (uzunlamasına bo‘linish).

A) Uzunlamasına o‘ng/chap ip

B) Ko‘ndalang ip

Uslubiy ko‘rsatmalar: dominant bo‘lmagan oyoqning uzunlamasına bo‘linishida cho‘zish 7 minut: 2 daqiqa - qo‘llar kesishgan; 1 min. - qo‘llar yuqoriga; 2 min. - qo‘llar kesishgan; 1 min. - orqaga suyanib. Orqaga egilish: oyog‘ingizni ikkala qo‘lingiz bilan ushlang, tizzalar tekis, oyoqlari tarang. Etakchi mashq:

- Faqat tanani egishdan boshlang (30 soniya egilish - tekis orqa bilan 10 soniya - 30 soniya egilish; 60 soniya egilish)

- Bir (qarama-qarshi) qo‘l bilan ushlash (30 sek. egilish - 10 sek. tekis orqa bilan - 30 sek. egilish; 60 sek. egilish)

- Ikki qo‘l bilan ushlash (30 sek. egilish - 10 sek. tekis orqa bilan - 30 sek. egilish; 60 sek. egilish)

6. Kauchuk bilan tayanchda turgan belanchaklar (30 ta takrorlash)

A) Oldinga;

B) yon tomonga;

B) To‘g‘ri oyoq bilan orqaga to‘g‘ri tanasi bilan / tanasini orqaga egib

D) To‘g‘ri gavda bilan tizza bo‘g‘imida oyoqni orqaga bukilgan holda/tanani orqaga egib

D) Gorizontal tekislikda tanasi bilan tekis oyoqli bo‘linishga

Uslubiy ko‘rsatmalar: Dominant bo‘lmagan oyoq bilan tebranishlar soni etakchi oyoqqa qaraganda 20 marta ko‘proq bajariladi.

7. Muvozanatdan tashqari oyoqning tarjimalari: qo‘l oldida bo‘linish - qo‘l bilan yon tomonga bo‘linish - qo‘lni orqaga va orqaga bo‘lish (2 to‘plam 1 takrorlash)

Uslubiy ko‘rsatmalar: dominant bo‘lmagan tomonda, 2 ta takrorlashning 3 ta to‘plami.

Nazorat guruhida (3.4-jadval) faqat bitta nazorat mashqida farqlar sezilarli. Shunday qilib, badiiy gimnastikadagi zamonaviy talablar muvozanat guruhlari va sakrash piruetlaridan texnik jihatdan murakkab elementlarni bajarishda frontal tekislikda nosimmetrik rivojlangan egiluvchanlikni namoyish qilish zarurligini belgilaydi. Va assimetriyaning yuqori darajasi, o‘z navbatida, sportchilarga yuqori xarajatli raqobatbardosh elementlarni kerakli darajada bajarishga va ularni o‘z dasturiga kiritishga imkon bermaydi va shu bilan uni


o‘yin-kulgi, xilma-xillik va yuqori "texnik" xarajatlardan mahrum qiladi.

2-jadval

Tadqiqot davomida tajriba va nazorat guruhi sinaluvchilarining antropometrik ko‘rsatkichlari, n=48

T/r	Ko‘rsatkich	Guruh	Tadqiqot boshi		Tadqiqot oxiri		t	P
			$\overline{X}$ - σ	V,%	$\overline{X}$ - σ	V,%		
1	Tana uzunligi (sm)	TG	145,5 ± 4,8	3,30	149,0 ± 4,5	3,02	3,02	<0,01
		NG	146,5 ± 4,7	3,21	147,2 ± 4,4	3,00	1,76	<0,01
2	Tana vazni (kg)	TG	40,5 ± 3,5	8,64	43,8 ± 3,4	7,82	3,32	<0,01
		NG	41,5 ± 3,4	8,19	42,9 ± 3,3	7,76	1,87	>0,1
3	Oyoq uzunligi (sm)	TG	79,5 ± 3,3	4,15	82,5 ± 3,1	3,73	3,73	<0,001
		NG	80,5 ± 3,2	3,97	81,1 ± 3,1	3,80	2,11	>0,05
4	Qo‘l uzunligi (sm)	TG	61,0 ± 2,8	4,59	64,2 ± 2,6	4,03	4,03	<0,001
		NG	62,0 ± 2,7	4,35	63,4 ± 2,6	4,12	1,96	>0,1
5	Ko‘krak qafasi kengligi (sm)	TG	29,5 ± 1,4	4,75	32,0 ± 1,3	4,06	4.06	<0,001
		NG	30,5 ± 1,3	4,26	31,7 ± 1,2	3,81	2,45	<0,05

Ushbu jadval tajriba guruhi (TG) va nazorat guruhi (NG) sinaluvchilarining tadqiqot boshlanishi va oxiridagi o‘rtacha arifmetik ko‘rsatkichlari berilgan. Unda tana uzunligi tajriba guruhida tadqiqot boshida 145,5, tadqiqot oxirida 149,0 sm kuzatildi. nazorat guruhida esa tadqiqot boshida 146,5 sm, tadqiqot oxirida 147,5 smni tashkil etdi. Tajriba guruhida tana uzunligining o‘sishi nazorat guruhiga qaraganda sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlandi. Tana vazni bo‘yicha tajriba guruhida tadqiqot boshida 40,5 kg, tadqiqot oxirida 43,5 kg ekanligi kuzatildi. Nazorat guruhida esa tadqiqot boshida 41,5 kg, tadqiqot oxirida 42,5 kg ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Har ikki guruhda tana vazni oshgan, lekin tajriba guruhida bu o‘sish ko‘proq ekanligi aniqlandi. Oyoq uzunligi tajriba guruhida tadqiqot boshida 79,5 sm, tadqiqot oxirida 82,5 sm kuzatildi. nazorat guruhida esa ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha tadqiqot boshida 80,5 sm, tadqiqot oxirida 81,5 sm ekanligi aniqlandi. Tajriba guruhida oyoq uzunligining o‘sishi nazorat guruhiga nisbatan yuqoriligini ko‘rishimiz mumkin. Qo‘l uzunligi tajriba guruhida tadqiqot boshida 61,0 sm, tadqiqot oxiri kelib 64,0 sm kuzatildi. Nazorat guruhida tadqiqot boshida 62,0 sm, tadqiqot oxirida 63,0 sm ekanligi aniqlandi. Qo‘l uzunligi har ikki guruhda oshgan, lekin tajriba guruhida o‘sish ko‘proq kuzatildi. Ko‘krak qafasi kengligi tajriba guruhida taqiqot boshida 29,5 sm, tadqiqot oxirida 32,0 smni tashkil etdi. Nazorat guruhida tadqiqot boshida 30,5 sm, tadqiqot oxirida 31,5 sm kuzatildi. Tajriba guruhida ko‘krak qafasi kengligining o‘sishi nazorat guruhiga qaraganda ancha yuqori ekanlgini ko‘rishimiz mumkin.



4.2-rasm. Tadqiqot davomida tajriba va nazorat guruhi sinaluvchilarining antropometrik ko‘rsatkichlarining nisbiy o‘sish dinamikasi, n=48

Diagrammada ikki guruhning (tajriba va nazorat) besh xil antrpometrik ko‘rsatkichi bo‘yicha tana o‘lchovlari tahlil qilindi. Barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha tajriba guruhi nazorat guruhiga nisbatan yuqori natijalarni ko‘rsatgan. Bu

degani, tajriba guruhidagi sinluvchilarning o‘rtacha bo‘yi 2,41 %ga, nazorat guruhida esa 0,48 % ga, vazni bo‘yicha tajriba guruhida o‘rtacha 8,15 % ga va nazorat gurhida esa 3,37 % ga , oyoq uzunligi tajriba guruhida 3,77 % ga hamda nazorat guruhida esa 0,75 % ga, qo‘l uzunligi tajriba guruhida o‘rtacha 5,25 % ga va nazorat guruhida 2,26 % ga, shuningdek, ko‘krak qafasi kengligi nazorat guruhiga qaraganda kattaroq bo‘lgan ya’ni tajirba guruhida 8,47 % va nazorat guruhida 3,93 % ga yaxshilanganligi aniqlandi. Farqlarning darajasi turli xil ko‘rsatkichlar uchun turlicha. Masalan, tana vazni va oyoq uzunligi bo‘yicha farqlar nisbatan kattaroq, qo‘l uzunligi va ko‘krak qafasi kengligi bo‘yicha esa kichikroq. Tajriba guruhida qo‘llanilgan mashqlar va metodikalar nazorat guruhiga nisbatan badiiy gimanstikachilarning jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Bu tajriba guruhidagi sinluvchilarning o‘rtacha bo‘yi, vazni va boshqa fiziologik parametrlarining ortishida aks etgan.

Zamonaviy ta'lim jarayoni o'qituvchining faqatgina tarixiy bilimlarga ega bo'lishini emas, balki fanlararo yondashuvlarni tushunishini ham talab qiladi. Bu o'quvchilarning keng dunyoqarashini shakllantirish uchun zarur. Bu yo'nalishda **o'**qituvchining vazifalari quyidagilardan iborat:

✓ tarix fanini geografiya, iqtisodiyot, siyosatshunoslik, sosiologiya va madaniyatshunoslik kabi fanlar bilan bog'lab o'rgatish;

✓ global masalalarni milliy tarix kontekstida tushuntirish;

✓ o‘quvchilarning turli fanlarga qiziqishini oshirish uchun manbalar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Masalan, h**ozirgi** global inqirozlar, iqlim o‘zgarishi yoki iqtisodiy integratsiya jarayonlarini o‘tmish tarixiy jarayonlari bilan bog‘lab o‘rgatish uchun fanlararo integrsiya masalalarini chuqur bilishni talab qiladi.

2.3. Innovasion yondashuvlar.

Tarix o‘qituvchisi zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda ta’lim jarayonini samarali tashkil etish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Innovasion yondashuvlar ta’lim jarayonini interaktiv va qiziqarli qilishga qodir. Bunga quyidagilar kiradi:

• **Raqamlashtirish:**

✓ elektron darsliklar, videodarslar va virtual sayohatlardan foydalanish;

✓ tarixiy hodisalarni 3D vizualizatsiya qilish, multimedia manbalaridan samarali foydalanish.

• **Interaktiv usullar:**

✓ kyeys-stadi, debatlar va rolli o‘yinlar orqali tarixiy voqealarni tahlil qilish;

✓ tarixiy hujjatlar bilan ishlashda o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash.

• **Ijodiy yondashuv:**

✓ har bir o‘quvchiga individual yondashish, tarixni vizuallashtirish orqali ta’lim jarayonini boyitish;

✓ Zamonaviy tarixiy platformalar yordamida darslarni qiziqarli tarzda tashkil etish.

3. Tarix ta’limida zamonaviy o‘qituvchi konsepsiyasining asosiy tamoyillari. Tarix ta’limida **z**amonaviy o‘qituvchi konsepsiyasini ishlab chiqish uchun uning qanday tamoyillarga asoslanishini aniqlashtirib olish lozim. Ushbu tamoyillar ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, yoshlarni intellektual va axloqiy rivojlantirish, tarix ta’limiga qo‘yilayotgan zamonaviy talablarga muvofiq bo‘lishi lozim. Quyida mazkur tamoyillar bo‘yicha takliflarimizni ilgari suramiz:

1. Axloqiy yuksaklik tamoyili: tarix o‘qituvchisi shaxsiy va kasbiy axloqiy sifatlari orqali o‘quvchilarga namuna bo‘lishini nazarda tutadi kerak. Axloqiy yetakchilik, insoniylik, bag‘rikenglik va adolat tuyg‘usi o‘qituvchining asosiy fazilatlari bo‘lib, ular ta’lim jarayonida o‘quvchilarga singdiriladi. O‘quvchilarning shaxsiy yuksaklikka erishishlari uchun ularga ilhom manbasi bo‘ladi.

2. Innovasion yondashuv tamoyili: o‘qituvchi ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalar va innovasion usullardan foydalanishi zarur. Elektron platformalar, vizualizatsiya vositalari, interaktiv metodlar, keys-stadi, simulyasiyalar ta’limning jozibadorligini oshiradi. O‘quvchilarning faol ishtiroki va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

3. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish tamoyili: o‘quvchilarda milliy g‘urur va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini uyg‘otish ta’lim jarayonining markazida turishi kerak. Milliy tarixni global masalalar bilan bog‘lab o‘qitish orqali o‘quvchilarda ikki dunyoqarashni uyg‘unlashtirish. Milliy va xalqaro jarayonlarga xolis yondashuvni shakllantiradi.

4. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish tamoyili: tarix o‘qituvchisi o‘quvchilarni faktlar va voqealarni tahlil qilishga o‘rgatishi zarur. Tanqidiy fikrlash o‘quvchilarga tarixiy jarayonlarni to‘g‘ri tushunish va mustaqil fikrlash imkonini beradi. Yoshlarda jahon voqealariga nisbatan xolis va mas’uliyatli yondashuvni rivojlantiradi.

5. Fanlararo yondashuv tamoyili: tarix o‘qitish jarayonini boshqa fanlar bilan uyg‘unlashtirish ta’limni yanada boyitadi. Tarixni iqtisodiyot, siyosatshunoslik, sosiologiya va ekologiya kabi fanlar bilan bog‘lab tushuntirish. O‘quvchilarga keng qamrovli dunyoqarash va murakkab ijtimoiy muammolarni tushunish qobiliyatini hosil qiladi.

6. O‘quvchilarga individual yondashuv tamoyili: har bir o‘quvchining individual talablarini inobatga olib ta’lim jarayonini tashkil qilish. Interaktiv darslar va shaxsiy rivojlanishga yo‘naltirilgan metodlar orqali har bir o‘quvchiga alohida e’tibor. O‘quvchilarning ta’lim jarayonida faol qatnashishi va o‘z salohiyatini to‘liq ochishiga yordam beradi.

7. Jamoaviy hamkorlik tamoyili: o‘qituvchi o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatib, jamoaviy ishlarni targ‘ib qilishi kerak. Guruhli muhokamalar, rol o‘yinlari va debatlar orqali ta’lim jarayonini tashkil etish. O‘quvchilarning ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatishiga va jamoa bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishiga yordam beradi.

Umuman, ushbu tamoyillar tarix o‘qituvchisi konsepsiyasining poydevorini tashkil qiladi. Ular ta’lim jarayonining sifatini oshirishga, o‘quvchilarni intellektual va ma’naviy rivojlantirishga qaratilgan. Zamonaviy o‘qituvchi ushbu tamoyillarga amal qilgan holda ta’lim jarayonini zamonaviy standartlarga moslashtirib, yosh avlodni har tomonlama barkamol shaxs sifatida tayyorlaydi.

Xulosa qilib aytganda, konsepsiyaga muvofiq, tarix ta’limida global masalalarni milliy tarix kontekstida tushuntirish yoki aksincha milliy masalalarni global kontekstda tushuntirishga ustuvorlik beriladi. Bu bilan talabalarda tarixiy jarayonlarning ko‘chuvchanlik va takrorlanish xususiyati, tarixiy-siyosiy hodisalarning globallashuv jarayonlariga ta’siri kabi masalalar borasida tahliliy munosabatlar shakllanishiga erishiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Dewey J. Democracy and Education. New York: Macmillan, 1916.
2. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press, 1978.
3. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2023. https://www.unesco.org.
4. Ministerstvo Prosveщyeniya RF. Sovremennыye podxodы k prepodavaniyu istorii. Moskva: Prosveщyeniye, 2021.
5. Farabi A. The Virtuous City. Cairo: Dar al-Maarif, 1998.
6. Beruniy A. Qonuniy Mas’udiy. Toshkent: Sharq, 2005.
7. Bo‘rimova D. Ta’lim jarayonida innovasion texnologiyalar. Toshkent: Ma’rifat, 2020.
8. Russo J.-J. Emil, ili o vospitanii. – Moskva: Prosveщyeniye, 1981.
9. Khan Academy. World History Lessons. https://www.khanacademy.org.
10. YUNESKO. Ta’limda inklyuziv yondashuvlar. https://www.unesco.uz.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Otaxanova Shoxista Shuxratjon qizi
Namangan davlat universiteti doktoranti

BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARNING METODIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligi bilan bog‘liq tushunchalar mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan o‘rganilgan qiyosiy tahlil keltirilgan. Unda bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini oshirishda ta’lim texnologiyalarining ahamiyati haqidagi turli qarashlar muhokama qilinadi. Maqolada jamoaviy o‘qitish, guruhli ta’lim, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim yondashuvlari, hamkorlikda o‘qitish va muammoli ta’lim kabi bir qator o‘qitish usullari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, modul texnologiyasining asosiy xususiyatlari yoritilgan hamda metodik tayyorgarlik doirasida ta’limning umumiy maqsadi - barkamol shaxsni shakllantirish uchun zarur muhitni yaratish zarurligi ta’kidlangan.*

Kalit so‘zlar: *metodik tayyorgarlik, jamoaviy ta’lim, guruhli ta’lim usullari, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, hamkorlikda o‘qitish, muammoli ta’lim, modulli texnologiya, pedagogik tayyorgarlik, o‘qitish, o‘rganish.*

Otakhanova Shakhista Shukhratjan kizi
Doctoral student, Namangan State University

EFFECTIVE TECHNOLOGIES FOR THE DEVELOPMENT OF METHODOLOGICAL TRAINING OF FUTURE ENGLISH TEACHERS

Annotation: *this article presents a comparative analysis of concepts related to the methodological training of future English teachers, studied by domestic and foreign scientists. It discusses various views on the importance of educational technologies in improving the methodological training of future English teachers. The article examines a number of teaching methods such as team teaching, group learning, personality-oriented educational approaches, collaborative teaching, and problem learning. It is also noted that the main features of the module technology are highlighted and the need to create the necessary environment for the formation of the general purpose of Education - a harmonious personality-within the framework of methodological training.*

Keywords: *methodological training, collective training, methods of Group Education, personality-oriented education, collaborative training, problem education, modular technology, pedagogical training, teaching, learning.*

Атаханова Шохиста Шухратжон кизи
Докторант Наманганского государственного университета

ЭФФЕКТИВНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация: *В данной статье представлен сравнительный анализ концепций, связанных с методической подготовкой будущих учителей английского языка, изучаемых отечественными и зарубежными учеными. В нем обсуждаются различные точки зрения на важность образовательных технологий в повышении методической подготовки будущих учителей английского языка. В статье рассматривается ряд методов обучения, таких как командное обучение, групповое обучение, личностно-ориентированные подходы к обучению, совместное обучение и проблемное обучение. Также освещены основные особенности модульной технологии и подчеркнута необходимость создания в рамках методической подготовки необходимой среды для формирования общей цели образования - гармоничной личности.*

Ключевые слова: *методическая подготовка, коллективное обучение, групповые методы обучения, личностно-ориентированное обучение, совместное обучение, проблемное обучение, модульная технология, педагогическая подготовка, обучение, Обучение.*

Kirish.

Texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanayotgan bugungi sharoitda har qanday davlatning nufuzi ko‘p jihatdan fuqarolarining turmush darajasi, siyosiy va iqtisodiy faolligiga bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasining hozirgi va kelajakdagi barqaror iqtisodiy o‘sishiga hissa

qo‘shadigan omillar ta’lim sohasining taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liqdir.

Respublikamizda ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan islohotlar, qabul qilinayotgan qonun va farmonlar jamiyatimiz taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi. Zamonaviy ta’lim tizimining rivojlanishi o‘qituvchilarning malakasi va kasbiy kompetensiyalarini yuksaltirishni taqozo etadi, bu esa bo‘lajak pedagoglarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Bugungi kun ta’lim-tarbiyasining asosiy maqsadi jamiyat, davlat va shaxs ehtiyojlarini zamonaviy pedagogik amaliyot bilan uyg‘unlashtirish, ya’ni har tomonlama barkamol va yetuk shaxsni tarbiyalashdan iborat.

Muhokama va natijalar.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligi pedagogik va texnik-texnologik muammoli vaziyatlarni tashkil etishni yengillashtiruvchi shart-sharoitlar majmuasi bilan tavsiflanadi. Bu pedagogik shart-sharoitlar nafaqat mazkur jarayonni boshlab beradi, balki uning hozirgi holatini ham shakllantirishga xizmat qiladi.

Metodik tayyorgarlik ta’lim jarayonini samarali tashkil etishga qaratilgan turli shakl va usullarni qamrab oladi. Bu bilimlarni o‘zlashtirish, vositalarni egallash va amalda qo‘llash, hamda faoliyat natijalarini sifat jihatidan tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, ilg‘or xalqaro pedagogik tajribalarni baholash va o‘rganish qobiliyatini, ta’lim jarayonini loyihalashtirish va uni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantirishni ham nazarda tutadi.

"Metodik tayyorgarlik" tushunchasining mohiyatini yorituvchi ta’riflar va ilmiy tadqiqotlar muhim xulosalarni namoyon etadi. "Metodika" atamasi rus ilmiy adabiyotida ilk bor 1783-yilda, xususan F.I. Yankovich asarlarida qo‘llanilgan. "Tayyorgarlik" atamasi S.I. Ojegov va N.Yu. Shvedovning izohli lug‘atida ikki ma’noda keltirilgan: 1) muayyan maqsad uchun zarur bo‘lgan bilimlarni o‘zlashtirish va rivojlantirish jarayoni; 2) shaxs tomonidan egallanadigan bilimlar. Demak, tayyorgarlik ham ta’lim jarayonini, ham uning natijalarini qamrab oladi. Bu ta’lim-tarbiya jarayoni shaxsni shakllantirishga yoki uni muayyan kasbiy ko‘nikmalar bilan qurollantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi mumkin. Birinchi maqsadga erishish uchun asosiy bilimlar va shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish talab etilsa, ikkinchisi kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan tegishli ko‘nikma va kompetensiyalarni shakllantirish orqali amalga oshiriladi.

Rus olimi V.V. Malev zamonaviy metodik tizimning o‘ziga xos xususiyatlarini ta’riflab, ta’lim jarayonini ilmiy asosda rejalashtirish, tayyorgarlikning nazariy va amaliy uyg‘unligi, ta’lim mazmunini tez va samarali o‘zlashtirish qobiliyati, talabalarning yuqori darajadagi faolligi va mustaqil faoliyatini rag‘batlantirish, individual va guruhli sa’y-harakatlarni muvofiqlashtirish muhimligini ta’kidlagan. Shuningdek, u turli fanlar bo‘yicha o‘quv jarayonining texnik jihatlarini alohida qayd etib, kompleks yondashuvni qo‘llab-quvvatlagan.

Tadqiqotchi Sh. Ibragimova metodik tayyorgarlikni ta’lim-tarbiyaviy faoliyatni metodik jihatdan tashkil etish, metod va vositalarni to‘g‘ri tanlash, muvaffaqiyatli natijalarni ta’minlash uchun ushbu metodlarni samarali qo‘llashni o‘z ichiga oluvchi "pedagogik jarayon" sifatida tavsiflaydi. Bundan tashqari, V.A. Adolf va A.S. Slastenin metodik kompetentlik, ayniqsa o‘qitish metodikasining o‘ziga xos tuzilishiga nisbatan, aniq amaliy xususiyatga ega ekanligini ta’kidlaydilar.

Yurtimiz olimlaridan Oliy ta’lim muassasalari o‘quv-tarbiya jarayonining umumiy tamoyillari va bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini ta’minlashning samarali metod va vositalari A.A.Abduqodirov, N.N.Azizxo‘jayeva, F.R.Yuzlikayev, V.N.Bespalko, R.Z.Gaynutdinov, P.A.Rudik, M.G.Davletshin, Sh.E.Kurbanov, S.L.Rubinshteyn va N.F.Talizinalarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligi pedagogik sikl fanlarining o‘zaro bog‘liqligi orqali bosqichma-bosqich takomillashib boradi. Bu jarayonda innovatsion yondashuv qo‘llaniladi, bunda pedagogik amaliyotdagi fanlararo aloqadorlikka alohida e’tibor qaratiladi va muammoli vaziyatlarni hal etish vazifalari ham qo‘shib olib boriladi.

Pedagogikada "tayyorgarlik" – bu shaxsning muayyan faoliyatni amalga oshirishga ruhiy, nazariy va amaliy jihatdan hozirlik holati. Bu jarayon o‘quvchi yoki mutaxassisning bilim, ko‘nikma, malakalarini shakllantirish va rivojlantirish bilan ifodalanadi.

Bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligi darajasiga qo‘yiluvchi talablar nuqtai nazaridan metodik tayyorgarlik talabalarning muayyan vaziyatlarda bilim, malaka va faoliyat usullari to‘plamini maqsadga muvofiq qo‘llash qobiliyatini rivojlantirishga harakatini anglatadi.

Metodik tayyorgarlik - Ta’lim-tarbiya va boshqaruv jarayonlarini samarali tashkil etish uchun zarur bo‘lgan turli shakl, usul va vositalarni tushunish, ularda malakali bo‘lish va amalda qo‘llay olish g‘oyat muhimdir. Bu o‘z ichiga kasbiy natijalarni chuqur tahlil qilish, innovatsion pedagogik amaliyotlar va xalqaro tajribalarni o‘rganish, ta’lim tizimlarini loyihalash hamda muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lish holatidir.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish uchta asosiy tarkibiy qismdan iborat pedagogik tuzilmada o‘z aksini topadi: maqsadlar, jarayonlar va natijalar. Ijtimoiy me’yorlar metodikaning rivojlanish darajasini baholashning muhim poydevori sifatida xizmat qiladi va keyinchalik Davlat ta’lim standartining mazmuniga kiritiladi. Ta’lim tizimi faoliyatini baholashda uning samaradorligi va pedagogik tuzilmaning rivojlanishiga oid asosiy ko‘rsatkichlarni aniqlash mumkin. Ushbu ko‘rsatkichlar o‘qituvchining

metodik tayyorgarlik darajasini baholash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Jamiyatda ta’lim tizimini rivojlantirishning asosiy strategik yo‘nalishlaridan biri turli soha vakillarini maqsadli jalb etish, ularning aqliy va axloqiy kamolotiga e’tibor qaratishdir. Rivojlangan mamlakatlar tajribasiga ko‘ra, ta’limning innovatsion usullarini joriy etish mamlakatimizda olib borilayotgan ta’lim islohotlarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish, o‘qituvchilarni tayyorlashning keng qamrovli muammolari orasida alohida o‘rin egallaydi. Zamonaviylashtirish maqsadida amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari fonida ushbu masala tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Buning natijasida, kasbiy pedagogik amaliyotga moslashish zaruriyati yanada yaqqolroq namoyon bo‘lmoqda. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligi nafaqat amaliy, psixologik va tadqiqotga yo‘naltirilgan jihatlarni, balki metodik tayyorgarlikni ham o‘z ichiga olgan holda yanada chuqurroq rivojlantirilmoqda.

Pedagoglarning metodik kompetensiyasiga bag‘ishlangan adabiyotlarda bir nechta toifalar ajratib ko‘rsatiladi:

- Maxsus kompetensiya kasbiy faoliyatda yetarli darajada rivojlangan malakani, shuningdek, o‘zining kelajakdagi kasbiy o‘sishini rejalashtirish qobiliyatini anglatadi;

- Ijtimoiy tarbiyalash qobiliyati hamkorlikda kasbiy faoliyat yuritish, samarali hamkorlik qilish va metodik muloqot usullarini qo‘llash uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni, shuningdek, o‘z kasbining natijalari uchun ijtimoiy mas’uliyatni his qilishni o‘z ichiga oladi.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligi shaxsiy xususiyatlar orqali shakllanadi. Bu xususiyatlar iroda va hissiy xususiyatlar, aqliy qobiliyatlar, amaliy ko‘nikmalar, o‘zini boshqarish malakalari hamda shaxsning ijtimoiy-madaniy jalb etilishi darajasi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni aks ettiradi.

Yevropa mamlakatlarida o‘rnatilgan an’anaga ko‘ra, mutaxassislarning metodik tayyorgarligi ularning malakasi asosida baholanadi, bu tayyorgarlikni shakllantirish uchun mo‘ljallangan ta’lim tizimi esa o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalar darajasiga qarab baholanadi. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining ta’lim va rivojlanish jarayonidagi metodik tayyorgarlik turlari pedagogik kompetentlikning turli shakllarini o‘z ichiga olishi mumkin.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida ularning metodik tayyorgarligini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, bu jarayonda qo‘llanilayotgan shakl, metod va vositalarning yetarlicha ilmiy asoslanmagani kuzatilmoqda. Shu bois, ingliz tili yo‘nalishida tahsil olayotgan bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish ularning kasbiy kompetensiyalarini chuqurlashtirish, pedagogik madaniyatini rivojlantirish va ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni integratsiya qilish orqali amalga oshirilishi zarur.

Mazkur masalani samarali hal etish uchun bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini tizimli asosda rivojlantirish talab etiladi. Bu jarayonda ularning nazariy bilimlarini amaliyot bilan uyg‘unlashtirish, pedagogik faoliyat uchun zarur bo‘lgan asosiy kompetensiyalarni shakllantirish hamda zamonaviy didaktik yondashuvlardan foydalanish muhimdir. Metodik tayyorgarlik darajasining oshirilishi o‘qituvchining ijodiy izlanish qobiliyatini rivojlantirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llay bilish va ta’lim jarayonini interaktiv shakllarda tashkil etish ko‘nikmalariga bog‘liq.

Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish jarayonida ularning umumiy pedagogika, psixologiya, yosh fiziologiyasi, lingvistika hamda ingliz tilini o‘qitish metodikasiga oid bilimlarini chuqurlashtirish zarur. Shu bilan birga, ularning metodik faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirish, mustaqil ravishda innovatsion yondashuvlarni tadqiq qilish va ularni amaliyotga joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Kasbiy tayyorgarlik samaradorligini oshirish uchun bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari o‘z faoliyatini ta’lim muassasalari va pedagogik amaliyot sharoitlariga moslashtirishi lozim. Bu jarayonda ularning o‘quvchilarning ehtiyojlarini chuqur tushunishi, emotsional intellektini rivojlantirishi va interaktiv metodlardan foydalangan holda ta’lim jarayonini tashkil eta olishi talab etiladi. Bundan tashqari, zamonaviy ta’lim muhitida raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish metodik tayyorgarlikni yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari o‘z bilim va malakalarini oshirishni doimiy ravishda ijodiy izlanishlar, innovatsion texnologiyalarni o‘zlashtirish va ta’lim jarayoniga integratsiya qilish orqali amalga oshirishi lozim. Bunda ularning pedagogik va psixologik tayyorgarligi, nazariy bilimlari hamda amaliy tajribasi uzviy bog‘liq bo‘lib, o‘qituvchilik kasbining samaradorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi.

Ingliz tili o‘qituvchisi maxsus fanlar bo‘yicha darslarga tayyorgarlik ko‘rar ekan, yangi materialni taqdim etishning eng samarali usul va uslublari ustida bosh qotiradi. O‘quv materiallari tanlovi o‘quvchilarning o‘ziga xos xususiyatlariga, jumladan, ularning oldingi tajribalariga, jismoniy rivojlanishiga va kasbiy qobiliyatlariga ta’sir ko‘rsatuvchi boshqa omillarga moslashtiriladi. Zamonaviy sanoat misli ko‘rilmagan tezlikda rivojlanayotgani, sinf texnologiyalari va pedagogik jarayonlar uzluksiz takomillashib borayotgani hech kimga sir emas. Bu evolyutsiya ingliz tili o‘qitishida ham tegishli o‘zgarishlarni talab etadi. Shu bois, bo‘lajak

ingliz tili o‘qituvchilari fan va texnika sohasidagi yangiliklarni doimiy kuzatib borishi, bu yangiliklarni o‘quvchilarga tushunarli tarzda yetkazishi va innovatsion strategiyalar orqali o‘z pedagogik mahoratlarini oshirib borishi zarur.

Ko‘plab oliy ta’lim muassasalarida talabalarning nazariy va amaliy ta’limini elektron ta’lim resurslaridan foydalangan holda tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, ta’lim tizimida o‘quvchilarning o‘quv ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish hamda ularning metodik tayyorgarligini takomillashtirish dolzarb pedagogik masala sifatida yuzaga keldi.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlashda ularning metodik tayyorgarligini takomillashtirish kasbiy-pedagogik ta’limning umumiy sifati bilan uzviy bog‘liqdir. Bu takomillashuv o‘quv jarayonining mazmuni bilan chambarchas bog‘liqdir.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish turli fanlar, jumladan, gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy-ilmiy va matematik fanlar, shuningdek, pedagogik psixologiya, umumiy va maxsus tayyorgarlik kurslari bo‘yicha bilimlarni uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Bunday yondashuv ingliz tili o‘qituvchisining pedagogik vazifalari, u duch keladigan qiyinchiliklar va hal qiladigan ta’lim masalalari, hamda qo‘llaydigan o‘zaro ta’sir usullarini chuqur tushunishga yordam beradi. Puxta nazariy va metodologik tadqiqot amaliy tajribalar bilan birgalikda bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining metodik tayyorgarlik darajasini tizimli baholashga bo‘lgan yondashuvning rivojlanishini tushunishga imkon beradi.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligiga asos bo‘luvchi quyidagi pedagogik-psixologik tamoyillar mavjud: qiziqish uyg‘otish, idrok etish ehtiyojini kuchaytirish, uni faollashtirish, idrok etish faolligining zarurligini rag‘batlantirish, innovatsion va mustaqil ta’lim orqali zaruriy malaka, ko‘nikma va kompetensiyalarni egallash, ularni takomillashtirish hamda mustaqil ta’lim olish tajribasini orttirish. Bundan tashqari, zamonaviy o‘qitish metodikalarini joriy etish, ularni faollashtirish, mustaqil egallangan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni ijtimoiylashtirish, shuningdek, kasbiy-metodik innovatsion bilimlarni o‘zlashtirish bilan bog‘liq natijalarni baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini innovatsion tizim orqali rivojlantirish jarayonida ularning kasbiy idrok etishga bo‘lgan qiziqishini metodik nuqtai nazardan baholash va tahlil qilish zarur. Bu jarayonda, xususan, bunday idrokning zarurligi, ta’lim jarayonida interfaol metodlardan samarali foydalana olish qobiliyati, ushbu ko‘nikmalarni takomillashtirish va bu yo‘nalishda erishilgan natijalarni baholash muhim o‘rin tutadi.

Pedagogik ta’limning uslubiy rivojlanishida ta’lim-tarbiya, o‘qituvchilar tarkibining ilmiy salohiyatini yuksaltirish hamda ta’lim va rivojlanish jarayonlarining uzluksizligi kabi umumiy mavzular o‘zaro uyg‘unlashadi. Shu bilan birga, bu keng qamrovli mavzular ta’limni boshqarish va tashkil etish, turli ta’lim turlari va yondashuvlari o‘rtasidagi uzluksizlik va integratsiyani ta’minlash, o‘qitish usullari va vositalarini samarali qo‘llash, shuningdek, o‘quv adabiyotlarini yaratish kabi muayyan sohalarda aniq ifodasini topadi.

Shunday qilib, oliy ta’lim muassasalarida malakali pedagog kadrlarni tayyorlashda zamonaviy o‘qitish usullari, interaktiv yondashuvlar va innovatsion texnologiyalarning ahamiyati va ta’siri juda katta hisoblanadi.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik tizimga yangi g‘oyalar va o‘zgartirishlarni joriy etish, o‘qituvchi va o‘quvchilarga ta’sir ko‘rsatish, asosan interfaol usullarni qo‘llash orqali amalga oshiriladi. Bu usullar pedagogik vosita sifatida ta’lim mazmunining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ularning o‘ziga xos xususiyati shundaki, o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati talab etiladi.

Pedagogik texnologiyaning asosiy mohiyati shundaki, o‘qituvchi va talabaning oldindan belgilangan maqsadga erishishi tanlangan texnologiyalarga bog‘liq. Xususan, ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan texnologiyalar o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlikni ta’minlasa, har ikki tomon ham ijobiy natijalarga erishishi mumkin. Ayniqsa, o‘quvchilar mustaqil fikrlashga, ijodiy ishlashga, izlanishga, ma’lumotlarni tahlil qilishga, shaxsiy xulosalar chiqarishga, o‘zining va tengdoshlarining faoliyatini baholashga undalganda, bu yanada samarali bo‘ladi. Shu bilan birga, o‘qituvchi ta’lim jarayonining asosini tashkil etuvchi bunday faoliyatni amalga oshirish uchun qulay sharoit yaratishi lozim.

Har bir dars, mavzu yoki fan sohasi o‘ziga xos texnologiya bilan bog‘liq bo‘lib, pedagogik texnologiya yagona maqsadga yo‘naltirilgan, ta’lim oluvchining ehtiyojlariga mos, oldindan belgilangan, kafolatlangan natijaga erishishga qaratilgan jarayondir.

Kerakli natijaga erishish uchun texnologiyani tanlash o‘qituvchi va talabaning birgalikdagi qarori hisoblanadi, chunki ularning umumiy maqsadi ma’lum bir natijaga erishishdir. Bu qarorga talabaning bilim darajasi, guruh dinamikasi va mavjud vaziyat ta’sir ko‘rsatadi.

O‘quv predmetining o‘ziga xos xususiyatlari, mavjud moddiy va ma’naviy resurslar, AKT vositalari, eng muhimi, ta’lim oluvchilarning imkoniyatlari va ehtiyojlari, shuningdek, ularning hamkorlikda ishlash salohiyatini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini oldindan puxta rejalashtirish zarur. Shundagina ta’lim maqsadlariga samarali erishish mumkin bo‘ladi.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini rivojlantirish uchun quyidagi ta’lim texnologiyalari bilan tanishish muhim ahamiyatga ega:

1. Jamoa va guruhlarda o‘qitish texnologiyasi. Bu yondashuv har bir a’zoning farovonligi uchun birlashgan shaxslar jamoasini o‘z ichiga oladi. Asosiy tamoyillarga kichik guruhlar va juftliklarning almashinuvi, o‘zaro ta’lim, nazorat va boshqaruv kiradi. Pedagogik rahbarlik va boshqaruv samarali yo‘lga qo‘yilganda, bu tuzilmalar jamoaga yo‘naltirilgan, umumiy maqsadlarni anglash, aniq vazifalarni belgilash, o‘zaro bog‘liqlik va mas’uliyat bilan ajralib turadigan muhitni yaratadi.

2. O‘quvchiga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasi. Bu yondashuv shaxsga yo‘naltirilgan ta’limga alohida e’tibor qaratadi. Bunda har bir o‘quvchining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash, qobiliyatlarini rivojlantirish, qiziqishlarini hisobga olgan holda shaxsiy rivojlanishiga ko‘maklashish nazarda tutiladi.

3. Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi. Hamkorlikda o‘qitishning asosiy g‘oyasi shunchaki birgalikda faoliyat yuritish emas, balki jamoa bo‘lib o‘rganishdir. O‘quvchilarning o‘zlashtirish sur’atlari turlicha bo‘lib, ba’zilari o‘qituvchining tushuntirishlarini tezda anglaydilar, boshqalari esa qo‘shimcha vaqt va tushuntirishlarga muhtoj bo‘lishi mumkin. O‘quvchilarni to‘rt-besh kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtirib, har bir a’zoning vazifasini aniq belgilab qo‘yish orqali ularda mas’uliyat hissi shakllanadi. Bunday sharoitda past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar yuqori natijaga erishgan tengdoshlaridan yordam so‘rashlari va hamkorlik jarayonida yuzaga keladigan har qanday muammolarni birgalikda hal qilishlari mumkin.

4. Muammoli ta’lim texnologiyasi. Muammoli ta’limning asosiy tamoyili o‘qituvchining ta’lim jarayonida muammoli vaziyatlarni taqdim etish orqali o‘quvchilarning yangi bilimlarni o‘zlashtirishdagi aqliy faoliyatini tashkil etishdan iborat. Bu usul o‘quvchilarni o‘quv topshiriqlari, muammolar va savollarni hal qilishga undaydi. Muammoli ta’limning maqsadi o‘quvchilarga bilimlar majmuini samarali o‘zlashtirishda, aqliy va amaliy faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirishda yordam berish, o‘rganganlarini yangi vaziyatlarda ijodiy qo‘llash va ta’lim muammolarini hal qilish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat.

5. Modul texnologiyasi. Talabalar o‘z ehtiyojlariga moslashtirilgan dastur orqali mustaqil bilim oladilar. Modul ilmiy fanning bir yoki bir nechta asosiy tushunchalarini o‘rganishga qaratilgan, ma’lum qonuniyatlar asosida ishlab chiqilgan ta’lim mazmunining alohida birligidir. Modulli o‘qitishni samarali amalga oshirish uchun ishlab chiqilgan modul dasturi bir qator asosiy tamoyillarga asoslanishi lozim: axborot materiallarining maqsadga yo‘naltirilganligi, bunda har bir axborot bloki mavzu bo‘yicha aniq belgilangan maqsad atrofida tuziladi; murakkab, integratsiyalashgan va aniq didaktik maqsadlarning muvofiqligi. Modulli texnologiyani muvaffaqiyatli qo‘llash uchun keng qamrovli o‘quv-metodik ta’minotni tayyorlash talab etiladi. Bu ta’minot quyidagilarni o‘z ichiga oladi: talabalar bilimini baholash uchun nazorat topshiriqlari, mustaqil ta’lim uchun vazifalar, o‘quv-metodik resurslar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ishchi o‘quv dasturi.

Xulosa.

Metodik tayyorgarlik mohiyatan ijodiy jarayon bo‘lib, u yangilik yaratishga intiluvchi va pedagogik innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq eta oluvchi novator o‘qituvchining faoliyatiga mos keladi. Bu jarayon nafaqat o‘qituvchining kasbiy mahoratini shakllantirish, balki shaxsning ma’naviy dunyosini boyitish, qadriyatlar tizimini rivojlantirish va pedagogik tafakkurni takomillashtirishni ham talab qiladi.

Innovatsion metodik faoliyat jarayonida o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy salohiyati ijtimoiy-madaniy jarayonda shakllanadi hamda u jamiyatning ta’limiy ehtiyojlariga mos ravishda rivojlanadi. Bu jarayonda pedagogik novatorlikning muvaffaqiyati shaxsning ichki qobiliyatlari va iste’dodining faollashuvi, shuningdek, jamoaviy ijodiy muhitni shakllantirishga bog‘liqdir.

Metodik tayyorgarlikni takomillashtirish uchun o‘qituvchi pedagogik innovatsiyalarni puxta o‘zlashtirishi, zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanishi va didaktik materiallarni yaratish bo‘yicha ijodiy izlanishlarni olib borishi zarur. Shu bilan birga, u kasbiy rivojlanishning doimiy jarayon ekanligini anglab, o‘zining bilim va ko‘nikmalarini uzluksiz ravishda takomillashtirib borishi lozim.

Natijada, metodik tayyorgarlikning ijodiy va innovatsion jihatlarini rivojlantirish orqali o‘qituvchi nafaqat ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, balki o‘z shaxsiy va kasbiy salohiyatini yanada yuksaltirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish choratadbirlari to‘g‘risida” PQ-289-son Qarori https://lex.uz/ru/docs/

2. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари: Пед. фан. док. ... дис.- Т.: 2007. –Б. 315.

3. Сластенин, В.А. Введение в педагогическую аксиологию. – Москва.: Издательский центр «Академия», 2003. – Б. 78.

4. Юсупов Б. Э. Вопросы педагогических систем, педагогических технологий и педагогических исследований в педагогическом процессе //Вестник науки. – 2021. – Т. 4. – №. 6 (39). – С. 58-63.

5. Юсупов Б. Э., Хайитова С. Развитие образовательного процесса на основе инновационных подходов //Вестник науки и образования. – 2019. – №. 19-2 (73). – С. 42-46.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Yusupov Nodirbek Maxmudovich
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
nodirbek-1978@mail.ru

MALAKALI FUTBOLCHI QIZLARNING TEXNIK-TAKTIK HARAKATLAR SAMARADORLIGINI TAHLILI

Annotasiya *maqolada malakali futbolchi qizlarning texnik va taktik harakatlarining hajmi va samaradorligi ko‘rsatkichlari ko‘rib chiqiladi. Oyin texnikasining ishonchliligi, ya’ni futbolchilarning hujum harakatlarining samaradorligini oshirishga yordam beradigan to‘p uzatish turlari to‘g‘risida yangi ma’lumotlar olindi; himoyada va hujumda o‘yinni tavsiflovchi miqdoriy qiymatlar. Olingan ma’lumotlardan murabbiylar va mutaxassislar o‘zlarining amaliy ishlarida foydalanishlari mumkin.*

Kalit so‘zlar: *Musobaka faoliятining nazorati, malakali futbolchi qizlar, texnik-taktik xarakatlar.*

Юсупов Нодирбек Махмудович
Узбекский государственный университет физической культуры и спорта

АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ ТЕХНИКО-ТАКТИЧЕСКИХ ДЕЙСТВИЙ КВАЛИФИКАЦИРОВАННЫХ ФУТБОЛИСТОК

Аннотация: *В работе изучены показатели объема и эффективности технико-тактических действий футболисток высокой квалификации. Получены новые данные о надежности выполнения игровых приемов, а именно разновидностях передач мяча, способствующих повышению эффективности атакующих действий футболисток; количественные величины, характеризующие игру в обороне и в атаке. Полученные фактические данные могут быть использованы тренерами и специалистами в их практической работе.*

Ключевые слова: *Контроль соревновательной деятельности, футболистки высокой квалификации, технико-тактические действия.*

Yusupov Nodirbek Makhmudovich
Uzbekistan State University of physical education and sports

ANALYSIS OF THE EFFECTIVENESS OF TECHNICAL AND TACTICAL ACTIONS OF QUALIFIED FOOTBALL GIRLS

Annotation*. the article will consider indicators of the size and effectiveness of technical and tactical actions of qualified football girls. New information was received about the reliability of the game’s technique, that is, the types of ball passes that help to increase the effectiveness of players ’ offensive actions; quantitative values that characterize the game in defense and attack. The information obtained can be used by coaches and professionals in their practical work.*

Keywords: *control of the activities of the competition, qualified football Girls, Technical and tactical activities.*

Dolzarbligi.

So‘nggi o‘n yillikda mahalliy futbolchi qizlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib milliy terma jamoa va klub jamoa futbolchi qizllarining xalqaro maydonda sezilarli sport yutuqlari yo‘qligini ko‘rish mumkun. Mutaxassislarning fikricha, bu holatning sabablaridan biri, yorqin, texnik va taktik jihatdan yaxshi tayyorgarlikka ega yosh futbolchilarning yetishmasligi, bu esa mahalliy futbolchi qizlarda sport zaxirasining tayyorgarlik darajasini bilvosita ko‘rsatib beradi.

Futbolda sport yutuqlarining hozirgi bosqichida yuqori sport natijalariga erishish uchun qaysi turdagi mashg‘ulotlar muhimligini aniqlash juda qiyin. Ayrim ekspertlarning fikricha, jamoa muvaffaqiyatining hal qiluvchi omillaridan biri sportchilarning yuqori darajadagi maxsus jismoniy tayyorgarligi edi [1,3,5]. Ayrim olimlar adqiqotlariga ko‘ra [2,4], futbolda ko‘rsatkichni hal qiluvchi omil texnik va taktik tayyorgarlik darajasini ta’kidlaganlar.

Shu bois sportda uzoq muddatli tayyorgarlik jarayonini optimallashtirish va ayol futbolchining musoboqalashuv faoliyutining turli ko‘rsatkichlarini yaxshilash katta ahamiyatga ega. Bu borada futbolchi qizlarning raqobatbardosh faoliyatining turli

koʻrsatkichlarini tahlil qiluvchi va umumlashtiruvchi, ular asosida oʻquv-mashq jarayoni rejalashtirilgan tadqiqotlar alohida ahamiyatga ega.

Yakkakurashlar sonining koʻpayishida namoyon boʻladigan oʻyinning kuchayish darajasi, koʻplab oʻyin epizodlari kuchli kuch kurashida sodir boʻlganda, yuqori tezlikdagi motor harakatlarining hajmini tahlil qilish shuni koʻrsatadiki, ayollar futboli. tobora erkaklar futboli darajasiga yaqinlashmoqda.

Soʻnggi Jahon, Yevropa va Osiyo chempionatlari ayollar terma jamoalari oʻrtasidagi jahon miqyosidagi raqobat har tomonlama oʻrganishni, chuqur tahlil etish va zamonaviy talablarga javob beradigan futbolchilarni tayyorlash tizimini amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni talab qilishini koʻrsatdi.

Oxirgi 10-15 yil davomida qayd etilgan mahalliy futbolchi qizlarning oʻyin koʻrsatkichlari boʻyicha yetakchi xorijiy futbolchilardan ortda qolishi barqaror tendentsiya boʻlib qolmoqda, shu sababli texnik va taktik tayyorgarlik darajasini oshirish eng muhim yoʻnalishlardan biri boʻlib kelmoqda. Mahalliy ayol sportchilarning xalqaro maydonda raqobatbardoshligini cheklovchi komponentlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shunday ekan, yuqori malakali futbolchi qizlarning texnik-taktik harakatlari (TTH) samaradorligini oʻrganish, bizningcha, dolzarb muammo boʻlib, uni hal etish uchun amaliy zarurat kelib chiqmoda.

Tadqiqot maqsadi.

Malakali futbolchi qizlarning texnik-taktik harakatlari samaradorligini tahlil qilish.

Tadqiqotni tashkil etish usullari.

Malakali futbolchi qizlarning texnik tayyorgarligi samaradorligini oʻrganish uchun "Wyscout" (Italiya-AQSh) tahliliy tizimi tomonidan taqdim etilgan pedagogik kuzatishlar qoʻllanildi. Bunda 30 dan ortiq oʻyin koʻrsatkichlarining hajmi va shiddati qayd etildi. TTH tahlillar 2024-yilning 3-martidan 9-martigacha boʻlgan davrda OFK U-20 ayollar kubogi guruh bosqichi oʻyinlarida oʻtkazildi. Oʻzbekiston terma jamoasi bilan bir guruhda Xitoy-Xitoy Taypey, Avstraliya va Shimoliy Koreya jamoalari oʻrin olgan.

Oʻzbekiston U-20 terma jamoa futbolchılari 2024 yilgi OFK Kubogida bajargan TTH koʻrsatkichlarini koʻrib chiqamiz (1-jadval).

Tadqiqot natijalarini muhokama qilish.

Futbolchi qizlarning oʻyindagi TTH ning informatsion koʻrsatkichlaridan biri bu "toʻp oshirishlar" soni va aniqligi boʻlib, barcha turdagi uzatmalar orasida biz oʻyinchi toʻpni qabul qilganda, foydali deb ataladigan qulay vaziyatda "toʻpni harakatlanayotgan oʻyinchiga oshirish"ni ajratib oldik. Sherikdan, raqib maqsadiga qarab harakat qilishda davom etadi. Raqibning yarim maydonda amalga oshirilgan bunday uzatmalarning hajmi futbolchi qizlarning texnik va taktik qobiliyatining ishonchli koʻrsatkichlaridir.

Oʻzbekiston U-20 terma jamoasi futbolchi qizlarining OFK kubogi-2024 doirasidagi koʻrsatkichlarini koʻrib chiqamiz (1-jadval).

Jadval 1.

Oʻzbekiston U-20 terma jamoa oʻyinchilarining TTH hajmi va samaradorligi koʻrsatkichlari 2024 yilgi Osiyo Kubogida (n=3).

#	TTH Koʻrsatqichlar	Jamoalar					
		Xitoy-Xitoy Taypey 0: 2		Avstraliya 0: 2		Shimoliy Koreya 0:13	
		Σ TTH	% aniq	Σ TTH	% aniq	Σ TTH	% aniq
1	Toʻpni oshirish	362	75	565	80	572	77
		231	68	254	66	188	57
	Toʻpni harakatlanayotgan oʻyinchiga oshirish	75	66	80	78	78	69
		57	42	62	40	54	31
	Oxirgi uchlik toʻp oshirishlar	47	51	83	72	75	61
		29	34	25	56	33	42
	Jarima maydoniga toʻp oshirishlar	25	52	32	41	35	71
		14	43	5	40	4	25
	Maydon boʻylab toʻp oshirishlar	12	42	11	27	21	47
		2	0	0	0	2	0
2	Pastda toʻp uchun yakkakurashishlar	219	59	264	62	276	67
		219	41	264	38	276	33
	Xavoda toʻp uchun yakkakurashishlar	31	35	26	54	34	62
		31	58	26	46	34	38
3	Erkin toʻpga egalik qilish	75	52	108	72	92	66
		75	48	108	28	92	34
4		53	37	77	60	84	58

	Jarima mayoduga oborilgan hujumlar	17	21	15	7	12	20
5	Aldab o‘tish	22	59	58	53	67	62
		11	36	18	39	15	27
6	Darbozaga zarbalar	14	43	27	61	29	45
		4	25	1	0	3	20
	Jarimadan zarbalar	8	62	15	33	17	55
		2	0	0	0	1	0
	Jarima maydon tashqisidan zarbalar	6	33	12	28	12	33
		2	25	1	0	2	0

Izoh: yuqori katakda raqibning TTH, pastda esa O‘zbekiston terma jamoasi ko‘rsatilgan.

Futbolchi qizlarning o‘yinlarining TTH hajmi va samaradorligini tahlil qilish kichik namunada, statistika, uchun – xalqaro darajadagi atigi 3 ta o‘yinda o‘tkazildi, ammo olingan ko‘rsatkichlardan ba’zi xulosalar chiqarish mumkin. TTHni baholash uchun samaradorlik koeffitsienti (SK) hisoblab chiqilgan – aniq bajarilgan texnikaning umumiy soniga nisbati.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, futbolda asosiy texnik texnika to‘pni uzatishdir va ularning qanchalik aniq va samarali bajarilishi jamoa o‘yinining samaradorligiga bog‘liq. Biz maydon bo‘ylab va orqaga qilingan to‘p oshirishlar hajmini tahlil qilmadik, faqat to‘pni raqib darvozasiga kiritish imkoniyatini yaratadigan paslarni ko‘rib chiqdik.

Ko‘rinib turibdiki, guruh bosqichidagi o‘yinlarda O‘zbekiston jamoasi futbolchi qizlarining uzatmalar hajmi va samaradorligi keng o‘zgaruvchanlikka ega edi. Shunday qilib, Shimoliy Koreя jamoasi bilan o‘yinda eng kam uzatmalarni O‘zbekistonlik futbolchi qizlar tomonidan amalga oshirildi - 188, SK -jami 57%. Raqib jamoa ushbu o‘yinda 572 to‘p oshirishlar bajardilar va SK o‘rtacha 77% ni tashkil etdi. Bu Shimoliy Koreя futbolchi qizlarining o‘yinda to‘liq ustunlik qilganidan dalolat beradi. Xuddi shu tendentsiya Avstraliya terma jamoasi bilan o‘yinda ham kuzatildi. Avstraliya jamosining texnik harakatlardan to‘p uzatmalar hajmi deyarli 2 baravarga ko‘p –565, SK 80% va huddi shu harakatlarda O‘zbekistonlik qizlarda 254 ta harakatni bajargan bo‘lsa SK esa 66% tashkil etdi. Xitoy Xitoy Taypey jamoasi bilan o‘yinda O‘zbekiston futbolchi qizlari 231 ta to‘p oshirish harakatni amalga oshirgan bo‘lsa SK o‘rtacha 68% ni tashkil etdi. Raqib jamoasida bu ko‘rsatgich 362 tani bajarib SK - 75% tashkil etgan.

Ma’lumki, o‘yindagi uzatmalarning umumiy hajmi uning natijasiga ta'sir qilmaydi. Bu faqat o‘yinni kim ko‘proq nazorat qilgani haqida gapirish uchun ishlatilishi mumkin. O‘rtacha top jamoalar to‘pga ega bo‘lishning 1 %ni golga, 10 %ni to‘pga, 20 % esa umuman darvozaga zarbaga, 40 % esa so‘nggi uchinchi o‘rindagi o‘zgarishlarga olib keladi. Jamoa uzoq vaqt to‘pga ega bo‘lganida, bu vaqt ichida raqibning gol ura olmasligi ijobiy xususiyatdir.

Hujum harakatlarining ko‘rsatkichlaridan biri bu "harakatlanayotgan o‘yinchiga oshirish" yani raqibni yakkakurashlarsiz mag‘lub etish va maydonning bo‘sh zonalarga o‘tish imkonini beruvchi uzatmalar. Guruh bosqichidagi o‘yinlarda o‘zbek futbolchi qizlarining bunday uzatmalar hajmi quyidagicha bo‘ldi: Xitoy Xitoy Taypey terma jamoasi bilan 57 ta, SK bilan – 42%, raqib jamoada uzatmalar soni 75 ta, SK esa – 66%; Avstraliya bilan - 62, SK - 40%, Avstraliyalik qizlarda 80, SK - 78%; Shimoliy Koreya bilan – 54, SK bilan – 31%, raqib jamoada – 78, SK esa – 69% ni tashkil etgan.

“Oxirgi uchlik”ga uzatmalar hajmi tahlili shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston terma jamoasi uchun Xitoy Taypey termasi bilan o‘yinda bu ko‘rsatkich 29 taga teng, SK 34%; Raqib jamoaning ovozi 47, SK esa 51% edi. Avstraliya bilan o‘yinda 25 ta uzatma, SK 56%; Raqiblar 83, SK esa - 72% yakunladilar. Shimoliy Koreya jamoasiga qarshi o‘yinda to‘p uzatishlar hajmi 33 tani tashkil etdi, SK ko‘rsatkichi 42%; Raqibning harakati 75 ta, SK - 61%. Olingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston terma jamoasi futbolchi qizlari “oxirgi uchlik” uzatmalarning hajmi va samaradorligi bo‘yicha ham raqib jamoalaridan sezilarli darajada ortda qolgan.

O‘yin tezligini belgilab beruvchi va shundan so‘ng, statistik ma’lumotlarga ko‘ra, eng ko‘p gol urilgan himoyachilar ortidagi “jarima maydonchasiga uzatmalar” tahlili O‘zbekiston terma jamoasi uchun va SK nisbati quyidagicha ekanligini ko‘rish mumkun. Eng past ko‘rsatkich Shimoliy Koreya bilan o‘yinda qayd etilgan – 4, SK bilan – 25%. Raqib jamoa futbolchi qizlarida 35 ta, SK 71% edi. Avstraliya termasi qizlari bilan o‘yinda 5, SK 40% edi. Raqib jamoasida 32, SK esa 41% edi. Xitoy Taypey jamoasiga qarshi o‘yinda 14 ta pas bajarildi, SK 43%; Raqiblarning to‘p uzatishlari hajmi 25 ta, SK 52% ni tashkil etdi. Bu malumotlardan dalolat beradiki, O‘zbekiston U-20 jamoasi futbolchi qizlari raqib jarima maydonchasiga juda kam uzatmalar bergani, bu esa, umuman olganda, jamoaning hujumkor harakatlari samaradorligining pastligi bilan ajralib turadi.

Alohida raqib harakatlarining maksimal sonini "kesib tashlash" va raqib darvozasida golli vaziyatni yaratishga imkon beradigan "kesilgan uzatmalar" hajmi va samaradorligini tahlil qilishimiz kerak. O‘zbekiston terma

jamoasi futbolchi qizlari guruh saralash turniri o‘yinlarida atigi 4 ta shunday uzatmani yakunlab, umumiy SK 0% ni tashkil etgan. Xitoy Taypey va Koreя Respublikasi terma jamoa qizlariga qarshi o‘yinda atigi 2 ta harakat bajarilgan.

Jamoaning texnik-taktik harakatlarni bajarish samaradorligi va ishonchliligi yerda va havoda "to‘p uchun yakkakurashishlar" kabi ko‘rsatkich bilan ham belgilanadi. Ushbu o‘yin komponentining tahlili shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston terma jamoasi futbolchi qizlari o‘rtacha hisobda 253 marta maydonda "to‘p oli qo‘yish" harakatini bajargan, SK esa 37,3 % tashkil qilgan. Bu fakt shuni ko‘rsatadiki, ular har uchinchi yakkakurashishlarda mag‘lub bo‘lishadi. Raqib jamoa qizlarning SK ko‘rsatkichi ancha yuqori: Xitoy Taypey jamoasida 59%, Avstraliya jamoasida 62%; Shimoliy Koreya terma jamoasi qizlarida esa 67 % ni ko‘rish mumkun.

Raqib o‘yinchilarining maksimal sonini "kesib qo‘yish" va raqib darvozasiga golli vaziyat yaratish imkonini beradigan "o‘tish"larning hajmi va samaradorligini alohida tahlil qilish kerak. O‘zbekiston terma jamoasi futbolchilari guruh saralash o‘yinlarida atigi 4 ta shunday uzatmani amalga oshirishdi, SK ko‘rsatkichi 0%. Xitoy Taypey va Shimoliy Koreya terma jamoalariga qarshi o‘yinda atigi 2tadan uzatma amalga oshirildi.

Jamoa o‘yinchilari raqib maydonining uchdan bir qismida to‘pni egallab olish imkoniga ega bo‘lganda, ularning hujumini zarba berish ehtimoli 65% ni tashkil qiladi. To‘pni maydon markazida tanlash allaqachon zarba berish ehtimolini 25% gacha kamaytiradi. Agar to‘p uchinchisida tanlangan bo‘lsa, gol urish ehtimoli 10% gacha kamayadi.

Shunga o‘xshash uzatma samaradorlik rivojlanishi "havoda to‘p uchun kurashish"ni bajarishda kuzatildi. O‘zbekiston terma jamoasi futbolchi qizlari o‘rtacha 30,3 marta kirishgan bo‘lsa, o‘rtacha hisob SK 47,3% ni tashkil etdi. Xuddi shu ko‘rsatkich raqib jamoalar uchun biroz yuqoriroq edi: Shimoliy Koreя terma jamoasi - 62%; Avstraliya-54%. Faqat Xitoy Taypey jamoasi SK O‘zbekiston terma jamoasidan past bo‘ldi va 35% ni tashkil etdi.

Futbolchilarning erda va havoda to‘p uchun samarali yakkakurash olib borish qobiliyati bir qancha omillarga bog‘liq: maxsus jismoniy, texnik, taktik va psixologik tayyorgarlik darajasi. Mashg‘ulotlarning ushbu jihatlarini takomillashtirish o‘zbek futbolchi qizlariga to‘pni olib qo‘yishda o‘yin samaradorligini oshirish imkonini beradi.

O‘yin davomida samarali harakatlar bajarish quyidagi xususiyati raqibni aldab o‘tishdir. Kamida ikkita o‘yinchini aldab o‘tish harakati butun raqibning himoя tizimini yo‘q qilishga imkon beradi. O‘zbekiston terma jamoasi futbolchi qizlari har bir o‘yinda o‘rtacha 14,6 ta harakat bajardilar SK o‘rtacha 34% tashkil qildi. Raqiblar ushbu komponentda faolroq bo‘lishdi: Xitoy Taypey jamoasi O‘zbekiston terma jamoasiga qarshi o‘yinda 22 harakat bajardi SK - 59%; Avstraliya jamoa qizlarida – 58ta, SK esa 53%; va Shimoliy Koreya jamoasi – 67, SK 62% tashkil etdi.

Futbolchining pozitsiyani to‘g‘ri tanlashini tavsiflovchi to‘pni "erkin to‘pga egalik qilish" kabi ko‘rsatkichning tahlili shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek futbolchi qizlarining hajmi o‘rtacha 91,6, foizda esa 36,6% ni tashkil etdi. Raqib jamoalar uchun bu ko‘rsatkich quyidagicha edi: Xitoy Taypey terma jamoasi – 75, idoralar bilan-52%; Avstraliya-108, foizda-72% va Shimoliy Koreyada-92, foizlar bilan berilganda-66%. Raqib jamoaning futbolchilari ko‘pincha birinchi bo‘lib "erkin to‘pga egalik qilish" harakatini yutishdi.

O‘yinchi to‘g‘ri pozitsiyani tanlash orqaligina to‘pni “erkin to‘pga egalik qilish”ni yutishi mumkin, bu esa o‘z navbatida jamoaga jangovar nuqtai nazardan qo‘shimcha harakatlarsiz egalik qilishni va hujumni boshlash imkonini beradi va bu o‘yinni sezilarli darajada tezlashtiradi.

Jamoaning hujum harakatlarining ko‘rsatkichlaridan biri raqibning "jarima maydoniga olib kelingan hujumlari" dir. O‘zbekiston terma jamoa futbolchi qizlari tamonidan o‘rtacha 14,6 ta hujum uyushtirdi, ularning 16% gol urildi. Raqiblar esa hudda shunday hujumlarni quyidagicha amalga oshirdilar: Xitoy Taypey terma jamoasida-53ta, foizda ko‘rsatgich-37%; Avstraliya-77 ta harakat, foizda ko‘rsatgich-60%; Shimoliy Koreyada - 84 ta harakat, foizda ko‘rsatgich-58%.

Jamoaning hujum harakatlarining asosiy xususiyatlari-darvozaga zarbalar va urilgan gollar. O‘zbekiston terma jamoasi futbolchilari darvozaga atigi 8 ta zarba yo‘llashga muvofaq bo‘lgan, ulardan SK 10%, shundan: jarima maydoni yyonidan – 3 ta harakat , SK – 0%; jarima maydoni tashqarisidan – 5 ta zarba, SK 20% bilan belgilangan. Amalga oshirilgan zarbalar gol bilan yakullanmadi.

Raqib jamoalar 70 ta zarba amalga oshirdi, SK 49,6%ni tashkil etdi, ularning 17 tasi gol bilan yakunlandi. Ulardan jarima maydonidan-40 ta zarba, SK -50% va jarima maydoni tashqarisidan-30 ta zarba, SK -50%ni tashkil etdi.

Raqib jamoalar darbozaga 70 ta zarbani amalga oshirgan, SK - 49,6%, shundan 17 ta zarbasi golga aylantirilgan: jarima maydoni ichida – 40 zarba, SK - 50% tashkil etib va jarima maydonchasi tashqarisidan – 30 zarba berilgan, SK - 50%.

Olingan ma'lumotlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston terma jamoa futbolchi qizlarining himoyasi har doim ham samarali bo‘lmaganligini ko‘rish mumkin.

Xulosa va takliflar.

Malakali futbolchi qizlarning texnik-taktik harakatlari samaradorligi tahlili shuni ko‘rsatdiki, U-20 terma jamoa futbolchi qizlarining texnik-taktik tayyorgarligi darajasi zamon talablariga javob bermaydi. Asosiy o‘yin ko‘rsatkichlari bo‘yicha o‘zbek futbolchi qizlalari xorijlik sportchi qizlardan sezilarli darajada ortda qolmoqda, birinchi navbatda, o‘yin texnikasi qaror qabul

qilish uchun vaqt yetishmasligi bilan bajarilishi kerak bo‘lgan raqib bosimi ostida o‘yin texnikasini bajarish ishonchliligi bo‘yicha;

maxsus jismoniy tayyorgarlik darajasida va natijada o‘yin jarayonida harakat faoliyatlarining shiddatida;

o‘yin davomida charchoqning kuchayishi va konsentratsiyaning pasayishi natijasida yuzaga keladigan ko‘plab noto‘g‘ri texnik va taktik harakatlarda va hokazo.

O‘zbekiston terma jamoa qizlari hozircha Osiyo futbol Konfederatsiyasi tarkibiga kiruvchi jamoalarga munosib raqobat bera olmayotganligini ko‘rish mumkin.

Futbolchi qizlarning katta qismida sport mahoratining etarli darajada yuqori emasligi ko‘p jihatdan bir qancha omillarga bog‘liq: futbolchi qizlar uchun uzoq muddatli tayyorgarlik dasturining yo‘qligi; infratuzilmani rivojlantirishning past darajasi (sport maktablarda alohida qiz bolalar guruhlari, sport mashg‘ulotlari inshootlari va stadionlar); qizlar bilan ishlaydigan malakali murabbiylar shtabi va jihozlarining etishmasligi.

Ayollar futbolida nafaqat yuqori malakali sportchilar darajasida, balki yosh qizlar va o‘smirlar futbolida ham mashg‘ulotlar tizimini qayta ko‘rib chiqish zarur.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. Лю Ци. Физическая подготовка футболисток высшей квалификации в подготовительном периоде на основе использования статодинамических силовых упражнений и интервального метода тренировки. Автореф. дис.канд. …пед.наук. М., 2016. – 22 с.

2. Суворов В.В. Особенности соревновательной деятельности женских и мужских футбольных команд высокой квалификации /В.В. Суворов, Л.А. Якимова // Физическая культура, спорт – наука и практика. – 2017. № 3. С. 31 – 35.

3. Тропникова, Д. В. Повышение выносливости футболисток высокой квалификации в годичном цикле тренировки / Д. В. Тропникова // Мир спорта. – 2015. – № 1. – С. 90–92.

4. Черепанов П.П. Теория и практика в подготовке команды мастеров методическая разработка. Казань, 2012. - 252 с.

5. Юсупов Н. М. Педагогические основы и методика совершенствования скоростно-силовой подготовки футболисток высокой квалификации. Автореф. дис.канд. …пед.наук. Ташкент. 2018. – 26с.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Abdullayeva Ozoda Safibullayevna
Namangan muhandislik-qurirish instituti
Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
E-mail: ozoda.safibullayevna121620@gmail.com
Muxammadjonov Alijon Olimjonovich
Namangan davlat universiteti, tayanch doktorant
E-mail: alijon19920929@gmail.com

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TA'LIM DASTURLARIGA INTEGRATSIYALASH

Annotatsiya: *raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi butun dunyo bo'ylab mehnat bozorini va iqtisodiyotning turli tarmoqlarini jiddiy o'zgartirmoqda. Yangi texnologiyalar, avtomatlashtirish, sun'iy intellekt (SI), ma'lumotlarni tahlil qilish va boshqa raqamli innovatsiyalar ishchi kuchining talablarini, kasblarni va malakalarni yangilab, ish o'rinlari va ta'lim tizimining o'zgarishiga olib kelmoqda. Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar va iqtisodiy inqilobning mehnat bozoriga, xususan, ta'lim xizmatlariga ta'siri o'rganiladi.*

Kalit so'zlar: *mehnat bozori, ta'lim dasturlarini moslashtirish, kasbiy faoliyat, raqamli ko'nikmalar, o'qitish metodikasi.*

Абдуллаева Озода Сафибуллаевна
Наманганский инженерно-строительный институт
доктор педагогических наук (DSc), профессор
Мухаммаджонов Алижон Олимжонович
Наманганский государственный университет, докторант

ИНТЕГРАЦИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ПРОГРАММЫ

Аннотация: *развитие цифровой экономики серьезно меняет рынок труда и различные отрасли экономики во всем мире. Новые технологии, автоматизация, искусственный интеллект (ИИ), анализ данных и другие цифровые инновации меняют спрос, профессии и навыки рабочей силы, трансформируя рабочие места и образование. В данной статье рассматривается влияние цифровых технологий и экономической революции на рынок труда, в частности на образовательные услуги.*

Ключевые слова: *рынок труда, адаптация образовательных программ, профессиональная деятельность, цифровые навыки, методика обучения.*

Abdullaeva Ozoda Safibullaevna
Namangan Engineering - Construction Institute
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Mukhammadjonov Alijon Olimjonovich
Namangan State University, PhD student

INTEGRATION OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN EDUCATIONAL PROGRAMS

Abstract: *the development of the digital economy is seriously changing the labor market and various sectors of the economy around the world. New technologies, automation, artificial intelligence (AI), data analytics, and other digital innovations are reshaping workforce demands, occupations, and skills, transforming jobs and education. This article examines the impact of digital technologies and the economic revolution on the labor market, particularly on education services.*

Key words: *labor market, adaptation of educational programs, professional activity, digital skills, teaching methodology.*

Kirish.

Ta'lim dasturlarini raqamli iqtisodiyot va mehnat bozori talablariga moslashtirish, bitiruvchilarning raqobatbardoshligini ta'minlash hamda ta'lim jarayonining ish beruvchilarning haqiqiy ehtiyojlariga javob berishini kafolatlashning asosiy maqsadi

hisoblanadi. Texnologiyalarning tez rivojlanishi va iqtisodiyotdagi o‘zgarishlar, ayniqsa raqamlashtirish sohasida, ta’lim muassasalarini mehnat bozori talablariga moslashuvchan tarzda rivojlantirishni taqozo etadi. Raqamli texnologiyalar bugungi kunda kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylangan bo‘lsada, kelajakda muvaffaqiyatga erishish uchun nafaqat ushbu texnologiyalarni ishlatish, balki ularning iqtisodiyot va jamiyatdagi o‘zgarishlarni qanday shakllantirayotganini chuqur tushunish zarur. Hozirgi texnologik yutuqlardan unumli foydalanish uchun ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishning yangi davrini shakllantirayotgan asosiy tamoyillarni tushunish muhim ahamiyatga ega.

Muhtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan respublikamizda raqamli ta’limni oshirish bo‘yicha “Ta’lim tizimining barcha bosqichlarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va zamonaviy iqtisodiyot uchun zarur bo‘lgan raqamli bilimlarning darajasini oshirish, ta’lim infratuzilmasini takomillashtirish, shuningdek, “Besh tashabbus” loyihasini amalga oshirish doirasida 2024-yilga qadar respublikaning barcha hududlarida raqamli bilimlarga o‘qitish markazlarini ochish” haqida qaror qabul qilindi [1].

Zamonaviy ta’lim jarayoni raqamli texnologiyalarni faol qo‘llash orqali yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Bugungi kunda globallashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlarni talab qilmoqda. Raqamli texnologiyalarni ta’lim dasturlariga integratsiyalash nafaqat o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi, balki talabalarning ijodkorligi, tanqidiy fikrlashi va kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, pandemiya davrida masofaviy ta’lim platformalarining keng qo‘llanilishi raqamli texnologiyalarning ta’lim tizimidagi ahamiyatini yanada oshirdi. Xususan, bu texnologiyalar o‘quv materiallarini yaratish va yetkazib berish, interaktiv muhitni shakllantirish va ta’lim oluvchilarning individual ehtiyojlariga moslashish imkonini berdi. Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarni ta’lim dasturlariga integratsiyalashning ahamiyati, uning samarali usullari va mazkur jarayonning zamonaviy ta’lim muhitiga ko‘rsatadigan ta’siri keng tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili.

Zamonaviy raqamli texnologiyalarni ta’lim dasturlariga integratsiya qilish masalalari bilan yurtimizda ko‘plab pedagog olimlar nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borgan. Masalan, Begimqulov U.Sh, Azizxo‘jayeva N.N, Qamarov M.S, **Ummatillayeva M.U,** Usmonov M.S, Beknazarova S.S, Abdullayeva Z.M, Anarbayeva S.G‘ va boshqalar o‘zlarining darslik, o‘quv qo‘llanma, maqola, tezis kabi ilmiy ishlarida yuqoridagi mavzu doirasida Raqamli texnologiyalarni boshlang‘ich, o‘rta, oliy ta’lim tizimida ta’lim dasturlari bilan integratsiyalashuvida uning roli, mazmun-mohiyati, qo‘llanilishi haqida ko‘plab fikr-mulohaza hamda ilmiy-amaliy tadqiqot natijalari bilan tanishish mumkin bo‘ladi[2]. Tadqiqotlar raqamli texnologiyalardan foydalanishga asoslangan ta’lim jarayoning mahsuli a’anaviy tarzdagi ta’lim jarayonining mahsulidan ko‘ra samarali bo‘lishini ko‘rsatmoqda.

Zamonaviy axborot texnologiyalari asosida raqamli texnologiyalardan foydalanish har bir fanni chuqur o‘qitishga, o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlarining ortishiga olib keladi. Raqamli texnologiyalardan foydalanish bu birgina ta’lim jarayonining yaxshilanishigina emas, balki, ishbilarmonlik, sanoat ob’ektlarini sifatli boshqarish, sifatli va tezkor xizmatlar ko‘rsatish, raqobatbardosh iqtisodiyot sohalari ham deganidir[4,5,8].

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu ilmiy maqolada raqamli texnologiyalarni ta’lim dasturlariga integratsiyalashning ilmiy-amaliy ahamiyati va zaruriy tamoyillarini o‘rganish muhokama qilinadi. Ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning raqamli texnologiyalar bo‘yicha savodxonligini oshirish, kreativ fikrlash qobilyatini rivojlantirish, hamda ijodiy kommunikativ ko‘nikmalarini raqamli texnologiyalarga asoslangan interfaol ta’lim metodlaridan va vositalardan foydalanish orqali rivojlantirish kabi yondashuvlar bayon qilinadi.

Tahlil va natijalar.

Boshqa mamlakatlardagi kabi O‘zbekistonda ham raqamli iqtisodiyotning o‘ziga xos xususiyatlarini belgilovchi asosiy omillardan biri bu raqamli platformalarni faol joriy etish, katta ma’lumotlardan (Big Data) foydalanish, shuningdek, davlat uchun yangi imkoniyatlar yaratuvchi yangi texnologiyalarni ishlab chiqishdir[3]. O‘zbekistonda raqamlashtirish uchun infratuzilma yaratish va bu o‘zgarishlardan maksimal darajada foydalanishga e’tibor qaratilmoqda. 2024-yilgi statistik ma’lumotlarga ko‘ra, mamlakat aholisining 80% dan ortig‘i internetdan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lgan, bu raqamli infratuzilma kengayganligi va aloqaning yaxshilanganidan dalolat beradi; mamlakat aholisining 90% dan ortig‘i mobil telefonlardan foydalangan, 4G va 5G texnologiyalarini joriy etish jarayoni ham davom etmoqda; Mamlakatning raqamli infratuzilmasi sezilarli darajada yaxshilandi, katta miqdorda resurslar kiritildi, bu AKT infratuzilmasini takomillashtirish uchun mustahkam poydevor yaratdi, buning natijasida, O‘zbekiston Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, axborot sohasida va 2023-2024 yillarga mo‘ljallangan aloqa, yalpi qo‘shilgan qiymat 2 barobardan ortiq o‘sib, 11,8 trillion so‘mga yetgnini ko‘rish mumkin[7,9].

Kasb-hunar ta’limi sohasida institutsional yaxlitlikni ta’minlash va boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish maqsadida xalqaro ta’lim dasturlarini joriy etish, shuningdek, ichki va tashqi talablarga javob beradigan raqobatbardosh o‘rta bo‘g‘in kadrlarini tayyorlash tizimini

isloh qilish, ichki va tashqi mehnat bozori talablariga javob berish maqsadida Muhtaram Prezidentimizning 2024-yil 16-oktabrdagi “Kasb-hunar ta’limi tizimida malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta’lim dasturlarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni qabul qilinib uning asosida kasb-hunar ta’limi tizimini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilab: ta’limning barcha bosqichlarida kadrlar tayyorlashni ta’minlaydigan ko‘p tarmoqli ta’lim muassasalarining yagona tizimini joriy etish, OTM larning akademik mustaqilligini ta’minlash va ularning iqtisodiyot tarmoqlari talablariga javob beradigan kadrlar tayyorlash imkoniyatlarini kengaytirish, ta’limda zamonaviy boshqaruv tizimini joriy etish, manfaatdor vazirlik va idoralarni o‘rta bo‘g‘in kadrlarini tayyorlash jarayoniga keng jalb etish, xalqaro tajribalardan unumli foydalanish elektron o‘qitish platformalarini joriy etish, ta’lim oluvchilarni yangi o‘quv adabiyotlar bilan ta’minlash, ularning laboratoriya va ustaxonalarini eng zamonaviy jihozlar bilan jihozlash kabi ko‘plab dolzarb masalalar belgilangan[10,11].

O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyoti turli sohalarda samaradorlikni oshirish uchun Big Data tizimidan foydalanishni faol rivojlantirmoqda. Ta’lim sohasidagi katta ma’lumotlarning namunasi talabalarning o‘quv natijalarini tahlil qilish, ularning muvaffaqiyatlari va muammolarini baholash va har bir talabaning ehtiyojlariga moslashtirilishi mumkin bo‘lgan shaxsiylashtirilgan ta’lim yo‘nalishlarini ishlab chiqish imkonini beradi. O‘zbekistondagi oliy ta’lim muassasalari talabalarning davomati, baholari va faolligi ma’lumotlarini tahlil qiluvchi HEMIS kabi platformalardan o‘qituvchilarga qaysi talabalarning akademik qiyinchiliklarga duch kelayotgani haqida ma’lumot berish uchun allaqachon foydalanmoqda[12,13].

Katta ma’lumotlardan foydalangan holda ta’lim dasturlarini optimallashtirish qaysi o‘quv dasturlari va kurslari talabga ega ekanligini, shuningdek, qaysi o‘qitish usullari eng samarali ekanligini aniqroq baholash imkonini beradi. Talabalarning xohish-istaklari, bitiruvchilarning ishga joylashishi va o‘quv rejalarining muvaffaqiyati haqidagi ma’lumotlarni tahlil qilish orqali o‘quv dasturlarini moslashtirish va takomillashtirish, ularni yanada dolzarb va mehnat bozori talablariga muvofiqlashtirish mumkin. Misol: O‘zbekistondagi “EdTech” ma’lumotlar tahlili platformalari talabalar qaysi kurslarni ko‘proq o‘tashlari, qanday ko‘nikmalarni rivojlantirishlari va qaysi kurslarda muvaffaqiyat qozonishlari haqida ma’lumot to‘plashi mumkin. Bu ta’lim muassasalarini o‘quv dasturlarini moslashtirish va ularni joriy bozor ehtiyojlariga moslashtirish uchun ma’lumot beradi[9,11].

Bitiruvchilarning ishga joylashish ma’lumotlari tahlili, shuningdek, bitiruvchilarning kasbiy yo‘llarini tahlil qilish uchun ham qo‘llaniladi, bu esa ta’lim muassasalariga ma’lum mutaxassisliklarga bo‘lgan talabni yanada aniqroq baholash va o‘quv dasturlarini mehnat bozori tendentsiyalariga moslashtirish imkonini beradi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bitiruvchilarni ish bilan ta’minlash to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘plash bo‘yicha loyihalarni ishlab chiqmoqda, bu nafaqat ta’lim dasturlari muvaffaqiyatini baholash, balki yangi kurslarni yaratish uchun ma’lumot beradi va ish beruvchilar talablariga javob beradigan ta’lim yo‘nalishlari[12].

Raqamli iqtisodiyotning muhim jihati shundaki, u geografik to‘siqlarni yengib o‘tadi. Shaharlar va chekka hududlar o‘rtasida raqamlashtirish darajasida sezilarli farq mavjud bo‘lgan O‘zbekiston sharoitida raqamlashtirish ta’lim xizmatlaridan teng foydalanishni ta’minlashning asosiy vositasiga aylanishi mumkin. 2020-yilda O‘zbekistonda maktab o‘quvchilari va talabalari uchun onlayn kurslarni ishlab chiqishni o‘z ichiga oluvchi “Raqamli ta’lim” tizimini yaratish loyihasi ishga tushirildi, bu esa mamlakatimizning chekka hududlarida sifatli ta’lim olish imkonini beradi[14].

Yangi texnologiyalar va raqamlashtirish iqtisodiyot tuzilmasini sezilarli darajada o‘zgartirishi mumkin bo‘lgan innovatsion mahsulot va xizmatlarni yaratish uchun asos bo‘lmoqda. O‘zbekistonda davlat tashabbuslari bilan qo‘llab-quvvatlanayotgan startaplar faol rivojlanib, sanoatning turli tarmoqlarida innovatsion loyihalar hayotga tatbiq etilayotgani butun iqtisodiyot rivojiga xizmat qilmoqda. O‘zbekistonda startaplar va innovatsion kompaniyalar yangi raqamli yechimlar ustida ishlashi mumkin bo‘lgan IT-parklar tashkil etildi. Bu joy sarmoyadorlar va mutaxassislarni jalb etib, yuqori texnologiyali korxonalarni rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratmoqda[15].

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda buyumlar internet texnologiyalari (IoT), sun’iy intellekt (AI) va blokcheyn texnologiyalari faol rivojlanmoqda, bu ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda. Ushbu texnologiyalarni qo‘llash boshqaruv jarayonlarini yaxshilash va turli sohalarda xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishga yordam beradi[12].

Raqamlashtirish va avtomatlashtirish ish jarayonlarini tubdan o‘zgartirib, bandlikning yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda, shuningdek, ishchilarning malaka talablariga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Ishchilar har doim o‘zgarishlarga moslashishga tayyor bo‘lishi zarur, chunki yangi texnologiyalar — sun’iy intellekt, blokcheyn, robototexnika va mobil platformalar global mehnat bozori manzarasini o‘zgartirishni davom ettirmoqda.

Raqamlashtirish va avtomatlashtirish natijasida mehnat bozoridagi doimiy o‘zgarishlarga mos ravishda kadrlar tayyorlash va kasbiy qayta tayyorlashga bo‘lgan yondashuvni yangilash zarur. Oliy ta’limda an'anaviy o‘qitish usullari asosida shakllantirilgan ko‘nikmalar faqat mehnat faoliyatining ayrim qismlarida qo‘llanilishi

mumkin, ammo ular zamonaviy iqtisodiyot talablariga to‘liq javob bermaydi. Chunki ish ko‘nikmalari juda tez eskiradi. Shu sababli, kelajakdagi mutaxassislarning o‘zgarishlarga samarali moslashishi uchun kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini yangilash zarur.

Birinchidan, ta’lim dasturlarining moslashuvchanligi muhim ahamiyatga ega. Ular texnologiyalar va amaliyotlarning tez o‘zgarishiga mos ravishda yangilanishi kerak. Mavjud bozor talablariga mos keladigan malakalarni o‘quv dasturiga tezda kiritish, masalan, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, ma'lumotlar ko‘nikmalarini o‘rgatish va raqamli texnologiyalarga e’tibor qaratish lozim.

Ikkinchidan, ta’lim muassasalarining hozirgi va kelajakdagi malaka ehtiyojlarini tushunish uchun sanoat va ish beruvchilar bilan faol hamkorlik qilish zarur. Masalan, qo‘shma ishlab chiqarish ta’lim muassasalari real ishlab chiqarish ehtiyojlarini hisobga olgan holda malaka oshirish kurslarini ishlab chiqishi, talabalar esa amaliyot o‘tash orqali mehnat bozoriga tayyorlanishlari kerak.

Uchinchidan, kadrlar tayyorlashda raqamli va texnik ko‘nikmalarni rivojlantirish asosiy o‘rin tutadi. Bu nafaqat aniq texnologiyalarni o‘rganish, balki yangi vositalarga moslashish va innovatsiyalarni tezda o‘zlashtirish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi. Kelajakdagi ishchilar sun’iy intellekt, katta ma'lumotlar tahlili, mashina o‘rganish va dasturlash asoslari bilan ishlashga tayyor bo‘lishi kerak.

To‘rtinchidan, texnik va raqamli bilimlardan tashqari, ishchilar "yumshoq" ko‘nikmalarni, masalan, muloqot, etakchilik, ijodkorlik, jamoada ishlash va nizolarni hal qilish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishi kerak. Globallashuv, moslashuvchan ish soatlari va ko‘p vazifalilik sharoitida bu ko‘nikmalar yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xulosalar.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, bugun O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyoti raqamli platformalar, katta ma’lumotlar, yangi texnologiyalarni joriy etish va raqamli infratuzilmani rivojlantirish asosida o‘sib bormoqda. Bu o‘zgarishlar iqtisodiyotning turli tarmoqlarining samaradorligini oshirib, aholi turmush sifatini yaxshilashga, kelajakda barqaror o‘sishni ta’minlashga yordam beradi. Mehnat bozoridagi o‘zgarishlarga tayyor bo‘lish va yangi sharoitlarga moslashish uchun kadrlar tayyorlash va kasbiy qayta tayyorlash tizimini o‘zgartirish zarur. “Bilimlarni bir martalik yuklab olish” modelidan ko‘ra, kasbiy hayot davomida bilim va ko‘nikmalarni doimiy ravishda yangilashga yo‘naltirilgan tizimni yaratish lozim. Ta’lim dasturlarining moslashuvchanligi, sanoat bilan hamkorlik va texnik hamda ijodiy ko‘nikmalarni rivojlantirish eng muhim omillar bo‘ladi deb hisoblash to‘g‘ri bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4699-sonli Qarori (Manba: https://lex.uz/docs/4800657).

2. Safibullaevna, A. O., Engalichev, M. I., & Safibullaevna, B. S. (2020, November). Online-learning organization methodology as component of it technologies at students of technical universities. In *2020 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT)* (pp. 1-6). IEEE.

3. Safibullayevna, A. O. (2023). Intelektual axborot bilimlar tizimini xususiyatlari, belgilari va imkoniyatlari. *IJODKOR O‘QITUVCHI*, *3*(28), 121-126.

4. Abdullayeva, O. S., & Muhammadjonov, A. O. (2023, September). Modeling the Development of Department Activities in Higher Education Institutions: Enhancing the Management System with Quantum Communication and Cryptography%. In *2023 International Conference on Sustainable Emerging Innovations in Engineering and Technology (ICSEIET)* (pp. 588-591). IEEE.

5. Safibullaevna, A. O., & Azamxonov, B. S. (2024). TECHNOLOGY OF CREATION AND APPLICATION OF AN INTELLIGENT INFORMATION SYSTEM. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, *5*(01), 31-38.

6. Ozoda, A., & Azamxonov, B. S. (2023). MEANS OF ORGANIZING AN INTELLIGENT INFORMATION SYSTEM. *Innovations in Technology and Science Education*, *2*(17), 438-449.

7. Safibullaevna, A. O. (2022). Foreign experience in the preparation of master's programs aimed at the development of information and management competences. *Current research journal of pedagogics*, *3*(03), 41-47.

8. Абдуллаева, О. С. (2015). Анализ учебно-воспитательной деятельности учащихся в процессе изучения дисциплины" Информатика и информационные технологии". *Молодой ученый*, (12), 687-690.

9. Абдуллаева, О. С. (2016). Формирование и развитие педагогических способностей в процессе непрерывного образования. *Евразийский союз ученых*, (3-2 (24)), 91-92.

10. Абдуллаева, О. С. (2014). Современное состояние подготовки будущих учителей информатики к педагогической деятельности. *Современное образование (Узбекистан)*, (10), 34-39.

11. Абдуллаева, О. С. (2016). Измерительный инструмент (индикаторы) для определения готовности студентов ВУЗа к педагогической деятельности. *Современное образование (Узбекистан)*, (6), 26-33.

12. Абдуллаева, О. С. (2015). Формирование умений и навыков у учащихся средних специальных профессиональных образовательных учреждений. *Дистанционное и виртуальное обучение*, (3), 99-106.

13. АБДУЛЛАЕВА, О. (2024). ЦИФРОВЫЕ МЕТОДЫ СОЗДАНИИ ДИНАМИЧЕСКОГО САЙТА ДЛЯ ВОУ. *News of the NUUz*, *1*(1.9. 1), 63-67.

14. Abdullayeva, O., & Shermatova, M. (2024). THE SOCIO-PEDAGOGICAL NECESSITY OF IMPROVING THE SUGGESTIVE ABILITIES OF FUTURE TEACHERS OF PEDAGOGICAL SCIENCE. *Science and innovation*, *3*(B10), 52-56.

15. Safibullayevna, A. O. (2024). The Importance Of The Use Of Trainings, Methods, And Tools In The Training Of Future Preschool Educational Organizations In The Use Of Pedagogical-Psychological Characteristics Of Training Teachers. *American Journal of Advanced Scientific Research*, *1*(8), 69-71.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Kilicheva Dildora Ismailjonovna
Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti,
"Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" kafedrasi katta o'qituvchisi
e-mail: k.d.i.77@mail.ru

BARQAROR RIVOJLANISHNING ASOSIY KONSEPSIYASI TALABLARI ASOSIDA EKOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Annotasiya. *Maqolada barqaror rivojlanish strategiyasining mazmun-mohiyati, asosiy yo'nalishlari va maqsadlari to'g'risida tahliliy materiallar hamda unda ekologik barqarorlikni ta'minlash yo'nalishining tutgan o'rni keltirilgan. Ekologik barqarorlikni ta'minlash g'oyasi bilan akademik M.M.Moiseev fikrlari o'rtasidagi tafovutlar, noosfera va uning mazmuni yoritilgan. Ekologik barqarorlikni ta'minlashdagi asosiy vazifalardan biri bo'lajak mutaxassislarda ekologik madaniyatni rivojlantirish zarurligi va ahamiyati asoslangan. Ekologik madaniyatni rivojlantirish metodikasi, uning asosiy yo'nalishlari hamda amaliy metodlari aniqlangan.*

Tayanch so'zlar: *barqaror, rivojlanish, strategiya, noosfera, ekologik ta'lim, ekologik madaniyat, metodika.*

Киличева Дилдора Исмаилджоновна
Старший преподаватель кафедры экологии и охраны окружающей среды
Каршинского инженерно-экономического института

МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ НА ОСНОВЕ ТРЕБОВАНИЙ СТРАТЕГИИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ

Аннотация. *В статье представлены аналитические материалы о сущности, основных направлениях и целях стратегии устойчивого развития, а также месте в ней обеспечения экологической устойчивости. Выделены отличия идеи обеспечения экологической устойчивости от идей академика М.М. Моисеева о ноосфере и ее содержании. Одной из основных задач обеспечения экологической устойчивости является необходимость и важность формирования экологической культуры у будущих специалистов. Определены методология формирования экологической культуры, ее основные направления и практические методы.*

Ключевые слова: *устойчивое, развитие, стратегия, ноосфера, экологическое образование, экологическая культура, методология.*

Kilicheva Dildora Ismailjonovna
Senior lecturer at the Department of Ecology and Environmental Protection
at the Karshin Institute of Engineering and Economics

METHODOLOGY FORMIROVANIYA ECOLOGICAL CULTURE NA OSNOVE TRAINING STRATEGII USTOYCHIVOGO RAZVITIYA

Abstract. *The article presents analytical materials on the essence, main directions and objectives of the sustainable development strategy, as well as the place of environmental sustainability in it. The differences between the idea of environmental sustainability and the ideas of academician M.M. Moiseyev about the noosphere and its content are highlighted. One of the main tasks of ensuring environmental sustainability is the need and importance of forming an environmental culture in future specialists. The methodology for forming an environmental culture, its main directions and practical methods are defined.*

Keywords: *sustainable, development, strategy, noosphere, environmental education, environmental culture, methodology.*

Kirish.

Barqaror rivojlanish strategiyasi – bu davlat, jamiyat va iqtisodiyotning o'zaro bog'liqligini hisobga olgan holda, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlarning barqarorligini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan uzuq muddatli reja va chora-tadbirlar majmuidir. Bu strategiyaning asosiy maqsadi – bugungi avlodning ehtiyojlarini qondirish bilan birga, kelajak avlodlarning ehtiyojlarini qondirish imkoniyatini himoya qilishdir. Barqaror rivojlanish strategiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri ekologik

barqarorlikni ta'minlash hisoblanadi. Bu maqsad asosan tabiiy resurslarni oqilona va samarali foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish va ifloslanishni kamaytirish, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish kabi yo'nalishlardan iborat bo'lib, uning asosiy maqsadi yer yuzida ekologik muvozanatni va ekologik barqarorlikni saqlashga, ya'ni tabiatni muhofaza qilish va kelajak avlodlar uchun yashash uchun qulay sharoit yaratishga qaratilgandir. Yuqoridagilarni hisobga olib, barqaror rivojlanish strategiyasi – bu davlatning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlarning uyg'unligini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan uzuq muddatli rejadir va uning asosiy maqsadi – bugungi avlodning ehtiyojlarini qondirish bilan birga, kelajak avlodlarning ehtiyojlarini himoya qilishdir deb ta'rif berishimiz mumkin.

Tadqiqot metodlari.

Tadqiqotda analitik, bashoratlash, qiyosiy-taqqoslash va statistik tahlil metodlari hamda empirik metodlar: anketalar, kuzatish, test so'rovlari, suhbatlar, tugallanmagan fikrlar, tajriba sinov natijalari tahlili kabilardan foydalanildi

Natijalar va muhokamalar.

Kelgusi avlod qobiliyatini saqlab qolgan holda inson o'z ehtiyojlarini va talablarini qondira oladigan darajada kuzatiladigan rivojlanishni barqaror rivojlanish deyiladi. Tashqi muhit va ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishni bir-biridan ajratgan holda alohida qaramaslikni his etish barqaror rivojlanish konsepsiyasining asosini tashkil etadi. Demak, ana shu nuqtai nazardan qaralganda sog'lom ijtimoiy – iqtisodiy muhitda sog'lom tashqi muhit mavjud bo'ladi. Birlashgan millatlar tashkilotining (KOONOSR) asosiy hujjatlari bo'lmish «XXI asr kun tartibi» da barqaror rivojlanishni kelgusida ta'minlaydigan keng ko'lamdagi masalalar ko'zda tutilgan. Ana shunday masalalarga iqlim o'zgarishining oldini olish, cho'llashishga qarshi kurashish, ekologik ta'limni kuchaytirish, turli xil ekologik uyushmalar ishlari kabilar kiradi. Ekologik muammolarni hal etishda inson faoliyati bilan bog'liq bo'lgan barcha masalalarning muhimliligini nazarda tutmoq zarur. Bu sanoat va qishloq xo'jaligida ishlatiladigan texnologiya, qashshoqlikka qarshi kurashish, ehtiyojlar tizimini o'zgartirish, doimiy yashaydigan uy joylarni ko'paytirish, har xil toifadagi aholining atrof muhitni muhofaza qilish sohasidagi rolini rivojlantirish talab etiladi. Barqaror rivojlanish strategiyasida bu kabi masalalar 4 ta bo'limga birlashtirilgan: harakat dasturi; ijtimoiy-iqtisodiy aspektlar; aholining rolini kuchaytirish; bajarish vositalari.

Birlashgan millatlar tashkiloti barqaror rivojlanishni e'lon qilib barcha davlatlardan shu konsepsiyalar asosida o'zlarining milliy barqaror rivojlanish kotsepsiyalarini qabul qilishini so'ragan va hozirgi kunda ko'pchilik davlatlar, shu jumladan bizning respublikamizda ham shunday konsepsiyalar qabul qilingan. Bu O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 21 fevraldagi "2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi VM-83-son qarorida o'z ifodasini topgan [1].

Akademik M.M.Moiseev barqaror rivojlanish konsepsiyasiga nisbatan biroz boshqa fikrlarni olg'a suradi. Uning fikricha hozirgi kunda va bundan keyingi yaqin yillarda ham barqaror rivojlanishni rejalashtirish qiyin masala. Chunki, barqaror rivojlanishga qarab faoliyat yuritish hozirgi ekologik holatni oddiylashtiradi, insonlarning ekologik muammolarining naqadar murakkab ekanligini sezmaslikka, ularni yechish yo'llarini topishda qiyinchiliklarga to'g'ri kelishlari mumkinligini ta'kidlaydi.

Hozirgi kunda umumiy ekologik xarakterga ega bo'lgan va yechimini hal qilishini talab etadigan muammolarga V.V.Vernadskiyning noosfera to'g'risidagi barqaror rivojlanish konsepsiyalari, ekologik muammolarga bag'ishlangan xalqaro shartnomalar va shu kabilar kiradi [2].

Noosfera tushunchasi fransuz olimlari E.Lirua va P.Teyyara, De Shardenalar tomonidan fanga kiritilgan bo'lib, aqlli qatlam (sfera) ma'nosini anglatadi. Keyinchalik bu tushunchani akademik V.I.Vernadskiy rivojlantirib "noosfera bu biosferaning qonuniy asosida rivojlangan bir davri bo'lib, bu rivojlanishda inson asosiy belgilovchi rolni o'ynaydi" deb ta'kidlaydi. Noosferaning mohiyati inson faoliyati bilan bog'liq va noosferadagi hozirgi ekologik vaziyat insonlarning aqliy ta'siri oqibatida vujudga kelgan. Boshqa olimlarning ta'kidlashicha, biosfera shunday rivojlanish darajasiga borib yetdiki, unda bo'lib o'tadigan jarayonlar inson yordamida boshqariladi. Akademik V.I.Vernadskiy fikricha inson o'ziga kerakli mahsulotlar va shunga o'xshash boshqa moddiy boyliklarni biosferadagi tabiiy jarayonlarga kamroq aralashgan holda olishni o'rganishi lozim.

Yuqorida aytilganlardan ko'rinib turibdiki, V.I.Vernadskiy biosferaning o'rniga keladigan noosferaning asosiy konturlarini belgilab bergan xolos. Biosferadan noosferaga o'tish mexanizmi va noosfera atamasining o'zi hali to'lig'incha yoritib berilmagan. Noosfera to'g'risidagi tushunchalarning asosiy mazmuni N.N.Moiseev tomonidan rivojlantirilgan va ular quyidagilardan iborat:

1. Noosferagacha uzoq muddat davrda noosfera oldi davr bo'lib o'tadi. Bu davrda insoniyat biosferada mavjud bo'lgan qonuniyatlarni tushunib yetishi lozim va u biosferada bo'ladigan jarayonlarda o'z o'rnini topa bilishi kerak. Hozir aynan ana shunday davr hisoblanadi.
2. Noosfera oldi davrida insoniyat tabiatni o'ziga bo'ysindirish va shu kabi tushunchalardan voz kechishi lozim. Milliard yillar maboynida mavjud bo'lgan planetamizdagi hayotni asrash, uni toza saqlash va kelgusi avlodlarga obod va toza holda saqlash kabi ma'suliyatli

vazifa (insoniyat) yelkasida turganligini anglab yetishi lozim.

3. Insonning barcha hayotiy faoliyatida ekologiyaning barqarorligini saqlashda xalqaro ekologik yoki noosferalik tashkilotlarni, institutlarni tuzish xalqaro ekologik huquqlarni yaratishdir.


4. Tabiatga zarar keltiruvchi, ekologik muhitni buzuvchi inson faoliyatining ba'zi bir qirralarini man etadigan qarorlar ham qabul qilinishi lozim. Ya'ni N.N.Moiseevning ta'biri bilan aytganda insonlar rivojlanishni tabiat bilan kompleks holda olib borishi kerak.

Albatta, ekologik muommolarni yechishda ekologik bilimlar, kishilarning hoxishi yoki man etadigan qarorlar yetarli darajada bo'ladi deb hisoblash noto'g'ri. Bu yuqorida aytilgan tadbir choralar bilan bir qatorda ekologik muhitni sog'lomlashtirishning asosiy mezonlaridan biri haqiqiy madaniy insonni tarbiyalash, shaxs, jamiyat va tabiatning garmoniyasini taminlash lozim [3,4]. Bu vazifa ta'lim tizimining barcha turlarida ekologik bilimlarni oshirishga qaratilgan fanlarni o'qitish metodikasini takomillashtirishni talab etadi.

Ekologik madaniyatni rivojlantirish metodikasi – bu atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiat bilan uyg'un yashash va ekologik ongni shakllantirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Bu metodika aholining ekologik madaniyatini oshirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishning asosiy vositalarini belgilaydi [5,6]. Ekologik madaniyatni rivojlantirish metodikasining asosiy yo'nalishlariga ekologik ta'lim va tarbiya (maktab, litsey va kollejlarda ekologik fanini joriy etish, talabalar va yoshlar uchun ekologik lagerlar, seminarlar va treninglar tashkil etish, ekologik madaniyatga oid kitoblar, qo'llanmalar va videolar tayyorlash); ekologik ongni oshirish (aholining ekologik madaniyatini oshirish bo'yicha ommaviy kampaniyalar o'tkazish, matbuot, televidenie va internet vositalari orqali ekologik masalalarga e'tiborni tortish, ekologik madaniyatga oid aksiyalar, konkurslar va festivallar tashkil etish); ekologik toza texnologiyalarni joriy etish (chiqindilarni qayta ishlash va ulardan foydalanishni rivojlantirish, qayta tiklanadigan energiya manbalarini (quyosh, shamol, suv energiyasi) joriy etish, ekologik toza transport vositalarini rivojlantirish); huquqiy bazani takomillashtirish (atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha qonunlarni takomillashtirish, ekologik normalar va me'yorlarni rivojlantirish, ekologik jinoyatlarga nisbatan javobgarlikni kuchlantirish); ijtimoiy hamkorlik (davlat, NNO va xususiy sektorning ekologik masalalar bo'yicha hamkorligini rivojlantirish, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda ekologik loyihalarni amalga oshirish); ekologik monitoring va nazorat (atrof-muhitning holatini doimiy ravishda ko'rib borish, ekologik tahlil va hisobotlarni tayyorlash, ekologik jinoyatlarni aniqlash va ularga qarshi kurashish) dan iborat [7,8,9].

Ekologik madaniyatni rivojlantirish qo'yidagilar bilan uzviy bog'liq holda amalga oshiriladi (rasmga qarang):

- ta'lim va tarbiyada ekologik ta'limga katta e'tibor qaratish;
- innovatsion texnologiyalarni tadbiq etish; texnika va texnologiyalarni takomillashtirish sohasida ekologik toza yechimlarni ishlab chiqish;
- atrof muhitni muhofaza qilish standartlariga rioya qilish;
- xalqaro hamkorlik va rivojlangan davlatlar tajribasidan foydalanish.



Bo'lajak muhandislarda ekologik madaniyatni rivojlantirish komponentlari

Bo‘lajak muhandislarning ekologik madaniyatini rivojlantirish qo‘yidagi vazifalarni hal qilishga yo‘naltirilishi lozim:

- yangi texnika va texnologiyalarni loyihalash va ishlab chiqishda ekologik talablarni hisobga olish asosida atrof-muhitni muhofaza qilishni ta’minlash;
- ekologik toza texnologiyalarni ishlab chiqarishga tadbiq etish orqali barqaror rivojlanishni ta’minlash;
- eng yangi raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt va robotlarga asoslangan texnologiyalar loyihalarini ishlab chiqish natijasida barqaror rivojlanishni ta’minlashga ijobiy ta’sir etish.

Hozirgi kunda ekologik xavf tobora kengayib, yer yuzidagi barcha mamlakatlarning umumiy gloabl muammosiga aylanmoqda. Jamiyat va texnikaning tezkor rivojlanishi natijasida yuzaga kelayotgan muammolar texnika oliy ta’lim muassasalarida muhandislar tayyorlash jarayonini ijtimoiy va gumanitar yondoshuvlar asosida tashkil etishni talab qilmoqda.

Xulosa.

Ekologik madaniyatni rivojlantirish metodikasi – bu atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiat bilan uyg‘un yashash va ekologik ongni shakllantirish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Bu metodikaning asosiy maqsadi – aholining ekologik madaniyatini oshirish, tabiiy resurslarni oqilona foydalanish va iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashishdir. Ekologik madaniyatni ekologik aksiyalar (“Yashil makon”, “Toza shahar”), ekologik loyihalar, ekologik tarbiya, ekologik monitoring kabi amaliy tadbirlar orqali amalga oshirish yaxshi natijalar beradi. Ekologik madaniyatni rivojlantirish atrof muhitning ifloslanishini kamaytirish, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish, ijtimoiy ongni oshirish va kelajak avlodlarni himoya qilish, ular uchun munosib hayot sharoitlarini yaratishga olib keladi.

Texnika oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak muhandislarning ekologik madaniyatini rivojlantirish nafaqat ekologiya fanini, balki mutaxassislik fanlarini o‘qitishni ham fanlararo integratsiya asosida olib borilishi lozim. Ayniqsa, qayta tiklanadigan energiya manbalarini (quyosh panellari, shamol turbinalari va boshqa ekologik toza energiya manbalari) loyihalash va ulardan foydalanish, “aqlli shahar”, “aqlli qishloq xo‘jaligi” va boshqa shu kabi smart loyihalarni rivojlantirish, suv, havo, tuproqni muhofaza qilish, chiqindilarni boshqarish (qayta ishlash, saqlash va b.) kabi yo‘nalishlarda olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 21 fevraldagi 83-sonli “2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi” qarori

2. Урсул А.Д. Ноосферная модел науки и образования XXIв. //Социально-политический журнал.-1996.- № 4,- С.68-78.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 maydagi “O‘zbekiston Respublikasida ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risda” gi 434-son qarori. URL: https://lex.uz/ru/docs/4354743

4. Abduazimova Z. A. Globallashuv jarayonida ekologik axloqni shakllantirishga konseptual yondashuv. Falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, O‘z.MU, 2020.

5. Xushvaktova X.S. Oliy ta’lim muassasalarida “ekologiya va tabiatni muhofaza qilish” fanini o‘qitishning metodik asoslarini takomillashtirish. 13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ekologiya). Pedagogika fanlari doktori (dsc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Chirchiq, 2021.

5. Гирусов Э.В. Природные основы экологической культуры //Экология. Культура. Образование. Материалы конференции. - М.: МГПИ, 1989. - С.11-18.

6. Зверев И.Д. Постулаты развития экологической культуры.// Экологическая культура и образование: концепции и технологии. -Волгоград: Перемена, 1996. С. 72 - 84.

7. Дежникова Н.С. Экологическая культура как предмет педагогики // Экологическая психология (Тезисы I российской конференции). М., 1996. -С. 46-47.

8. Ермоленко В.А., Морозова Н.В. Экологическая культура и ее формирование у будущих специалистов. //Пространство и время. 2(8), 2012. -с.163-168

9. Стошкус К. О понятии экологической культуры /Проблемы формирования современной экологической культуры. - Вилнюс: Ин-т философии, социологии и права АН Лит-ой ССР, 1987. - С.7-38,

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Niyozov Qahramon Adashaliyevich
Namangan davlat universiteti
Anatomiya va fiziologiya kafedrasi o‘qituvchisi
nambiolog@umail.uz

UDK 371.261

BO‘LAJAK BIOLOGIYA FANI O‘QITUVCHILARDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARIDAN FOYDALANISH MALAKALARINI RIVOJLANTIRISHDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarining xalqaro baholash dasturlaridan (masalan, PISA, TIMSS) foydalanish malakalarini rivojlantirishda multimedia vositalarining rolini o‘rganishga qaratilgan tadqiqot natijalari taqdim etilgan. Tadqiqotda multimedia vositalari (videolar, interfaol darsliklar, virtual laboratoriyalar) yordamida talabalarning xalqaro baholash standartlarini o‘zlashtirishi va ularni qo‘llash qobiliyati o‘rganildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, multimedia vositalaridan foydalanish talabalarning bilim va ko‘nikmalarini global miqyosda baholashga tayyorgarligini sezilarli darajada oshirishga yordam beradi. Maqolada shuningdek, multimedia vositalaridan foydalanishda duch kelinadigan muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari haqida tavsiyalar keltirilgan. Tadqiqot natijalari biologiya fani o‘qituvchilarini tayyorlashda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashning ahamiyatini ta’kidlaydi.*

Tayanch so‘zlar: *biologiya o‘qituvchilari, xalqaro baholash dasturlari, multimedia vositalari, PISA, TIMSS, virtual laboratoriyalar, ta’lim texnologiyalari.*

Ниёзов Кахрамон Адашалиевич
Наманганский государственный университет
Преподаватель кафедры анатомии и физиологии

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ СРЕДСТВ ДЛЯ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ ОЦЕНОЧНЫХ ПРОГРАММ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ БИОЛОГИИ

Аннотация. *В данной статье представлены результаты исследования, направленного на изучение роли мультимедийных средств в развитии навыков использования будущими учителями биологии международных программ оценки (например, PISA, TIMSS). В исследовании изучалось, как мультимедийные средства (видео, интерактивные учебники, виртуальные лаборатории) помогают студентам освоить стандарты международной оценки и развить способность их применения. Результаты показали, что использование мультимедийных средств значительно повышает готовность студентов к оценке знаний и навыков на глобальном уровне. В статье также приведены рекомендации по решению проблем, возникающих при использовании мультимедийных средств. Результаты исследования подчеркивают важность применения современных технологий в подготовке учителей биологии.*

Ключевые слова: *учителя биологии, международные программы оценки, мультимедийные средства, PISA, TIMSS, виртуальные лаборатории, образовательные технологии.*

Niyozov Qahramon Adashaliyevich
Namangan State University
Lecturer at the Department of Anatomy and Physiology

USE OF MULTIMEDIA TOOLS FOR DEVELOPING FUTURE BIOLOGY TEACHERS' SKILLS IN UTILIZING INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAMS

Annotation. *His article presents the results of a study aimed at exploring the role of multimedia tools in developing the skills of future biology teachers to utilize international assessment programs (e.g., PISA, TIMSS). The study examined how multimedia tools (videos, interactive textbooks, virtual laboratories) help students master international assessment standards and enhance their ability to apply them. The results demonstrated that the use of multimedia tools significantly improves students' readiness to assess knowledge and skills on a global scale. The article also provides recommendations for addressing challenges encountered when using multimedia*

tools. The research findings highlight the importance of integrating modern technologies in the training of biology teachers.

Keywords: *biology teachers, international assessment programs, multimedia tools, PISA, TIMSS, virtual laboratories, educational technologies.*

Kirish (Introduction).

Hozirgi kunda ta’lim sifatini oshirish va xalqaro baholash dasturlarida (PISA, TIMSS, TALIS) o‘quvchilarning natijalarini yaxshilash O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Mamlakatimizda ushbu yo‘nalishda keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasida xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish va ta’lim sifatini baholash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4312-son qarori va 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta’lim sifatini oshirish va xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etishni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-4884-son qarori xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlikni yanada kuchaytirish zaruratini ko‘rsatib berdi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni hamda 2023-yil 11-yanvardagi “Davlat ta’lim standartlarini takomillashtirish va xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlikni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-13-son qarorida xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etishning ahamiyati va ularga tayyorgarlik ko‘rish jarayonini sifat jihatidan yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlar belgilangan.

Biologiya fani bo‘yicha xalqaro baholash dasturlarida yuqori natijalarga erishish uchun bo‘lajak o‘qituvchilarning ushbu dasturlar mohiyatini tushunishi, ularni o‘qitish metodikasiga tatbiq eta olishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi ushbu jarayonda multimedia vositalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Interaktiv ta’lim texnologiyalari, virtual laboratoriyalar, animatsiyalar va video darsliklar yordamida biologiya fanidan xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik jarayonini samarali tashkil etish mumkin.

Xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik bo‘yicha ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu dasturlar o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini, tanqidiy yondashuvni va amaliy bilimlarni tekshirishga yo‘naltirilgan. Masalan, OECD tomonidan chop etilgan PISA tadqiqotlari o‘quvchilarning fanlararo bilimlarni qo‘llash qobiliyatini o‘lchaydi (OECD, 2019). Shuningdek, TIMSS xalqaro tadqiqoti fanlar bo‘yicha o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy muammolar bilan bog‘lash muhimligini ta’kidlaydi (Mullis et al., 2020).

O‘zbekistonda xalqaro baholash dasturlarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish bo‘yicha qator tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, N. X. Usmonova va boshqalar (2021) o‘z tadqiqotlarida interfaol ta’lim usullari va multimedia texnologiyalarining samaradorligini o‘rganib chiqib, ularning o‘quvchilarning natijalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini aniqlashgan. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan metodik qo‘llanmalar va xalqaro ekspertlarning tavsiyalari ushbu jarayonni yanada takomillashtirishga qaratilgan.

Biologiya fanidan xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik ko‘rishda multimedia vositalaridan foydalanish bo‘yicha xalqaro tajriba ham muhim rol o‘ynaydi. Xitoy, Janubiy Koreya va Finlandiya kabi davlatlarda virtual laboratoriyalar va interaktiv dasturlar orqali biologiya fanini o‘qitish samaradorligi oshirilmoqda (Lee & Kim, 2022). Bu esa O‘zbekiston sharoitida ham zamonaviy o‘qitish texnologiyalarini joriy etish muhimligini ko‘rsatadi.

Multimedia vositalaridan foydalanish o‘qitish jarayonini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi. Masalan, 3D modellashtirish, biologik jarayonlarni aks ettiruvchi simulyatsiyalar va interaktiv testlar orqali o‘quvchilarning biologik tushunchalarni chuqurroq o‘zlashtirishiga erishish mumkin. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, raqamli texnologiyalar orqali biologiya fanini o‘qitish o‘quvchilarning bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash, tadqiqot olib borish va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi (Jonassen et al., 2021).

Shuningdek, xalqaro baholash dasturlarida muvaffaqiyatli natijalarga erishish uchun pedagoglarning kasbiy rivojlanishi ham muhimdir. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, multimedia texnologiyalarini pedagogik faoliyatga joriy qilish o‘qituvchilarning didaktik mahoratini oshirishga xizmat qiladi (Mishra & Koehler, 2020). Shu boisdan, bo‘lajak o‘qituvchilarni xalqaro baholash dasturlariga tayyorlash jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha maxsus kurslarni tashkil etish zarur.

Ushbu maqolada xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlikda foydalaniladigan multimedia vositalarining samaradorligi, ularning didaktik ahamiyati va O‘zbekiston ta’lim tizimiga moslashtirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, multimedia texnologiyalaridan foydalanishning didaktik tamoyillari, biologiya fani o‘qitishda innovatsion yondashuvlar va O‘zbekistondagi amaliy tajribalar bo‘yicha keng qamrovli tahlillar keltiriladi.

Metodologiya (Methods).

Mazkur tadqiqotda bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish malakalarini rivojlantirishda multimedia vositalarining o‘rnini aniqlash va baholash metodlari qo‘llanilgan.

Tadqiqot empirik va eksperimental usullarga asoslangan bo‘lib, malakalarni shakllantirish jarayonining samaradorligini aniqlashga qaratilgan. Aralash metod yondashuvi qo‘llanilib, sifat va miqdoriy tahlillar amalga oshirilgan.

Biologiya yo‘nalishidagi bo‘lajak o‘qituvchilarning xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha bilim va malakalarini baholash uchun maxsus ishlab chiqilgan test va so‘rovnomalar o‘tkazildi.

Multimedia vositalaridan foydalangan holda o‘qitishning samaradorligini baholash maqsadida eksperimental va nazorat guruhlari tashkil etildi.

Biologiya fani o‘qituvchilari, ta’lim ekspertlari va xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etgan mutaxassislar bilan chuqurlashtirilgan suhbatlar tashkil etildi.

Eksperiment natijalari va so‘rovnomalar asosida yig‘ilgan ma’lumotlar SPSS dasturida tahlil qilinib, o‘rtacha ko‘rsatkichlar, dispersiya va regressiya tahlili amalga oshirildi.

Intervyular va ochiq savollarga asoslangan javoblarning mazmuni tahlil qilinib, asosiy xulosa va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Mazkur tadqiqot metodologiyasi bo‘lajak o‘qituvchilarning xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish malakalarini multimedia texnologiyalari yordamida shakllantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan yondashuvni ishlab chiqishga imkon beradi.

Natijalar (Results).

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, multimedia vositalaridan foydalanish bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha tayyorgarlik darajasiga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Asosiy natijalar quyidagilardan iborat:

Multimedia vositalari bilan o‘qitilgan eksperimental guruh talabalari test natijalarida nazorat guruhiga nisbatan 22% yuqori bilim va ko‘nikmalarning oshishi qayd etdi. Talabalarning xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha umumiy xabardorligi 35% ga oshdi.

O‘qitish jarayonining samaradorligi virtual laboratoriyalar va interaktiv materiallardan foydalanish orqali amaliy mashg‘ulotlarning tushunarlilik darajasi 40% ga yaxshilandi. Video darslar va infografikalar yordamida tushuntirilgan mavzularni eslab qolish darajasi 30% ga oshdi.

Multimedia texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha maxsus treninglardan o‘tgan o‘qituvchilar dars jarayonida innovatsion yondashuvlardan foydalanish darajasini 50% ga oshirdi. Interaktiv o‘qitish metodlaridan foydalanish orqali talabalar ishtiroki 60% ga ko‘tarildi.

Olingan natijalar asosida biologiya fani uchun xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha multimediya darsliklari va elektron resurslar ishlab chiqildi. Oliy ta’lim muassasalarida multimedia vositalaridan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi va amaliyotga joriy qilindi.

Munozara (Discussion).

Tadqiqot natijalari ta’lim jarayonida multimedia vositalaridan samarali foydalanish bo‘lajak o‘qituvchilarning xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik darajasini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatdi. Ushbu bo‘limda olingan natijalar muhokama qilinadi va ularning boshqa tadqiqotlar bilan taqqoslanishi amalga oshiriladi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, multimedia texnologiyalari orqali o‘qitish o‘quvchilarning bilim olish jarayonini tezlashtirish va o‘zlashtirish darajasini oshirish imkonini berdi.

Olingan natijalar xalqaro tadqiqotlarda ta’kidlanganidek, vizual va interaktiv o‘quv materiallarining o‘quvchilar bilimini mustahkamlashga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari PISA va TIMSS kabi xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha olib borilgan boshqa ilmiy ishlarda qayd etilgan natijalar bilan uyg‘unlik kasb etadi. Masalan, Shvetsiya va Finlyandiya ta’lim tizimlarida multimedia vositalaridan foydalanish keng yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ular o‘quvchilarni xalqaro baholash dasturlariga tayyorlashda yuqori natijalar qayd etgan.

Multimedia texnologiyalaridan foydalanish o‘qituvchilarning ta’lim jarayonini interaktiv tarzda tashkil etish bo‘yicha malakalarini oshirishga yordam berdi.

O‘qituvchilar tomonidan bildirilgan fikrlarga ko‘ra, multimedia vositalari dars jarayonida murakkab biologik tushunchalarni osonroq yetkazib berishga imkon yaratdi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida multimedia texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish va o‘qituvchilar uchun maxsus trening dasturlarini joriy etish lozim.

Kelajakdagi tadqiqotlarda multimedia vositalarining uzoq muddatli ta’siri va ularning turli yosh guruhlari uchun moslashtirilgan samaradorligi o‘rganilishi tavsiya etiladi.

Xulosa (Conclusion).

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, multimedia vositalari yordamida bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarining xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish malakalari sezilarli darajada rivojlanadi. Xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik jarayonida multimedia texnologiyalarining qo‘llanilishi o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishga va o‘quvchilarning tushunish darajasini yaxshilashga yordam beradi.

O‘quvchilar multimediya materiallari yordamida o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini oshirdi. Virtual

laboratoriyalar va interaktiv darsliklar orqali murakkab mavzular osonroq tushuntirildi. Video darslar va vizual materiallar o‘quvchilarning qiziqish darajasini oshirdi.

Tadqiqot natijalari multimedia texnologiyalarini qo‘llagan o‘qituvchilar darslarni yanada samarali olib borishini ko‘rsatdi. O‘qituvchilarning interaktiv ta’lim metodlarini qo‘llash bo‘yicha bilim va ko‘nikmalari yaxshilandi. Oliy ta’lim muassasalarida xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha maxsus kurslar joriy etilishi lozim. Multimedia texnologiyalarining samaradorligini oshirish uchun virtual laboratoriyalar va interaktiv o‘quv platformalarini keng joriy etish tavsiya etiladi. O‘qituvchilarni multimedia vositalaridan samarali foydalanishga o‘rgatish uchun doimiy seminarlar va treninglar tashkil etish zarur.

Umuman olganda, biologiya fanidan xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlikni takomillashtirishda multimedia vositalarining qo‘llanilishi ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga katta hissa qo‘shadi. Kelgusida ushbu yo‘nalishda tadqiqotlar davom ettirilib, multimedia texnologiyalarining ta’limga ta’siri yanada chuqur o‘rganilishi maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar ro‘yxati/ references.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti (2019). PQ-4312-son qaror. O‘zbekiston Respublikasida xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish va ta’lim sifatini baholash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti (2020). PQ-4884-son qaror. Ta’lim sifatini oshirish va xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etishni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti (2022). PF-60-son farmon. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti (2023). PQ-13-son qaror. Davlat ta’lim standartlarini takomillashtirish va xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlikni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.
5. OECD (2019). PISA 2018 Results. OECD Publishing.
6. Mullis, I. V. S., Martin, M. O. (2020). TIMSS 2019 International Results in Science. TIMSS & PIRLS International Study Center, Boston College.
7. Usmonova, N. X., va boshqalar. (2021). Xalqaro baholash dasturlarida interfaol ta’lim usullarining samaradorligi. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
8. Lee, H., & Kim, J. (2022). The impact of virtual laboratories on science education: A meta-analysis. Journal of Science Education and Technology, 31(4), 567-580.
9. Jonassen, D. H., Howland, J., Moore, J., & Marra, R. M. (2021). Meaningful Learning with Technology. Pearson Education.
10. Mishra, P., & Koehler, M. J. (2020). Technological Pedagogical Content Knowledge (TPACK): A Framework for Teacher Knowledge. Teachers College Record, 108(6), 1017-1054.
11. Niyozov Q. Biologiya ta’limi jarayonida o ‘quvchilarda kompetensiyalarning shakllanishida innovason texnologiyalarning o ‘rni //Toshkent shahar XTXQTMOIda tashkil etilgan «Xalq ta’limi tizimidagi «Mahorat maktablari» faoliyatini tashkil qilishning ilmiy-nazariy va metodologik asoslari» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallar to ‘plami.–T.:«Fan va texnologiyalar. – 2017.
12. Niyozov Q. A. Biologiya fanini o ‘qitishda pedagogik texnologiyalar. – 2017.
13. Niyozov Q. A. O‘QUVCHILARNI TIMSS XALQARO BAHOLASH DASTURIDA KELTIRILGAN TOPSHIRIQLARNI BAJARISHGA TAYYORLASHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 4 SPECIAL. – C. 1005-1010.
14. Adashaliyevich N. Q. Methodology For Developing the Skills Of Working With The Pisa In Future Biology Teachers //Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments. – 2024. – T. 2. – №. 5. – C. 402-406.
15. Adashaliyevich N. Q. et al. TEACHING HUMAN ANATOMY AND PHYSIOLOGY BASED ON MODERN EDUCATIONAL APPROACHES //International journal of artificial intelligence. – 2024. – T. 4. – №. 04. – C. 45-47.
16. Adashaliyevich N. Q. et al. Biologiya Ta’limida O‘quvchilarda Mustaqil Va Ijodiy Faoliyatlarini Rivojlantirishdagi Muammolar Va Ularning Yechimlari //Progress Annals: Journal of Progressive Research. – 2024. – T. 2. – №. 6. – C. 7-10.
17. Niyozov Q.A., “O‘quvchilarni PISA xalqaro baholash dasturida keltirilgantopshiriqlarni bajarishga tayyorlashdagi muammolar va ularningyechimlari”. Surxondaryo viloyat pedagoglarni yangi metodikalargao‘rgatish milliy markazida 2023-yilning 30-may kuni “Aniq va tabiiyfanlarni o‘qitishda zamonaviy yondashuv: muammo va yechimlar”mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami.
18. https://tsbm.uz/ - Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi sayti.
19. https://t.me/nambiolog – Biologiya fani o‘qituvchilari uchun metodik yordam kanali.
20. https://www.oecd.org//pisa - Programme for International Student Assessment(PISA) web sahifasi.
21. https://timssandpirls.bc.edu/ - TIMSS & PIRLS xalqaro tadqiqot markazi.

22. https://www.researchgate.net/publication/381473087_O‘quvchilarning_tabiiy-ilmiy_savodxonligi_monitoringida_baholash_dasturlari_va_topshiriqlaridan_foydalanish_metodikasi.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Abdullaev Bekdada G'afurjanovich
Namangan davlat universiteti jismoniy madaniyat kafedrasi katta o'qituvchisi
e-mail:abdullaevbekdad@mail.ru

O'QUVCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MAXSUS INNOVATSION MASHQLAR (FUTBOLCHI) MISOLIDA

Annotatsiya: *Mazkur ilmiy maqolada o'smir futbolchilarni o'quv yig'in mashg'ulotlari ta'sirida jismoniy rivojlanishi o'zgarishi haqida nazariy ma'lumot va amaliy tavsiyalar bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *jismoniy rivojlanish, morfologiya, antropometrya, futbolchi sport to'garaklari, o'smir, mashg'ulotlar.*

Абдуллаев Бекдада Гафурджанович
Старший преподаватель кафедры физической культуры
Наманганского государственного университета

ФИЗИЧЕСКАЯ ПОДГОТОВКА СТУДЕНТОВ СПЕЦИАЛЬНЫЕ ИННОВАЦИОННЫЕ УПРАЖНЕНИЯ ПО РАЗВИВАЮЩЕЙ ПОДГОТОВКЕ (ФУТБОЛИСТ)

Аннотация *В научной статье представлены теоретические сведения и практические рекомендации по изменению физического развития футболистов-подростков под влиянием занятий на тренировочных сборах.*

Ключевые слова: *физическое развитие, морфология, антропометрия, футбольные клубы, подросток, тренировка.*

Abdullaev Bekdada Gafurjanovich
Senior lecturer of the Department of Physical Culture
Namangan State University

SPECIAL INNOVATIVE EXERCISES IN DEVELOPING THE PHYSICAL FITNESS OF STUDENTS (FOOTBALL PLAYER)

Abstract *This scientific article presents theoretical information and practical recommendations on the changes in the physical development of adolescent football players under the influence of training camp exercises.*

Keywords: *physical development, morphology, anthropometry, football clubs, teenager, training.*

Kirish.

Iqtidorli yoshlarni tanlab olish mashg'ulot faoliyati samaradorligini oshiruvchi umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikng o'ziga xos ravishda farqlanuvchi xususiyatlari, ularni texnik-taktik tayyorgarlik vositalari bog'liq holda rivojlantirishning ilmiy, nazariy va uslubiy asoslari tanlash va yo'naltirish muhim axamiyat kasb etadi. "Shu bilan birga, j ismonan bo'lgan o'smirlarni sport bilan shug'illanish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ularning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta'minlash va davlat tamonidan qo'llab-quvvatlashga aloxida e'tibor qaratilmoqda". Bugungi kunda dolzarb bo'lgan olimpiya sport mashg'ulotlarini optimallashtirish va sport faoliyatini samaradorligi va ishonchliligini oshirish kabi o'ziga hos vazifalarni hal etish bilan bog'liq muammolarga katta e'tibor qaratilmoqda. Shunga qaramay o'smirlarnining yosh bo'yicha sport mashg'ulotlarini optimallashtirishning asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish bilan bog'liq ayrim jihatlari hozirga qadar yetarlicha tadbiq qilinmagan va tajribada asoslab berilmagan. Hozirda dunyoning nafaqat rivojlangan balki, endigina rivojlanayotgan mamlakatlarida sportning barcha turlarini rivojlantirish uchun ko'plab ishlar amalga oshirmoqda. Sport sohasi mutaxassislarining ilmiy izlanishlari natijasida kundan kunga futbolchi sportga oid yangiliklar yaratilmoqda va ushbu ilmiy tadqiqotlarning amaliy isboti sifatida, har to'rt yilda o'tkazib kelinayotgan o'yinlari va Jahon chempionatlaridagi natijalarni misol qilish mumkin.

Bunday yuksak natijalarga erishish uchun nafaqat sportchining mehnati, uning murabbisi, shifokori, psixologi va jamiyatdagi ular uchun yaratilgan sharoitning ham o'rni beqiyosdir. Albatta futbolchi sport sohasida ilmiy izlanayotgan tadqiqotlarining bunday

natijalarga erishishlari uchun xizmatlari juda yuqori chunki, ular tomonidan yaratilgan yangi metodlar va vositalarsiz bunday natijalarga erishish mushkul bo‘ladi. Albatta, ushbu jarayonni boshlanish nuqtasi maktab yoshidagi o‘smirlarni futbolchi sport to‘garaklarini to‘g‘ri va muvofiq tashlik etilishiga bog‘liq bo‘ladi. Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirishda bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bu borada malakali kadrlarni tayyorlashning sifatini oshirib borish zarurdir. Bizga ma’lumki malakali mutaxassislarni tayyorlash bo‘yicha bar qancha qarorlar qabul qilindi. Xususan.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Shavkat Mirziyayev Miromonovich tomonidan 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmon, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 18-maydagi PQ-5114-son “Paralimpiya harakatini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlil va metodlar.

Talipdjanov A.I (2012) fikricha, Futbolchilarni tayyorlash jarayonini optimallashtirish nafaqat yetakchi omillarni, ularning o‘zaro bog‘liqligini va natijaga olib keladigan miqdoriy ta’sirlarni bilishni, balki eng samarali vositalar va usullarni tanlash va ularni amalda oqilona qo‘llashni o‘z ichiga oladi o‘z manbalarida bergan ma’lumotlariga ko‘ra, individual funksiyalar umumiy fazilatlari qobiliyatlarini shakllantirishning xususiyatlarining geteroxron rivojlanishi tufayli turli yuqori malakali davrlarida sportchilarda qobiliyatlarning namoyon bo‘lish strukturasida ma’lum farqlar mavjud bundan tashqari yuqori sport natijalariga erishish asosan davrida o‘rganilgan texnik-taktik murakkab harakatlarni egallash so‘ngra xalqaro sport ustasi darajasidagi sportchini tayyorgarlik darajasi bilan bir vaqtda sportchining tanasini shakllantirish murakkab jarayonlar bo‘lib o‘tadi [8; 164 b].

Tadqiqotning maqsadi.

“Futbolchi” sport to‘garak mashg‘ulotlarini tashkil qilish va o‘tkazish bo‘yicha bajarilgan ishlar tahlil qilindi.

Natijalari va muxokamasi.

Mamlakatimizda yuzaga keltirilgan bosqichli musobaqalar tizimi o‘quvchiyoshlar, ayniqsa maktab o‘quvchilari futbolchiini rivojlanishiga munosib hissa qo‘shmoqda bolalar futbolchi o‘yinlarining dasturi yildan-yilga kengaymoqda va ***“Olimpiya va Paralimpiya”*** o‘yinlari dasturlaridagi futbolchi turlarini ko‘pchiligini qamrab olmoqda. O‘zbekiston jismoniy madaniyat tizimida o‘z o‘rniga ega. Buning isboti juda ham ko‘p va uni izohlashga hozirgi kunda hojat yo‘q. Chunki, mamlakatimiz Prezidenti, respublika hukumati yosh avlod jismoniy “Kamolot”ini o‘z siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylantirgan.

Hozirgi kunda bu siyosat o‘z natijasini namoyon qilmoqda va o‘zbek futbolchi jahon maydonlarida kun sayin o‘z nufuzini oshayotganligini namoyon qilmoqda. Bunga asosiy sabab mamlakat futbolchi maktablarining o‘quvchi yoshlarning ommaviy futbolchiini rivojlantirishda to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganidan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Jismoniy tarbiyadan, sinfdan tashqari ishlarning maqsadi maktab futbolchiida ommaviylikga erishish bo‘lgan bo‘lsa, hozirda unga qo‘shimcha va asosiy maqsad o‘quvchi yoshlarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish hisoblanmoqda. Buning uchun ham jamiyatimizning har bir a’zosi, u yoshmi, qarimi sog‘lom turmush tarziga oid bilimlar, uning yetakchi vositasi futbolchi yoki jismoniy madaniyatga oid boshlang‘ich bilimlar va amaliy malaka va ko‘nikmalarni maktabdaligida egallash shart qilib qo‘yilgan. Mamlakat futbolchiini zamini umumiy ta’lim maktabi futbolchiidan, sinfdan tashqari ishlarning asosiy shakli sifatida boshlanadi. Maktab futbolchi to‘garak mashg‘ulotlari orqali, maktab ommaviy futbolchii esa alohida ajratilgan tarzda tashkillangan umumiy jismoniy tayyorgarlik guruhlari, ***“Alpomish va Barchinoy”*** testi guruhlari hamda o‘quvchilarning ommaviy futbolchi sog‘lomlashtirish tadbirlari orqali o‘tkazilib kelinmoqda.

Biz quyida umumta’lim maktablarida eng ko‘p foydalanilayotgan futbolchi turi bo‘yicha maktab futbolchi to‘garagining tuzulishini chizma tariqasida tavsiya etamiz. Futbol to‘garagining tuzulishi maktabning boshqa futbolchi to‘graklari uchun ham talluqlidir. Har bir futbolchi to‘garak qayd qilingan tayyorlov, kichik, o‘rta, katta maktab yoshidagilar guruhlari bir nechtadan bo‘lishi mumkin. Agarda har bir o‘quv guruhi o‘rtacha 20 nafardan shug‘illanuvchini o‘zida mujassamlashtirsa faqat o‘g‘il bolalar guruhining shug‘illanuvchilari 100 nafarini tashkil qilishi mumkin. Ularga qizlar guruhidagilar soni qo‘shilsa (100 nafar) futbolchi to‘garagining o‘zi jami 200 nafar o‘quvchini o‘z tarkibiga biriktiradi.

Futbolchi to‘garaklari o‘rta va katta maktab yoshlaridan 10-15 nafar, tashkilotchilik, o‘yin texnikasi va qoidasini yaxshi bilgan o‘quvchilardan, jamoatchi-murabbiy va yo‘riqchilardan tashkillanadi. Ular maktab futbolchiiga oid barcha ishlar ;

to‘garak o‘quv guruhlarini tuzish,
o‘yin maydonlarini jihozlash,
ta’mirlash yangisini qurish,
to‘plarni tayyorlash, jamoatchi-yo‘riqchi,
jamoatchihakamlar tayyorlash,
terma jamoalarni tuzish, musobaqalar,
o‘rtoqlik uchrashuvlari o‘tkazish, taqdirlash,
tuman (shahar) musobaqalarida ishtirok etish “buyurtma”larni,
jamoalarni musobaqalarga tayyorlash,

shug‘illanuvchilarning shaxsiy kartochkasini yuritish,

jurnal bilan ishlash, razryadlar berish,

“Alpomish va Barchinoy” testi talab normalarini topshirishga tayyorlash, ularni hujjatlarini tayyorlash, futbolchi-mashg‘ulotsi mashg‘ulotlarining rejalarini tuzish va boshqa qator ishlarni yo‘lga qo‘yadi, uni ijrosini nazorat qiladi.

Futbolchi to‘garagining tayyorlov guruhiga 3-4 sinflar, kichik maktab yoshiga 4-5 sinflar, o‘rta maktab yoshiga 6-7 sinfdagilar, katta maktab yoshiga 8-9-sinflarning o‘quvchilari, terma jamoa esa 6-9 sinflarning o‘g‘il qizlaridan iborat qilib tuziladi. Mashg‘ulotlar haftada 2-3 marta 60-90 daqiqadan o‘tkaziladi.

Futbolchi to‘garaklariga qabul ***“yozuv”*** sinfning jismoniy tarbiya tashkilotchilari orqali yoki maktabdagi e’longa ko‘ra maktab futbolchi to‘garaklariga umumiy ro‘yxatdan o‘tish kuni”da o‘tkaziladi. Futbolchi futbolchi to‘garagiga qatnashmoqchi bo‘lgan o‘quvchilar tibbiy nazoratdan o‘tib bo‘lgan bo‘lishlari lozim. Musobaqalardan oldin yoki ma’lum kasallikdan tuzalgandan so‘ng to‘garaklarga qatnaydigan o‘quvchi maktabning tibbiy xodimi yoki poliklinikaning tibbiy nazoratidan o‘tishi zarur.

“Maktab futbolchii” sinfdan tashqari ishlarning asosiy shakli bo‘lib o‘quvchilar jismoniy tarbiya maktabda tashkillash va uni amalgam oshirilishiga baho berishda maktabning futbolchi turlari bo‘yicha tuman (shahar) musobaqalaridagi egallagan o‘rniga qarab baholanibgina qolmay, o‘quvchilar jismoniy tayyorgarligi bilan ham aniqlanadi. Aslida sinfdan tashqari ishlar keng ko‘lamda yo‘lga qo‘yiladigan maktab pedagogika jamoasining ko‘p qirrali faoliyatidan biri deb qaralishi lozim. Bunda yetakchi rolni maktab futbolchi to‘garaklari amalga oshiradi desak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Sinfdan tashqari ishlarni rejalashtirish birinchi navbatda maktab futbolchii to‘garaklari faoliyatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish imkonini beradi. O‘quv tarbiyaviy ishlardan sinfdan tashqari ishlarni ajratishga yo‘l qo‘yilmasa yuqori samara beradi.

Rejalashtirish sifatini yaxshi bo‘lishi, uni ortiqcha qiyinchiliklar tug‘dirmaydigan qilib tuzishni ahamiyati juda katta. Reja bajarila oladigan bir tizimga bo‘ysundirilishi va uni sekin-asta amalgam oshirilishi nazarda tutilishi mazmuni bir-biri bilan bog‘liqligi taqvim muddatlariga moslashtirilgan bo‘lishi yoki bir chorak, yarim yilga mo‘ljallanishi va uni ijrosiga erishish sodda mazmunga ega bo‘lishligi rejalashtirishga qo‘yiladigan asosiy talablardir. Har bir futbolchi turning o‘ziga xosligi mavjud. Futbolchi to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilar jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikni bog‘lovchi yoki futbolchi turi uchun kerakli jismoniy sifatlarni ishga jalb qiluvchi sifatida yordamchi jismoniy tayyorgarlikdan foydalanilanish yuqori samara beradi deb hisoblaymiz.

Bunda 10-12 yoshdagi futbolchichilar mashg‘ulot jarayoniga ajratilgan vaqtni tayyorgarlik turlariga mos holda taqsimlash juda muhim hisoblanadi. Futbolchi to‘garak mashg‘ulotlariga ajratilgan vaqt 2 akademik soat, ya’ni 90 daqiqa bo‘lsa shundan umumiy jismoniy tayyorgarlik mashqlariga 25 daqiqa, maxsus jismoniy tayyorgarlikka 20 daqiqa, yordamchi tayyorgarlikka 10 daqiqa, 30 daqiqa texnik-taktik tayyorgarlik uchun 5 daqiqa qayta tiklanish va yakuniy qisim uchun ajratilgan tartibda mashg‘ulot olib borilsa, shunday tartiblashtirilsa, biz yuqorida keltirib o‘tgan yordamchi jismoniy tayyorgarlikni mashg‘ulotga joriy qilish imkoni tug‘iladi. Mazkur tayyorgarlikni 10-12 yoshdagi futbolchi mashg‘ulotida quydagicha tashkillash va o‘tkazish orqali futbolchichi o‘quvchilar jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishga erishish mumkin bo‘ladi. Shu o‘rinda yordamchi jismoniy tayyorgarlikka qisqacha ta`rif berib o‘tsak. Yordamchi jismoniy tayyorgarlik maxsus jismoniy tayyorgarlikning birinchi pog‘onasi bo‘lib, maxsus harakat sifatlarini rivojlantirishga, funktsional imkoniyatlarni va musobaqa nagruzkalarini bajarishda va ulardan keyin tiklanishda nerv-muskul koordinatsiyasini ko‘tarishga yo‘naltirilgan. Namuna sifatida biz mazkur futbolchi to‘garak mashg‘ulotiga yordamchi jismoniy tayyorgarlik qo‘shib qo‘llashga oid bir mikro siklini keltirib o‘tamiz. Maktab futbolchi to‘garak mashg‘ulotlari o‘z mazmuniga: tanlangan futbolchi turi texnikasi va taktikasini o‘rganishni turli xildagi sharoitda ularni takomillashtirishni to‘garak a’zosini organizmini funksional holatini darajasini oshirishni jismoniy va ruhiy-ahloqiy sifatlarini takomillashtirishni olishini ham unitmaslik kerak.

1 -jadval

10-12 YOSHDAGI FUTBOLCHILARNI 1 HAFTA (6 SOAT) LIK MASHG‘ULOTINING MIKRO SIKLI TUZULISHI

30% UJT	10% YJT	20% MJT	40% TTMT	30% UJT	10% YJT	20%MJT	40% TTMT	30% UJT	10% YJT	20% MJT	40% TTMT
Dushanba (100%)				Chorshanba(100%)				Juma(100%)			
1-haftalik mikrosikl 6 soat											

Izoh: Mazkur jadvalda futbolchi mashg‘ulotining 1 haftalik mikro sikli keltirilgan bo‘lib, uni asosiy 4 ta qismga ajratilgan. 1) UJT-umum jismoniy tayyorgarlik, 2) YoJT-yordamchi jismoniy tayyorgarlik, 3) MJT-maxsus jismoniy tayyorgarlik, 4) TTMT-texnik,taktik va musobaqa tayyorgarligi.

Xulosa.

Mazkur tadqiqotni olib borishda sport mashg‘ulotlari va ular orqali hal qilinadigan vazifalar qatorida o‘quvchilarni jismoniy rivojlanishini doimiy nazoratga olish zaruriyati borligi va bunga ko‘p soha mutaxassislari e’tiborsiz bo‘layotgani sezilib qolmoqda. Ushbu e’tiborsizlik natijasida bollar va o‘smir sportchilarni o‘sib rivojlanishi uchun sarflanishi bazor bo‘lgan komponentlarni boshqa vazifalar uchun sarf bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Natijada o‘quvchilarning o‘sishi va rivojlanishi birmuncha susayadi. Shunday muammolarni hal etish uchun o‘quvchilarning sportga jalb qilgandan so‘ng ularga tegishli bo‘lgan jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlarini doimiy nazoratga olgan holga mashg‘ulot mikrosikllarini to‘g‘rilash yoki ayrim o‘zgartirishlar kiritish talabi yuzaga keladi. Shundagina biz o‘smir sportchilarni ham yuqori jismoniy tayyorgarligiga ham jismoniy rivojlanishini yaxshilashga erishamiz. Boshqacha aytganda son va sifat ko‘rsatkichlarini mutonsib qilib rivojlantiramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018 - yil 16-martdagi “Futbolni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3610-son / WWW. Lex.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 iyun, Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3031-son, 2018 yil 5 martdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi / WWW. Lex.uz

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-dekabr, futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida PF-5368-sonli farmonini / WWW. Lex.uz.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.04.2023 yildagi PQ-115-son qarori ommaviy va professional futbolni har tomonlama rivojlantirishning va aholining barcha qatlamlarida ommalashtirish hamda yoshlarni sog‘ligini mustahkamlash jismoniy tayyorgarligini oshirish qarori / WWW. Lex.uz

5. Artikov A.A. Alimjanov S.I. Shukurova Sh.T. Futbolchilarning mashg‘ulot jarayonida pedagogik nazorat. Uslubiy qo‘llanma Toshkent. 2014 y. 62 b.

6. Bekturov O.Yo. Yosh futbolchilarning nazariy bilimlarni oshirish. Uslubiy qo‘llanma. Toshkent. 2013y. 35 bet.

7. Davletmuradov S.R. Futboichilarni tayyorlashda pedagogoik nazorat. Uslubiy qo‘llanma Toshkent 2014 y.26 bet

8. Talipdjanov A.I. Yuqori malakali futbolchilar tayyorlashning zamonaviy tizimi. O‘quv qo‘llanma. T., O‘zDJTI. 2012 y. 164 b

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Maxmudjonova Muborak Farxodjon qizi
Namangan davlat universiteti filologiya fakulteti
o‘zbek tili yo‘nalishi 2-kurs talabasi
Email: mmaxmudjonova06@mail.ru
Ilmiy rahbar: **Qo‘ziyev Umidjon Yandashaliyevich**

TALABALARDA CHET TILINI O‘RGANISH MOTIVI VA MAQSADI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbekistonlik talabalarning o‘zga tillarni o‘rganish bo‘yicha maqsadlari va bunda ijtimoiy omillar ta’siri haqida so‘z boradi. Talabalarning, asosan, qaysi tillarni o‘rganayotgani, bunda o‘rtacha qancha xarajat qilayotgani, kundalik hayotning qaysi jabhasida chet tillari ko‘proq samara berayotgani hamda umuman, qaysi bosqich talabalari xalqaro tillarni bilishga harakat qilayotgani kabi savollarga statistik faktlar orqali javob beriladi.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy lingvistika, sotsiologiya, xalqaro tillar, motiv, “ko‘p til”li kadr.*

Makhmudjanova Muborak Farkhodjan kizi
Faculty of philology, Namangan State University
Uzbek language course 2nd year student
Scientific leader: **Kuziyev Umidjan Yandashalievich**

MOTIVATION AND PURPOSE OF LEARNING A FOREIGN LANGUAGE IN STUDENTS

Annotation. *In this state, there is the discussion about uzbek students and their motives in learning foreign languages along with social aspects of this. Which language to learn beneficially, how to spend money, where to use foreign language, to sum up, which student courses learning languages and questions like these are being answered with statistic facts.*

Key words: *Sociolinguistics, sociologies, international languages, motive, polyglot worker.*

Махмуджанова Мубарак Фарходжон кызы
Филологический факультет Наманганского государственного университета
студент 2 курса узбекского языка
Научный руководитель: **Кузиев Умиджон Яндашалиевич**

МОТИВ И ЦЕЛЬ ИЗУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА У СТУДЕНТОВ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются цели узбекских студентов при изучении иностранных языков. Даются ответы на вопросы о том, какие языки изучают студенты, сколько они в среднем тратят и на каком уровне студенты обычно стремятся изучать международные языки.*


Ключевые слова: *социолингвистика, социология, международные языки, мотив, многоязычный персонал.*

Kirish.


Chet tillarini o‘rganish va o‘rgatish masalasi sotsial tilshunoslikda dolzarb sanalib, ayniqsa, bugungi globallashuv davrida ona tili bilan birgalikda dunyo tillarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Chet tillarini o‘zlashtirishga bo‘lgan talab va qiziqish shunchalik kuchaydiki, bog‘cha yoshidagi bolalardan to katta yoshdagi mutaxassislargacha xorijiy tayyorlov kurslariga bormoqdalar. Til bilish o‘sha tilda so‘zlashuvchi davlatlar madaniyati, tarixi va urf-odatlarini o‘rganish bilan birga shaxsiy manfaatlar yo‘lida ham yangi eshiklar ochilishiga zamin yaratadi, shu sabab bugun til o‘rganish zamon talabiga aylandi. O‘zbekistondagi oliy ta’lim dargohlarida talabalarning chet tili bo‘yicha bilimi va malakasi muayyan mezon bo‘yicha baholanadi, mutaxassisligidan qat’i nazar, xalqaro tillardan dars beriladi. Qolaversa, talabalar mustaqil ravishda ham (asosan, tayyorlov kurslariga borish orqali yoki internetdagi onlayn kurslar vositasida) til o‘rganishmoqda. Bu turli omillar tufayli yuzaga kelgan. Namangan davlat universiteti filologiya fakultetida tahsil oluvchi talabalar ishtirokida chet tillarini o‘rganish motivlari bo‘yicha onlayn so‘rovnoma o‘tkazildi. Quyida mazkur ijtimoiy so‘rovnoma tafsilotlari ham aks etgan.

Muhokama va adabiyotlar tahlili.


Professor Gardner fikriga koʻra: “Shaxsda chet tilini oʻrganishga ishtiyoq paydo boʻlsagina, u oʻsha tilni oʻrgana oladi” [1, 142]. Aniqroq aytganda, oʻzga til bilimlarini egallamoqchi boʻlgan odam oʻz qiziqishiga qarab, intilishiga qarab natijaga ega boʻladi. Avvallari chet tillarini, asosan, OTM ga kirish maqsadida boʻlgan abituriyentlar oʻrgangan boʻlsalar, hozirda til oʻrganuvchilar qatorida talabalar salmoqli oʻrin egallaydi. Talabalar oʻrtasida oʻtkazilgan ijtimoiy soʻrovnomada bunga birinchi sabablardan biri sifatida Oʻzbekiston OTM larida magistratura bosqichiga qabul qilishda chet tilini bilish darajasi tekshirilishi koʻrsatildi. Til oʻrganayotgan talabalarning aksariyati ham 4-bosqich talabalaridir. Biroq mazkur jarayonda boshqa motivlar ham borki, ularga doir izlanish olib borish oʻzbek sotsiolingvistikasi rivojida manfaatli boʻladi.



Soʻrovnoma natijasiga koʻra talabalarning aksariyati ingliz tilini, arab va turk, rus tillarini oʻrganishga harakat qilishmoqda. Mazkur tillar davlat tili sanaladigan mamlakatlardagi ta’limiy, moliyaviy va sotsial jarayonlar ham tillar targʻibotida ahamiyatga ega. Bugun xorijiy mamlakatlarda 49 000 dan ortiq (Rossiya Federatsiyasida 17 488, Qozogʻistonda 17 000 dan ziyod, Janubiy Koreyada 10 000 ga yaqin, Polshada 1600 dan ortiq, Yaponiyada 1000 ga yaqin, shuningdek, Yevropaning boshqa davlatlarida 10 000 dan ziyod) oʻzbekistonlik talabalar tahsil olmoqda (statistik ma’lumotlarda yaxlit raqamlar yoʻqligining asosiy omillaridan biri fuqarolarimizning aksariyati xorijga borganidan soʻng Oʻzbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari konsullik roʻyxatida turmasligi va chet mamlakatlarda shaxsiy ma’lumotlarning qonun tomonidan himoyalanganligi ular toʻgʻrisida aniq ma’lumotlar olishga toʻsqinlik qiladi) [2, 21]. Oʻzga yurtda istiqomat qilish bevosita oʻsha elning tilini bilish bilan bogʻliq boʻladi. Demak, vatandoshlarimizning chet davlatlarida ilmiy, maʼrifiy, madaniy, kasbiy yoki ijodiy faoliyat olib borishlari ularda chet tilidan bilim olishga ehtiyoj tugʻdiradi. Til oʻrganib, ma’lum muddat xorijda malaka oshirib qaytgan talabalar Oʻzbekiston rivoji uchun hissa qoʻsha oladilar.



Talabalarning xulosasicha, xorijiy tillar kasbiy hamda ilmiy malakani oshirishda keng ma’lumotlar bazasi sifatida yordam beradi. Chunki har qanday soha mutaxassisi uchun dunyo tillaridan boxabar boʻlish professionalizmning asosiy talablaridan biri boʻlib qolmoqda. Bugungi kunda ilm-fanga oid eng soʻnggi va aniq ma’lumotlar ingliz va rus tillarida ekanligi hisobga olinsa, “koʻp tilli” kadr ma’lumotlar bilan oson ishlab, oʻz kasbiga yoʻnaltiradi, xalqaro resurslardan samarali foydalana oladi, akademik mukammalik rivojlanadi. “Rossiyada ishlayotgan koʻplab Oʻzbekiston fuqarolari yaxshi kasbiy malakaga ega boʻla turib, rus tilini bilmasligi tufayli munosib maosh olishga da’vo qila olmayaptilar va kam haq toʻlanadigan ishlarda ishlashga majbur boʻlmoqdalar,” - deydi RUDN universitetining Oʻzbekistondagi vakolatxonasi rahbari Andrey Kolesnikov [3, 91]. Jamiyatda ta’lim tizimi isloh qilinib, yoshlarning til bilish darajasi yaxshilansa, mutaxassislarda bu kabi muammolar kamayishi mumkin.



Yuqoridagi javoblarga koʻra, talabalar koʻpincha xorijiy tillardan texnologik axborot olamida foydalanmoqdalar. Chunki internet ilovalari, veb-sahifalar,

asosan, xalqaro tillarda yuritiladi. Chet tillarini bilish turli millatlardan yangi do‘stlar bilan tanishish, innovatsiyalarni yetarlicha baholay olish, iste’dodni dunyoga namoyon qila olish, kreativ g‘oyalar bilan tanishish va elekron saytlardan oson foydalana olish imkonini beradi. Til o‘rgatuvchi rasmiy ilovalar, elektron lug‘atlar vositasida talabalarda til o‘zlashtirish motivi ortib bormoqda.

Xulosa va takliflar.

Oliy ta’lim muassasasida ilm olayotgan yoshlar til borasida turlicha motiv va maqsadlarga ega. Bu maqsadlar til ta’limiga oid yangi g‘oyalar yuzaga kelishida, zamonaviy metodlar yaratilishida asos bo‘lib xizmat qiladi. Repetitorlar tomonidan talabalarning qaysi soha mutaxassisligi bo‘yicha magistratura bosqichiga topshirayotgani e’tiborga olinib, unga ko‘ra til o‘rgatilsa, talaba uchun manfaatliroq bo‘ladi. O‘quv jarayonida talaba faqatgina tilning grammatik xususiyatlariga to‘xtalmay, uning ijtimoiy va madaniy aspektlarini ham hisobga olsa, dunyo madaniyati bilan tanishgach, ijobiy va zaruriy jihatlarni elimizga taqdim etsa, manzur ish bo‘lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Alduais, A.M.S.(2012*). Integration of Language Learning Theories and Aids Used for Language Teaching and Learning. A Psycholinguistic Perspective, Journal of Studies in Education, Vol 2, No4. -21B.*
2. Harmer, J. The practice of English Language Teaching. Third Edition. London: Longman, 2001. – 91B.
3. *“Modern problems in education and their scientific solutions” European science international conference, Vol5, No6.* 2024. – 132B.
4. library.navoiy-uni.uz
5. gigafox.com
6. arxiv.uz

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Ergasheva Fazilat Boboqulovna
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM
“Pedagogika va o‘qitish metodikasi” kafedrasi magistranti
E-mail: ergashevafazilat@gmail.com

PEDAGOGIK KONFLIKTNING YECHIMI VA UNI BOSHQARISH TEXNOLOGIYASI

Annotatsiya: *Maqola pedagogik konfliktlarning yechimi va uni boshqaqrish texnologiyalarini o‘rganishga bag`ishlangan. Ta`lim jarayonida yuzaga keladigan pedagogik konfliktlar, o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi ziddiyatlar, shuningdek, o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlaridagi kelishmovchiliklar sifatida namoyon bo‘ladi. Konfliktlarni boshqarishning samarali texnologiyalari, masalan, mediatsiya, empatik yondashuvlar, psixologik qo‘llab-quvvatlash va innovatsion metodlar ta`lim muhitini ijobiy tomonga o‘zgartirishi mumkin. Maqolada pedaagogik konfliktlarni konstruktiv hal qilish, ularni oldini olish va boshqarishning samarali usullari keltirilgan. Ushbu yondashuvlar o‘quvchilarning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi va ta`lim sifatini oshiradi. Maqola ta`lim tizimida konfliktlarni boshqarishga oid yangi metodlarni joriy etish zaruratini ta`kidlaydi.*

Kalit so‘zlar: *Psixolog, pedagog, konflikt, innovatsion, texnologiya, konstruktiv, empatik yondashuv, individual, metod, motivatsiya.*

Эргашева Фазилат Бобокуловна
Университет экономики и педагогики НТМ
Магистрант кафедры «Педагогика и методика обучения»

РЕШЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО КОНФЛИКТА И ТЕХНОЛОГИЯ ЕГО УПРАВЛЕНИЯ

Аннотация: *Статья посвящена решению педагогических конфликтов и технологиям их управления. Педагогические конфликты возникают в процессе обучения между учениками и преподавателями, а также между самими учениками. Эффективное управление конфликтами с использованием технологий, таких как медиация, эмпатия и психологическая поддержка, способствует созданию положительной атмосферы в образовательном процессе. В статье рассматриваются методы конструктивного разрешения конфликтов, их предотвращение и важность внедрения инновационных подходов для улучшения качества образования. Работа подчеркивает необходимость внедрения новых методов управления конфликтами в систему образования для повышения ее эффективности.*

Ключевые слова: *Психолог, педагог, конфликт, инновационный, технология, конструктивный, эмпатический подход, личность, метод, мотивация.*

Ergasheva Fazilat Boboqulovna
University of Economics and Pedagogy NTM
Master's student of the department of "Pedagogy and Teaching Methods"

SOLUTION OF PEDAGOGICAL CONFLICT AND ITS MANAGEMENT TECHNOLOGY

Abstract: *This article explores the resolution of pedagogical conflicts and the technologies for managing them. Pedagogical conflicts arise in the educational process between students and teachers, as well as among students themselves. Effective conflict management using technologies such as mediation, empathy, and psychological support helps foster a positive educational environment. The article discusses methods for constructively resolving conflicts, preventing them, and the importance of introducing innovative approaches to enhance the quality of education. The work emphasizes the need to implement new conflict management methods in the education system to improve its effectiveness.*

Keywords: *Psychologist, educator, conflict, innovative, technology, constructive, empathetic approach, individual, method, motivation.*

Kirish (Introduction).

Hozirgi zamon ilm-fani bashariyat tarixining qaysi bir davriga murojaat qilmasin, ularning barchasida konfliktlarning mavjud ekanligiga duch keladi. Aniqroq, qilib aytganda, konflikt jamiyat rivojining doimiy hamrohi bo‘lganligiga amin bo‘lamiz. Konfliktlarning jamiyat hayotidagi o‘rni qadimdan e’tiborga molik bo‘lib kelgan. Ha, insoniyat konfliktlar bilan “bilag‘on odam”lar yashagan davrdan buyon xamnafasdir. Shuning uchun bo‘lsa kerak ilmiy doiralarga konflikt haqidagi ilk qarashlar afsonalar orqali kirib kelgan. Pedagogik konfliktologiya fani hozirgi kunda barcha oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida olib borilmoqda. Konfliktologiya fani o‘quv fani sifatida yetakchi o‘rinni egallaydi. Pedagogik konfliktologiya bu o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ziddiyatlarini o‘rganuvchi fandir. Zamonaviy sharoitda pedagogik konfliktologiyaning o‘qitilishi o‘qituvchining pedagogik madaniyatini rivojlantiradi.

Ushbu maqolani dolzarbligi shundki, Pedagogik konfliktlar – bu ta’lim jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, ular o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi, o‘quvchilar orasidagi yoki o‘quv muhitida yuzaga keladigan nizolar sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu konfliktlar noto‘g‘ri boshqarilganda ta’lim jarayonining sifati pasayishi, o‘quvchilarning motivatsiyasi kamayishi va psixologik muhitning yomonlashishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, pedagogik konfliktlarni boshqarishning samarali texnologiyalari yordamida ularni ijobiy tomonga yo‘naltirish va ta’lim jarayonida rivojlanish imkoniyatiga aylantirish mumkin. Bugungi kunda ta’lim muassasalarida konfliktlarning sabablarini aniqlash, ularga empatik yondashuvni qo‘llash va innovatsion boshqaruv texnologiyalarini tatbiq qilish zaruratga aylandi.

Konfliktni hal qilish nafaqat muammoni bartaraf etish, balki o‘quvchilarning ijtimoiy va hissiy ko‘nikmalarini rivojlantirish, ta’lim muhitini yaxshilash imkonini ham beradi. **[**2]

Mazkur maqola pedagogik konfliktlarning yechimiga zamonaviy yondashuvlar, innovatsion boshqaruv texnologiyalari va ularning ta’lim jarayonidagi ahamiyatini tadqiq etishni maqsad qilgan. Ushbu yondashuvlar konfliktlarni konstruktiv hal qilish va ta’lim sifatini oshirish uchun mustahkam asos yaratadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida pedagogik konfliktlar ko‘p uchraydigan muammolardan biri hisoblanadi. Bu jarayon o‘qituvchi va o‘quvchilar, o‘quvchilar o‘rtasida, hatto o‘quv dasturlar bilan bog‘liq nizolar shaklida ham yuzaga keladi. Konfliktlarning samarali boshqarilishi ta’limning sifatini oshirish, o‘quvchilarning motivatsiyasini kuchaytirish va ta’lim muhitini ijobiy tomonga o‘zgartirishga yordam beradi. Pedagogik konfliktlar ta’lim jarayonida tabiiy hol bo‘lsa-da, ularning to‘g‘ri boshqarilishi muhim ahamiyatga ega. Konfliktlarni samarali hal qilish uchun empatik yondashuv, mediatsiya va zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash ta’lim muhitini yaxshilaydi. [4]

Pedagogik konfliktlar ta’lim jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, ular o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasida, shuningdek, o‘quvchilar orasida yuzaga keladigan turli xil ziddiyatlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu konfliktlar, agar to‘g‘ri boshqarilsa, o‘quvchilarning ijtimoiy va hissiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga, o‘qituvchilarning pedagogik yondashuvlarini takomillashtirishga va ta’lim muhitini yaxshilashga yordam berishi mumkin. Biroq, noto‘g‘ri boshqarilgan konfliktlar ta’lim jarayonida muammolarni yuzaga keltirishi, motivatsiyani pasaytirishi va psixologik salomatlikka zarar yetkazishi mumkin.

Konfliktni hal qilishga tayyorgarlik ko‘rishning ikkita yondashuvi mavjud: 1. Mavjud ilg‘or pedagogik tajribani o‘rganish; 2. Ikkinchisi - nizolarning rivojlanish qonuniyatlari va ularni oldini olish va bartaraf etish usullari haqidagi bilimlarni o‘zlashtirish.[5] Talabalar ziddiyatlariga pedagogik aralashuvning muvaffaqiyati o‘qituvchining pozitsiyasiga bog‘liq, kamida to‘rtta positsiya bo‘lishi mumkin: konfliktga avtoritar aralashuv pozitsiyasi – o‘qituvchi nizo har doim yomon ekanligiga va u bilan kurashish zarurligiga ishonch hosil qilmasdan, uni bostirishga harakat qiladi; betaraflik pozitsiyasi – o‘qituvchi o‘quvchilar o‘rtasida yuzaga keladigan to‘qnashuvlarni sezmaslikka va aralashmaslikka harakat qiladi; konfliktdan qochish pozitsiyasi - o‘qituvchi konflikt uning bolalar bilan ta’lim ishidagi muvaffaqiyatsizliklarining ko‘rsatkichi ekanligiga va vaziyatdan qanday chiqishni bilmaslikdan kelib chiqishiga amin; konfliktga maqsadga muvofiq aralashish pozitsiyasi – o‘qituvchi o‘quvchilar jamoasining yaxshi bilimlariga, tegishli bilim va ko‘nikmalarga tayanib, nizoning sabablarini tahlil qiladi, uni bostirish yoki rivojlanishiga imkon berish to‘g‘risida qaror qabul qiladi. [1]

Mavzuga oid adabiyoylarning tahlili (Literature review).

Mazkur maqolada ijtimoiy-siyosiy tahlil, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ilmiy va xolislik tamoyillari asosida tarixiy aspektda yoritilgan. Mustaqillik yillarda ko‘plab pedagogik konfliktlarni boshqari masalalrini yechimini ochib beradigan ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. Xususan F.M.Qo‘chqarova Pedagogik konfliktologiya, Jusupov, Sh. Sh. Pedagogik konfliktlar: sabablari, turlari va ularni hal qilish usullari, Rashidov, M. K. Pedagogik jarayonlarda konfliktlarni boshqarish texnologiyalari, Latypov, R. T. Pedagogik konfliktlarni yechishda zamonaviy metodlar kabi ilmiy tadiqot ishlarida talaba yoshlar, o‘quvchilar o‘rtasidagi konfliktlarni kelib chiqish sabablari va ularni samarali bartaraf etish usullari hamda bunda o‘qituvchining roli mahorati haqida ilmiy ma’lumotlar asoslab berilgan.SHu bilan birga Jannat makon jurnali. (2020 yil.) jurnalida ham ushbu mavzuga oid qimmatli ma’lumotlarni uchratish mumkin.[3]

Tadqiqot metodoliyasi (Research Methodology).

Ushbu maqola umume'tirof etgan metodlar, jumladan tarixiylik, ilmiylik, kabi tarixiy metodlar asosida o'rganilgan bo'lib, unda konfliktni boshqarish texnologiyalari, Pedagogik boshqaruv texnologiyalari, innovatsion pedagogik yondashuvlar va pedagogik konfliktlarni boshqarishning samarali texnologiyalari, hamda konfliktni tahlil qilish metodlaridan samarali foydalansh mumkinligi o'rganildi. Masalan, mediatsiya, empatik yondashuv, ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, innovatsion metodlar va psixologik yordam muhim rol o'ynaydi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Mavzuni yoritish jarayonida Jusupov, Sh. Sh. Pedagogik konfliktlar: sabablari, turlari va ularni hal qilish usullari. Tashkent: Fan va Texnologiya. (2021)., Rashidov, M. K. Pedagogik jarayonlarda konfliktlarni boshqarish texnologiyalari. Tashkent: Innovatsiya. (2019). kitobidan pedagogik konfliktlar va uning turlari hamda mavzuga oid ilmiy ma'lumotlar olindi. Shu bilan birga mavzuni yoritishda turli matbuot materiallaridan hamda arxiv ma'lumotlaridan foydalanish natijasida mavzuga oid muhim ma'lumotlarda ega bo'lindi.

Konfliktlarni oldini olish va yechimini topish jarayonida o'qituvchilarning va o'quvchilarning o'zaro tushunishiga asoslangan yondashuvlar ta'lim jarayonining sifatini oshirishga imkon beradi. Shu bilan birga, pedagogik konfliktlarning ijobiy hal qilinishi o'quvchilarning individual rivojlanishiga, o'qituvchilarning pedagogik malakasining oshishiga va ta'lim muassasasining umumiy samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababdan kelajakda ta'lim tizimida konfliktlarni boshqarishga qaratilgan amaliy va nazariy ishlarni yanada chuqurlashtirish, shuningdek, yangi texnologiyalarni qo'llash orqali bu jarayonni yanada samarali tashkil etish mumkinligi o'rganildi.

Pedagogik konfliktlar ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib, ular o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasida, shuningdek, o'quvchilar orasida yuzaga keladigan turli xil ziddiyatlarni o'z ichiga oladi. Ushbu konfliktlar, agar to'g'ri boshqarilsa, o'quvchilarning ijtimoiy va hissiy ko'nikmalarini rivojlantirishga, o'qituvchilarning pedagogik yondashuvlarini takomillashtirishga va ta'lim muhitini yaxshilashga yordam berishi mumkin. Biroq, noto'g'ri boshqarilgan konfliktlar ta'lim jarayonida muammolarni yuzaga keltirishi, motivatsiyani pasaytirishi va psixologik salomatlikka zarar yetkazishi mumkin.

Xulosa va takliflar
(Conclusion/Recommendations).

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, pedagogik konfliktlarni boshqarishning samarali texnologiyalari, masalan, mediatsiya, empatik yondashuv, ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, innovatsion metodlar va psixologik yordam muhim rol o'ynaydi. Konfliktlarni oldini olish va yechimini topish jarayonida o'qituvchilarning va o'quvchilarning o'zaro tushunishiga asoslangan yondashuvlar ta'lim jarayonining sifatini oshirishga imkon beradi. Shu bilan birga, pedagogik konfliktlarning ijobiy hal qilinishi o'quvchilarning individual rivojlanishiga, o'qituvchilarning pedagogik malakasining oshishiga va ta'lim muassasasining umumiy samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Kelajakda ta'lim tizimida konfliktlarni boshqarishga qaratilgan amaliy va nazariy ishlarni yanada chuqurlashtirish, shuningdek, yangi texnologiyalarni qo'llash orqali bu jarayonni yanada samarali qilish zarurdir.

Foydaalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. F. M. QO'CHQAROVA Pedagogik konfliktologiya. T. 2021.
2. Jusupov, Sh. Sh. Pedagogik konfliktlar: sabablari, turlari va ularni hal qilish usullari. Tashkent: Fan va Texnologiya. 2021yil
3. Jannat makon jurnali. 2020 yil.
4. Rashidov, M. K. Pedagogik jarayonlarda konfliktlarni boshqarish texnologiyalari. Tashkent: Innovatsiya. 2019 yil
5. Tamer, M. S. Innovatsionni pedagogik boshqaruv metodlari. Almaty: Zhazushi. 2018 yil
6. Latypov, R. T. Pedagogik konfliktlarni yechishda zamonaviy metodlar. Tashkent: Ta'lim. 2016 yil
7. M.S.Qoziboyevna - Web of Teachers: Inderscience Research, 2024yil

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Norqulov Shovkat Turg'unbayevich
Guliston davlat pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti dekani, dotsent
norqulovshovkat86@gmail.com

BO'LAJAK MURABBIYLARNING GANDBOL JAMOALARIDA IJOBIY-JISMONIY PSIXOLOGIK HARAKATLANISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada murabbiylarning gandbol jamoalarida ijobiy, jismoniy-psixologik kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari berilgan bo'lib, turli tadqiqot usullaridan foydalangan holda olingan natijalar yoritilgan.*

Kalit so'zlari. *Kompetensiya, Sport psixologiyasi, Murabbiylik mahorati, Stressga chidamlilik, Eksperimen, Kommunikativ qobiliyatlar, texnologiya, Ketma-ketlik, Tezlik, Kuch, Chidamlilik, Chaqqonlik.*

Норкулов Шовкат Тургунбаевич
Гулистанский государственный педагогический институт
Декан педагогического факультета, доцент

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ПОЗИТИВНО-ФИЗИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ДВИГАТЕЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ В ГАНДБОЛЬНЫХ КОМАНДАХ БУДУЩИХ ТРЕНЕРОВ

Аннотация. *В данной статье даны теоретические основы развития позитивной, физико-психологической компетентности тренеров в гандбольных командах, освещены результаты, полученные с помощью различных методов исследования.*

Ключевые слова. *Компетентность, спортивная психология, тренерские навыки, стрессоустойчивость, экспериментирование, коммуникативные навыки, технология, последовательность, скорость, сила, выносливость, ловкость.*

Norkulov Shavkat Turgunmayevich
Gulistan State Pedagogical Institute
Dean of the Faculty of Pedagogy, associate professor

THEORETICAL FOUNDATIONS FOR THE DEVELOPMENT OF POSITIVE-PHYSICAL PSYCHOLOGICAL MOBILITY COMPETENCE IN HANDBALL TEAMS OF FUTURE COACHES

Abstract. This article presents the theoretical foundations for developing coaches' positive physical-psychological competence in handball teams, highlighting results obtained using various research methods.

Keywords. Competence, Sports psychology, Coaching skills, Stress resistance, Experiment, Communication skills, Technology, Sequence, Speed, Strength, Endurance, Agility.

Kirish.

Gandbol jamoaviy sport turi sifatida o'zining dinamikasi, texnikasi va taktikasi bilan ajralib turadi. Jamoaning muvaffaqiyati ko'p jihatdan murabbiyning mahoratiga, uning jamoa a'zolariga ta'sir o'tkazish qobiliyatiga bog'liq. Zamonaviy gandbol murabbiyi nafaqat jismoniy tayyorgarlik bo'yicha bilimga ega bo'lishi, balki jamoada ijobiy psixologik muhit yaratish, har bir sportchining individual xususiyatlarini hisobga olish va ularning harakatlanish ko'nikmalarini takomillashtirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

So'nggi yillarda sport psixologiyasi va ijobiy psixologiya tamoyillari sportchilarning motivatsiyasi, ruhiy barqarorligi va natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak gandbol murabbiylarining ijobiy jismoniy psixologik harakatlanish kompetensiyasini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Gandbolo'yini insondagi barcha asosiy harakatlarni: yugurish, sakrash, uloqtirishni o'ziga qamrab olgan. Demak, gandbol o'ynab, barcha jismoniy sifatlarni takomillashtirasiz, bu sizga "Alpomish" va "Barchinoy"

maxsus test me'yorlarini muvaffaqiyatli bajarishga yordam beradi.

Har bir mashg'ulot boshlanishidan oldin, tegishli, chigil yozish mashqlarni bajarish zarur, ular o'yin texnikasi va taktikasi asoslarini o'zlashtirishga yordam beradi. Misol uchun to'pni avval bir-biriga sekin uzatiladi yoki uni devorga otiladi. So'ngra otish jadallashtiriladi. Mashqlar ketma-ketlikda, izchil bajariladi. Chunonchi, to'pni bir-biriga uzatib, zal bo'ylab harakatlaniladi yoki to'siq oldin to'p ustidan, keyin turli buyumlar ostidan o'tiladi.

Qo'l to'pidagi dastlabki qadamlar qizlarga ham, yigitlarga ham qiyinchilik tug'dirmaydi, chunki o'yin usullari kundalik hayotimizda doimiy uchrab turadigan tabiiy harakatlaridir. Lekin mahoratli bo'lishi uchun esa jiddiy mehnat qilish va irodali bo'lish talab qilinadi. Gandbol o'yinining ustalari tezkorliklari, o'yin usullarini chaqqon bajarishlari bilan ajralib turadilar. Kim o'yinni haqiqatdan sevsa, bunday mukammalikka erishishi mumkin.

Sportda kompetensiyaviy yondashuv, murabbiylik mahorati, ijobiy psixologiya va jismoniy tayyorgarlik masalalari ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, Jones (2006) murabbiyning liderlik qobiliyatlarini, Nash (2008) esa jamoada ijobiy muhit yaratishning ahamiyatini ta'kidlaydi. Biroq, gandbol murabbiylari uchun ijobiy jismoniy psixologik harakatlanish kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan maxsus tadqiqotlar yetarli emas.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ijobiy jismoniy psixologik harakatlanish kompetensiyasi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- Jismoniy tayyorgarlik: Gandbolga xos jismoniy sifatlarni (tezlik, kuch, chidamlilik, chaqqonlik) rivojlantirish bo'yicha bilim va ko'nikmalar.
- Psixologik barqarorlik: Stressga chidamlilik, o'ziga ishonch, motivatsiya, diqqatni jamlash qobiliyati.
- Harakatlanish ko'nikmalari: Gandbol texnikasi va taktikasi, harakatlarni rejalashtirish va amalga oshirish qobiliyati.
- Kommunikativ qobiliyatlar: Sportchilar bilan muloqot qilish, jamoada ijobiy muhit yaratish, motivatsiya berish qobiliyati.
- Liderlik xususiyatlari: Jamoani boshqarish, qaror qabul qilish, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish qobiliyati.

Bo'lajak murabbiylarning ushbu kompetensiyalar bo'yicha darajasi baholandi va rivojlantiruvchi texnologiya ishlab chiqildi. Texnologiya quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Diagnostika: Bo'lajak murabbiylarning kompetensiya darajasini aniqlash.

2. Maqsadni belgilash: Rivojlantirilishi kerak bo'lgan kompetensiyalarni aniqlash.

3. O'qitish va mashq qilish: Treninglar, seminarlar, amaliy mashg'ulotlar orqali bilim va ko'nikmalarni shakllantirish.

4. Baholash va nazorat: Rivojlanish darajasini baholash va nazorat qilish

Ushbu texnologiyani amaliyotga tatbiq etish uchun treninglar, seminarlar, amaliy mashg'ulotlar, rolli o'yinlar va boshqa interaktiv usullardan foydalanildi. Pedagogik eksperiment natijalari shuni ko'rsatdiki, eksperimental guruhdagi bo'lajak murabbiylarning ijobiy jismoniy psixologik harakatlanish kompetensiyasi nazorat guruhidagilarga nisbatan sezilarli darajada oshdi **($p < 0.05$).**

Ilmiy yangilik:

- Ijobiy jismoniy psixologik harakatlanish kompetensiyasining nazariy modeli ishlab chiqildi, uning tarkibiy qismlari, mezonlari va ko'rsatkichlari aniqlandi.
- Bo'lajak gandbol murabbiylarida ushbu kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan texnologiya ishlab chiqildi va uning samaradorligi eksperimental tarzda isbotlandi.

Amaliy ahamiyat:

- Tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak gandbol murabbiylarini tayyorlash dasturlarini takomillashtirishda foydalanilishi mumkin.
- Ishlab chiqilgan texnologiya malaka oshirish kurslarida va murabbiylarning o'z-o'zini rivojlantirish dasturlarida qo'llanilishi mumkin.

Xulosa.

Ushbu tadqiqot bo'lajak gandbol murabbiylarining ijobiy jismoniy psixologik harakatlanish kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasining nazariy va amaliy asoslarini yaratdi. Ishlab chiqilgan texnologiya bo'lajak murabbiylarni tayyorlash tizimini takomillashtirishga va ularning professional faoliyatida muvaffaqiyatga erishishlariga yordam beradi. Tadqiqot bo'lajak gandbol murabbiylarining ijobiy jismoniy psixologik harakatlanish kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasining nazariy va amaliy asoslarini yaratishga qaratilgan bo'lib, zamonaviy sport ta'limi tizimida muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot jarayonida ijobiy jismoniy psixologik harakatlanish kompetensiyasining mohiyati, tarkibiy qismlari aniqlandi va bo'lajak murabbiylarning ushbu kompetensiya bo'yicha tayyorgarlik darajasini oshirishning samarali yo'llari ishlab chiqildi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, ijobiy jismoniy psixologik harakatlanish kompetensiyasi murabbiyning jamoani boshqarish, sportchilarni motivatsiyalash, ijobiy psixologik muhit yaratish va jamoaning muvaffaqiyatini ta'minlashdagi rolini sezilarli darajada oshiradi. Tadqiqotda ishlab chiqilgan rivojlantiruvchi texnologiya bo'lajak murabbiylarning jismoniy, psixologik va harakatlanish ko'nikmalarini kompleks rivojlantirishga imkon beradi.

Eksperimental tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ishlab chiqilgan texnologiya bo'lajak murabbiylarning kompetensiyasini sezilarli darajada oshirishga yordam beradi. Eksperimental guruhdagi bo'lajak murabbiylar nazorat guruhidagilarga nisbatan jismoniy tayyorgarlik,

psixologik barqarorlik, harakatlanish ko‘nikmalari, kommunikativ qobiliyatlar va liderlik xususiyatlari bo‘yicha yuqori natijalarga erishdilar.

Kelgusi tadqiqotlar uchun yo‘nalish va tavsiyalar:

- Turli sport turlari murabbiylari uchun ijobiy jismoniy psixologik harakatlanish kompetensiyasining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish.
- Ushbu kompetensiyani rivojlantirishning innovatsion usullari va vositalarini ishlab chiqish.
- Murabbiylarning shaxsiy xususiyatlari va ularning jamoaga ta’sirini o‘rganish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining “O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rinojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori (1999.27 may). xalq so‘zi.-Toshkent, 1999.29 may.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. (1997. 29-avgust). Turkiston.-Toshkent, 1997. 30-avgust.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” Marifat. -Toshkent, 1998. 1-aprel.

4. Akramov J.A. Gandbol Voris nashriyoti -T.: 2007.

5. Asqarov F.A., Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. N:. 2023 y.

6. Azizova R.I. Sport va harakatli o‘yinlarni o‘qitish metodikasi. -T.: 2010.

Internet saytlari.

1. www.pedagog.uz.
2. www. djti.uz

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Gaziev Nuritdin Ruxiddinovich
Namangan davlat universiteti sport foliyati jismoniy madaniyat
kafedra katta o‘qituvchisi
e-mail: goziye1972nuriddin@gmail.com

BELBOG‘LI KURASHI TURLARIDA JISMONIY SIFATLARNING O‘RNI VA ULARNING FUNKTSIONAL AHAMIYATI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada. Belbog‘li kurashi turlarida jismoniy sifatlarning o‘rni va ularning funktsional tayyoorgalik aniqlash va diagnostika qilish uchun pedagogik testlash metodlaridan foydalandik.*

Kalit so‘zlar: *belbog‘li kurashshilar, texnik-taktik, Ko‘prik xolatida, rejalashtirishda, taqiqot, yelkadan oshirib tashlash, beldan oshirib tashlash, qolni boyniga o‘rab tashlash, ko‘krakdan oshirib tashlash.*

Газиев Нуритдин Рухиддиновисҳ
Спортивная деятельность Наманганского государственного университета,
физисҳеская культура старсҳий преподаватель кафедры

РОЛЬ ФИЗИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ И ИХ ФУНКЦИОНАЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ В ВИДАХ ПОЛОСАТОЙ БОРЬБЫ

Аннотация. *В этой статье. Для выявления и диагностики роли физических качеств и их функциональной подготовленности в борьбе на поясах использовались методы педагогического тестирования.*

Клюсҳевые слова: *Вольная борьба, технико-тактисҳеская, позиция моста, планирование, запрет, бросок с плесҳа, бросок с пояса, обхват сҳеи вокруг сҳеи, бросок с груди.*

Gaziev Nuritdin Rukhiddinovich
Senior lecturer of the Department of Physical Culture,
Sports Department, Namangan State University

THE ROLE OF PHYSICAL QUALITIES AND THEIR FUNCTIONAL SIGNIFICANCE IN TYPES OF STRIPE WRESTLING

Annotation: *In this article, we used pedagogical testing methods to determine and diagnose the role of physical qualities and their functional readiness in belt wrestling.*

Keywords: *free wrestling, technical-tactical, bridge position, planning, prohibition, throwing from the shoulder, throwing from the waist, wrapping the neck around the neck, throwing from the chest.*

Mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.

Resrublikamizda jismoniy tarbiya va srort sohasidagi asosiy masalalardan biri aholini doimiy ravishda srort bilan shug‘ullanishini ta’minlashga qaratilmoqda. Davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri olimriya va raralimriya srort turlarini rivojlantirish va ommaviyligini oshirish masalalariga alohida ye’tibor qaratilmoqda. Xususan, belbog‘li kurash srort turi bo‘yisha keng qamrovli, ilmiy-uslubiy ishlar to‘laligisha o‘rganilmaganligi, bundan tashqari yuqori malakali belbog‘li kurashshilarning musobaqaoldi tayyorgarligini rejalashtirishda kurashshilarni vazn og‘irligiga ko‘ra umumiy jismoniy va maxsus jismoniy tayyorgarlik holatini baholovshi, mexanizmlarning yo‘qligi, musobaqaoldi tayyorgarlik holatini aniqlovshi majmuali va komrleks testlarni ishlab shiqish va amaliyotga joriy qilish talabini qo‘ymoqda. Shuningdek, murabbiylar yuqori malakali belbog‘li kurashshining individual imkoniyatlarini umumiy hamda maxsus jismoniy tayyorgarligi qanday darajada yekanligini aniqlash, jismoniy sifatlarni srort turiga mos ravishda texnik-taktik mashqlar majmuaviy komrleksini ishlab shiqish shu o‘rinda ilmiy hamda amaliy tajribaga asoslangan tadqiqot ishlarini amalga oshirish bugungi kun talabi bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston Resrublikasi Rrezidentining 2020-yil 4-

noyabrdagi “Kurash milliy srort turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish”shora-tadbirlari to‘g‘risida RQ-4881-son qarori O‘zbekiston Resrublikasi Rrezidentining 2017-yil 2-oktyabrdagi “Kurash milliy srort turini yanada rivojlantirish shora-tadbirlari to‘g‘risida”gi RQ-3306 sonli Farmoni, O‘zbekiston Resrublikasi Rrezidentining 2018-yil 5-martdagi RF-5368-son “Jismoniy tarbiya va srort sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish shora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni va Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 4-martdagi 122-son “Srort turlari bo‘yisha terma jamoalar tarkibiga srortshilarni saralab olish tizimini yanada takomillashtirish shora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlar va boshqa bu sohaga tegishli me’yoriy-huquqiy hujjatlarda aks yetgan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar.

F.A.Kerimovning (2020) fikriga asoslanib, srort turlarining o‘ziga xos xususiyatlari hamda asosiy tarkibiy qismlarini shakllantirish yuzasidan kerakli ma’lumotlarni, srortshilarni tayyorlashining zarurati nufuzli musobaqalarda qatnashish ushun (masalan, Yevrora yoki Jahon shemrionatlarida, Olimriya o‘yinlarida); individual moslashuvshan imkoniyatlar srortshilarning, jismoniy tayyorgarligining tuzilishi, avvalgi mashg‘ulotlarning mazmuni bir yillik o‘qitishning zamonaviy tizimi XX asrning 20-yillaridan boshlab o‘nlab yillar davomida shakllangan va jadal rivojlanish asosida hozirgi vaqtda takomillashtirilgan fan yutuqlari hisoblanadi. Asosan bir yillik mashg‘ulotlar xususiyati bu nisbatan mustaqil tarkibiy qismlar asosida qurilgan deb, barsha yelementlar jumladan umumiy redagogik vazifa bu – srortshining yeng yuqori tayyorgarlik holatiga yerishish hisoblanib, muvaffaqiyatli bo‘lishini ta’minlash asosiy musobaqalarda qo‘llay olishi tushuniladi [3; 79 b].

N.A. Tastanov (2015) yuqoridagi bergan ma’lumotlardan bilinib turibdiki, aynan hozirgi kunda vaqtlar o‘tishi bilan kengaytirish va raqobatbardosh amaliyotni faollashtirish bugungi kun zarurati yillik mashg‘ulotlarni davrlashtirish nazariyasini yanada rivojlantirishni talab qilmoqda, shaxsning individual nazariy qoidalarni qayta ko‘rib shiqish, istiqbolli rejalarni ishlab shiqishda judayam ishonshli ilmiy bilimlarga asoslangan texnologik rejalarni tuzishda srortshilarni yillik tayyorlashning bir qator talablarini o‘z ishiga oladi. Biroq bu juda mantiqiy yuqori darajadagin srortshilarning bir yillik jismoniy tayyorgarligini qurishda yanada yangi yondashuvni shakllantirishga urinish bilan bir qatorda mutaxassislar fikrlari o‘rganildi, uning davriylashtirilishini rad yetish notog‘ri, yilning ko‘r qismida o‘tkaziladigan ko‘rlab nufuzli musobaqalarda qatnashish va qisqa muddatli maxsus tayyorgarlik bilan almashtirish orqaligina mahoratli srortshilarni tayyorlashni ta’minlashga qaratilgan siklik rejalarni ishlab shiqish talabi qo‘yilmoqda.[6; 76-277 b].

T.S. Toychiyevning olib borgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, muvaffaqiyatli tayyorlikning bir yoki ikkita sho‘qqisi tez o‘zgaruvshan yehtiyojlarni qondirishni yesa srort mashg‘ulotlari orqali amalga oshiriladi. Srort federatsiyalarining, yeng yirik musobaqalarning asosini tashkiliy qo‘mitalari olimlarning srort musobaqalari tizimini organik ravishda bog‘lash bilan birga zarurligiga shaqiruvini ye’tiborsiz qoldirdilar, srort mahoratini shakllantirishning, tamoyillari srort mashg‘ulotlarini tuzush yeng asosiy vazifa bo‘lib qoladi. Srort turlari musobaqalari federatsiyalarning tijorat manfaatlari, musobaqalarning tashkiliy qo‘mitalari, televideniye, homiylar va srortshilarning o‘zlari mukofotlarga qiziqishmoqda, srort turlari bo‘yisha mas’uliyatli musobaqalar sonini keskin oshdi va ba’zi srort turlarida bir yilda ush to‘rt martani tashkil qilmoqda bu srortshilar tayyorlashga yuqori talablarni qo‘ymoqda[7;122-b].

Ishning maqsadi: Belbog‘li kurashi turlarida jismoniy sifatlarning o‘rni va ularning funktsional yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab shiqishdan iborat.

Natija va muhokama.

Har bir sport turida, shu jumladan, kurash turlarida ham ijro etiladigan texnik-taktik harakatlar mazmuni, yo‘nalishi va koordinatsiyasiga qarab jismoniy sifatlar o‘ziga xos xususiyatlar bilan farqlanadi, ularning funktsional ulushi esa turlicha bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, masalan, kurash turlarida qo‘llaniladigan texnik-taktik usullarning bir-biridan farqlanishi u yoki bu jismoniy sifatni hal qiluvchi vosita darajasiga ko‘taradi. larerkin kurash bilan shug‘ullanuvchi yosh sportchilar ustida tadqiqot o‘tkazib, ana shu masalaga doir bir qator ma’lumotlarni keltiradi. Jumladan, bunday kurashchilarning texnik-taktik harakatlarida 75,2% usullar tik turgan holatda, 24,8% parterda bajarilar ekan. Shu jumladan, 21,2% usullar tashlashlar, 10,6% burib tashlashlar, 68,2% chalib yiqitishlar bilan bog‘liq bo‘lar ekan. Demak, erkin kurashda tezkorlik-kuch, chaqqonlik va egiluvchanlik sifatlari ustuvor ahamiyatga loyiq, deb ta’kidlash mumkin. Mazkur sport turi bo‘yicha o‘tkazilgan musobaqa olishuvlarini kuzatish natijasida shuni aniqlashga muyassar bo‘lganki, hujum taktikasini qo‘llashda 37% usullar oyoqni ushlab yiqitish bilan bog‘liq bo‘lib, unda kurashchilar bunday usulni favqulodda yoki kutilmaganda qo‘llashar ekan. 14% qo‘llaniladigan hujum usullari raqibni oldindan ushlamasdan ijro etilishi 55% gacha g‘alabaga olib kelishi kuzatilgan. 34% mag‘lubiyat va 11% harakat samarasiz bajarilar ekan. Bunday natijalar yuqorida qayd etilgan fikrni yanada aniqroq tasdiqlashga asos bo‘ladi.

Belbog‘li kurash sport turi bilan shug‘ullanuvchilarda texnik-taktik, jismoniy va funktsional imkoniyatlarni shakllantirishda, shu jumladan yuqori natijaga erishish uchun tezkorlik-kuch sifatlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish zarur ekan. Bunday sifatlarni rivojlantirishda vertikal osilgan arqonga chiqish,

qo‘llarni bukib-yozish, o‘ng va chap qo‘llar bilak-panja kuchi, hamda qorin mushaklarini shakllantirishga mo‘ljallangan mashqlarni qo‘llash yaxshi natija berishi ochib berilgan. Shu bilan bir qatorda o‘tkazilgan tajriba asosida shu narsa qayd etilganki, yuqori malakali dzyudochilarda tajribadan oldin o‘ng qo‘lning bilak-panja kuchi 33,2 kg.ni tashkil etgan bo‘lsa, chap qo‘lniki 37,2 kg.ga teng bo‘ldi yoki 2 kg.ga zaif kuchlanish qayd etildi. Tajriba muddati tugaganidan so‘ng o‘ng qo‘lning bilak-panja kuchi 41,5 kg., chap qo‘lniki 36,8 kg. miqdorida o‘zgardi, ya’ni o‘ng qo‘l kuchi dastlabki ko‘rsatkichdan 2,3 kg.gacha ortgan bo‘lsa, chap qo‘lniki, aksincha, 0,4 kg.gacha kamayib ketdi. Ehtimol qilish mumkinki, tajriba davomida tadqiqotchilar o‘ng va chap qo‘l bilak-panja kuchini bir xil hajmli mashqlar bilan rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratishmagan. Vaholanki, bizning fikrimizcha, kurash turlarida, shu jumladan belbog‘li kurashda ham ikki qo‘lning kuchi bir xilda yuksak rivojlangan bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Belbog‘li kurashi bo‘yicha yuksak natijalarga erishish uchun ayrim tadqiqotchilar texnik-taktik va maxsus chidamkorlikni ustuvor o‘ringa qo‘yishadi. Shuning uchun ushbu mualliflar dzyudochilarda maxsus chidamkorlik darajasini oshirish maqsadida yillik mashg‘ulotlar tsiklida glikolitik-anaerob yuklamalar ulushini orttirib borish.

Xulosa.

Ilmiy hamda uslubiy adabiyotlar tahlillari shuni ko‘rsatdiki, oxirgi belbog‘li kurashshilar maxsus va musobaqaoldi tayyorgarlik aniq bosqishlarining mashg‘ulotlari kattaligi va yo‘nalish muhiim tizimlarini takomillashtirishga katta ye’tibor qaratilmoqda. Jumladan, katta yuklamali mashg‘ulotlarning umumiy sonini oshirish natijasida belbog‘li kurashshilarning maxsus ish qobiliyatini o‘stirish, belbog‘li kurashshilar maxsus va musobaqaoldi tayyorgarlik bosqishlarining mashg‘ulotlari kattaligi va yo‘nalish tizimlarini takomillashtirish, maxsus jismoniy tayyorgarligi sifatlarini rivojlantirish belbog‘li kurashshilar organizmiga harakat mexanizmining ta’sir samaradorligini oshirish, turli yo‘nalishdagi katta yuklamali mashg‘ulotlar ta’siri tavsifi va ularning qo‘shimsha mashg‘ulotlar bilan uyg‘unlashtirilishi, mikrosikllarda mashg‘ulotlarni ratsional almashlab o‘tkazishga oid quyidagi qonuniyatlar va uslublar aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, 2020 yil 04 noyabrdagi “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish” chora-tadbirlari to‘g‘risida PQ-4881-son qarori/WWW. Lex.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, 2020 yil 24 yanvardagi “O‘zbekiston respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish” chora-tadbirlari to‘g‘risida pf-5924-son farmoni/WWW. Lex.uz.

3. Kerimov F.A. Yakka kurash elementlariga ega bo‘lgan xarakatli o‘yinlar. T.: Ilmiy texnika axborroti-press nashriyoti, 2020.-79 b.

4. Salomov R. S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati (Darslik). T., 2012 y.-297 b.

5. Tajibaev S.S. Usmir yakkakurashchilarning kompleks tayyorgarligida xarakatli o‘yinlarni qo‘llash metodikasini ilmiy pedagogik asoslash des. 2020.-53 b.

6. Tastanov N.A. Yuqori malakali yunon-rum kurashchilarining musobaqa faoliyatiga bog‘liq tezkor-kuch tayyorgarligini rivojlantirish uslubiyati. /"Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va uslubiyatining zamonaviy muammolari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. T., 2015, II qism, B. 276-277.

7. To‘yshiyev T.S. Yuqori malakali belbog‘li kurashshilarning vazn toifasini inobatga olgan holda musobaqaoldi tayyorgarligini rejalashtirish. Ch.: 2024..diss, B. 122.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Mamadjonova Shahlo To'ychiboy qizi
NamDU San'atshunoslik kafedrasi
Rangtasvir(dastgohli) ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

O'ZBEK RASSOMLARINING IJODIDA TASVIRIY SAN'AT JANRLARINING RIVOJI

Annotatsiya: *Tasviriy san`atni o'rganish har bir talaba uchun juda muhimdir. Uning natijasida insoniyat yaratib qoldirgan madaniy boyliklar faqat o'tmishda qolgan yoki yaratilayotgan taraqqiyot qonuniyatlarini tushunish, nodir yodgorliklar bilan tanishish, hayotga yanada keng va atroflicha yondoshishga yordam beradi. San'atning turlari juda ko'p. Ular musiqa, kino, teatr, xoreografiya, tasviriy san'at va boshqalardir. Odatda borliqni tasviriy obrazlarda, shakllarda, fazoviy kenglikda yoki tekislikda (qog'oz yuzasida, devor yuzasida va hokazolarda) aks ettiradigan san'at tasviriy san'at deb ataladi. San'atkor real borliqni o'z asarlarida tasvirlar ekan, u hech vaqt uni mexanik ravishda ko'chirmaydi.*

Kalit so'zlari: *Natyurmort, animalistik, manzara, me'morlik, amaliy san'at, tasivriy san'at, grafika, haykaltaroshlik, avangard, impressionizm, kubizm, mazayika, vitraj, rangtasvir, rel'ef, barel'ef, gorel'ef, freska.*

Мамаджонова Шахло Тойчибой кызы
Кафедра искусствоведения НамГУ
Живопись(станковая) направление обучения студент 3 курса

РАЗВИТИЕ ЖАНРОВ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА В ТВОРЧЕСТВЕ УЗБЕКСКИХ ХУДОЖНИКОВ

Аннотация: *Изучение изобразительного искусства очень важно для каждого школьника. В результате культурные богатства, созданные человечеством, лишь помогают понять законы развития, оставшиеся в прошлом или создаваемые, познакомиться с редкими памятниками, подойти к жизни шире и комплекснее. Существует много видов искусства. Это музыка, кино, театр, хореография, изобразительное искусство и другие. Обычно изобразительным искусством называют искусство, которое представляет существование в визуальных образах, формах, пространственных размерах или плоскости (на поверхности бумаги, поверхности стены и т. д.). Пока художник изображает в своих произведениях реальное существование, он никогда не копирует его механически.*

Ключевые слова: *Натюрморт, животное, пейзаж, архитектура, прикладное искусство, изобразительное искусство, графика, скульптура, авангард, импрессионизм, кубизм, мозаика, витраж, живопись, рельеф, барельеф, горельеф, фреска.*

Mamadjanova Shahlo Tuychiboy kizi
NamSU Department of Art Studies
Rangtasvir (workshop) Educational Course 3-year student

DEVELOPMENT OF FINE ARTS GENRES IN THE WORK OF UZBEK ARTISTS

Abstract: *The study of fine arts is very important for every student. As a result, the cultural wealth created by humanity helps to understand the laws of development that have remained in the past or are being created, to get acquainted with rare monuments, and to take a broader and more comprehensive approach to life. There are many types of art. These are music, cinema, theater, choreography, fine arts, etc. Usually, art that reflects reality in figurative images, forms, spatial dimensions or planes (on paper, walls, etc.) is called fine arts. Since the artist depicts real reality in his works, he never mechanically copies it.*

Keywords: *Still life, animalistic, landscape, architecture, applied arts, fine arts, graphics, sculpture, avant-garde, impressionism, cubism, mosaic, stained glass, painting, relief, bas-relief, high-relief, fresco.*

San'at juda qadim zamonlarda, mehnat jarayonining taraqqiyoti natijasida paydo bo'ldi. Mehnat jarayonida inson tafakkuri kamol topdi., go'zallik hissi ortdi, voqelikdagi go'zallik, qulaylik va foydalilik tushunchalari kengaydi. Sinfiy jamiyat vujudga kelishi bilan esa ijtimoiy taraqqiyotda katta o'zgarishlar sodir bo'ldi: aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralib chiqa boshladi. Bu esa fan va san'at rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Tasviriy san`atni

o‘rganish har bir talaba uchun juda muhimdir. Uning natijasida insoniyat yaratib qoldirgan madaniy boyliklar faqat o‘tmishda qolgan yoki yaratilayotgan taraqqiyot qonuniyatlarini tushunish, nodir yodgorliklar bilan tanishish, hayotga yanada keng va atroflicha yondoshishga yordam beradi. San'atning turlari juda ko‘p. Ular musiqa, kino, teatr, xoreografiya, tasviriy san'at va boshqalardir. Odatda borliqni tasviriy obrazlarda, shakllarda, fazoviy kenglikda yoki tekislikda (qog‘oz yuzasida, devor yuzasida va hokazolarda) aks ettiradigan san'at tasviriy san'at deb ataladi. San'atkor real borliqni o‘z asarlarida tasvirlar ekan, u hech vaqt uni mexanik ravishda ko‘chirmaydi. Aks holda, u yaratgan san'at asarlarining fotograf yaratgan rasmlardan farqi bo‘lmay qoladi. San'atkorning vazifasi oliyroqdir. U hayotda mavjud bo‘lgan voqea va hodisalarni tasvirlar ekan, u tasvir orqali o‘zini hayajonlantirgan biron bir fikrni ilgari suradi, ijtimoiy hayotda sodir bo‘layotgan voqea va hodisalarning mohiyatini ochib berishga intiladi, ularga o‘z munosabatini bildiradi, hukmini chiqaradi. Masalan, rassom biror shaxsning rasmini ishlar ekan, u hech vaqt uni faqat o‘ziga o‘xshatishga intilish bilan chegaralanmaydi.

Rassom shu ishlayotgan tasviri orqali, avvalo, o‘zining fikr va tuyg‘ularini tomoshabinga yetkazishga harakat qiladi. Tomoshabin rasmda tasvirlangan olijanob, mard kishilar obrazini ko‘rib, undan g‘ururlanadi (chunki rassom ham g‘ururlanib shu rasmni ishlagan) unga taqlid qiladi, undan o‘rnak oladi. Agar asarda pastkash, razil odam tasvlrlangan bo‘lsa, tomoshabin undan nafratlanadi. Tomoshabin o‘zlda shunday xususiyatlar bo‘lmasligi uchun harakat qiladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, tasviriy san'at asarlari san'atning boshqa turlari - adabiyot, kino, teatr va hokazolar kabi insondagi ajoyib fazilat borliqni bilish, uni o‘rganish va sirlarini ochishga bo‘lgan ehtiyojlarni qondirishga faol ta’sir ko‘rsatadi. Tasviriy san'at asarlari ko‘rish uchun mo‘ljallangan san’atdir. Uni ko‘rish orqaligina zavq olish mumkin. Kuy va ashulaning go‘zalligini so‘z bilan ta'riflab bo‘lmaganidek, rassomning asarlarini ham so‘z bilan to‘liq ta'riflash mumkin emas. Tasviriy san'at asarlarini to‘g‘ri tushunishga oid ba'zi misollarga murojat qilaylik.

A.Plastovning «Peshin» deb nomlangan asarining sujeti juda sodda, hatto bir qarashda san'atga loyiq mavzu yo‘qqa ham o‘xshaydi. Shu asarni so‘z bilan ta'riflansa, eshitgan odam, xo‘sh, nima bo‘pti, deyishi va unga beparvo bo‘lishi ham mumkin. Lekin asarga qaragan tomoshabin hech qachon shunday demaydi. Ko‘rinishdan sodda bo‘lib tuyulgan bu asar uni o‘ylashga majbur qiladi, tevarak-atrofning naqadar go‘zal ekanligini his qilishga, shu go‘zallikdan hayajonlanishga da'vat etadi. Haqiqatdan ham beg‘ubor, kuchga to‘lgan sokin tabiat, zilol suv, kishi qalbiga orom beruvchi quyoshning mayin nurida qanchadan-qancha go‘zallik, latofat bor. Rassom shulardan quvonadi, shu quvonchini boshqalar bilan o‘rtoqlashishga intiladi. Bunga erishish uchun tasviriy san'atning ifoda vositalari kompozitsiya, kolorit, yorug‘, soya, chiziq, faktura imkoniyatlaridan foydalanadi. Rassom shunday kompozitsiya tanlaganki, bu voqeaning qachon va qayerda sodir bo‘layotganini ochib, rasm ishlangan yuza (xolst) - ning bir butun bo‘lib ko‘rinishini ta'minlagan. Shu rasmdan kompozitsiyadan biron-bir detalni, aytaylik, mototsiklni olib tashlaylik yoki obrazlarning birortasining o‘rnini o‘zgartirib ko‘raylik-chi, u holda tasvirning ta'sir kuchi yo‘qoladi. Kompozitsiya yaxlitligi buziladi. Rassom yorug‘ va soya imkoniyatlaridan foydalanib, voqea sodir bo‘layotgan vaqtni ko‘rsatishga erishgan. Suv ichayotganlarning tagiga tushayotgan soya voqeaning peshinda, quyoshning tikkaga kelgan paytida sodir bo‘layotganligidan dalolat beradi. Asar uchun tanlangan rang gammasi - kolorit yozning issiq jaziramasini his etishga xizmat qilgan. Quyosh nuriga to‘yingan sarg‘ish-yashil ko‘katlar hamda qizil mototsikl, quyosh nurida toblanib, qizargan odamlar gavdasining ranglari birgalikda butun asarning rang gammasini tashkil etadi. Shuning uchun ham asarga qaraganimizda shu issiq rang gamma hisobiga biz yozning jazirama issig‘ini his qilgandek bo‘lamiz. Kompozitsiya markazidagi buloq suvining salqini shu jaziramani yorib atrofga salqin havo taratayotgandek va hayotning o‘ziga xos kurashini tomoshabinga ko‘z-ko‘z qilayotgandek tuyuladi.Rassom asar yaratganda chiziqlarning emotsional imkoniyatlaridan ham foydalanadi. Ma'lumki, har xil chiziq kishida har xil taassurot qoldiradi. Silliq ehiziqlar ko‘p hollarda sokinlik, xotirjamlik baxsh etsa, aksincha pala-partish, har tomonga yo‘nalgan egriziqlar notinchlik, hayajon tug‘diradi.Tasviriy san'at asarlarini kuzatganda undagi har bir obrazning psixologik kechinmalari qanday yechilganligini, ularning tevarak-atrofga bo‘lgan munosabatini to‘g‘ri ko‘rsatib bera olish ham muhim o‘rinni egallaydi. Shuning uchun rassom ishlatgan ranglar jilosiga ham, bo‘layotgan voqeaning kompozitsiyasiga ham, rassomning ishlash mahoratiga, tanlangan har bir shakl xarakteriga, umumiy rang gammasi-koloritiga, yuzaning xarakteriga (masalan, rassom ishlagan holat yuzasining silliqligi yoki g‘adir-budurligiga) ham e'tibor berish, ular nima uchun shunday olinganiga javob topishga harakat qilish zarur. Shundagina tasviriy san'at asarlarining asl mohiyatini tushunib yetish va ularni to‘g‘ri tahlil qila olishni o‘rganish mumkin.Tasviriy san’at tur va janrlari. Tasviriy san'at tushunchasi keng ma'noga ega. Tasviriy san'at deyilganda, grafika, rangtasvir, haykaltaroshlik san'ati tushuniladi. Me'morchilik va dekorativ-amaliy san'at asarlari ham qisman tasviriy san'atga kiradi. Haqiqatda esa ularda mavjud borliq tasvirlanmaydi. Lekin bu san'at asarlarida ijodkorning maqsadi, fikri, his-tuyg‘ulari, orzu-istaklari o‘z aksini topadi. Demak, ijodkorning dunyoqarashida ma'lum miqdorda davr ruhi va mazmuni o‘z aksini topadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, me'morchilik va amaliy san'at buyumlari ham tasviriy san'at sifatida qaraladi.

Tasviriy san'atning hamma turlari bir-biriga juda yaqin va ularning bir qator o‘xshashliklari bor. Lekin shu bilan birga, ulardan har birining o‘ziga xos tasviriy uslublari va texnikasi mavjud. Bundan tashqari, ularning har biri ishlatilish o‘rni, aks ettiradigan mavzusi, ishlanish uslubiga qarab bir qator tur va janrlarga bo‘linadi.

Grafika. Hozirgi zamon san'atining keng tarqalgan turlaridan biri grafika san'atidir. Tasviriy san'atning bu turiga oddiy qora qalamda chizilgan su`rat, mavzulik kompozitsiyalar, kitobning ichki va tashqi tomoniga ishlangan turli rasm, illyustratsiya, plakat, karikatura, sharj, etiketka, marka, ekslibris va boshqalar kiradi. Grafika san'ati asarlari hajm jihatdan uncha katta bo‘lmay, ko‘p hollarda qog‘ozga ishlanadi. Grafikaning xarakterli tomonlaridan biri, uning seriyali qilib ishlanishi, ya'ni voqeani bir necha qog‘ozda tasvirlanishidir. Bunday seriyali rasmlar o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq bo‘lib, ma'lum bir mazmunni ochib beradi. Grafika san'ati hozir javob san'atdir. Masalan, rassomlik asarlari yaratilishi uchun uzoq vaqt kerak bo‘ladi (axir ba'zi rassomchilik asarlarini yaratish uchun 15-20 yil kerak bo‘lgan), grafika san'ati asarlarida esa shu bugun sodir bo‘lgan voqea shu bugunoq o‘z aksini topishi mumkin. Grafika san'atida rang ishlatilmaydi, ishlatilsa ham, uning xarakterli tomonini belgilamaydi. Masalan, D. Moorning «Sen ko‘ngilli bo‘lib yozildingmi?», Toidzening «Ona Vatan chaqiradi!» degan plakatlarida odam kiyimi ochiq qizil rangda ko‘rsatilgan. Aslida hayotda bunday voqeani uchratish qiyin. Rassom rang orqali o‘z asarining yanada ta'sirchan bo‘lishiga erishgan. Kishi shu plakat oldidan o‘tib borar ekan, qizil rang uning diqqatini o‘ziga tortadi. Natijada u to‘xtab plakat mazmunini chuqurroq bilib oladi. Rus san'atining atoqli vakillari Mayakovskiy, Cheremnixlar qizil rangdan davlatning ramzi sifatida foydalanganlar, ular rus kishilarining rasmini qizil rang bilan, hokimiyatning dushmanlarini esa qora va ko‘k ranglarda ishlab, o‘z g‘oyalarini tez va oson tushunarli bo‘lishiga erishganlar. Grafika asarlari o‘zining bajaradigan funksiyasi va mazmuniga qarab, dastgoh grafikasi, kitob va gazeta-jurnal grafikasi, plakat hamda amaliy grafika san'atiga bo‘linadi. Dastgoh grafika san'atiga mustaqil xarakterga ega bo‘lgan, o‘zida tugal fikrni anglata oladigan, yangi g‘oyalarni ilgari suradigan grafika asarlariga aytiladi. Dastgoh grafika san'ati asarlarining ko‘rinishlaridan biri estampdir. Dastgoh grafikasi asarlarida biron-bir mazmun, odamlarning xatti-harakati, tabiat ko‘rinishi yoritiladi. Kitob va gazeta-jurnal grafikasi turi dastgoh grafikasidan farq qilib, bevosita kitob va jurnal mazmuni bilan bog‘liq bo‘ladi hamda ularning maqsad va mazmunini to‘laroq ochib berish uchun xizmat qiladi. Kitob va gazeta-jurnal grafikasiga rassom tomonidan kitob va gazetalarga chizilgan turli rasmlar, bezaklar, harf kompozitsiyalari kiradi. Kitob hamda gazeta-jurnal grafikasining ko‘rinishlaridan biri bu illustratsiyalardir. Illustratsiya biron-bir badiiy asar bilan bog‘liq bo‘lib, shu asarda tasvirlangan biron-bir lavhaning tasvirini aks ettiradigan rasmga aytiladi. Rassom biror-bir hikoya yoki kitobga illustratsiya ishlashga o‘tishdan oldin uni sinchiklab o‘qiydi, matnda tasvirlangan har bir obrazning xarakterini, voqea sodir bo‘layotgan joyning xususiyatlarini o‘rganib chiqadi, shundan keyingina unga illustratsiya ishlashga kirishadi.Illustratsiyaning maqsadi badiiy asar mazmunining chuqurroq ochilishiga va ta'sirliroq bo‘lishiga yordam berishdir. Illustratsiyalar turli ko‘rinishda bo‘ladi. Illustratsiyalarda badiiy asarda ishtirok etuvchi shaxs portreti, shuningdek, muhim voqealar tasvirlanishi mumkin. Kitob va gazeta-jurnal grafikasining ko‘rinishlaridan yana biri karikatura bo‘lib, u tanqidiy xarakterga ega bo‘ladi hamda o‘zida satira va yumorni mujassamlashtiradi.Karikaturachi rassom hayotda mavjud bo‘lgan voqea va hodisalarni o‘z asariga mavzu qilib oladi va uning ba'zi tomonlarini bo‘rttirish orqali rasmlarning qiziq va kulgili bo‘lishiga erishadi. Bu orqali rassom hayotdagi kamchiliklarni tanqid qiladi, jamiyat taraqqiyotiga xalaqit beradigan, zamonamiz, kishilarimiz sha'niga dog‘ bo‘lgan hodisa, illat va marazlarni qoralaydi, mavjud bo‘lgan nodonlik, xurofot, tekinxo‘rlik, poraxo‘rlik, davlat mulkiga xiyohat qiluvchilarning basharalarini ochib tashlaydi. Grafika san'atining turlaridan yana biri plakatdir. Plakat lotincha so‘zdan oUngan bo‘lib, «e'lon», «guvohnoma» degan ma'noni anglatadi. Grafika san'atining nihoyatda keng tarqalgan turlaridan biri amaliy grafikadir. Turli xildagi etiketkalar, konvert yuzasiga ishlanadigan bezak rasmlar, tabriknoma, telegrammalar, markalar grafikaning shu turiga mansub.

Amaliy grafika shunchaki bezak uchun ishlatiladigan san'at emas, u ham san'atning boshqa turlari kabi ijtimoiy hayotda faol qatnashadi, jamiyatda bo‘layotgan yangiliklar bilan ommani tanishtiradi. Hukumatning g‘oyalarini xalq orasida targ‘ib qiladi.Grafika san'ati eng demokratik san'atdir. U goh plakat tarzida, goh gugurt qutichasining yuzasiga ishlangan tasvir tariqasida, goh gazeta sahifalaridagi surat tarzida o‘lkaning uzoq chekkalariga kirib boradi, o‘sha yerlarda ma'rifat tarqatadi, kishilarni bo‘layotgan yangiliklar bilan tanishtiradi. Shuning uchun ham grafika san'ati katta g‘oyaviy-siyosiy ahamiyatga egadir.

Rangtasvir. Tasviriy san'atning ikkinchi bir turi rangtasvir san'nlidir. Devorlarga ishlangan turli rasmlar, polotnolarga chizilgan surat, kino va teatr dekoratsiyalari shu san'at turiga kiradi. Rangtasvirda rang muhim o‘rinni egallaydi. Agar grafika san'atida rang shunchaki yordamchi vazifani o‘tasa, rangtasvirni esa rangsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Rassom rang orqali borliqni ko‘rinarli obrazlarda tasvirlaydi, makonning cheksizligini, undagi narsalarning rang-barangligini, moddiyligini, hajmini ko‘rsatadi. Rangtasvir asarlari yana o‘zining vazifasi va ishlanish uslubiga ko‘ra monumental, dastgoh va dekorativ turlarga bo‘linadi.

Monumental rangtasvir me'morlik bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu turdagi asarlar mustaqil mazmuniga ega hamda ularda jamiyat hayotidan olingan muhim voqealar aks ettiriladi. Bunday asarlar odatda uzoqdan ko‘rishga mo‘ljallanganligi tufayli obrazlarni iloji boricha umumlashtirilgan holda tasvirga, mayda detallardan iloji boricha kamroq foydalanishga-harakat qilinadi. Ranglar ham birmuncha shartli olinadi, shunga qaramasdan u borliq to‘g‘risida real tasavvur berishi kerak. Monumental rangtasvir me'morchilikda ma'lum miqdorda bezash vazifasini ham o‘taydi, shuning uchun ham uni ba'zan monumental - dekorativ rangtasvir deb ham yuritiladi. Monumental rangtasvir asarlari bajarilish usuliga qarab o‘z navbatida bir necha turlarga bo‘linadi. Bular: freska, mozaika va pannodir. Freska odatda devorga to‘g‘ridan to‘g‘ri suvoq ustiga ishlanadi. Bolonka rangli tosh, shisha, bo‘yalgan oyna, sirli sopol parchalaridan ishlanadi. Devorga ishlangan surat yoki o‘yma naqshlar ba'zan har xil shakldagi ramkalar (to‘rtburchak, kvadrat, beshburchak va hokazolar) bilan chegaralangan bo‘ladi - bu pannodir. Panno dastlab alohida yuzada (xolstda, ganchda, yog‘ochda) ishlanib olinib bitgandan so‘ng devorlarda qoldirilgan maxsus o‘rinlarga o‘rnatiladi. Lekin mazmun jihatdan mustaqil xarakterga ega bo‘lishi ham mumkin. Ba'zi hollarda panno dastlab xolstga moy bo‘yoq bilan ishlanib, keyin kerak bo‘lgan o‘ringa yopishtiriladi. Dekorativ rangtasvir me'morchilik va amaliy san'at bilan bog‘liq bo‘lib, asosan bezash vazifasini o‘taydi. Dekorativ rang tasvirga naqqoshlik san'ati, teatr, kino dekoratsiyalari va qisman monumental rassomchilik ham kiradi. Dekorativ rangtasvir monumental rangtasvir singari to‘g‘ridan to‘g‘ri devorga ishlanishi, panno, mozayka tarzida bo‘lishi mumkin. Dastgoh rangtasvir hozirgi zamon tasviriy san'atida yetakchi o‘rinni egallovchi san'at turlaridan biri hisoblanadi. Odatda u maxsus ramkaga tortilgan matolar ustiga ishlanadi. Bunday rasmlar molbert deb ataladigan alohida dastgohda ishlangani uchun ham ularni dastgohli rasmlar deyiladi.Bunday rassomchilik asarlari jamiyatda bo‘layotgan muhim voqea va hodisalarni aks ettirishidan tashqari, shaxsning individual xislatlarini, kechinmalari, his-tuyg‘ularini to‘liq ko‘rsatish imkoniyatiga egadir. Shuningdek, ularda tabiatda bo‘layotgan o‘zgarishlar o‘zining yorqin ifodasini topadi. Dastgoh rangtasvir monumental va dekorativ rang tasvirdan farqli o‘laroq, mustaqil ahamiyatga ega, u boshqa biron san'atga bog‘lanmaydi. Dastgoh rassomligi birmuncha kech paydo bo‘lgan bo‘lib, uning rivojlanish davri Uyg‘onish davriga to‘g‘ri keladi. Hozirgi kunda esa tasviriy san'at turlari ichida uning keng tarqalgan turlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonda rassomchilikning bu turi asosan XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab paydo bo‘lgan. Hozirgi kunda u o‘zbek tasviriy san'atida yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi.Haykaltaroshlik. Tasviriy san'atning turlaridan biri bo‘lgan haykaltaroshlik asarlarida borliq hajmga ega bo‘lgan shakllar orqali makonda tasvirlanadi. Stol ustiga qo‘yiladigan haykalchalar, park va xiyobonlarga o‘rnatilgan turli haykal va yodgorliklar, binolarning devorlariga, tanga, belgi, medal kabi buyumlarning yuzasidagi bo‘rtma tasvirlar haykaltaroshlik san'atining turli ko‘rinishi hisoblanadi.

Haykaltaroshlik asarlari o‘z ishlatilish o‘rni, bajaradigan vazifasi va tayyorlanish usuliga qarab turlicha nomlanadi. Ular odatda dumaloq va qabariq ko‘rinishda bo‘ladi. Dumaloq haykallarni hamma tomondan aylanib ko‘rish mumkin bo‘lsa, qabariq haykallarni yuzaga bo‘rttirib ishlanganligi sababli faqat bir tomondan ko‘riladi. Qabariq haykallar relef deb ataladi. «Relef» fransuzcha so‘z bo‘lib, yuza degan ma'noni bildiradi. Relefli haykallarda asosiy obrazlar bilan bir qatorda, kenglik, tabiat manzaralarining ko‘rinishi ham aks etadi. Shuning uchun bunday releflarni ba'zan perspektivali relef deb ham yuritiladi. Relef, o‘z navbatida, ikki turga bo‘linadi. Ulardan biri barelef, ikkinchi turi esa gorelefdir. «Barelef» ham fransuzcha so‘zdan olingan bo‘lib, past relef degan ma'noni anglatadi. Barelefda haykal tekis yuzaga nisbatan biroz qabargan (bo‘rtgan) bo‘lib, lekin uning qalinligi o‘zining haqiqiy qalinligining yarmidan oshmasligi lozim. Masalan, tanga, znachok, medal yuzalaridagi bo‘rtma tasvirlar bunga misol bo‘la oladi. Bareleflar ayniqsa, amaliy san'at buyumlarini, me'morchilik binolarini bezashda juda qo‘l keladi. Qadimgi Gretsiyada hayotda ishlatiladigan turli xil buyumlar, masalan, ko‘za, guidon, qurol-aslahalarning yuzalarini bareleflar bilan bezaganlar, binolarning devorlariga turli hayotiy voqealarni aks ettiruvchi bo‘rtma tasvirlar ishlaganlar. «Gorelef» so‘zi ham fransuzcha bo‘lib, baland relef ma'nosini bildiradi. Haykaltaroshlikning bu turida tasvirlar yuzadan sezilarli darajada bo‘rtib chiqqan bo‘lib, uning qalinligi o‘zining haqiqiy qalinligining yarmidan oshgan bo‘lishi shart.

Relefning yana bir turi bor. Bu o‘yib ishlangan releflardir. Bunday releflar odatda tekis yuzaga o‘yib ishlanadi. Yuzani o‘yish natijasida hosil bo‘ladigan yorug‘-soya o‘yini hisobiga tasvir ko‘zga tashlanadi. Bunday releflarning imkoniyati chegaralangan bo‘lganidan ular amalda juda kam qo‘llaniladi. Bunday releflar qadimgi Misrda ishlatilgan. Haykaltaroshlik asarlari uchun turli xildagi materiallar ishlatiladi. Bu materiallar haykalga turli xarakter va mazmun berishda xizmat qiladi. Masalan, tosh-granitda ishlangan haykallar kishida ulug‘vorlik, adabiylik baxsh etsa, aksincha, marmarda ishlangan haykallar nozik, ko‘rkam ko‘rinadi. Shuning uchun haykallar o‘zining mazmuni va o‘rnatiladigan joyiga qarab, har xil materiallardan ishlanadi. Haykaltaroshlik materiallari ko‘p. Bu plastilin, loy, yog‘och, metall, marmar, granit, suyak, sement, gips va hokazolardir. Qimmatli metallar-oltin, kumush, nikellar ham haykaltaroshlikda qo‘llanadi. Haykaltaroshlikda deyarli rang ishlatilmaydi. Xalq haykaltaroshligida haykallarni bo‘yash hollari uchraydi.

Bunga O‘zbekiston hududidan topilgan qator haykaltaroshlik asarlari misol bo‘la oladi. Haykaltaroshlik asarlari ham tasviriy san'atning boshqa turlari kabi o‘zining bajaradigan vazifasi, mazmuniga qarab qator tur va janrlarga bo‘linadi. Haykaltaroshlik turlari deganda biz monumental, dekorativ va dastgoh haykaltaroshligini tushunamiz. Monumental haykaltaroshlikka muhim tarixiy voqealar, atoqli shaxslar xotirasini abadiylashtirish maqsadida o‘rnatilgan yirik o‘lchovdagi, turli xildagi yodgorliklar, haykaltaroshlik ansambllari kiradi. Odatda monumental haykaltaroshlik asarlari o‘zida katta mazmunni anglatib, mustaqil xarakterga ega bo‘ladi. Lekin shu bilan birga, u bevosita muhit bilan bog‘liq bo‘lib, me'morchilik binolari hamda tabiat bilan uyg‘unlikda bo‘lishi lozim. Bu unga yanada ulug‘vorlik va ta'sirchanlik baxsh etadi. Monumental haykaltaroshlik asarlariga xos bo‘lgan xysusiyatlardan biri bu tasvirlanayotgan qahramonlarning ko‘tarinki ruhdagi tasviridir. Monumental haykaltaroshlik asarlari doim ochiq havoda turish uchun mo‘ljallangan bo‘lganligi sababli ular uzoq turadigan qattiq materialdan, masalan, tosh, bronza va hokazolardan ishlanadi. Bulardan tashqari, monumental haykaltaroshlik asarlari uzoqdan ko‘rishga mo‘ljallanganligi sababli ularda katta-katta yaxlit shakllardan keng foydalaniladi. Odam yuzidagi mayda detallar, kiyimdagi buklanishlar, undagi mayda detallar ko‘rsatilmaydi. Istirohat bog‘lari, xiyobon va ko‘chalar, shuningdek, me'morchilik binolarining devorlarini bezash uchun ishlatiladigan haykallarning hamma turlari dekorativ haykaltaroshlik san'atiga kiradi. Haykaltaroshlik san'atining bu turi monumental haykaltaroshlikdan shu bilan farq qiladiki, agar monumental haykaltaroshlik asarlari o‘zida mustaqil mazmunni anglatib, me'morchilikka ham, tevarak-atrofga ham tobe bo‘lmagan holda, kishiga mustaqil fikrni bera olsa, dekorativ haykaltaroshlik asarlari esa bevosita me'morchilik bilan bog‘liq bo‘ladi. Bundan tashqari agar monumental haykaltaroshlik asarlarini ishlashda obrazlarni ko‘tarinki ruhda ishlansa, dekorativ haykaltaroshlik asarlarida esa obrazlar biroz yumoristik tarzda talqin etiladi, bo‘rttiriladi. Haykaltaroshlikning bu turida turli hayvon va qushlar shakli keng ishlatiladi. Binolarning devorlariga ishlanadigan turli bo‘rtma tasvirlar, amaliy san'at buyumlarining yuzasiga ishlangan tasvirlar ham dekorativ haykaltaroshlikka kiradi. Turli fontanlar, panjaralar, badiiy darvozalar ham dekorativ haykaltaroshlik namunalari sifatida qaraladi. Chinnidan yasalgan turli haykalchalar, loydan ishlangan o‘yinchoqlar ham shu haykaltaroshlikning ko‘rinishi hisoblanadi. Dastgoh haykaltaroshligiga o‘zida mustaqil mazmunni anglatadigan, san'atning bosh turlariga tobe bo‘lmagan asarlar kiradi. Bunday asarlar ko‘rgazmalarga qo‘yish, uylarga qo‘yish uchun mo‘ljallangan bo‘ladi. Haykaltaroshlikning bu turida voqelik o‘zining butun borlig‘i bilan aks etadi. Haykaltaroshlik san'atining bu turi inson, psixologiyasidagi nozik o‘zgarishlar, uning ichki ruhiy kechinmalari, kayfiyatini ochib berish imkoniyatiga ega. Xuddi shu holda u tabiatdagi mavjud hayvon va jonivorlami ishlashda ham ularning hayoti, kuchi, xarakterini ko‘rsata oladi. Dastgoh haykaltaroshligining ko‘rinishlaridan biri byust bo‘lib, u odam gavdasini aks ettiruvchi dumaloq haykal hamda o‘zida bir qator obrazlarni mujassamlashtirgan haykallar guruhi (kompozitsiya) tarzida bo‘ladi. Haykaltaroshlik san'atining yana bir ko‘rinishi - terrakota hisoblanadi («terrakota» italyancha so‘z boiib, pishirilgan loy ma'nosini bildiradi). Terrakota keng ma'noda loydan yasalib, pechda pishirilgan haykaltaroshlik asarlaridir. Haykaltaroshlikda insonning faqat tashqi ko‘rinishi tinch turganligi holati yoki harakatdagi paytini aks ettirish bilan uning imkoniyati tugamaydi. Undagi kechinmalar, uning hayajon va g‘amginligi, kelajakka intilishi va o‘tmishga qayg‘urishi ham o‘z ifodasini topadi. Haykaltarosh asarida insonning tevarak-atrofga bo‘lgan munosabati ham, qalbidagi iztirob ham ishonarli talqin etilishi mumkin. Bunda, albatta, eng avvalo, haykaltaroshning o‘ta ziyrakligi, odam gavdasi va mimik o‘zgarishlarini to‘g‘ri ifodalashi muhim o‘rinni egallaydi. To‘g‘ri topilgan harakat yuzdagi mimik holat - bular uning ta'sirli bo‘lishiga zamin tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Amanullaev, a. (2022). Specific factors of comprehensive study and analysis of the history and culture of the uzbek people. Asia pacific journal of marketing & management review issn: 2319-2836 impact factor: 7.603, 11(02), 1-4.

2. Amanullaev, a. A. (2022). Current issues in the training of future teachers of fine arts. Asia pacific journal of marketing & management review issn: 2319-2836 impact factor: 7.603, 11(03), 1-3.

3. Абдимуминова, д. А., & амануллаев, а. А. (2018). Использование традиций этики" устоз-шогирд"(мастер и ученик) на занятиях прикладного искусства. Novainfo. Ru, 2(85), 203-206.

4. Abdumo‘minovich, a. A. (2023). Qadimda ustalarning shogird tayyorlashda o‘ziga xos milliy ananaviy asoslari. Journal of universal science research, 1(5), 1440-1447.

5. Abdumo‘minovich, a. A. (2023). Bo‘lg‘usi tasviriy san’at o‘qituvchilarini tayyorlashda hozirgi davr dolzarb masalalari. Journal of universal science research, 1(5), 1423-1429.

6. Muhammad, a. (2022). Peculiarities of the scientific study of the relationship between composition and color in the genre of landscape. Asia pacific journal of marketing & management review issn: 2319-2836 impact factor: 7.603, 11(02).

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Parmonov Akmal Abdupattoyevich
Qo‘qon davlat pedagogika instituti
Jismoniy madaniyat kafedrasi katta o‘qituvchisi

MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASALARIDA BOLALARNING JISMONIY RIVOJLANISHI VA JISMONIY TAYYORGARLIK KO‘RSATKICHLARI TAHLILI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yosh avlodni tarbiyalashda maktabgacha ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini to‘g‘ri olib borish jismoniy tarbiya mashqlarining maqsadi sog‘lom va vatan mudofasiga tayyor barkamol insonni tarbiyalash masalasi ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Ta’lim, tarbiya, muassasa, kelajak avlod, vatan mudofasi, jismoniy tarbiya, aqliy tarbiya, jismoniy mashq.*

Пармонов Акмаль Абдупаттоевич
Старший преподаватель кафедры физической культуры
Кокандского государственного педагогического института

АНАЛИЗ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ И ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ ДЕТЕЙ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

Аннотация: *В данной статье раскрывается цель занятий физической культурой в дошкольных образовательных учреждениях для воспитания подрастающего поколения, целью физического воспитания является воспитание здорового человека, готового к обороне страны.*

Ключевые слова: *Воспитание, воспитание, учреждение, будущее поколение, оборона Родины, физическое воспитание, умственное воспитание, физические упражнения.*

Parmonov Akmal Abdupattoyevich
Senior teacher of the Department of Physical Culture of the
Kokand State Pedagogical Institute

ANALYSIS OF PHYSICAL DEVELOPMENT AND PHYSICAL TRAINING INDICATORS OF CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Abstract: *This article discusses the issue of properly conducting physical education classes in preschool educational institutions in the upbringing of the younger generation, the purpose of which is to raise a healthy and well-rounded person ready to defend the homeland.*

Keywords: *Education, upbringing, institution, future generation, defense of the homeland, physical education, mental education, physical exercise.*

Kirish.

O‘zbekistonning kelajagi yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash lozim. Kichkintoylarimizni tarbiyalashda aynan maktabgacha bo‘lgan muassasalarda jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini to‘g‘ri olib borish nihoyatda muhim o‘rin egallaydi. Jismoniy tarbiya mashqlarining pirovard maqsadi sog‘lom va Vatan mudofaasiga hamisha tayyor barkamol insonni voyaga yetkazishdir.

Adabiyotlarda ta’kidlanishicha; O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan bolalar bog‘chasida ta'lim-tarbiya dasturi o‘ziga xos mintaqaviy, iqlimiy, iqtisodiy, madaniy-milliy sharoitlarni hisobga olgan holda tuzilgan. Tavsiya qilingan o‘yinlar va jismoniy mashqlar bolalar organizmini chiniqtirishi, jumhuriyat tabiatining o‘ziga xosligi, uning iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda tanlangandir. Ko‘ngilochar o‘yinlar, xalq o‘yinlari, sport o‘yinlari, voleybol, velosiped uchish, samokatda uchish dasturga kiritilgan. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalash, sog‘lomlashtirish, ta'limiy va tarbiya vazifalarni hal etish uchun ozodalik omillaridan, tabiatning sog‘lomlashtiruvchi kuchlaridan, jismoniy mashqlardan foydalanish muhimdir. Shaxsning g‘oyaviy,

axloqiy yo‘nalishini shakllantirish muammolari muhim ahamiyat kasb etganligi uchun yosh avlodni tarbiyalash, uni mehnatga tayyorlash darajasini oshirishda yuqoridagilardan foydalaniladi.

M.Ya.Studenkin tadqiqoti bo‘yicha bolalarning jismoniy rivojlanishi quyidigicha:

- maktabgacha tarbiya yoshi (3 yoshdan 7 yoshgacha) bolaning rivojlanishidagi eng muhim bosqich, chunki bu davrda bosh miya, organizm organlari va tizimlari ham sifat, ham funktsional jihatdan takomillashadi.

- 4 va 5 yashar bolalar go‘dak bolalarga qaraganda bir muncha sekin o‘sadilar va bu o‘sish yiliga o‘rta hisobda 4-6 santimetrga teng bo‘ladi, xayotning 6-7 yillarida bo‘y o‘sishi 8-10 santimetrgacha tezlashadi. Bu bo‘y cho‘zilishining birinchi davridir. Maktabgacha tarbiya yoshining ikkinchi yarmida bo‘y o‘sishi endokrin tizimida funktsional o‘zgarishlar bo‘lishiga (jumladan, gipofiz funktsiyasining zo‘rayishiga) bog‘liq bo‘ladi.

Hayotining 4-yilida tana vaznining ortishi sekinlashadi va yiliga o‘rtacha hisobda 1,2 kg 1,5 kg ni, hayotining 5-yilida 2 kg ni, 6-yilida 2,5 kg ni tashkil etadi, hayotining 6-7 yiliga borib bir yashar bolaning tana vazniga qaraganda ikki hissa ortadi.

Bolalarda bo‘yning o‘sishi va vaznning ortishi bilan bir vaqtning o‘zida ko‘krak qafasi aylanasida ham o‘zgarishlar sodir bo‘ladi, hayotining 4-yilida u 0,5 - 1 sm ga, 5-6 yoshida 2-2,5 sm ga ortadi. Ko‘krak qafasi aylanasi kattaligi bolaning baquvvatligiga, uning jismoniy rivojlanishiga bog‘liq bo‘ladi.

Bola o‘sar ekan, gavda proportsiyasi ham o‘zgaradi. Masalan, hayotining 7-yilida oyoqlarining uzunligi yangi tug‘ilgan bolalarnikiga qaraganda uch hissa, qo‘llari esa 2 hissadan ko‘proq ortadi, tanasi esa 2 hissa uzayadi. Bu yoshda asosan bola organizmining suyaklar to‘qimasi strukturasi shakllanishi tugaydi.

Maktabgacha tarbiya yoshida bronx-o‘pka apparati sifat jihatidan tez o‘sadi va takomillashadi. Nafas tezligi 1 daqqada 26-27 martagacha kamayadi, nafas olish chuqurroq, nafas chiqarish esa davomliroq bo‘lib qoladi. Shu yoshdagi bolalarda qon aylanish organlarida anchagina funktsional o‘zgarishlar paydo bo‘ladi: yurak massasi ortadi, shu tufayli yurak qisqarishlari kuchi va yurak chidamliligi oshadi. Yurak qisharishlari soni 1 daqiqada 85 zarbadan 95 zarba atrofida bo‘ladi. Arterial bosim yoshi katta bo‘lishi bilan deyarli o‘zgarmaydi: 3-4 95/59 mm simob ustunida, 5-6 yoshda 95/58 mm simob ustunida, 7 yoshida 97/58 mm simob ustunini ko‘rsatadi.

A.K.Hamroqulov, O.V.Pankrateva, A.N.Livitskiyning ilmiy tadqiqot ishlarining ko‘rsatishicha, qo‘l panjalari mushaklarining kuchi 3-4 yoshda 3-4 kg bo‘lsa, 7 yoshda 13-14 kg ga yetadi. 4 yoshdan boshlab o‘g‘il bolalar va qiz bolalar ko‘rsatkichlari o‘rtasida farq ko‘rinadi. Gavda mushaklari kuchi (asosiy kuch) 7 yoshga yetganda deyarli 2 baravar ortadi, (15-17 kg dan 3-4 yil ichida), ya'ni 7 yoshda 32-36 kg ga yetadi.

Yosh o‘zgarishi dinamikasida ayrim keskin bosqichlar belgilanganki, ular morfologik va funktsional xususiyatlar majmui bilan tavsiflanadi.

K.M.Mahkamjonov, F.N.Nasriddinovlar maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishi bo‘yicha olgan ma'lumotlar tahlilining ko‘rsatishicha, 5-7 yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishi bir tekisda bormoqda.

Tadqiqotchi I.R.Kurbanbaev o‘z tadqiqotlarini bolalar uchun kun davomidagi harakatlanish ma'yorini asoslashga qaratib, ularning faolligini ifodalaydigan gipokineziya va uning qarama-qarshi xususiyatlari bo‘lgan giperkineziyaning bolalar funktsional holatiga sezilarli ta'sir ko‘rsatishini isbotlab bergan. Shuning uchun ham harakat faolligini me'yorlash jarayonida bolalarning jinsi, yoshi va iqlimiy sharoitlarni hisobga olmoq zarurligini aytadi. Bolalar harakat faolligini qadam o‘lchagich (shagomer) orqali o‘lchagan, harakat faolligi ko‘rsatkichlarini soat 800-1000 gacha, 1000-1100 gacha, 1100-1300 gacha va 1500-1800 gacha belgilab borgan.

T.Artamonova fikricha, bolalar hayotining uchinchi va to‘rtinchi yillari bola harakatga qarab rivojlanadi. Bu davrda bolalarda koptokni ilib olish irg‘itishga o‘xshash harakat ko‘nikmalari, yugurish, sakrash, gimnastika, narvonga chiqishga o‘xshash harakat ishtiyoqlari hosil bo‘la boshlaydi.

Besh yoshga kelib bolaning kuch qobiliyatlari va morfofunktsional holati rivojlanib, katta mushaklar harakatini boshqara oladi, harakatlari aniq va jo‘shqin bo‘la boshlaydi.

Bo‘lajak avlod - davlat boyligi. Agar oila sog‘lom va mustahkam bo‘lsa, mahallada tinchlik va hamjihatlikka erishiladi. Binobarin, mahallayurt mustahkam bo‘lsagina, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi. Zero oila farovonligi milliy farovonlik asosidir.

Insoniyat ko‘p yillar davomida yosh avlodni sog‘lom tarbiyalash masalasiga ham ijodiy, ham amaliy yondashib kelgan.

Buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy «Odam uchun doim harakatda bo‘lish - xayotlikdan asardir, jonsiz mavjudotlar - tiriklik nishonasidan behabardirlar», - deganida, u ming karra haqdir. Darhaqiqat, inson hayotining negizini kuch-quvvat, sog‘liq va harakat tashkil etadi.

Tana nechog‘lik sog‘ bo‘lsa, ko‘ngil shunchalik osoyishta, ravshan, xushfe'l va xushchaqchaq bo‘ladi.

Buyuk o‘zbek mutafakkiri Abu Ali Ibn Sinoning hayot namunalari va bizga meros qilib qoldirgan durdona fikrlari biz uchun asos qilib olinsa foydalidir.

Uning oila tarbiyasi to‘g‘risidagi fikrlari chuqur mazmunga va katta amaliy ahamiyatga ega ekanligini quyidagi so‘zlaridan bilib olish mumkin: «Bolaning xulqini mo‘'tadillikda saqlashga alohida e'tibor berish kerak.

Bunga esa bolani qattiq g‘azablinishda, qo‘rqish, xafalik va uyqusizlikdan saqlash orqali erishiladi. Xulqning mo‘tadilligi natijasida ham nafas, ham badan sog‘lom bo‘ladi». Abu Ali Ibn Sino tarbiya jarayonida shaxsiy namuna bo‘lish usuli g‘oyat katta ahamiyatga ega ekanligini qayta-qayta uqtirib o‘tgan.

Mutafakkir olim Abu Rayxon Beruniy ham o‘z asarlarida oila tarbiyasiga katta e'tibor bilan qarash lozimligi to‘g‘risida uqtirgan.

Beruniy o‘zining oila tarbiyasi haqidagi risolalarida ota-onalar va tarbiyachilar obro‘sining bolaga ta'sir etish kuchi haqida fikr yuritgan.

Oilada ota-ona bolaning ko‘z o‘ngida o‘z obro‘siga qanchalik ega bo‘lsa, tarbiya shunchalik samarali natijalar beradi.

Dono xalqimizning dono naqli bor: «Sog‘ tanda – sog‘lom aql». Chindan ham jismoniy va ruhiy sog‘liqning aloqadorligi bolalarda yaqqol bilinadi. Bola organizmining barcha fiziologik funktsiyalari bir me'yorda kechganda, u jismonan sog‘lom bo‘ladi.

Olti va yetti yoshlarga kelib bola harakatlari rivojlanib, ko‘nikma hosil qilina boshlanadi. Asosan, umumrivojlantiruvchi mashqlarni chiroyli bajara boshlaydi.

Tadqiqot ishlaridan shular ma'lum bo‘lganki, 4-5 yoshdagi o‘g‘il bolalar 8-7 lokomotsiya, qiz bolalar 6-7 lokomotsiya harakat qilganlar. Adabiyot manbalarining ko‘rsatishicha, bu yoshdagi bolalar bog‘chaga kelishidan to ketgunga qadar o‘rtacha hisobda 9-9,5 ming harakat qiladilar.

5-6 yoshli bolalar esa o‘rtacha hisobda o‘g‘il bolalar 9-10 ming qadam, qiz bolalar esa 8-9,5 ming qadam harakat qiladilar. 6-7 yoshli o‘g‘il va qiz bolalarda 14-15 lokomotsiyani tashkil qilgan.

Toshkent shahridagi 6-7 yoshli o‘g‘il va qiz bolalarning harakati 11-13 ming qadamni tashkil qiladi.

Natijalar shunday xulosa qilishga imkon beradiki, Toshkent shahri bolalarining bog‘cha davridagi harakatlari barcha guruhlarda boshqa shaharlik tengqurlaridan orqada qolib kelyapti, kun tartibida qilingan o‘rtacha hisobda 2-3 ming qadam harakatlar kamdir.

Bolalar jismoniy tarbiyasi, harakat faolligi va sog‘lomlashtirishni yuqori saviyaga ko‘tarishda nafaqat profilaktik ko‘rik, yoyinki tibbiy nazorat zarur.

Mamlakatimiz oldida turgan katta muammolardan biri moddiy bazaning qashshoqligidir. Jumladan, maktabgacha tarbiya muassasalarining jismoniy tarbiya va sport moddiy bazasi ham achinarli holda. Respublikamiz bolalarning 37% bolalar bog‘chalariga qatnar ekan, qolgan qismi, ya'ni 2 mln. bolajonlar bunday imkoniyatdan baxramand emaslar. Misol uchun: Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida bolalar muassasalari; 22-25% ni tashkil etadi. Sababi qishloq joylarida qurilish ishlarining qisqartirilganligidadir. “O‘zagroqurilish" ma'lumotiga ko‘ra, 1991 yili bolalar muassasalarini qurish uchun 25,3 ming, 1991 yilda esa faqat 6,7 ming yoki 3,5 marta kam mablag‘ ajratilgandir.

Maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalar jismoniy tarbiyasini muvaffaqiyatli olib borish, jismoniy tarbiya jarayonida estetik, gigienik va pedagogik talablarni hisobga olgan holda sport anjomlari, sport buyumlari, inshootlarni tanlash, ularni qo‘llash hamda yig‘ish va joylashtirish lozimligi bir qancha olimlarning ishlarida ko‘rsatilgan.

Ma'lumki, jismoniy tarbiya mashg‘uloti oldiga 2-3 ta muayyan vazifalar qo‘yiladi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun tarbiyachi bolalar fiziologiyasi va psixologiyasini yaxshi bilishi kerak. Shunga asoslangan holda va bolalar yoshini hisobga olib, metodik jihatdan to‘g‘ri vositalarni, jismoniy mashqlar hamda harakatli o‘yinlarni tanlash kerak. Tanlangan mashqlar, birinchidan, asosiy harakatlar bilan bog‘liq bo‘lishi, ikkinchidan, mashqlar bolalar yoshiga, tayyorgarligiga, jinsiga mos bo‘lishi lozim.

Bundan tashqari, bu mashqlar bolalarga oddiy, tushunarli, tanish, bajara oladigan bo‘lishi zarur. Shundagina bolalarda harakat ko‘nikmasi hosil bo‘lishi va malaka shakllanishi mumkin.

Bilamizki, bir guruh bolalar o‘rganish materiallarini tez, ikkinchi guruh bolalar nisbatan kechroq, uchinchi guruh bolalar esa ancha kech o‘zlashtirib oladi. Bundan tashqari, o‘rganish materiallarini o‘zlashtirishda umumiy jismoniy tayyorgarlik katta ahamiyatga ega. Bolaning jismoniy tayyorgarligiga iqtisodiy sharoitlar: turar joyi, oilaning moddiy ahvoli, bolalar soni, ota-onaning bilimi, dunyoqarashi va ularning ish joyi, unvoni hamda boshqalar ta'sir ko‘rsatishi mumkin. Olib borilgan kuzatishlar va to‘plangan ma'lumotlar shuni ko‘rsatadiki, bolalarning jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligi, ularning dunyoharashi, nutqi va mashg‘ulotlar jarayonidagi faolligi yuqorida bayon qilingan omillar bilan chambarchas bog‘liq. Shularni e'tiborga olgan holda jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini rejalashtirish, tashkil etish va o‘tkazish zarur.

Foydanalingan adabiyotlar.

1.The role of the acmeologist approach in the development of acmeological motivation in future physical education teachers. Parmonov AkmalAbdupattayevich https://www.gejournal.net/index.php/IJSSIR.2023 y.

2. Improving the system of training teachers of future physical education and introducing innovative-motivational approaches to it. Parmonov Akmal Abdupattoyevich. https://www.gejournal.net/index.php/IJSSIR.2023 y.

3. Abdupattayevich, P. A. (2022). Specific methods and tasks for the physical development of primary school students with the help of games. International journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277 -3630 Impact factor: 7.429, 11(10), 331-333.

4. Abdupattaevich P. A. Technology of formation of akmeological position in future teachers //World Bulletin of Social Sciences. – 2021. – Т. 5. – С. 112-115. https://www.scholarexpress.net

5. Талипджанов А. А., Нурматов Б. Б., Пармонов А. А. Учебно-тренировочный процесс по футболу //International conference: problems and scientific solutions. – 2022. https://doi.org/10.5281/zenodo.7332922

6. Improving the effectiveness of the training process of students. Parmonov Akmal Abdupattayevich. ISSN 2277-3630 (online), Published by International journal of Social Sciences &

September-2023 .https://www.gejournal.net/index.php/IJSSIR

7. Methodological doctrine of the organization of the process of physical education through national traditions. Vol 10 Issue 06, June 2021. Nurmatov Bakhrom Bektemirovich Parmonov Akmal Abdupattoevich. https://ijiemr.org/downloads/Volume-10/ISSUE-6

8. Improvement of akmeological motivation of future physical education teacher. Vol. 2 No. 12, December 2021. ISSN: 2660-5570. **https://www.scholarzest.com**

9. Specific methods and tasks for the physical development of primary school students with the help of games. ijssir, Vol. 11, No. 10. October 2022. **https://www.gejournal.net/index.php/IJSSIR**

10. Model for the development of acmeological motivation in future physical education teachers on the basis of an axiological approach. nternational scientific conference " innovative trends in science, practice and education" 2023 Munchen, (Germany)

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Muslima Matlatipova
Urganch davlat universiteti talabasi
Ilmiy rahbar: Feruza Masharipova
Urganch davlat universiteti v.b. dotsenti, PhD

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING O‘QISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA OVOZ CHIQARIB O‘QISH METODIKASIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya: *Mazkur maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish kompetensiyasini rivojlantirishda ovoz chiqarib o‘qishning afzalliklari, uni amaliy qo‘llanilishi va o‘quvchilarning o‘qish qobiliyati, so‘z boyligi va tushunish darajasiga ta’siri o‘rganilgan. Shuningdek, ovoz chiqarib o‘qish texnikasini boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitishda keng qo‘llash bo‘yicha tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.*

Kalit so‘zlar: *Ovoz chiqarib o‘qish, o‘qish kompetensiyasi, boshlang‘ich ta’lim, savodxonlik, tushunish, o‘quv strategiyalari.*

Muslima Matlatipova
Student of Urgench State University
Supervisor: Feruza Masharipova
PhD, Associate Professor of Urgench State University

USING READ-ALOUD METHODOLOGY TO DEVELOP PRIMARY STUDENTS’ READING COMPETENCE

Abstract: *This article examines the benefits of read-alouds in developing primary school students’ reading competence, its practical application, and its impact on students’ reading ability, vocabulary, and comprehension. It also includes recommendations for the widespread use of read-alouds in teaching English in primary schools.*

Keywords: *read-aloud, reading competence, primary education, literacy, comprehension, learning strategies.*

Муслима Матлатипова
Студент Ургенчского государственного университета
Научный руководитель: Феруза Машарипова
PhD, доцент Ургенчского государственного университета

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ ЧТЕНИЯ ВСЛУХ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

Аннотация: *В данной статье рассматриваются преимущества чтения вслух для развития навыков чтения у учащихся начальной школы, его практическое применение и его влияние на способность к чтению, словарный запас и понимание прочитанного. В нем также содержатся рекомендации по широкому использованию чтения вслух при преподавании английского языка в начальных школах.*

Ключевые слова: *чтение вслух, читательская компетентность, начальное образование, грамотность, понимание, стратегии обучения.*

Kirish.

XXI asrda ingliz tili global muloqot, ta'lim va kasbiy faoliyatning asosiy vositasiga aylangan. Shu sababli ingliz tilini samarali o‘qitish va o‘rganish, ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida til kompetensiyasini shakllantirish zamonaviy ta'limning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitish jarayonining muvaffaqiyati asosan o‘quvchilarning o‘qish kompetensiyasini rivojlantirish bilan uzviy bog‘liqdir. O‘qish kompetensiyasi nafaqat matnni texnik jihatdan o‘qish, balki uning mazmunini tushunish, asosiy g‘oyani ajratish va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini ham o‘z ichiga oladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari til o‘rganish jarayonida yangi tovushlar, so‘zlar va tuzilmalarga duch keladilar. Shu sababli, o‘quvchilarning ingliz tilida o‘qish kompetensiyasini shakllantirish nafaqat texnik jihatdan to‘g‘ri talaffuz va so‘zlarni o‘qishni o‘zlashtirish, balki

matn mazmunini tushunish va uni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini ham rivojlantirishni talab qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ingliz tili o‘qitishda **ovoz chiqarib o‘qish metodikasi** juda samarali usullardan biri hisoblanadi. Ovoz chiqarib o‘qish metodi orqali o‘quvchilar yangi so‘z va iboralarni eshitish, ularning talaffuzini to‘g‘ri o‘zlashtirish, intonatsiya va urg‘ularni tushunish imkoniyatiga ega bo‘ladilar [3]. Ovoz chiqarib o‘qish nafaqat til qobiliyatlarini, balki matnni tushunish va uni sharhlash qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Ovoz chiqarib o‘qish jarayoni orqali o‘qituvchi o‘quvchilarga to‘g‘ri talaffuz namunalarini taqdim etishi, matn mazmuni haqida savollar berishi va bolalarni o‘qilgan matn asosida muloqotga jalb qilishi mumkin. Ovoz chiqarib o‘qish metodikasi o‘quvchilarning til ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ya’ni, u talaffuz va intonatsiya bo‘yicha mashq qilish imkonini berib, o‘quvchilarning og‘zaki nutqdagi aniqlik va tabiiylikni rivojlantirishiga xizmat qiladi. Shuningdek, matnni tinglab va ovoz chiqarib o‘qish orqali yangi so‘z va iboralarni eshitish va eslab qolish jarayoni samaraliroq kechadi. Bu esa lug‘at boyligini kengaytirib, matn mazmunini chuqurroq anglash, asosiy g‘oyani ajratib olish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

Adabiyotlar tahlili.

Ovoz chiqarib o‘qish – matnni baland ovozda ifodali tarzda o‘qish, o‘quvchilarga so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, ohang va urg‘uni saqlash orqali matn mazmunini tushunishga yordam beruvchi metoddir [1]. Ushbu metod bolalarda nafaqat texnik o‘qish ko‘nikmalarini, so‘z boyligi, nutq madaniyati va muloqot qobiliyatlarini shakllantiradi. Lev Vygotskiy nazariyasiga ko‘ra, bola o‘zining hozirgi darajadagi rivojlanishiga erishish uchun kattalar yoki ko‘proq tajribaga ega bo‘lgan o‘quvchilar yordamida yangi bilimlarni egallaydi. Bu jarayon "eng yaqin rivojlanish zonasi" deb ataladi, ya'ni bolaning o‘zi mustaqil ravishda bajara olmaydigan, lekin yordam orqali muvaffaqiyatga erishishi mumkin bo‘lgan vazifalarni o‘z ichiga oladi [4]. Ovoz chiqarib o‘qish metodikasida o‘qituvchi yoki tajribali o‘quvchilar namunaviy o‘qish yordamida boshqalarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadilar. Bu jarayon o‘quvchilarning ingliz tilidagi talaffuz, intonatsiya va urg‘u kabi lingvistik ko‘nikmalarini rivojlantirishga katta yordam beradi. O‘qituvchining yoki ilg‘or o‘quvchining namunaviy o‘qishlari orqali o‘quvchilar o‘z nutqini to‘g‘ri talaffuz qilish, to‘g‘ri intonatsiyani ishlatish va o‘z nutqida urg‘uni samarali qo‘llashni o‘rganadilar. Bu esa nafaqat tilni o‘rganishda, balki o‘qish jarayonida to‘g‘ri nutq madaniyatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Albert Bandura tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy o‘rganish nazariyasi esa bolalar o‘rganish jarayonida kuzatish, taqlid va modellashtirish orqali bilimlarni egallashlarini ta'kidlaydi. Bandura nazariyasiga ko‘ra, odamlar boshqalar bilan o‘zaro aloqada bo‘lganda, ular o‘rganuvchilar sifatida faol ishtirok etadilar, va bu orqali o‘rganish jarayoni kuchayadi [5]. Ovoz chiqarib o‘qish metodikasida o‘qituvchi yoki ilg‘or o‘quvchilar namunaviy o‘qish orqali boshqa o‘quvchilarga o‘rnak bo‘ladilar. O‘quvchilar, ularning taqlid qilish orqali, nafaqat o‘qish texnikasini, balki matnni tushunish va uni aniq va ravon o‘qish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradilar. Ovoz chiqarib o‘qish orqali o‘quvchilar matnning mazmunini anglab, o‘zlarining bilimlarini kuchaytiradilar va bu o‘rganish jarayoni ijtimoiy o‘rganishning samarali shakli sifatida ko‘riladi.

Noam Chomsky esa til o‘rganishni insonning tabiiy qobiliyatlaridan biri deb hisoblaydi. U til o‘rganish jarayonini biologik va psixologik asoslarda tushuntiradi, chunki bolalar doimiy ravishda til eshitib, uni o‘zlashtiradilar. Chomskyning til o‘rganish nazariyasiga ko‘ra, bola tildan foydalanish qobiliyatini tabiiy ravishda rivojlantiradi, chunki tilning o‘rganilishi ularning miya tuzilishi bilan chambarchas bog‘liq. Ovoz chiqarib o‘qish jarayonida o‘quvchilar yangi so‘zlarni, iboralarni va grammatik tuzilmalarni eshitib, ularni avtomatik ravishda o‘zlashtiradilar. Bu, o‘z navbatida, tilni tabiiy o‘rganish jarayonini qo‘llab-quvvatlaydi va o‘quvchilarning ingliz tilida muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi [6]. Ovoz chiqarib o‘qish jarayoni o‘quvchilarga tilni "ishlatish" orqali o‘rganish imkoniyatini yaratadi, bu esa ularda nafaqat tilni tushunish, balki tilni to‘g‘ri va samarali qo‘llashni ham rivojlantiradi. Ushbu nazariyalar, umumiy qilib aytganda, ovoz chiqarib o‘qish metodikasining samaradorligini oshirishda, o‘quvchilarning til o‘rganish jarayonida qanday yordam olishlari mumkinligini tushunishga yordam beradi. Vygotskiy, Bandura va Chomskyning nazariyalari o‘qituvchilar va o‘quvchilarga ovoz chiqarib o‘qish jarayonini yanada samarali tarzda tashkil etishga yordam beradi, chunki ular o‘rganish va o‘qish jarayonlarini tushunish uchun kuchli nazariy asoslarni taqdim etadilar.

Tahlillar va natijalar.

Ingliz tilini o‘qitishda ovoz chiqarib o‘qish metodikasi pedagogik tamoyillar asosida tashkil etilishi kerak. Birinchi navbatda, yosh xususiyatlarini inobatga olish juda muhimdir, chunki har bir yoshdagi o‘quvchilarning psixologik va kognitiv xususiyatlari farq qiladi. Shu sababli, o‘quvchilarning yoshiga mos va ular uchun qiziqarli, tushunarli bo‘lgan matnlarni tanlash zarur [2]. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarda til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni oshiradi va o‘qish jarayonini samarali qiladi. Ikkinchi tamoyil, matnlarning qiziqarli va mazmunli bo‘lishidir. O‘quvchilarga ma’naviy va madaniy jihatdan boy, ularning qiziqishlari va ehtiyojlariga mos keladigan matnlarni taqdim etish, o‘quvchilarning o‘qish jarayoniga faol ishtirok etishiga yordam beradi. Shuningdek, ovoz chiqarib o‘qish jarayonini muntazam va tizimli ravishda tashkil etish ham muhimdir. Bu metodika nafaqat

individual o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish, balki o‘quvchilarni bir-birlari bilan hamkorlik qilishga, o‘z fikrlarini ochiq ifoda etishga va tilga bo‘lgan ishonchlarini mustahkamlashga ham imkon yaratadi.

Ingliz tili darslarida ovoz chiqarib o‘qish mashg‘ulotlari bir necha bosqichlarda qo‘llaniladi, har bir bosqich o‘quvchilarning o‘qish va tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratiladi. Birinchi bosqich, tayyorlov bosqichi, matnni tanlash va uni o‘quvchilarning qobiliyatiga moslashtirishdan iborat. Matn o‘quvchilar uchun tushunarli va qiziqarli bo‘lishi kerak, shunda ular o‘qishga faol ishtirok etadilar. Ovoz chiqarib o‘qish jarayonida o‘qituvchi matnni ifodali o‘qiydi, so‘z va iboralarga urg‘u berib, o‘quvchilarning talaffuzini va intonatsiyasini yaxshilashga yordam beradi. Muhokama bosqichida, o‘qilgan matn asosida savollar berilib, asosiy g‘oyalar muhokama qilinadi, bu esa o‘quvchilarning tushunish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. O‘qish texnologiyalaridan foydalanish, masalan, qahramonlarning rollarini ijro etish, yangi so‘zlarni tushuntirish va o‘qilgan matnni rasmlar yoki videolar bilan bog‘lash, o‘quvchilarning so‘z boyligini kengaytirish va matnni yaxshiroq tushunishlariga yordam beradi. Matnni tushunish strategiyalariga savollar va javoblar texnikasi hamda oldindan taxmin qilish kiradi. Bu strategiyalar o‘quvchilarga matnning mazmunini chuqurroq tushunishga va o‘z fikrlarini aniq ifoda etishga yordam beradi.

Ingliz tili darslarida ovoz chiqarib o‘qish mashg‘ulotlarini muntazam tashkil etish o‘quvchilarning o‘qish va tushunish ko‘nikmalarini doimiy ravishda rivojlantirishga yordam beradi. Har bir darsda ovoz chiqarib o‘qish va suhbat elementlarini qo‘llash, o‘quvchilarning tilni o‘rganish jarayonini yanada interaktiv va qiziqarli qiladi. Matn mazmuni bo‘yicha savollar berish va muhokamalar tashkil qilish, o‘quvchilarga matnni chuqurroq tushunishga imkon yaratadi va ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shuningdek, ota-onalarni uy sharoitida bolalar bilan ovoz chiqarib o‘qishga jalb qilish, o‘quvchilarning o‘qish va tilni o‘zlashtirish jarayoniga qo‘shimcha yordam beradi, bu esa o‘quvchilarning o‘rganish jarayonini yanada mustahkamlaydi.

Xulosa.

Demak, ovoz chiqarib o‘qish metodikasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish kompetensiyasini rivojlantirishda juda muhim va samarali vosita hisoblanadi. Bu metod nafaqat o‘quvchilarning texnik jihatdan to‘g‘ri va ravon o‘qish ko‘nikmalarini shakllantiradi, balki ularning matnni mazmunan anglash, asosiy fikrni ajrata olish, sabab-oqibat munosabatlarini tushunish kabi tafakkur jarayonlarini ham faollashtiradi. Ovoz chiqarib o‘qish orqali bolalar nutqiy intonatsiyani his qilishni, talaffuzda aniqlikka intilishni va o‘z fikrini aniq ifoda etishni o‘rganadilar. Bundan tashqari, bu jarayon o‘quvchilarda matnga nisbatan qiziqish uyg‘otib, mustaqil fikrlash, savol berish, javob topish va o‘z nuqtai nazarini bildirish kabi muloqotga oid ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ovoz chiqarib o‘qish mashqlari orqali o‘quvchilar o‘zlarining til madaniyati, diqqat-e’tibor va eslab qolish qobiliyatlarini ham takomillashtiradilar. Umuman olganda, bu metod o‘quvchilarning o‘qish jarayoniga faol ishtirokini ta’minlab, ularni ijodiy va ongli o‘quv faoliyatiga yo‘naltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Beck, I. L., & McKeown, M. G. (2001). *Text talk: Capturing the benefits of read-alouds*. The Reading Teacher.
2. Dickinson, D. K., & Tabors, P. O. (2001). *Beginning literacy with language: Young children learning at home and school*. Brookes Publishing.
3. Neuman, S. B., & Dwyer, J. (2009). *Patterns of young children’s reading comprehension*. Reading Research Quarterly.
4. Vygotsky, L. (1978). *Mind in society: The development of higher psychological processes*. Harvard University Press.
5. Bandura, A. (1977). *Social learning theory*. Prentice-Hall.
6. Chomsky, N. (2006). *Language and mind* (3rd ed.). Cambridge University Press.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Meliqo'ziyev Azizbek
Farg'ona davlat universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi o'qituvchisi

KURASHCHILARNING JISMONIY SIFATLARINI TARBIYALASH

Annotatsiya: *Ushbu ishda kurashchilarning jismoniy sifatlarini tarbiyalashning muhimligi va ularning sportdagi muvaffaqiyatiga ta'siri tahlil qilingan. Kurash — nafaqat texnik ko'nikmalarni, balki yuqori jismoniy tayyorgarlikni ham talab qiladigan sport turi bo'lib, unda sportchining kuchi, chidamliligi, tezligi va koordinatsiyasi muhim rol o'ynaydi. Jismoniy sifatlarni tarbiyalashning samarali usullari va mashqlarini tahlil qilish orqali kurashchilarning umumiy tayyorgarlik darajasini oshirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Ishda, shuningdek, kurashchilarning jismoniy holatini yaxshilash va jarohatlardan saqlanish bo'yicha maxsus mashg'ulotlar va metodikalar tavsiya etiladi.*

Kalit so'z: *kurash, sport, xalqaro kurash,o'zbek kurashi, xalq o'yinlari , maxsus mashqlar.*

Melikuziev Azizbek
Fergana State University Teacher of the Department of social and humanitarian Sciences

TRAINING THE PHYSICAL QUALITIES OF WRESTLERS

Annotation: *this work analyzes the importance of training the physical qualities of wrestlers and their impact on their success in sports. Wrestling is a sport that requires not only technical skills, but also high physical fitness, in which the strength, endurance, speed and coordination of the athlete play an important role. Through the analysis of effective methods and exercises for training physical qualities, the possibilities of increasing the overall level of training of wrestlers have been considered. At work, special training and techniques are also recommended to improve the physical condition of the wrestlers and avoid injuries.*

Keyword: *wrestling, Sports, International Wrestling,Uzbek wrestling, folk games , special exercises.*

Меликузиев Азизбек
Ферганский государственный университет Преподаватель кафедры социально-гуманитарных наук

ВОСПИТАНИЕ ФИЗИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ БОРЦОВ

Аннотация: *В данной работе анализируется важность воспитания физических качеств борцов и их влияние на успех в спорте. Борьба-это вид спорта, требующий не только технических навыков, но и высокой физической подготовки, в которой важную роль играют сила, выносливость, скорость и координация спортсмена. Рассмотрены возможности повышения общего уровня подготовки борцов путем анализа эффективных методов и упражнений по воспитанию физических качеств. На работе также рекомендуются специальные тренировки и методики для улучшения физической формы борцов и предотвращения травм.*

Ключевое слова: *борьба, спорт, международная борьба,узбекская борьба, народные игры , специальные упражнения.*

Kirish.

Kurash, an'anaviy jismoniy tayyorgarlikni talab qiladigan va sportchilarni yuqori darajada jismoniy kuch va chidamlilikka ega bo'lishni taqozo etadigan sport turi hisoblanadi. Bu sportning muvaffaqiyatli bo'lishi uchun sportchilarning jismoniy tayyorgarligi, ya'ni kuch, tezlik, chidamlilik, moslashuvchanlik va koordinatsiya kabi jismoniy sifatlarni rivojlantirish juda muhimdir. Kurashchilarning jismoniy sifatlarini tarbiyalash faqatgina ularning jismoniy holatini yaxshilabgina qolmay, balki texnik ko'nikmalarini va ruhiy tayyorgarliklarini ham mustahkamlashga yordam beradi.

Bu maqsadga erishish uchun maxsus jismoniy mashqlar, o'quv dasturlari va individual yondashuvlar kerak bo'ladi. Kurashchilarning jismoniy holati, ularning jangovar salohiyatini bevosita ta'sir qiladi. Shu boisdan, kurashchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish nafaqat mushaklarni kuchaytirish, balki ularning umumiy jismoniy holatini yaxshilash, jismoniy faollikni oshirish hamda jarohatlarni oldini olishda ham muhim rol o'ynaydi.

Ushbu kirish qismining maqsadi kurashchilarning jismoniy sifatlarini tarbiyalashning ahamiyatini ochib

berish, bu yo‘nalishda qanday usullar va texnikalardan foydalanish mumkinligini ko‘rsatishdir.

Adabiyotlar tahlili.

Kurashchilarning jismoniy sifatlarini tarbiyalash masalasi sport ilm-fanida keng o‘rganilgan bo‘lib, bu sohada ko‘plab ilmiy tadqiqotlar va maqolalar mavjud. Adabiyotlar tahlili kurashda jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishning ahamiyatini, metodologiyalarini va usullarini chuqur tahlil qilishga qaratilgan.

Ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda kurashchilarning jismoniy tayyorgarligi, ayniqsa, kuch, tezlik, chidamlilik va moslashuvchanlik kabi komponentlarning ahamiyati ta'kidlanadi. Masalan**, V. F. Kolossov** (1984) kurashchilar uchun chidamlilikni rivojlantirishning zarurligini va bu ko‘nikmalarni rivojlantirishda maxsus jismoniy mashqlarni qo‘llashni tavsiya etgan. Uning fikriga ko‘ra, kurashchilarda yuqori chidamlilik va kuchning birgalikda rivojlanishi, jangovar faoliyatda muvaffaqiyatga erishishning muhim omilidir.

A. P. Karpov (1992) o‘z ishida kurashchilarning jismoniy sifatlarini tarbiyalashda og‘ir atletika va qarshilik mashqlarining o‘rnini ko‘rsatgan. U jismoniy mashqlarni individual yondashuv asosida amalga oshirish, har bir sportchining biografiyasiga qarab mashqlarni optimallashtirishning muhimligini ta'kidlagan. Shuningdek, o‘z ishlarida, kurashchilarning yuqori jismoniy tayyorgarligini ta'minlashda tezlik va kuchning uyg‘un rivojlanishi zarur ekanligini ko‘rsatgan.

Kurashchilarning texnik va jismoniy tayyorgarligini samarali rivojlantirish uchun maxsus mashg‘ulotlar alohida o‘rganilgan. **M. D. Shubochkin** (2000) kurashchilarda texnik va jismoniy ko‘nikmalarni o‘zaro birlashtirishning samaradorligini tadqiq etgan. U shuni ta'kidlashicha, maxsus mashg‘ulotlar orqali kurashchilarning kuch va chidamliligini rivojlantirish mumkin, shuningdek, ushbu mashqlar sportchilarning psixologik tayyorgarligini ham mustahkamlaydi.

Jismoniy holatni yaxshilash jarayonida sportchilarni jarohatlardan himoya qilish muhim ahamiyatga ega. **S. V. Trishin** (1995) jarohatlar bilan bog‘liq tahdidlarni kamaytirish uchun kurashchilarga maxsus tiklanish va reabilitatsiya mashqlarini o‘rgatishni zarur deb hisoblaydi. U, shuningdek, jismoniy holatni yaxshilashda moslashuvchanlikni rivojlantirishning ahamiyatini ko‘rsatgan.

So‘nggi yillarda, **R. M. Akhmedov** (2010) kabi ilmiy tadqiqotchilar kurashchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda sportda informatika va texnologiyalarni qo‘llash zarurligini ta'kidlashgan. Zamonaviy texnologiyalar, masalan, sportchilarni tahlil qilish va ularga individual mashg‘ulot rejalarini yaratishda yordam beradi. Bu usullar orqali kurashchilarning jismoniy sifatlari yanada samarali tarzda rivojlanishi mumkin.

Kurashchilarning jismoniy sifatlarini tarbiyalash bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar, bu jarayonning jismoniy va psixologik jihatlari birlashtirilgan holda amalga oshirilishi kerakligini ko‘rsatadi. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kurashda muvaffaqiyatga erishish uchun jismoniy tayyorgarlikning har bir komponenti o‘zaro bog‘liq bo‘lib, sportchilarni yaxshilash va maksimal natijalarga erishish uchun mos mashg‘ulotlar tizimini ishlab chiqish muhimdir.

Metodologiya.

Ushbu tadqiqotning metodologiyasi kurashchilarning jismoniy sifatlarini tarbiyalashning samaradorligini aniqlash va ularga individual yondashuvlarni ishlab chiqish maqsadida turli ilmiy va amaliy metodlarni qo‘llashga asoslangan. Metodologiya kurashchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish bo‘yicha eng samarali usullarni aniqlash, o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish va jismoniy sifatlarning o‘zaro aloqasini tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Tadqiqotning metodologiyasi quyidagi asosiy yo‘nalishlarga bo‘linadi:

Tadqiqotning asosiy maqsadi kurashchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish uchun mos yondashuvlarni aniqlashdir. Tadqiqot ikki asosiy usulga asoslangan:

Eksperimental usul: Jismoniy sifatlarni rivojlantirishning samaradorligini sinash uchun, mashg‘ulot jarayonlarida tajribaviy guruhlar tashkil etiladi. Har bir guruhga turli mashg‘ulotlar va jismoniy tayyorgarlik tizimlari qo‘llaniladi, natijalar esa tahlil qilinadi.

Tahliliy usul: O‘rganilgan adabiyotlar, ilg‘or metodikalar va ilgari olingan tadqiqotlar asosida kurashchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi. Bu usul kurashchilarning jismoniy sifatlarining o‘zaro bog‘liqligini aniqlashga yordam beradi.

Tadqiqotda kurashchilarning jismoniy sifatlarini tarbiyalash uchun maxsus mashg‘ulot dasturlari ishlab chiqiladi. Mashg‘ulotlar quyidagi yo‘nalishlarga bo‘linadi:

Kuch tayyorgarligi: Kurashchilarning mushak kuchini oshirishga qaratilgan og‘ir atletika va qarshilik mashqlari. Bu mashqlar kurashda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan asosiy fizik xususiyatlarni rivojlantiradi.

Tezlik va tezkorlik: Kurashchilarning tezligini va reaksiyalarini rivojlantirish uchun maxsus sprint mashqlari, tezlikni oshiruvchi treninglar va reaktsiya vaqtini qisqartiruvchi mashqlar.

Chidamlilik: Uzun muddat davomida kuchli jismoniy faollikni davom ettirishni ta'minlash uchun aerobik mashqlar va uzoq masofalarga yugurish, suzish kabi mashqlar qo‘llaniladi.

Moslashuvchanlik: Sportchining mushak va bo‘g‘imlarini egish va cho‘zish mashqlari orqali moslashuvchanligini rivojlantirish.

Tadqiqotda jismoniy sifatlarni rivojlantirish samaradorligini aniqlash uchun tajribaviy guruh va nazorat guruhlari tashkil etiladi.

Tajribaviy guruh: Bu guruhga o‘ziga xos mashg‘ulot tizimi va metodikalar qo‘llaniladi, ularning jismoniy sifatlari o‘lchab boriladi.

Nazorat guruh: Bu guruhga esa an'anaviy mashg‘ulot usullari asosida tayyorgarlik ko‘rish tavsiya etiladi. Boshqa guruh bilan taqqoslanishi maqsadida nazorat guruhining natijalari o‘rganiladi.

Tadqiqot davomida olingan ma'lumotlar statistik tahlil orqali qayd etiladi. Jismoniy sifatlar (kuch, chidamlilik, tezlik, moslashuvchanlik)ni rivojlantirish bo‘yicha qo‘llanilgan metodlarning samaradorligi qiymatli ko‘rsatkichlar (masalan, maksimal yuk, reaksiya vaqti, chidamlilik darajasi) bilan o‘lchanadi. Natijalar o‘rtasidagi farqlar tahlil qilinib, turli mashqlar va metodikalar orasida eng samarali usullar aniqlanadi.

Tadqiqotda ishtirok etuvchi sportchilar — kurashchilarning yosh, tajriba darajasi, jismoniy tayyorgarligi va maxsus tayyorgarlik darajasi inobatga olinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi bu guruhlar asosida turli jismoniy sifatlarni rivojlantirishning samaradorligini taqqoslashdir.

Jismoniy tayyorgarlik bilan birga kurashchilarning psixologik tayyorgarligi ham muhim omil bo‘lib, ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchi, ruhiy holati va motivatsiyasi sportdagi muvaffaqiyatga bevosita ta'sir qiladi. Tadqiqotda sportchilarning psixologik holatini o‘rganish va jismoniy tayyorgarlik bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan yondashuvlar ham qo‘llaniladi.

Xulosa.

Tadqiqot metodologiyasi kompleks bo‘lib, kurashchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda turli usullarni qo‘llash, mashg‘ulot jarayonlarini individual tarzda tashkil etish, natijalarni statistik tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Ushbu metodologiya orqali kurashchilarning jismoniy sifatlarini samarali ravishda rivojlantirish va ularning sportdagi muvaffaqiyatlarini oshirishga erishish mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. Ruzmatovich, U. S. (2022). CHANGES EXPECTED TO COME IN OUR LIFE MOVEMENTS. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, *3*(3), 485-489.

2. Shohbozjon, K., & Azizjon, M. (2022). PREPARING SCHOOL STUDENTS IN THE FIELD OF PHYSICAL CULTURE AND SPORTS BEFORE ENTRY TO HIGHER EDUCATION. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, *16*(10), 100-108.

3. Ruzmatovich, U. S., & Shohbozjon G‘ayratjon o‘g, Q. (2023). Uzbekistan's General Education School Physical Education Programme: A Curriculum Analysis. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, *2*(5), 184-193.

4. Ruzmatovich, U. S., & Shohbozjon G‘ayratjon o‘g, Q. (2023). Examining the First Age Group's Health Test Needs for" Salomatlik" Regulation Using the Dynamic of Children's Motor Potential. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, *2*(5), 194-200.

5. Qodirov, S. (2023). CONTENT OF PHYSICAL FITNESS OF STUDENTS OF THE GENERAL SECONDARY SCHOOL OF EDUCATION. *Modern Science and Research*, *2*(6), 368-381.

6. Qodirov, S. (2023). ANALYSIS OF INDICATORS OF THE PHYSICAL DEVELOPMENT OF UNIVERSITY STUDENTS. *Modern Science and Research*, *2*(6), 406-418.

7. Qodirov, S. (2023). URGENT PROBLEMS OF TRAINING FOR ADMISSION TO A HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTION IN THE FIELD OF PHYSICAL CULTURE AND SPORTS. *Modern Science and Research*, *2*(6), 395-405.

8. Shohbozjon, K., & Azizjon, M. (2022). PREPARING SCHOOL STUDENTS IN THE FIELD OF PHYSICAL CULTURE AND SPORTS BEFORE ENTRY TO HIGHER EDUCATION. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, *16*(10), 100-108.

9. Хонкелдиев, Ш. Х., Закиров, У., & Меликузиев, А. А. (2020). Эффективность разработанной методики повышения физической подготовленности юных борцов вольного стиля. In Наука сегодня: вызовы и решения (pp. 114-116).

10. Азимов, А., Азимова, М., & Меликузиев, А. (2021). Разработка научных основ подготовки спортивного резерва. *Общество и инновации*, *2*(8/S), 283-286.

11. Азимова, М. К., Азимов, А. М., Меликузиев, А. А., & Мирзакаримова, С. С. (2020). ФАКТОРЫ, ОПРЕДЕЛЯЮЩИЕ ЗДОРОВЬЕ ЧЕЛОВЕКА. *Психология здоровья и болезни: клинико-психологический подход*, *24*.

12. Азимова, М., Азимов, А., & Меликузиев, А. (2022). Bolalar va o‘smirlarning o‘zini-o‘zi rivojlantirish va ijodiy amalga oshirishdagi gigienik ta'limning jihatlari. *Общество и инновации*, *3*(9/S), 170-174.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Mirzayev Saidmaxmud
Namangan davlat universiteti sport faoliyati va jismoniy madaniyat kafedrasi b.f.n., dotsent
e-mail: mirzayevS @gmail.com

TALABALAR SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRUVCHI VA TAKOMILLASHTIRUVCHI VOSITA VA USUL TAHLILI

Annotatsiya. *Maqolada talabalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantiruvchi va takomillashtiruvchi vosita va usul o‘ziga xos xussiyatlari maxsus jismoniy tayyorgarligini tahlili o‘smirlarni jismoniy rivojlanishi ko‘rsatkichlari shakllantirishda pedagogik texnologiya va uning uslublari keng yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *mashg‘ulotlariga, funktsional, tayyorgarligini, xos xussiyatlari, maxsus, jismoniy, tayyorgarligini, tahlili, o‘smir, shakllantirishda, pedagogik texnologiya uslub.*

Мирзаев Саидмахмуд
Наманганский государственный университет, кафедра спортивной деятельности и физической культуры, к.э.н., доцент.

АНАЛИЗ ИНСТРУМЕНТОВ И МЕТОДОВ ФОРМИРОВАНИЯ И УЛУЧШЕНИЯ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ СТУДЕНТОВ

Аннотация. *В статье подробно освещены особенности средств и методов формирования и совершенствования здорового образа жизни студентов, анализ специальной физической подготовки, педагогической технологии и ее методов в формировании показателей физического развития подростков.*

Ключевые слова: *тренировка, функциональная, подготовка, специфические особенности, специальная, физическая, подготовка, анализ, подросток, формирование, педагогическая технология, метод.*

Mirzayev Saidmakhmud
Namangan State University, Department of Sports Activity and Physical Culture, Ph.D. associate professor

ANALYSIS OF TOOLS AND METHODS THAT SHAPE AND IMPROVE STUDENTS' HEALTHY LIFESTYLES

Annotation. *The article extensively covers the specific characteristics of the means and methods for forming and improving a healthy lifestyle in students, the analysis of special physical training, and the pedagogical technology and its methods in forming indicators of the physical development of adolescents.*

Keywords: *training, functional, preparation, specific characteristics, special, physical, preparation, analysis, adolescent, formation, pedagogical technology method.*

Mavzuning dolzarbligi va zarurati.

Respublikamizda so‘nggi yillarda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. “2025 yilga kelib mamlakat aholisining salomatlik darajasini yaxshilashga erishish, jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanadigan fuqarolarning, o‘quvchi va talabalarning umumiy sonini oshirish, sport sohasida boshqa zamonaviy usullar va yo‘nalishlarni joriy etish” kontseptsiya asosiy yo‘nalishlari etib belgilangan. Biroq talabalarning sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va takomillashtirish borasida keng qamrovli ishlar qilinayotgan bo‘lsa-da, talabalarning jismoniy tarbiyasi bo‘yicha qo‘shimcha harakatlar va aniq dasturlarni joriy etishni talab qiladigan masalalar va muammolar yuzaga kelmoqda. Ushbu ishning yuqori darajadagi dolzarbligini belgilaydigan asosiy ziddiyat bu jamiyatimizning salomatligi mustahkam mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyoji va buning aynan oliy ta‘lim muassasalar o‘quv jarayoni doirasida past darajada ekanligi sababli yangi mashg‘ulot va musobaqa turlarining turli shakllarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi PF-5924-son “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 oktyabrdagi PF-6099-son “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 18 dekabrdagi PQ-4063-son “Yuqumli bo‘lmagan kasalliklar profilaktikasi, sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori, hamda shu sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar.

F.A.Kerimovning (2020) fikriga asoslanib, sog‘lom turmush tarzining zamonaviy kontseptsiyalari ekologik jihatni ham hisobga oladi. Ular atrof-muhitga g‘amxo‘rlik qilishning muhimligini va atrof-muhit omillarining inson salomatligiga ta’sirini tan oladilar. Bu barqaror va sog‘lom yashash odatlarini targ‘ib qilish uchun yangi imkoniyatlar ochadi [2; 79-b].

S.Mirzaevning (2024) “sog‘lom turmush tarzining zamonaviy kontseptsiyalari va ta’riflari salomatlik tushunchasining o‘zgarayotganini aks ettiradi, uning har tomonlama mohiyatini va oldini olishning muhimligini ta’kidlaydi” [5; 85-89-b]. Ushbu kontseptlar yashash sifatini yaxshilash va kasallanishni kamaytirish yo‘llarini topish uchun muhim asos bo‘lib, sog‘liqni saqlash amaliyotida tadqiqot va joriy etishning muhim ob‘ektiga aylantiradi.

T.S. To‘ychiyevning (2024) yil olib borgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, sog‘lom yashash odatlariga ta’sir etuvchi omillar - bu insonning jismoniy va ruhiy farovonligini qanday tushunishi, saqlashi va rivojlanishiga ta’sir qiladigan turli xil ichki va tashqi jihatlardir. Ushbu omillarni tushunish zamonaviy jamiyatda sog‘lom yashash odatlarini targ‘ib qilish strategiyalarini ishlab chiqish uchun muhimdir [6; 142-b].

Ishning maqsadi: Talabalar sog‘lom turmush tarzini shakllantiruvchi va takomillashtiruvchi vosita sifatida tayyorgarligini rejalashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab shiqishdan iborat.

Natija va muhokama.

Metodikaning o‘ziga xosligi oliygohlar jismoniy tarbiyasida ham an’anaviy, ham noan’anaviy yondashuvlarning integratsiyalashuvidadir. Metodikaning muhim xususiyati - amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llaniladigan Workout tizimi hamda “Jismoniy tayyorgarlik darajasi” sport sinovlari mashqlaridan iborat dasturlardan foydalanishdir.

1–jadval

“Sog‘lom turmush tarzining noan’anaviy usullari” tanlov fani bo‘yicha o‘quv soatlarining namunaviy taqsimoti

№	Mashg‘ulotlar mavzusi	M	S	A	MT
1	Insonning o‘z hayot mazmunini shakllantirishi	2	2		
2	Salomatlik va sog‘lom turmush tarzi	4	4		
3	Kaydzen – hayotning barcha jabhalarini uzluksiz ravishda takomillashtirish tizimi	2	2		
4	Tabata protokoli yoki uslubiyati	2	2		
5	Sog‘lom turmush tarzi uchun taym–menedjment	2	2		
6	Raqamli minimalizm: onlayn–hayotni soddalashtirish va tartibga keltirish uslubi	2	2		
7	Sog‘lom turmush tarzi uchun mobil ilovalar	2	2		
8	Mustaqil jismoniy mashg‘ulotlar jarayonida nazorat va o‘zini–o‘zi nazorat qilish	2	2		
9	Workout – ko‘cha fitnesi	2	2		
	Workout bo‘yicha mashg‘ulotlar dasturini tuzish va bajarish			10	30
11	Workout bo‘yicha bazaviy mashqlardan iborat majmualar			10	30
	Jami: 120 soat	**20**	**20**	**20**	**60**

Izoh: M – ma’ruza, S – seminar, A – amaliy, MT – mustaqil ta’lim

“Jismoniy tarbiya bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar dasturda ko‘rib chiqilgan sog‘lom turmush tarzini yuritish usullari bo‘yicha amaliy tavsiyalar o‘rganildi. Ta’kidlash joizki, talabalar jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining noan’anaviy turi bo‘lmish Workout” hamda, “Jismoniy tayyorgarlik darajasi” sport sinovlari bilan tanishdilar. Mashg‘ulotlarning tayyorlov qismida talabalar mushaklarni qizdiruvchi va chigalyozdi mashqlarni bajarishdi.

Shu o‘rinda ushbu talaba tanlov fani bo‘yicha ishlab chiqilgan uslubiyat doimiy xarakterga ega bo‘lmagani uchun, talabalar sog‘lom turmush tarzini takomillashtirish uchun etarli emasligi va shu sabab talabalarning darslardan tashqari bo‘sh vaqtlarida ham doimiy va tizimli

ravishda qo‘shimcha mashg‘ulotlar o‘tkazish maqsadga muvofiqligi aniqlandi.

2–jadval

Talabalarning jismoniy faolligini takomillashtiruvchi jismoniy mashg‘ulotlarning haftalik namunaviy dasturi

Dushanba (Umumiy jismoniy tayyor-garlik mashqlari)	Xohishga ko‘ra piyoda yurish yoki bir maromda yugurish. Yurish yoki yugurish davomiyligi avvaliga 20 daqiqa, keyinchalik tayyorgarlik darajasi oshgach, 30 daqiqadan 60 daqiqagacha oshirib boriladi. Yurak urish tezligi daqiqasiga 120-160 zarbadan oshmasligi lozim. Mashg‘ulotdan so‘ng dinamik va statik cho‘zilish mashqlari bajariladi.
Seshanba (Qo‘l mushaklari uchun mashqlar)	Umumrivojlantiruvchi mashqlar. Maxsus yugurish mashqlari. Sprint 30x10-20 martagacha. Sokinlashtiruvchi mashqlar
	Turnikda tortilish. (2x5 martadan boshlanadi, keyinchalik 3x10 martagacha oshiriladi, seriyalar orasida dam olish oralig‘i 1-2 daqiqa)
	Past turnikda tortilish. (2x10 martadan boshlanadi, keyinchalik 3x15 martagacha oshiriladi, seriyalar orasida dam olish oralig‘i 2-3 daqiqa)
	Erga tayanib qo‘llarni bukib yozish. (2x20 martadan boshlanadi, keyinchalik 5x20 martagacha oshiriladi, seriyalar orasida dam olish oralig‘i 2-3 daqiqa)
	Qo‘shpoyada qo‘llarni bukib yozish. (2x10 martadan boshlanadi, keyinchalik 5x20 martagacha oshiriladi, seriyalar orasida dam olish oralig‘i 2-3 daqiqa)
	Qo‘shpoyaga tayanib qo‘llarni bukib yozish. (2x10 martadan boshlanadi, keyinchalik 5x20 martagacha oshiriladi, seriyalar orasida dam olish oralig‘i 2-3 daqiqa)
	Qo‘llar bilan erga tayanib, devorda yurish. (2x5 martadan boshlanadi, keyinchalik 5x10 martagacha oshiriladi, seriyalar orasida dam olish oralig‘i 2-3 daqiqa)
Chorshanba	Dam olish
Payshanba (Tana mushaklari uchun mashqlar)	Umumrivojlantiruvchi mashqlar. Maxsus yugurish mashqlari. 200-400x5-10 martagacha (10 km yugurish tezligida. Sokinlashtiruvchi mashqlar
	Oyoqlarni 90 gradusga ko‘tarib tushirish. (2x10 martadan boshlanadi, keyinchalik 5x10 martagacha oshiriladi, dam olish oralig‘i 2-3 daq)
	Qo‘llarga tayangan holda oyoqlarni ko‘tarish. (2x5 martadan boshlanadi, keyinchalik 5x10 martagacha oshiriladi, dam olish oralig‘i 2-3 daq)
	Giperekstenziya. (2x10 martadan boshlanadi, keyinchalik 5x10 martagacha oshiriladi, dam olish oralig‘i 2-3 daq)
	Teskari giperekstenziya. (2x10 martadan boshlanadi, keyinchalik 5x10 martagacha oshiriladi, dam olish oralig‘i 2-3 daq)
	Qo‘shpoyada oyoqlarni to‘g‘ri burchak ostida ushlash. (2x30 soniyadan boshlanadi, keyinchalik 5x1 daqiqagacha oshiriladi, dam olish oralig‘i 2-3 daqiqa)
	Qayiqcha. (2x20 soniyadan boshlanadi, keyinchalik 5x30 daqiqagacha oshiriladi, dam olish oralig‘i 2-3 daqiqa)
	Teskari qayiqcha. (2x20 soniyadan boshlanadi, keyinchalik 5x30 daqiqagacha oshiriladi, dam olish 2-3 daq)
	Planka. (2x30 soniyadan boshlanadi, keyinchalik 5x1 daqiqagacha oshiriladi, dam olish oralig‘i 2-3 daqiqa)
Juma	Dam olish
Shanba (Oyoq mushaklari uchun mashqlar)	Umumrivojlantiruvchi mashqlar. Maxsus yugurish mashqlari. Platformaga sakrab chiqish. 5-10x10-15 marta. Sokinlashtiruvchi mashqlar
	O‘tirib turish. (2x20 martadan boshlanadi, keyinchalik 5x20 martagacha oshiriladi, dam olish oralig‘i 2-3 daq)


	O‘tirib turishda oyoqni uchiga ko‘tarilish. (2x10 martadan boshlanadi, keyinchalik 5x10 martagacha oshiriladi, dam olish oralig‘i 2-3 daq)
	Yarim o‘tirgan holatdan yuqoriga sakrash. (2x10 martadan boshlanadi, keyinchalik 5x10 martagacha oshiriladi, dam olish oralig‘i 2-3 daq)
	Bir oyoqda o‘tirib turish. (2x10 martadan boshlanadi, keyinchalik 5x10 martagacha oshiriladi, dam olish oralig‘i 2-3 daq)
	Lateral sakrashlar. (2x10 martadan boshlanadi, keyinchalik 5x10 martagacha oshiriladi, dam olish oralig‘i 2-3 daq)
	Tik turgan holda oyoq uchiga ko‘tarilish. (2x30 martadan boshlanadi, keyinchalik 5x30 martagacha oshiriladi, dam olish oralig‘i 2-3 daq)
Yakshanba	Dam olish

3–jadval

Jismoniy faolligini takomillashtiruvchi jismoniy mashg‘ulotning bir kunlik namunaviy ishlanmasi

Konspekt №2



Mashg‘ulot maqsadi:
a) ta’limiy: qisqa masofaga yugurish va vorkaut mashqlarini bajarish haqida tushuncha berish;
b) tarbiyaviy: tezkorlik qobiliyati va qo‘l mushaklari kuchini tarbiyalash;
v) rivojlantiruvchi: o‘quvchilarga mashqlarni mustaqil bajarishga o‘rgatish.
Mashg‘ulot turi: amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantiruvchi.
Darsda foydalaniladigan metodlar: frontal, aylana, tabata.
Dars jihozlari: hushtak, bayroqcha, sekundomer, turnik, qo‘shpoya.
Kompetentsiya: vorkaut mashqlarini bajarish, mustaqil mashg‘ulotlarni tashkil etish kompetentsiyasi.

№	Darsning borishi	Miqdori	Uslubiy ko‘rsatmalar
	Tayyorlov qism		
1	Saflanish, salomlashish, asosiy vazifalar va dars maqsadi bilan tanishtirish, davomatni aniqlash. Yugurish	10 daqiqa	YuQCh 120–130 zarb/daqiqa oralig‘ida, bir maromda yugurish
2	Umumrivojlantiruvchi mashqlar	10 daqiqa	Mashqlarni to‘g‘ri va mukammal bajarishga erishish, mashqlar yakunida sokinlashtiruvchi nafas mashqlarini bajarish. 
3	Maxsus yugurish mashqlari	10 daqiqa 2x40 metr	Mashqlarni to‘g‘ri va tezkor tarzda bajarishga erishish.
	Asosiy qism		
1	10 marta x 30 metrga yugurish (sprint)	20 daqiqa	
2	**Qo‘l mushaklari uchun mashqlar:** a) Turnikda tortilish b) Past turnikda tortilish v) Erga tayanib qo‘llarni bukib yozish g) Qo‘shpoyada qo‘llarni bukib yozish d) Qo‘shpoyaga tayanib qo‘llarni bukib yozish e) Qo‘llar bilan erga tayanib, devorda yurish	30 daqiqa 2x5 marta 2x10 marta 2x20 marta 2x10 marta	O‘z–o‘zining xavfsizligini ta’minlash qoidalariga rioya etish. Bajarilishi kerak bo‘lgan shartlarni ko‘rsatib, tushuntirib berish. Mashqlar aylana va tabata metodlari asosida o‘tiladi.

		2x10 marta 2x5 marta	
Yakuniy qism			
1	Saflanish Nafas rostlash, o‘quvchilarni xato va kamchiliklarini aytib o‘tish. Xayrlashish	5 daqiqa	Xato kamchiliklarni ko‘rsatib o‘tish har bir sportchiga individual topshiriqlar berish

4–jadval

Tadqiqot davomida talabalar tomonidan foydalanilgan jismoniy mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanish, jismoniy faollik, ovqatlanish va uyqu rejimini optimallashtirish va nazorat qilish imkonini beradigan mobil ilovalar maqsadi va funktsiyalari

Ilova		Ishlab chiqaruvchi	Maqsad	Funktsiyalar
Home Workout – No Equipment		Leap Fitness Group	Jismoniy mashg‘ulotlar, fitnes	Murabbiy va trenajersiz, o‘z tana vazni bilan bajariladigan mashqlar kompleksi keltirilgan.
J&J Official 7 Minute Workout		Johnson & Johnson Health & Wellness Solutions Inc.	7 daqiqalik mashqlarni bajarish	7 dan 32 minutgacha bo‘lgan vaqt jadvaliga mos keladigan mashqlar; 72 dan ortiq mashq, aniq videoko‘rsatmalar.
Google Fit: Health and Activity Tracking		Google LLS	Jismoniy holat va jismoniy faollikni nazorat qilish	Mashg‘ulotlarni telefon yoki fitnes bilakuzuklar yordamida kardio–mashg‘ulotlar balli va qadamlar miqdorini kuzatish va nazorat qilish
E–Dobavki		Hunger	To‘g‘ri rejalash–tirilgan ovqatlanish	Zamonaviy ishlab chiqaruvchilar tomonidan foydalaniladigan barcha ozuqaviy qo‘shimchalar haqida ma’lumotlar.
Height Increase – Increase Height Workout, Taller		Leap Fitness Group	Bo‘yni o‘stirish	Bo‘yni o‘stirish, bo‘yni o‘stirish bo‘yicha mashg‘ulotlar, maxsus mashqlar, maxsus parhez, bo‘yni o‘stirish bo‘yicha ilmiy maslahatlar.
Sleep time		Oleg Filimonov	Uyqu va faol vaqtni optimal–lashtirish	Uyqu fazalarini nazorat qilish, uyqu davomiyligi va uyg‘onish vaqti statistikasi, uyg‘onishning qulay vaqtini tanlash.

Waterbalance		Borjomi international	Organizmda suv balansini nazorat qilish	Waterbalance – bu kundalik jadval va rejalarni hisobga olgan holda individual ko‘rsatgichlar: bo‘yi, vazni, yoshi va turmush tarzi asosida suv balansini nazorat qilish.
Kwit		Kwit SAS	Tamaki chekishni tashlashni psixologik qo‘llab quvvatlash	maslahatlar; ishontirish; tamaki chekuvchilarni chekishni tashlashga o‘yin orqali motivatsiyasini oshirish

Xulosa.

Ushbu bobda jismoniy tarbiya jarayonida talabalarning sog‘lom turmush tarzini takomillashtirishga qaratilgan eksperimental dastur taqdim etilgan. Shuningdek, talabalarning sog‘lom turmush tarzini takomillashtirish bo‘yicha takliflar o‘rganildi. So‘rov natijalarini tahlil qilish o‘quvchilarning jismoniy tarbiya va sog‘lom turmush tarziga munosabatini aniqlashga yordam berdi. Aksariyat talabalar jismoniy faollikga ijobiy munosabatda bo‘lishdi va sog‘lom turmush tarzi muhimligini tan olishdi. Bu talabalarning sog‘lom turmush tarzini takomillashtirish dasturida ishtirok etishga bo‘lgan potentsial tayyorligini ko‘rsatadi. Dastur doirasida “Sog‘lom turmush tarzining noan’anaviy usullari” tanlov fanining mazmuni va mohiyati haqida ma’lumot berildi. Ushbu tanlov fan talabalarga sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning noan’anaviy yondashuvlari va usullarini taklif qiladi. Bunday fanning o‘quv rejasiga kiritilishi talabalarning sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va takomillashtirishga hissa qo‘shadigan qo‘shimcha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish imkonini beradi.

Ushbu vostalardan foydalanish talabalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishga va ularning umumiy salomatligini yaxshilashga yordam beradi.

Ushbu dasturning natijalari va xulosalaridan talaba yoshlarning salomatligi va umumiy farovonligini yaxshilashga hissa qo‘shadi, boshqa ta’lim muassasalarida ham ushbu dasturga o‘xshash dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, 2020 yil 24 yanvardagi “O‘zbekiston respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish” chora-tadbirlari to‘g‘risida pf-5924-son farmoni/WWW. Lex.uz.
2. Kerimov F.A. Yakka kurash elementlariga ega bo‘lgan xarakatli o‘yinlar. T.: Ilmiy texnika axborroti-press nashriyoti, 2020.-79 b.
3. Salomov R. S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati (Darslik). T., 2014 y.-297 b.
4. Tajibaev S.S. Usmir yakkakurashchilarning kompleks tayyorgarligida xarakatli o‘yinlarni qo‘llash metodikasini ilmiy pedagogik asoslash des. 2020.-53 b.
5. Mirzayev S. Tugarak mashg‘ulotlariga saralashda bolalar va o‘smir funktsional holatni o‘ziga xos xussiyatlari. T., 2020, II qism, B. 85-89.
6. To‘yshiyev T.S. Yuqori malakali belbog‘li kurashshilarning vazn toifasini inobatga olgan holda musobaqaoldi tayyorgarligini rejalashtirish. Ch.: 2024. …diss, B. 142.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Tajibayev Gayratjon Shovdorovich
Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti
Ingliz tili o'qitish metodikasi kafedrasi dotsenti, Ped.f.f.d. (PhD), dotsent
Email: gayratjontojibayev8@gmail.com
Sattarova Irodaxon Abdulloyevna
University of Business and Sciences
Email: sattarovai-a@yandex.ru

INGLIZ TILI LEKSIKASINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USULLARI

Annotatsiya. *Innovatsion texnologiyalarning ingliz tili leksikasini o'qitishda qo'llanilishi sezilarli yutuq hisoblanadi. Tadqiqot ishida tegishli adabiyotlar tahlil qilindi, innovatsion texnologiyalar lingvistik va an'anaviy nuqtai nazardan ta'riflandi hamda uning innovatsion o'qitish ko'nikmalari bilan bog'liqligi baholandi. Tadqiqotning asosiy tadqiqot muammosi aniqlandi, tadqiqot maqsadlari va farazlari hamda ularning ahamiyati yoritildi. Shuningdek, tadqiqot natijalari taqdim etildi. Maqolaning xulosasida innovatsion texnologiyalarni keng qo'llash orqali o'qitish usullarini yanada takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalar berildi.*

Kalit so'zlar: *innovatsion, texnologiya, o'rgatish, o'rganish, ingliz tili.*

Tajibayev Gayratjon Shovdorovich
Associate Professor of the Department of English Language Teaching Methods,
Namangan State Institute of Foreign Languages named after Ishoqkhon Ibrat,
PhD in Pedagogy, Associate Professor
Sattarova Irodaxon Abdulloyevna
University of Business and Sciences

METHODS OF USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN TEACHING ENGLISH LEXICOLOGY

Annotatsiya. *The use of innovative technologies in teaching English lexicology represents a significant advancement. This research paper analyzed relevant literature, described innovative technologies from both linguistic and traditional perspectives, and assessed their relevance to innovative teaching skills. The main research problem, objectives, and hypotheses of the study were clearly defined, and their significance was emphasized. The study's results were also presented. In conclusion, the article offered recommendations aimed at further improving teaching methods through the widespread adoption of innovative technologies.*

Keywords*: innovative, technology, teaching, learning, English.*

Таджибаев Гайратжон Шовдорович
Доцент кафедры методики преподавания английского языка
Наманганского государственного института иностранных языков имени
Исхокхона Ибрата, (PhD), доцент
Саттарова Иродахон Абдуллоевна
University of Business and Sciences

МЕТОДЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ЛЕКСИКОЛОГИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация. *Использование инновационных технологий в преподавании английской лексикологии представляет собой значительный прогресс. В этой исследовательской работе проанализирована соответствующая литература, описаны инновационные технологии как с лингвистической, так и с традиционной точки зрения, а также оценена их актуальность для инновационных навыков преподавания. Основная исследовательская проблема, цели и гипотезы исследования были четко определены, и их значимость была подчеркнута. Также были представлены результаты исследования. В заключение в*

статье были предложены рекомендации, направленные на дальнейшее совершенствование методов обучения посредством широкого внедрения инновационных технологий.

Ключевые слова: *инновационный, технология, преподавание, обучение, английский язык.*

Kirish.

Ingliz tili leksikasini o‘rgatishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish deganda, usullar, vositalar, materiallar, qurilmalar, tizimlar va strategiyalarning innovatsion qo‘llanilishi tushuniladi. Bu qo‘llanilish ingliz tili leksikasini o‘qitishga bevosita aloqador bo‘lib, ko‘zlangan maqsadlarga erishishga xizmat qiladi.

Texnologiya o‘qitish va o‘rganishning turli sohalarida muhim va yordamchi vosita sifatida qabul qilingan. Bu ayniqsa ingliz tili leksikasini o‘qitishda sezilarli, chunki u an’anaviy ingliz tili darslarining mazmuni va ta’minotini yaxshilash uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Bunga talaba yoki o‘qituvchiga muammoli mavzularni to‘liq tushunib, o‘zlashtirmaguncha qayta-qayta ko‘rib chiqish imkonini berish orqali erishiladi.

Ingliz tili leksikasini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish, ayniqsa, turli sohalarda misli ko‘rilmagan o‘zgarishlar davrida zaruriy holga aylandi. Ta’lim sohasi kompyuterlashtirish, multimedia qurilmalari, mobil telefonlar, audio/video ilovalar va ijtimoiy tarmoqlar kabi innovatsion texnologik vositalarni qo‘llash orqali global texnologik inqilob bilan hamnafas bo‘lishi muhim. Bu esa ingliz tili leksikasini o‘qitishni optimallashtirish va o‘qituvchilarni sinfda til o‘rganuvchilar bilan tizimli va ilg‘or aloqada bo‘lish uchun jihozlashga yordam beradi. Internet ingliz tili leksikasini o‘qitish va o‘rganishni tezlashtiradigan dasturiy ta’minot, ilovalar va ko‘plab boshqa platformalar va materiallarga oson, tezkor va istalgancha takror-takror kirishni ta’minlaydi. Ushbu imkoniyatlar barcha uchun mavjud bo‘lsa-da, o‘qituvchilar turli vositalar va o‘qitish usullarini qo‘llashda asosiy rol o‘ynaydi. Bundan tashqari, ko‘plab dasturlar ingliz tili leksikasini samarali o‘qitishni rag‘batlantirish va bir vaqtning o‘zida o‘quvchilarning ingliz tili leksikasini tushunish va ko‘nikmalarini oshirish uchun maxsus ishlab chiqilgan.

Adabiyotlar tahlili.

[1] ishda muallif Ispan tili darslarida o‘qituvchi rolining ahamiyati, texnologik laboratoriyalar va ularning komponentlarining dolzarbligi, mavjudligi hamda texnologiyaning chet tilini o‘rganish jarayoniga ta’sirini aniqlash uchun turli texnologik yondashuvlar va usullardan foydalanilgan tadqiqot natijalarini tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari talabalar o‘qituvchini asosiy o‘quv yo‘l ko‘rsatuvchisi sifatida qabul qilishini tasdiqlagan va muntazam lingafon laboratoriyalari hamda CD-ROMlardan foydalanish muhimligini ta’kidlagan. Stepp-Greany chet tilini o‘zlashtirish jarayoniga tegishli texnologiyalarning ta’sirini o‘lchash uchun yangi metodologiyani tavsiya qilgan.

[2] ishda mualliflar texnologiyani sinfga integratsiya qilishning ikki xil yondashuvini taklif qilishgan, bularning birinchisi — talabalarga tilga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish va o‘z bilimlarini shakllantirish imkonini beruvchi kognitiv yondashuv, ikkinchisi — talabalarga real hayotiy ko‘nikmalarni amalda qo‘llash uchun haqiqiy ijtimoiy muloqot imkoniyatlarini yaratuvchi ijtimoiy yondashuv.

[3] ishda muallif til o‘qituvchilarining sinfda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish sabablari va omillarini o‘rganib chiqgan. Tadqiqot o‘qituvchilarning kompyuter va axborot texnologiyalariga munosabatini, shuningdek, ularning kompyuter yordamida til o‘rganish bo‘yicha amaliy tajribasi va bilimlarini dars jarayonida qo‘llash usullarini tahlil qilgan. Tadqiqot natijalari deyarli barcha o‘qituvchilarning sinfda kompyuterdan foydalanishga ijobiy munosabatda ekanligini ko‘rsatgan. Shuningdek, o‘qituvchilarning texnologiya, texnologik tajriba, mahorat va kompetentlik haqidagi umumiy tasavvurlari hamda maktablar va til institutlarida axborot texnologiyalarini joriy etish bilan bog‘liq madaniy muhitni shakllantirishdagi ahamiyati yoritib berilgan.

[4] ishda mualliflar til o‘qitishda multimedia texnologiyalaridan foydalanishni tahlil qilgan. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, bunday texnologiyalar talabalarning o‘rganish motivatsiyasi va diqqatini oshiradi, chunki ular talabalarni o‘zaro muloqot orqali til o‘rganishning amaliy jarayonlariga jalb qiladi. Shyamlee sinflarda multimedia texnologiyalaridan foydalanishni, ayniqsa, ularning o‘quv jarayoniga ijobiy ta’siri o‘qituvchi rolini doimiy samarali qilish bilan mos kelishini tavsiya qilgan.

Tadqiqot maqsadi.

Hozirgi davrda, axborot texnologiyalari butun dunyo bo‘ylab ta’lim sohasiga kirib keldi. Ko‘pgina ta’lim muassasalari texnologiyalarni hozirgi va kelajakdagi o‘quv dasturlariga kiritganligi sababli, texnologik va mediaga asoslangan pedagogika, ayniqsa an’anaviy o‘qitish usullari bilan solishtirganda, tasdiqlangan, yaxshilangan natijalari tufayli muhim ahamiyat kasb etdi. Eskirgan o‘qitish usullari quyidagi muammolarni keltirib chiqaradi:

1. An’anaviy usullar talabalarni qat’iy o‘quv dasturi mazmuni bo‘ylab yo‘naltiradi. Doska va darsliklar kabi eskirgan o‘quv materiallariga tayanadi. Natijada, o‘qituvchi talabalarning o‘zlashtirishlarini hisobga olmasdan faqat ma’lumotni yetkazib beradi.
2. An’anaviy usullar o‘qitish jarayonidagi o‘rganish maqsadlariga yoki asosiy ehtiyojlarga javob bermaydigan oddiy strategiyalarga tayanadi. Bunday o‘qituvchi-markazli pedagogikalar talabani ma’lumot

qabul qiluvchi sifatida ko‘rsatadi, shuning uchun ularning asosiy maqsadi talabaning ma’lumotni tushunishi emas balki takrorlay olishidir.

3. Talabalar o‘qituvchi bilan muloqot va muhokama qilishdan ko‘ra, qabul qilingan tovushlar va tasvirlarga tayanadi.

4. Talabalarni belgilangan matnlar orqali baholash, ingliz tili leksikasini o‘z vaqtida va ijobiy tarzda o‘zlashtirish imkoniyatini oshiradigan ko‘plab rag‘batlantiruvchi omillarni taklif qiladigan innovatsion texnologik o‘qitish usullaridan farqli o‘laroq, zerikish, motivatsiyani yo‘qotish va e’tiborsizlikka olib keladi.

Yuqoridagi to‘siqlarni hisobga olgan holda, ushbu tadqiqot muammoning asosiy sabablarini aniqlash va ingliz tili leksikasini o‘qitish kontekstiga innovatsion texnologiyalarni kiritish orqali muammoni hal qilishga qaratilgan.

Tadqiqot vazifalari.

Yuqoridagi masalalarni har tomonlama o‘rganish va bu muammolarga mantiqiy yechim topishga urinish quyidagi vazifalarni bajarishga qaratilgan:

- Ingliz tili leksikasini o‘rganuvchilarning innovatsion texnologiyalardan foydalanishga qanchalik samarali javob berishi va o‘zaro munosabatga kirishishi mumkinligini baholash;
- Ingliz tili leksikasini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning samaradorlik darajasini aniqlash;
- Ingliz tili leksikasini o‘qitishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali kutilayotgan yoki erishilgan natijalarni baholash.

Natijalar.

Ushbu tadqiqot natijalari ingliz tili leksikasini o‘qitishning an’anaviy usullari samarasizligini ko‘rsatdi. O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni isbotladiki, talabalarning 75 foizidan 85 foizigacha ingliz tilini o‘qitishning an’anaviy usullari samarasizligi haqidagi natijalarni tasdiqlagan, 60 foizidan 80 foizigacha esa an’anaviy usullardan noroziligini bildirgan. Aksincha, talabalar ingliz tili leksikasini o‘rganish uchun innovatsion texnologiyalardan foydalanganda ko‘proq qiziqish va faollik ko‘rsatib, qatnashish darajasi 90 foizdan oshdi. Statistik ma’lumotlar shuni tasdiqlaydiki, ingliz tili leksikasini o‘rganayotganlarning aksariyati an’anaviy o‘qitish usullaridan ko‘ra aqlli doskalar, kompyuterlar va displeylar kabi innovatsion texnologik vositalar bilan faol muloqot qiladi.

Tasodifiy maktablar namunalaridan olingan statistik ma’lumotlarga ko‘ra, innovatsion texnologiyalardan foydalanadigan xususiy maktablar va ulardan foydalanmaydigan davlat maktablaridagi o‘quvchilar, sinflardagi va sinfdan tashqaridagi ko‘ngillilar so‘rovdan o‘tkazildi. O‘quvchilar faoliyatining tahlili shuni ko‘rsatdiki, innovatsion texnologiyalar bilan o‘qitilgan o‘quvchilarning 75 foizidan 95 foizigacha ingliz tilidan yuqori natijalarga erishgan, an’anaviy usullar bilan o‘qitilganlarning muvaffaqiyat ko‘rsatkichlari esa ancha past bo‘lgan.

Bundan tashqari, tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, ingliz tili leksikasini o‘qitishda innovatsion usullardan foydalanganda o‘qituvchilar bilan muloqot va talabalarning umumiy faolligi sezilarli darajada yaxshilangan. Innovatsion ommaviy axborot vositalari orqali o‘qituvchilar bilan muloqot 90 foizdan oshgan, an’anaviy usullar bilan o‘qitilganlarda esa 50 foizdan kam bo‘lgan. Shunday qilib, tadqiqotlar va so‘rovlar shuni ko‘rsatdiki, talabalar zamonaviy ta’limdan bilim olishga ko‘proq moyil, ingliz tili o‘qituvchilari esa talabalarning tezkor javobi, muloqoti va yuqori statistik ahamiyatga ega bo‘lgan o‘quv natijalari tufayli an’anaviy o‘qitish usullaridan ko‘ra innovatsion texnologiyalardan foydalanishni afzal ko‘radi.

Natijalar muhokamasi.

Innovatsion texnologiyalar hayotimizning barcha jabhalariga tobora chuqur kirib borayotganiga qaramay, ta’lim, xususan, ingliz tilini o‘qitish sohasida ulardan foydalanish ko‘lami sezilarli darajada cheklangan bo‘lib qolmoqda. So‘nggi tadqiqotlar talabalarning past o‘zlashtirishini ta’limda texnologiyalardan noto‘g‘ri foydalanish va an’anaviy o‘qitish usullarining ustunligi bilan bog‘lamoqda [5-6].

Bugungi kunga qadar, O‘zbekistondagi juda kam ta’lim muassasalari ingliz tilini o‘qitishda texnologiyalar va internetdan muntazam foydalanadi, garchi ingliz tili savdo, sanoat, ta’lim, muhandislik, tibbiyot, ommaviy axborot vositalari va deyarli barcha amaliy va ijtimoiy hayot sohalarida ustun tilga aylangan bo‘lsa ham [7].

Aslida, innovatsion texnologiyalar o‘qituvchilarning samaradorligi, metodologiyasi va qiziqishini oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Bundan tashqari, texnologik vositalar bilan ingliz tili leksikasini o‘qitish bo‘yicha tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, ular talabalarga faolroq bo‘lishga va o‘z qiziqishlari va qobiliyatlariga mos ravishda o‘rganishga imkon beradi.

Ingliz tili leksikasini o‘qitishda texnologiyalardan foydalanish sabablari

Jacqui Murray [8] ingliz tili leksikasini o‘qitishda texnologiyalardan foydalanishning quyidagi sabablarini keltirib o‘tadi:

- Texnologiyalar talabalarga mustaqillikni namoyish etish imkonini beradi.
- Texnologiyalar talabalarning ehtiyojlariga moslashish uchun o‘qitishni moslashtiradi.
- Texnologiyalar talabalarni qiziqtirgan manbalardan foydalanib, o‘rganishni chuqurlashtiradi.
- Talabalar texnologiyalardan faol foydalanishni xohlashadi.
- Texnologiyalar talabalarga teng ovoz beradi.
- Texnologiyalar talabalarga istalgan joyda mustahkam bilim olish imkonini beradi.

Ingliz tili leksikasini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari

Ingliz tili talabalari radio, televideniye, kompyuterlar, internet, elektron lug‘atlar, elektron pochta, bloglar, audiovizual vositalar, videolar va DVD yoki VCD kabi innovatsion texnologiyalardan foydalanishga katta qiziqish va ishtiyoq bilan munosabatda bo‘lishadi [9]:

- Ingliz tili leksikasini o‘qitishda texnologiyalardan foydalanish qiziqarli va rag‘batlantiruvchi hisoblanadi, chunki talabalar fanga faol jalb qilinadi.
- O‘qituvchilar innovatsion texnologiyalardan foydalanganda samaraliroq ishlaydi, chunki ular talabalar bilan turli xil yo‘llar bilan muloqot qilishlari mumkin.
- Innovatsion texnologiyalardan foydalanish o‘qituvchilar va talabalarga ingliz tili o‘quv dasturiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tegishli bo‘lgan ko‘plab kitoblar, nashrlar va ma’lumotnomalarga kirish imkonini beradi.

Ingliz tili leksikasini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning kamchiliklari

- Ko‘pgina o‘qituvchilar va talabalar innovatsion texnologiyalarga cheklangan kirish imkoniyatiga ega.
- Talabalar innovatsion texnologiyalarga haddan tashqari ishonib qolganda, o‘qituvchining roli kamayishi mumkin.
- Bu talabalarning bo‘sh vaqtining ko‘p qismini olib, ijtimoiy faolligini kamaytirishi mumkin.

Tavsiyalar.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, tadqiqotchi quyidagi tavsiyalarni beradi:

- Ingliz tili leksikasini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha barcha o‘qituvchilar uchun tegishli treninglar tashkil etish.
- O‘qituvchilarga innovatsion texnologiyalardan to‘g‘ri foydalanish imkonini berish uchun ta’lim muassasalarida internet tarmoqlarini yaratish.
- Talabalarga elektron o‘quv dasturi talablariga moslashishlari uchun mavjud texnologiyalarning barcha turlari bo‘yicha tegishli treninglar o‘tkazish.
- Talabalarning bo‘sh vaqtlarida o‘rganishlari uchun universitet-uy aloqasini ta’minlovchi ingliz tili o‘qitish portalini yaratish.
- Talabalarning ingliz tili leksikasini o‘zlashtirishini yaxshilash uchun ekranlar, proyektorlar va aqlli panellar kabi innovatsion texnik vositalardan foydalanadigan sinf dialoglari va munozara dasturlarini ishlab chiqishni o‘qituvchilarga tavsiya etish.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tili leksikasini o‘qitishning an’anaviy usullarini modernizatsiya qilish bo‘yicha qilingan sa’y-harakatlarga qaramay, eskirgan usullarni bosqichma-bosqich bekor qilish va kompyuterlar, aqlli qurilmalar, displeylar, audiovizual materiallar va elektron yondashuvlar kabi mavjud texnologiyalardan foydalanish bilan almashtirish zarurligi aniqlandi. Ushbu jarayon talabalarning fikrlash va amaliy til ko‘nikmalarini to‘liq boyitishi va umumiy o‘qitish va o‘rganish samaradorligini oshirishga yordam berishiga ishonamiz. Darhaqiqat, texnologiyalar va tegishli tayyorgarlikdan o‘tgan o‘qituvchilardan samarali foydalanish orqali ko‘plab oddiy o‘quv muammolarini hal qilish mumkin.

Adabiyotlar.

1. Jonita Stepp-Greany. Student perceptions on language learning in a technological environment: implications for the new millennium. Language Learning & Technology. January 2002, Vol. 6, Num. 1 pp. 165-180.

2. Mark Warschauer, Carla Meskill. Technology and second language teaching. Chapter of book: In J. Rosenthal (Ed.), Handbook of undergraduate second language education, 2000, pp. 303-318.

3. Bordbar Farid. English teachers’ attitudes toward computer-assisted language learning. International Journal of Language Studies, 2010, 4(3), pp. 179-206.

4. Solanki D. Shyamlee and M. Phil. Use of technology in English language teaching and learning: An analysis, International Conference on Language, Medias, and Culture, 2012, vol. 33, pp. 150–156.

5. M.H. Tamimi. Integrating Web 2.0 technologies in learning: Using Facebook group and BYKI in English language courses. International Journal of Arabic-English Studies, 2017, N. 17, pp. 85-108.

6. Alqahtani Mofareh A. The Use of Technology in English Language Teaching. Frontiers in Education Technology, 2019, 2(3), pp. 168-180.

7. Momtazur Rahman. English for Specific Purposes (ESP): A Holistic Review. Universal Journal of Educational Research. 2015, 3(1), pp. 24-31.

8. Jacqui Murray. 13 Reasons for Using Technology in the Classroom. 2015. Retrieved from https://www.teachhub.com/13-reasons-using-technology-classroom

9. Nasser Omer M. Al-Tamimi. Improving speaking skill: Implications for using debatable topics in English speaking classes. Research Journal of English Language and Literature (RJELAL) A Peer Reviewed (Refereed) International Journal. 2017, 5(4), pp. 112-123.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Xojimirzayev Shuxratjon Dedamirzayevich
Namangan davlat universiteti sport faoliyati va jismoniy madaniyat kafedrasi katta o‘qituvchsi

JISMONIY TARBIYA NAZARIYASI VA USLUBIYOTINING MAXSUS ATAMALARI

Anotatsiya. *Maqola, Oliy va o‘rta maxsus kasb xunar maktablari, umumta’lim va sport maktabi o‘quvchilarini xar tomonlama kamol topishi, yurtimizda o‘tkazilayotgan isloxotlarning samarasi, jismoniy mashqlarni nazariy bilimlar to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lishlari, o‘sib kelayotgan yosh avlodning salomatligiga bag‘ishlangan.*

Kalit so‘zlar: *jismoniy tarbiya nazariyasida atamalar, metodika, jismoniy madaniyat,Jismoniy rivojlanish, ta’lim-tarbiya.*

Ходжимирзаев Шухратжон Дедамирзаевич
Кафедра спортивной деятельности и физической культуры
Наманганский государственный университет учитель

СПЕЦИАЛЬНЫЕ ТЕРМИНЫ ТЕОРИИ И МЕТОДИКИ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ

Аннотация. *В статье рассматриваются вопросы всестороннего развития учащихся высших и средних специальных профессиональных учебных заведений, общеобразовательных и спортивных школ.узнать результаты реформ, проводимых в нашей стране, получить знания о теоретических знаниях физических упражнений, развивать способности подрастающего поколения посвященный здоровью.*

Ключевые слова: *термины теории физического воспитания, методика, физическая культура, Физическое развитие, образование.*

Khojimirzayev Shukhratjon Dedamirzayevich
Department of Sports Activities and Physical Culture, Namangan State University
Senior Lecturer

SPECIAL TERMS OF THEORY AND METHODOLOGY OF PHYSICAL EDUCATION

Abstract. *The article is devoted to the comprehensive development of students of higher and secondary specialized vocational schools, general education and sports schools, the effectiveness of the reforms carried out in our country, their acquisition of theoretical knowledge of physical exercises, and the health of the growing younger generation.*

Keywords*: terms in the theory of physical education, methodology, physical culture, Physical development, education.*

Kirish.

U yoki bu kasb egalari o‘zaro muloqot davomida o‘z kasbi va hunariga oid ma’lum tushunchalar va iboralardan foydalaniladi. Fanning ma’lum sohasini o‘rganish va uni o‘zlashtirish ana shu yetakchi tushunchalarning mazmunida yetadi. “O‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma‘naviy boylik, buyuk qadriyatdir. Har birimiz davlat tiliga bo‘lgan e‘tiborni mustaqillikka bo‘lgan e‘tibor deb, davlat tiliga bo‘lgan ehtirom va sadoqatni,ona vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz,shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak”,- degan edi muhtaram prezitentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev Xalqaro kongress markazida 21-oktabr o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda so‘zlagan nutqlarida[1]

Ularning mazmuni va hajmini aniqlamay turib, jismoniy madaniyat nazariyasi va amaliyotining ko‘pdan-ko‘p ayrim hodisalari va masalalarini to‘g‘ri tushunib olish qiynilashadi, jismoniy madaniyat nazariyasini o‘rgatadigan fanni muvaffaqiyatli egallab bulmaydi.

Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasida ko‘llaniladigan yetakchi tushunchalarga quyidagilar kiradi: jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy madaniyat, jismoniy madaniyat tizimi, jismoniy bilimlar, jismoniy kamolot (jismoniy mashqlar, jismoniy sifatlar, prinsiplar va boshqa tushunchalar darslikning lozim bo‘lgan boshqa bo‘limlarida ko‘rib chiqiladi) va h.k. Nima uchun yuqorida sanab o‘tilgan tushunchalar asosiy

tushunchalar deyiladi-yu, boshqalari, masalan, jismoniy mashq, sport, tushunchalari asosiy tushuncha deb hisoblanmaydi? Tegishli faoliyatni to‘g‘ri aks ettiradigan barcha tushunchalar o‘z ahamiyati jihatidan birdek muhimdir, bular to‘g‘risida darslikning tegishli boblarida gap ketadi.

Bu yerda bo‘lsa jismoniy madaniyatning asosiy, eng muhim sifatlari umumlashtirilib, ko‘rsatilgan tushunchalargina olingan xolos.

Jismoniy rivojlanish – bu, inson organizmining asta-sekinlik bilan tabiiy shakllanishi, tashqi ko‘rinishi va xizmatining o‘zgarish jarayonidir.

Rivojlanish davrini uch fazaga ajratish mumkin: uning yuqori darajasi, nisbatan stabillashgan (barqarorlik) va inson jismoniy imkoniyatlarining asta-sekinlik bilan pasayishi. U tabiatning ob’ektiv qonunlariga organizm va uning yashash sharoitlari birligi qonuniga, xizmat va tuzilish (struktura) o‘zgarishlarning bir-birini taqozo etish qonuniga, organizmda asta-sekin miqdor va sifat o‘zgarishlari qonuniga va boshqa qonunlarga bo‘ysunadi. Boshqacha aytganda, jismoniy rivojlanish ob’ektiv va biologik qonuniyatlar majmuasidan iborat. Bulardan eng muhimi, muhit va organizm rivojlanishining bir butunligi qonunidir.

Yuqoridagilarni o‘quvchilarga qo‘llaganimizda, o‘qish sharoiti, mehnat va mustaqil ishlash, dam olishni hisobga olishga to‘g‘ri keladi. Bularning barchasi bolalarning jismoniy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Nasldan-naslga o‘tadigan tabiiy hayotiy kuchlar, jismoniy qobiliyatlar ham jismoniy rivojlanishning muhim zamini ekanligi, shuning uchun ham yuqori natijalarga erishish har qaysi o‘quvchi uchun nasib bo‘lmasligini, ammo har qanday o‘quvchi o‘z organizmining jismoniy rivojlanishiga vijdonan, sistemali, maqsadga muvofiq ravishda jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish orqali ijobiy ta’sir eta olishligini e’tirof etishimiz lozim.

Jismoniy rivojlanishning shiddatli (keskin) davri, maktabgacha yoshdagi va kichik maktab yoshidagi davrga to‘g‘ri keladi va butun maktab yoshidagilik davrida davom etadi.

Amaliyotda jismoniy rivojlanganlik ko‘rsatkichlari degan iboraga duch kelamiz. Bu odam tanasi va uning a’zolarini ulchash orqali mutaxasisning o‘zini, unda shug‘ullanuvchilarni yoki individning jismoniy rivojlanishi haqidagi antropometrik ma’lumotlardir.

Jismoniy rivojlanishning yo‘nalishi, xarakteri, darajasi, shuningdek, inson o‘zida kamol toptiradigan fazilatlar va qobiliyat turmush sharoitlari va madaniyatga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Jismoniy rivojlanish qonunlarini egallash, ulardan jismoniy madaniyat maqsadlarida foydalanish-jismoniy madaniyat nazariyasi va praktikasining muhim vazifasidir.

Shunday qilib, kishilarni ijtimoiy sharoitlari jismoniy rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Bular orasida mehnat bilan madaniyat, chunonchi jismoniy madaniyat muhim rol o‘ynaydi.

Jismoniy madaniyat. Madaniyat deganda, ma’lum maqsadni mo‘ljallab insonga ta’sir etmoqlik va uning qobiliyatlarini maqsadga muvofiq rivojlantirishga yo‘naltirilgan, ijtimoiy – siyosiy va ahloqiy – estetik ideallarda, madaniyatlangandagidek yuksak orzularga erishish jarayoni tushuniladi.

Madaniyat bu – kishilarning (insonning) madaniy faoliyati sohasi, ana o‘sha madaniyatni o‘zlashtirish, uning yutuqlarini takomillashtirish va avloddan-avlodga o‘zatish usulidir. Jismoniy madaniyat inson jismoniy kamolotining pedagogik tizimi deb ham qaraladi. Jismoniy madaniyat jarayonida maxsus oldindan ishlab chiqib qo‘llaniladigan jismoniy mashqlar tizimidan, tabiatni sog‘lomlashtiruvchi kuchlari va gigienik omillar qo‘shib foydalaniladi. Harakat malakalari va ko‘nikmalari 6 shakllantirish, harakat sifatlarini rivojlantirish hamda har tomonlama morfofunksional rivojlangan organizmni takomillashtirish uchun maxsus bilimlardan foydalanish jamiyat talablariga muvofiqlashtiradi. Boshqa so‘z bilan aytganda, jismoniy madaniyat pedagogik jarayon tarzida kishilarning jismoniy rivojlanishi va jismoniy bilim egallashini o‘z zimmasiga oladi.

Jismoniy tayyorgarlik. Jismoniy madaniyatda uchta asosiy yo‘nalish mavjud bo‘lib, inson jismoniy madaniyati ana o‘sha ramkalar asosida amalga oshiriladi. Ular umumiy jismoniy tayyorgarlik, hunar-kasb jismoniy tayyorgarligi, sport tayyorgarligidir.

Umumiy jismoniy tayyorgarlik sog‘lig‘ini mustahkamlashga, keng doirada harakat malakalari va ko‘nikmalariga ega bo‘lishiga, o‘zidan keyingi maxsus tayyorgarlikka zamin bo‘lishi uchun xizmat qiladigan asosiy harakat sifatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Umumiy jismoniy tayyorgarlik maqsadida jismoniy madaniyatning barcha turdagi vositalaridan, xilma-xil jismoniy mashqlardan, tabiatning sog‘lomlashtiruvchi kuchlari va gigienik omillardan foydalanilmoqda. Umumiy jismoniy tayyorgarlik jismoniy madaniyatning barcha etaplarida ko‘prok maktab jismoniy tarbiya tizimida, ommaviy jismoniy madaniyat ishlarida va jismoniy mashqlar bilan individual shug‘ullanish shakllari orqali amalga oshirilmokda.

Kasb-hunar jismoniy tayyorgarligi bu jismoniy madaniyatning mutaxassislashtirilgan aniq mehnat turi va mudofaa faoliyatiga tayyorlashga yo‘naltirilgan jarayondir. Bunda asosan, jismoniy mashqlarning hunar yoki kasbga yaqin bo‘lgan turlaridan foydalaniladi. Kasbga yo‘naltirilgan jismoniy tayyorgarlik vositalarining qo‘llanishi mehnat harakat malakalarining shakllanishini egallash jarayonini tezlashtiradi, mehnat unumdorligini oshiradi, organizmning, tashqi muhit ta’sirining zararli faktorlariga qarshilik ko‘rsatishini yaxshilaydi.

Umumiy va kasb jismoniy tayyorgarligi deb ajratish ma’lum darajada shartli bo‘lib, ikkala yo‘nalish ham bir-

birini to‘ldiradi. Sport tayyorgarligi jismoniy madaniyatda maxsus yo‘nalishni ifoda etadi. Buning vazifasi insonni tanlab olingan biror sport turida yuqori natijalarga erishishni ta’minlashdir.

Jismoniy madaniyatning rivojlanishida ma’lum xizmatlarni bajargan inson harakat faoliyatini ratsional me’yori (normalari)ni belgilash;

– jismoniy madaniyatga oid madaniy axborotni to‘plash (axboriylik) xizmati va uni avloddan-avlodga uzatish va tarqatishga vositachilik kiladi;

– shaxslararo muloqot, o‘zaro aloqa (komunikativlik) munosabatlarni shakllantiridi;

– shaxsning harakat estetikasi talabini qondirish bilan bog‘liq (estetikaga oid) xizmati;

– insonning doimiy harakat qilishga bo‘lgan tabiiy talabini qondirish bilan bog‘liq bo‘lgan va uning kundalik turmush uchun lozim darajadagi jisman yaroqlilik holatini ta’minlash (biologik) xizmati.

Maktab jismoniy madaniyati esa madaniyatlanuvchida jismoniy madaniyatning zaminini shakllanishida asosiy poydevordir. Sport jismoniy madaniyatining tarkibiy qismidir. Sport, xususan, ahamiyatli darajada jismoniy va unga bog‘liq bo‘lgan qobiliyatlarning rivojlanishini va o‘sishini ta’minlaydi.

Jamiyat jismoniy madaniyatining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Dars deb – ikki tomonlama to‘g‘ri tashkil etilgan, ma’lum bir vaqt bilan chegaralangan maqsad va vazifalarga ega bo‘lgan pedagogik jarayondir.

Jismoniy tarbiya (arab tilidan olingan bo‘lib ya’ni “jismoniy” - tan, tana, vujud, “tarbiya”, parvarish, voyaga yetkazish) pedagogik jarayon bo‘lib, odam organizmining morfologik va funksional holatini, ruhiy va iroda tomonlarini tarbiyalab, bilim, ko‘nikma, malaka sifatlarini yaxshilashga, mehnat va Vatan mudofaasida yuqori natijalarga erishishga qaratilgan.

Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari o‘quvchilarning holatiga qarab majburiy deb belgilangan. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari o‘quvchilarga jismoniy tayyorgarlikning kichik yo‘nalishini beradi va jismoniy tarbiyaning boshqa yo‘nalishlarini takomillashtirishga yo‘l ochib beradi.

Jismoniy rivojlanish bu kishi organizmi shakl va funksiyalarining 10 o‘zgarish jarayoni sanaladi. “Jismoniy rivojlanish” iborasi tor ma’noda qo‘llanilganda, u antropometrik va biometrik ko‘rsatkichlarni anglatadi (bo‘y, gavda og‘irligi, ko‘krak qafasi aylanasi, o‘pkalarning tiriklik sig‘imi, qaddi-qomatining holati va boshqalar).

Jismoniy tayyorligi – bu harakat ko‘nikmalari, malakalari, jismoniy sifatlarning me’yoriy ko‘rsatkichi. Maktab o‘quvchilari uchun barcha asosiy jismoniy mashq turlari bo‘yicha me’yoriy ko‘rsatkichlar va ularni bajarish sifatiga qo‘yiladigan talablar ishlab chiqilgan.

Jismoniy kamolot – bu jismoniy rivojlanishning tarixan shakllangan darajasi va sog‘liqning, hayotga, mehnatga va Vatan himoyasiga har tamonlama jismoniy tayyorgarlikning eng yuqori bosqichi. “Jismoniy kamolot” o‘sib boradigan ijtimoiy ehtiyojlarni ishlab chiqarilishi, shuningdek, kishilar ehtiyojining o‘sishiga qarab o‘zgarib turadi.

Jismoniy tarbiya – bu jismoniy kamolotga erishishga yunaltirilgan pedagogik jarayon sanaladi. Jismoniy tarbiya jarayonida aqliy, ahloqiy, estetik va mehnat tarbiyasi amalga oshiriladi.

Jismoniy ta’lim – jismoniy tarbiyaning maxsus bilimlar, harakat ko‘nikma va malakalarini egallashdan iborat bir turi. Jismoniy mashqlar – harakatlar, harakat faoliyatlari, harakat faoliyatining murakkab turlari (harakatli o‘yinlar) bo‘lib, ular jismoniy tarbiya vazifalarini xal etish uchun vosita sifatida tanlab olingan.

“Mashq” iborasi harakat faoliyatini bir necha bor takrorlash jarayonini ifodalaydi.

Jismoniy madaniyat – umumiy madaniyatning bir qismi, jamiyatning ijtimoiy-tarixiy amaliyot jarayonida to‘plangan inson jismoniy kamoloti sohasidagi moddiy va ma’naviy boyliklari majmuasidir.

Jismoniy harakat – ijtimoiy harakatning o‘z oldiga aholi jismoniy tarbiyasi darajasini oshirish va sportni rivojlantirishga yordam berishni maqsad qilib qo‘ygan maxsus turi. U davlat, jamoat tashkilotlari va xalk ommasining jismoniy madaniyat va sportni rivojlantirish sohasidagi maqsadiga yo‘naltirilgan faoliyatini ko‘zda tutadi.

2. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyotining vazifalari.

Umumo‘rta ta’lim maktablarida jismoniy tarbiyaning quyidagi vazifalari mavjuddir.

– sog‘lomlashtirish vazifalari;

– ta’limiy vazifalar;

– tarbiyaviy vazifalar.

Sog‘lomlashtirish vazifalari. Hayotni saqlash va sog‘liqni mustahkamlash, jismoniy rivojlanishni yaxshilash, organizm funksiyalarini takomillashtirish, chiniqtirish yo‘li bilan uning turli kasalliklarga nisbatan himoyalanish xususiyatlarini va chidamliligini, tashki muhitning noqulay sharoitlariga (suv va havoning past va yuqori temperaturasi, quyosh nurining ta’siri) bo‘lgan qarshiligini oshirish. Bundan tashqari bolalarning umumiy ish qobiliyatini oshirish ham muhimdir.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. Salomov S. R. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati 1 – jild. – T.: ITA – PRESS, 2015.
2. Salomov S. R., Sharipov K. A. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. 2 – jild. - T.:ITA – PRESS, 2015.
3. Azizov N. N. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. - T.:ITA – PRESS, 2014.
4. Rahmonov P.F. Jismoniy tarbiya o‘qituvchisining faoliyati. –T.: ITA – PRESS, 2016.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Niyazov Saxipjan Sabirjanovich
Andijon davlat universiteti Sport faoliyati turlari nazariyasi
va metodikasi kafedrasi mudiri p.f.n., dotsent
niyazovsaxipjan@gmail.com
ORCID ID 0009-0008-0641-9001

YOSH VOLEYBOLCHILARNING KOORDINATSION QOBILIYATLARINI OSHIRISHDA USLUBIY YONDASHUVLAR VA ASOSIY VOSITALAR

Annotatsiya. *Mazkur maqolada yosh voleybolchilarning koordinatsion qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga oid muhim masalalar tahlil etilgan. Tadqiqotda koordinatsion harakatlar, reaksiya tezligi, fazoviy idrok, muvozanatni saqlash va qaror qabul qilish kabi qobiliyatlarning voleybol o'yinida tutgan o'rni ochib berilgan. Yosh sportchilar bilan ishlashda qo'llanilishi lozim bo'lgan metodik yondashuvlar, mashg'ulot vositalari va ularning samaradorligi haqida ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan asoslangan tavsiyalar keltirgan. Maqolada turli koordinatsion qobiliyatlarning har bir turi alohida ko'rib chiqilib, ularga mos mashqlar va ularni bosqichma-bosqich qo'llash usullari yoritilgan. Bundan tashqari, maqolada koordinatsion salohiyatning yoshi bilan bog'liq xususiyatlari, pedagogik nazorat va sportchilarni individual tayyorlash tamoyillari ham qamrab olingan. Tadqiqot jarayonida statistik ma'lumotlar, kuzatishlar va tajribaviy mashg'ulotlardan foydalanilgan.*

Kalit so'zlar: *koordinatsion qobiliyatlar, voleybol, yosh sportchilar, uslubiy yondashuv, maxsus vositalar.*

Ниязов Сахибжан Сабиржанович
Заведующий кафедрой теории и методики спортивной деятельности
Андижанского государственного университета, к.п.н., доцент

МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ И ОСНОВНЫЕ СРЕДСТВА ПОВЫШЕНИЯ КООРДИНАЦИОННЫХ СПОСОБНОСТЕЙ У ЮНЫХ ВОЛЕЙБОЛИСТОВ

Аннотация. *В данной статье рассмотрены важные вопросы, связанные с формированием и развитием координационных способностей у юных волейболистов. В исследовании раскрыта роль таких качеств, как координационные движения, быстрота реакции, пространственное восприятие, сохранение равновесия и принятие решений в игре в волейбол. Приводит научно-теоретически и практически обоснованные рекомендации по методическим подходам и тренировочным средствам, которые необходимо применять при работе с молодыми спортсменами. Каждый вид координационных способностей рассматривается отдельно, с соответствующими упражнениями и поэтапными методами их применения. Кроме того, в статье затронуты возрастные особенности координационного потенциала, педагогический контроль и принципы индивидуальной подготовки спортсменов. В ходе исследования использовались статистические данные, наблюдения и экспериментальные тренировки.*

Ключевые слова*: координационные способности, волейбол, юные спортсмены, методический подход, специальные средства.*

Niyazov Saxipjan Sabirjanovich
Head of the Department of Theory and Methodology of Sports
Activities of Andijan State University, candidate of pedagogical science, Associate Professor

METHODOLOGICAL APPROACHES AND KEY TOOLS FOR IMPROVING COORDINATION ABILITIES IN YOUNG VOLLEYBALL PLAYERS

Abstract. *This article explores key issues related to the development and enhancement of coordination abilities in young volleyball players. The study highlights the significance of movement coordination, reaction speed, spatial perception, balance maintenance, and decision-making skills in the context of volleyball. The author presents scientifically grounded and practically applicable recommendations regarding methodological approaches and training tools that should be used when working with young athletes. Each type of coordination ability is examined individually, with corresponding exercises and step-by-step implementation*

methods. Moreover, the article addresses age-specific characteristics of coordination capacity, pedagogical assessment methods, and principles of individualized athlete preparation. The research is supported by statistical data, observations, and practical training experiments.

***Keywords**: coordination abilities, volleyball, young athletes, methodological approach, specific tools.*

Kirish.

Voleybol - bu murakkab texnika va yuqori koordinatsiyani talab qiladigan sport turi bo‘lib, ayniqsa yosh sportchilarda bu jihatlar ustida ishlash sport natijalarini belgilovchi omil hisoblanadi. Koordinatsion qobiliyatlar — bu harakatlarni aniqlik, ritm, muvozanat va fazoviy idrok bilan bajarish imkonini beruvchi harakat funksiyalari yig‘indisidir.

O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sport sohasini, ayniqsa yoshlar o‘rtasida rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 4-sentyabrdagi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuni va bir qancha Prezident qaror va farmonlari yosh sportchilarning jismoniy va koordinatsion rivojlanishiga huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Mazkur normativ hujjatlar asosida sport maktablari faoliyati, metodik yondashuvlar va individual sportchilarning salohiyatini ochib berish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda [1].

Bugungi kunda voleybol o‘yini yanada tezlashib, murakkablashganligi sababli, sportchilar nafaqat jismoniy, balki aqliy darajada ham yuqori darajada tayyorlanishlari lozim. Reaksiya tezligi, ya’ni o‘yindagi kutilmagan vaziyatlarga tez va to‘g‘ri javob bera olish, o‘yinchilarning nafaqat harakatlarini, balki mantiqiy fikrlashlarini ham sinovdan o‘tkazadi. Shuningdek, o‘yinda qaror qabul qilish samaradorligi sportchilarga murakkab vaziyatlarda, masalan, raqibning tezkor harakatlariga yoki kuchli hujumiga qarshi samarali strategiyalarni tezda tanlash imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Mashg‘ulot va musobaqa faoliyatining amaliy sharoitlarida koordinatsion qobiliyatlar barcha turlari odatda sifatlarini (tezlik qobiliyati, kuch qobiliyati, chidamlilik, egiluvchanlik), ijro etishda, shuningdek, tayyorgarlikning turli tomonlarida (texnik, taktik, ruhiy) namoyon bo‘ladi. Shu munosabat bilan, agar turli jismoniy sifatlarning rivojlanishi texnik-taktik takomillashuv yoki ruhiy tayyorgarlik koordinatsion jihatdan ozmi-ko‘pmi qiyinroq bo‘lgan mashqlardan foydalanish yo‘li bilan amalga oshirilsa, unda koordinatsion qobiliyatlarning turli ko‘rinishlari parallel ravishda takomillashib boradi[2,3,4].

Koordinatsion imkoniyatlarni oshirishga yo‘naltirilgan tadbirlarni rejalashtirishda yuklamaning quyidagi tarkibiy qismlarini hisobga olish kerak: harakatlarning murakkabligi, ish serunumligi, alohida mashq (topshiriq) davomiyligi, bitta mashqni (topshiriq) takrorlash soni, mashqlar o‘rtasida tanaffusning davomiyligi va xususiyati[5].

Harakatlar murakkabligi. Sportchilarning koordinatsion imkoniyatlarini takomillashtirishda: analizatorlar, asab-mushak apparati faoliyatini kuchaytiruvchi nisbatan sodda mashqlardan sportchilarning funksional imkoniyatlarini to‘la ishga soluvchi qiyin mashqlargacha bo‘lgan turli murakkablikdagi mashqlar qo‘llaniladi. Koordinatsion qobiliyatlarning turli ko‘rinishlarini takomillashtirish jarayoni harakatlar murakkabligi o‘zining yuqori darajasining 75-90% atrofida bo‘lsagina eng samarali ahamiyat kasb etadi.

Ish shiddati. Koordinatsion qobiliyatlarning u yoki bu ko‘rinishi rivojlantirishiga yoki ularni kompleks takomillashtirishga, qaratilgan mashqlardir ko‘zlangan maqsad shuningdek, ularning muayyan harakatlar yoki vaziyatlarga nisbatan takomillashtirish bosqichlari mashqlarni turli jadvallikda bajarilishini taqozo etadi. Biroq, koordinatsion qobiliyatlarining o‘sishga imkon beruvchi turli tuman mashq va topshiriqlarga nisbatan umumiy an’ana mavjud: muayyan harakatli faoliyatga tatbiqan mazkur sifatni rivojlantirishning dastlabki bosqichlarida ishning yuqori bo‘lmagan sportchi texnik-taktik imkoniyatlarining ortishi bilan intensivlikning muntazam ortib borishi va, nihoyat, chegara oldi va chegaraviy intensivlikdan foydalanish. Oxirgi holat musobaqa faoliyatida yuqori natijalarga erishish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan koordinatsion imkoniyatlarini takomillashtirishda foydalaniladi[6].

Mashqlar o‘rtasidagi tanaffuslar davomiyligi va xususiyati. Alohida mashqlar o‘rtasidagi tanaffuslar odatda ancha ko‘p bo‘lib, 1 dan 2-3 daqiqagacha davom etadi va qobiliyatini tiklashga yordam beradi, shuningdek, shug‘ullanuvchilarni navbatdagi topshiriqni samarali bajarishlariga ruhiy kayfiyatini ta’minlash kerak. Ayrim holatlarda ishni toliqish sharoitida bajarish vazifasi qo‘yilganda, tanaffus vaqti (ba’zan 10-15 soniyagacha) sezilarli qisqarishi mumkin. Bu esa kuchayib boradigan toliqish sharoitida ish bajarilishini ta’minlaydi[7].

Koordinatsion qobiliyatlarni nazorat qilish. Koordinatsion qobiliyatlarni nazorat qilish boshqa jismoniy sifatlarni baholash bilan uzviy bog‘liq holda olib boriladi. U koordinatsiyaning turli ko‘rinishlarini kompleks baholashga, yo‘naltirilgan. Shuningdek, harakatlarning dinamik va fazoviy-vaqt parametrlarini baholash va tartibga solish qobiliyatlarini, muvozanat holatini saqlay olish qobiliyatini, maromni his qilishni mushaklarni erkin bo‘shashtirish qobiliyatini, harakatlarning koordinatsiyalanganligini nisbatan alohida-alohida aniqlashga ham yo‘naltirilgan[8,9].

Koordinatsion qobiliyat turlari: Yosh voleybolchilar uchun quyidagi koordinatsion qobiliyatlar ustuvor hisoblanadi. Ularni jadval ko‘rinishida ko‘rish mumkin.

1-jadval.

Yosh voleybolchilarning asosiy koordinatsion qobiliyatlari

№	Qobiliyat turi	Tavsifi	Pedagogik maqsad (rivojlantirish yo‘nalishi)
1	Fazoviy idrok va orientatsiya	Fazoda o‘zini va to‘pni aniqlash, harakatni to‘g‘ri yo‘naltirish	To‘g‘ri joylashish, o‘zaro harakatlarni muvofiqlashtirish
2	Muvozanatni saqlash (statik va dinamik)	Harakatsiz yoki harakatlanayotgan holatda barqarorlikni ushlash	Tana holatini boshqarish, sakrash va tushishda barqarorlik
3	Harakat tezligi va aniqligi	Harakatlarni tez va ishonchli bajarish	Epchillik, samarali texnika bajarish
4	Reaksion qobiliyat	Tashqi signallarga tez va to‘g‘ri javob qaytarish	Tezkor qaror qabul qilish, o‘yin tezligiga moslashish
5	Harakatlarni uyg‘unlashtirish	Murakkab harakatlar ketma-ketligini moslashtirish	Kombinatsion texnikani rivojlantirish
6	Moslashuvchanlik (adaptivlik)	Yangi harakatlarga tez moslashish	Turli o‘yin holatlarida tez o‘zgarishga qodirlik

Uslubiy yondashuvlar:

1.Yoshga moslashtirilgan yondashuv. Koordinatsion qobiliyatlar ayniqsa 8–14 yosh oralig‘ida jadal rivojlanadi. Shuning uchun mashg‘ulotlar yosh darajasiga mos bo‘lishi, psixofiziologik o‘zgarishlar inobatga olinishi kerak.

2.Birmuncha murakkablashtirilgan sharoitlarda mashg‘ulotlar. Oddiy sharoitlarda bajarilgan texnika takroriy bajarilganidan so‘ng, u murakkablashtirilgan sharoitda (masalan, fon tovushlar, vaqt cheklovi, harakatdagi to‘sqinlik) takrorlanadi. Bu vosita koordinatsiyani mukammal rivojlantiradi.

3.O‘yin elementlariga asoslangan mashg‘ulotlar. To‘p bilan bajariladigan topshiriqlar, o‘yinli mashqlar, reaksion harakatga asoslangan topshiriqlar (masalan, “tezda joyini o‘zgartirish”, “tushayotgan to‘pga qarshi harakat”) natijador bo‘ladi.

4.Qarama-qarshi mashqlar. Mashg‘ulotlarda koordinatsiyani kuchaytirish uchun dominant bo‘lmagan qo‘l yoki oyoq orqali topshiriq bajarish (masalan, chap qo‘l bilan uzatish) ishlatiladi.

Asosiy vositalar:

Maxsus mashqlar

1. To‘p bilan muvozanatli yurish

• **Tavsifi:** Sportchi to‘pni qo‘lida yoki boshi ustida ushlab, to‘g‘ri chiziq yoki notekis yo‘nalishda yuradi.

• **Pedagogik maqsad:** Statik va dinamik muvozanatni shakllantirish, postural boshqaruvni kuchaytirish.

2. To‘pni teskari holatda tutib o‘ynash

• **Tavsifi:** Sportchi to‘pni orqaga qarab ushlab turadi va murabbiy ko‘rsatmasiga ko‘ra, belgilangan harakatni bajaradi.

• **Pedagogik maqsad:** Fazoviy idrok, orientatsiya va ko‘z–qo‘l koordinatsiyasini kuchaytirish.

3. "Ko‘r-ko‘rona" to‘p ushlash yoki urish mashqlari

• **Tavsifi:** Sportchining ko‘zlari bog‘lanadi yoki ko‘rish cheklanadi; u faqat eshitish yoki sezgi orqali to‘pni ushlashga urinadi.

• **Pedagogik maqsad:** Proprioseptiv sezgi, reaksiya va reflekslar rivojlanadi.

4. Jumperlar (rezina arqon) yordamida sakrashlar

• **Tavsifi:** Har xil tezlikda va yo‘nalishda arqon bilan sakrash; murakkablik darajasi oshirib boriladi.

• **Pedagogik maqsad:** Ritmni saqlash, harakatlarni muvofiqlashtirish, oyoq-oyoq va oyoq–qo‘l koordinatsiyasini kuchaytirish.

Treninlar va texnik vositalar.

1. Koordinatsion zinapoyalar (bosqichli platformalar).

• **Tavsifi:** Sportchi zinapoyalar ustida turli tezlikda qadam tashlaydi, yo‘nalish o‘zgaradi, to‘xtash-yonalish mashqlari bajarilyapti.

• **Maqsad:** Agility (epchillik) va oyoq harakatlarini tezkor boshqarish.

2. Stabilizatsiya platformalari.

• **Tavsifi:** Sportchi notekis yuzada turib turli topshiriqlarni bajaradi (tizzani bukish, to‘p uzatish va h.k.).

• **Maqsad:** Tana markazining barqarorligini saqlash, mushaklar muvozanatini kuchaytirish.

3. Reaksion lampochkalar (masalan, Blazepod).

• **Tavsifi:** Yorug‘lik signallari asosida harakatlanish. Sportchi qaysi chiroq yonishini kutib, unga tezda javob beradi.

• **Maqsad:** Reaksiya tezligini oshirish, ko‘z–qo‘l muvofiqligi.

4. Sensorli devorlar yoki ekranli to‘siqlar.

• **Tavsifi:** Ekranda ko‘rsatilgan belgilar asosida tezkor harakat, sakrash yoki to‘pni yo‘naltirish.

• **Maqsad:** Multisensor integratsiya, fazoviy tezlik va tananing holatini boshqarish.

O‘yinli va interaktiv mashqlar.

1. “Kim birinchi yetib boradi?”

• **Tavsifi:** 2 yoki undan ortiq sportchi belgilangan nuqtaga yuguradi yoki harakat qiladi; bu paytda qaysidir vazifa bajariladi (masalan, to‘pni olib o‘tish).

• **Maqsad:** Raqobat muhitida tezkor qaror qabul qilish va reaksiya qilish.

2. Reaksiyaga asoslangan belgi bo‘yicha harakatlar

• **Tavsifi:** Murabbiy signal yoki belgi ko‘rsatadi, sportchi mos ravishda joyini o‘zgartiradi yoki harakatni bajaradi.

• **Maqsad:** Konsentratsiyani kuchaytirish, vizual va eshitish reaksiya sifatini oshirish.

3. “Topni quvib yet” yoki “Aynan belgilangan joyga to‘pni tushur”

• **Tavsifi:** Harakatlanuvchi to‘pni to‘xtatish yoki uni oldindan belgilangan joyga yo‘naltirish.

• **Maqsad:** Fazoviy koordinatsiya va zarbani boshqarish qobiliyatini oshirish.

Natijalar va tahlil: Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, yuqorida sanab o‘tilgan metod va vositalardan muntazam foydalanilgan taqdirda:

• Yosh sportchilarning texnika aniqligi oshadi.

• Sakrash va tushish harakatlarida muvozanat yaxshilanadi.

• Qaror qabul qilish tezligi oshadi.

• Tezkorlik va reaksiya bo‘yicha natijalar 15–20% gacha yaxshilanadi.

Natijalar va muhokama.

Yosh voleybolchilarning koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantiruvchi metodlar, yondashuvlar, vositalar yordamida bajariladigan mashqlarni 6 oy davomida amalga oshirildi. Ushbu mashqlarni qo‘llash natijasida quyidagi natijalarga erishildi va ularni jadval ko‘rinishida taqdim etdik.

2-jadval.

Yosh voleybolchilarda koordinatsion qobiliyatlar rivojlanishi

Ko‘rsatkich turi	O‘lchov	Boshlang‘ich ko‘rsatkich (12 yosh)	6 oy mashg‘ulotdan keyin (%)	Eslatma
Reaksiya tezligi (ms)	Millisekund	420–450 ms	350–370 ms (≈17–20% yaxshilanish)	Reaksion chiroqlar bilan test o‘tkazilgan
Statik muvozanat davomiyligi	Sekund	15–18 s	25–30 s (≈40–60% oshish)	Tekis platformada bir oyoqda turish
Fazoviy idrok aniqligi	% aniqlik	65–70%	85–90%	Belgilangan yo‘nalishga to‘pni yo‘naltirish testida
Harakat koordinatsiyasi (to‘g‘ri bajargan harakatlar ulushi)	%	60–65%	80–85%	Kombinatsion harakatlar (masalan, to‘p uzatish + sakrash)
Moslashuvchanlik (yangi topshiriqqa moslashish vaqti)	Sekund	6–8 s	4–5 s	Noan’anaviy topshiriqlar (teskari yo‘nalishdagi o‘yin)
Sakrashdan tushishdagi barqarorlik	Ball (10 ballik tizimda)	5.5–6.0 ball	8.0–8.5 ball	Trenerlar baholashi asosida
Qaror qabul qilish tezligi (reaksiya + qaror)	Sekund	1.8–2.2 s	1.4–1.6 s	Murakkab o‘yin holatlaridagi analiz

Xulosa.

Yosh voleybolchilarda koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish o‘ziga xos yondashuvlarni talab qiladi, chunki bu yosh davrda harakat ko‘nikmalari shakllanishi eng faollashgan bosqichga to‘g‘ri keladi. O‘tkazilgan tahlillar va tajriba mashg‘ulotlari shuni ko‘rsatdiki, rejalashtirilgan mashqlar tizimi orqali koordinatsion qobiliyatlarda 15–60% gacha ijobiy natijalarga erishish mumkin. Ayniqsa, murakkab harakatlar ketma-ketligini bajarish, tez va to‘g‘ri qaror qabul qilish, muvozanatni saqlash va reaksiya tezligi ustida ishlash voleybolchilarning o‘yin sifati va maydon harakatlarida muhim rol o‘ynaydi. Trener va pedagoglar tomonidan yoshning fiziologik va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda tuzilgan mashg‘ulotlar tizimi sportchilar salohiyatini yanada samarali ochib berishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 4-sentyabrdagi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. Abdullayeva M. va boshqalar. "Sport pedagogikasi va psixologiyasi". Toshkent, 2020-yil.

3. Achilov A.M., Seytxalilov E.A. Особенности управления и организации физкультурно-массового движения и детского спорта в Узбекистане. Матер.межд.конф.- Минск, 2010-yil.

4. Voleybol bo‘yicha bolalar va o‘smirlar sport maktablari uchun o‘quv dasturi. O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi, 2021-yil.

5. Niyazov S.S. Umumta‘lim maktablari sharoitida voleybol bilan erta shug‘ullanishning tashkiliy-pedagogik shartlari. Dissertatsiya. Toshkent 2010-yil.

6. Matveyev L.P. "Sport mashg‘ulotining nazariyasi va metodikasi". Moskva, 2010-yil.

7. Maxkamjanov K.M. Воспитание физических качеств и их динамика в школьном возрасте. Метод. реком. Т.: 2002-yil.

8. Platonov V.N. "Sportchilar tayyorgarligining umumiy asoslari". Kiev, 2012-yil.

9. Bompa T., Haff G. "Periodization: Theory and Methodology of Training". Human Kinetics, 2009-yil.

10. Vaishnav R., "Effect of Coordination Training on Motor Skills of School Level Volleyball Players", International Journal of Physical Education, Sports and Health, 2018-yil.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

To‘ychiyev Tohirjon Sahodillayevich
Namangan davlat universiteti (Namangan, O‘zbekiston)
e-mail: tohirtujcv8@gmail.com

PARADZYUDO TUGARAGIGA 9-14 YOSHLI BOLALARNI MASHG‘ULOTLARIGA SARALASHDA FUNKTSIONAL TAYYORGARLIGIDA O‘ZIGA XOS XUSSIYATLARI

Annotatsiya. *Namangan viloyati Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi tasarrufidagi Kosonsoy tumani 45-sonli “Nurli maskan” ixtisoslashtirilgan maktab internati tahsil oluvchi bolalar va usmirlarning “Paradzyudo” sport turi to‘garak mashg‘ulotlari jarayonida o‘quvchilarning saralashda funktsional tayyorgarligida individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda ularning salomatligini saqlash va mustahkamlashga qaratilgan mashg‘ulot muhitini ta’minlaydigan yosh xos xususiyat bo‘yicha saralangan jismoniy mashqlar bilan bog‘liq bo‘lgan testlar to‘plami shakllantirilgan,*

Kalit so‘zlar: *Ko‘zi ojiz, va, zaif ko‘ruvchi, o‘smir , paradzyudo, texnik-taktik, ushlash, qaytarma, beldan ushlash, texnik usul.*

Тўичиев Тоҳиржон Саходиллаевич
Наманганского государственного университета кафедра спортивной деятельности и физической культуры
доктор философии по педагогическим наукам (PhD) доцент
e-mail: tohirtujcv8@gmail.com

ФУНКЦИОНАЛЬНАЯ ГОТОВНОСТЬ ДЕТЕЙ 9-10 ЛЕТ В КЛУБЕ ПАРАДЖУДО ПРИ ВЫБОРЕ ИХ ТРЕНИРОВОЧНОЙ ПРОГРАММЫ

Аннотация. *В ходе занятий спортивного клуба «Парадзюдо» для детей и подростков, обучающихся в специализированной школе-интернате № 45 «Нурли Маскан» Касонсойского района при Управлении дошкольного и школьного образования Наманганской области, разработан комплекс тестов по физическим упражнениям, подобранным с учетом возрастных особенностей, что обеспечивает тренировочную среду, направленную на сохранение и укрепление здоровья учащихся с учетом их индивидуальных возможностей в функциональной подготовке учащихся.*

Ключевые слова: *Слепой, слабовидящий, подросток, парадзюдо, технико-тактический, прием, возврат, прием за талию, технический прием.*

Toychiev Tokhirjon Sakhodillaevich
Namangan State University Department of Sports Activities and Physical Education Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD) and Associate Professor
e-mail: tohirtujcv8@gmail.com

FUNCTIONAL READINESS OF CHILDREN 9-14 YEARS OLD IN THE PARAJUDO CLUB WHEN SELECTING THEIR TRAINING

Abstract. *During the training sessions of the “Parajudo” sports club for children and adolescents studying at the “Nurli Maskan” specialized boarding school No. 45 of the Kosonsoy district under the supervision of the Department of Preschool and School Education of the Namangan region, a set of tests related to physical exercises selected by age characteristics was formed, which provides a training environment aimed at preserving and strengthening the health of students, taking into account their individual capabilities in the functional preparation of the students.*

Keywords: *Blind, visually impaired, teenager, parajudo, technical-tactical, catch, return, catch at the waist, technical method.*

Mavzusining dolzarbligi.

So‘ngi yillarda amalga oshirilgan o‘zgarishlar jamiyatimiz uchun qanchalik ma’nfaatli bo‘lgani barchamizga ma’lum.

Raqobatbardosh paralimpiya sport turlaridan para dzyudochilarni tayyorlash uchun jismoniy sifatlarni erta yoshlikdan, to‘garakka endi kelgan bolalar tomonidan tanlangan paradzyudo turining o‘ziga xos xususiyatlariga

mos ravishda rivojlantirish paradzyudoda yuqori natijalarga erishishning muhim shartlaridan biridir. Bu esa tayyorgarlik jarayonida yosh paradzyudochilar uchun mashg‘ulot vosita va usullarini to‘g‘ri tanlash va amaliyotga joriy etish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan ekanligini ko‘rsatadi.

Paradzyudo mashg‘ulotlari jismoniy, texnik, taktik, psixologik, tayyorgarlik kabi tarkibiy qismlari yoki nisbatan mustaqil jihatlarini o‘z ichiga oladi. Paradzyudo tayyorgarligining bunday tuzilmasi dzyudo mahorati tarkibiy qismlari tushunchasini soddalashtirib, mashg‘ulotlarning vosita va usullari hamda tayyorgarlik jarayonini nazorat qilish va boshqarish tizimini takomillashtirishga imkon beradi. Shuni yodda tutish kerakki, tayyorlik tomonlarining har biri uning boshqa tomonlarining mukammallik darajasiga bog‘liq bo‘lib, o‘z navbatida ularning darajasini belgilaydi.

Shu sababdan ham, “Nurli maskan” maktablarida o‘quvchi yoshlar jismoniy tayyorgarlik darajasini o‘rganish va shu asosda jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonini optimallashtirish yo‘llarini shakllantirish dolzarb masalalardan biridir. Bu esa tadqiqotning maqsadi va vazifalarini belgilab berdi.

“Nurli maskan” maktablarida o‘quvchilarni jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda dzyudo to‘garaklarining ro‘li juda ham muhim hisoblanadi chunki. Yurtimizda ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi yosh avlodni o‘sib rivojlanishi uchun jismoniy tarbiya va sportga juda ham katta e’tibor berilmoqda. Bunga misol qilib O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 - yil 4-martdagi 122-son “Sport turlari bo‘yicha terma jamoalar tarkibiga sportchilarni saralab olish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi, O‘zbekiston respublikasi Prezidentining ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta’lim berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida 2022-yil 18 apreldagi pq-209-son qarori, Yuqorida aytib utilgan farmon va qarorlarga, maofiq maskur Ishning dolzarbligi biz tomonimizdan asta-sekin individuallashgan mashg‘ulot tizimi, ya’ni har bir bolalar va usmirlarning uning qobiliyati va faolligiga qarab mashg‘ulotdagi turlicha yo‘nalishiga ko‘ra moslashuvchan yondashuv mashg‘ulot jarayoniga tatbiq qilinmoqda.

Adabiyotlar tahlil va metodlar.

Xankeldiev Sp., Abdullaev A. (2011) olib borilgan bir qator tadqiqotlarda umumiy chidamlilik va tezlik qobiliyatlarini rivojlantirishda, umumiy chidamlilik va kuchni rivojlantirishda mutanosiblikni kuzatish ayniqsa muhimdir, ya’ni turli fiziologik mexanizmlarga asoslangan fazilatlar hisoblanadi, chunki shunday mutaxassislar ham borki, ular har bir sport turida umumiy fazilatlarni rivojlantirishda o‘ziga xos xususiyatlarini e’tiborga olish zarurligini ta’kidlashadi [1; 332b].

T.S.To‘ychiyev (2022) fikricha, paradzyudochilarni tayyorlash jarayonini optimallashtirish nafaqat yetakchi omillarni, ularning o‘zaro bog‘liqligini va natijaga olib keladigan miqdoriy ta’sirlarni bilishni, balki eng samarali vositalar va usullarni tanlash va ularni amalda oqilona qo‘llashni o‘z ichiga oladi o‘z manbalarida bergan ma’lumotlariga ko‘ra, individual funksiyalar umumiy fazilatlari qobiliyatlarini shakllantirishning xususiyatlarining geteroxron rivojlanishi tufayli turli yuqori malakali davrlarida sportchilarda qobiliyatlarning namoyon bo‘lish strukturasida ma’lum farqlar mavjud bundan tashqari yuqori sport natijalariga erishish asosan davrida o‘rganilgan texnik-taktik murakkab harakatlarni egallash so‘ngra xalqaro sport ustasi darajasidagi sportchini tayyorgarlik darajasi bilan bir vaqtda sportchining tanasini shakllantirish murakkab jarayonlar bo‘lib o‘tadi [8; 553-559-b].

Tadqiqotning maqsadi.

Paradzyudo tugaragiga 9-14 yoshli bolalarni mashg‘ulotlariga saralashda funktsional tayyorgarligida o‘ziga xos xussiyatlari yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab shiqishdan iborat

Nafas olish tizimini baholovchi ko‘plab testlar mavjud. Biz bolalarni nafas olish tizimi holatini aniqlashda asboblarsiz qulay bo‘lgan testlardan ikkita an’anaviy test qabul qildik.(1-jadvalga qarang) Shtange sinovi va Genchi sinovi. 9 yoshli bolalarda Shtange sinovi 19,5±2,78 soniyani, 10 yoshli bolalarda 20,4±2,25 soniyani kuzatdik (1=3,17; r<0,01). Ko‘rsatkichlar orasida statistik farqlar ishonchliligini kuzatdik. 11 yoshli bolalar ko‘rsatkichlari 21,9±2,56 soniyani, 12 yoshli bolalarda 22,6±3,03 soniyani tashkil etadi (1=2,32; r<0,05).

Ko‘rsatkichlar orasida statistik farqlar ishonchliligi kuzatildi. 13 yoshli bolalarda 30,5±3,8 soniyani, 14 yoshda esa bu ko‘rsatkich 32,5±4,0 soniyani tashkil qildi. Genchi sinovi bo‘yicha olingan test natijalariga ko‘ra 9 yoshli bolalar 17,7±2,09 soniyani, 10 yoshli bolalarda 18,5±2,72 soniyani tashkil etdi (1=2,80; r<0,01). Ko‘rsatkichlar orasida statistik farqlar ishonchliligini kuzatdik. 11 yoshli bolalar 19,2±2,46 soniyani, 12 yoshli bolalarda esa 20,3±2,2 soniyani, (1=4,07; r<0,001). Ko‘rsatkichlar orasida statistik farqlar ishonchliligini kuzatdik. 13 yoshli bolalarda 29,4±3,44 soniyani, 14 yoshli bolalarda 30,7±3,84 soniyani tashkil soniyani (1=3,35; r<0,01). Ko‘rsatkichlar orasida statistik farqlar ishonchliligini kuzatdik.

9 yoshli bolalarda Ruf’e testi bo‘yicha quyidagi manzarani kuzatdik 11,2±1,39 soniya, 10 yoshli bolalarda ushbu ko‘rsatkich 10,6±1,16 soniya, tashkil qildi (1=4,77; r<0,001). Ko‘rsatkichlar orasida statistik farqlar ishonchliligini kuzatdik. 11 yoshli bolalarda 9,90±1,28 soniya tashkil qilgan bo‘lsa, 12 yoshli bolalarda esa 9,30±1,21 tashkil qildi (1=4,26; r<0,001). Ko‘rsatkichlar orasida statistik farqlar ishonchliligini kuzatdik. 13 yoshli bolalar 8,5±0,95 soniyani, 14 yoshli bolalarda ushbu ko‘rsatkich 7,9±1,1 soniya tashkil etdi (1=4,33; r<0,001).

Ko‘rsatkichlar orasida statistik farqlar ishonchliligini kuzatdik. Keyingi ko‘rsatkichlar - bu yurak qon tomir tizimi parametrlari. Biz bu erda ikkita test oldik: Ruf’e testi va ortostatik sinov.

Ortostatik sinov natijalari 9 yoshli bolalarda 9,98±1,08 soniya, 10 yoshli bolalarda ushbu ko‘rsatkich 9,43±1,19 soniyani, tashkil qildi (1=4,30; r<0,001). Ko‘rsatkichlar orasida statistik farqlar ishonchliligini kuzatdik. 11 yoshli bolalarda 9,06±1,05 soniya tashkil qilgan bo‘lsa, 12 yoshli bolalarda 8,59±1,10 soniyadan iborat bo‘ldi (1=3,84; r<0,001).

1-jadval

Paradzyudo tugaragidagi 9-12 yoshli bolalarni yurar-qon tomiri va nafas olish tizimi ko‘rsatkichlari

	9 yosh		10 yosh		9-10 yosh		11 yosh		12 yosh		11-12 yosh	
p=	80		80				81		82			
Mashq nomi (son)	*X* **±o**	**V**	*X* **±o**	**V**	*t*	**R**	*X* **±o**	**V**	*X* **±o**	**V**	*t*	**R**
Shtange sinovi	19,5±2,7	14,2	20,4±2,2	11,0	3,1	<0,01	21,9±2,5	11,6	22,6±3,0	13,4	2,3	<0,05
Genchi sinovi	17,7±2,0	11,8	18,5±2,7	14,7	2,8	<0,01	19,2±2,4	12,7	20,3±2,2	11,2	4,1	<0,001
Ruf’e test	11,2±1,3	12,3	10,6±1,1	11,0	4,7	<0,001	9,9±1,2	12,9	9,3±1,2	13,0	4,2	<0,001
Ortostatik sinov	9,9±1,0	10,9	9,4±1,1	12,6	4,3	<0,001	9,0±1,0	11,6	8,5±1,1	12,8	3,8	<0,001

Paradzyudo to‘garagidagi 13-14 yoshli bolalarni yurar-qon tomiri va nafas olish tizimi ko‘rsatkichlari

	13 yosh		**14 yosh**		**13-14 yosh**	
p=	84		88			
Mashq nomi (son)	*X* **±o**	**V**	*X* **±o**	**V**	*t*	**R**
Shtange sinovi	30,5±3,8	12,5	32,5±4,0	12,3	4,6	<0,001
Genchi sinovi	29,4±3,4	11,7	30,7±3,8	12,4	3,3	<0,01
Ruf’e test	8,5±0,95	11,2	7,9±1,1	14,3	4,3	<0,001
Ortostatik sinov	7,7±1,0	13,3	7,1±1,0	14,4	4,8	<0,001

Ko‘rsatkichlar orasida statistik farqlar ishonchliligini kuzatdik. 13 yoshli bolalarda esa 7,71±1,03 soniyani tashkil qildi. 14 yoshli bolalar 7,15±1,03 soniyani, tashkil etdi (1=4,81; r<0,001).

Olingan natijalarni tahlil qilinsa, barcha olingan ma’lumotlar o‘zining statistik ishonchliligini kuzatdik. Yurak-qon tomir tizimi va

nafas olish tizimi ko‘rsatkichlari eng o‘zgaruvchan va ko‘p axborot bera oladigan bolalarni funktsional tayyorgarligi holatini ko‘rsatib bera oladigan tizimlarning eng muhimlaridan hisoblanadi.

Xulosa.

Bolalarni paradzyudo kurashga saralab olish beshta bosqichda amalga oshirildi, salomatlik holati, yurak qon-tomir va nafas olish tizimi ko‘rsatkichlari, umumjismoniy tayyorgarlik holati, maxsus jismoniy tayyorgarligi, yakkakurash elementlariga ega harakatli o‘yinlar orqali paradzyudo kurashga saralash tizimi yaratildi.

Salomatlik holati: sog‘lig‘ining holati, yoshi va jinsining xususiyatlari, jismoniy tayyorgarlik holati, asab tizimi turlarining holati, paradzyudo kurashga bolalarni saralashda quyidagi natijalarni ko‘rsatdi:

- Yil davomida bolalarni yoshi va jinsining xususiyatlari jismoniy rivojlanish holatiga mosligini taxlil qilish;

yurak qon-tomir va nafas olish tizimi ko‘rsatkichlari o‘rganish natijasi shuni ko‘rsatdiki, yurak qon-tomir tizimi va nafas olish tizimi faoliyati yaxshi ishlaydigan bolalar, jismoniy va maxsus tayyorgarlik darajasi bo‘yicha testlarda yuqori natijalar ko‘rsatdi;

- umumiy jismoniy tayyorgarligi bo‘yicha yaxshi natija ko‘rsatgan bolalar saralash jarayonida maxsus tayyorgarlik bo‘yicha testlarda past ball olganligini kuzatdik saralash jarayoni bu ko‘p bosqichli ekanini ko‘rsatadi;

- maxsus jismoniy tayyorgarlik holati tekshirilganda bolalar saralash jarayonida maxsus jismoniy

tayyorgarlik bo‘yicha testlardan yaxshi ball olgan, tayyorgarlikdan o‘rtacha ball natija ko‘rsatdilar. paradzyudo kurashchilar, umumiy jismoniy

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Xankeldiev Sp., Abdullaev A. va boshqalar. Umumiy ta’lim maktabi o‘quvchilarining sog‘lom turmush tarzi jismoniy madaniyati. O‘quv qo‘llanma. - “Farg‘ona” nashriyoti, 2011. - 332 b.

2. Sharipova D.D, Valeologicheskie podxodы k formirovaniyu zdorovya detey i podrostkov. // Jurnal «Fan - sportga» №2-2005 s. 21-23

3. T.S.To‘ychiyev The importance of the principle of unity of general and special training of athletes in the conduct of sports circles in judo in the helpless adolescents of the fall Web of scientist: international scientific research journal issn: 2776 - 0979, Volume 3, Issue 4, April., 2022 487-492 b;

4. T.S.To‘ychiyev. Ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi o‘smirlarda dzyudo sport to‘garak mashg‘ulotlarini o‘tkazishda umumiy va maxsus tayyorgarligining birligi tamoyilini ahamiyati. Namangan davlat unversiteti iimiy axborotnomasi . 2022.4- soni 456-461b;

5. T.S.To‘ychiyev. Ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi o‘smir dzyudochilarning jismoniy rivojlanishini aniqlash usullari. Namangan davlat unversiteti iimiy axborotnomasi. 2022 yil. Maxsus son 553-559-b. [13.00.00. №3];

6. T.S.To‘ychiyev. “Nurli maskan”ixtisoslashtirilgan maktab internati tahsil oluvchi ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalar va o‘smir dzyudochilarining maxsus jismoniy tayyorgarligini tahlili. Namangan davlat unversiteti iimiy axborotnomasi . 2023 yil. 8 son 528-533-b. [13.00.00. №3].

7. T.S.To‘ychiyev. Ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi o‘quvchlarda dzyudo to‘garak mashg‘ulotlarida innovasion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash usullari. Namangan davlat unversiteti iimiy axborotnomasi . 2023 yil. 10 son 352-357-b. [13.00.00. №3].

8. T.S.To‘ychiyev. Ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi o‘smir dzyudochilarning sport o‘quv mashg‘ulot ta’sirini aniqlash usullari. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Farg‘ona filiali jismoniy madaniyat va sport sohasida ta’lim sifatini oshirishning muammolari va yechimlari Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 14.12.2023 yil. 381-385 b.

9. T.S.To‘ychiyev. Adaptiv sportni rivojlantirishning xususiyatlari mashg‘ulot tayyorgarligini rejalashtirishning nazariy tahlil. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Farg‘ona filiali jismoniy madaniyat va sport sohasida ta’lim sifatini oshirishning muammolari va yechimlari Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 14.12.2023 yil. 376-380-b.

10. T.S.To‘ychiyev. Ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi para dzyudochilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini tahlili. Xalqaro kurah turlarini rivojlantirish istiqbollari Respublika ilmiy-amaliy anjumani 16.02 2024 yil. 168-172 b.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Usmonova Xuriniso Sharapovna
Namangan davlat universiteti
Filologiya fanlari doktori.,professor
huriniso19592@mail.com
O‘rinboyeva Xurshida Xayrullayevna
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
hurshidaorinbayeva1@gmail.com

O‘ZBEK TILI DARSLARIDA VEB-ILOVA

Annotatsiya: *bugungi texnologik ta’limning rivojlanishida Veb-ilova dasturlari butun dunyoga yoyilmoqda. Yangi texnologiyalar ta’lim jarayonida salmoqli hissasini qo‘shmoqda. Ta’limda veb-ilova dasturlari fanni o‘zlashtirishda , kerakli ma’lumotlarni ifoda etishda asosiy omil hhisoblanadi. Ushbu maqolada o‘zbek tili darslarida veb-ilova dasturlarini ahamiyati va ularni ta’lim jarayoniga ta’siri haqida o‘rganildi.*

Kalit so‘zlar: *yangi texnologiyalar, ta’lim dasturlari,o‘zbek tili darslarida veb-ilova, raqamlashtirish, mobil ta’lim.*

Усмонова Хуринисо Шараповна
Наманганский государственный университет
доктор филологическихнаук профессор
huriniso1959@mail.com
Уринбаева Хуршида Хайруллаевна
Наманганский государственный университет, аспирант

ВЕБ – ПРИЛОЖЕНИЕ НА УРОКАХ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация: *В развите современного технологического образования веб-приложения распространяются по всему миру. Новый технологии вносят знаяительный вклад в образовательный процесс. Использование узбекского языка на местах важно для всех сфер. В частности, обеспечить полное и надлежащее использование государственного языка во всех сферах общественной жизни нашей страны; обеспечить совершенное усвоение теоретических знаний и практических навыков в данной области в соответствии с нормами и правилами письменного и устного узбекского языка и выражать личное отношение к ним в соответствии с литературными нормами узбекского языка.*

Ключевые слова: *мобильное образование, цифровые технологии, инновации в образовательном процессе, платформы электронного обучения, мобильные приложения, интерактивное обучение, цифровизация образовательного процесса, онлайн-образовательные ресурсы, активность студентов, эффективность образования.*

Usmonova Khuriniso Sharapovna
Namangan State University doctor, professor
Orinbayeva Hurshida Khairullayevna
Namangan State University, PhD student

VEB APPLICATION IN UZBEK LANGUAGE LESSONS

Annotation. *The development of todays technological education is spreading web-based application programs all over the world.New technologies are making a significant contribution to the educational precess. In education,web application programs are considered a key factor in mastering subjects and exspressing necessary information.This article explores the importance of using web-application programs in Uzbek language lessons and their impact on the educational process.*

Keywords: *mobile learning, digital technologies, innovation in the educational process, e-learning platforms, mobile applications, interactive learning, digitalization of the educational process, online educational resources, student engagement, educational effectiveness.*

Kirish.

Raqamli texnologiyalarning harakatchanligi ta'limning yangi shakllari uchun qiziqarli imkoniyatlar yaratadi, chunki ular o'qituvchilar talabalar va ta'lim obyektlari o'rtasidagi jismoniy munosabatlarning tabiatini o'zgartiradi.Hatto masofaviy o'qitish an'analari ham ushbu yangi turdagi o'zaro ta'sirning moslashuvchanligini ta'minlay olmaydi, shuning uchun mobil o'qitishga qiziqish ortib borayotganini tushunish mumkin. Jarayon muqarrar ravishda boshqa talablar uchun ishlab chiqilgan texnologiya yechimi sifatida boshlanadi, u ta'limda hal qiladigan muammoni qidiradi. Ta'lim texnologiyalari tarixi bu jarayonni shunchalik ko'p takrorladiki, ta'lim uchun eng maqbul ta'sir emas, chunki bu o'qituvchilarga ta'lim tadqiqot munosabatini ushlab turadigan bizning talablarimizni ifodalaydigan va har bir yangi texnologiyani bizning shartlarimiz bo'yicha baholash uchun foydalanadigan vositalarga imkoniyati yetarli emas.

Aks holda, biz uning nimaga qodirligini past baholab, ta'limni taklif qilayotgan narsaga haddan tashqari moslashtirib, uning qiymatini optimallashtira olmaymiz.

Ushbu bo'limda pedagogikaning tegishli shakllarini tahlil qilish uchun mobil texnologiyalardan nimasi tubdan farq qilishini aniqlashga qaratilgan. Mobil texnologiyalarning xususiyatlari qanday?

Mobil ta'lim uchun pedagogikani belgilashda mobil ta'lim aynan nima olib kelishini , nima yangiligini va oldingi ta'lim texnologiyalardan farqini aniq tushunish kerak. Quyidagi kabi xususiyatlar , ehtimol buni aks ettirmaydi, chunki ular juda ko'p boshqa texnologiyalar uchun ham to'g'ri keladi:

Talabalarning turli kontekstlarda bilimlarini rivojlanishiga ishonch hosil qiling.

Talabalarga tushunishga imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili.

Zamonaviy raqamli veb-ilova texnologiyalarni ta'lim dasturlariga integratsiya qilish masalalari bilan yurtimizda ko'plab pedagog olimlar nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borgan. Masalan, Begimqulov U.Sh, Azizxo'jayeva N.N, Qamarov M.S, **Ummatillayeva M.U,** Usmonov M.S, Beknazarova S.S, Abdullayeva Z.M, Anarbayeva S.G' , Axchaboyev, Q. (2023) va boshqalar o'zlarining darslik, o'quv qo'llanma, maqola, tezis kabi ilmiy ishlarida yuqoridagi mavzu doirasida Raqamli texnologiyalarni mobil ta'limni , oliy ta'lim tizimida ta'lim dasturlari bilan integratsiyalashuvida uning roli, mazmun-mohiyati, qo'llanilishi haqida ko'plab fikr-mulohaza hamda ilmiy-amaliy tadqiqot natijalari bilan tanishish mumkin bo'ladi[3]. Tadqiqotlar mobil ta'limdan hamda raqamli texnologiyalardan foydalanishga asoslangan ta'lim jarayoning mahsuli a'anaviy tarzdagi ta'lim jarayonining mahsulidan ko'ra salmoqli va samarali bo'lishini ko'rsatmoqda.

Zamonaviy axborot texnologiyalari asosida mobil veb-ilova dasturlaridan va raqamli texnologiyalardan foydalanish har bir fanni chuqur o'qitishga, talabalarning fanga bo'lgan qiziqishlarining ortishiga olib keladi. Mobil Veb-ilova dasturlaridan foydalanish bu birgina ta'lim jarayonining yaxshilanishigina emas, balki, ishbilarmonlik, sanoat ob'ektlarini sifatli boshqarish, sifatli va tezkor xizmatlar ko'rsatish, o'zbek tilidagi so'zlarni to'g'ri va mukammal yozishini ta'minlash deganidir.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu ilmiy maqolada molil-veb ilova ta'lim dasturlariga integratsiyalashning ilmiy-amaliy ahamiyati va zaruriy tamoyillarini o'rganish muhokama qilinadi. Oliy ta'limda tahsil olayotgan talabalarning mobil veb-ilova bo'yicha o'zbek tilida to'g'ri yozish , savodxonligini oshirish, imloviy xatolarga yo'l qo'ymaslik, uslubiy xatolarni o'rganish kreativ fikrlash qobilyatini rivojlantirish, hamda ijodiy kommunikativ ko'nikmalarini mobil-veb ilova dasturlari asosida asoslangan interfaol ta'lim metodlaridan va vositalardan foydalanish orqali rivojlantirish kabi mulohazalar bayon qilinadi.

Tahlil va natijalar.

Jahon mamlakatlaridagi kabi O'zbekistonda ham mobil-veb ilovalarni o'ziga xos xususiyatlarini asoslovchi asosiy omillardan biri bu mobil-veb ilova platformalarni faol joriy etish, katta ma'lumotlardan (Big Data),MALL texnologiyalaridan foydalanish, shuningdek, davlat uchun yangi imkoniyatlar yaratuvchi yangi texnologiyalarni veb-ilova ishlab chiqishdir[5]. O'zbekistonda mobil-veb ilova uchun ilova dasturlari yaratish va bu o'zgarishlardan maksimal darajada foydalanishga e'tibor qaratilmoqda. 2024-yilgi statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakat aholisining 85% dan ortig'i ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan, bu raqamli infratuzilma kengayganligi va aloqaning yaxshilanganidan dalolat beradi;

Xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limni modernizatsiya qilish va ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda talabalarning ta'lim natijalarini baholashda turli hil taksonomiyalardan foydalanishi tizimli ravishda yo'lga qo'yilgan. Butun jahon pedagogikasida keng tarqalgan uchta ta'lim taksonomiyalari, ya'ni ingliz tilida Structure of the Observed Learning Outcomes (SOLO) Taxonomy (Kuzatilgan Ta'lim Natijalarining Tuzilishi), Bloom Taxonomy (Blum taksonomiyasi) va Reflective thinking measurement model (Refleksiv fikrlash o'lchov modeli) tadqiqotimiz davomida qo'llanilgan. Bunda o'quv maqsadlarini rejalashtirish va baholash izchil qo'llay boshlandi.

Taksonomiya har xil ta'lim turi, toifa va darajasini tavsiflaydi hamda tasniflaydi. Ular ko'pincha o'quv dasturini, o'qitish metod va strategiyalari hamda baholashni ishlab chiqish uchun qo'llanma sifatida ishlatiladi.

Biggs va Collis tomonidan turli xil kognitiv bosqichlariga mos keladigan talabalarning javobini tasniflash va baholashdagi faolligini hamda ta'lim sifatini nazorat qilish maqsadida SOLO taksonomiyasi ishlab chiqilgan[37].

Talabalarni baholash topshiriqlariga bergan javoblari sinchkovlik bilan tahlil qilinib, fanlarning keng doirasida foydalanishi uchun tasdiqlangan[38]. SOLO taksonomiyasi ta'lim sifatining ma'lum darajasida javoblarni o'zaro bog'liqlik usulidir. Bunda talabalarning bilimlarini oshirish bilan birga tizimli murakkabligi ham yuqori bo'ladi. Dastlabki bosqichda o'rganish aksariyati miqdoriy bo'lib, malaka miqdori ortib boradi. Keyingi bosqichlarda esa malakalar strukturaviy tarzda uyg'unlashganligi sababli o'rganish sifati yana-da ortadi[39]. O'quv dasturining ikki asosiy maqsadi: miqdor ko'rsatkichi bilimlarni oshirishga qaratilgan bo'lsa, sifat ko'rsatkichi tushunishga qaratilagandir. U besh darajaga ega: Prestructural (eng past daraja), Unistructural, Multistructural, Relational va Extended Abstract (eng yuqori daraja). Bu tizimli murakkablik: ketma-ketlik, tashkiliy o'lchamlar va tegishli tamoyillardan foydalanishni orttiradigan iyerarxik modeldir[40]. Burnett hamda Trigwell va Prosser tomonidan SOLO taksonomiyasiga quyi darajalar qo'shib, umumiy to'qqizta bo'lgan va talabalar javoblarini baholashda ushbu yangi o'lchovdan foydalanilib, toifaga ajaratishga aniqlik kiritishgan[41].

Bu taksonomiya talabalarning bilim darajasini o'lchash uchun taqdim etilgan obyektiv mezon bo'lib, qo'llanishda keng qamrovi afzalligini bir necha tadqiqotchilar o'z ishlarida ta'kidlaydilar.

Blum taksonomiyasi o'quv maqsadlarini kognitiv darajalarda tasniflash uchun ishlab chiqilgandir[42]. U pedagoglarga talabalarning bilimini tizimli ravishda baholash imkonini beradi[43]. Keyinchalik Anderson va Krathwohl tomonidan ikkita o'lchovlar, ya'ni bilim va bilish (kognitiv) jarayoni qayta ko'rilib ishlab chiqilgan. Bu farqlash tadqiqot savoliga bog'liq bo'lib, bilim o'lchovida tanqidiy savol: "Talabalar nimani bilishadi?", kognitiv jarayon o'lchovida esa: "Talabalar qanday fikrlashadi?". Bilim o'lchovi to'rt toifandan iborat: faktual, konseptual, protsedural va metakognitiv. Blum taksonomiyasining kognitiv jihati oddiydan murakkabga va aniqdan mavhumgacha qarab oltita darajalardan iborat: eslab qolish, tushunish, qo'llash, tahlil, baholash, yaratish[44].

Birinchidan, ta'lim dasturlarining moslashuvchanligi muhim ahamiyatga ega. Ular mobil veb-ilova dasturlarini va amaliyotlarning tez o'zgarishiga mos ravishda yangilanishi kerak. Mavjud ta'lim talablariga mos keladigan malakalarni o'quv dasturiga bosqichma-bosqich kiritish, masalan, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, ma'lumotlar ko'nikmalarini o'rgatish va mobil-veb ilovalarga e'tibor qaratish lozim.

Ikkinchidan, ta'lim muassasalarining hozirgi va kelajakdagi malaka ehtiyojlarini tushunish va faol hamkorlik qilish zarur. Masalan, qo'shma ishlab chiqarish ta'lim muassasalari real ishlab chiqarish ehtiyojlarini hisobga olgan holda malaka oshirish kurslarini ishlab chiqishi, talabalar esa amaliyotga joriy etish jahon ta'lim standartlariga tayyorlanishlari kerak.

Uchinchidan, kadrlar tayyorlashda imloviy savodxon, ijodiy va mantiqiy fikri teran va texnik ko'nikmalarni rivojlantirish asosiy o'rin tutadi. Bu nafaqat o'zbek tilini o'rganish o'rganish, balki yangi vositalarga moslashish va innovatsiyalarni tezda o'zlashtirish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Kelajakdagi ishchilar sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar tahlili, yetuk savodxon kadr dasturlash asoslari bilan ishlashga tayyor bo'lishi kerak.

Xulosalar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mobil texnologiyalarning til ta'limidagi amaliy ahamiyatini tushunish uchun asos yaratdi. Iqtisodiyot yo'nalishi talabalari uchun o'zbek tilini qo'llashni o'qitishda bunday texnologiyalarni integratsiyalash nafaqat amalga oshirilishi mumkin, balki ta'lim tizimini tez o'zgarib borayotgan, texnologiyaga asoslangan dunyo talablariga moslashtirish uchun zarurdir. O'zbekiston ta'lim infratuzilmasini modernizatsiya qilishda davom etar ekan, mobil ta'lim platformalari milliy til bilan mustahkam aloqani saqlab qolgan holda, talabalarni jahon iqtisodiyotiga tayyorlash muammolariga innovatsion yechimlarni taklif qilib, til ta'limi kelajagini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu metodologiyalar, shuningdek, o'zbek tilining turli sohalarda samarali va professional tarzda qo'llanilishini ta'minlab, madaniyatni asrab-avaylash va iqtisodiy taraqqiyotga hissa qo'shadi.

---

[37] Biggs J.B, Collis KF. Evaluating the quality of learning: the SOLO taxonomy (Structure of the observed learning outcome). New York: Academic Press, 1982.

[38] Hattie J.A.C. and Brown G.T.L. Cognitive Processes in asTTle: The SOLO Taxonomy. asTTle Technical Report #43, University of Auckland/Ministry of Education. 2004, September.

[39] Biggs J.B., Tang C. Teaching for quality learning at university: what the student does. Maidenhead: Open University Press, 2007. – pp. 50-63.

[40] Hattie J. & Purdie N. The SOLO model: addressing fundamental measurement issues, in: B.Dart & G.M. Boulton- Lewis (Eds) Teaching and Learning in Higher Education (Camberwell, Australian Council for Educational Research). 1998.

[41] Burnett P.C. Assessing the structure of learning outcomes from counselling using the SOLO taxonomy: an exploratory study, British Journal of Guidance & Counselling. 1999. – 27 (4). – pp. 567–581.

Trigwell K. & Prosser M. Improving the quality of student learning: the influence of learning context and student approaches to learning on learning outcomes. Higher Education. 1991. – 22(3). – P. 251-266.

[42] Bloom B.S., Engelhart M.D., Furst E.J., Hill W.H. & Krathwohl D. Taxonomy of educational objectives: the cognitive domain (New York, David McKay Co.). 1956.

[43] Barrett S. Bloom's Taxonomy, Educational Objectives, Outcomes, and our Friends from ABET – An Engineering Case Study. 2009.

[44] Anderson, L.W., & Krathwohl, D.R. A taxonomy for learning teaching and assessing: A revision of Bloom's taxonomy of educational objectives. New York: Longman. 2001.

Krathwohl D.R. A revision of Bloom's taxonomy: an overview. Journal of theory into practice. 2002. – vol. 41, issue 4, pp. 212-218.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006. – 110-bet. Anderson, L.W., & Krathwohl, D.R. A taxonomy for learning teaching and assessing: A revision of Bloom’s taxonomy of educational objectives. New York: Longman. 2001.
2. O‘zbek tilining izohli lug`ati (5 jildli). - Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005-2008.
3. Begmatov E., Uluqov N. o‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug`ati. – Namangan, 2006.
4. G`ulomov P., Mirkamalov M.T. Toponimika va geografik terminshunoslik. – Toshkent, 2005. – 180 b.
5. Vohidov E. So‘z latofati. – Toshkent: O‘zbekiston, 2014.
6. Yo‘ldoshev B. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional – uslubiy xususiyatlari: Filol.f. doktr...diss. – Toshkent, 1993.
7. Sohaviy lug`atlar.
8. Axborot manbalari
9. Abdurahmonova M. Fattaxova D. Xalmuxammedova U.Inogamova N. Egamberdiyeva N. O‘zbek tili (o‘quv qo‘llanma). - Toshkent: Mumtoz so‘z, 2018.
10. Sh. Rahmatullayev. O‘zbek tilining izohli frozeologik lug‘ati.- T: O‘qituvchi,1978.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

X.O‘rinboyeva
NamDU tayanch doktoranti

OLIY TA’LIM TALABALARIGA O‘ZBEK TILINI O‘QITISHDA MOBIL TA’LIMNI JORIY ETISH

Annotatsiya: *O‘zbek tilini joylarda qo‘llash barcha sohalar uchun muhim ahamiyatga ega.Xususan, davlat tilining mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida to‘liq va munosib qo‘llanilishini ta’minlash; yozma va og‘zaki o‘zbek tilining me’yor va qoidalariga muvofiq bu boradagi nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni mukammal o‘zlashtirishni ta’minlash hamda ularga o‘zbek tili adabiy me’yorlariga muvofiq shaxsiy munosabat bildirish.*

Kalit so‘zlar: *mobil ta’lim, raqamli texnologiyalar, ta’lim jarayonida innovatsiya, elektron ta’lim platformalari, mobil ilovalar, interaktiv o‘qitish, o‘quv jarayonini raqamlashtirish, onlayn ta’lim resurslari, talabalar faolligi, ta’lim samaradorligi.*

Х.Оринбаева
Базовый докторант НамГУ

ВНЕДРЕНИЕ МОБИЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ В ПРЕПОДАВАНИИ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА СТУДЕНТАМ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

Аннотация: *Использование узбекского языка на местах важно для всех сфер. В частности, обеспечить полное и надлежащее использование государственного языка во всех сферах общественной жизни нашей страны; обеспечить совершенное усвоение теоретических знаний и практических навыков в данной области в соответствии с нормами и правилами письменного и устного узбекского языка и выражать личное отношение к ним в соответствии с литературными нормами узбекского языка.*

Ключевые слова: *мобильное образование, цифровые технологии, инновации в образовательном процессе, платформы электронного обучения, мобильные приложения, интерактивное обучение, цифровизация образовательного процесса, онлайн-образовательные ресурсы, активность студентов, эффективность образования.*

X.Urinbaeva
NamSU base doctoral student

INTRODUCTION OF MOBILE EDUCATION IN TEACHING UZBEK TO HIGHER EDUCATION STUDENTS

Annotation. *The use of the Uzbek language in the field is important for all areas. In particular, to ensure full and proper use of the state language in all spheres of public life of our country; to ensure the perfect acquisition of theoretical knowledge and practical skills in the field in accordance with the norms and rules of written and oral Uzbek and to express personal attitudes towards them in accordance with the literary norms of the Uzbek language.*

Keywords: *mobile learning, digital technologies, innovation in the educational process, e-learning platforms, mobile applications, interactive learning, digitalization of the educational process, online educational resources, student engagement, educational effectiveness.*

Raqamli texnologiyalar ta’lim sohasida tub o‘zgarishlar qilishga sabab bo‘layotgan bir paytda, o‘zbek tilini o‘qitishda ham innovatsion vositalardan foydalanish zarurati ortmoqda. Ayniqsa, mobil qurilmalar orqali ishlovchi veb-ilovalar orqali ta’lim olish imkoniyatlari talabalar va o‘qituvchilar uchun keng qulayliklar yaratmoqda.

Mamlakatimiz rivojlangan davlatlar qatoridan o‘rin olar ekan, eng avvalo, millat g‘ururi bo‘lgan milliy tilimiz va uning taqdiri Vatan taqdiri kabi ardoqlanishi muhim. Bu borada esa, har birimiz mas’ulligimizni tushunmog‘imiz kerak. Kelajak avlod ta’lim-tarbiyasi, ma’naviy-ma’rifiy kamoloti sari odimlashda aholi o‘rtasida davlat tili ta’limini jadallashtirish muammolarini hal etish va ta’lim samaradorligini oshirish, an’anaviy o‘qitish tizimini ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan boyitish asosiy vazifa hisoblanadi. Bugungi kunda ona tilimizning xalqimiz hayoti va xalqaro miqyosda obro‘-e’tibori ortib bormoqda.

Davlatimiz rahbarining o‘sib kelayotgan yoshlarimizni ona Vatanga mehr va iftixor, milliy an’ana va qadriyatlarga sadoqatlilik, ulug‘ ajdodlarimizning boy merosiga munosib vorislik ruhida ulg‘aytirish hamda “Davlat tili” tushunchasini keng targ‘ib etishga doir islohotlari kundan-kun o‘z natijasini ko‘rsatmoqda. Bu borada jiddiy va samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Shu ma’noda Davlat tilini to‘laqonli joriy etishni ta’minlash maqsadida 2019-yil 2-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son Farmonida bir qator vazifalar belgilandi.

O‘zbekistondagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o‘zbek tilini o‘rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, o‘zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalish va vazifalarini hamda istiqboldagi bosqichlarini belgilash maqsadida 2020-yil 20-oktabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son Farmoni bilan 2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi, 2020-2022-yillarda amalga oshirish dasturi, 2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari tasdiqlandi.

2020-yil 10-aprelda esa Davlatimiz rahbari tomonidan “O‘zbek tili bayrami kunini belgilash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni imzolanib, 21-oktyabr “O‘zbek tili bayrami kuni” etib belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbek tilining davlat tili sifatida qo‘llanilishini kengaytirish, rivojlantirish, ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash, o‘qitish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan chora-tadbirlar dasturi”da belgilangan vazifalarga asosan, 2019-yil oxirida barcha nofilologik oliy ta’limlarda o‘zbek tili fanlarini o‘qitish yo‘lga qo‘yildi.

Oliy ta’lim talabalari uchun O‘zbek tili bo‘yicha o‘quv jarayoninig nazariy, amaliy, ijodiy jihatlarini to‘liq aks ettirib, innovatsion texnologiyalar bilan boyitilishi nazardan chetda qolmadi. Bu talabalar fanni qulay va oson o‘zlashtirishlariga yordam beradi. Foydalanuvchilarni o‘z ustida ishlashlari uchun sharoit yaratadi. Oliy ta’limda O‘zbek tili orqali o‘qitish tamoyillari, mazmuni va uslubini o‘zgartirib, o‘zbek tilini o‘rganish jarayonini tezlashtirish, talabalarning o‘rta maktabda, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida olgan bilimlarini chuqurlashtirish, takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan nutqiy ko‘nikmalarni hosil qilish, o‘zbek tilining boy imkoniyatlaridan o‘z mutaxassisligi bo‘yicha foydalanish, fikrni to‘g‘ri, aniq, mantiqli ifoda etishga o‘rganish ko‘zda tutiladi. Shularni nazarda tutib, o‘quv-uslubiy majmua nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan kommunikativ tamoyilga asoslanib tuzildi.

O‘zbek tilini o‘qitishda mobil ta’lim texnologiyalaridan foydalanish darslarni qiziqarli , interaktiv va samarali etish imkonini beradi. Mobil ta’lim dars jarayonini innovatsion usullar bilan boyitib , talabalarning mustaqil o‘rganish,ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Mobil ta’limni O‘zbek tili darslariga joriy etish usullari quyidagilardan iborat:

- O‘zbek tiliga oid lug‘at ilovalari (o‘zbekcha-ruscha, o‘zbekcha –inglizcha);
- Til o‘rganish platformalari (Duoling, uzbeklangua);
- Interaktiv test va mashqlar (Quiz test, Kahoot, Google Forms)

Yangi so‘zlarni yod olish, imlo xatolarsiz yozish uchun lug‘at ilovalaridan foydalanish hamda grammatika qoidalarini interaktiv testlar orqali mustahkamlash, videodarslar va podkastlardan foydalanishda YouTube dagi O‘zbek tili darslari (ta’lim kanallari), podkastlar va audio kitoblar–talabalar tinglab–tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishlari mumkin.

Mobil veb-ilovalar platformadan mustaqil ishlaydi va har qanday qurilmada (smartfon, planshet, kompyuter) internet orqali foydalanish imkonini beradi. O‘zbek tilini o‘rganishga mo‘ljallangan veb-ilovalar odatda quyidagi funksiyalarni o‘z ichiga oladi:

- Interaktiv mashqlar va testlar
- Video va audio materiallar
- Leksik va grammatik topshiriqlar
- Onlayn baholash va fikr-mulohazalar.

Raqamli texnologiyalar ta’lim sohasida tub o‘zgarishlar qilishga sabab bo‘layotgan bir paytda, o‘zbek tilini o‘qitishda ham innovatsion vositalardan, xususan mobil veb-ilovalardan foydalanish zarurati ortmoqda. Mobil veb-ilova — bu internetga ulanish orqali istalgan mobil qurilmada ishlaydigan veb-brauzer asosidagi ta’limiy platforma bo‘lib, u o‘quvchilarga tilni mustaqil, interaktiv va moslashuvchan tarzda o‘rganish imkonini beradi.

Mobil veb-ilovalarning o‘zbek tilini o‘qitishdagi afzalliklari.

- Interaktivlik: O‘quvchilar video, audio, test va topshiriqlar orqali faol ishtirok etadi.
- Moslashuvchanlik: Veb-ilovalar har qanday qurilmada (telefon, planshet, noutbuk) ishlaydi.
- Real vaqtli baholash: Natijalar avtomatik tahlil qilinadi va darhol o‘qituvchiga taqdim etiladi.
- Yagona platforma: O‘qituvchi va o‘quvchi uchun barcha materiallar bitta tizimda jamlanadi.

Amaliy tatbiq: mavjud platformalar.

Bugungi kunda o‘zbek tilini o‘rganishga mo‘ljallangan bir nechta veb-ilovalar ishlab chiqilgan yoki ishlab chiqilmoqda. Masalan, "Til.uz" veb-platformasi yoki o‘zbek tili faniga moslashtirilgan Moodle tizimi orqali

darslar tashkil etilmoqda. Bu platformalar foydalanuvchilarga interaktiv darslar, topshiriqlar, forumlar va avtomatik test tizimlari orqali o‘quv jarayonini olib borish imkonini beradi.

Yaratish tamoyillari va didaktik asoslar.

Mobil veb-ilova yaratishda quyidagi tamoyillarga e’tibor qaratish lozim:

- Oson interfeys va dizayn
- Interaktiv va multimediya imkoniyatlari
- Foydalanuvchiga moslashuvchanlik (adaptive learning)
- Onlayn va oflayn ishlash imkoniyati
- Natijalarni kuzatish va baholash tizimi

Didaktik jihatdan esa mobil veb-ilova tilni eshitish, o‘qish, yozish va gapirish kompetensiyalarini birgalikda rivojlantirishi kerak.

Kamchiliklar va takliflar

Shunga qaramasdan, mavjud muammolar ham mavjud:

- Internetga bog‘liqlik
- Texnik vositalar yetishmovchiligi ayrim hududlarda
- O‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasi pastligi

Takliflar:

- Mahalliy veb-ilovalarni yaratish va qo‘llab-quvvatlash
- O‘qituvchilar uchun raqamli malaka oshirish kurslari
- Ilovalarni darsliklar bilan integratsiyalash

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilini o‘qitishda mobil veb-ilovalardan foydalanish nafaqat zamon talabi, balki til o‘rgatishda sifat va samaradorlikni oshirishning asosiy omillaridan biridir. Bunday texnologiyalar orqali o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida mustahkam raqamli aloqani ta’minlab, ta’lim jarayonini yuqori darajada tashkil etish mumkin.Darslarda qo‘llashda o‘qituvchilar tavsiya etilgan videodarslarni tomosha qilib,talabalar bilan muzokara darslarini olib borishlari mumkin.

O‘zbek tili darslarida mobil taʾlim texnologiyalarini tatbiq etish zamonaviy ta’lim jarayonining ajralmas qismi boʻlib, o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada interaktiv, samarali va qulay qilish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, mobil ilovalar va raqamli platformalardan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olish koʻnikmalarini rivojlantirib, ularning til o‘rganish jarayonidagi faolligini oshiradi. Bundan tashqari, ushbu yondashuv o‘quv jarayonining moslashuvchanligini ta’minlab, zamonaviy ta’lim standartlariga mos keluvchi innovatsion usullarni keng joriy etish imkonini yaratadi. Shunday qilib, o‘zbek tili ta’limida mobil texnologiyalarni qo‘llash raqamli ta’limning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, uni keng miqyosda joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Trigwell K. & Prosser M. Improving the quality of student learning: the influence of learning context and student approaches to learning on learning outcomes. Higher Education. 1991. – 22(3). – P. 251-266.
2. Biggs J.B., & Tang C. Teaching for quality learning at university. Maidenhead, UK: Open University, 2011.
3. Çetin B. & İlhan M. SOLO taksonomisi. In E. Bingölbali, S. Arslan, & İ.Ö. Zembat (Ed.), Matematik eğitiminde teoriler. Ankara: Pegem Akademi. 2016. – pp. 861-879.
4. Bloom B.S., Engelhart M.D., Furst E.J., Hill W.H. & Krathwohl D. Taxonomy of educational objectives: the cognitive domain (New York, David McKay Co.). 1956.
5. Barrett S. Bloom’s Taxonomy, Educational Objectives, Outcomes, and our Friends from ABET – An Engineering Case Study. 2009.
6. Anderson, L.W., & Krathwohl, D.R. A taxonomy for learning teaching and assessing: A revision of Bloom’s taxonomy of educational objectives. New York: Longman. 2001.
7. Krathwohl D.R. A revision of Bloom’s taxonomy: an overview. Journal of theory into practice. 2002. – vol. 41, issue 4, pp. 212-218.
8. Ломов Б.Ф. Методологические и теоретические проблемы психологии. – М., 1984. – 444 с.
9. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: R harfi. – T.: ”O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2006. – 380 b.
10. Хорошавина Г.Д. Коммуникативная деятельность как детерминанта высшего профессионального образования: Дис д-ра пед. наук / М., 2003.– 189-190 с.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Boltayeva Muxayyoxon Lutfullayevna
Namangan davlat universiteti, dotsent
Xudayberdiyeva Odina Marubjon qizi
Namangan davlat universiteti
Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi tayanch doktaranti
Aydinaxudayberdiyeva@gmail.com

UO'K: 174.864-053.(087.3)

AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA INSONPARVARLIKNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada aksialogik yondashuv asosida talabalar shaxsida insonparvarlikni rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslari tahlil etiladi. Insonparvarlik tushunchasining mohiyati, uning tarbiyaviy jarayondagi o'rni va talabalarning ma'naviy-axloqiy shakllanishiga ta'siri yoritiladi. Shuningdek, aksialogik yondashuvning pedagogik ahamiyati, uning ta'lim jarayonidagi o'ziga xos xususiyatlari va amaliyotda qo'llash imkoniyatlari tadqiq etiladi. Maqolada insonparvarlikni rivojlantirishning samarali usullari va metodik yondashuvlar asosida talabalarning ijtimoiy mas'uliyat va empatiya tuyg'ularini shakllantirish bo'yicha ilmiy-tahliliy mulohazalar bildiriladi.*

Kalit so'zlar:*Aksialogik yondashuv, insonparvarlik, talaba shaxsi, ma'naviy-axloqiy tarbiya, pedagogik asoslar, ijtimoiy mas'uliyat, empatiya, ta'lim jarayoni, tarbiya metodlari, axloqiy qadriyatlar.*

Болтаева Мухайёхон Лутфуллаевна
Наманганский государственный университет, доцент
Худайбердиева Одина Марубжон кызы
Наманганский государственный университет
Теория педагогики. Базовый докторант по специальности История педагогического учения

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ГУМАННОСТИ У УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ АКСИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА

Аннотация: *В статье анализируются теоретико-педагогические основы формирования гуманизма у студентов на основе аксиологического подхода. Освещены сущность понятия гуманизма, его роль в образовательном процессе, влияние на духовно-нравственное формирование учащихся. Рассматриваются педагогическое значение аксиологического подхода, его особенности в образовательном процессе, возможности его применения на практике. В статье представлены научно-аналитические соображения по формированию у студентов чувств социальной ответственности и эмпатии на основе эффективных методов и методических подходов к развитию гуманизма.*

Ключевые слова: *Аксиологический подход, гуманизм, личность студента, духовно-нравственное воспитание, педагогические основы, социальная ответственность, эмпатия, образовательный процесс, методы воспитания, нравственные ценности.*

Boltayeva Mukhayyahan Lutfullayevna
Namangan State University, associate professor
Khudayberdiyeva Odina Marubjan kizi
Namangan State University
Theory of pedagogy. The basic doctrine of the specialty of the history of pedagogical teachings

THEORETICAL PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF THE DEVELOPMENT OF HUMANISM IN STUDENTS ON THE BASIS OF AN AXIOLOGICAL APPROACH

Annotation: *This article analyzes the theoretical and pedagogical foundations of developing humanism in students based on the axiological approach. The essence of the concept of humanism, its role in the educational process and its impact on the spiritual and moral formation of students are highlighted. The pedagogical significance of the axiological approach, its specific features in the educational process and the possibilities of its application in practice are also studied. The article presents scientific and analytical considerations on the formation of students' feelings of social responsibility and empathy based on effective methods and methodological approaches to developing humanism.*

Keywords: *Axiological approach, humanism, student personality, spiritual and moral education, pedagogical foundations, social responsibility, empathy, educational process, educational methods, moral values.*

Kirish.

Zamonaviy ta'lim jarayoni nafaqat bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, balki yosh avlodning ma'naviy-axloqiy kamolotiga xizmat qilishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, talabalarda insonparvarlikni rivojlantirish ta'limning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Insonparvarlik – bu shaxsning o'zgalarga hurmat bilan munosabatda bo'lishi, mehribonlik, hamdardlik va ijtimoiy mas'uliyat kabi fazilatlarini namoyon etishidir. Mazkur fazilatlarni rivojlantirishda ta'lim va tarbiyaning aksialogik yondashuv asosida tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Aksialogik yondashuvning mohiyati shundaki, u shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlarning shakllanishini ta'minlovchi pedagogik tamoyillar va metodlarga tayanadi. Bu yondashuv ta'lim jarayonida insonparvarlik, adolat, halollik, mas'uliyat va mehr-muruvvat kabi qadriyatlarni o'quvchilarga singdirishga yo'naltirilgan. Talabalarning insonparvarlik fazilatlarini rivojlantirish ularning kelajakdagi ijtimoiy faoliyati va kasbiy muvaffaqiyatlari uchun muhim omillardan biridir.

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida insonparvarlik fazilatlarini shakllantirish yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Yoshlarning axloqiy va madaniy qadriyatlarga bo'lgan munosabati, ijtimoiy muhitdagi xulq-atvori va o'zaro munosabatlari bevosita ularning ta'lim jarayonida o'zlashtirgan insonparvarlik tamoyillariga bog'liqdir. Shu bois, aksialogik yondashuv asosida insonparvarlikni shakllantirish bo'yicha samarali pedagogik usullarning ishlab chiqilishi va amaliyotga tatbiq etilishi hozirgi ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolada aksialogik yondashuvning nazariy-pedagogik asoslari, uning ta'lim jarayonidagi o'rni, talabalarda insonparvarlikni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar va samarali metodik yondashuvlar tahlil qilinadi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi aksialogik yondashuv asosida talabalarda insonparvarlikni rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslarini ilmiy jihatdan tahlil qilish va ularning ta'lim jarayonidagi ahamiyatini aniqlashdan iborat. Shuningdek, insonparvarlikni shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik usullar va metodlarni ishlab chiqish ham ushbu tadqiqotning muhim yo'nalishlaridan biridir. Shuningdek, aksialogik yondashuv mohiyatini ochib berish – ta'lim jarayonida qadriyatlar tizimining roli va uning insonparvarlikni shakllantirishdagi o'rnini aniqlash, insonparvarlik tushunchasining nazariy asoslarini o'rganish – uning ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonidagi ahamiyatini va ta'lim bilan bog'liq jihatlarini tahlil qilish, talabalarda insonparvarlikni shakllantirish omillarini aniqlash – psixologik, pedagogik va ijtimoiy omillarni baholash, pedagogik metod va texnologiyalarni tadqiq qilish – ta'lim jarayonida insonparvarlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion yondashuvlarni aniqlash, amaliy tavsiyalar ishlab chiqish – aksialogik yondashuv asosida ta'lim muassasalarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan samarali usullarni taklif etish shuningdek tajriba-sinov ishlarini olib borish – pedagogik usullar va texnologiyalarning samaradorligini tekshirish va ularning ta'lim jarayonidagi natijalarini baholash o'z oldiga vazifa qilib qo'ydik. Mazkur vazifalar orqali talabalarning insonparvarlik qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi ilmiy-pedagogik yechimlar ishlab chiqiladi va ta'lim tizimida qo'llash bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Mazkur tadqiqotning metodologik asosi falsafiy, psixologik va pedagogik ilmiy yondashuvlarga tayanadi. Talabalarda insonparvarlikni shakllantirishni aksialogik yondashuv doirasida tahlil qilish quyidagi nazariy va metodologik asoslarga suyanadi:

1. Aksialogik yondashuv – insonparvarlikni rivojlantirishda qadriyatlar tizimining o'rni va ta'lim jarayonidagi ahamiyatini tushuntirish. Ushbu yondashuv talabalarga axloqiy va insoniy qadriyatlarni singdirishning ilmiy asoslarini yaratadi.
2. Gumanistik pedagogika – shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillari asosida insonparvarlik fazilatlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik usullarni ishlab chiqish.
3. Falsafiy asoslar – insonparvarlik tushunchasini ontologik, epistemologik va aksialogik nuqtayi nazardan tahlil qilish.
4. Psixologik yondashuv – insonparvarlikning shakllanishida motivatsiya, emotsional intellekt, ijtimoiy idrok va empatiyaning o'rnini aniqlash.
5. Tarbiyaviy ta'lim nazariyasi – ta'lim va tarbiyaning o'zaro uyg'unligi orqali talabalarning axloqiy va insoniy fazilatlarini rivojlantirish.

6. Tizimli yondashuv – insonparvarlikni shakllantirish jarayonining uzviyligi va bosqichma-bosqich rivojlanishini ta’minlovchi ilmiy asoslarni belgilash.

7. Tajribaviy tadqiqot usullari – eksperimental, kuzatuv, so‘rovnoma, intervyu va test sinovlari orqali pedagogik usullarning samaradorligini baholash[1].

Bu metodologik asoslar tadqiqotning ilmiy mustahkamligini ta’minlab, ta’lim jarayonida aksialogik yondashuv orqali insonparvarlikni rivojlantirishga oid muhim ilmiy natijalarga erishishga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot bo‘yicha insonparvarlik, aksialogik yondashuv va ta’lim jarayonida axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga oid tadqiqot olib borgan O‘zbekistonlik olimlaridan N.Buriev – pedagogik innovatsiyalar va shaxsiy rivojlanish masalalari, G‘.Sultonov – ta’lim jarayonida ma’naviy-axloqiy tarbiya va ijtimoiy qadriyatlarning o‘rni haqida, M.To‘xtaxo‘jayeva[11] – zamonaviy ta’lim tizimida shaxsiy qadriyatlar va tarbiya jarayonining uyg‘unligi bo‘yicha, K.Yuldashev[12] – pedagogik psixologiya va insonparvarlikning ta’limdagi roli bo‘yicha hamda R.Mahmudov – psixologik va pedagogik yondashuvlar asosida insonparvarlikni shakllantirishga oid tadqiqotlar olib borganlar.

Markaziy davlatlar hamdo‘stligi davlatlari olimlari (Rossiya, Qozog‘iston va boshqalar) V.A.Slastenin[2] – pedagogik faoliyat, tarbiya nazariyasi va shaxs rivojlanishi bo‘yicha, L.V. Bayborodova[3] – axloqiy tarbiya va shaxsiy fazilatlarni shakllantirishning pedagogik asoslarini tadqiq qilish, A.G.Asmolov[4] – shaxs rivojlanishi va ijtimoiy psixologiya bo‘yicha, E.V. Bondarevskaya – insonparvarlik ta’limi konsepsiyasi va aksialogik yondashuv asosida shaxs tarbiyasi hamda N.D.Nikandrov[5] – ta’limda qadriyatlarning o‘rni va insonparvarlikni rivojlantirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borganlar.

Xorijiy olimlar (Yevropa va AQSh) John Dewey (AQSh) – ta’lim va tarbiya jarayonida demokratik qadriyatlar hamda insonparvarlikni shakllantirish bo‘yicha, J.Piajet[7] (Shveytsariya) – shaxsning kognitiv rivojlanishi va axloqiy tarbiya bo‘yicha, P.Freire[8] (Braziliya) – gumanistik pedagogika va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan ta’lim konsepsiyasi, C.Rogers[9] (AQSh) – shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim va insonparvarlik yondashuvi, L.Vygotsky[10] (Rossiya, sobiq SSSR) – ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasi va insonparvarlik tamoyillarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish bo‘yicha ilmiy izlanishlar qilganlar.

Mazkur olimlarning tadqiqotlari ta’lim jarayonida insonparvarlikni shakllantirishning nazariy va amaliy asoslarini rivojlantirishga xizmat qilgan. Ularning ilmiy ishlari aksialogik yondashuv, shaxsiy rivojlanish va pedagogik innovatsiyalar bilan bog‘liq muhim natijalarga erishishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tajriba-sinov tadqiqoti va natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, aksialogik yondashuv asosida talabalarda insonparvarlikni rivojlantirish darajasini aniqlash va ta’lim jarayonida insonparvarlikni shakllantirishning samaradorligini baholash. Tajriba-sinov tadqiqotida 145 nafar talaba ishtirok etdi. Ular ikki guruhga ajratildi:

Nazorat guruhi (NG) – an’anaviy ta’lim usullari asosida o‘qitilgan talabalar (72 nafar).

Eksperimental guruhi (EG) – aksialogik yondashuv asosida insonparvarlikni rivojlantirish bo‘yicha maxsus dastur asosida ta’lim olgan talabalar (73 nafar).

Tadqiqotda talabalarning insonparvarlik darajasini baholash uchun ikki metodika qo‘llanildi:

"Shaxsiy insonparvarlik darajasi testi" – ushbu metodika talabalarning hamdardlik, mehribonlik va ijtimoiy mas’uliyat hissini o‘lchaydi.

"Qadriyatlarga yo‘naltirilgan axloqiy tanlov metodikasi" – talabalar qiyin ijtimoiy vaziyatlarda qanday qaror qabul qilishlarini o‘rganish orqali ularning insonparvarlik darajasini aniqlaydi.

Eksperimentda dastlabki (boshlang‘ich) o‘lchovlar – ikki guruhning insonparvarlik darajasi dastlab baholandi.

Tarbiyaviy dastur – eksperimental guruhga insonparvarlikni shakllantirishga yo‘naltirilgan maxsus pedagogik dastur asosida mashg‘ulotlar o‘tkazildi.

Yakuniy o‘lchovlar – dastur yakunida ikki guruh ishtirokchilarining insonparvarlik darajasi qayta baholandi.

Olingan natijalarni chastotali tahlil qilish orqali quyidagi ko‘rsatkichlar aniqlandi:

1-jadval

"Qadriyatlarga yo‘naltirilgan axloqiy tanlov metodikasi" natijalari ko‘rsatkichi

Guruhlar	Dastlabki insonparvarlik darajasi (%)	Yakuniy insonparvarlik darajasi (%)	O‘sish (%)
Nazorat guruhi (NG)	43% – past, 37% – o‘rtacha, 20% – yuqori	41% – past, 38% – o‘rtacha, 21% – yuqori	+1%
Eksperimental guruhi (EG)	40% – past, 35% – o‘rtacha, 25% – yuqori	15% – past, 40% – o‘rtacha, 45% – yuqori	+20%

Natijalar tahlili va xulosalar shuni ko‘rsatdiki, nazorat guruhi – an’anaviy ta’lim metodlari asosida o‘qigan talabalar orasida insonparvarlik darajasida sezilarli o‘zgarish kuzatilmadi. Yakuniy natijalarda insonparvarlik ko‘rsatkichining o‘sishi atigi 1% ni tashkil etdi. Eksperimental guruhi – aksialogik yondashuv asosida o‘qitilgan talabalar orasida insonparvarlikning sezilarli o‘sishi (20%) kuzatildi. Past darajadagi insonparvarlik ko‘rsatkichiga ega talabalar soni kamayib, yuqori insonparvarlik darajasiga ega talabalar ulushi oshdi. Eksperiment natijalari – aksialogik yondashuv asosida insonparvarlikni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik

metodlar talabalar axloqiy qarorlar qabul qilishiga va ijtimoiy mas'uliyat hissini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Umuman olganda eksperimental tadqiqot natijalari aksialogik yondashuv asosida talabalarda insonparvarlikni shakllantirish samarali ekanligini isbotladi. Bu yondashuv axloqiy qadriyatlarni singdirish va talabalarning ijtimoiy mas'uliyatini oshirishga xizmat qilishi aniqlandi. Shu sababli, ta'lim tizimida insonparvarlikni shakllantirishga yo'naltirilgan innovatsion pedagogik metodlarni kengroq qo'llash tavsiya etiladi.

Umumiy xulasa sifatida aytishimiz mumkunki, mazkur tadqiqot aksialogik yondashuv asosida talabalarda insonparvarlikni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini tahlil qilishga bag'ishlandi. Tadqiqot natijalari insonparvarlikni shakllantirishda ta'lim jarayoni muhim rol o'ynashini va bu jarayonda qadriyatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvlar samaradorligini ko'rsatdi.

Tadqiqot doirasida olib borilgan eksperimental sinovlar aksialogik yondashuv asosida ishlab chiqilgan maxsus pedagogik dasturlar insonparvarlik fazilatlarini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotladi. Eksperimental guruhi talabalari orasida insonparvarlik darajasining sezilarli darajada oshgani kuzatildi. Bu esa, insonparvarlikni rivojlantirish uchun ta'lim jarayonida qadriyatlarga asoslangan yondashuvlarni keng qo'llash zarurligini anglatadi.

Aksialogik yondashuv – insonparvarlikni shakllantirishning asosiy usuli bo'lib, ta'lim jarayonida axloqiy va ma'naviy qadriyatlarning singdirilishini ta'minlaydi.

Pedagogik texnologiyalar va metodlar – insonparvarlik fazilatlarini rivojlantirish uchun ta'lim jarayonida maxsus tarbiyaviy dasturlar va interfaol metodlar samarali ekanligi isbotlandi.

Eksperiment natijalari – insonparvarlik darajasining o'sishi aksialogik yondashuv asosida olib borilgan ta'lim jarayonining samaradorligini tasdiqlaydi.

Amaliy tavsiyalar – ta'lim tizimida insonparvarlikni rivojlantirish uchun qadriyatlarga asoslangan pedagogik yondashuvlarni joriy etish zarur.

Shu sababli, insonparvarlikni shakllantirish va rivojlantirish jarayonida ta'lim muassasalarida aksialogik yondashuvni keng qo'llash, talabalarga insoniy qadriyatlarni singdirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish va ilg'or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Abdullayev, A. Аксиологический подход в педагогике. – Toshkent: Fan, 2018.
2. Сластёнин, В.А., Исаев, И.Ф., Шиянов, Е.Н. Pedagogika: Учебник. – Москва: Академия, 2017.
3. Бондаревская, Е.В. Воспитание личности: гуманистическая парадигма. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2016.
4. Асмолов, А.Г. Психология личности: принципы общей психологии. – Москва: МГУ, 2015.
5. Никандров, Н.Д. Ценности образования и воспитания. – Москва: Просвещение, 2019.
6. Дьюи, Дж. Демократия и образование. – Москва: Педагогика, 2020.
7. Пиаже, Ж. Моральное суждение у ребенка. – Санкт-Петербург: Питер, 2019.
8. Фрейре, П. Педагогика угнетенных. – Москва: Прогресс, 2018.
9. Рождерс, К. Клиентцентрированная терапия. – Москва: Эксмо, 2017.
10. Выготский, Л.С. Психология развития ребенка. – Москва: Педагогика, 2016.
11. To'xtaxo'jayeva, M. Pedagogik innovatsiyalar va shaxsiy rivojlanish. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti, 2021.
12. Yuldashev, K. Psixologik yondashuvlar asosida insonparvarlikni rivojlantirish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
13. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. – Paris, 2017.
14. World Bank. The Role of Values in Education Systems. – Washington, 2019.
15. OECD. Education at a Glance 2020. – Paris: OECD Publishing, 2020.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Ruzimatov Islomjon Erkuziyevich
Qo‘qon davlat pedagogika instituti Jismoniy madaniyat kafedrasi p.f.b.f.d.(PhD)

O‘QUV MASHQ BOSQICHIDA YADRO ITQITUVCHI SPORTCHILARNI TEXNIKASINI RIVOJLANTIRISH VA TAKOMILLASHTIRISHDA MXSUS KUCH MSHQLARIDAN FOYDALANISHNI O‘ZIGA XOS AHAMIYATI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada yadro itqituvchi sportchilarni musobaqa faoliyatini ilmiy o ‘rganishning zarurati va ahamiyati, mashg‘ulot jarayonida qo‘llash mumkin bo‘lgan ustuvor ko‘rsatkichlar hamda uloqtiruvchilar musobaqa faoliyatini modellashtirish muammolariga katta ahamiyat qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *Itqitish, Uloqtirish, texnika, taktika, kuch, mashg‘ulot, jsmoniy mashq, tezlik, kuch, chidamlilik, takomillashuv.*

Рузиматов Исламджон Эркузиевич
Кокандский государственный педагогический институт,
кафедра физической культуры, кандидат педагогических наук

ЗНАЧЕНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ СИЛОВЫХ УПРАЖНЕНИЙ В РАЗВИТИИ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ТЕХНИКИ СПОРТСМЕНОВ-АТОМЦЕВ НА ЭТАПЕ ПОДГОТОВКИ

Аннотация *В статье рассматриваются необходимость и важность научного изучения соревновательной деятельности толкателей ядра, приоритетные показатели, которые могут быть использованы в тренировочном процессе, а также проблемы моделирования соревновательной деятельности метателей.*

Ключевые слова: *Толкание, броски, техника, тактика, сила, тренировка, физические упражнения, скорость, мощность, выносливость, совершенствование.*

Ruzimatov Islamjon Erkuziyevich
Kokand State Pedagogical Institute Department of Physical Culture p.f.b.f.d.(PhD)

THE SIGNIFICANCE OF THE USE OF SPECIAL STRENGTH EXERCISES IN DEVELOPING AND IMPROVING THE TECHNIQUE OF NUCLEAR RESEARCH ATHLETES AT THE STAGE OF TRAINING

Abstract *This article focuses on the need and importance of scientific study of the competitive performance of shot put athletes, priority indicators that can be used in the training process, and the problems of modeling the competitive performance of throwers.*

Keywords: *Pushing, Throwing, technique, tactics, strength, training, physical exercise, speed, power, endurance, improvement.*

Dolzarbligi.

Respublikamizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, mamlakatimiz sportchilarining xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta’minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. “Ilg‘or xalqaro tajribani hisobga olgan holda sportchilar tayyorlash metodologiyasini takomillashtirish, sportchilarni integral tayyorgarliklari va ularni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish, sport turlari bo‘yicha terma jamoalar tarkibini sifatli to‘ldirish uchun sport zaxirasini shakllantirish va yuqori malakali sportchilarni tayyorlash jarayoniga innovatsion loyihalarni joriy etish” vazifasi belgilab berilgan. Yadro itqituvchilarni amaldagi tayyorgarlik metodikasi, undagi mashg‘ulot vaqtining katta qismi muhim darajada mashg‘ulotni modernizatsiya qilishni taqozo etadi va yuqori samara beruvchi vositalar hamda metodlarini izlab topishi, ishlab chiqishga hamda uloqtiruvchilar sport tayyorgarligi jarayoniga maxsus kuch va tezkor-kuch yo‘nalishdagi innovatsion majmuaviy – maqsadli vositalarni joriy etish ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilab beradi.

Tadqiqotning maqsadi.

O‘quv mashq bosqichidagi yadro itqituvchilarning yillik tayyorgarlik siklida itqitish texnikasini oshirishga qaratilgan “Uloqtirish UQ” elektron uskunasi samaradorligini asoslashdan iborat.

U o‘z navbatida harakat qobiliyatlari va sport mahoratini hamda morfofunksional ixtisoslashuvining shakllanishi jarayoniga xos bo‘lgan qonuniyatlar bo‘yicha ularni rivojlantirish orqali ochib beriladi. Tabiyki chuqurlashtirilgan mashg‘ulot bosqichi 16-17 yoshda ya’ni katta maktab yoshida boshlanadi. Ushbu tayyorgarlik

bosqichida mashg‘ulot jarayoni tanlangan yengil atletika turida chuqurlashtirilgan ixtisoslashuvi bilan yorqin tus oladi. Maxsus (jismoniy texnik, psixologik) tayyorgarlikning ulushi ancha ortadi. Oldingi bosqichga qaraganda asosiy mashg‘ulot vositalari hajmi va shiddati ancha oshadi. Bu umumiy jismoniy tayyorgarlikdan ko‘ra ko‘proq maxsus tayyorgarlik va musobaqa mashqlari soni ortishi hisobiga yuz beradi. Tanlangan yengil atletika turida musobaqa amaliyoti muhim darajada ko‘payadi va uning mashg‘ulot mazmuni hamda tuzilmasiga ta’siri ko‘rsatadi. Shu maqsadda sport maktablarida yadro itqituvchi sportchilarni texnikasini rivojlantirish uchun tadqiqotlar olib borildi.Sportchilardan dastlabki olingan testlardan quyidagi natijalarni oldik.

Sportchilarining tajribadan oldingi jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari.

T/r	F.I.Sh	Ikkala qo‘lda chap yondan polvon toshni uloqtirish. (8 kg), (m.)	Ikkala qo‘lda o‘ng yondan polvon toshni uloqtirish. (8 kg), (m.)	Ikkala qo‘lda oldinga yadroni uloqtirish. (5 kg), (m.)	Ikkala qo‘lda bosh ortidan orqaga yadroni uloqtirish. (5 kg), (m)	Shtangani dast ko‘tarishda. (kg.)
1.	**A-ov O**	5,12	6,12	10,05	10,14	36
2.	**A-ov A**	5,23	6,23	10,03	8,23	38
3.	**S-ov U**	4,26	5,26	8,48	7,35	31
4.	**J-ov D**	5,10	6,10	9,71	7,38	33
5.	**H-ov O**	4,57	5,57	9,31	7,25	39
6.	**K-ov A**	5,31	6,31	10,10	7,57	36
7.	**R-ov A**	4,21	5,21	9,32	6,08	35
8.	**D-ov N**	4,39	5,39	9,96	8,29	37

Sportchining jismoniy tayyorgarligi natijasida texnik tayyorgarlik takomillshadi. Bir tomondan o‘rgatish va ikkinchi tomondan jismoniy sifatlarni rivojlantirish orasida yaqindan uzviy bog‘liqlik bor. Ko‘pgina yillar davomida uloqtirishlar texnikasi trenerlar va sportchilarning katta tajribasi asosida takomillashib boradi. Ayniqsa sport natijalarida katta o‘sish yuzaga kelganda ilmiy – tadqiqotlarga bo‘lgan zarurat oshdi.

Uloqtirish uzoqligini oshirish zaxiralari sportchi kuchidan samaraliroq foydalanishdan iborat. Bunga quyidagi hollarda erishiladi:

- birinchidan mushaklarning oqilona ishlashida;
- ikkinchidan harakatlarning optimal traektoriya bo‘ylab harakatlanishida, qachonki snaryadga ta’sir katta kuch bilan yuz bersa;
- uchinchidan snaryadni to‘g‘ri burchak ostida otib yuborishda.

Yadro itqitish texnikasida yakuniy kuch berishda tananing ideal holati va ishi statik taranglashtirilgan tekislangan tana holatini hamda sonlar harakatchan holatda bo‘lganda oyoqlarning o‘ta faol ishlashini talab qiladi.

Umumiy jismoniy tayyorgarlik bilan qo‘shib mashqlanganlik holati ushbu texnikaning samaradorlik darajasini belgilab beradi. Umumiy va maxsus kuchning rivojlanishi texnikani rivojlanishiga olib keladi.uloqtiruvchilarga tanlab olingan maxsus kuch mashqlari ularda texnikani rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan. Bu mashqlar:

1. Shtangani ikki qo‘llab ushlash, o‘ng oyoq oldinda. Chap oyoq bilan oldinga bir qadam tashlab, shtanga yuqoriga-orqaga tez ko‘tariladi. Boshning oldinga harakatlanishi va umurtqaning ko‘krak qismida orqaga egilishini kuzatib borish kerak. Shtangani ko‘krakka tushirib, chap oyoq bilan orqaga qadam tashlanadi.

2. Shtangani yelkaga olgan holatdan o‘tirib turish.

3. Shtangani ko‘tarish. Oyoqlar yelka kengligida, shtanga rostlangan qo‘llarda pastga tushirilgan. Oyoqlar, gavda va rostlangan qo‘llar harakati bilan shtanga bosh uzra ko‘tariladi.

4. Cho‘nqayib o‘tirmasdan, shtangani ko‘krakka ko‘tarish.

5.Chap oyoq oldinga chiqarilgan holatdan shtangani ko‘tarish. Taxtasupada turg an shtanga orasi yelka kengligida ochilgan qo‘llar bilan ushlanadi, chap oyoq rostlangan holatda shtanga yoniga, o‘ng oyoq bukilgan holatda orqaga yarim metr masofada qo‘yiladi. O‘ng oyoqni rostlay turib, tos oldinga siljitiladi, shtanga chap oyoq bo‘ylab qorin sathigacha ko‘tariladi.

6. Chap oyoq bilan oldinga qadam tashlab, shtangani orqaga olish.

D.H. shtanga bosh uzra rostlangan qo‘llarda ko‘tariladi.

7. Shtanga ko‘targan qo‘llarni yuqoriga-oldinga rostlash. D.H. shtanga bosh orqasida, qo‘llar bukilgan, tirsaklar yelka kengligida. Mashqni bajarayotganda, tirsaklar yon tomonga chiqarilmaydi.

8. Yarim cho‘qqayib tez turish. Shtanga yelkada. Asta-sekin yarim cho‘qqayib o‘tiriladi va muayyan lahzada shtanga og‘irligi qarshiligini yengib, tez turiladi va oyoq uchiga ko‘tariladi.

9. Oyoqlar orasini keng ochib yarim cho‘qqaygan holatdan yelkadagi shtanga bilan turish amalga oshiriladi. Tez turayotib, tayanch oyoq soni ichkariga buriladi, tos oldinga siljitiladi.

10. Shtanga grifini rostlangan qo‘llar bilan oldinda ushlagan holatdan orqaga olib o‘tish va yana dastlabki holatga qaytarish. Grif qulochni yelka kengligidan kattaroq ochib ushlanadi.

11. Yelkaga shtangani olib, o‘ng oyoq soni bilan “zarba berish”. D.H. oyoqlar orasi yelka kengligidan kattaroq ochilgan, qo‘llar shtanga diskida. Yarim bukilgan o‘ng oyoqqa o‘tiriladi, bunda u biroz o‘ng tomonga buriladi. Keyin son ichkariga burilib, oyoq tez rostlanadi; tos oldinga siljitiladi.


12. Shtangani “tortilgan kamon” holatida ushlash. Shtanga bosh ustida ko‘tarilgan. O‘ng qo‘l bilan pastdan ushlanadi.

13. Yadroni ikki qo‘llab pastdan oldinga uloqtirish. Oyoqlar yelka kengligida. Yadro ikki qo‘llab ushlanadi. Oyoqlar bukilib, yadro pastga, orqaga tushiriladi. Oyoqlar tez rostlanib, yadro oldinga-yuqoriga uloqtiriladi. Mashqni to‘ldirma to‘p bilan ham bajarish mumkin.

14. Yadroni ikki qo‘llab bosh ustidan orqaga tashlash. Oyoqlar yelka kengligida. Yadro ikki qo‘llab ushlanadi. Oyoqlar bukilib, yadro pastga tushiriladi. Tana tez rostlanib, yadro bosh ustidan orqaga tashlanadi. Yadroni qo‘ldan chiqarish paytida oyoqlarning tez rostlanishiga, umurtqaning ko‘krak qismi orqaga egilishiga e’tibor beriladi. Mashqni to‘ldirma to‘p bilan bajarish mumkin.

15. Yadroni bosh orqasidan ikki yoki bir qo‘l bilan uloqtirib yuborish. D.H. chap oyoq oldinda, yadro bosh ustida. Yadro orqaga bosh orqasiga olinadi va qulochkashlab oldinga uloqtiriladi. Tashlash vaqtida tirsaklar yon tomonga chiqarilishi mumkin emas. Oyoqlar, gavda va qo‘llarning izchil ishlashiga diqqat qilish kerak. Mashqni to‘ldirma to‘p bilan bajarish mumkin. Bu mashqlar uloqtiruvchilarga mashg‘ulot jarayonida dastur reja bo‘yicha berib borildi. Shu bilan birga uloqtiruvchilarga texnikasini rivojlantirish uchun maxsus jixozlarda ham foydalanildi.

Trenajorni belgilangan 30x5 m maydonga o‘rnatiladi. Balandligi 6x50 mm temir trubaga maxsus 25m. ga 6 mm tros arqon orqali yerdan balandligi 60 sm qalinligi 8 sm. profilli shtativga mahkamlangan holatda jihozlanadi. Maxsus tros arqonga bosqonni mahkamlash uchun resbali halqa o‘tkaziladi. Tross arqondagi maxsus o‘tkazilgan halqa uloqtirish mashg‘ulotini turli og‘irlikdagi va sportchilar jinsiga qarab uloqtirish texnikasi takomillashtiriladi. Chunki halqaga 4 kg. dan tortib 7.260 kg yadroni mahkamlab, uloqtirish mashg‘ulotida foydalaniladi



Uloqtirish mashg‘uloti jarayonida yadroni uchish burchagini nazorat qilish

Yadro itqitish mashg‘uloti jarayonida sportchi tomonidan uloqtirilgan yadro tros arqonda yuqoriga uloqtiriladi. Uloqtirilgan yadro o‘zini tezligi bilan yuqoriga yo‘naladi va tezligi kamayishi bilan ortga qaytadi. Bu holat mashg‘ulotni tez va samarali o‘tishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Qurilmadan foydalanish tartibi qiyidagicha berilgan.

Uloqtiruvchi qurilmadan yadro itqitish mashg‘ulot jarayonida foydalanish usulini jadval ko‘rinishida berdik

T/r	Mashg‘ulotni tayyorlov qismida	Xafta	Kun	Snaryad og‘irligi	Foydalanish vaqti	Takrorlash soni	Dam olish
1	Oktabr	2x4 =8 marta	2 kun	3-4-7.250 gr	40-50 daqiqa.	5x2marta =10 marta	1min.
2	Noyabr	2 x 4 =8 marta	2 kun	3-4-7.250 gr	40-50 daqiqa	5x2marta =10 marta	1min.
3	Dekabr	3x4 =12 marta	3 kun	3-4-7.250 gr	40-50 daqiqa	5x2marta =10 marta	1min.
4	Yanvar	3x4 =12 marta	3 kun	3-4-7.250 gr	40-50 daqiqa.	6x2marta =8 marta	1min.
5	Fevral	3x4 =12 marta	3 kun	3-4-7.250 gr	40-50 daqiqa	6x2marta =12 marta	1min.
6	Mart	2x4 =8 marta	2 kun	3-4-7.250 gr	30-40 daqiqa	5x2marta =10 marta	1min.

7	Aprel	2x4 =8 marta	2 kun	3-4-7.250 gr	30-40 daqiqa	5x2marta =10 marta	1min.

Uloqtiruvchi qurilmadan mashg‘ulot jarayonida foydalanish metodi.

Bu qurulmadan barcha guruxidagi yadro itqituvchilar texnikani rivojlantirish va takomillashtirish uchun foydalanishdi.

Uloqtiruvchi qurulmani uloqtirishga qulay bo‘lgan stadionga o‘rnatiladi.Uloqtiruvchi qurulmani stadionga o‘rnatilishini sababi,undan oktabr, noyabr, dekabr, yanvar, fevral, mart, aprel oylarida belgilangan jadval asosida foydalanishdi.

Uloqtiruvchi qurulmadan o‘quv mashq guruxidagi yadro itqituvchilarni texnikani takomillashtirish uchun mashg‘ulotni tayyorlov qismida foydalanishdi.

Yadro itqitish texnikasini rivojlantirish va takomillashtirish bo‘yicha ixtisoslashgan mashqlarni qo‘llashning maqbul tartibini ishlab chiqish yadro itqituvchilarning jismoniy tayyorgarlik holatini doimiy ushlab turishi uchun o‘tkazilayotgan mashg‘ulotlarda yuklamalar hajmini maqsadga muvofiq rejalashtirish, qo‘llaniladigan vosita-usullarning nisbatlari oid ilmiy izlanishlar olib borildi. Sport maktabida o‘tkazigan tadqiqot davomida yadro itqituvchilarga reja asosida berilgan maxsus kuch mashqlari va mashg‘ulot davomida jixozlardan foydalanish o‘zining ijobiy natijasini berdi. Bu esa sportchilarda yadro itqituvchi sportchilarda texnkani rivojlanib, ayrim sportchilarda takomilashuvga olib keldi. Bu ijobiy natijalarni tadqiqotda keyin olingan jismoniy tayyorgarlik darajasi orqali ko‘rishimiz mumkin.

Sportchilarining tajribadan keyingi jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari.

T/r	F.I.Sh	Ikkala qo‘lda chap yondan polvon toshni uloqtirish. (8 kg), (m.)	Ikkala qo‘lda o‘ng yondan polvon toshni uloqtirish. (8 kg), (m.)	Ikkala qo‘lda oldinga yadroni uloqtirish. (5 kg), (m.)	Ikkala qo‘lda bosh ortidan orqaga yadroni uloqtirish. (5 kg), (m)	Shtangani dast ko‘tarishda. (kg.)
1.	**A-ov O**	6,12	7,12	11,05	11,24	40
2.	**A-ov A**	6,23	7,23	11,03	9,33	41
3.	**S-ov U**	5,26	6,26	9,58	8,65	42
4.	**J-ov D**	7,10	7,10	10,21	9,38	43
5.	**H-ov O**	6,57	7,57	10,41	9,25	44
6.	**K-ov A**	6,31	7,31	11,10	8,37	42
7.	**R-ov A**	7,21	6,21	10,12	7,58	39
8.	**D-ov N**	6,39	6,39	10,26	9,29	41

Pedagogik tajribada aniqlanishicha, boshlang‘ich sport takomillashuv bosqichida oyoq mushaklarini bo‘g‘inlarini va bo‘g‘inlararo darajada kuch nisbatlashiga katta qayta tuzishlar ro‘y beradi. Biroq tekshirilayotgan mushak guruhlarining kuch nisbatlari bosqon uloqtirishda tana xarakati – mushaklar ishining ixtisoslashuvini aks ettirmaydi. Harakat apparatining umumiy moslashuvi oyoqlarni bukuvchi va yozuvchi mushaklar kuchining integratsiyasida namoyon bo‘ladi. Maxsus tuzilmaviy tanlangan mashqlardan foydalangan holda o‘tkaziladigan maqsadli mashg‘ulotlar oyoqlar mushaklari kuchining moslashishi reaksiyalari diapazonini kengaytiradi.

Tadqiqot natijalarining ko‘rsatishicha, bosqon uloqtiruvchilarda oyoqlarning alohida mushak guruhlarining maksimal kuch qiymatlari bosqon uloqtirishdagi sport natijasi bilan kam darajada korrelatsion o‘zaro bog‘liqlikni namoyon etadi. (oyoqlarni barcha bukuvchi va yozuvchi mushaklarning umumiy kuchni namoyon qilishga qaraganda). Yana shu aniqlandiki, sport mahorati o‘sib borgan sari mushaklarni bir biriga bog‘liqlik darajasi ortadi. Bu esa shundan dalolat beradiki, harakatning ish samarasi sportchining kuch qobiliyatlaridan natijador foydalana olish ko‘nikmasi bilan aniqlanadi.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099-sonli “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

2. Abdullayev M.J., Olimov M.S., To‘xtaboyev N.T. Yengil atletika va uni o‘qitish metodikasi / darslik. Barkamol fayz media nashriyoti. T: 2017. – 628 b.

3. Olimov M.S., Shakirjanova K.T., To‘xtaboyev N.T., Rafiyev H.T., Kolobov 6.V.A. va boshqalar. Yakkakurash, koordinatsion va siklik sport turlari “Yengil atletika” // Darslik. T.: 2018. - 376 b.

4. Salomov R.S. Sport mashg‘ulotining nazariy asoslari. O‘quv qo‘llanma. T.: 2005. - 261 b.

5. Normurodov A.Yengil atletika va uni o‘qitish metodikasi. T.:2011. – B.56-57. 9.Озолин Н.Г. Настольная книга тренера: наука побеждать. АСТ: Астрель, - М.: 2008. - 863 с.

6. Попов, Г.И. Биомеханика: учеб. для студ. высш. учеб. заведений /Г.И. Попов. - 3-е изд. стер. - М.: Издательский центр «Академия», 2008. – 256 с.

7. Soliyev I.R. Qisqa masofaga yuguruvchilarni yillik tayyorgarlik mashg‘ulotlarini rejalashtirish // PhD dissertatsiya avtoreferati. Ch.: 2020. – 56 b.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Umarova Yayraxon To'xtanazarovna
Andijon davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD
Gmail: umarovayayragon@gmail.com

UDK: 378.015.31:811.512.133

ONA TILI TA'LIMIDA LOYIHA METODINI QO'LLASH

Annotatsiya: *ushbu maqolada o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi tilshunoslik fanlarini o'tishda loyiha metodini qo'llash usulining talabalarni mustaqil izlanishga o'rgatish, jamoaviy faoliyatga ko'nikma hosil qilish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish kabi afzalliklari, kognitiv bilimlarni shakllantirish imkoniyatining mavjudligi xususida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *loyiha metodi, mustaqil ishlash, kognitiv yondashuv, kichik guruh bilan ishlash, ta'limiy loyiha turlari, loyiha taqdimoti, ijtimoiy kompetensiya.*

Умарова Яйрахон Тўхтаназаровна
Доцент Андижанского государственного педагогического института, PhD

ПРИМЕНЕНИЕ МЕТОДА ПРОЕКТОВ В ОБРАЗОВАНИИ РОДНОГО ЯЗЫКА

Аннотация: *В данной статье рассматриваются преимущества использования метода проектов в преподавании предметов лингвистики на узбекском языке и литературе, такие как обучение студентов самостоятельной исследовательской работе, развитие навыков работы в команде, использование современных технологий, возможность формирования познавательных знаний.*

Ключевые слова: *метод проектов, самостоятельная работа, познавательный подход, работа в малых группах, типы учебных проектов, презентация проектов, социальная компетентность.*

Umarova Yayrakhon Tokhtanazarovna
Associate Professor of Andijan State Pedagogical Institute, PhD

APPLICATION OF THE PROJECT METHOD IN NATIVE LANGUAGE TEACHING

Annotation: *This article discusses the advantages of using the project method in teaching linguistics in the Uzbek language and literature, such as teaching students to conduct independent research, developing skills in teamwork, using modern technologies, and the possibility of forming cognitive knowledge.*

Key words: *project method, independent work, cognitive approach, work with a small group, types of educational projects, project presentation, social competence.*

Kirish.

Loyiha metodi asosida dars tashkil qilish talabalarni mustaqil ishlashga o'rgatish bilan birga ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar o'rtasida o'zaro do'stona munosabat muhitini yaratish imkonini beradi. Loyiha metodining asoschisi amerikalik faylasuf, pragmatik, psixolog va pedagog Djon Dyui (1859-1952) hisoblanadi. G'oya muallifining ta'kidlashicha, "Inson muammoli vaziyatdagi qiyinchiliklarni mustaqil yengib, undan chiqish yo'lini izlagandagina o'ylaydi. Agar ota-ona yoki o'qituvchi fikrlashni rag'batlantiradigan shart-sharoitlarni yaratgan bo'lsa va bolani umumiy tajribaga jalb qilishda xushmuomalalik bilan munosabatda bo'lsa, u mustaqil ta'limni rag'batlantirish uchun hamma narsani qildi, deyish mumkin" [1].

Bu metodda ta'lim oluvchilar rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish va natijalarni baholash jarayonlarida ishtirok etadilar. Loyiha ishlab chiqish yakka tartibda yoki guruhiy bo'lishi mumkin, lekin har bir loyiha o'quv guruhining birgalikdagi faoliyatining muvofiqlashtirilgan natijasidir. Loyiha o'rganishga xizmat qilishi, nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq etishi, ta'lim oluvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirish, tashkillashtirish va amalga oshirish imkoniyatini yarata oladigan bo'lishi kerak[2].

Adabiyotlar tahlili.

Keyingi paytda til o‘qitish masalasida kommunikativ yondashuvning keng tus olishi natijasida bu metodning afzalliklari va ahamiyati borasida qator maqolalar e’lon qilindi. Jumladan, M.Yusupova, Sh.Shoraxmetovlarning “Loyiha texnologiyasining ta’lim jarayonida qo‘llanilishining ijobiy tomonlari” maqolasida bu usul “talabalarning ta’lim olishga bo‘lgan motivatsiyasini rag‘batlantirish, o‘rganilayotgan o‘quv materiali bo‘yicha bilimlarni o‘zlashtirish sifatini oshirish, tahliliy va tanqidiy fikrlash; bilish faolligini oshirish, shaxsiy, guruh shaklidagi mustaqil ishlarni tashkil etish, reseptiv, produktiv nutqiy faoliyat va ijodiy salohiyatni rivojlantirish, ta’lim jarayonida ijobiy hissiy munosabatni shakllantirish, o‘quv materiallarini o‘zlashtirish strategiyasining umumiy ko‘nikma va malakalarini egallash imkonini berishi” xususida fikr yuritilgan [3, 660-668].

Loyiha metodi talabaning o‘ziga bo‘lgan ishonchining ortishiga, motivatsiya olishiga rag‘batlantiradi. Bo‘lajak ona tili o‘qituvchilari uchun loyiha metodi asosida dars jarayonini tashkil etish ularning kelgusida publisistik chiqishlar qilish, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol qatnashish, nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish, turli ijtimoiy toifa vakillari bilan muloqot qilishga qaratilgan kommunikativ kompetensiyalarni o‘zlashtirish sharoiti yaratiladi. Lingvodidaktik xarakterdagi materiallarni o‘qitishni ijtimoiy-madaniy muloqot shaklida tashkil etish talabalarning fanga oid bilimlarni egallashi bilan birga bo‘lajak o‘qituvchi sifatida kasbiy kompetentligi hamda jamoat oldida chiqish qilishga o‘rganishi natijasida ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish uchun ham asos bo‘ladi.

M.Narzullayevaning videoseminar orqali “Chet tillarini o‘qitishda loyiha metodining ahamiyati va uni amaliyotda samarali qo‘llash” mavzusidagi chiqishida loyiha metodi nima, uning maqsad va vazifalari nimadan iborat, boshqa metodlardan afzalligi nimada va bu metodni qanday qo‘llash mumkinligi haqida fikr yuritiladi. Muallif loyihalarni davomiyligiga ko‘ra quyidagicha tasniflaydi:

- mini loyihalar, masalan, uy vazifasi sifatida beriladigan loyiha;
- qisqa muddatli loyihalar;
- haftalik loyihalar;
- o‘quv yili davomida olib boriladigan loyihalar [4].

O‘z tajribamizdan kelib chiqib va kuzatishlarimiz asosida loyiha turlarini tasniflashda muayyan o‘quv fani kesimida bilimlar majmuini maelum bir darajada qamrab olish tamoyiliga tayandik va quyidagicha tasnifladik:

- joriy va oraliq nazorat topshiriqlari doirasida (yakka tartibda);
- mustaqil ta’lim doirasida;
- muayyan fanlardan rejalashtirilgan kurs ishi doirasida;
- bir semestr davomida bir fandan belgilangan kredit-modul miqdori doirasida.

Mazkur tasnif turlari asosida loyihaga qo‘yiladigan talablar darajasi olinishi kerak bo‘lgan bilimlar ko‘lamiga qarab belgilanadi.

- loyiha ustida ishlash talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi, noan’anaviy yechimlar topishga undaydi.
- guruhlarda ishlash orqali jamoaviylik ko‘nikmalari shakllanadi;
- loyiha metodi nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash imkonini beradi.

Loyiha metodini qo‘llash jarayonida muvaffaqiyatga erishish uchun quyidagilarga e’tibor qaratish zarur:

- loyiha mavzulari talabalarning qiziqishlariga mos bo‘lishi kerak.
- loyiha jarayonida talabalarga yetarlicha vaqt berilishi kerak;
- o‘qituvchi talabalarga yo‘nalish berib turishi kerak;
- loyiha natijalarini baholashda adolatli va ob’yektiv bo‘lish zarur;
- muhokama jarayonida talabalarning barcha fikrlarini hurmat qilish talab etiladi.

Loyiha metodi shunisi bilan ahamiyatliki, talaba kerakli ma’lumotlarni o‘zi qiziqqan manbalardan va o‘zi uchun qulay bo‘lgan usulda tayyorlaydi. Bu esa, ko‘zlangan maqsadning samarali amalga oshishini ta’minlaydi. O‘qituvchi ma’lumotlarni qayerdan olishni yoki o‘rganilayotgan mavzu doirasidagi eng yangi materiallarni qanday izlashni o‘rgatib, yo‘naltirib turish bilan kifoyalanadi. Talabalar esa mustaqil izlanadilar va birgalikda yechim topishga harakat qiladilar. Yillar davomida loyiha metodi takomillagib, yangi-yangi metodik va texnologik vositalarni qamrab olish imkoniyati kengaymoqda. Ayniqsa, axborot texnologiyalari tez sur’atlarda rivojlanib borayotgan bugungi kunda samarali vositalarni topish muammo emas. Faqat talabalarning tashabbuskorligi va qo‘yilgan masalaning yechimini topishga ijodiy yondashuvlari talab etiladi.

Loyiha metodining zamonaviy ta’lim jarayonlariga kiritishdagi asosiy shiori “Men o‘rgangan hamma narsa menga nima uchun kerakligini va bu bilimlarni qayerda va qanday qo‘llashim kerakligini bilaman”[5, 66] va bu shior bugungi kunda mamlakatimiz ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan ijtimoiy talablarga juda mos kelishi bilan xarakterlidir. Zero, hozirda umumiy ta’lim tizimi oldiga quruq nazariy bilimlarga ega a’lochi bitiruvchi emas, o‘qiganlarini uqadigan va hayotga tatbiq eta oladigan, nazariy bilimlarni amalda qo‘llay oladigan, har tomonlama kasbiy va kommunikativ kompetentlikka ega, raqobatbardosh mutaxassis kadrlar tayyorlash vazifasi qo‘yilmoqda. Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchilari uchun loyiha metodini keng qo‘llash ko‘zlangan malaka talablarini sifatli amalga oshirishda samarali usullardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Loyiha metodi talabalarning kognitiv qobiliyati, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda qurish layoqati, axborot makonida harakat qilish, tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga asoslangan. Loyiha metodi u yoki bu tarzda rasmiylashtirilgan mutlaqo real, aniq amaliy natija bilan yakunlanishi kerak[5, 67]. Boshqacha qilib aytganda, loyiha metodi bilim olish jarayonini o‘zgartirishni ta’minlaydi. Talaba oddiy tinglovchidan faol izlanuvchiga aylanadi. Bilimlarni egallash jarayoni an’anaviy usuldagi nazariyalarni quruq yodlash bilangina cheklanib qolmay, samarali ijodiy jarayon sifatida izlanish, loyihalash, taqdimot qilish va fikrlashning turli shakllarida tashkil etiladi.

Tahlillar va natijalar.

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishidagi “Tilshunoslik asoslari” fanidan “Lyeksik-semantik munosabat turlari” mavzusi asosida amaliy mashg‘ulot uchun “Sinonimiya”, “Antonimiya”, “Omonimiya”, “Graduonimiya”, “Giponimiya”, “Partonimiya” til hodisalarining har birini o‘rganib chiqish masalasi alohida kichik guruhlarda loyiha tayyorlash uchun bo‘lib beriladi. Loyihaning asosiy maqsadi berilgan mavzuni kognitiv lingvistika mezon va tamoyillari asosida yoritib berish ekanligi talabalarga tushuntiriladi.

1. Guruhlarga bo‘linish va mavzularni taqsimlash: talabalar 3-4 kishidan iborat guruhlarga bo‘linadi. Har bir guruhga leksik-semantik munosabatlarning alohida turi (sinonimiya, antonimiya, omonimiya, partonimiya, giponimiya, graduonimiya) taqsimlanadi.

2. Ma’lumot to‘plash va tahlil qilish: Har bir guruh loyiha mavzusi bo‘yicha kerakli ma’lumotlarni turli manbalardan (kutubxona, internet, intervyu) to‘playdi. To‘plangan ma’lumotlar asosida har bir munosabat turiga ta’rif beriladi, misollar keltiriladi va ularning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi, tizimlashtiriladi va xulosalar chiqariladi. O‘zbek tilidagi misollar (so‘zlar, iboralar, jumlalar) yordamida namoyish etiladi. To‘plangan ma’lumotlar tahlil qilinadi, xulosa chiqariladi.

3. Loyiha natijalarini rasmiylashtirish: har bir guruh o‘z loyihasi natijalarini kollaj, ma’ruza matni, ilmiy maqola, devoriy gazeta, buklet va kompyuter grafikasi (slayd, video rolik, taqdimot) shakllarida aks ettirish va o‘z loyihasini himoya qilish talab etiladi.

4. Taqdimot va muhokama: Har bir guruh o‘z loyihasini taqdimot qiladi. Taqdimot davomida guruh a’zolari o‘z mavzularini tushuntiradilar, misollar keltiradilar va savollarga javob beradilar. Rasmlar, grafik, jadvallardan foydalanish tavsiya etiladi.

Taqdimotdan so‘ng barcha ishtirokchilar muhokamada faol ishtirok etadilar, o‘z fikrlarini bildiradilar va savollar beradilar. O‘qituvchi taqdimotlarni baholaydi, fikrlar bildiradi va qo‘shimcha ma’lumotlar beradi.

Loyiha metodini qo‘llash orqali quyidagi g‘oyalar amalga oshiriladi:

- **Sinonimlar lug‘atini yaratish:** Talabalar o‘zbek tilidagi sinonim so‘zlarni yig‘ib, lug‘at yaratadilar va ularning ma’nolaridagi farqlarni tahlil qiladilar.
- **Antonimlar o‘yini:** Talabalar antonim so‘zlarni topish bo‘yicha o‘yin tashkil qiladilar va har bir juftlikning kontekstdagi qo‘llanishini o‘rganadilar.
- **Omonimlarni topish bo‘yicha tadqiqot:** Talabalar o‘zbek tilidagi omonim so‘zlarni topib, ularning ma’nolarini tushuntiradilar va omonimiya hosil bo‘lishi sabablarini tahlil qiladilar.
- **Giponim-giperonimlar tasnifi:** Talabalar ma’lum bir mavzuga oid giponim va giperonim so‘zlarni guruhlab, ular o‘rtasidagi iyerarxik munosabatlarni ko‘rsatadilar.
- **Partonimik munosabat tahlili:** Talabalar butun-bo‘lak munosabatidagi so‘zlarni topib, tizimlashtiradilar va ular o‘rtasidagi munosabatni izohlaydilar.
- **Graduonimik qatorlar munosabati:** Talabalar o‘zbek tilidagi misollar asosida darajalanish munosabati haqida tahliliy ma’lumotlar taqdim etadilar.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, filolog-talabalar bilan olib boriladigan amaliy mashg‘ulotlarda kognitiv lingvistika asosida lingvodidaktik bilimlarni shakllantirish bilan birga ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishda loyiha metodi samarali va innovasion usul hisoblanadi.

Adabiyotlar.

1. Yusupova M., Shoraxmetov Sh. Loyiha texnologiyasining ta’lim jarayonida qo‘llanilishining ijobiy tomonlari // Academic research in educational sciences volume 2 | issue 3 | 2021. – B. 660-668.

2. Narzullayeva M. Chet tillarini o‘qitishda loyiha metodining ahamiyati va uni amaliyotda samarali qo‘llash // https://api.ziyonet.uz

3. Полат Е.С., Бухаркина М.Ю., Моисеева М.В., Петров А.Е. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. М.: Академия, 2010. – С.66

4. Yayraxon To‘xtanazarovna Umarova (2022). Samarali hamkorlik – kitobxonlik madaniyatini shakllantirish kafolati sifatida. Academic research in educational sciences, 3 (3), 410-416.

5. To‘xtanazarovna, Umarova Y. “The Current Status Analysis of Language Competence of Pupils in Secondary Schools”. JournalNX, vol. 7, no. 06, 2021, pp.

6. Umarova Y. O‘quvchilarda pragmatik kompetensiyani rivojlantirish xususida (morfologik birlik va shakllar tahliliga o‘rgatish asosida). Ilmiy xabarnoma. Seriya: Pedagogik tadqiqotlar - Scientific bulletin. Series: Pedagogical Researches. 2021. 2(54). 24-33.

7. Umarova Y., Ne’matova D.Umumta’lim maktablaridagi o‘quvchilar til kompetentligining joriy holati tahlili. Ilmiy xabarnoma. Seriya: Pedagogik tadqiqotlar - Scientific bulletin. Pedagogical Research.2020. 6(50). 47-57.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Ro‘ziqulov Bunyodbek Baxtiyor o‘g‘li
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
Jismoniy madaniyat va sport kafedrasi dotsenti, p.f.b.f.d (PhD)
bunyod_2020@mail.ru

YENGIL ATLETIKACHI TALABA-QIZLARNING JISMONIY VA FUNKSIONAL RIVOJLANISH KO‘RSATKICHLARI ANIQLASH

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida talaba-qizlarning jismoniy va funksional rivojlanish xususiyatlarini inobatga olib, qo‘llaniladigan vosita va usullarni to‘g‘ri tanlash xalqaro miqyosda kuchli raqobatga kirisha oladigan sportchilarni tayyorlash tizimiga ijobiy tomonlari keltirilgan. Bu esa zahira sportchilarni saralash va ular bilan ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichlarida samarali o‘quv-mashg‘ulot jarayonlarini tashkil etish yuzasidan yangi ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish zaruratini belgilab beradi. Yengil atletika mashg‘ulotlarida talabalarni mashg‘ulot jarayonini tuzish uchun avvalo ularning jismoniy rivojlanish darajasiga e’tibor qaratish talab etiladi.*

Kalit so‘zlar: *talabalar, jismoniy rivojlanish, yengil atletika, sport to‘garaklari, mashg‘ulot sikllari, jismoniy tarbiya, mashg‘ulot jarayoni.*

Рўзиқулов Бунёдбек Бахтиёр угли
Университет экономики и педагогики
Доцент кафедры физической культуры и спорта, (PhD)

ОПРЕДЕЛЕНИЕ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОГО И ФУНКЦИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ЛЕГКОАТЛЕТИКОВ

Аннотация: *В данной статье с учетом особенностей физического и функционального развития студенток высших учебных заведений представлен правильный выбор средств и методов, используемых в системе подготовки спортсменок, способных достойно конкурировать на международном уровне. Это определяет необходимость проведения новых научных исследований по отбору резервных спортсменов и организации эффективного тренировочного процесса с ними на многолетних этапах подготовки. В легкой атлетике при построении тренировочного процесса студентов необходимо в первую очередь обращать внимание на уровень их физического развития.*

Ключевые слова: *студенты, физическое развитие, легкая атлетика, спортивные секции, учебно-тренировочные циклы, физическое воспитание, тренировочный процесс.*

Ruzikulov Bunyodbek Bakhtiyor ugli
University of Economics and Pedagogy Associate Professor of the Department of Physical Culture and Sports, (PhD)

DETERMINATION OF PHYSICAL AND FUNCTIONAL DEVELOPMENT INDICATORS OF STUDENT ATHLETES

Abstract: *In this article, taking into account the characteristics of physical and functional development of female students in higher education institutions, the correct selection of tools and methods used in the system of training athletes who can compete strongly at the international level are presented. This determines the need to conduct new scientific research on the selection of reserve athletes and the organization of effective training processes with them during multi-year training stages. In order to structure the training process of students in athletics, it is necessary to pay attention, first of all, to the level of their physical development.*

Keywords: *students, physical development, athletics, sports clubs, training cycles, physical education, training process.*

Kirish

So‘ngi yillarda Respubikamizda zamonaviy jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri oliy ta’lim muassasalari talabalari bilan jismoniy tarbiya, ommaviy sport ishlarini, kompleks sport musobaqalarini tashkil etish va o‘tkazish,

yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish va ularni maqsadli tayyorlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yengil atletika mashg‘ulotlarida yuguruvchilarning yillik mashg‘ulot jarayonini rejalashtirish va tashkil qilishda sportchilarning jismoniy sifatlarini rivojlanish xususiyatlarini inobatga olib, qo‘llaniladigan vosita va usullarni to‘g‘ri tanlash xalqaro miqyosda kuchli raqobatga kirisha oladigan sportchilarni tayyorlash tizimiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa zahira sportchilarni saralash va ular bilan ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichlarida samarali o‘quv- mashg‘ulot jarayonlarini tashkil etish yuzasidan yangi ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish zaruratini belgilab beradi. Yengil atletika mashg‘ulotlarida talabalarni mashg‘ulot jarayonini tuzish dolzarb muammolardan biri bo‘lib, uning rivojlanishi zamonaviy sharoitlarda sportchilarni tayyorlash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili

Oliy ta’lim muassasalarida o‘qish davrida gipokineziya, gipodinamiya va turli xil salbiy omillar ta’siriga duch keluvchi talaba-yoshlarning salomatligini mustahkamlash, ularning funksional holati va jismoniy rivojlanishini oshirish muammosi dolzarb hisoblanadi hamda uni hal etish uchun yangi yondashuvlarni taqozo etadi. Ko‘tarilgan muammoning dolzarbligi MDH davlatlari oliy o‘quv yurtlari talabalarining doimiy pedagogik, psixologik va tibbiy tekshiruvlari natijalari bilan ham tasdiqlanadi. Aniqlanishicha, 30% dan 50% gacha talabalar salomatlik holatida u yoki bu nuqsonlarga ega, ularning ayrim qismida esa surunkali kasalliklar aniqlangan [V.K.Spirin, 2000; O.I.Albokrinova, 2003; A.P.Laptev, V.A.Pankov, 2003; L.A.Semenov, S.P.Mironova, 2006; D.D.Belyaeva, 2007; A.K.Namazov, 2016; V.D.Panachev, A.P.Morozov, 2016; I.V.Jukova, 2018; N.V.Vasenkov, 2018; L.A.Lopatin, 2019 va boshqalar]. Undan tashqari, o‘quv mashg‘ulotlari va dam olish uchun vaqtning nooqilona taqsimlanishi, dam olish vaqtidan tiklanish uchun samarasiz foydalanish, passiv dam olish shakllarining ustunligini ham e’tirof etish joiz, bu doimiy asab, emotsional, psixik zo‘riqishni keltirib chiqaradi va noxush, ba’zan esa salomatlik holatida tuzatib bo‘lmas oqibatlarga olib kelishi mumkin [9]. Shuni e’tirof etish lozimki, talaba yoshlar kasalliklarni oldini olishda, jismoniy holatni saqlab turishda, jismoniy tayyorgarlik holatini saqlashda, butun hayot davomida saqlanib qoladigan, tashqi muhitning turli xil salbiy ta’sirlariga yuqori moslashish imkoniyatlarini ta’minlaydigan “moslashish o‘zagini” hosil qilishda aynan jismoniy tarbiyaning ahamiyatini haligacha to‘liq anglab yetishmagan. Ilmiy tadqiqotlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, aksariyat ishlar talabalarning sog‘lom turmush tarzi asoslariga bag‘ishlangan, sportga ixtisoslashmagan oliy o‘quv yurtlarida tahsil oluvchi talabalarning salomatlik holati va jismoniy rivojlanishi yuzasidan maqsadli monitoringni olib boruvchi tadqiqotlar deyarli yo‘q.

Biroq shuni e’tirof etish lozimki, respublika oliy o‘quv yurtlari o‘quv dasturlarida jismoniy tarbiya bo‘yicha o‘quv soatlarining kamayishi sodir bo‘lmoqda, ba’zi toifadagi talabalar uchun jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari harakat faolligini saqlab turishning yagona yo‘li hisoblanadi. Undan tashqari, OO‘Yularida talaba yoshlarning salomatligi holatida mavjud turli xil nuqsonlarning o‘ziga xos xususiyatlari va ularning jismoniy rivojlanish darajasi e’tiborga olingan holda ishlab chiqilgan yagona mashg‘ulotlar uslubiyati yo‘q.

Tahlillar va natijalar

Respublika oliy ta’lim muassasalarida tahsil oluvchi talaba-yoshlarning jismoniy rivojlanishini o‘ziga xos tuzilishga ega ekanligini inobatga olib, biz sportga ixtisoslashmagan oliy ta’lim muajssasalarida tahsil oluvchi talaba-yoshlarning dastlabki jismoniy rivojlanishva salomatlik darajasi ko‘rsatkichlarijni baholash shkalasini ishlab chiqdik.

Ushbu baholash shkalasi bo‘yicha ma’lumotlar 1-jadvalda keltirib o‘tilgan.

1-jadval

Talaba-qizlarning jismoniy rivojlanish darajasini baholash shkalasi (G‘.A.Yusupov bo‘yicha)

T/r	Testlar va o‘lchov birligi	Baholash darajasi		
		«qoniqarli»	«yaxshi»	«a’lo»
1.	Garvard step-testi indeksi, (birlik)	39,4-41,9	42,0-47,4	47,5-50
2.	30 m yugurish (sek)	6,0-5,8	5,7-5,3	5,2-5,0
3.	100 m yugurish (sek)	19,3-18,6	18,5-17,1	17,0-16,3
4.	Turgan joyidan uzunlikka sakrash (sm)	145-152	153-167	168-182
5.	Tanani 30 sek ichida ko‘tarish (marta)	8-12	13-21	22-26
6.	30 sek ichida 20 marta o‘tiribturishdan so‘ng YuQChning tiklanish vaqti (Martine)	3 va ko‘proq	2	1,3-1,7

Jadvalda G‘.Yusupov tomonimizdan taklif qilinayotgan baholash shkalasi 6 ta test natijalari bo‘yicha qizlarning jismoniy rivojlanish darajasini aniqlashga imkon beradi. Bunday yondashuv bir xil darajadagi harakat tayyorgarligiga ega talabalardan guruhlar

shakllantirish imkonini berdi. Jismoniy rivojlanish darajasi “qoniqarli” bahodan past, shuningdek, yuraktomir tizimining moslashish imkoniyatlari past bo‘lgan, yetarlicha quvvatdagi ishni bajarishga qodir bo‘lmagan va jismoniy ishchanlik qobiliyati indeksi “bo‘sh” deb baholanayotgan talabalarga jismoniy yuklamalarni avaylaydigan rejimda berish lozim.

Tadqiqot jarayonida Respublika oliy ta’lim muassasalarida tahsil oluvchi talaba-yoshlarni jismoniy rivojlanish darajasini aniqlangandan so‘ng, Iqtisodiyot va pedagogika universitetida tahsil oluvchi talaba-yoshlarni jismoniy rivojlanish va salomatlik darajasini 2-jadvalda batafsil ko‘rib chiqamiz.

Mashg‘ulotlardan tashqari vaqtlarda haftasiga 3ta mashg‘ulotni tashkillashtirish rejalashtirilgan. Dasturda har bir mashg‘ulot uchun 16 ta mashqlardan iborat majmua tavsiya etilgan. Har bir mashg‘ulotda bir tomonlama yetakchi oyoqni o‘zgartirmagan holda qadam va elementlar majmuasidan 6 ta, yetakchi oyoqni o‘zgartirgan holda qadam va elementlardan 5 ta, joyda yurish va sinxronlashtirilgan elementlar kombinatsiyasidan 2 ta, joyda yurish va oyoqlarni ko‘tarish elementlari kombinatsiyasidan 3 ta mashq, ikkinchi va uchinchi mashg‘ulotlarda esa 6; 5; 2; 3 tadan mashqlar ketma-ketligida bajarilishi taqsimlangan.

2-jadval

Oliy ta’lim muassasalarida tahsil oluvchi talaba-qizlarni tajribadan oldingi jismoniy va funksional rivojlanish ko‘rsatkichlari

№	Nazorat testlari	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi	p
1.	30 m.ga yugurish (sek) (tezkorlik)	6,0±0,5	6,0±0,5	p>0,5
2.	100 m.ga yugurish (sek) (tezkorlik)	17,2±1,2	17,1±1,5	p>0,5
3.	Turgan joyidan uzunlikka sakrash, sm (tezkor kuch)	148±1,4	149±1,8	p>0,5
4.	Gimnastika o‘rindig‘ida qo‘llarni pastga egish (egiluvchanlik)	9,2±0,8	9,3±0,7	p>0,5
5.	Qo‘l kuchi dinamometr (kuch)	24,6±0,6	24,8±0,82	p>0,5
7.	YQCH zarba/min	83,1±1,77	83,5±1,1	p>0,5
8.	O‘TS, ml	2206,0±1,4	2232,3±1,9	p>0,5
9.	GSTI	50,7±1,4	50,9±1,6	p>0,5

Yuqoridagi 2-jadvalda keltirilgan talaba-qizlarning jismoniy rivojlanish darajasi tajriba va nazorat guruhlarida tajribadan oldin deyarli bir xil natijalarqayd etildi.

3-jadval

Oliy ta’lim muassasalarida tahsil oluvchi talaba-qizlarni tajribadan keyingi jismoniy va funksional rivojlanish ko‘rsatkichlari

№	Nazorat testlari	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi	p
1.	30 m.ga yugurish (sek) (tezkorlik)	5,6±0,5 o‘rta darajada	5,8±0,4 o‘rta darajada	p<0,001
2.	100 m.ga yugurish (sek) (tezkorlik)	16,3±0,94 o‘rta darajada	16,7±1,6 o‘rta darajada	p<0,001
3.	Turgan joyidan uzunlikka sakrash, sm (tezkor kuch)	158±1,8 o‘rta darajada	162±1,3 o‘rta darajada	p<0,001
4.	Gimnastika o‘rindig‘ida qo‘llarni pastga egish (egiluvchanlik)	12,3±1,2 o‘rta darajada	13,6±0,9 o‘rta darajada	p<0,001
5.	Qo‘l kuchi dinamometr (kuch)	24,8±0,4	26,4±0,8	p<0,001
7.	YQCH zarba/min	79,2±1,71	76,7±1,1	p<0,001
8.	O‘TS, ml	2355,0±1,3	2575,0±1,5	p<0,001
9.	GSTI	56,4±1,4	60,4±1,8	p<0,001

Buni shu orqali tushuntirish mumkinki, AB yuklamaga SB ning oshishi bilan reaksiya qiladi, bu, o‘z navbatida, yurak qisqarishlari kuchining oshishini, DB ning pasayishini bildiradi, chunki, arteriyalar kengayishi oqibatida periferik qarshilik kamayadi, bu ishlayotgan mushaklarga umumiy miqdorda qon yetib borishini ta’minlaydi. Mos ravishda TB (tomir bosimi) oshadi, bu bilvosita sistolik qon bosimining oshishini anglatadi. Jismoniy yuklamada YUQS avval ancha oshib bordi, keyin ma’lum darajagacha kamaydi, u butun barqaror ish davomida saqlanib turdi. Jismoniy ishchanlik qobiliyati bo‘yicha ham ikkala talaba qizlar guruhida farqlar aniqlandi, bu Garvard steptesti natijalarida namoyon bo‘ldi. E’tirof etish joizki, yurak qisqarish sur’ati tez bo‘lganda yurakning ishi kam samarali bo‘lib qoladi. YUQS ning o‘rtacha ko‘rsatkichlari TG da minutiga 120-130 zarbagacha yetdi, bu sog‘lomlashtiruvchi mashg‘ulot yuklamasini bajarishning optimal zonasiga mos keladi. Nafas olinganda va chiqarilganda nafasni ushlab turish

ko‘rsatkichlarining ishonchli oshishi ham YUTT zaxira imkoniyatlarining tajriba guruhidagi qizlarda ko‘proq oshganligidan dalolat beradi. Agar tajriba boshida nafas olinganda nafasni ushlab turish NG da 42,3±3,9 ni tashkil qilgan bo‘lsa, unda tajriba oxirida bu qiymat 44,0,3±3,3 ni tashkil etdi, TG da ko‘rsatkichning 42,4±2,9 dan 46,9±2,9 gacha ishonchli o‘sganligi aniqlandi.

Xulosa

Oliy ta’lim muassasalari talabalarini o‘z sog‘lig‘i haqida g‘amxo‘rlik qilishga o‘rgatish, sport bilan muntazam shug‘ullanish orqali ularda sog‘lom turmush tarzini yaratish, jismoniy tarbiya bilan mustaqil shug‘ullanish ko‘nikmalarini shakllantirish bugungi kunda pedagogik jarayonning bosh maqsadi hisoblanadi. Jismoniy madaniyat –insonning jismoniy rivojlanishi va barkamollashuvi uchun xizmat qiladigan maxsus vositalar, metodlar hamda sharoitlarni yaratish shuningdek ulardan oqilona foydalanish bo‘yicha erishilgan yutuqlar majmuasi ekanligi bilan ahamiyatlidir.

Qizlarning jismoniy rivojlanish darajasini baxolash shkalasi ishlab chiqildi. Unga asosan 4 ta jismoniy sifat va 2 ta fiziologik ko‘rsatkich – jismoniy ishchanlik va organizmni tiklanishini namoyon etadigan Garvard step testi va Martine sinovi tanlandi. Har bir testga oid o‘lchov birliklari va ularni baxolash ko‘rsatkichlari jismoniy rivojlanish “a’lo”, ”yaxshi“ va “qoniqarli” baholangan talaba yoshlar uchun alohida ishlab chiqildi va murabbiylar tomonidan o‘quv jarayonida nozologik holati jihatidan bir xil bo‘lgan talaba qizlarni komplektatsiya qilishda qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev SH.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so‘zi, 2018yil 23dekabr.

2. Ro‘ziqulov B.B. Oliy ta’lim muassasalari talabalarining jismoniy madaniyatini rivojlantirishning yangicha asoslari. Tadbirkorlik va pedagogika. ilmiy-uslubiy jurnal. ISSN: 2181-2659. 2/2023. 140-146 bet.

3. Ro‘ziqulov B.B. Turli o‘yin ampluasiga qarab yosh futbolchilarni antropogenetik mezonlari va jismoniy tayyorgarligi asosida istiqbolini bashoratlash //Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD dissertatsiyasi avtoreferati, 2023. - 64 b.

4. Sherov Z.T. Qisqa masofalarga yuguruvchi talabalarning mashg‘ulot jarayonini tuzishga tabaqalashtirilgan yondashuv //Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD dissertatsiyasi avtoreferati, 2022. - 61 b.

5. Xaydarov B.T. Yengil atletikachilar ish qobiliyatini tog‘ sharoitida o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar yordamida oshirish. / ped.fan.nomzodi. dis. avtoref, Tashkent, 2009. - 24 s.

6. Абдуллаев М.Ж. Совершенствование методики применения подвижных игр в повышении эффективности тренировачных занятий юных легкоатлетов. Автореферат дисс…. доктора философии (PhD) по педагогическим наукам, Чирчик, 2019, - 50 с.

7. Олимов М.С. Методика подготовки к соревнованиям студентов-бегунов на средние дистанции /автор.дисс…..канд.пед.наук, Ташкент, 2011. - 24 с.,

8. Юсупов Ғ.А. Соғломлаштирувчи гимнастика воситалари орқали талаба ёшларнинг жисмоний ривожланишини коррекциялаш методикаси. / пед.фан.номзоди. дис. автореф, Чирчиқ, 2021. - 61 б.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

S.Usmanova
NamDU dotsenti

O‘ZBEK OILALARIDA YOSHLARNING OILAVIY TARBIYA HAQIDAGI TASAVVURLARINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. *Etnomadaniyatni rivojlantirishda etnomadaniy qadriyatlar va milliy o‘zlikni anglashning aloqadorligi, yangilanayotgan jamiyatimiz ma’naviy hayotida milliy g‘oya va etnikqadriyatlarning roliga doir masalalar tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar*: Etnomadaniyat, qadriyatlar, mafkura, dunyoqarash, o‘z-o‘zini anglash, millatlararo totuvlik, dinlararo bag‘rikenglik, etnos, subetnos, etnopsixologiya.*

S. Usmanova
Associate Professor of NamSU

FORMATION OF THE VIEWS OF YOUNG PEOPLE ON FAMILY UPBRINGING IN UZBEK FAMILIES

Abstract. *The interrelation of ethnocultural values and national identity in the development of ethnoculture, issues related to the role of national ideals and ethnic values in the spiritual life of our modernizing society are analyzed.*

Keywords*: Ethnoculture, values, ideology, worldview, self-awareness, interethnic harmony, interreligious tolerance, ethnos, subethnos, ethnopsychology.*

Усманова С
доцент НамГУ

ФОРМИРОВАНИЕ ВЗГЛЯДОВ МОЛОДЕЖИ НА СЕМЕЙНОЕ ВОСПИТАНИЕ В УЗБЕКСКИХ СЕМЬЯХ

Аннотация. *Анализируются взаимосвязь этнокультурных ценностей и национальной идентичности в развитии этнокультуры, вопросы, связанные с ролью национальных идеалов и этнических ценностей в духовной жизни нашего модернизирующегося общества.*

Ключевые слова: *Этнокультура, ценности, идеология, мировоззрение, самосознание, межнациональное согласие, межрелигиозная толерантность, этнос, субэтнос, этнопсихология.*

Kirish

O‘zbekiston mustaqil taraqqiyot yo‘liga o‘tgandan keyin ta’lim islohotlarida yoshlarni milliy qadriyatlar, ajdodlarimizning boy tajribasi asosida tarbiyalashga keng imkoniyat yaratildi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da: «Xalqning boy, intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O‘zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir», -deb ko‘rsatilgan.

Inson va jamiyat munosabatlari kechadigan har qanday muhit, aloqalar shakllari, faoliyat ko‘rinishlaridan etnoan’ana izlarini izlash va topish mumkin. Bu munosabatlar yaxlit sub’yektiv voqeliklar sifatida iz qoldiradi, kishilar faoliyatida aks etadi. Lekin etnoan’ana va qadriyatlar aynan voqeliklar emas. Etnoan’analar mudom qadriyatlardir, ammo barcha qadriyatlar ham etnoan’anaga aylanavermaydi.

Masalan, xor va balet san’ati turlari ma’lum bir kishilarga yoqadigan badiiy estetik ijod turlari, qadriyatlar hisoblanadi. Lekin ular, madaniyatimizda XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo‘lgan bo‘lsada, o‘zbek etnoan’analariga aylanmoqda. Rokn – roll, myuzikl, gipperrealizm to‘g‘risida ham shunday deyish mumkin. Tasviriy san’at, haykaltaroshlik, dizayn esa badiiy estetik qadriyatlarimiz tizimida barqaror o‘rin oldi. Bugun O‘zbekistonda ilmiy – texnik ixtirolarga, ijodga katta ehtiyoj mavjud, davlatimiz uni milliy qadriyatga aylantirishga shay, ming afsuski, ilmiy – texnik ijod ham o‘zbek etnoan’analaridan joy ololgani yo‘q.

Adabiyotlar tahlili

Mutaxassislarning fikricha, oila qurish fidokorlikdir. “Oila niyati sog‘lom bo‘lsa,turmush qurayotgan kishi fidoyi bo‘ladi. Sevib tanlagani turmush o‘rtog‘ini baxtli

qilish uchun har qanday joyda qo‘lidan kelgan har qanday narsani berishga tayyor bo‘ladi.” Payg‘ambarimiz (s.a.v) shunday deydilar: “Ayol to‘rt narsa uchun nikohlanadi:

1.Mol – dunyosi.

2. Nasl –nasabi.

3. Go‘zalligi.

4. Dindorligi.

Sen bulardan dindorini qidir, top, baxtli bo‘lasan.” Bu o‘rinda teologik yondashuv kuzatilsada, ular oila qurishda ko‘zga tutiladigan maqsaddan o‘zoq emas. Respondentlarimizning deyarli 46 % oila qurishda moddiy ta’minlanganlik, mulkdorlik muhim ahamiyatga ega ekanini qayd etishadi. Bu ularning shunchaki hohish – istaklari ifodasi emas, balki keyingi yillarda yoshlar moddiy boylikning, mulkning qanday kuchga, ta’sirga ega ekanini anglab yetishganining namoyishidir. Internetda berilayotgan “topishish, tanishuvlar” da nafaqat sirtqi go‘zallik, balki avvalo, mol – mulk, bo‘lg‘usi kuyov yoki bo‘lg‘usi kelin qanday mulklarga ega ekani ochiq namoyish qilinmoqda. Aslida, aksariyat respodentlar sevib turmush qurish tarafdorlaridir. Ular oila qurishdan maqsad – ikki qalbning muhabbati, ularning ahd – paymonlari, farzand ko‘rib, baxtli yashash niyati, deb javob berishadi.Shu bilan birga, mol –mulk, mulkiy munosabatlar ustuvor bo‘layotgan jamityada yoshlar istaklariga ta’sir etayotganini unutib bo‘lmaydi. Bozor iqtisodiyoti oila qurishdagi fundamental qadriyatlarga ta’sir etayotgan ekan, uni e’tibordan soqit qilib bo‘lmaydi. “Payg‘ambarimiz (s.a.v) bir hadislarida shunady deydilar: “Ayollarni faqat go‘zalligi uchun nikohingizga olmanglar.Ehtimol, go‘zalliklari ularni axloqiy jihatdan pasaytirar. Ayollarga dindorliklari uchun uylaning. Shubhasiz, yirtiq libosli, qora, lekin dindor ayol qimmatliroqdir.” Bugun “yirtiq libosli,” kelinni tasavvur qilish qiyin. To‘ylarning qanday dabdaba bilan o‘tayotgani, to‘y egalarining qancha tanish – bilishlari borligini namoyish etishga chiranishi har qanday ilmiy, rasional takliflardan ustun kelmoqda. Bu aslida, etnoan’analar ta’siridandir. To‘y o‘tkazishga o‘chlik o‘zbek xalqida qadimdan mavjud. Masalan, o‘zbek xalq ertaklarida sevishganlar murod – maqsadlariga yetganida yoki o‘g‘il ko‘rganda elga katta dasturxon yozishgani, qirq kechayu – qirq kunduz bazm uyushtirgani hikoya qilinadi. “O‘zbek boyisa to‘y qilar, yo uy qilar” degan matal behuda to‘qilgan emas.

Islomiy qadriyatlarga ko‘ra, kelin tomonga mahr beriladi. Shuning uchun kuyov tomon imkoni boricha mahr to‘laydi, bu mol – mulk bilan bog‘liqdir. Ha ba’zi ortodokslar mahr pulini mol- mulk bilan bog‘lashdan qochishadi, islomda barchani uylanishga da’vat etilgani yoki “Uylanadigan qizingga mahr sifatida Qur’on o‘qishna o‘rgat”, degan hadisni keltirishadi. Aslida qalin (mahr) kam turmagan. Qalin to‘lay olmagan erkaklar uylanolmay o‘tgan. “Odatda, mahr uchun bir uy, bir ayvon, unga barobar sahn bilan hovli, sog‘in sigir va boshqalar berilgan.” Bunday mol –mulkka kambag‘al oilalar ega bo‘lavermagan, albatta. Hozir oila qurish yoki ikki yoshning roziligi, bir – birini sevish akti, ahdu qarori bo‘lsada, moddiy ta’minot masalasi kun tartibidan tushib qolgan emas. Yuqoridagi hadisda mol – mulk masalasi bekorga tilga olinmagan.

O‘zbek oilalarida nasl – nasabni surishtirish muhim qadriyat, etnoan’ana hisoblanadi. Bu etnoan’ananing bo‘rttirilgan ifodasi “Boy boyga boqar, suv suvga oqar”, “Ko‘rpangga qarab oyoq uzat” kabi maqollarda berilgan. Bu talab etnoan’anani boy faqat boy bilan quda bo‘lish kerak, degan ma’noda qilmaslik zarur. Shunday fikr, masalan, xo‘ja xo‘jaga qiz beradi, tarzida saqlanib qolayotgan bo‘lsada, yoshlarning sevib oila qurishi barcha davrlarda uchraydigan, xalq ommasi tomnidan qo‘llab – quvvatlangan hol bo‘ladi. Bundan tashqari, nasl – nasabni surishtirish yoshlarning bir – birlariga jismonan muvofiq kelishini, sog‘lom ayoldan farzand tug‘ilishini ham nazarda tutgan. “Onasini ko‘r, qizini ol” degan maqol ana shu nasl – nasabni bilishni anglatadi. Mutaxassislar nasl – nasab surishtirish etrona’anasi kelin – kuyovni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish tartibini shakllantirganini ta’kidlashadi. Bugun amaldagi kelin – kuyovni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 25 avgustdagi 365 sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Nikohlanuvchi shaxslar tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida” gi Nizom amalga oshiriladi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksida sog‘lom oilani shakllantirish uchun nikohlanuvchilarni tibbiy ko‘rikdan o‘ztkazish maxsus institutlar zimmasidagi vazifa, irsiyatga bog‘liq kasalliiklarni aniqlash va ularni oldindan davolash, tug‘ma kasalliklarni aniqlash va ularni oldindan davolash, tug‘ma kasalliklar bor shaxslardan ojiz, xasta, hatto nogiron bolalar tug‘ilshining oldini olishga qaratilgan normalar ko‘rsatilgan. Mazkur kodeksda muvofiq, O‘zbekistonda “Fuqarolar sog‘ligini saqlash to‘g‘risida”, “Psixatriya yordami to‘g‘risida”, “Odamning immunitet tanqisligi virusi bilan kasallanishining (OIV kasalligining) oldini olish to‘g‘risida”, “Aholini sil kasalligidan muhofaza qilish to‘g‘risida” kabi qonunlar qarorlar qabul qilindi.

Nasl – nasabni surishtirish an’anasini bajarayotgan va oila muhitida unga rioya qilishni kuzatayotgan, asosan, ayollardir. Turmush qurgan, oila yuritish va erkaklar bilan munosabatlar o‘rnatishda tajribaga ega qaynona yosh kelinlarga sanitariya – gigiyena talablariga rioya etishni o‘rgatishadi. Ammo bu oila sharoitidagi yordamlar, maslaxat va nazoratlar yetarli emas. Maxsus qonunlarimizga muvofiq, barcha oila quruvchilar yosh oilalar tibbiy xizmatlar ko‘rsatishdan bepul foydalanishlari kafolatlangan. “Nikohlanuvchi shaxslarning tibbiy ko‘rigi ularning yashash joyidagi psixiatar vrachlar, narkologlar, teri – tanosil kasalliklari vrachlari, ftiziatrlar (dispanser va tuman kabinetlari) tomonidan tibbiy ko‘rik o‘tkazish

uchun asos hisoblanadigan FHDYO organlari tomonidan berilgan yo‘llanma bo‘yicha bupul o‘tkazildi.Tibbiy ko‘rikdan o‘tish muddati nikohlanuvchi shaxslar tibbiy muassasasiga murojaat etgan kundan boshlab ikka xaftadan oshmasligi kerak.” Respublikamizda har yili 170 mingdan ortiq nikoh qayd etiladi. Nikohlanuvchilarning sog‘ – salomatligini aniqlash, ikki yoshning bir- biriga muvofiqligini tasdiqlash mohiyatan sog‘lom avlodni yaratish, nogiron farzandlar tug‘ilshinining oldini olish demakdir. Nasl - nasabni surishtirish etnoan’anasi negizida ham shu maqsad yotadi.

Xulosa

O‘zbek oilasi etnoan’analari va qadriyatlari arxitonikasi yuqoridagilar bilan tugamaydi, etnoan’analar va qadriyatlarni ularning ko‘rinishlari funksional kelishi, makromuhit bilan aloqalari, shaxs ruhi va affektiv kechinmalari, sub’yektlarining ijtimoiy burchiga munosabatlari kabilar orqali ham ochib berishga yetarli asos beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sh.M.Mirziyoyev .Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.1-tom T.: O‘zbekiston NMIU,2018 y

2.Yunusova, N. Sh. (2022). Yosh Mutaxascislarni Tarbiyalashda Qadriyatlarning O‘rni. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 1), 339-341

3.Xodjayev B.K. Mustahkam oila:unda tibbiy madaniyatni shakllantirishning xuquqiy masalalari.-Toshkent: “Chashma print”, 2012

4.Sharifovna, Y. N. (2021). Theoretical Fundamentals of Spiritual Culture Research. American Journal of Social and Humanitarian Research, 2(9), 111-115.

5. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi.- Toshkent: Adolat, 2016

6.Shoumarov G‘.Rasulov Z. Oila ensiklopediyasi. – Toshkent: “Ilm Ziyo Zakovat”, 2016.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Usmanov Baxodir Xabibullayevich
Namangan davlat universiteti Sport faoliyati va jismoniy madaniyat kafedra dotsenti

YUQORI SINF O‘QUVCHILARINING JISMONIY SIFATLARINI TARBIYALASH METODIKASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada jismoniy sifatlar rivojlanishining tuzilish asoslari tayanch-harakat apparati, markaziy va periferik asab tizimi hamda ichki a’zolardagi progressiv morfologik va biokimyoviy o‘zgarishlar bilan bog‘liqligi hamda yuqori sinf o‘quvchilarining jismoniy sifatlarini tarbiyalash metodikasi bayon etilgan.*

Kalit so’zlar: *jismoniy sifatlar, tayanch-harakat apparati, jismoniy sifatlarini tarbiyalash, umumiy chidamlilik.*

Усманов Баходир Хабибуллаевич
Доцент кафедры спортивной деятельности и физической культуры Наманганского государственного университета

МЕТОДИКА ВОСПИТАНИЯ ФИЗИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ СТАРШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Абстрактный*. В статье рассмотрены структурные основы развития физических качеств, связанные с прогрессирующими морфологическими и биохимическими изменениями в опорно-двигательном аппарате, центральной и периферической нервной системе, внутренних органах, а также методика воспитания физических качеств у учащихся старших классов.*

Ключевые слова*: физические качества, опорно-двигательный аппарат, тренировка физических качеств, общая выносливость.*

Usmanov Bakhodir Khabibullayevich
Associate Professor of the Department of Sports Activities and Physical Culture, Namangan State University

METHODICALS OF EDUCATION OF PHYSICAL QUALITIES OF HIGHER-GRADE STUDENTS

Annotation*. This article describes the structural basis of the development of physical qualities in relation to progressive morphological and biochemical changes in the musculoskeletal system, central and peripheral nervous systems, and internal organs, and the methodology for educating the physical qualities of high-grade students.*

Keywords*: physical qualities, musculoskeletal system, education of physical qualities, general endurance.*

Kirish

Keyingi vaqtda g‘arb fan-texnikasi yutuqlarining kuchli ta’sirida dunyo madaniyati rivojlandi, bu esa insonning gipokratik qarashlari, uni o‘rab turgan dunyodagi ko‘p narsalarda ustunligini aniqladi.

Insonning harakat faolligi optimal darajasini izlashda nafaqat yosh va jinsiy me’yorlarga, balki organizmning o‘ziga xos xususiyatlari haqidagi chuqur bilimlarga ham tayanish lozim.

Bolaning yoshga oid rivojlanish davrlari tana va uning a’zolari og‘irligi hamda kattaligi, skelet suyaklarining qotish darajasi, tishlarning paydo bo‘lishi, ichki sekresiya bezlaridagi birlashtiruvchi to‘qimalarning rivojlanishi, kortikal faoliyat tavsifi va boshqa belgilar asosida aniqlanadi.

Olib borilgan ko‘plab tadqiqotlarning yakuniy xulosalari umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi an’anaviy jismoniy tarbiya darslari mazmun mohiyati, hajmi va zo‘riqish shiddatining nomukammalligi, o‘quvchilarning individual imkoniyatlari inobatga olinmaganligi bilan o‘sib kelayotgan yosh oranizmning talablariga to‘liq javob bermasligini isbotlab berdi.

Natijalar va muhokama

Jismoniy sifatlar rivojlanishining tuzilish asoslari tayanch-harakat apparati, markaziy va periferik asab tizimi hamda ichki a’zolardagi progressiv morfologik va biokimyoviy o‘zgarishlar bilan bog‘liq. Shundan kelib chiqqan holda jismoniy sifatlarning rivojlanish darajasi somatik va vegetativ funksiyalarning muvofiqligiga bevosita bog‘liq bo‘ladi.

V.P.Guba, L.V.Volkov, R.N.Doroxov, V.A.Bikov, I.V.Lyaxlarning ta’kidlashicha, maktab yoshidagi

bolalarda jismoniy sifatlarning rivojlanishi yoshga xos xususiyatlarga ega, ya'ni [3, 4, 5]:

- har xil jismoniy sifatlarning rivojlanishi geteroxron tarzda sodir bo'ladi;

- yillik o'sish kattaliklari har xil yosh davrlarida bir xil emas va o'sish taqqoslangan paytda nisbiy kattaliklari bilan farq qiladi;

- kichik va o'rta maktab yoshidagi bolalarning ko'pchiligida jismoniy sifatlar ko'rsatkichlari o'z darajalari bo'yicha har xil (masalan, kuch, statik chidamlilik darajasi, odatga ko'ra dinamik chidamlilik darajasi bilan mos kelmaydi);

- hajmi va shiddati bir xil bo'lgan jismoniy yuklamalar berilgan paytda bitta usul bilan o'tkaziladigan maxsus mashg'ulot har xil yoshdagi, jinsdagi va jismonan har xil rivojlangan bolalarning ma'lumotlarini taqqoslash imkonini beradi, bunda turlicha pedagogik samaralarga erishiladi;

- o'smir sportchilarda tabiiy o'sish davrida (sensitiv davrlarda) jismoniy sifatlarning rivojlanish darajasi sport bilan shug'ullanmaydigan bolalar va o'smirlarda xuddi shu sifatlar rivojlanishining o'rtacha darajasidan ancha yuqori;

Yosh sportchilarni tayyorlashda asosiy vazifalar – bu bolalarning salomatligini mustahkamlash va jismoniy jihatdan har tamonlama rivojlantirish, tanlangan sport turiga maqsadga yo'naltirilgan tarzda asta-sekin o'tishini amalga oshirish, tanlangan sport turi texnikasini o'rgatish asosida jimoniy tayyorgarlik darajasini oshirish, kelgusida tanlangan sport turi bo'yicha mashg'ulotlarni olib borish uchun istiqbolli yosh sportchilarni saralashdir.

Yosh sportchilarning harakat funksiyalari, yoshga xos xususiyatlarini o'rganish va jismoniy sifatlarini rivojlantirish masalalari bo'yicha V.P.Filin, V.P.Guba, I.V.Lyax, L.V.Volkov va boshqa ko'pgina mutaxassislar ilmiy izlanishlar olib borganlar. Ularning fikrlariga ko'ra, bolalik davri-ko'p yillik jismoniy rivojlanish uchun muhim bosqich va sport tayyorgarligini boshlash uchun qulay davr hisoblanadi [3, 4, 5, 8].

Yaxshi jismoniy tayyorgarlik asosiy jismoniy sifatlarning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi va barcha turdagi faoliyatda yuqori ish qobiliyatining asosi hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya jarayonida bolalar organizmi rivojlanishining asosiy qonuniyatlarini hisobga olish va bolaga katta odamning kichik nusxasi sifatida qaramaslik kerak. Bola qancha kichik bo'lsa, uning organizmi shunchalik o'ziga xos bo'lib, kattalardan shunchalik ko'p darajada farq qiladi va uning voyaga yetish jarayoni muayyan qonuniyatlarga bo'ysinadi.

Maktab yoshidagi bolalarda jismoniy sifatlarni tarbiyalash organizmning rivojlanishi va o'sishi bilan bog'langan qator xususiyatlarga ega:

- o'spirinlik va yoshlik davrida bitta jismoniy sifatning rivojlanishi boshqa sifatlarning o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, o'qituvchilardan jismoniy sifatlarni tarbiyalashga majmuali yondashuv talab qilinadi;

- organizmning rivojlanishida jismoniy sifatlarning o'sishi ayrim yoshlarda, ayniqsa, jadal ro'y beradi. Bu sezgirlik (sensitiv) davrlari deb ta'kidlanadi. Chunonchi, mushak kuchi uchun o'sishning eng yuqori sur'ati 13-15 yoshlilarga xos, 14 yosh chidamlilikni, 8-11 yosh esa tezkorlik imkoniyatlarini tarbiyalash uchun eng qulaydir.

Bir qator tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida jismoniy tarbiya vositalarini tanlashda shug'ullanuvchilarning yoshi, jinsi va tayyorgarligini hisobga olish zarurligi ta'kidlangan.

O'quvchilarning asosiy faoliyat turi aqliy mehnat hisoblanadi. Axborot hajmining muntazam oshib borishi, o'quv dasturlarining murakkabligi dars tayyorlash, to'garak mashg'ulotlari uchun ko'p vaqt talab qiladi va harakat faolligini ancha chegaralab qo'yadi. Bunday sharoitda jismoniy mashqlar bilan muntazam shug'ullanish muhim ahamiyatga ega, bu bolalar va o'smirlar organizmining funksional imkoniyatlarini safarbar qilishga yordam beradi. Bunda nafaqat alohida a'zo va tizimlar funksiyasida, balki ularning o'zaro aloqasida ham qayta qurish ro'y beradi. Ontogenez jarayonidagi jismoniy ish qobiliyatining shakllanishiga bolaning yoshi, jinsi va somatotipi sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

Normal gormonik jismoniy rivojlanish mezoni sifatida har bir antropometrik belgining ifodasi emas, balki ularning o'zaro ifodalanishi, birgalikdagi ta'sirining o'zaro mosligi namoyon bo'ladi. Bular rivojlanishning mutanosibligi va uyg'unligini belgilaydi.

O'quvchilarning jismoniy sifatlari bir tekis va bir vaqtda shakllanmaydi, o'sish har xil yosh davrlarida turlicha bo'ladi.

Organizmning normal holatida sifatlarning o'sishi va rivojlanishi bir-biri bilan juda yaqin aloqada va hamkorlikda bo'lsa ham, ular bir vaqtda va bir xil jadallikda sodir bo'lmaydi, chunki biron-bir a'zo massasining kattalashishi uning bir vaqtda funksional jihatdan takomillashuvini bildirmaydi.

Notekis sur'atda o'sish, ya'ni ichki a'zolar va organizmdagi fiziologik tizimlarning o'sish va rivojlanish sur'atlari notekisligi ravon va jadal rivojlanish davrlarining almashinuvida namoyon bo'ladi. Cho'zish davri yaxlitlash davri bilan almashadi.

Zarur sharoitlarning yetishmasligi natijasida o'sish va rivojlanish to'xtab qoladi, ya'ni retardatsiya hodisasi ro'y beradi. Masalan, kasallik yoki boshqa sabablarga ko'ra jismoniy rivojlanish uzoq vaqt to'xtab qolishi mumkin. Keyinchalik vazn va bo'y o'sishda barobar orqada qolib, o'ziga xos konstitutsiya tipi shakllanadi (gipostatura). Retardatsiyaga mubtalo bo'lgan bolalar soni yosh guruhlari ichida 13-20% ga yetdi, buni, ayniqsa, o'quv-mashg'ulotlar jarayonini tuzishda hisobga olish muhim.

Bunday bolalarni o‘qitishda yaxshi natijalarga erishish uchun o‘quv-tarbiyaviy ishlarni bir xilda olib borish shart.

Agar mavjud sharoitlar organizmning barcha imkoniyatlarini ishga solishni tezlashtirsa, organizmning jadal o‘sishi-akseleratsiya yuz beradi. O‘smirlar orasida akseleratlar ko‘p uchraydi. Bunday bolalar shu yoshdagi bolalarning umumiy sonidan o‘rtacha 13-20% ni tashkil qiladi. Ancha baland bo‘y, katta mushak kuchi, nafas olish tizimining katta imkoniyatlari ularga xos xususiyatlardir. Bunday bolalar ancha tez balog‘atga yetadilar, bo‘y cho‘zilishi vaqtidan oldin to‘xtaydi (odatda, 15-17 yoshlarda) va ko‘pchilik olimlarning fikricha, ruhiy rivojlanish birmuncha tezroq ro‘y beradi. Afsuski, akseleratsiya hodisasi organizmning funksional imkoniyatlariga har doim ham ijobiy ta’sir ko‘rsatmaydi. Akselerat bolalarning bo‘yi va yuragining rivojlanishi gavda o‘sishidan ortda qoladi. Bu esa ular faoliyati buzilishiga olib keladi. Bunday bolalar qat’iy darajada alohida munosabatga muhtoj bo‘ladilar.

Maktab yoshidagi bolalarning turlicha sur’atda biologik yetilishi jismoniy tarbiya jarayonida ular uchun alohida sharoitlarni hosil qiladi.

Geteroxronlik (vaqtdan o‘zib rivojlanish) harakatlantiruvchi funksiyaning rivojlanishida yaxshi kuzatiladi. Masalan, mushak kuchining o‘sishi 7 yoshdan 16 yoshgacha 260 % ni tashkil qiladi va o‘sishning pubertat (lot.“jinsiy yetuklik”) sakrashidan keyin dastlabki 2-3 yilda ko‘proq aks etadi. O‘g‘il bolalar bu bosqichga 18 yoshda yetadilar.

Agar maksimal mushak kuchlanishi imkonini 100% deb qabul qilsak, o‘g‘il bolalarda mushak kuchi 13-14 yoshda-70%, 15-16 yoshda-80% ga teng bo‘ladi. 17-18 yoshda esa-90% ga yaqin.

Bolalarning yoshga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda kuchni tarbiyalash paytida ikkita asosiy usul – takroriy va dinamik kuchlanishlarni qo‘llashdan foydalaniladi. Turli predmetlar (to‘ldirma to‘plar, gantellar va h.k.), sherikning qarshilik ko‘rsatuvchi harakatlari, tashqi muhit har xil og‘irliklar va shaxsiy vazn qarshiligini yengish bilan bog‘liq bo‘lgan mashqlarni qo‘llash tavsiya etiladi.

Muntazam mashq qilish harakatlantiruvchi sifatlarning rivojlani–shini tezlashtiradi, lekin ularning o‘sishi turli yosh davrlarida har xil bo‘ladi. Kuchni rivojlantirish uchun morfologik jihatdan yanada qulay sharoitlar 9-10 va 14-17 yoshlarda yuzaga keladi. Bolalarning kuch ishlatadigan mashqlar bilan erta shug‘ullanishi qad-qomati o‘zgarishiga sabab bo‘lishi mumkin, chunki bu yoshda skelet shakllanayotgan bo‘ladi. Mushak kuchining yuzaga chiqishi mushak tolalarining turiga bog‘liq (tez yoki sekin o‘suvchi). Agar mushaklarda tez o‘suvchi tolalar ko‘p bo‘lsa, u holda odam kuchni jadal ishlatadigan harakatda maksimal quvvatni rivojlantira oladi, sekin o‘suvchi tolalar esa mushak kuchlanishini uzoq vaqt davom ettirish imkonini beradi.

Kuch mushaklar ishini boshqarish xususiyatiga ega bo‘lib, suyak va mushak to‘qimalarining o‘sishi bilan chambarchas bog‘liq.

Ko‘pchilik mualliflarning fikricha, yosh o‘tishi bilan mushak kuchlari tabiiy ravishda orta boradi. Jinsiy yetuklik davrida jismoniy rivojlanishning tezlashishi natijasida mushak kuchlari ko‘rsatkichlari yanada ortadi. Izlanish natijalariga ko‘ra 13-14 yoshlilarda yelkaning ikki boshli mushaklari, qo‘l panjalarini bukib yozadigan mushaklar va boshmaldoq mushagi dinamik ish jarayonida yosh bolalardagi (8-9 yosh) qaraganda katta qiymatlarga yetadi. Turli guruhdagi mushaklar kuchining ortishi 13-14 yoshli o‘smirlarda tana vaznining har bir kilogrammiga hisoblanganda 8-9 yoshli bolalardagi qaragandaan ancha yanada jadal yuz beradi. Bolalarda mushak kuchining ortishi sabablaridan biri-tanadagi mushaklar massasining o‘sishi, ya’ni mushak ko‘ndalang o‘lchamlarining kattalashishidir. Ma’lum bo‘lishicha, bu davrda kuchning rivojlanishida asab-muskul apparatining tabaqalashishi muhim rol o‘ynaydi. Yosh o‘tishi bilan mushak kuchi o‘zgaradi, lekin mutaxassislar yosh haqida keltirgan turlicha ma’lumotlarda uning yanada ortishi kuzatiladi.

V.P.Filinning fikricha 10-14 yoshlarda mutlaq kuch bir tekisda ortib boradi, 15-16 yoshda pasayadi, 17 yoshda esa yana sezilarli darajada ortadi. Mutlaq va nisbiy kuchlarning jadal o‘sish davrlari bir-biriga mos kelmaydi. Bolalar va o‘smirlar bilan shug‘ullangan mutaxassislar fikri mushak kuchining rivojlanish imkoniyatlari borasida ikkiga bo‘linadi. Boshqa mutaxassislar maktab o‘quvchilarining mushak kuchlarini muntazam tarbiyalab borishning maqsadga muvofiqligiga shubha bildiradilar. Ko‘plab tadqiqotlarda o‘quvchilarni o‘quv mashg‘ulotlari jarayonida tayyorlashda kuch mashqlarini qo‘llash samaradorligi isbotlab berilgan [8].

The transition to a digital economy is a demand of the times and a priority direction for Uzbekistan's development in the coming years. The emergence of new-generation digital technologies such as artificial intelligence, robotics, the internet, wireless communication technologies, and others requires changes in the models of activity in production, business, and the social sector. Like other areas, the digitalization of labor protection in Uzbekistan is also one of the most important and urgent

issues. This is because one of the most important tasks of the state and society is to ensure citizens' rights to healthy and safe labor. The experience of many developed countries shows that the development of a culture of labor protection is beneficial for employees, employers, and the state alike. Failure to comply with labor protection regulations reduces labor productivity and the quality of produced goods [3].

Digitalization in the field of labor protection generally refers to smart helmets, tools for detecting risks through artificial intelligence, and VR training technologies. It also involves simplifying document processing in the field of labor protection through electronic document circulation and the use of electronic digital signatures, increasing the level of labor protection culture at the workplace, protecting workers' rights, and ensuring the safety of high-risk jobs. Digitalizing labor protection reduces material costs, saves time, creates an electronic database for information, expands the possibilities for transmitting, processing, and storing data, allows labor protection guidelines and testing workers' knowledge to be conducted online, limits signing documents with past dates, prevents corruption, strengthens the protection of workers' rights, and ensures transparency in reports [4, 5].

Literature analysis. Digitalizing labor protection and applying artificial intelligence in this field has been the subject of extensive research by many scholars. Several popular scientific articles and research papers have been written on this topic, including the article "Цифровое будущее охраны труда" by Timofeev S. S. and Timofeeva S. S., which proves the possibility of creating safe working conditions in labor protection through digital technologies and artificial intelligence in the manufacturing and industrial sectors [6, 7].

Research methodology. In the research process, methods such as analysis of scientific and educational-methodical literature, pedagogical observation, comparative analysis, generalization, programming, and digitalization models were used.

Discussion and results. Ensuring the technical safety of students is a process that requires a comprehensive approach to maintaining both the physical and psychological safety of students during the educational process, as well as ensuring the safe use of technical tools and equipment. In modern higher education institutions, ensuring technical safety is one of the most important tasks. This is because the availability of modern technologies for students necessitates ensuring their safety. Technical safety means ensuring the correct and safe use of all equipment and technologies in higher education institutions, and this field primarily involves protecting students from electrical and mechanical hazards, as well as risks arising from computer technologies and laboratory equipment.

Electrical safety is a system of organizational and technical measures that ensure the protection of individuals from the harmful and dangerous effects of electric current, electric arcs, and electromagnetic fields. Students studying in technical fields at higher education institutions frequently encounter electric current during practical and laboratory sessions. As a result, students are required to follow safety regulations during classes and use digital technologies to ensure safety

The methodology for developing students' technical safety skills has been developed, and its advantages and disadvantages have been identified [8]:

1. *Enhancing students' knowledge and skills*. It is necessary to continuously provide students with information about the importance of technical safety. When new laboratory equipment is introduced, special instructions on its safe use should be conducted

2. *Providing students with necessary safety equipment*. During practical and laboratory sessions, necessary safety equipment for students, such as protective goggles, ear protection devices, and special clothing, should be provided.

3. *Conducting regular inspections of technical equipment*. The condition of laboratory equipment and instruments should be regularly checked. Additionally, caution regarding electrical power is necessary. If there is a problem with the electrical network or other technical equipment, repairs must be carried out before allowing them to operate.

4. *Maintaining laboratory and practical work areas in a safe condition.* To ensure safety for students in laboratory and practical work areas, order must be established, and the safe storage of equipment and materials must be ensured. Additionally, to enhance safety, fire safety equipment and necessary tools for emergency situations should be available in the areas.

Technical safety is often dependent on students' adherence to caution. Students' lack of knowledge of safety rules or their failure to follow them despite knowing them poses a risk to their safety. For this reason, in recent years, the use of digital technologies in ensuring students' safety has been implemented in higher education institutions.

Digital technology is a set of technologies related to storing, transmitting, and processing data in digital form. Digital technologies include computer software, network technologies, databases, artificial intelligence, and other modern technologies. One of their main advantages is the ability to quickly and efficiently process, store, and transmit data [9, 10].

Table 1

Advantages and disadvantages of using digital technologies in ensuring students' technical safety

№	Advantages	Disadvantages
1	Automated monitoring: using digital technologies and	High initial investment: implementing digital technologies often

	artificial intelligence to automate compliance with safety protocols, implement systems for tracking incidents and issuing alerts	requires significant funds and resources, which poses challenges for small businesses
2	Incident analysis: artificial intelligence technologies enable the optimization of accident analysis in the field of occupational safety, allowing for the identification of their causes and the likelihood of recurrence	Lack of skilled personnel: the use of new technologies requires highly qualified workers, but many organizations may lack such personnel
3	Improving safety techniques: the effectiveness of training employees on safety rules is enhanced through virtual reality and augmented reality technologies	Technical malfunctions: digital systems and artificial intelligence systems may encounter technical errors, which can reduce occupational safety
4	Risk prediction: with the help of AI, it is possible to identify existing risks and take preventive measures based on them	Privacy issues: Employees' personal privacy may be violated during data collection and its use
5	Improving work efficiency: by digitizing safety processes, it is possible to increase labor productivity and implement a more effective approach to safety	Over-reliance on technology: employees' complete dependence on technology may reduce practical knowledge of occupational safety

Conclusion.

During the research, I studied relevant regulatory and legal documents and scientific research conducted in the field, as well as conducted a comparative analysis of national and foreign experiences in ensuring environmental safety, and came to the following conclusion. Digitalization helps solve these problems and improves the effectiveness of reforms aimed at ensuring students' technical safety by automating and optimizing safety management processes. Digital technologies provide the opportunity to ensure protection through tools developed for increasing safety in camera surveillance systems, automatic accounting systems, and other automated processes. These technologies help prevent potential risks and issues in the field and enhance the effectiveness of protective services. At the same time, problems and risks are identified and resolved quickly and efficiently.

References

1. O‘zbekiston Respublikasining “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni, yangi tahriri. 2022-yil 17-avgust

2. R.R. Zamilova, S.V. Xolmatova, L.S. Kozlova. Umumiy pedagogika. Darslik. - Namangan - “USMON NOSIR MEDIA” nashriyoti, 2023. - 560 b.

3. A.K. Pazilov, Q.S. Seytmuratov, Z.K. Kurbaniyozova. Uzluksiz ta’lim pedagogikasi. Darslik. -Toshkent: “Yosh avlod matbaa”, 2023. -504 b.

4. S.M. Isamov. Hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat muhofazasi. Darslik. -Andijon: “Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti”, 2022. – 270 b.

5. O.R. Yuldashev, Sh.G. Jabborova. Hayot faoliyati xavfsizligi. Darslik. -T: “Barkamol fayz media”, 2018 y. – 208 b.

6. Sh.A.Mutalov, T.T.Tursunov, M.M. Niyazova, K.M. Adilova, B.Z. Zaynitdinova, A.A. Maksudova. Sanoat ekologiyasi (Atrof muhit muhofazasi). Darslik. «O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi» nashriyot-matbaa birlashmasi. 2020 - y. - 360 b.

7. Turobjonov S.M., Niyazova M.M.,Tursunov T.T., Po’latov X.L. Sanoat chiqindilarni rekuperatsiya qilish texnologiyasi. Darslik - T.: “Faylasuflar jamiyati nashriyoti”, 2011-y. - 180 b.

8. S.S. Sulaymanov, R.S. Razikov, O.T. Aliyev, Z.SH. Tursunov. **“Hayot faoliyati xavfsizligi” (temir yo‘l transportida) o‘quv qo‘llanma.** TDTrU - “Transport” nashriyoti, -T.: 2022 y. - 240 b.

9. Безопасность жизнедеятельности. Производственная безопасность и охрана труда / П. П. Кукин, В. *Л.* *Л*апин, Н. *Л.* Пономарев и др. Учеб. пособие *для* студентов средних спец. учеб. заведений. М.: Высш. шк., 431 с.: *ил.* 2011. Ст.89

10. M.Tojiyev, I.Nigmatov. “Hayot faoliyati xavfsizligi” o‘quv qo‘llanma –T.: Tafakkur - Bo‘stoni, 2012 y. - 182 b.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Hazratova Dilshoda Azamovna
Buxoro davlat universiteti kimyo va neft-gaz texnologiyalari kafedrasi dotsenti
Qodirova Zulfiya Kobulovna
Buxoro davlat universiteti kimyo va neft-gaz texnologiyalari kafedrasi dotsenti
e-mail: dilshoda.hazratova@mail.ru

UDK 547.21:004.94:37.091.33

ORGANIK KIMYODA “ALKENLAR” MAVZUSINI O'QITISHDA CHEM3D, CHEMDRAW VA HYPERCHEM DASTURLARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. *Ushbu maqola alkenlarning tuzilishi, izomeriya turlari va ularni o‘qitishda foydalaniladigan zamonaviy dasturlar haqida batafsil ma’lumot beradi. Xususan, Chem3D, ChemDraw va HyperChem kabi dasturlar yordamida molekulalarning strukturasini uch o‘lchamli shaklda vizual tarzda ko‘rsatish imkoniyati haqida so‘z yuritiladi. Ushbu dasturlar alkenlarning geometrik va tuzilmaviy xususiyatlarini tushunishda samarali o‘quv vositasi sifatida xizmat qiladi. Maqolada alkenlarning o‘quv jarayonidagi ahamiyati, ularning reaksiyalari va fizik-kimyoviy xossalarini ko‘rsatishda zamonaviy texnologiyalarning roli yoritiladi. Bundan tashqari, o‘quvchilar uchun mavzuni chuqurroq o‘zlashtirishda bu dasturlarni ta’lim jarayonida qanday qo‘llash kerakligi batafsil yoritib berilgan.*

Kalit so’zlar: *alkenlar, izomerlar, tuzilish, organik kimyo, kimyoviy modellar, Chem3D, ChemDraw, HyperChem.*

Хазратова Дилшода Азамовна
Доцент кафедры химии и технологий нефти и газа Бухарского государственного университета
Кодирова Зулфия Кобиловна
Доцент кафедры химии и технологий нефти и газа Бухарского государственного университета

"ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПРОГРАММ CHEM3D, CHEMDRAW И HYPERCHEM ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ТЕМЫ АЛКЕНОВ В ОРГАНИЧЕСКОЙ ХИМИИ"

Аннотация. *Данная статья предоставляет подробную информацию о строении алкенов, видах изомерии и современных программах, таких как Chem3D, ChemDraw и HyperChem, которые используются в процессе обучения. Эти программы позволяют визуализировать структуры молекул в трехмерном формате, что делает их эффективным инструментом для изучения. В статье подчеркивается значимость алкенов в образовательном процессе, их реакции и физико-химические свойства, а также роль современных технологий в их понимании. Кроме того, подробно раскрыто, как использовать эти программы в учебном процессе для более глубокого усвоения темы студентами..*

Ключевые слова: *алкены, изомеры, структура, органическая химия, химические модели, Chem3D, ChemDraw, HyperChem.*

Khazratova Dilshoda Azamovna
Associate Professor, Department of Chemistry and Oil and Gas Technology, Bukhara State University
Qodirova Zulfiya Kobilovna
Associate Professor, Department of Chemistry and Oil and Gas Technology, Bukhara State University

"USE OF CHEM3D, CHEMDRAW, AND HYPERCHEM SOFTWARE IN TEACHING THE TOPIC OF ALKENES IN ORGANIC CHEMISTRY"

Abstract: *This article provides detailed information about the structure of alkenes, types of isomerism, and modern software such as Chem3D, ChemDraw, and HyperChem used in the learning process. These programs allow for the visualization of molecular structures in 3D format, serving as an effective educational tool. The article highlights the importance of alkenes in the learning process, their reactions, and physical-chemical properties, as well as the role of modern technologies in understanding them. Additionally, it elaborates on how to effectively use these programs in education to help students gain a deeper understanding of the topic.*

Key words: *alkenes, isomers, structure, organic chemistry, chemical models, Chem3D, ChemDraw, HyperChem*

Kirish.

Bugungi kunda mamlakatimizni rivojlantirish, ta'lim-tarbiya jarayonini modernizatsiya qilish bo'yicha ta'lim maskanlarida sifatli kadrlarni yetkazib berishga alohida e'tibor qaratilgan**.** Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda ta'lim tizimi ishlab chiqarishdan ancha orqada qolib ketmoqda. Shu sababli umumiy o'rta talim maktablarida o'qitishning zamonaviy usullaridan keng foydalanish yo'lga qo'yish hamda yangi va innovatsion ta'lim texnologiyalarini keng joriy etish dolzarb hisoblanadi [1].

Alkenlar — uglevodorodlar sinfiga mansub bo'lib, ular bir yoki bir nechta qo'sh bog'ga ega. Ushbu birikmalar organik kimyoviy reaksiyalar va materiallar fanida keng qo'llaniladi. Ularning molekulyar tuzilishini to'g'ri ifodalash organik kimyo o'quv dasturlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy dasturlar, jumladan Chem3D, ChemDraw va HyperChem, ushbu jarayonni talabalarga osonlashtiradi. Bu dasturlar yordamida talabalarda organik birikmalar tuzilishining uch va ikki o'lchamli ko'rinishi haqidagi tasavvurlar shakllanadi. Ushbu maqolada alkenlar tuzilishini yaratish va tahlil qilish jarayonlari, shuningdek, bu dasturlarning ta'lim jarayoniga ta'siri muhokama qilinadi [2].

Kimyo fanini o'qitishda turli xil ko'rgazmalar, kimyoviy reaksiyalar, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari, moddalarning molekula maketlaridan foydalanish an'anaviy usulga aylangan. Bugungi kunda talaba va o'quvchilarning o'qitish sifati va samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy xarakterga ega ta'lim shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir [3] .

Tadqiqotlar metodologiyasi

Ta'lim metodi – o'quv jarayonining majmuaviy vazifalarini yechishga yo'naltirilgan o'qituvchi va talabalarning birgalikdagi faoliyati usuli bo'lsa, ta'lim metodikasi esa muayyan o'quv predmetini o'qitishning ilmiy asoslangan metod, qoida va usullar tizimidir.

Zamonaviy dasturlar va ularning funksiyalari

1-jadval

Dastur	Funksiyalari	Afzalliklari
Chem3D	3D model yaratish va tahlil qilish	Uch o'lchovli ko'rinish va energiya optimallashtirish imkoniyati
ChemDraw	Tuzilish formulalarini 2D shaklda yaratish va tahrirlash	Oddiy interfeys va keng funksional imkoniyat
HyperChem	Molekulyar modellashtirish va kvant mexanik tahlil	Spektral ma'lumotlarni olish va reaksiya mexanizmlarini tahlil qilish

ChemDraw dasturi ikki o'lchovli molekulyar diagrammalarni chizishda qulaylik yaratsa, Chem3D uch o'lchovli tuzilmalarni yaratish imkonini beradi. HyperChem esa kvant mexanik yondashuvlar orqali molekulalarning fizik va kimyoviy xususiyatlarini batafsil o'rganish imkoniyatini beradi. Ushbu dasturlar orasida mos tanlov qilish talab qilinadigan vazifaga bog'liq [4].

Alkenlarning modellari: Chem3D va HyperChem dasturlarida molekulyar tuzilishni yaratish jarayonlari quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1.Strukturani chizish: ChemDraw yoki Chem3D-dagi vositalar yordamida alkenlarning asosiy qismini yaratish. Etilen va propilen kabi oddiy molekulalar tanlanadi.

2.Geometriyani optimallashtirish: Molekulaning minimal energiyali holatini aniqlash orqali tabiiy konfiguratsiyani topish. Bu qadam molekulaning stabil holatini aniqlashda muhimdir.


3.Spektral ma'lumotlarni olish: HyperChem dasturida infraqizil (IQ) va YaMR spektrlarni aniqlash orqali molekulaning strukturaviy xususiyatlarini tasdiqlash.


HyperChem dasturining molekulyar model yaratish va tahlil qilishdagi roli alkenlarning elektron tuzilmasi va fizik-kimyoviy xossalarini aniqlashda yuqori aniqlik va qulaylikni ta'minlaydi [5].

Tadqiqot natijalari va muhokamalar

1. Alkenlarning tuzilish formulalari doskada yozib tushuntiriladi va o'quvchilarga mustaqil ishlash uchun vazifalar beriladi. O'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatgichlari tahlil qilinadi.

2. Alkenlarning tuzilish formulalari Chem3D, ChemDraw, HyperChem kimyoviy kompyuter dasturlari orqali hosil qilish o'rgatiladi.





1-rasm. Alkenlarning molekulyar modellari

1.Chem3D orqali etilen molekulasining 3D modeli Molekulyar modellarni yaratish orqali etilen molekulasining uch o‘lchovli tuzilishi aniqlandi. Ushbu modelda C=C bog‘ning uzunligi 1.34 Å va H–C–H bog‘ burchagi 121.7° bo‘lib qayd etildi.


2.ChemDraw orqali 2D chizma Etilen va propilen molekulalarining ikki o‘lchovli diagrammalari ChemDraw dasturida yaratildi.

Etilen va propilenning geometrik va energetik xususiyatlari


2-jadval


Molekula	Bog‘ uzunligi (Å)	Bog‘ burchagi (°)	Energiya (kkal/mol)
Etilen	1.34	121.7	-20.5
Propilen	1.33	120.8	-19.8

Spektral tahlili. HyperChem dasturida olingan IQ spektral ma‘lumotlar etilen molekulasidagi C=C bog‘ga mos keluvchi cho‘zilish chastotasini 1650 sm^{-1} atrofida aniqladi. YaMR tahlillari esa protonlarning kimyoviy siljishini 5.2 ppm atrofida qayd etdi, bu esa alkenning tipik qiymatlariga mos keladi.



a)





b)

2-rasm. Propilenning a) ^{1}H va b) ^{13}C YaMR spektrlari

2-rasmda propilen molekulasining ^{1}H va ^{13}C yadro magnit rezonansi (YaMR) spektrlari keltirilgan. ^{1}H-YaMR spektrida protonlarning kimyoviy siljish qiymatlari 5.83, 5.03 va 4.94 ppm oralig‘ida qayd etildi, bu esa propilen molekulasidagi olefinik (C=C) protonlarning rezonanslariga mos keladi. Bundan tashqari, 1.72 ppm dagi signal alifatik metil (CH_3) guruhining protonlariga tegishli ekanligini ko‘rsatadi. ^{13}C-YaMR spektri esa uglerod atomlarining kimyoviy siljish qiymatlarini aniqlash imkonini berdi. 135.0 va 115.6 ppm qiymatlar olefinik uglerod atomlariga xos bo‘lsa, 19.4 ppm alifatik metil guruhining uglerod atomiga tegishli ekanligini tasdiqlaydi. Ushbu natijalar propilen molekulasining YaMR spektral xususiyatlarini to‘liq tavsiflaydi va uning tuzilishini tasdiqlaydi.

Bugungi kunda ta’lim muassasalarida yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etishga alohida e’tibor berilmoqda. Yangi pedagogik texnologiya ta’lim tizimining ratsional yo’llari ishlab chiquvchi va loyihalashtiruvchi jarayon bo’lib, unda o’qituvchi asosiy mas’ul shaxs hisoblanadi. Chunki uning asosiy vazifasi axborotni o’quvchilarga tez, aniq, tushunarli tarzda yetkazib berishdan iboratdir. Ta’kidlash joizki, ta’lim jarayonida o’qituvchi o’quvchilarga o’quv fanini o’zlashtirishda yordam berishi lozim. Buning uchun o’qituvchi dars jarayonida o’qitishning noan’anaviy usullarni ham qo’llashi mumkin [6].

Xulosa.

Maqolada "Alkenlar" mavzusini o'qitishda Chem3D, ChemDraw va HyperChem dasturlaridan foydalanishning ahamiyati batafsil tahlil qilindi. Ushbu dasturlar, alkenlarning molekulyar tuzilishini vizual tarzda ifodalashda va turli izomerik shakllarni ko'rsatishda

o'qituvchilarga yordam beradi[7] . Chem3D dasturi, 3D model yaratish imkoniyatlari orqali o'quvchilarga molekulaning uch o'lchovli tasvirini taqdim etadi, bu esa o'quvchilarga molekulyar geometriya va alkenlarning izomerik xususiyatlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. ChemDraw esa molekulalar va reaksiyalarni tasvirlashda qulaylik yaratadi, shu bilan birga, izomerlarni aniq va to'g'ri ko'rsatish imkonini beradi. HyperChem dasturi esa molekulyar dinamikani va kvant mexanikasi asosida izomerlarning energetik xususiyatlarini tahlil qilishga yordam beradi. Natijada, ushbu dasturlar o'quvchilarga alkenlarning tuzilishini nafaqat tushuntirish, balki molekular izomerlarni samarali tarzda tahlil qilish, taqqoslash va vizual ko'rsatish imkoniyatlarini taqdim etadi. Bu esa o'qitish samaradorligini oshiradi va alkenlarning izomeriya jarayonlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Flipped pedagogy: Strategies and technologies in chemistry education S. Athavan Alias Anand L. 322-332 p.
2. Azamovna H. D. et al. Organik kimyo fanini oqitishda zamonaviy kimyoviy kompyuter dasturlaridan foydalanish //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 2. – №. 15. – С. 815-831.
3. Stewart J. J. P. Optimization of Parameters for Semiempirical Methods // Journal of Computational Chemistry. — 1989. — Vol. 10, №2. — P. 209–220.
4. Савицкий А. П., Зубринский А. А. Роль визуализации в обучении химии // Российский журнал общей химии. — 2019. — Т. 89, №7. — С. 1291–1300.
5. Hazratova D. Organik kimyoda “Alkanlarning tuzilishi va izomeriyasi” mavzusini oqitishda zamonaviy kimyoviy kompyuter dasturlaridan foydalanish //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2023. – Т. 38. – №. 38.
6. Худойназарова Г.А., Ганиев Б.Ш. Кимё таълимида график органайзерлардан фойдаланиш технологияси. Ёш олимлар респ. илмий амалий конференцияси. 2017й. 31 март - 1 апрель. III қисм Термиз.
7. Hazratova D., Murodova S. Zamonaviy kimyoviy dasturlardan foydalanib aromatik uglevodorodlarning tuzilishi va xosslarini organish //Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit. – 2024. – С. 1033-1035.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Ismoilov Umidjon Sobirjanovich
Andijon davlat universiteti
Umumiy fizika kafedrasi katta o‘qituvchisi

FIZIKA LABORATORIYA MASHG‘ULOTLARINI KOMPETENSIYAGA YO‘NALTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada fizika laboratoriya mashg‘ulotlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etishning nazariy asoslari yoritilgan. Kompetensiyaga yo‘naltirilgan laboratoriya mashg‘ulotlarining ahamiyati, ularni tashkil etish metodikasi va natijalari tahlil qilinadi. Shuningdek, ta’lim jarayonida bu uslubning samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar beriladi.*

Kalit so‘zlar: *kompetensiyaviy yondashuv, fizika laboratoriya mashg‘ulotlari, ta’lim metodikasi, amaliy tajribalar, zamonaviy texnologiyalar.*

Исмоилов Умиджон Собирджанович
Андижанский государственный университет
Старший преподаватель кафедры общей физики

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ КОМПЕТЕНТНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННОГО ПОДХОДА В ЛАБОРАТОРНЫХ ЗАНЯТИЯХ ПО ФИЗИКЕ

Аннотация: *В данной статье освещены теоретические основы организации лабораторных занятий по физике на основе компетентностного подхода. Анализируются значение компетентностно-ориентированных лабораторных занятий, методика их организации и результаты. Также даются рекомендации по повышению эффективности данного метода в образовательном процессе.*

Ключевые слова: *компетентностный подход, лабораторные занятия по физике, методика обучения, практические эксперименты, современные технологии.*

Ismoilov Umidjon Sobirjanovich
Andijan State University
Senior Lecturer of the Department of General Physics

THEORETICAL FOUNDATIONS OF COMPETENCY-BASED APPROACH IN PHYSICS LABORATORY SESSIONS

Abstract: This article highlights the theoretical foundations of organizing physics laboratory classes based on a competency-based approach. The significance of competency-oriented laboratory classes, their organization methodology, and results are analyzed. Additionally, recommendations are provided to enhance the effectiveness of this method in the educational process.

Keywords: competency-based approach, physics laboratory classes, teaching methodology, practical experiments, modern technologies.

Kirish

Fizika laboratoriya mashg‘ulotlari ta’lim jarayonida muhim o‘rin tutadi va o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog‘lashga xizmat qiladi. So‘nggi yillarda kompetensiyaviy yondashuvning ta’lim tizimida keng joriy etilishi laboratoriya mashg‘ulotlarini yanada samarali tashkil etish zaruratini tug‘dirdi. Bu borada xorijiy va mahalliy tadqiqotlarda laboratoriya ishlarini kompetensiyaga yo‘naltirishga oid turli metodik va nazariy jihatlar o‘rganilgan.

Adabiyotlar tahlili: Masalan, J. Bruner fikriga ko‘ra, "Tajribalar orqali o‘rganish inson tafakkurini rivojlantirishning eng samarali usullaridan biridir". D. Kolb esa laboratoriya mashg‘ulotlarining ahamiyatini shunday izohlaydi: "Amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilar nafaqat nazariy bilimlarini mustahkamlaydi, balki ularni real hayot sharoitida qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladi".[2]

J. Piaget esa laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘quvchilarning kognitiv rivojlanishi bilan bog‘liq deb hisoblab, "Tajribaviy o‘rganish jarayoni bola tafakkurining mustaqil rivojlanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi" deb ta’kidlaydi.[1] A. To‘raqulov laboratoriya mashg‘ulotlari bo‘yicha shunday fikr bildiradi: "Fizik tajribalar o‘quvchilarning ilmiy tafakkurini shakllantirish va mustaqil tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishning eng samarali vositasidir". N. Xolmatova[46] esa o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishda eksperimentlarning ahamiyatini ta’kidlab, "Laboratoriya ishlarida muammoli yondashuv o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi" deb qayd etadi.[7,8]

Tadqiqot metodologiyasi: Mavzuning nazariyasi va metodikasi: Fizika laboratoriya mashg‘ulotlarini kompetensiyaga yo‘naltirish jarayoni ta’limning zamonaviy tamoyillariga asoslanib, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Konstruktivistik ta’lim nazariyasiga ko‘ra, o‘quvchilarning bilimlari ularning mustaqil tajribalari orqali shakllanadi.

J. Piaget va L. Vygotskiy ta’kidlaganidek, inson bilimlarni faqatgina tayyor shaklda qabul qilmay, balki o‘z tajribasi asosida yangidan quradi. Bu esa laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirishga yo‘naltirishni talab etadi. Eksperimentlar orqali o‘quvchilar o‘z kuzatuvlari natijasida ilmiy qonuniyatlarni tushunishga harakat qiladi va o‘z fikrlarini asoslab bera oladi.[1,3]

Shuningdek, faol ta’lim metodlari laboratoriya ishlarini bajarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Eksperiment, muammoli ta’lim va loyiha metodlarini qo‘llash orqali o‘quvchilarning ta’lim jarayonida faol ishtirok etishiga erishiladi. Laboratoriya mashg‘ulotlarida faqat nazariy bilimlarni emas, balki amaliy bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish ham ustuvor ahamiyatga ega. O‘quvchilar mustaqil ravishda tajribalar o‘tkazib, natijalarini tahlil qiladi va ilmiy xulosalar chiqaradi. Bu esa ularning ilmiy izlanish ko‘nikmalarini rivojlantiradi va ilmiy tafakkurini shakllantiradi.

Tahlillar va natijalar: Fizika laboratoriya mashg‘ulotlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etishda integrativ yondashuv ham muhim o‘rin tutadi. Fizika fanining nazariy bilimlarini boshqa fanlar, jumladan, matematika, informatika va muhandislik bilan bog‘lash orqali o‘quvchilar mavzularni chuqurroq tushunish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Masalan, fizika laboratoriya ishlarida matematik modellash usullaridan foydalanish, informatika vositalari yordamida natijalarni tahlil qilish yoki muhandislik masalalarini hal qilish orqali o‘quvchilar o‘z bilimlarini real hayot sharoitlariga tatbiq qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Integrativ yondashuv orqali o‘quvchilar nafaqat fizika qonuniyatlarini o‘rganadi, balki ularning kundalik hayotda va texnologik jarayonlarda qo‘llanilishi bilan ham tanishadi. Shu tariqa, laboratoriya mashg‘ulotlari nafaqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirish, balki ularni amalda qo‘llashga yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.[47]

Laboratoriya mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish uchun quyidagi metodik bosqichlar tavsiya etiladi. Dars oldi tayyorgarlik bosqichida laboratoriya ishining maqsadi, vazifalari va dolzarbligi tushuntiriladi. Bu bosqich o‘quvchilarning mashg‘ulotga qiziqishini oshirish va ularga asosiy yo‘nalishlarni tushuntirish uchun muhimdir. Keyingi bosqich – nazariy tushuntirish bosqichi bo‘lib, bunda laboratoriya ishida foydalaniladigan asosiy qonunlar, formulalar va nazariy bilimlar beriladi. O‘quvchilar eksperimentni bajarishdan oldin kerakli bilimlarga ega bo‘lishlari shart.[9]


Amaliy bajarish bosqichida esa o‘quvchilar laboratoriya ishini bajarayotganda faol ishtirok etishadi. Bu jarayonda tajribalar o‘tkazilib, natijalar qayd etiladi. O‘quvchilarning eksperiment jarayonida faol bo‘lishi ularning masalaga yanada chuqurroq yondashishiga yordam beradi. Keyingi bosqich – natijalarni tahlil qilish bosqichi bo‘lib, bu yerda olingan natijalar umumlashtiriladi, hisob-kitoblar amalga oshiriladi va xulosa chiqariladi. O‘quvchilar eksperiment natijalarini real fizik qonunlar bilan taqqoslab, o‘z tushunchalarini mustahkamlash imkoniga ega bo‘ladilar.

Oxirgi refleksiya bosqichida esa o‘quvchilar mustaqil fikrlashni rivojlantiradilar va bilimlarini chuqurlashtiradilar. Ular o‘z tajribalarini baholab, natijalarga tanqidiy yondashadi hamda o‘zlarini rivojlantirish uchun qanday qadamlar qo‘yish kerakligini anglab yetadilar. Shu tarzda, laboratoriya mashg‘ulotlari nafaqat eksperimental tajriba orttirishga, balki

[46] Sh. Karshiboev. "Fizika laboratoriya mashg‘ulotlarining metodik asoslari." Toshkent: O‘zFA nashriyoti. https://www.researchgate.net/publication/378190740_Fizika_fanidan_laboratoriya_mashg'ulotlarini_zamonaviy_tashkil_etish_metodikasi. A. Q. Xolmatovich. “Kompetensiyaviy yondoshuv asosida fizikadan sinfdan tashqari ishlarni o‘tkazishning o‘ziga xos xususiyatlari” https://interscience.uz/index.php/home/article/view/1338/927. A. A. Axmedov "Fizika fanidan zamonaviy laboratoriya mashg‘ulotlarini bajarishda innovatsion texnologiya” https://www.researchgate.net/publication/369599590_FIZIKA_FANIDAN_ZAMONAVIY_LABORATORIYA_MASHGULOTLARINI_BAJARISHDA_INNOVATSION_TEXNOLOGIYA

[47] A. A. Axmedov "Fizika fanidan zamonaviy laboratoriya mashg‘ulotlarini bajarishda innovatsion texnologiya” https://www.researchgate.net/publication/369599590_FIZIKA_FANIDAN_ZAMONAVIY_LABORATORIYA_MASHGULOTLARINI_BAJARISHDA_INNOVATSION_TEXNOLOGIYA. Ёркинбек Маматохунов. “Методика организации самостоятельной учебной деятельности школьников по физике во внеурочных занятиях” Universum: психология и образование N4 (82) Страницы 10. Ёркинбек Маматохунов. “Методика организации самостоятельной учебной деятельности школьников по физике во внеурочных занятиях” Universum: психология и образование N4 (82) Страницы 10-12

o‘quvchilarning ilmiy tafakkurini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.[48]



1-diagramma. Kompetensiyaga yo‘naltirilgan fizika laboratoriya mashg'ulotlarining afzalliklari.

Umumiy fizika laboratoriya ishlari:

Laboratoriya ishi: “Nyuton ikkinchi qonunini tekshirish”

Nazariy qismi: Nyutonning ikkinchi qonuniga ko‘ra, jismlarga ta’sir etuvchi kuch va ularning tezlanishi orasidagi bog‘liqlik quyidagi formula bilan ifodalanadi: bu yerga formula yoziladi

$$a = \frac{F}{m}$$

bu yerda:

F – jismga ta’sir etuvchi kuch (N), m – jism massasi (kg), a – tezlanish (m/s²).

Metodik qismi:

1.Dastlabki tayyorgarlik – laboratoriya jihozlari (dinamometr, yo‘l silliq panjarasi, yuklar, elektron vaqt o‘lchagich) bilan tanishish.

2.Tajriba jarayoni – turli massali jismlarga turli kuchlar ta’sir ettirib, ularning tezlanishini aniqlash.

3.O‘lchov natijalari – har xil kuchlar ostida jismlarning tezlanishini o‘lchash va natijalarni jadvalga kiritish.

4.Natijalarni tahlil qilish – kuzatuv va o‘lchovlar asosida va ning proporsionalligini aniqlash.

5.Xulosa chiqarish – Nyutonning ikkinchi qonuni amalda tasdiqlanayotganligini isbotlash va olingan xatoliklarni tahlil qilish.

Ushbu metodika laboratoriya mashg‘ulotlarining nazariy va amaliy jihatlarini uyg‘unlashtirish orqali o‘quvchilarning fizik hodisalarni chuqurroq tushunishiga yordam beradi.

1-jadval. Laboratoriya mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish uchun quyidagi metodik bosqichlar tavsiya etiladi:

Bosqichlar	Tavsif
Dars oldi tayyorgarlik bosqichi	Laboratoriya ishining maqsadi, vazifalari va dolzarbligini tushuntirish.
Nazariy tushuntirish bosqichi	Laboratoriya ishida foydalaniladigan qonun va formulalar bilan tanishtirish.
Amaliy bajarish bosqichi	Tajriba jarayonida o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash.
Natijalarni tahlil qilish bosqichi	Olingan natijalarni umumlashtirish va xulosa chiqarish.
Refleksiya bosqichi	O‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish va bilimlarini mustahkamlash.

Shu tarzda, laboratoriya mashg‘ulotlari nafaqat eksperimental tajriba orttirishga, balki o‘quvchilarning ilmiy tafakkurini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Kompetensiyaga yo‘naltirilgan laboratoriya mashg‘ulotlarining joriy etilishi quyidagi natijalarga olib keladi: O‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va tahliliy qobiliyatlari rivojlanadi. Amaliy ko‘nikmalar shakllanib, nazariy bilimlar hayotiy vaziyatlarga tatbiq qilinadi. O‘quvchilarning ijodiy tafakkuri rivojlanib, muammolarni mustaqil hal qilishga bo‘lgan qobiliyati ortadi. Jamoaviy ish va muloqot ko‘nikmalari oshib, hamkorlik muhitida ishlash qobiliyati rivojlanadi.

Xulosa: Fizika laboratoriya mashg‘ulotlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli, quyidagi tavsiyalar beriladi: Laboratoriya mashg‘ulotlarini tayyorlashda zamonaviy texnologiyalar va virtual simulyatsiyalar dan foydalanish. Eksperimentlarni o‘tkazishda muammoli ta’lim, loyiha usuli va tahlilga asoslangan yondashuv kabi metodlarni qo‘llash. O‘qituvchilarni kompetensiyaviy yondashuv asosida laboratoriya mashg‘ulotlarini olib borish bo‘yicha malakasini oshirish. O‘quvchilarning laboratoriya mashg‘ulotlarida mustaqil izlanish va tahlil qilish faoliyatini qo‘llab-quvvatlash. O‘quv dasturlariga real hayotga yaqin bo‘lgan eksperimentlar ni kiritish orqali o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish. Mazkur yondashuv fizika ta’limining sifatini oshirishga, o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishga va ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishga xizmat qiladi.

[48] Пиаже, Жан, Наука о воспитании и психологии ребенка Издатель Нью-Йорк, Орион Пресс 1970 ISBN-код 0670621722 . Kolb, D. A. "Experiential Выготский, Л. Разум в обществе: развитие высших психических процессов, Издательство Гарвардского университета, Кембридж, Массачусетс, 1978, 56-58.

Foydalangan adabiyotlar royxati

1. Пиаже, Жан, Наука о воспитании и психологии ребенка Издатель Нью-Йорк, Орион Пресс 1970 ISBN-код 0670621722

2. Kolb, D. A. "Experiential Выготский, Л. Разум в обществе: развитие высших психических процессов, Издательство Гарвардского университета, Кембридж, Массачусетс, 1978, 56-58.

3. Learning: Experience as the Source of Learning and Development." Prentice Hall. URL: http://www.learningfromexperience.com/images/uploads/process-of-experiential-learning.pdf (31.05.2006)

4. Bruner, J. "Toward a Theory of Instruction." Harvard University Press. https://books.google.co.uz/books?id=28bmEAAAQBAJ&printsec=frontcover&hl=ru&source=gbs_atb#v=onepage&q&f=false

5. O‘zbekistonda ta’limni rivojlantirish strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim Vazirligi nashri. https://lex.uz/ru/docs/-4545884

6. Sh. Karshiboev. "Fizika laboratoriya mashg‘ulotlarining metodik asoslari." Toshkent: O‘zFA nashriyoti. https://www.researchgate.net/publication/378190740_Fizika_fanidan_laboratoriya_mashg'ulotlarini_zamonaviy_tashkil_etish_metodikasi

7. A. Q. Xolmatovich. “Kompetensiyaviy yondoshuv asosida fizikadan sinfdan tashqari ishlarni o‘tkazishning o‘ziga xos xususiyatlari” https://interscience.uz/index.php/home/article/view/1338/927

8. A. A. Axmedov "Fizika fanidan zamonaviy laboratoriya mashg‘ulotlarini bajarishda innovatsion texnologiya” https://www.researchgate.net/publication/369599590_FIZIKA_FANIDAN_ZAMONAVIY_LABORATORIYA_MASHGULOTLARINI_BAJARISHDA_INNOVATSION_TEXNOLOGIYA

9. Ёркинбек Маматохунов. “Методика организации самостоятельной учебной деятельности школьников по физике во внеурочных занятиях” Universum: психология и образование N4 (82) Страницы 10-12

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Isaev Xamid
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoati instituti f-m.f.n., dotsent

TO‘QIMACHILIK SANOATI KORXONALARI FAOLIYATIDA MUHANDISLIK FIZIKASINING O‘RNI

Annotatsiya:*Ushbu maqolada to‘qimachilik sanoati korxonalari faoliyatida muhandislik fizikasining tutgan o‘rni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Jumladan, to‘qimachilik jarayonlarida harorat, namlik va ishqalanish kabi fizik omillarning ip yigirish, mato to‘qish, bo‘yash va pardozlash bosqichlariga ta’siri o‘rganiladi. Maqolada issiqlik almashinuvi, massa almashinuvi hamda materiallarning jismoniy xususiyatlarini nazorat qilish asosida energiya tejamkorligiga erishish va mahsulot sifatini oshirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari to‘qimachilik sanoatida texnologik jarayonlarni optimallashtirish hamda ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish borasida muhim uslubiy tavsiyalar beradi.*

Kalit so‘zlar:*to‘qimachilik sanoati, muhandislik fizikasi, issiqlik almashinuvi, ishqalanish, energiya tejamkorligi, materiallar fizikasi, texnologik jarayonlar*

Isaev Khamid
Tashkent Institute of Textile and Light Industry, PhD, Associate Professor

THE ROLE OF ENGINEERING PHYSICS IN THE ACTIVITIES OF TEXTILE INDUSTRY ENTERPRISES

Аннотация: *В данной статье научно анализируется роль инженерной физики в деятельности предприятий текстильной промышленности. В частности, рассмотрено влияние таких физических факторов, как температура, влажность и трение, на процессы прядения, ткачества, окрашивания и отделки тканей. Освещены возможности достижения энергосбережения и повышения качества продукции на основе контроля теплопередачи, массообмена и физических свойств материалов. Результаты исследования дают важные методические рекомендации по оптимизации технологических процессов и снижению себестоимости производства в текстильной промышленности.*

Ключевые слова:*текстильная промышленность, инженерная физика, теплопередача, трение, энергосбережение, физика материалов, технологические процессы.*

Isaev Khamid
Tashkent Institute of Textile and Light Industry, PhD, Associate Professor

THE ROLE OF ENGINEERING PHYSICS IN THE ACTIVITIES OF TEXTILE INDUSTRY ENTERPRISES

Annotation:*This article provides a scientific analysis of the role of engineering physics in the operation of textile industry enterprises. In particular, it examines how physical factors such as temperature, humidity, and friction affect various stages of textile production, including spinning, weaving, dyeing, and finishing. The study highlights opportunities to achieve energy efficiency and improve product quality through the control of heat transfer, mass transfer, and the physical properties of materials. The research findings offer valuable methodological recommendations for optimizing technological processes and reducing production costs in the textile industry.*

Keywords: *textile industry, engineering physics, heat transfer, friction, energy efficiency, material physics, technological processes.*

Kirish.

To‘qimachilik sanoati bugungi kunda iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri hisoblanib, yirik ishlab chiqarish majmualari hamda eksport salohiyatiga ega korxonalar bilan ifodalanadi. Mamlakatlar iqtisodiyotida to‘qimachilik korxonalarining hissasi ortib borishi natijasida mazkur sohada ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, mahsulot tannarxini kamaytirish va sifatini oshirish ustuvor vazifa bo‘lib bormoqda. Bunda muhandislik fizikasining nazariy va amaliy asoslari muhim o‘rin tutadi, chunki to‘qimachilik jarayonlarida ishqalanish, issiqlik almashinuvi, namlikni boshqarish, elektr-statistik hodisalar kabi omillar jiddiy ta’sirga ega bo‘ladi. Shu boisdan tekstil sanoati korxonalarida muhandislik fizikasini chuqur tushunish, texnologik jarayonlarni optimallashtirish, energiya tejamkorligini

ta’minlash va mahsulot sifatini oshirish bilan bog‘liq strategiyalarni ishlab chiqishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur maqolada muhandislik fizikasining to‘qimachilik sanoati korxonalari faoliyatidagi o‘rni tahlil qilinadi va ilmiy-amaliy yondashuvlar asosida fizika qonunlaridan foydalanish orqali texnologik jarayonlarni takomillashtirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, muhandislik fizikasining to‘qimachilik materiallarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va tayyor mahsulotni sifati hamda samaradorligini oshirish borasidagi ahamiyati ham muhokama etiladi. Maqolada keltirilgan metodlar, natijalar va muhokamalar soha mutaxassislari va tadqiqotchilar uchun yangi g‘oyalar berish, mavjud texnologiyalarning muammolarini aniqlash va innovatsion yechimlar ishlab chiqishga ko‘maklashadi. Maqolaning maqsadi muhandislik fizikasiga asoslangan yondashuvlar yordamida to‘qimachilik sanoatidagi korxonalarda keng qo‘llanishi mumkin bo‘lgan ilmiy xulosalar berishdan iborat.

Metod (Methods). Ushbu tadqiqotda muhandislik fizikasining asosiy qonun va tushunchalari, jumladan issiqlik almashinuvi, massa almashinuvi, ishqalanish hamda turli jismoniy-texnik xususiyatlar tahliliga e’tibor qaratildi. Tadqiqot izlanishlari davomida to‘qimachilik korxonalarida qo‘llaniladigan texnik uskunalarning energiya sarfi, mahsulot sifatini baholashda qo‘llaniladigan standartlar, harorat, namlik va bosim kabi parametrlarning material xususiyatlariga ta’siri ilmiy-uslubiy yondashuvlar asosida o‘rganildi. Metodik jihatdan eksperimental tahlillar va simulyatsiyalar qo‘llanildi. Eksperimental tahlillar korxonalarda ishlab chiqarish liniyalarida olib borilib, asosiy jarayonlar (ip yigirish, mato to‘qish, bo‘yash va pardozlash) bosqichlarida harorat va namlikning material sifatiga bo‘lgan ta’siri qayd etildi. Simulyatsiyalar esa kompyuter dasturlari yordamida o‘tkazilib, tekstil xomashyosining namlik tutish darajasi, termal xususiyatlari hamda ishqalanish ko‘rsatkichlari kabilar modeling qilindi.

Shu bilan birga, to‘qimachilik materiallarining o‘ziga xos fizik xususiyatlarini (yigirilish, uzunlikka cho‘zilish, mustahkamlik kabi) o‘lchashda laboratoriya sharoitlaridan foydalanildi. Har bir bosqichda eksperimental va nazariy ma’lumotlar solishtirilib, jarayonni optimallashtirish bo‘yicha xulosa chiqarildi. Tadqiqot materiallari sifatida mato, ip va tolalarning turli xillari tanlab olindi hamda ularning har biri uchun issiqlik o‘tkazuvchanligi, nam shimish darajasi, issiqlik sig‘imi va ishqalanish koeffitsientlari o‘lchandi. Ma’lumotlar rasmiy statistika va korxonalardagi ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari bilan solishtirib tahlil qilindi.

Natijalar (Results). Tadqiqot natijalari to‘qimachilik sanoati korxonalarida muhandislik fizikasini chuqur o‘rganish bir qator muhim afzalliklar berishini ko‘rsatdi. Avvalo, harorat va namlik jarayonlarini boshqarish moddiy resurslardan samarali foydalanishga olib kelishi aniqlandi. Ekologik talablarga javob beradigan, energiya sarfini kamaytiradigan va material sifatini barqarorlashtiradigan qurilmalar yaratish imkoniyati sezilarli ravishda oshdi. Tadqiqot jarayonida ip yigirish bosqichida ma’lum harorat oralig‘ida ishlash ipning pishiq va mustahkam bo‘lishiga ta’sir qilishini kuzatish mumkin bo‘ldi. Namlikning ortishi esa tolalarning elastik xususiyatlarini oshirgan holda jarayonning tezroq kechishiga yordam bergani qayd etildi. Shu bilan birga, aynan ortiqcha namlik ipning bir-biriga yopishishiga va ishlab chiqarish jarayonida uzilishlar kelib chiqishiga sabab bo‘ladigan holatlar ham kuzatildi.

Bundan tashqari, issiqlik almashinuvi jarayonlarining to‘g‘ri boshqarilishi bo‘yash hamda pardozlash bosqichida matoning yagona sifatga ega bo‘lishiga erishish imkonini yaratdi. Termal ta’sir tufayli bo‘yoq matoning tolalari orasiga tez va bir tekis kirib borishi, rangning mustahkam saqlanishida alohida rol o‘ynadi. Issiqlikni o‘tkazish xususiyatlari nisbatan yuqori bo‘lgan tola turlarida matoning yuvish va dazmollash jarayonlarida deformatsiyaga kam uchrashi aniqlandi. Shu bilan bir qatorda, ishqalanish kuchining kamaytirilishi ishlab chiqarish liniyalarida uskunalarning ishqalanish tufayli tez ishdan chiqishini oldini olishda muhim omil bo‘ldi. Ishqalanish va statik elektrning oldini olish bo‘yicha amaliy choralar qo‘llanilishi qo‘shimcha texnik xizmat xarajatlarini kamaytirishi ta’kidlandi.

Nazariy va eksperimental simulyatsiyalar natijasida tola tarkibidagi kapillyar namlikning tarqalishi matoning nafas oluvchanlik xususiyatlariga bevosita ta’sir etishi aniqlandi. Yuqori darajadagi nafas oluvchanlik inson terisiga qulay bo‘lib, tayyor kiyim-kechak sifatini oshiradi. Shuningdek, nafas oluvchanligi yaxshi bo‘lgan matolarni ishlab chiqarish jarayonida tola va ip sifatini o‘rganishda ishqalanish kuchini pasaytirish, optimal bosimni saqlash va termal sharoitni me’yoriy darajada tutish to‘g‘risida tavsiyalar ishlab chiqildi.

Muhokama (Discussion). Tadqiqotda olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, muhandislik fizikasini chuqur o‘rganish va uning qonuniyatlarini texnologik jarayonlarga joriy qilish to‘qimachilik sanoatida bir qancha innovatsion yechimlar yaratish imkonini beradi. To‘qimachilik korxonalarining asosiy maqsadi bozorda raqobatbardosh, yuqori sifatli va arzon mahsulot ishlab chiqarish ekanligini inobatga olsak, muhandislik fizikasidan foydalanish ishlab chiqarishning turli bosqichlarida sarflanadigan energiya miqdorini kamaytirish, ajratiladigan chiqindilarni cheklash hamda materiallarning jismoniy xususiyatlarini takomillashtirish orqali amaliy samara berishi mumkin. Misol uchun, issiqlik almashinuvi jarayonini chuqur nazorat qilish bo‘yoqning mato tolalariga to‘g‘ri singishini ta’minlab, rangning chidamliligini oshiradi va kamaytirilgan resurs sarfi tufayli umumiy ishlab chiqarish tannarxini pasaytiradi.

Boshqa tomondan, namlikni boshqarish bo‘yicha ilg‘or yechimlar tolalarning o‘zaro yopishib qolishi, statik elektr vujudga kelishi va ortiqcha ishqalanish bo‘lishi kabi salbiy ta’sirlarni kamaytirishi mumkin. To‘qimachilik liniyalarining tezligi va mahsuldorligini oshirish maqsadida tola xususiyatlarini puxta o‘rganish zarur, chunki ba’zi tolalar harorat va namlikning o‘zgarishiga juda sezgir bo‘lib, ularning sifati buzilishi yoki ishlab chiqarish jarayonida uzilishlar kelib chiqishi ehtimoli ortadi. Shunday uzilishlarning oldini olishda muhandislik fizikasining termodinamika va materiallar fizikasi bo‘yicha qonun-qoidalariga asoslangan ishlanmalar muhim rol o‘ynaydi.

Alohida ta’kidlash lozimki, korxonalardagi uskunalarning energiya sarfini optimallashtirish, eskirish darajasini kamaytirish hamda uzoq muddatli foydalanish uchun moslashuvchanligini oshirish maqsadida ishqalanish kuchini nazorat qilish juda muhimdir. Ishqalanish kuchlari yetarli darajada kamaytirilmasa, mexanizmlarning ishdan chiqish ehtimoli ortadi va bu iqtisodiy zararga sabab bo‘ladi. Texnologik jarayonlar davomida statik elektrning vujudga kelishi ham gigiena hamda xavfsizlik nuqtayi nazaridan e’tibordan chetda qolmasligi kerak. Namlik va haroratni tartibga solish hamda material tanlash bo‘yicha puxta o‘ylangan qarorlar statik elektr hosil bo‘lishini kamaytirish va shu orqali ishlab chiqarish muhitini xavfsizroq qilishga xizmat qiladi.

Muhokama qilingan natijalar texnologik jarayonlar samaradorligini oshirish bo‘yicha ilg‘or strategiyalar ishlab chiqish imkonini ham ochib beradi. Inson omili va raqamli texnologiyalarning uyg‘unlashuvi to‘qimachilik sanoatida tezkor qarorlar qabul qilish, xatolar sonini kamaytirish hamda resurslardan unumli foydalanish uchun xizmat qiladi. Bunda muhandislik fizikasining qonunlari asosida tuzilgan matematik modellardan foydalanish muhim, chunki bunday moddellardan texnik jarayonlarni oldindan bashorat qilish, texnologik parametrlardagi o‘zgarishlarga sezgirlikni baholash va shu orqali optimal qarorlarni shakllantirish mumkin.

Korxonalar darajasida muhandislik fizikasini o‘rganish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari kuchaytirilishi zarur, chunki bu nafaqat ishlab chiqarishning davomiy ravishda rivojlanishini ta’minlash, balki hal qilinishi lozim bo‘lgan turli xil muammolarga ham yechim topish imkonini beradi. To‘qimachilik sanoatida energiya tejamkorligi, chiqindilarni qayta ishlash, suv va kimyoviy moddalar sarfini kamaytirish kabi ekologik jihatlarga qaratilgan diqqat-e’tibor jamiyat tomonidan ham tobora kuchayib borayotgani aynan muhandislik fizikasining ilmiy yutuqlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Shu sababli tarmoqdagi innovatsion rivojlanish ko‘p jihatdan fizika qonunlarini chuqur o‘zlashtirish va samarali joriy etishga bog‘liq.

Ushbu keltirilgan dalillar va xulosalar nafaqat laboratoriya yoki tajriba korxonalarida, balki yirik ishlab chiqarish klasterlarida ham qo‘llanilishi mumkin. Natijada to‘qimachilik korxonalarining uzluksiz va yuqori samarali ishlashi, yangi turdagi mahsulotlarni yaratish, xalqaro bozorlar talablariga javob berish va iqtisodiy barqarorlikka erishish imkoniyati kuchayadi. Muhokama qilingan jarayonlarni yanada chuqur o‘rganish hamda korxonalarda raqamli texnologiyalar bilan integratsiya qilish kelajakda to‘qimachilik sanoatini yanada yuqori bosqichga olib chiqishi mumkin.

Xulosa

Tadqiqotning asosiy xulosasi shuki, to‘qimachilik sanoati korxonalarida muhandislik fizikasining qonun-qoidalariga asoslangan yondashuvlar nafaqat ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, balki energiya, xomashyo va vaqt sarfi kabi resurslar tejamkorligini, shuningdek, yakuniy mahsulot sifatini oshirishni ta’minlaydi. Kirish bosqichida ta’kidlanganidek, to‘qimachilik sanoati iqtisodiyotning strategik tarmog‘i sifatida rivojlanishda davom etadi va ushbu rivojlanishning poydevorini ilmiy asoslangan texnologik innovatsiyalar tashkil etadi. Maqolada keltirilgan ish usullari, natijalar va muhokamalar pirovard natijada korxonalardagi ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish, to‘qimachilik texnologiyalarini takomillashtirish va raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi. Muhandislik fizikasidan foydalanish orqali tekstil ishlab chiqarishning turli bosqichlarida yuzaga keluvchi muammolarni hal qilish, xatarlarni kamaytirish va mustahkam taraqqiyotga erishish mumkin bo‘ladi. Shunday qilib, muhandislik fizikasini to‘qimachilik sohasida izchil qo‘llash kelajakda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda hal qiluvchi omil bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Рахмонов, Х. Ф. To‘қимачилик sanoатида муҳандислик физикаси асослари / Х. Ф. Рахмонов. – Т.: Фан, 2018. – 256 б.

2. Беляев, Н. М. Теплопередача и массообмен в текстильной промышленности / Н. М. Беляев. – М.: Легпромиздат, 2019. – 312 с.

3. Ахмедов, А. Ш. Текстил маҳсулотлари технологиясида айланувчи ускуналарда ишқаланишни камайтириш усуллари / А. Ш. Ахмедов, З. Х. Исмоилова // Тошкент Техника университети илмий журнал. – 2020. – №4. – Б. 45–52.

4. ISO 105-C06:2010. Textiles – Tests for colour fastness – Part C06: Colour fastness to domestic and commercial laundering. – International Organization for Standardization, 2010.

5. ГОСТ 3813-72. Ткани хлопчатобумажные. Методы испытаний. – Введ. 1972-01-01. – М.: Стандартинформ, 1972. – 14 с.
6. Shubin, V. A. Engineering Physics and Its Applications in the Textile Industry / V. A. Shubin, G. N. Sokolov. – St. Petersburg: Polytechnics, 2017. – 284 p.
7. Kim, J., Park, S. The Effects of Heat Transfer in Textile Dyeing Processes / J. Kim, S. Park // Textile Research Journal. – 2019. – Vol. 89(3). – P. 245–256.
8. Xotell, A. Fundamentals of Engineering Physics for Textile Applications / A. Xotell. – Oxford: Academic Press, 2020. – 350 p.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Rashidova Nodira Xabibullayevna
Namangan davlat universiteti
fakultetlararo chet tillar kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: kehl2006@mail.ru

TILLAR TA’LIMSHUNOSLIGI (LINGVODIDAKTIKA) TARIXIDA LEKSIKANI O‘RGATISHNING RETROSPEKTIV SHARHI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada talabalarning ingliz tilida leksik kompetensiyasini rivojlantiri shning lingvodidaktik muammolari Yicha fikr va molohazalar haqida fikr yuritilgan. Shunindek, mavzuga doir turli olimlar flkri ham o’:ganib o’tilgan.*

Kalit so‘zlar : *leksika, leksik kompetensiya, kompetensiya, lug’aviy birliklar, ingliz tili leksikasi.*

Рашидова Нодира Хабибуллаевна
Наманганский государственный университет, преподаватель кафедры методики преподавания английского языка

РЕТРОСПЕКТИВНЫЙ ОБЗОР ПРЕПОДАВАНИЯ ЛЕКСИКИ В ИСТОРИИ ЯЗЫКОВОГО ОБРАЗОВАНИЯ (ЛИНГВОДИДАКТИКА)

Аннотация: *Понятно, что овладение языком происходит при обобщении сознательных и непроизвольных действий, однако «активация» механизмов, обеспечивающих эти действия, зависит от условий и возраста, в которых начинается изучение языка. Например, учащиеся изучают языковую единицу или события речевой единицы как два отдельных учебных материала. В данной статье исследуются и обсуждаются взгляды на ретроспективный обзор преподавания лексики в истории языкового образования.*

Ключевые слова: *лексика, лексическая компетентность, компетентность, лексические единицы, лексика английского языка.*

Rashidova Nodira Khabibullaevna
Namangan State University, lecturer at the Department of English Language Teaching Methods

A RETROSPECTIVE REVIEW OF VOCABULARY TEACHING IN THE HISTORY OF LANGUAGE EDUCATION (LINGUODIDACTICS).

Abstract: *In this article, the linguodidactic problems of developing students’ lexical competence in English are discussed. Likewise, the opinions of various scholars on the subject have been studied.*

Key words: *vocabulary, lexical competence, competence, lexical units, English lexicon.*

Kirish

Kasbga yo‘naltirilgan chet tilni egallash, ya’ni ilmiy matnlarni o‘qish va muayyan vaziyatlarda muloqot qilish kamida 2000-3000 so‘z boyligiga ega bo‘lishni anglatadi, bu esa ko‘p foydalaniladigan so‘zlarning taxminan 80 foizini tashkil qiladi. Tadqiqotlarda “asosiy leksika” ikki turga bo‘linadi: 1.Asosiy leksika, ya’ni intensivlik va formallik xususiyati hamda darajalari ko‘rsatilmagan neytral leksika; 2.Ma’lum bir sohani ifodalovchi asosiy tematik leksika.

P.Neyshon akademik matnlarda uchrashi mumkin bo‘lgan quyidagi turdagi leksik toifalar ro‘yxatini taqdim etadi:

1. Yuqori chastotali so‘zlar, jumladan, ko‘makchilar (masalan, predloglar: in, for, on; artikllar: a/an, the); 2.Mustaqil ma’noga ega so‘zlar (ot, fe’l, sifat va ravish). Ushbu so‘zlar odatda matndagi ko‘p uchraydigan so‘zlarning deyarli 80% ni tashkil qiladi. Ushbu yuqori chastotali so‘zlarning standart ro‘yxati inglizcha so‘zlarning umumiy ro‘yxatidir. Bu miqdor o‘rganuvchilar yoshidan qat’i nazar, hozirgi kunda ham eng aktiv so‘zlar ro‘yxati hisoblanadi. O‘rtacha miqdorda 2000 ta so‘z turkumi ingliz tili o‘rganuvchilari uchun yuqori chastotali so‘zlar chegarasi hisoblanadi.

2. Akademik (subtexnikaviy) so‘zlar fan sohalaridan qat’i nazar, ilmiy matnlarda tez-tez uchraydigan, ammo

akademik bo‘lmagan materiallarda keng tarqalmagan so‘zlar. Masalan, importance, phase, factor, agent, method, function, significant. Ular akademik matnlardagi sinonim va antonim so‘zlarning taxminan 9% ni tashkil qiladi. Mazkur so‘zlarning nisbatan mukammal ishlangan ro‘yxati 570 ta so‘z turkumidan iborat bo‘lib, ular turli fanlar bo‘yicha keng ko‘lamli akademik matnlarda uchraydi [1,3].

3. Maxsus (ixtisoslashgan) leksika deb ham ataladigan texnikaga oid so‘zlar odatda ma’lum bir fan sohasida ishlatiladi va ular turli mavzularda farqlanadi. Bu turkumda akademik matnlardagi so‘zlarning taxminan 5% ini qamrab oladi. Ko‘p sonli maxsus lug‘atni o‘rgatish ixtisoslashtirilgan mavzuni o‘rganish kontekstida amalga oshiriladi.

4. Past chastotali so‘zlar ingliz tilini o‘rganish davomida o‘rtacha chastotada uchraydigan so‘zlardan tortib, inglizzabonlar tilida kam ishlatiladigan so‘zlarning eng katta turkumini tashkil etadi.

Tibbiyot yo‘nalishi talabalari ushbu toifalarning barchasini, xususan, yuqori chastotali so‘zlar, akademik so‘zlar va ixtisoslikka oid so‘zlarni bilishlari kerak va ular leksikaning muhimligini, xususan, tibbiyot sohasida qo‘llaniladigan maxsus so‘zlarni tushunishlari kerak. Mutaxassislikka oid leksikani o‘rgatish va o‘rganish talabalarni so‘zlarni tushunish va eslab qolishlariga yordam beradigan strategiyalardan foydalanishga o‘rgatishga ham mo‘ljallangan bo‘lishi kerak. Ushbu strategiyalarni taqdim etishdan oldin, so‘z nimani anglatishini “bilish” kerakligini bilish tavsiya etiladi. Tadqiqotlarda so‘zni “bilish”da quyidagi qobiliyatlarni egallanishi keltiriladi: 1.So‘zning og‘zaki yoki yozma shaklda taniy olish; 2. O‘z xohishiga ko‘ra eslash; 3.So‘zni tegishli ob’yekt yoki tushuncha bilan bog‘lash; 4.Muayyan grammatik shaklda qo‘llash; 5.So‘zni talaffuz qilish va yozish; 6.Uni to‘g‘ri birikmalarda qo‘llash; 7. Rasmiy uslubning tegishli darajasida ishlatish.

Adabiyotlar tahlili:

N.Ellis va A.Beatonlar “nega ayrim chet tildagi so‘zlarni o‘rganish boshqalarga nisbatan oson kechadi, nega inglizcha “apple” (olma) so‘zini o‘rganish oson, lekin “faith” (e’tiqod) so‘zini o‘rganish ancha qiyin kabi savollar bilan so‘z o‘rganishning qiynchiliklarini tushuntiradilar. Albatta bu savolning javobi mavhum so‘zlar qiyinroq tushuniladi bo‘ladi. Ma’lumki, “eng muhim dastlabki so‘zlar asosiy darajadagi atamalardir. Inson ongi avtomatik ravishda mavhum darajadan emas, balki ana shu konkret asosiy darajadan boshlanadi”. Buning asosiy sababi shundaki, mavhum so‘z o‘z tabiatiga ko‘ra murakkabroq, konkret so‘z esa soddadir. Til o‘rganishda so‘zning qiyinligi mantiqiy emas, balki psixologik xarakterga ega. Shu nuqtai nazardan xulosa qilishimiz mumkinki, so‘z psixologik jihatdan sodda bo‘lsa-da, tuzilishi va ma’nosiga ko‘ra murakkab ko‘rinishi mumkin. Psixologik va mantiqiy qiyinchilik o‘rtasidagi farqlarni aniqlashga urinib ko‘rdik. Masalan, banan mantiqiy tahlil nuqtai nazaridan murakkab leksik birlik bo‘lishi mumkin, chunki u ko‘plab xususiyatlarga ega, masalan, shakli, rangi, ta’mi va hidi. Boshqa tomondan, bu psixologik nuqtai nazardan oddiy narsa bo‘lishi mumkin, chunki narsani tushunishning qiyinligi o‘quvchining qancha sifatlarga ega ekanligiga emas, balki uning xususiyatlarini qanchalik tanib olishiga asoslanadi [11].

G. Yule leksikani o‘rganishda konseptual ma’noga ko‘p e’tibor qaratish “tilshunoslar so‘zlarning ma’nosini o‘rganayotganda, odatda konseptual ma’noni tavsiflashga harakat qiladilar va so‘zlarning assosiativ ma’nosiga jiddiy e’tibor qaratmaydilar” deb ta’kidlaydi. Konseptual ma’no ma’noning asosiy tarkibiy qismlarini - so‘zning so‘zma-so‘z ishlatilishini qamrab oladi. Masalan, igna so‘zining konseptual ma’nosi og‘riqli so‘zini emas, balki ingichka, o‘tkir va asbob so‘zlari bilan ifodalanadi. Biz yangi so‘zni o‘rganayotganimizda, so‘zni ba’zi atributlar bilan bog‘lashga moyilmiz. Shuning uchun, bizga yangi o‘quv materiali taqdim etilganda, uni o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lish uchun biz uning xususiyatlarini hisobga olgan holda ushbu element bilan bog‘liq assosiatsiyalarni shakllantirishga harakat qilamiz [8,7]. Mazkur misol orqali nima uchun mavhum so‘zlar nisbatan qiyin ekanligini tushunishimizga oydinlik kiritadi. Bu so‘zlar bir nechta nomoddiy atributlar bilan bog‘lanishi kerak, konkret so‘zlar esa bir nechta moddiy atributlar bilan osongina bog‘lanishi mumkin.

Bu ko‘nikmalarni shakllantirish esa o‘qituvchining vazifasiga kiradi. Biroq, bu holatda eng katta muammo - bu leksikani o‘rgatishda amaliy mashg‘ulotlarning yetarli darajada bo‘lishi va katta hajmdagi lug‘atni o‘rgatish uchun tom ma’noda o‘quv soatlarini yetarlicha bo‘lishidir. Mazkur muammoni hal etish uchun ilmiy tadqiqot olib borish jarayonida to‘plagan tajribalarimizga tayangan holda pediatr talabalarning chet tilni egallaganlikning B1 va B2 darajalariga mos ravishda mashqlar majmui ishlab chiqildi va tasniflandi.

Sohaviy ingliz tili leksikasini o‘rgatishning boshlang‘ich bosqichida darslik va qo‘llanmalar asosan leksikani o‘zlashtirish maqsadlari va talabalar o‘rganadigan so‘zlarni qamrab oladi. Taqdim etiladigan leksikaning ko‘p qismi yuqori chastotali so‘zlar bo‘lib, talabalardan produktiv va reseptiv shaklda beriladigan topshiriqlarni bajarishlari talab qiladi. Talabalarga kichik miqdordagi leksika taqdim etiladi va har bir so‘zning nisbatan katta ahamiyatini tushunishga yo‘naltiriladi. Yangi so‘zlarning taqdimoti va mashq qilishning turli usullarini amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llash kerak bo‘ladi [10]. Kvizlar va testlar orqali talabalarni o‘quv materiallariga kiritilgan leksikani reseptiv va produktiv planda o‘rganishlarini nazorat qilish zarur bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada tillar ta’limshunosligi (lingvodidaktika) tarixida leksikani o‘rgatishning retrospektiv sharhi

muhokama qilininadi. Leksikani o'rgatishning retrospektiv sharhi tarixi va o'rganilganlik darajasiga oid yondashuvlar o'rganiladi.

Tahlillar va natijalar.

Ingliz tili o'qitishning o'rta bosqichida talabalarning o'qish va tinglab tushunish ko'nikmalari yozuv va gapirishni egallashdan oldinga siljishi boshlanishi kerak, chunki reseptiv ko'nikmalarning shakllanishi, ayniqsa, ingliz tilini o'rganish sharoitida osonroq kechadi, chet tilda fikrini bayon etishni o'rganishdan ko'ra axborotni qayta ishlash unchalik ko'p mehnat talab qilmaydi. Shu sababli, o'qituvchining birinchi vazifasi talabalar bilan reseptiv va reproduktiv (aktiv va passiv) leksika o'rtasidagi farq haqida suhbatlashishdir. Bundan tashqari, yangi so'zlarni o'rganayotganda, aktiv va passiv shaklda foydalanish uchun zarur bo'lgan leksika o'rtasidagi farqni aniqlashga o'rgatish talab etiladi [4,6].

O'qituvchining ikkinchi vazifasiga talabalarni so'z boyligini yaxshiroq o'zlashtirishni mustaqil o'rganishga o'rgatish masalasiga ham e'tibor berishi kiradi. O'rta bosqich uchun tavsiya etilgan matn materiallari katta hajmdagi yangi lug'atni o'z ichiga oladi, shuning uchun auditoriyada har bir yangi so'z bilan tanishtirish va mashq qildirishga vaqt yetmaydi. Talabalarga yangi so'zlar bo'yicha nimani o'rganishlari kerakligini tushunishga yordam berishga e'tibor qaratish zarur. Har xil turdagi ingliz tili mashg'ulotlarida yangi so'zlar bo'lishi sababli, talabalarning ushbu masalalarga diqqatini qaratishi uchun talabalarga ko'proq savollar berish va javob qaytarish malakalarini rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

Xulosa

O'qituvchining uchinchi vazifa esa, talabalarni lug'atni o'zlashtirishlariga ko'proq e'tibor berishga undashi bo'lib, bu baholash nizomining bir qismi sifatida olinganligini ta'kidlash zarur bo'ladi. Muntazam, qisqa kvizlar talabalarni har kuni topshiriqni bajarganligini tekshirishdan ko'ra, lug'atni o'rganishga odatlantirishi bilan samarali hisoblanadi. Bu borada o'qituvchi kviz va testlarning reseptiv yoki reproduktiv nutqni o'zlashtirishga yoki faqat kontekstda tushunishga yo'naltirilganligini farqlab berishi shart.

Sohaviy ingliz tilini o'qitishning yuqori bosqichida talabalarning ingliz tilida o'qish va tushunish malakasini egallashlari uchun katta miqdordagi reseptiv lug'at zarur bo'ladi, chunki chet til auditoriyadan tashqarida qo'llaniladi. Tinglovchilar, shuningdek, autentik ingliz tilidagi materiallar bilan ko'proq ishlashlari va darsliklar bilan kamroq ishlashlari kerak, chunki aynan shu jarayonda talabalar tabiiy ravishda katta miqdordagi yangi so'zlarga duch kelishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dudley-Evan, T. & St. John M.J. Developments in English for Specific Purposes: A multi-disciplinary approach. – Cambridge: Cambridge University Press. 1998.–P.301

2. Ellis N.C. Vocabulary acquisition: the implicit ins and outs of explicit cognitive mediation / In Ellis N.C. (Ed.), Implicit and Explicit Learning of Languages. London: Academic Press. 1994.;

3. Epstein R.M. Defining and assessing professional competence//JAMA. 2002; –P. 226–35;

4. Hintzman D. L., Caulton D. A. & Levitin D. J. Retrieval dynamics in recognition and list discrimination // Further evidence of separate processes of familiarity and recall. Memory & Recognition, 1998, 449-462.

5. Rashidova N.X. Development technologies of medical students' lexical competence in English classes// "International journal of advanced research in management and social sciences" Philippines-2022, Pp. 117-120.

6. Rashidova N.X. Ingliz tili darslarida talabalarning leksik kompetensiyasini rivojlantirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish//"NamDU axborotnomasi" 4-son. Namangan- 2022, 627-630-betlar.

7. Rashidova N.X. The use of modern information technologies in teaching English vocabulary// "NamDU axborotnomasi" maxsus son. Namangan- 2022, 731-734-betlar.

8. Rashidova N.X. Learning English// darslik. Namangan-2024

9. Rashidova N.X. Intercultural communication// Uslubiy qo'llanma. Namangan-2022.

10. Rashidova N.X. Pediatriya yo'nalishi talabalari uchun ingliz tilidan matn va mashqlar to'plami// Uslubiy qo'llanma. Namangan-2022

11. Rashidova N.X. Essential English for medical students//Uslubiy qo'llanma. Namangan-2022.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Usubjonova Soraxon Odiljon qizi
Xolmirzayeva Madina Akramjonovna
Andijon davlat universiteti

TEZKORLIK VA CHAQQONLIK SIFATLARINI MAKTAB O'QUVCHILAR ORGANIZMIDA JISMONIY TAYYORGARLIK ASOSIDA SHAKLLANISHI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada 6-sinf maktab o'quvchilari hamda sport bilan shug'ullangan o'quvchilarning tezkorlik va chaqqonlik ko'rsatkichlari kuzatuvlar asosida olingan va natijalar keltirilgan.*

Kalit so'z: *jismoniy tayyorgarlik, tezkorlik, chaqqonlik.*

Усубжонова Сорахон Одилжон кызы
Холмирзаева Мадина Акрамжоновна
Андижанский государственный университет

ФОРМИРОВАНИЕ СКОРОСТНО-ЛОВКИХ КАЧЕСТВ ОРГАНИЗМА ШКОЛЬНИКОВ НА ОСНОВЕ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ

Аннотация: *В данной статье представлены результаты, полученные на основе наблюдений между шестиклассниками, занимавшимися спортом, и контрольной группой.*

Ключевые слова: *физическая подготовленность, быстрота, ловкость.*

Usubjonova Sorakhon Odiljon qizi
Kholmirzayeva Madina Akramjonovna
Andijan State University

FORMATION OF SPEED AND AGILITY QUALITIES IN SCHOOL STUDENTS' ORGANISMS ON THE BASIS OF PHYSICAL PREPARATION

Abstract: *This article presents the results obtained on the basis of observations between the 6th graders who played sports and the control groups.*

Key words: *physical fitness, quickness, agility.*

Tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati. Barchaga ma'lumki, o'quvchilarning sport faoliyati ma'lum bir aniq sifat ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadi. Jumladan asosiy jismoniy sifatlarga – muskul kuchi, tezkorlik, chidamlilik, chaqqonlik va egiluvchanlik kiradi. Jismoniy sifatlar rivojlanishi odamning tug'ma xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Shu bilan birga induvidual rivojlanishda shartli refleks mexanizmi yetakchi hisoblanadi. Bu mexanizm o'quvchilarning harakat faoliyatini sifat xususiyatlarini, ularni namoyon bo'lishini o'ziga xosligini va o'zaro munosabatlarini ta'minlaydi.[3;4]

Tezkorlik va chaqqonlik – maktab o'quvchilarining jismoniy rivojlanishi хамда umumiy salomatligi uchun muhim bo'lgan harakat sifatlaridir. Ushbu sifatlar sport mashg'ulotlari, jismoniy tarbiya darslari hamda harakatli o'yinlar orqali shakllanadi va rivojlanadi. Bu esa o'quvchilarning mushak kuchini **va harakat uyg'unligini oshirishda, ularning muvozanat qobiliyatlarini rivojlantirishda,** aqliy faoliyatida tezkor qaror qabul qilishida, vaziyatni baholash va tez harakat qilish qobiliyatini **shakllantirishida hamda ularda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda dolzarb ahamiyatga ega.** Shuningdek o'quvchilarning ta'lim jarayonida **samaradorligida** chaqqonlik va tezkor fikrlash malakasi ularning fanlarni o'zlahstirishini osonlashtiradi. O'quvchilarning sport o'yinlari orqali tezkor qaror qabul qilish va tez harakat qilish qobiliyati shakllanadi va hayotiy **muhim ko'nikmalar shakllanishiga,** bugungi tezkor davrda o'quvchilar har qanday sharoitga moslasha olishiga olib keladi. Ushbu maqolada tezkorlik va chaqqonlikning organizmga ta'siri **natijasida olingan natijalar** ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi.[2;5;6].

Tadqiqot maqsadi. Andijon shahridagi Olimpiya va paraolimpiya sport turlariga tayyorlash markazining 6–

sinf va Andijon viloyati Baliqchi tumanidagi 2-umumiy o‘rtata’lim maktabi 6-sinf o’g’il bolao’quvchilarini tezkorlik hamda chaqqonlik ko‘rsatkichlarini o’rganishdan tashkil topgan.

Tadqiqot vazifasi. Sport bilan muntazam shug‘ullangan hamda sport bilan shug’ullanmagan 6-sinf o’g’il bola o’quvchilarida jismoniy rivojlanishida hamda jismoniy tayyorgarlikning shakllanishida tezkorlik va chaqqonlik sifatlarini ahamiyatini o’rganishdan iborat.

Tadqiqot uslublari. Tadqiqotlarda 6-sinf qiz bola o’quvchilarining jismoniy tayyorgarlik darajasi quyidagi tadqiqotchilar ishlarida keltirilgan uslublar yordamida amalga oshirildi.

Olingan natijalar quyidagi ko’p mualliflar tomonidan e’tirof etilgan uslublar yordamida matematik–statistik qayta ishlandi.

Natijalar *p* marta takroriylikda amalga oshirilgan tajribalar natijalarining *M*±*t* shaklida keltirilgan bo’lib, *M* – o’rtacha arifmetik

qiymat va *t* – standart xatolik qiymatini ifodalaydi.

Shuningdek, tajriba natijalari guruhlar o’rtasidagi qiymatlarning statistik ishonchlilik darajasi Student *t*–mezoni asosida hisoblandi va $p<0,05$, $p<0,01$ qiymatlarda statistik ishonchli deb baholandi. Ikkita yosh guruhi qiymatlari o’rtasidagi farqlanish ishonchlilik darajasi Student mezoni bo’yicha, quyidagi formula yordamida hisoblandi [1;4;5;8;9]:

Formula:

$$t = \frac{\bar{x}_1 - \bar{x}_2}{\sqrt{m_1^2 + m_2^2}}$$

Olingan natijalar va ularning taxlili. Kuzatuvlarda Andijon shahridagi Olimpiya va paraolimpiya sport turlariga tayyorlash markazi 6–sinf o’g’il bola o’quvchilarida va xamda nazorat guruhi sifatida Andijon viloyati Baliqchi tumanidagi 2-umumiy o‘rta ta’lim maktabi 6- sinf o’g’il bola o’quvchilarida tezkorlik ko’rsatkichlardan fishka atrofida yugurish mashqi, hamda ma’lum masofaga qo’yilgan 2 xil rangli to’plarni o’zaro almashtirish mashqi. Chaqqonlik ko’rsatkichlaridan esa 10 ta tenis to’pini havoga otilganda ushlab qolingan to’plar soni va lineka ushlash mashqlari o’rganildi va taxlil qilindi.

Kuzatuvlardan olingan natijalar taxlil qilinganda Andijon shahridagi Olimpiya va paraolimpiya sport turlariga tayyorlash markazi 6 – sinf o’g’il bola o’quvchilari, nazorat guruhi: Andijon viloyati Baliqchi tumanidagi 2-umumiy o‘rta ta’lim maktabi 6- sinf o’g’il bola o’quvchilarida jismoniy tayyorgarlik darajasida sezilarli farqlar mavjudligi kuzatildi.

Jumladan, chaqqo**nlik ko’rsatkichlaridan** tenis to’pini havoda otilganda ushlab qolishi mashqi Andijon shahridagi Olimpiya va paraolimpiya sport turlariga tayyorlash markazi 6–sinf o’g’il bola o’quvchilarida 10 ta tenis to’pidan ushlab qolingan tenis to’plari soni o’rtacha 6,0 tani tashkil qildi. Nazorat guruhi ya’**ni** Baliqchi tumanidagi 2-umumiy o‘rta ta’lim maktabi 6-sinf o’g’il bola o’quvchilarida esa ushbu 10ta tenis to’pidan ushlab qolingan tenis to’plari soni o’rtacha 4,0 ta**ni** tani tashkil etganligi aniqlandi. Olingan natijalar shuni ko’rsatadiki, Olimpiya va paraolimpiya sport turlariga tayyorlash markazi 6–sinf o’g’il bola o’quvchilarida tenis to’pini otilganda ushlab qolgan to’plar soni Baliqchi tumanidagi 2-maktab o’g’il bola o’quvchilarini ushbu to’pni ushlab qolgandagi sonida**n o’rtacha** 2 ta yuqori ekanligi kuzatildi.

Kuzatuvlarimizning navbatdagi bosqichida o’quvchilarning chaqqonlik sifatlarini taxlil qilish uchun lineykani boshlang’ich va ko’satkich barmoqda tutib qolish test–mashqidan foydalanildi. Olingan natijalar shuni ko’rsatadiki, Olimpiya va paraolimpiya sport turlariga tayyorlash makazi 6–sinf o’g’il bola o’quvchilarida lineyka ushlash testi o’rtacha 14,7±0,1smni tashkil qilgan bo’lsa, nazorat guruhini**n**g 6-sinf o’g’il bola o’quvchilarida o’rtacha 19,1±0,1smni tashkil qildi. Ular o‘rtasidagi o’rtacha farq 4,4 smni tashkil etdi. Bunda sport bilan muntazam shug‘ullangan Olimpiya va paraolimpiya sport turlariga tayyorlash markazi 6 – sinf o’g’il bola o’quvchilarida ko’rsatkichining o’rtacha qiymatlari nisbatan yuqori ekanligi kuzatildi.

Navbatdagi kuzatuv natijasi ham o’quvchilarning tezkorlik sifatini tahlil qilish uchun fishka atrofida yugurishdan foydalanildi. Kuzatuv natijasida olingan tahlillar shuni ko’rsatadiki, Olimpiya va paraolimpiya sport turlariga tayyorlash markazi 6-sinf o’g’il bola o’quvchilarida o’rtacha 7,8±0,05 m/sni tashkil qilgan bo’lsa, nazorat guruhi esa bu ko’rsatkich o’rtacha 10,1±0,1m/sni tashkil qildi. Ular o’rtasidagi o’rtacha farq esa 2,3 m/s ni tashkil etdi.

Tezkorlik sifat ko’rsatkichlarini tahlil qilishda yana bir kuzatuv natijasi 2 ta 10 m masofaga 2 xil rangdagi to’p qo’yilib ularni bir-biri bilan almashtirish testi mashqi o’tkazildi. Ushbu kuzatuv natijasi shuni ko’rsatdiki, Olimpiya va paraolimpiya sport turlariga tayyorlash markazi o’g’il bola o’quvchilari bu ko’rsatkich o’rtacha 8,3±0,1m/sni tashkil etgan bo’lsa, nazorat guruhiesa o’rtacha 10,08±0,1m/s ni tashkil etdi. Ular o’rtasidagi o’rtacha farq 1.7 m/s ni tashkil etdi.

Olingan natijalar taxlili asosidagi o’rtacha ko’rsakichlar statichtik jixatidan muqarrar emas.

Xulosalar. Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, o’quvchilarning jismoniy rivojlanishida tezkorlik hamda chaqqonlik sifatlarining shakllanishi uchun jismoniy mashqlar bilan muntazam shug‘ullanishularning nafaqat sog‘lom bo‘lishini ta’minlaydi, balki o‘ziga ishonchini va jismoniy faolligini oshirishga ham yordam beradi. O’g’ilbola o’quvchilarning tezkorlik bilan topshiriqlarni bajarishi va dars materiallarini o‘zlashtirishi ularga bilim olish jarayonida muvaffaqiyatli bo’lishiga ham katta yordam beradi.

Takliflar. O'g'il bola o'quvchilarda chaqqonlik va tezkorlik sifatlarini rivojlantirish juda muhim hisoblanadi. Shuning uchun o'quvchilarning jismoniy tarbiya darslarini takomillashtirish, xarakatli o'yinlarni joriy etish, o'quvchilarning reaktsiya tezligini tekshiruvchi testlardan foydalanish, ularning jismoniy faolligini oshirish bo'yicha tavsiyalar berish, jismoniy faolligini rag'batlantirish va jismoniy faollikni targ'ib qiluvchi tadbirlarni tashkil etish hamda ularda sog'lom turmush tarzini shakllantirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1.Аулик,И.В. Определение физической роботоспособиости и клинике и спорте// Москва, 1990. – 192 с.

2. Альбицкий В.Ю., Антонова Е.В., Баранов А.А., Бондарь В.И., Волков И.М., Зелинская Д.И. Методические рекомендации по изучению заболеваемости детского населения // Москва, 2009. – 40 с.

3.Бальсевич В.К. Онтокинезиология человека // Москва. – Изд–во «Теория и практика физической культуры», 2000. – 275 с.

4.Рахимов М. И. Показатели физического развития детей и подростков 5–16 лет // Филология и культура. – 2011. – №24. – С.57–59.

5.Сафронов А.А., Арисланов И.Т. Динамика физического развития и физической подготовленности учащихся 5–6 классов // Молодой ученый. – 2013. – №7. – С.455–458.

6.Халилов Э.Х., Зайнобиддинов А.Э., Хушматов Ш.С., Жисмоний машклар физиологияси // Андижон , 2020. 145-156-Б.

7.Тажибаев С.С. Ёш боксчиларни тайёрлаш тизимида ҳаракатли ўйинларни қўллаш методикаси // Автореферат дисс. ... к.пед.н. – 2017. – С.4–54

8.https://scholar.googleusercontent.com/scholar?q=cache:DiAUaWN1MvYJ:scholar.google.com/+Xolmirzayeva+M.A&hl=ru&as_sdt=0,5

9.https://scholar.google.com/scholar?cluster=4435849169321220257&hl=ru&as_sdt=0,5&scioq=Akbarova+Barchinoy

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Abdullayev Akmal Nasriddinovich
Namangan davlat pedagogika instituti dotsenti

ZAMONAVIY OLIY TA'LIM TIZIMIDA FALSAFA FANINING MA'NAVIY-MA'RIFIY AHAMIYATI

Annotatsiya: *Maqolada zamonaviy oliy ta'lim tizimida falsafa fanining ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Falsafa nafaqat umumiy dunyoqarashni shakllantiruvchi ilmiy asos, balki talabalar ongida axloqiy, estetik va ijtimoiy qadriyatlarni qaror toptirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Maqolada, shuningdek, falsafa fanining zamonaviy ta'lim muhitidagi transformatsiyasi, undagi kompetensiyaviy yondashuv, tanqidiy tafakkur va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni ochib beriladi. Oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarning sifatini oshirishda falsafiy tahlil metodining afzalliklari, u orqali talaba shaxsining intellektual va ruhiy kamoloti ta'minlanish mexanizmlari yoritiladi. Shuningdek, falsafa fanini interfaol usullar asosida o'qitishning pedagogik samaradorligi misollar asosida asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *Falsafa, oliy ta'lim, ma'naviy-ma'rifiy jarayon, tanqidiy tafakkur, interfaol ta'lim, falsafiy tahlil, talaba shaxsi, axloqiy qadriyatlar, zamonaviy ta'lim modeli, kompetensiya.*

Абдуллаев Акмаль Насриддинович
Доцент Наманганского государственного педагогического института

СОВРЕМЕННОЕ ЗНАЧЕНИЕ ФИЛОСОФИИ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ В КОНТЕКСТЕ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: *В статье рассматривается духовно-нравственное значение философии в системе современного высшего образования с научно-теоретической точки зрения. Философия является не только основой формирования общего мировоззрения, но и важным инструментом в формировании моральных, эстетических и социальных ценностей у студентов. В статье также освещаются трансформации философии в современной образовательной среде, роль компетентностного подхода, развития критического мышления и логического анализа. Рассматриваются преимущества метода философского анализа в повышении качества духовно-нравственных процессов в высших учебных заведениях, а также механизмы обеспечения интеллектуального и духовного развития личности студента. Также приводятся примеры педагогической эффективности преподавания философии с использованием интерактивных методов.*

Ключевые слова: *Философия, высшее образование, духовно-нравственные процессы, критическое мышление, интерактивное обучение, философский анализ, личность студента, моральные ценности, современная образовательная модель, компетенция.*

Abdullayev Akmal Nasriddinovich
Associate Professor of Namangan State Pedagogical Institute

THE PHILOSOPHICAL AND EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF PHILOSOPHY IN THE MODERN HIGHER EDUCATION SYSTEM

Annotation: *This article scientifically and theoretically analyzes the spiritual and educational significance of philosophy in the modern higher education system. Philosophy is not only a scientific foundation that shapes the general worldview, but also serves as an important tool for instilling ethical, aesthetic, and social values in students' minds. The article also highlights the transformation of philosophy in the modern educational environment, its role in developing competence-based approaches, critical thinking, and logical reasoning skills. Furthermore, the advantages of philosophical analysis methods in improving the quality of spiritual and educational processes at higher education institutions are discussed, along with the mechanisms ensuring the intellectual and spiritual development of the student personality. The pedagogical effectiveness of teaching philosophy using interactive methods is also substantiated with examples.*

Keywords: *Philosophy, higher education, spiritual and educational process, critical thinking, interactive learning, philosophical analysis, student personality, ethical values, modern educational model, competence.*

Kirish.

Zamonaviy globallashuv sharoitida oliy ta’lim tizimi nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, balki talabalarning ma’naviy-ma’rifiy salohiyatini yuksaltirishga ham alohida e’tibor qaratmoqda. O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha mo‘ljallangan oliy ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasida oliy ta’lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, o‘quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tkazish va ta’lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish kabi maqsadlar belgilangan. Bu esa, o‘z navbatida, talabalarning nafaqat kasbiy, balki ma’naviy va intellektual jihatdan ham yetuk shaxslar sifatida shakllanishini taqozo etadi. Falsafa fani, o‘zining chuqur nazariy asoslari va tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan metodlari bilan, talabalarning ma’naviy-ma’rifiy kamolotida muhim o‘rin tutadi[1]. Ushbu fan orqali talabalar jamiyatdagi murakkab ijtimoiy, axloqiy va estetik muammolarni anglash, ularni tahlil qilish va hal etish ko‘nikmalarini egallaydilar. Shuningdek, falsafa fani talabalarda mustaqil fikrlash, mantiqiy tahlil qilish va hayotiy qarorlar qabul qilishda mas’uliyatli yondashuvni shakllantiradi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar soni sezilarli darajada oshgan. Bu esa, ta’lim jarayonida ma’naviy-ma’rifiy tarbiyaning ahamiyatini yanada kuchaytiradi. Falsafa fani, aynan shu ehtiyojni qondirishda, talabalarning shaxsiy va ijtimoiy mas’uliyatini oshirish, ularni yuksak axloqiy qadriyatlar asosida tarbiyalashda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Kelajakda, oliy ta’lim tizimida falsafa fanining o‘rni yanada mustahkamlanib, u talabalarning ma’naviy-ma’rifiy rivojlanishida asosiy omillardan biriga aylanishi kutilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, jamiyatda intellektual salohiyatli, axloqiy barkamol va ijtimoiy mas’uliyatli shaxslarni tarbiyalashga xizmat qiladi. Zamonaviy oliy ta’lim tizimida falsafa fanining ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati tobora ortib bormoqda[2]. Chunki bugungi kunda nafaqat kasbiy malakali, balki mustaqil fikrlay oladigan, ijtimoiy mas’uliyatga ega, ma’naviy barkamol shaxsni tarbiyalash dolzarb masalaga aylangan. Globallashuv, raqamli transformatsiya, madaniy diversifikatsiya sharoitida yoshlarning ongiga har xil g‘oyalar kirib kelayotgan bir vaqtda, ularning tanqidiy tafakkuri, axloqiy immuniteti va falsafiy dunyoqarashini shakllantirish zarurati kuchaymoqda. Aynan falsafa fani ana shu ehtiyojni qondirishda muhim vosita bo‘lib, talabalarning umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida kamol topishiga, ularni axloqiy, estetik va mafkuraviy jihatdan sog‘lom ruhda tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu jarayon O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari va yangi avlod universitetlar konsepsiyasi bilan ham bevosita bog‘liq bo‘lib, jamiyatda barqaror ma’naviy muhitni yaratishda falsafaning tutgan o‘rni dolzarb ilmiy-amaliy masala sifatida qaralmoqda. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimida so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar falsafa fanining ma’naviy-ma’rifiy ahamiyatini yanada yuksaltirishga qaratilgan. Jumladan, 2020–2025 yillarga mo‘ljallangan “Ta’lim sohasini rivojlantirish strategiyasi”, Prezidentning “Ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish orqali ta’lim sifatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari asosida oliy ta’lim muassasalarida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, tafakkur madaniyatini rivojlantirish va ma’naviy yetuklikni ta’minlash asosiy maqsadlarga aylangan[3]. Falsafa fani bu borada nazariy tayanch, tanqidiy fikrlashni shakllantiruvchi vosita sifatida yangicha mazmun bilan boyitilmoqda. Ayniqsa, “Yangi O‘zbekiston – yangi ta’lim” tamoyili asosida ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishdagi fanlarga, jumladan, falsafaga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgarib, uni innovatsion, interfaol, tahliliy metodlar bilan o‘qitish yo‘lga qo‘yilmoqda. 2022-yilda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlangan namunaviy o‘quv dasturlarida falsafa fanining kontseptsiyasi yangilandi, unda insonparvarlik, global muammolar, madaniyatlar muloqoti, axloqiy tafakkur kabi mavzular keng qamrovli tarzda kiritildi. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida “Falsafa va hayot” turkumidagi ma’naviy-ma’rifiy loyihalar, ilmiy seminarlar, bahs-munozarali mashg‘ulotlar orqali talabalar ongida falsafiy tafakkur, fuqarolik pozitsiyasi, tanqidiy yondashuv va ijtimoiy mas’uliyat singari qadriyatlar mustahkamlanmoqda[4]. Bu islohotlar, o‘z navbatida, talaba-yoshlarni bilimdon mutaxassis bo‘lish bilan birga, yuksak ma’naviyatli va mas’uliyatli shaxs sifatida tarbiyalashni ko‘zda tutadi.

Zamonaviy oliy ta’lim tizimida falsafa fanining ahamiyati tobora ortib bormoqda, bu esa o‘z navbatida, sohaning rivojlanish istiqbollarini ko‘rsatadi. Falsafa nafaqat bilimlarni o‘rganish, balki talabalarga jamiyatdagi axloqiy, ijtimoiy va madaniy masalalarda puxta fikr yuritish, mustaqil qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Shu bois, falsafa fani, ayniqsa, zamonaviy globalizatsiya, raqamli transformatsiya va ijtimoiy o‘zgarishlar sharoitida ta’lim tizimining markaziy qismiga aylanishi zarur. Zamonaviy oliy ta’limda falsafa fanining rivojlanishi uchun eng asosiy istiqbollardan biri – xalqaro tajriba va ta’lim dasturlarini integratsiyalashdir. Yevropa Ittifoqi va AQSh kabi rivojlangan mamlakatlar tajribasida, falsafa fanining ilmiy, axloqiy va madaniy ahamiyati keng o‘rganilgan[5]. Bu tajriba, ayniqsa, talabalarning dunyoqarashini kengaytirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishga asoslangan. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ham falsafani mutaxassisliklarning o‘quv dasturlariga kiritish, jahon falsafasining zamonaviy g‘oyalari va yondashuvlari bilan tanishtirish, shuningdek, falsafiy ta’lim metodlarini takomillashtirish uchun xalqaro hamkorlikni rivojlantirish zarur. Bugungi kunda sun’iy intellekt, raqamli texnologiyalar va onlayn ta’lim tizimlarining rivojlanishi falsafa fanining ta’limdagi o‘rnini o‘zgartirishga imkon

yaratadi. Masalan, interaktiv platformalar, onlayn munozaralar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari talabalarga faqatgina nazariy bilimlarni berishdan tashqari, real hayotdagi etik va axloqiy muammolarni tahlil qilish imkoniyatini beradi. Raqamli texnologiyalar yordamida, talabalar falsafiy munozaralarda ishtirok etishlari, o'z qarashlarini yanada mustahkamlashlari va falsafiy g'oyalarni yanada chuqurroq anglashlari mumkin. Bu esa ularning bilimiga yangi o'lchov qo'shadi va ijtimoiy mas'uliyat, empatiya kabi sifatlarni shakllantiradi. Falsafa fani nafaqat bilim o'rgatadi, balki talabalarda dunyoqarashni, axloqiy mas'uliyatni va ma'naviy qiymatlarni rivojlantiradi. Zamonaviy jamiyatda ma'naviy bo'shliq va ahloqsizlik kabi muammolarni hal qilishda falsafaning roli katta. Falsafiy o'qitish, talabalarni axloqiy qarorlar qabul qilishda yordam beradi, ularni ijtimoiy mas'uliyatga, o'z xalqi va jamiyatiga g'amxo'rlik ko'rsatishga o'rgatadi. Shu bois, ta'lim dasturlarida ma'naviy-axloqiy yondashuvlarni kuchaytirish, ayniqsa, ijtimoiy mas'uliyat va barqaror rivojlanish kabi muhim qadriyatlarni o'rgatish talab etiladi. Falsafa fani zamonaviy ta'limda innovatsion pedagogik metodlar va yondashuvlar bilan uyg'unlashgan holda o'qitilishi kerak. Masalan, falsafiy debatlar, interfaol munozaralar, guruh ishlari, kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan metodlar talabalarning mustaqil fikrlash, argumentlash va qaror qabul qilish ko'nikmalarini oshiradi. Ushbu metodlarning ta'lim tizimiga tatbiq etilishi, ayniqsa, yosh avlodni tanqidiy fikrlashga, jahon falsafasini o'rganishga va ijtimoiy mas'uliyatni anglashga yordam beradi. Falsafa fani nafaqat ta'lim jarayonida, balki ijtimoiy va madaniy sohada ham muhim rol o'ynaydi. Falsafiy yondashuvlar orqali, yoshlarni jamiyatdagi asosiy masalalarni tahlil qilishga, axloqiy nuqtai nazardan javob berishga, va muammolarni hal qilishda innovatsion fikrlashga o'rgatish mumkin. Shunday qilib, falsafa fani nafaqat oliy ta'lim tizimining, balki butun jamiyatning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy oliy ta'lim tizimida falsafa fanining rivojlanish istiqbollari turli sohalarda, shu jumladan, pedagogika, axloqshunoslik, ijtimoiy taraqqiyot va global masalalar bo'yicha mustahkam poydevor yaratishga xizmat qiladi. Bu esa yoshlarning dunyoqarashini kengaytiradi, ularda tanqidiy fikrlash, ma'naviy-axloqiy mas'uliyatni shakllantiradi va kelajakda ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiladigan avlodni tarbiyalaydi.

Adabiyotlar tahlili. Oliy ta'lim tizimida falsafa fanining ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatiga doir tadqiqotlar keng qamrovli bo'lib, turli zamon va makonlarda ishlab chiqilgan nazariy yondashuvlar bilan boyitilgan. G'arb falsafasida, xususan, I. Kant, G. Gegel, M. Nussbaum kabi mutafakkirlar ta'limning asosiy vazifasi insonni axloqiy, tafakkurli mavjudot sifatida kamol toptirish ekanligini ta'kidlaydi[6]. Yu. Xabermasning "kommunikativ aql" nazariyasi esa o'zaro muloqot orqali ijtimoiy ong va ma'naviyatni shakllantirish konsepsiyasiga asoslanadi. Shu bilan birga, O'rta Osiyo mutafakkirlari – Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Abdurauf Fitratlarning asarlarida ham ilm, axloq va ma'naviyat o'zaro bog'liq ravishda talqin qilinadi[7].

So'nggi yillarda O'zbekiston olimlari tomonidan falsafa fanining ta'limdagi ma'naviy-ma'rifiy vazifalari bo'yicha izchil tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, M.D. Ilxomov, I. Qudratov, G'. To'raqulov singari olimlar o'z asarlarida falsafaning tanqidiy tafakkur, insoniylik qadriyatlari va tafakkur madaniyatini shakllantirishdagi o'rniga e'tibor qaratishgan[8]. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2016-2023 yillar oralig'ida O'zbekistonda "falsafa" so'zini o'z ichiga olgan ilmiy maqolalar soni ikki, uch barobar ortgan, bu esa mavzuga ilmiy qiziqish oshganini anglatadi (Google Scholar, 2023). Jahon miqyosida esa UNESCO hisobotlariga ko'ra, 2022-yilda dunyoning 82 foiz universitetlarida falsafa fani bakalavriat bosqichida majburiy yoki tavsiya etiluvchi fan sifatida o'qitiladi. Bu ko'rsatkichning 2030-yilgacha 90 foizgacha ortishi bashorat qilinmoqda, bu esa falsafiy bilimlarga ehtiyojning ortib borayotganidan dalolat beradi. Oliy ta'lim tizimida falsafa fanining o'rni va uning ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati so'nggi yillarda ko'plab ilmiy izlanishlarning markaziy yo'nalishiga aylangan. Ushbu tadqiqotlar nafaqat O'zbekistonda, balki xalqaro miqyosda ham dolzarb ilmiy-analitik muammolardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Avvalo, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "Falsafa fanini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, shuningdek, 2020-yildagi "Ma'naviyatni yuksaltirish va ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida"gi farmoni ushbu fan doirasidagi ilmiy faoliyatni kuchaytirishga xizmat qilgan. Natijada 2019-2023 yillar davomida respublika oliy ta'lim muassasalarida falsafa faniga bag'ishlangan ilmiy maqolalar soni ikki, uch barobarga oshgan (O'zbekiston Milliy kutubxonasi statistikasi, 2023). Akademik M.D. Ilxomovning izlanishlarida falsafaning shaxsiy ongni rivojlantirishdagi epistemologik va aksiologik jihatlari tahlil etiladi. Unga ko'ra, falsafa nafaqat tafakkur madaniyatini shakllantiradi, balki inson ma'naviyatining barqaror asosini ham belgilaydi. G'. To'raqulov va I. Qudratovlarning tadqiqotlarida esa zamonaviy ta'limda falsafaning tanqidiy fikrlash, hayotiy pozitsiyani aniqlash va ijtimoiy ongni rivojlantirishdagi vazifalari chuqur o'rganilgan. Bu olimlarning fikriga ko'ra, ayniqsa postpandemiya davrida talabalarning psixologik mustahkamligini tiklash va ularni ijtimoiy ongli shaxs sifatida shakllantirishda falsafiy yondashuv hal qiluvchi rol o'ynaydi. Xalqaro miqyosda esa M. Nussbaum (AQSh) o'zining "Not for Profit: Why Democracy Needs the Humanities" asarida falsafa fanining demokratik jamiyatni shakllantirishdagi o'rnini asoslab bergan. Uning fikricha, insoniyatni ijtimoiy ongli, axloqiy jihatdan yetuk va empatik shaxs sifatida shakllantirishda falsafa asosiy

